



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH
RESPUBLIKA ILMIY-METODIK
MARKAZI

XALQARO ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYANING
ILMIY MAQOLALAR TO'PLAMI

TA'LIMDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR:



MUAMMOLAR,
YECHIMLAR
VA ISTIQBOLLAR

2024-yil 28-iyun

✉ info@trm.uz 🌐 📱 📺 📷 📺 trm.uz

📍 Toshkent shahar, Navoiy ko'cha 30-uy



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH
RESPUBLIKA ILMIY-METODIK
MARKAZI

TA'LIMDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR: MUAMMOLAR, YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYANING
ILMIY MAQOLALAR TO'PLAMI

2024-YIL 28-IYUN

UO'K: 37.004

KBK: 74.244.3

“Ta’limda zamonaviy texnologiyalar: muammolar, yechimlar va istiqbollar” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to’plami.
Toshkent 2024-yil 28-iyun, 843 bet.

Tahrir hay’ati:

Pardayeva Mexriniso Doniyarovna
Ortikov Azizbek Ulug‘bekovich
Kurbaniyazov Shaxzodbek Karimovich
Maxmudov Anvarjon Zokirovich
Muxammadjanov Shaxriyor Solijon o‘g‘li
Axmadaliyev Doniyorbek Kambaraliyevich
Mamatov Alisher Shavkat o‘g‘li
Abdullayev Javohir Abdumalik o‘g‘li
Sangirova Zamira Bozorboyevna
Elmurodov Alimardon Nuriddinovich
Abdiraimov Shohruh Samad o‘g‘li

Maqolalarda foydalanilgan misol, ko‘chirma, statistik ma’lumotlar, ilmiy-nazariy fikrlar va ma’lumotlar aniqligi hamda stilistikasiga mualliflar javobgardir.

MUNDARIJA

I. BOB. TA'LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR: INNOVATSIYALAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR

Soʻz boshi	17
Akmalova A.N. <i>Ta'lim jarayonini raqamlashtirishda talabalar salohiyatining oshishi</i>	18
Aminov I.B. <i>Bulutli texnologiyalarning dasturiy ilovalari asosida ta'lim tizimi samaradorligini oshirish asoslari</i>	23
Atamuradova D.R. <i>Talabalarda "umumiy topologiya" bo'limini o'zlashtirishda mobil ilovalarning o'rni</i>	27
Baxovidinova G.T. <i>Mediamakondagi yangilanish va sun'iy intellektning ta'limga ta'siri: kelajakka tayyorgarlik</i>	33
Fayzullayeva D.J. <i>Zamonaviy ta'limni tashkil etish davr talabi</i>	37
Jumamuratova G. <i>From digital technologies in the educational system prospects</i>	41
Kabilov D., Sodiqov H. <i>Zamonaviy texnologiyalar muhitida o'quvchilar tarbiyasida intizom va erkinlik muvozanati</i>	47
Karakhanyan L. <i>Advancement of Higher Education Institutions in the Digital Economy: The Business Model for the University of the Future</i>	56
Kayumova G.A. <i>Fraktallarga asoslangan vizual baholash tizimi</i>	70
Mirzaakhmedova M. <i>The evolution and impact of digital technology in education</i>	74
Nuraliyeva Z.A. <i>XXI asr axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish muammolari</i>	80
Nursaidov N.Y. <i>Sun'iy intellektdan foydalanib ta'lim jarayonlarini raqamlashtirishning xorij tajribasi</i>	84

Qulmatova S. <i>Ta'lim sohasida foydalaniladigan raqamli texnologiyalar (ta'lim platformalari)da ma'lumotlar almashish modellari</i>	90
Qurbonqulova S.B. <i>Ta'limda sun'iy intellekt texnologiyalarining o'rni va ahamiyati</i>	95
Raxmonova M.R., Rustamov S.Sh. <i>Dasturiy injiniringga kirish fanini o'qitishda bulutli texnologiyalardan foydalanish</i>	97
Sabirova D.A. <i>Zamonaviy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarning ahamiyati</i>	103
Shakirova S.T. <i>Ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish</i>	108
Shamuratov R.Sh., Yusupova G.O. <i>Ta'lim tizimida raqamli marketing strategiyalarini qo'llashning ahamiyati va roli</i>	112
Shukurboyeva O.N. <i>Adabiyot va adabiy ta'limda sun'iy intellektning qo'llanishi</i>	116
Sirojiddinova I.M. <i>System-cluster theory and technology for improving the quality of distance education at university</i>	122
Suyumov J.Y., Nuraliyeva Z.A. <i>Ta'lim jarayonida moodle tizimini qo'llanilishi va undan foydalanishning o'ziga xosligi</i>	126
Tagayev Q.K. <i>Ta'lim jarayonida sun'iy intellekt va virtual borliq texnologiyalarini qo'llash</i>	130
Usanov Y.D., Otoboyeva A.Sh., Artikov F.S. <i>Algebra va geometriya darslarini tashkillashtirishda sun'iy intellektlardan foydalanishning ahamiyati</i>	135
Usmonov A.I. <i>Oliy ta'lim muassasasi talabalarining ijodiy kompetentlikni rivojlantirishda mobil ta'lim platformasining o'rni va ahamiyati</i>	139
Xalilov B. <i>O'zbekistonda maktabdan tashqari ta'lim tizimini raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish masalalari.....</i>	148
Yaxshiboyeva Sh.B. <i>Jahon axborot resurslari haqida umumiy tushuncha</i>	153
Zokirov S.Z. <i>Ta'limda raqamli texnologiyalar orqali monopoliyani oldini olish chora tadbirlari</i>	159

Адизов С. Илм-фан, таълим, ишлаб чиқариш ва бизнес интеграцияси жараёнлари ва инновацион тузилмалар	163
Исмаилов Р.З. Эффективность технологий искусственного интеллекта и иммерсивных средств (vr, ar и mr) в образовании	167
Кузиев Б.Н., Муртазин Э.Р., Касимов А.М. Информационные технологии для устойчивого развития: анализ трендов и возможностей	171
Олимжонова Д.О. Сунъий интеллект тизимларидан фойдаланиб шахсга ва касбга йўналтирилган таълимни ташкил этиш	174
Сагдуллаев Ш.К. Искусственный интеллект в образовании: автоматизация оценки и обратной связи	179
Сейдуллаев А.К., Максатов С.М. Упрощение центральных кривых второго порядка с помощью программного обеспечение “GeoGebra”	185
Содиқов Р., Артикова М. Некоторые аспекты внедрения технологий виртуальной и дополненной реальности в образование	190
Якубова Н.С. Интеллектуал бошқариш тизимларида квант алгоритмларини қўллаш	195

II. BOB. TA'LIMGA OID MULTIMEDIA VA INTERFAOL RESURSLARNI YARATISH TEXNOLOGIYALARI HAMDA ULARNI AMALIYOTGA TATBIQ ETISH MASALALARI

Bekchonova Sh.B. Kiberpedagogikada pedagogik dasturiy vositalar, raqamli ta'lim resurslari va multimediali kontentlarni yaratish	200
Ismoilov N.K., Ravshanov Y.R. Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quv dasturiga virtual laboratoriyalarning integratsiyasi	204

Kriskovets A.G., Eshqulov N.O'. <i>Use of interactive resources in teaching the science of "Dry construction mixtures for laying cement-based ceramic tiles"</i>	206
Mansurov U.N., Umarqulova K.B. <i>Maxsus fanlarni o'qitishda elektron ta'lim resurslardan foydalanish masalalari</i>	209
Muxamadjanov Sh.S. <i>ISTE standartlari asosida ta'lim ishtirokchilarining zamonaviy interfaol resurslardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyatlari</i>	213
Niyozova G.E. <i>Zamonaviy dars shaklini yaratishda o'quv filmlaridan foydalanishning ahamiyati</i>	218
Sadikov R., Abidova Sh. <i>Multimedia vositalari va raqamli ta'lim resurslarini yaratish texnologiyalari</i>	221
Ибрагимов Ж.А. <i>Таълим тизимида видео дарсликдан фойдаланиш таълим сифатини ошириш омили</i>	226

III. BOB. RAQAMLI TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH: MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR

Baxriddinova O'. <i>Data science sohasining maktab ta'limidagi ahamiyati</i>	230
Baxronova D.K., Umirova D.I. <i>Difficulties and prospects of foreign language distance learning</i>	235
Berdimurodov Sh.A. <i>Ta'limga raqamli texnologiyalarni joriy etishda o'qituvchilarning AKT kompetensiyasi</i>	238
Boymurodov B.E. <i>Raqamlashtirilgan ta'lim muhitida texnologik ta'lim yo'nalish talabalarini ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish</i>	243
Chulliyev S., Rayimova M., Pirmamatova N. <i>Raqamli ta'limni boshqarish: muammolar va istiqbollar</i>	247
Imamaliyev U.T., Imamaliyev A.T. <i>Ta'lim tizimida uyali aloqa vositalaridan tartibli va samarali foydalanish muammolari</i>	252
Madatboyeva K.I. <i>Ta'lim tizimida sun'iy intellektdan foydalanish. imkoniyatlari va muammolar</i>	257

Mallayev O.U., Qodirov R.R. <i>Raqamli ta'limni rivojlantirish yo'lida yuzaga keladigan muammolar va ularni hal qilish usullari</i>	262
Nomozov H.S. <i>The Role of Mobile Education in Upgrading the Qualifications of Teaching Staff in the Higher Education System</i>	266
Rasulov A. <i>Yangi O'zbekistonda axborot makonidagi transformatsiyalashuv jarayonlarining ma'naviy-axloqiy asoslari</i>	272
Saidaxmedova N.I., Kamalov A.J., Jabborov J.R. <i>Yangi O'zbekiston: Raqamli iqtisodiyot va raqamli ta'lim muhitida talabalarining raqamli ko'nikmalarini shakllantirish masalalari</i>	279
Saidaxmedova N.I., Xusniddinov M.M. <i>Talabalarni o'qitish jarayonida elektron ta'lim muhitidan foydalanishning tavsifiy mohiyati</i>	284
Valiyev Sh.I. <i>Raqamli ta'limda sun'iy intellektning o'rni</i>	287
Xolmanov U.O., Xolmurodova Sh.M. <i>O'zbekistonda masofaviy ta'limning rivojlanish istiqbollari va tendensiyalari</i>	291
Yuldosheva D.Sh., Nuraliyeva Z.A. <i>Digital education on at the present stage: prospects and problems</i>	296
Абдуллаева Ш.Е., Ибрагимова Д.А. <i>Цифровизация в туризме шаг в новую эпоху развития отрасли</i>	301
Адилова А.Ш., Уразалиев Р.Т. <i>Цифровые образовательные тенденции и их применение в образовании</i>	309
Ражаббаев Р. <i>Таълимни рақамлаштириш истиқболи ва муаммолари</i>	313
Синдоров А.К., Артикова М.А. <i>ARIMA – модель прогнозирования в развитие цифрового образования</i>	317
Суюнов Д.Х., Мурадова Н.У. <i>Взаимосвязь концепций Индустрии 4.0 и Университета 4.0: научные аспекты</i>	325
Юлдашев О.А. <i>Цифровизация образования: становление и значение</i>	331

IV. BOB. TA'LIM JARAYONIDA KIBERXAVFSIZLIKNI TA'MINLASH

Irgasheva D.Y. <i>Sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida ta'lim oluvchilarning xavfsizligini ta'minlash</i>	336
Mamatov A. <i>Raqamli ta'limda kiberxavfsizlikni ta'minlash uchun sun'iy intellektdan foydalanish samaradorliklari</i>	341
Xasanova M.F. <i>Ta'limda tizimida kiberxavfsizlik siyosatini shakllantirish</i>	346
Ахмедова Н.А., Ахмедова Н.Ф., Турсунов О.О. <i>Проблемы обучения кибербезопасности в среде Больших данных</i>	349

V. BOB. PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR: O'QITISHNING INTERFAOL SHAKL VA METODLARI

Alimova G.Q., Asrarxanova E.A. <i>Zamonaviy pedagogik texnologiya va innovatsiyalarning bo'lajak pedagoglar kreativ shaxsiy rivojlanishiga psixologik ta'siri</i>	356
Aminov Z., Aripova M., Hayitova M. <i>Talabalar bilan I analitik guruh kationlari mavzusini innovatsion pedagogik texnologiyalar yordamida o'rganish</i>	360
Axmedova D.I. <i>Maktabgacha yoshdagi bolalarda kuylash malakalarini shakllantirishda pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish</i>	364
Azimov A.Kh. <i>Developing Communicative Language Teaching (CLT) of EFL/ESL students</i>	369
Babaxolov G'.T. <i>Yoshlarning tadbirkorlik qobiliyatini shakllantirishda bilim va ishbilarmonlikning uzviyligi</i>	375
Bekbergenova J. <i>Shaxs jetekshiliginde liderlik qabileti hám erk kushiniń baylanisi</i>	381
Boymurodov B.E. <i>Interfaol metodlar yordamida talabalarining kasbiy grafik kompetentligini rivojlantirish</i>	385
Choriyev H.A. <i>Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonlarini nazorat qilish va sifatini baholash muammolarida noravshan to'plamlar nazariyasiga asoslangan yondashuvi</i>	393

G'aniyev A.G. O'quvchilarda "nostandart fikrlash" ko'nikmalarini rivojlantirish pedagogik texnologiyasi	400
Imomnazarova O'. "Musbat, manfiy, qiziqarli" (MMQ) metodi orqali Ernest Seton Tomsonning "lobo" hikoyasini o'rganish	409
Islamova D.R. Pedagogik texnologiyalar orqali talaba yoshlarda turizmning ijtimoiy-psixologik omillarini shakllantirish	413
Jo'rayev M.O. O'quvchilarda fizika fanini o'qitishda konstruktiv qobiliyatni shakllantirish	417
Karimova D.B. Ta'lim jarayonida o'quvchilarning reading (o'qib tushunish) ko'nikmalarini rivojlantirishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish	421
Kayumova G.A. Fraktal pedagogikaning xususiyatlariga tayanib o'quv jarayonini tashkil qilishda shaxsiy va kasbiy o'z-o'zini rivojlantirish	426
Kenjayeva M.A. Dars jarayonida ta'lim texnologiyalardan foydalanishning ahamiyatli jihatlari	433
Makhatova A.I. The challenges of using innovative and creative teaching approaches to promote entrepreneurial skills among secondary school students	440
Mirzakarimova A. "Methods of Engaging Young Learners in Learning the English Language"	445
Muratov X.X. Talabalar mustaqil ta'lim faoliyatini raqamlashtirish orqali tashkil etish, boshqarish va faollashtirishning zamonaviy metodikasi	449
Murtazoyeva S.M. O'quvchilarning dasturlashga oid algoritmik fikrlashini rivojlantirishda muammoli ta'lim texnologiyasidan foydalanish imkoniyatlari	455
Najmiddinova Sh.Sh. Tayyorlov guruhidagi (6-7 yosh) bolalarga aqliy tarbiya berishda oila bilan MTT hamkorligining muhimligi	460
Narziyeva K.Q., Muranov S.B. O'quvchi yoshlarda kasbiy kreativ kompetensiyalarni shakllantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-nazariy tamoyillari	464

Narzulaeva U.R., Djalilova Z.O. <i>Tibbiy ta'limda innovatsion ta'lim texnologiyalarining samaradorligi</i>	469
Nurmamatov A.A. <i>Ta'lim sifatini oshirish va unda malakali kadrlar tayyorlashni ko'rib chiqish masalasi</i>	474
Ostonova X.G. <i>Malaka oshirish institutlarida ta'lim sifatini baholash va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish</i>	479
Po'lotov F.U. <i>Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifatini oshirishda tarbiyachi-pedagog obrazi</i>	483
Qaljanov R.P., Joldasbayev P.M., Omirzaqov O.P. <i>Sport meditsinasiniñ dene tárbiyasi menen baylanislílígí hám rawajlaniw dawirleri</i>	486
Qodirov M.T. <i>Gipermatnli axborotlarni modellashtirishga o'rgatish metodikasini takomillashtirish</i>	494
Radjabova K.B. <i>Ona tili fanini "4K" yondashuvi asosida o'qitishda "Small study" metodidan foydalanish</i>	497
Rahimova M.A., Bekjanova Z.I. <i>Mumkinlik modalligining predikativ ifodasi eng umumiy ko'rinishda (potentiality, possibility)</i>	506
Rasulova T.P. <i>Improving teaching methods in higher educational institutions</i>	509
Ruzikulov R.R. <i>Ijtimoiy fanlarni o'qitishda zamonaviy usullardan foydalanish</i>	513
Sadullaeva Sh.M. <i>Oqíwshílarda kreativlik qábiletlerin qáliplestiriw</i>	517
Safayev U.K. <i>Fizikani o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish</i>	520
Sariyev Sh.U., Qudratova R. <i>Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini takomillashtirishda "4K" modelining ahamiyati</i>	523
Seidullaev A.K., Yusupov M.A. <i>Bir pallali giperboloid va giperbolik paraboloidni geogebra dasturida tasvirlash</i>	527
Seit-Asan L.S. <i>Biologik kimyo fanini o'qitishda interaktiv usullarni qo'llash</i>	532
Seit-Asan L.S. <i>Biologik kimyo fanini o'qitishda "Bumerang" texnologiyasini qo'llash</i>	536

Sharipova G.N. Maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila hamkorligini samarali tashkil etish asoslari	539
Shermetova S.T. Ta'lim oluvchilar shaxsiga yo'naltirilgan ta'limni tashkil etishning psixologik-pedagogik asoslari	543
Sirojova Sh.N. Innovative methods and their importance in teaching	547
Tashbayev N.S. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari ta'lim sifatini oshirishning interfaol shakllari	551
Tojiyev R.T. Ta'lim jarayoniga yangicha yondashuv	556
Tursunova G.Q. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashga o'rgatishning ahamiyati	561
Urinov A.D. Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanining "Otish tayyorgarligi" bo'limida integratsiyadan foydalanish	565
Voxidov E.R. Akademik litseylar va katta maktab yoshidagi o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini e'tiborga olgan holda fizika fanini o'qitishni tashkil etish	570
Voxidov E.R. Fizik masalalarni yechish jarayonida umumta'lim maktablar va akademik litsey o'quvchilarining bilim faoliyatini boshqarish	576
Xakimova D.M. Malaka oshirish jarayonida maktab o'qituvchilarining innovatsion salohiyatini rivojlantirish mazmuni	581
Xakimova D.I. Ona tili darslarida modellashtirish metodi	587
Xasanova M.F. Aralash ta'lim modellari va uni samarali amalga oshirish tamoyillari	592
Xaydarov A.N. Shaxs iste'mol madaniyati va iste'molchilarning xatti-harakatlarida kreativlik	595
Xodjayeva D. Yuqori sinf o'quvchilarida o'quv motivining ta'limdagi ahamiyati	598
Xolmirzaev F.G. O'zbekistonda 4- va 8- sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy fanlardan tendensiyalarni baholash xalqaro TIMSS-2023 tadqiqoti tashkil etilganligi	603
Xosilova R.D. Umumta'lim va mahorat maktablarida tahsil oluvchi voleybol sport to'garagi shug'ullanuvchilarining jismoniy tayyorgarligini baholash va rivojlantirish	608

Yuldashev N.A., Dr.Danish A. <i>Development of the methodology of creating language exam questions using Artificial Intelligence: A case study</i>	612
Yuldasheva M. <i>Adabiyot darslarida o'quvchilarning evristik faoliyatini oshirish</i>	617
Yuldasheva N.A. <i>Biologiya fanlarini o'qitishda interfaol metodlarning samaradorligi</i>	621
Yuldasheva Sh., Andaqulova Ch., Primkulova E. <i>Boshlang'ich sinflarda morfologik mavzularni o'rganishdagi izchillik</i>	625
Yunusova N. <i>Innovative classroom strategies for teachers to effective teaching english</i>	629
Yunusova N. <i>The efficiency of independent learning in teaching foreign languages in heis</i>	632
Yusubjanova M.T. <i>Ehtimollar nazariyasini o'qitish va o'rganish</i>	643
Yusupova M. <i>The influence of task-based language teaching on the development of students' writing skills</i>	647
Ziyodullayeva Nafosat <i>Impact of interactive multimedia in e-learning technologies: role of multimedia in e-learning</i>	652
Абдуллаева О.И. <i>Техника ихтисослик талабаларнинг муҳандислик фаолиятга доир хорижий тилни билиш компетентлигини ривожлантириш</i>	655
Алимова И.А. <i>Активные методы обучения с использованием симуляционных технологий и учебных игр в подготовке студентов медицинских институтов</i>	659
Бадалов А.О. <i>Мактаб информатика дарслигидаги дастурлаш асосларини бўлими самарадорлигини ошириш йўллари ва ўқитиш методикаси</i>	664
Бекматов А.К., Рустамов Т.С. <i>Роль игровых технологий в обучении информационной безопасности</i>	669
Биксалиева Р.Р. <i>Этапы эволюции лингводидактики русского языка как иностранного</i>	673
Бойназаров Р.Х. <i>Мактаб ўқувчиларини физикадан эвристик компетенциясини шакллантириш методикасини такомиллаштириш</i>	677

Дустов С. Методы формирования экологического мышления студентов при преподавании естественных наук (пример III класса)	681
Ержанова В. Талабаларни миллий қадриятлар асосида тарбиялаш масаласининг экспериментал тадқиқи	688
Ибрагимов Ж.А. Информатика ва ахборот технологиялари фанини ўқитишда компетенциявий ёндашувга асосланиш	691
Каримов Б.Т. Ўқув адабиётлари таҳлили, камчиликлар ва таклифлар	695
Каюмова Н.К. Применение интерактивных методов при обучении русскому как иностранному (РКИ)	700
Муртазин Э.Р., Петров Р.И. Молодежь и развитие радиотехнического образования: ключ к будущему технологий	704
Муртазина Д.Р. Инновации в педагогике: как молодые ученые формируют будущее образования	708
Муртазина Д.Р. Роль научных кружков и олимпиад в формировании интереса молодежи к науке: анализ педагогического опыта	711
Насриддинова К.П. Использование активных методов обучения иностранному языку на медицинских специальностях	714
Одилов Ё.Ж. Физика фани ўқитиш асосида талабаларни лойиҳавий-конструкторлик фаолиятига тайёрлаш	717
Очилов А.О. Эффективность учебных методов и образовательных технологий трудового образования	721
Расулова Т.П. Методика преподавания дисциплины "математическое моделирование информационных технологий и процессов" результаты экспериментальной и тестовой работы по повышению эффективности обучения путем проектирования учебных занятий	725
Рахманова И.И., Менлиева М.И. Активизация познавательной деятельности студентов на практических занятиях с использованием интерактивных форм обучения	731

Тошматова М.К. Анализ препятствий, стоящих перед студентами в развитии социальной активности в современном обществе	735
Умарова Г.А. Педагогическая задача профессиональной подготовки будущего инженера на основе междисциплинарной интеграции	740
Усанов С.А. Олий таълимда талабалар ўқув фаолияти бошқарув тизимини такомиллаштиришнинг назарий-методологик асослари	745

VI. BOB. INKLYUZIV TA'LIMNI TASHKIL ETISHDA INNOVATSION YECHIMLAR

Alimova G.K. Inklyuziv ta'limda zamonaviy yordamchi texnologiyalar	749
Axmedov S. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilish jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari	754
Bozorov J.S. Sun'iy intellekt ma'lumotlari va xulosalari asosida bolaning aqliy rivojlanishidagi yetishmovchiliklarni aniqlash va bartaraf etish usullarini tanlash	758
Djurayeva P.S. Malaka oshirish tizimida kreativ va zamonaviy yondashuvga oid mashg'ulot: ijtimoiy xabardorlik, inklyuzivlikni tashkil etish samaradorligi	761
Ibodulloyev N.Sh. Alohida yordamga muhtoj bolalar toifalari va ularning integratsiyasi	767
Kasimova M.M. Inklyuziv sharoitda boshlang'ich sinfda tahsil olayotgan alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan o'quvchilarning tafakkur xususiyatlarini aniqlashni tadqiqot usullari	772
Kim F.X. Oliy ta'limga ko'zi ojiz talabalar moslashuvining ijtimoiy-psixologik omillari	777
Mo'minov S.A., Takako Homma Inklyuziv ta'limda raqamli va yordamchi texnologiyalardan foydalanish	782
Mo'minova Q.X. Umumta'lim maktablarida inklyuziv ta'limni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish	789
Najmedinova G.N. Inklyuziv ta'limni tashkil etishda innovatsion yechimlar	794

Rajabbayeva M.R. <i>Inklyuziv ta'limni innovatsion rivojlantirish</i>	797
Raxmonova O.E. <i>Inklyuziv ta'lim o'quvchilari salohiyati va qobiliyatlarini aniqlash va jamiyatda o'z o'rnini topishga ko'maklashish</i>	803
Takako Homma, Mo'minov S.A. <i>Yaponiya maktabgacha ta'lim tizimida inklyuziyaning tarixi va ertasi</i>	808
Teshaboeva F.R., Usmonjonova S.M. <i>Autizm sindromli bolalarni ijtimoiylashuvida inklyuziv ta'limning o'rni</i>	819
Toyirova M. <i>Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilarni inklyuziv ta'lim orqali madaniyat, sport va musiqiy madaniyatini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari</i>	823
Xolmirzayeva D.F., Xolmirzayeva X.F. <i>Ta'lim tizimida inklyuziv ta'lim texnologiyalari va ularni tashkil etishdagi innovatsion yechimlari</i>	827
Алимова И.А. <i>Инновационные подходы в развитии инклюзивного образования — равные возможности для всех</i>	831
Ахмедова Ш.Р. <i>Партнерство с родителями в контексте инклюзивного образования</i>	837



SO'Z BOSHI

O'zbekiston Respublikasi Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi tomonidan tashkil etilgan "Ta'limda zamonaviy texnologiyalar: muammolar, yechimlar va istiqbollar" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyaning asosiy maqsadi respublikamizda raqamli ta'limni rivojlantirish, o'qitishning interfaol metodlaridan foydalanishni kengaytirish, jahon ilm-fani va texnologiyalari yutuqlaridan keng foydalanish bo'yicha ilmiy ishlanmalar hamda tavsiyalar tayyorlash, shu jumladan, ta'lim jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni, o'qitishning samarali shakl va usullarini tatbiq etish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Shuningdek, bugungi raqamli texnologiyalar asrida soha mutaxassislari, ekspertlar, pedagog xodimlar, yosh olimlar, doktorantura (DSc), tayanch doktorantura (PhD), iqtidorli talabalar va boshqa ta'lim ishtirokchilari orasida ta'lim jarayonlarini raqamlashtirish yuzasidan o'zaro tajriba almashishlari uchun qulay muhit yaratish bilan bir qatorda, ularni ta'limdagi eng so'ngi innovatsion texnologiyalardan xabardor qilishga qaratilgan.

Ushbu konferensiya maqsadlari:

Ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish orqali o'qitishning interfaol shakl va metodlarini tahlil qilish;

Ta'lim mazmuni, sifati va samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalarning integratsiyasi bo'yicha ilg'or xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish;

Pedagogik dasturiy vositalar, shu jumladan, raqamli ta'lim resurslari va multimedialli kontentlarni yaratish texnologiyalarini ko'rib chiqish;

Ta'limda sun'iy intellekt texnologiyalari va immersiv (VR, AR va MR) vositalarning samaradorliklarini muhokama qilish;

Ta'lim ishtirokchilarida raqamli kompetensiyalarni rivojlantirishning dolzarb masalalari yuzasidan taklif va tavsiyalarni o'rganish.

Shu bilan birga, konferensiya orqali raqamli ta'limni rivojlantirish bo'yicha mavjud muammolarni qiyosiy tahlil qilish hamda ularga innovatsion yechimlarni topish maqsadida tajriba va bilim almashish maydonini yaratish maqsadida tashkil etilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, konferensiya to'plamiga har bir yo'nalishlardan kelib chiqib, belgilangan talablarga mos hamda sohalar kesimida tashkil etilgan ekspertlarning taqrizlari asosida tavsiya etilgan ilmiy maqola va tezislari kiritilgan.



I. TA'LIMDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALAR: INNOVATSIYALAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR

TA'LIM JARAYONINI RAQAMLASHTIRISHDA TALABALAR SALOHİYATINING OSHISHI

Akmalova Aziza Najmiddinovna – O'zMU

tayanch doktoranti

E-mail: azizaxonakmalova1991@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada talabalarning intellektual salohiyatini oshirishga qaratilgan chora tadbirlar to'g'risida to'xtalib o'tilgan. Shu bilan birga maqolada raqamlashtirish sharoitida talabalarning salohiyatini rivojlantirish haqida so'z boradi. Ta'limni raqamlashtirish, interaktivlik, to'liqlik va uzluksizlikni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: ta'lim, texnologiya, raqamli ta'lim texnologiyalari, o'quv jarayoni, elektron ta'lim resurslari, zamonaviy axborot-kommunikatsiya tizimlari, o'quv materiallari.

Hozirgi vaqtda ta'lim sohasi ustuvor ahamiyat kasb etmoqda va ta'lim mazmuni jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotining omillaridan biri bo'lib, shaxsning o'zini-o'zi anglashini ta'minlashga uning kasbiy jihatdan o'zini-o'zi anglashi uchun sharoit yaratishga yo'naltirish kerak.

Mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch bu – ilm-fan, ta'lim va tarbiya ekanligi isbot talab qilmas haqiqatdir. Bugun mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar yoshlarning oliy ta'lim bilan qamrab olinishini yanada kengaytirish, ularni bilim va malakali etib tarbiyalash, jahon taraqqiyotiga mos mutaxassislar tayyorlashga qaratilgan. Hozirgi vaqtda oliy ta'lim sifatini oshirish sohasida milliy loyihalarni amalga oshirishga bo'lgan munosabati butun jamoatchilik e'tiborida. Raqamlashtirish sharoitida talabalarning intellektual salohiyatini oshirish va axloqiy tayyorgarligiga qo'yiladigan talablarning kuchayishi, oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligi bilan bog'liq o'zgarishlar, oliy ta'lim muassasalarining kadrlar tayyorlashdagi jiddiy raqobat sharoitini keltirib chiqaradi, bu esa ta'lim sifati muammosi OTMda eng muhim masala hisoblanadi.

Talabalar bilimining davlat standartlariga muvofiqligi, ta'lim muassasasining muvaffaqiyatli faoliyati, har bir o'qituvchi faoliyati – bu yangi O'zbekistonga ilm-fanga e'tibor yuqori cho'qqiga chiqqani bejiz emas. Chunki hozir zamonaviy hayotni ilm-ma'rifat va ta'limning taraqqiyotisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Jahonning yetakchi davlatlarida ham ta'limni etilgan axborotni bir vaqtda qabul qilish imkoniyatini beradi. Qanday qilib fanga doimiy qiziqishni



rivojlantirish, talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishga eng ko'p yordam beradigan zarur usullarni topish mumkin? Buning uchun darsni shunday qurish kerakki, u ta'lim, rivojlanish, tarbiya vazifalarini imkon qadar birlikda hal etsin; o'quv materialini diqqat bilan tanlash va sozlash, o'quv muammolarini hal qilish uchun maqbul sharoitlarni yaratish. Bizning fikrimizcha, darsda o'qituvchi rahbarligida talabalarning rivojlantirish birinchi galdagi vazifa sifatida belgilanmoqda. Zero, mamlakatning kelgusi ravnaqi aynan shu sohada qo'lga kiritgan yutuqlari bilan chambarchas bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabragi PF-6079 sonli "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida raqamli dunyoda raqamlashtirish, raqamli texnologiyalarni ishlab chiqish, raqamli iqtisodiyot sohasida yangi loyihalarni ko'rib chiqish va raqamli ta'limni rivojlantirish dasturlari amalga oshirilmoqda.

Ta'limni raqamlashtirish sharoitida o'qitishning ta'lim oluvchilarning yagona taqsimlangan axborot-ta'lim muhitida ishlashini tashkil etish va ta'lim olish sifatini oshirishga mo'ljallangan yangi o'quv vositalarini yaratish va ulardan foydalanish dolzarb ahamiyatga ega. Bunday o'quv vositalariga raqamli ta'lim resurslari, ya'ni raqamli shaklda taqdim etilgan, zamonaviy ta'limning maqsad va vazifalarini amalga oshirishga yo'naltirilgan grafik, matniy, nutqiy, musiqiy, video, foto va boshqa ma'lumotlarni o'z ichiga olgan axborot manbalarini kiritish mumkin. Ko'p vazifali raqamli ta'lim resurslari katta hajmdagi axborotni joylashtirish; kerakli axborotni tez izlab topish; o'quvchilar bilimini obyektiv va sifatli tekshirish; ko'plab murakkab hodisa va jarayonlarni yaqqol, ko'rgazmali tarzda tasvirlash; turli grafik bezaklardan foydalanish; turli shakl – vizual, audial va b. tarzda taqdim mustaqil ijodiy ishlarini faollashtirish o'quv jarayonini takomillashtirishning samarali usullaridan biridir.

Shuning uchun talabalarning bilish faolligini ta'minlaydigan va ta'lim sifatini oshiradigan muhitni yaratish kerak. Har bir talabaning imkoniyatlari va qobiliyatini hisobga olishni o'z ichiga olgan mustaqil ta'limni rivojlantirishimiz kerak. Afsuski, bizning ta'lim tizimimizda uzoq vaqt davomida talabalar mustaqil ta'limga individual yondashish imkonini beradigan real mexanizmlar mavjud emas edi. Balki, bunga talabalarda kuchli ehtiyoj bo'lmagandir. Ammo, COVID-19 ning tarqalishi iqtisodiyot tarmoqlaridagi deyarli barcha sohasidagi tashkilotlar faoliyatiga salbiy ta'sir qiluvchi asosiy to'siqlardan biri bo'ldi. Xususan, pandemiya o'rta ta'lim muassasalari faoliyatida va oliy ta'lim tashkilotlari faoliyatida jiddiy cheklovlar paydo bo'ldi. Shu munosabat bilan, pandemiyaning yanada tarqalishining oldini olish bo'yicha faol chora-tadbirlar kontekstida ta'lim jarayoni ishtirokchilari o'rtasida konstruktiv aloqalarni saqlab qolish va rivojlantirishning samarali vositalarini aniqlash zarurati yuzaga keldi. Binobarin, oliy ta'limida



o'zining intellektual va ma'rifiy salohiyatini shakllantirishga ta'sir ko'rsata oladigan shaxsni kamol toptirish va tarbiyalash birinchi o'ringa qo'yilishi kerak. Demak, talabalarining ijodiy salohiyatini, individual qobiliyatlarini ochib berish, kelajakda kasbi bilan bog'liq fazilatlarini shakllantirish uchun OTM amaliyotida taqdimot darslari, konferensiya darslari, ishbilarmonlik o'yinlari kabi mustaqil ta'lim shakllaridan foydalanish zarur. Bu turkumda talabalarining ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, har bir talabaning individualligi va ijodiy salohiyatini ochib berishga yordam beradi. Mashhur pedagogi Abdulla Avloniy: «Har bir millatning saodati, davlatlarning tinchi va rohati yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bog'liqdir», deb yozgan edilar. Bolalarni har tomonlama yetuk va barkamol shaxs qilib tarbiyalash uchun har qanday ta'lim muassasasi tinimsiz harakatlar asosida faoliyat olib bormoqda. Bu borada maktabgacha ta'lim muassasasi, maktab, kollej, litsey va oliy ta'lim muassasasida yosh avlod chuqur bilim egasi bo'lib yetishib chiqishiga harakat qilinmoqda. Bu borada, ayniqsa, oliy ta'lim muassasasi juda ahamiyatli.

Raqamlashtirish sharoitida raqamli ta'lim xususiyatlari, raqamli texnologiyalar sohasi hamda tadqiqotchilarning oliy ta'limni raqamlashtirishga oid izlanishlari kiradi. Raqamli texnologiyalar, raqamli ta'lim, axborot texnologiyalari, raqamlashtirish, o'quv jarayoni, ta'limni raqamlashtirish, raqamlashtirish, raqamli transformatsiya, oliy ta'lim, pedagogik yondashuvlar, raqamli davr, raqamlashtirish sohalari, yuqori texnologiyalar, raqamli texnologiyalar, ta'lim samaradorligi, pedagogik usullar shular kabilardandir. Oliy ta'lim tizimiga raqamli texnologiyalarni jadal joriy etish, axborot makonini shakllantirish va raqamli ta'lim tizimlarini rivojlantirish oliy ta'lim muassasalari talabalarining o'quv jarayonini tashkil etish, ta'limga yondashuvlarni sifatli qayta ko'rib chiqish, shuningdek, ta'lim tizimini jadallashtirish to'g'risida yangi ilmiy va pedagogik g'oyalarni shakllantirishga olib keladi. Raqamli va axborot texnologiyalarini ta'lim tizimiga va o'quv jarayoniga keng joriy etish dunyo miqyosidagi tendensiya bo'lib, yaqinda ta'lim tizimida sodir bo'lgan eng muhim jarayonlardan birini anglatadi. «Kelajakning raqamli sanoatini yaratish – inson kapitalini rivojlantirish darajasini oshirish orqali mamlakatni raqamli transformatsiyasini ishga tushirishni, ta'limda tezkor sur'atlarda raqamli o'zgartirishni talab qiladi.

Oliy ta'lim tizimida raqamli universitet loyihasi davom etmoqda. Hozirgi kunda ta'lim jarayoniga oliy ta'lim muassasalaridan olinadigan turli hisobot ma'lumotlar sonini keskin kamaytirish, ularni tayyorlashning qog'oz shaklidan voz kechish, boshqaruv tizimini raqamlashtirish maqsadida Raqamli universitet loyihasi doirasida «Oliy ta'lim jarayonlarini boshqarish axborot tizimi» HEMIS ishlab chiqilgan.

Intellektual salohiyatni rivojlantirish, o'z navbatida, intellektual qobiliyatlar tushunchasi bilan uzviy bog'liq. Intellektual qobiliyatlar – bu



shaxsning ta'sirchanligi, predmetni idrok qilishining kuchliligi va yaxlitligi, u to'g'risida keng ma'lumotlarga ega bo'lish, tafakkur o'zgaruvchanligi va tezkorligi (tez, xilma-xil, o'ziga xos), mantiqiy va savodli mulohaza yuritish, tizimli harakatlar, sintez-tahlil-sintez, ijodiy ifodalay bilish, umumlashtirish va xulosalash, o'z fikriga ega bo'lish, ishni oxirigacha yetkazish, ishchanlik, o'z bilimlarini boshqalarga yetkaza olish kabi asosiy kreativ fazilatlar majmuyi bo'lib, nafaqat yuksak ijodiy rivojlanishni, balki umuman shaxs rivojlanishining muhim omili, har qanday faoliyatdagi muvaffaqiyatning garovi, kishilar bilan muloqot, kundalik faoliyatdagi yutuqlar omilidir. Bizningcha, intellektual salohiyat – bu talabalarning kognitiv qobiliyatlar va ijodkorlikning mosligini hisobga olib, maqsadga erishish uchun o'z harakatlarini rejalashtirish, tartibga solish va boshqarish qobiliyatidir. Intellekt turli darajada shakllanganligi bois bir nechta sifatlari mavjud: intellektning tushunarililigi; intellektning mantiqiyligi; intellektning chuqurligi yoki o'ylovchanligi; intellektning kengligi; intellektning yumshoqligi va egiluvchanligi;

Hozirgi an'anaviy o'qitish usuli o'qituvchilarga yo'naltirilgan ta'lim bo'lib, unda ma'ruzachilar taqdimot slaydlari, doskalar va vizualizatorlar ko'rinishidagi ko'rgazmali qurollardan foydalanadilar. Kompyuter bilan bog'liq fanlar laboratoriyasidagi o'quv faoliyati amaliy ishlarning to'rtta asosiy turini o'z ichiga oladi: mashqlar, tajribalar, namoyishlar va tadqiqot. Shuning uchun hozirgi an'anaviy usul kompyuter injiniring fanlarini o'qitishda foydalanish uchun qulay emas. "Mobil ilovalarini ishlab chiqish" kabi eng amaliy mashg'ulotlar mavzusi, asosan, kompyuter laboratoriyasida tushuntirish yoki namoyish etish xususiyatiga ega ushbu fan mavzulari kuzatuv qobiliyatlarini ishlatishga urg'u beradi, ya'ni o'quvchilar jarayonni amalda ko'rib chiqilishini ko'rishlari va nazariyani haqiqat bilan yaqinroq bog'lashlari kerak.

Ilmiy adabiyotlarda olimlar tomonidan "intellekt" tushunchasiga quyidagi ta'riflar keltirilgan. N.V.Nijegorodsevaning fikriga ko'ra, "intellekt" tushunchasi "shaxs xususiyati sifatida tavsiflanib, obyektiv borliqdagi predmet va hodisalarni ularning o'ziga xos aloqalari, qonuniyatlari bilan ongda aniq va chuqur aks ettiradigan qobiliyat". S.I.Ojegovning izohli lug'atida: "intellekt (ong) bu – fikrlash qobiliyati, odamning aqliy faoliyati"– deb ta'rif beriladi. R.X.Djurayev "intellekt" tushunchasini "hayotni, tabiiy holatlarni ongda aynan tasavvur ettirish va o'zgatira olish, fikrlay olish, o'qish hamda uni o'rganish, dunyoni anglash va ijtimoiy tajribani qabul qila olish qobiliyati...", deya ta'riflaydi. Intellekt haqida bahs ketganda ko'pchilik "nimadir"ni bajarishga harakat qilish, biror narsani bir-biridan qanday farq qilishni, aqlning qayerida yashiringanligini, ota-onadan meros bo'lib o'tishi yoki uni rivojlantirish tushuniladi.



“Intelлект”, “Intellektual salohiyat” va “intellektual qobiliyat” tushunchalari o'zaro uzviy bog'liq va bir-birini taqozo etadi. Ular birgalikda yaxlit bir tushuncha “talabalar intellektual salohiyati”ni tashkil qiladi.

Xulosa va takliflar Oliy ta'lim muassasalarida raqamlashtirish va raqamli texnologiyalar vositasi yordamida ta'limni tashkil etish talabalarning dars mashg'ulotlariga faol qatnashishi, mavzularni to'liq o'zlashtirishi, kelajakdagi kasbiga mehrining oshishi va turli kompetensiyalarni rivojlanishiga sabab bo'ladi.

Oliy ta'limni axborotlashtirish sharoitida intellektual salohiyatni rivojlantirish keng qamrovli, aniq maqsadga qaratilgan jarayondir.

Talabalarning intellektual salohiyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan elektron axborot ta'lim resurslarini o'quv hamda mustaqil ta'lim jarayonida keng va samarali tadbiq etishning amaliy strategik dasturlarini yaratish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Wang Q., H. L. Woo H.L., Quek C. L., Yang Y. and Liu M. Using the Facebook group as a learning management system: An exploratory study. Br. J. Educ. Technol, 2012, 43(3): 428–438.
2. Umarova R.U. Ta'limda axborot texnologiyalaridan foydalanishning konseptual qoidalari // “Xalq ta'limi” ilmiy-uslubiy jurnal. – Toshkent, 2020. 5-maxsus son. – B. 101-104.
3. Umarova R.U. Ta'lim jarayonida o'quvchilarning intellektual salohiyatini oshirish. Metodik tavsiyanoma. – Andijon, “Step by step print” bosmaxonasi. 2021. 88 b.
4. Umarova R.U. Ta'lim tizimida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati // Nizomiy nomidagi Toshkent pedagogika universiteti “Akademik Siddiq Rajabov o'qishlari” respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Toshkent, 2021 yil. – B. 213-215
5. Umarova R.U. Development of intellectual potential in the context of informatization of education // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8 No. 12, 2020. Part III. ISSN 2056-5852, – B. 56-59.
6. Umarova R.U. O'quvchilarda intellektual salohiyatni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari // “Ilm sarchashmasi” ilmiy nazariy, metodik jurnal. – Toshkent, 2021. №7. – B. 102-105. (13.00.00; №31).
7. Umarova R.U. STEAM va SMART ta'lim texnologiyalari asosida o'quvchilarda intellektual salohiyatni rivojlantirish // “Xalq ta'limi” ilmiy-uslubiy jurnal. – Toshkent, 2021. 3-maxsus son. – B. 36-38. (13.00.00; №17).
8. Umarova R.U. Ta'limda axborot texnologiyalaridan foydalanishning konseptual qoidalari // “Xalq ta'limi” ilmiy-uslubiy jurnal. – Toshkent, 2020. 5- maxsus son. –B. 101-104. (13.00.00; №17).

9. Umarova R.U. Ta'lim tizimida SMART texnologiyasidan foydalanish samaradorligini oshirish // Международный научно-практический журнал «Экономика и социум». – Москва, 2020. №12(79). –В. 288-292.
10. Akmalova A., Xaydarov A., Pardayeva G. Oliy ta'limni raqamlashtirish sharoitida talabalarning intellektual salohiyatini rivojlantirish // O'zbekiston Milliy universiteti xabarлари, 2023, [1/12/2] ISSN 2181-7324-11
11. Akmalova A.. Raqamlashtirish sharoitida talabalar intellektual salohiyatini rivojlantirish // O'zbekiston Milliy universiteti xabarлари, 2024, [1/4] ISSN 2181-7324.

BULUTLI TEKNOLOGIYALARNING DASTURIY ILOVALARI ASOSIDA TA'LIM TIZIMI SAMARADORLIGINI OSHIRISH ASOSLARI

Aminov Istam Barnoyevich –
Samarqand davlat universiteti,
Professor
E-mail: istam.aminov@mail.ru

Annotatsiya. Bugungi kunda ta'lim samaradorligini oshirish o'quv jarayonida zamonaviy dasturiy vositalaridan foydalanishni taqozo etiladi. Ushbu maqolada ta'lim tizimida bulutli texnologiyalarning xizmat turlari va dasturiy vositalaridan foydalanishning uslubiy asoslari yoritilgan va ularni qo'llanish samaradorligi berilgan.

Kalit so'zlar: ta'limni raqamlashtirish, innovatsion internet texnologiya, bulutli texnologiya, bulutli hisoblash, bulutli xizmat, bulutli dasturiy vositalar, turlari, imkoniyatlari, o'quv jarayonida qo'llanilish usullari, samaradorligi.

Bugungi kunda zamonaviy raqamli texnologiyalardan bimalol foydalanib, o'z salohiyati bilan olam ahlini lol qoldirayotgan yoshlarimiz safi kengaymoqda. Bularning barchasi mamlakatimizda ta'lim tizimida keng shart-sharoitlar, qulay imkoniyatlar yaratilayotganining samarasidir. Bugungi kunda fan va texnika jadal suratda rivojlanib bormoqda, bu esa zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanib o'quv jarayonini tashkil etishni taqozo etadi. O'quvchilarni yuksak madaniyatli, o'tkir bilimli qilib tarbiyalashda har bir pedagog xodim o'zini mas'ul shaxs ekanligini bilgan holda, dars samaradorligini oshirib borishi, yangi texnologiyalardan unumli foydalanishi dolzarb masala hisoblanadi.[2]

Hozirgi kunda zamonaviy jamiyatni raqamli texnologiyalarsiz, ta'lim tizimini bulutli raqamli texnologiyalarsiz tasavvur qilish qiyin. Bulutli



texnologiyalar davrimiz timsoli sifatida asta-sekin atrofimizni o'rab, hatto ruhiyatimizga ham jadal kirib kelyapti. Bunday deyishimizga sabab, bulutli texnologiyalar kompyuterlashtirish jarayonining keyingi bosqichidir. Ya'ni endi biz kompyuter, planshet yoki telefonga dasturlarni ko'chirib olib o'rnatish zaruratidan xalos bo'lamiz. Chunki bizga barcha qulaylik internet tarmog'i orqali bulutli texnologiyalar asosida yaratib beriladi. Bunday texnologiyalar keyingi davrda davlat boshqaruvi, biznes, fan, ta'lim, xullas, hayotimizning barcha jabhasiga shiddat bilan kirib kelayotgan innovatsion internet texnologiyalaridir.

Internet orqali onlayn ta'limni tashkillashtirish uchun bugungi kunda bir qator texnologiyalardan foydalaniladi. Bulutli hisoblash texnologiyasi internet orqali ta'lim tizimini tashkillashtirishning eng samarali usuli hisoblanadi. Bulutli texnologiya taqsimlangan ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlash tizimlaridan tashkil topib, bir vaqtda juda ko'plab o'quv materiallaridan tashkil topgan onlayn masofaviy ta'lim tizimini tashkillashtirish, butun ta'lim faoliyatini yagona platformada tashkillashtirish imkonini beradi. Bulutli ta'lim xizmatlarini tashkillashtirish boshqa usullarga nisbatan quyidagi ustunliklarga ega:

- ✓ Ulanishning qulayligi va amalga oshirilishi soddaliligi;
- ✓ Platforma narxining arzonligi va universalligi;
- ✓ Xavfsizlikning yuqoriligi;
- ✓ Ishonchliligi;
- ✓ Tizimning tarmoq platformasiga oson moslashuvchanligi.

Bulutli hisoblash (ingliz tilidan bulutli hisoblash, "bulutli (tarqoq) ma'lumotlarni qayta ishlash" atamasi ham ishlatiladi), odatda, foydalanuvchiga internet xizmati shaklida kompyuter resurslari va imkoniyatlarini taqdim etishni anglatadi. Shunday qilib, hisoblash resurslari foydalanuvchiga "sof" shaklda taqdim etiladi va foydalanuvchi qaysi kompyuterlar uning so'rovlarini qayta ishlayotganini, qaysi operatsion tizim ostida sodir bo'layotganini va hokazolarni bilmasligi mumkin. Bulutlar ko'pincha meynfreyma (mainframe) bilan taqqoslanib, ular orasida juda ko'p umumiylik topadi.

Bulut va meynfreymalar o'rtasidagi asosiy farq shundaki, uning hisoblash quvvati nazariy jihatdan cheksizdir. Ikkinchi asosiy farq shundaki, oddiy qilib aytganda, meynfreymalar uchun terminallar faqat foydalanuvchining ishlov berish uchun ishlaydigan vazifa bilan interfaol o'zaro ta'siri uchun xizmat qilgan. Bulutli texnologiya zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining faol rivojlanayotgan sohalaridan biri bo'lib, u sifatli ta'lim natijalariga samarali erishishga, axborotga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga va analitik qobiliyatlarni shakllantirishga yordam beradigan keng ko'lamli didaktik imkoniyatlarga ega.

Ta'lim jarayonida bulutli texnologiyalarga asoslangan ta'lim muhitidan foydalanish talabalarga shaxs sifatida o'zini-o'zi anglash, ta'limiy qobiliyatlarini, axborot bilan ishlash kompetensiyalarini rivojlantirish imkonini beradi. Bulutli texnologiyalardan foydalanish, ta'limni masofaviy shaklida olib borish uchun qulay imkoniyatlar taqdim etadi. Masalan, talabalarga zarur mustaqil ta'lim o'quv resurslarini uzatish, topshiriqlar yaratish va uni taqdim etish, topshiriqlar ijrosini baholash va o'zlashtirish darajasini tahlil qilib borish kabi imkoniyatlar. Shuningdek, talabalar hamda o'qituvchi va talaba o'rtasida o'zaro aloqani tashkil etish imkonini ham beradi. Bulut shuningdek, guruhli shakldagi mustaqil ishlarni bartaraf etadi, ya'ni talabalar guruhli loyiha ustida ishlash uchun bir joyda bo'lishlari shart emas, lekin ular bulutli hisoblash orqali istalgan joydan topshiriqlarni bajarishlari mumkin. Bulutli texnologiyalarga asoslangan mustaqil ta'lim mashg'ulotlarini videoaloqa va ovozli uzatish texnologiyalaridan foydalangan holda real vaqt rejimida bir-biri bilan ishlash, shuningdek hujjatlar ustida masofaviy hamkorlik qilish, ya'ni matn, jadval, taqdimot, grafik hujjatlarni birgalikda tahrirlash kabi subyekt va subyekt aloqasini tashkil qilish hamda amalga oshirish mumkin.

Internet texnologiyalarining rivojlanishi natijasida bir hujjat ustida bir vaqtning o'zida bir nechta foydalanuvchi ishlash imkoniyatini beruvchi internet tizimlari yaratila boshlandi. Bunday tizimlarning hozirgi vaqtga kelib bir nechitasi mavjud. Shu tizimlardan biri Google apps hisoblanadi. Bu bo'limda Google apps ning asosiy asbob-uskunalar bilan tanishib chiqamiz.

Google asbob-uskunalar va servislardan foydalanish o'quv jarayonini va axborot ta'lim maydonini loyihalashtirish imkoniyatini beradi. Veb muhitida Google Disk, Google Hujjatlar (matn, elektron jadval, taqdimotlar, grafik muharrirlari), Google taqvim (kalendar), Google formalari (so'rovnomalar yaratish), Google Hangouts (MERSenger) Google+, Google Blogger (saytlar yaratish) orqali o'quv jarayonini tashkillashtirish, boshqarish o'quv jarayoni sifatini oshirishga sabab bo'ladi.

Hamkorlikda ishlash imkoniyatini beruvchi uskunalar majmuasi Google docs – Google Hujjatlar (Google jadval, Google Forma, Google hujjat, Google taqdimot, Google rasm) deb umumiy nomlanib, uning ichiga matn, elektron jadval, taqdimotlar, grafik muharrirlari kiritish mumkin. Bir vaqtda bir hujjat ustida bir necha foydalanuvchi ishlashi mumkin bo'ladi.

Foydalanuvchilar dunyoning ixtiyoriy nuqtasidan internet tarmog'i orqali ularga taqdim etilgan hujjat ustida ishlashlari mumkin bo'ladi.



Google taqvim (kalendar) vaqtingizni rejalashtirishda, o'quv dars jadvalini tuzishda va talabalar bilan qayta topshirish vaqtlari, majlis va konferensiyalar, tug'ilgan kunlarni eslatib turish va boshqa imkoniyatlari mavjud. Google taqvim sizning mobil qurilmangiz bilan ham integratsiyalashishi mumkin. Google taqvimni bir o'zingiz yoki guruh bo'lib shakllantirishingiz mumkin bo'ladi.



Google blogger yordamida o'zingizning shaxsiy saytingizni (blogingizni) yaratishingiz mumkin. Masalan, informatika o'qituvchisining shaxsiy sayti. Bu yaratilgan saytga o'zingizning ilmiy-uslubiy ishlaringizni joylashtirishingiz, talabalarga o'zingizning faningiz bo'yicha o'quv majmualarni maxsus bo'lim ochib yuklab qo'yishingiz mumkin. Fan bo'yicha bo'layotgan ilmiy yangiliklarni berib borishingiz so'rovnomalar o'tkazishingiz mumkin bo'ladi.



Google Hangouts – kommunikatsiya elementi bo'lib, video, audio va kichik xabarlar yuborish imkoniyatini beruvchi servis hisoblanadi. Google Hangouts orqali siz vebinarlar tashkillashtirishingiz mumkin. Google apps ilovalari bepul bo'lib hech qanday litsenziya talab qilmaydi.



Umuman olganda, ta'lim tizimida bulutli texnologiyalardan foydalanish talabalarning o'z-o'zini nazorat qilishi va baholashi ta'limga nisbatan ijobiy munosabat shakllanishiga samarali ta'sir ko'rsatadi va u quyidagilarga imkon yaratadi:

- ✓ talabaga o'quv faoliyatini rejalashtirish;
- ✓ maqsad qo'yish va o'qish muammolarini hal qilish;
- ✓ o'quv materialini tizimlash;
- ✓ asosiy g'oyalarni va ikkinchi darajalilardan asosiysini ajratish;
- ✓ natijalarni baholash, test o'tkazish va axborotlarni qiyoslash orqali o'quv faoliyatining barcha bosqichlarida natijalarni baholash va o'zini baholash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ayupov R.H. Bulutli texnologiyalar.-Toshkent: O'DJTU, 2022 yil, 94 bet.
2. Голубев, О.Б. Использование «облачных» сервисов при обучении информатике // Сборник научных статей конференции «Системные стратегии: наука, образование, информационные технологии», ВГПУ — Выпуск 1. – Вологда, 2013. — С. 45
3. Заславская О.Ю. Возможности сервисов Google для организации учебно-познавательной деятельности школьников и студентов. // Научно-методический журнал. / Информатика и образование.– М., 2012, №1 (230). – С. 45-50;
4. Сейдаметова З. С., Сейтвелиева С. Н. Облачные сервисы в



TALABALARDA “UMUMIY TOPOLOGIYA” BO‘LIMINI O‘ZLASHTIRISHDA MOBIL ILOVALARNING O‘RNI

Atamuradova Dilshoda Ravshankulovna –
Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti, o‘qituvchi
E-mail: dilshodaatamuradova09@gmail.com

Annotatsiya. Oliy ta’lim muassasalari talabalarining “Umumiy topologiya” dan mustaqil o‘zlashtirishni tashkillashtirishi uchun mobil texnologiyalardan foydalanib, bo‘limga oid interaktiv multimedia vositalari, intellektual bilimlar xaritasi, bo‘limga oid topshiriqlar hamda bilim ko‘nikmani oshirishga, mustaqil fikrlashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Mobil saytlar, Mahalliy dasturlar, mobil ilova, topologik fazolar, ochiq yopiq to‘plamlar, onlayn, platforma, smartfon, planshet.

Mulohaza. Jadal rivojlanib kelayotgan bugungi zamonda hech birimiz mobil texnologiyalarsiz yashash tarzimizni tasavvur qila olmaymiz. Shunday ekan bu esa mobil sanoatning ham rivojlanishiga olib keladi. Xususan, oliy ta’lim muassasasi talabalarining ham mobil qaramlilik o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmaydi. Mobil qurilmalar yordamida oliy ta’limda ham mobil ta’limni rivojlantirish masalasini ko‘rib chiqish kerakligini taqozo etadi. Mobil texnologiyalar yordamida mobil ta’limni rivojlantirish, ya’ni har bir fan doirasidan kelib chiqqan holda talaba mustaqil o‘zlashtirishini rivojlantirishi uchun maxsus mobil ilovalar yaratilishi kerakligini anglatadi. Respublikamiz hamda Xalqaro miqyosida ilmiy sohada ish olib borayotgan olimlar mobil texnologiyalardan mustaqil o‘zlashtirishni shakllantirishi yo‘lga qo‘ydilar. Respublikamizdagi Oliy ta’lim muassasalari bosqichma-bosqich kredit-modul tizimida o‘qitishga o‘tmoqda. Bu tizimning asosiy jihati shundan iboratki, talabalarning auditoriyadagi o‘quv yuklamalari kamaygan holda, mustaqil ta’limga asosiy e’tibor qaratiladi. Natijada o‘quv jarayonini talaba o‘z ustida ishlashi, mustaqil izlanishiga, professor-o‘qituvchi esa tayyor adabiyotni berish funksiyasini cheklab, talaba mustaqil o‘rgangan adabiyotlarini tahlil qilishiga yo‘naltiriladi. Hozirda taqdim etilayotgan quyidagi maqolamiz “Umumiy topologiya” bo‘limidan mobil ilovalar yordamida mustaqil o‘zlashtirishlari uchun kichik tavsiyalar berib o‘tilgan.

Bo‘sh bo‘lmagan X to‘plam va uning qandaydir qismlaridan tashkil topgan

$$\tau = \{B_\alpha : B_\alpha \subseteq X, \alpha \in A\}$$

Oila berilgan bo'lsin.

1-ta'rif. Agar

$$(T1) \quad \emptyset \in \tau \text{ va } X \in \tau$$

$$(T2) \quad B_1, B_2 \in \tau \Rightarrow A_1 \cap A_2 \in \tau;$$

(T3) $N \subset \tau \cup N \in \tau$ kelib chiqadi degan shartlar bajarilsa, u holda τ oila X dagi topologiya, (X, τ) juftlik esa topologik fazo deyiladi.

(T1), (T2) va (T3) shartlar topologiya aksiomalari deyiladi.

Bunda " X to'plamda τ topologiya kiritilgan" yoki " τ oila X to'plamda topologiya hosil qiladi" yoki " τ oila X to'plamda topologiya tashkil etadi", yoki

" τ oila X to'plamda topologiya bo'ladi" yoki " X to'plam τ topologiya bilan ta'minlangan" va shu kabilar ishlatiladi.

Tayinlangan τ topologiya bilan qaralayotgan (X, τ) topologik fazo uchun qisqalik maqsadida " X topologik fazo" (yana ham qisqaroq " X fazo") iborasi ishlatiladi.

1-misol. $X = \{0, 1, 2, 3\}$ to'plamni qaraylik.

$$1) \quad \tau_{0X} = \{X, \{0\}\} \text{ oila topologiya aksiomalarini qanoatlantirmaydi.}$$

Xuddi shuningdek,

$\tau_{1X} = \{X, \{1\}\}, \tau_{2X} = \{X, \{2\}\}$ va $\tau_{3X} = \{X, \{3\}\}$ oilalar ham X da topologiya bo'lishmaydi.

Bu oilalarning har birida $\emptyset$ kiritilsa, u holda ular X da topologiya aksiomalarini qanoatlantirishadi.

Demak,

$$\tau'_{0X} = \{X, \{0\}, \emptyset\}, \tau'_{1X} = \{X, \{1\}, \emptyset\}, \tau'_{2X} = \{X, \{2\}, \emptyset\}, \tau'_{3X} = \{X, \{3\}, \emptyset\}$$

oilalarning har biri X da topologiya tashkil etadi.

2) $\tau_{0\emptyset} = \{\emptyset, \{0\}\}$ oila X da topologiya hosil qilmaydi. Agar mazkur oilada X kiritilsa, u holda hosil bo'lgan $\tau'_{0\emptyset} = \{X, \emptyset, \{0\}\}$ oila X da topologiya bo'ladi.

3) $\tau_{01} = \{X, \emptyset, \{0\}, \{1\}\}$ oila X to'plamda topologiya bo'lmaydi. Bu oilada $\{0, 1\}$ to'plam kiritilsa, hosil bo'lgan $\tau'_{01} = \{X, \emptyset, \{0\}, \{1\}, \{0, 1\}\}$ oila X da topologiya bo'ladi.

4) $\tau_{012} = \{X, \emptyset, \{0, 1\}, \{1, 2\}, \{0, 1, 2\}\}$ oila X to'plamda topologiya emas. Mazkur oilada $\{1\}$ to'plam kiritilsa, u holda

$$\tau'_{012} = \{X, \emptyset, \{1\}, \{0, 1\}, \{1, 2\}, \{0, 1, 2\}\}$$

oilalar X da topologiya bo'ladi.

Agar τ oila X to'plamda topologiya hosil qilsa, u holda τ oilaning elementlari X fazoning nuqtalari deb ataladi.

2-misol. $X = \{0, 1, 2, 3\}$ to'plamda topologiya tashkil etuvchi, 1.1) misolda keltirilgan oilalar bilan ta'minlangan fazolardagi ochiq to'plamlarni ko'rsatamiz.

(X, τ'_{0X}) fazodagi ochiq to'plamlar: $X, \{0\}$ va $\emptyset$. Xuddi shuningdek, $(X, \tau'_{1X}): X, \{1\}, \emptyset; (X, \tau'_{2X}): X, \{2\}, \emptyset; (X, \tau'_{3X}): X, \{3\}, \emptyset$.

E'tibor berish lozimki, $\{0\}$ to'plam (X, τ'_{0X}) da ochiq, lekin $(X, \tau'_{1X}), (X, \tau'_{2X})$ va (X, τ'_{3X}) larda ochiq emas.

Topshiriqlar. a) 1-misolning 2), 3) va 4) bandlaridagi topologik fazolarning ochiq to'plamlarini ko'rsating.

b) Aynan bitta to'plamga turli xil topologiyalar kiritilganda har bir topologik fazolar hosil bo'lishiga diqqat qiling. Bunda biror topologik fazoda ochiq bo'lgan to'plam boshqasiga ochiq bo'lishi shart emasligini misollar orqali tushunib oling.

c) Topologiyaning ta'rif va 1-misoldan foydalanib, X va $\emptyset$ to'plamlar (X, τ) ko'rinishdagi har qanday topologik fazoda ochiq bo'lishini tushunib oling.

Bo'sh bo'lmagan X to'plam va undagi ikkita τ_1 va τ_2 topologiyalarini qaraymiz. Agar (X, τ_1) dagi har bir A ochiq to'plam (X, τ_2) da ochiq bo'laversa, u holda τ_1 topologiya τ_2 topologiyadan kuchsizroq (yoki yirikroq) deyiladi va $\tau_1 \leq \tau_2$ kabi yoziladi.

Agarda $\tau_1 \leq \tau_2$ va $\tau_2 \leq \tau_1$ munosabatlardan ikkalasi ham o'rinli bo'lsa, u holda $\tau_1 = \tau_2$ (ya'ni X da bu topologiyalar ustma-ust tushadi).

3-misol. Bo'sh bo'lmagan ixtiyoriy X to'plam va uning undagi ikkita $\tau_\alpha = \{X, \emptyset\}$ va $\tau_d = \{A: A \subset X\}$ oilalarni qaraymiz. Ravshanki, τ_α oila ikkita elementdan iborat, τ_d oila esa X to'plamning barcha to'plamostilaridan tashkil topgan.

Topshiriq. Ikkita $\tau_\alpha = \{X, \emptyset\}$ va $\tau_d = \{A: A \subset X\}$ oila ham topologiya bo'lishini isbotlang.

τ_α topologiya X dagi antidiskret topologiya, τ_d topologiya X dagi diskret topologiya, deyiladi. $\tau_\alpha \leq \tau_d$ ekanligi ko'rinib turibdi.

Topshiriq. Har qanday τ topologiya uchun $\tau_a \leq \tau$ va $\tau \leq \tau_d$ bo'lishini tushuntiring. Bunda bu topologiyalarning barchasi aynan bitta to'plamda ajratilgan.

Agarda $\tau_1 \leq \tau_2$ va $\tau_2 \leq \tau_1$, munosabatlardan birortasi ham o'rinli bo'lmasa, u holda τ_1 va τ_2 lar taqqoslanmaydigan topologiyalar deyiladi.

Topshiriq. Biror to'plam tanlab, unda taqqoslanmaydigan topologiyalar juftliklarini quring.

Topologiya ta'rifidan ochiq to'plamlar quyidagi xossalarga egaligi kelib chiqadi:

- (O1) $\emptyset$ bo'sh to'plam va X to'plam ochiq to'plamlar bo'ladi.
- (O2) Ochiq to'plamlarning har qanday chekli oilasining kesishmasi ochiq to'plam bo'ladi.
- (O3) Ochiq to'plamlarning ixtiyoriy oilasining birlashmasi ochiq to'plam bo'ladi.

(X, τ) topologik fazo va $G \subset X$ bo'lsin. Agar $G \in \tau$ bo'lsa, yuqorida bayon etilganlariga ko'ra G to'plam X da ochiq bo'ladi. Agar $X \setminus G \in \tau$ bo'lsa, u holda G to'plam X da yopiq to'plam deyiladi.

Yopiq to'plamlar quyidagi xossalarga ega:

- (C1) $\emptyset$ bo'sh to'plam va X to'plam yopiq to'plamlar bo'ladi.
- (C2) Yopiq to'plamlarning har qanday oilasining kesishmasi yopiq to'plam bo'ladi.
- (C3) Yopiq to'plamlarning ixtiyoriy chekli oilasining birlashmasi yopiq to'plam bo'ladi.

Ochiq to'plam tushunchasining ahamiyati juda katta.

Ahamiyat bering! To'plamda topologiya kiritish degani va shu to'plamdagi (O1) – (O3) shartlarni qanoatlantiruvchi to'plamlar oilasini qurish degan ma'noni anglatadi. Bular esa aynan bitta ma'noni bildiradi.

Yopiq to'plamlarning ham ahamiyati ancha yuqori. Agarda biror to'plamda topologiya kiritilgan bo'lsa, u holda bu topologiya har bir elementining to'ldirmasi yopiq to'plam bo'ladi. Aksincha, agarda biror to'plamda (C1) – (C3) shartlarini qanoatlantiruvchi oila ajratilgan bo'lsa, u holda uning to'ldirmalaridan iborat oila berilgan to'plamda topologiya bo'ladi.

4-misol. $|X| \geq \aleph_0$ bo'lsin. Bunda X to'plamning quvvati $|X|$ orqali, natural sonlar to'plamining quvvati $\aleph_0$ (o'qilishi "alef-nol") orqali belgilangan. Ushbu oilani ajratamiz: $\mathcal{C} = \{A \subset X : |A| < \aleph_0\} \cup \{X\}$.

Topshiriqlar. a) $\mathcal{C}$ oila (C1) – (C3) shartlarni qanoatlantirishini tekshiring.

b) Ushbu $\tau = \{G \subset X : X \setminus G \in \mathcal{C}\}$ oila X da topologiya bo'lishini isbotlang.

τ_Z topologiya X dagi Zarisskiy topologiyasi deyiladi.

(X, τ_X) — biror topologik fazo bo'lib, Y esa X to'plamning qandaydir qismi bo'lsin. Y da quyidagi oilani aniqlaymiz:

$$\tau_Y^X = \{G \cap Y : G \in X\}$$

Topshiriq. τ_Y^X oila Y da topologiya hosil qilishini isbotlang.

τ_Y^X oila X dan Y ga sindirilgan topologiya deyiladi.

(X, τ_X) va (Y, τ_Y) topologik fazolarini qaraymiz. $Y \subset X$ hamda $\tau_Y \equiv \tau_Y^X$ bo'sa va faqat shu holdagina Y fazoni X fazoning qism fazosi deymiz.

5-misol. Ushbu to'plamlarni qaraylik:

$$X = \{0, 1, 2, 3\}, Y = \{1, 2, 3\}.$$

Ushbu: $\tau_X = \{X, \emptyset, \{0\}, \{1\}, \{0, 1\}, \{1, 2\}, \{0, 3\}, \{0, 1, 2\}, \{0, 1, 3\}\}$ oila X da topologiya bo'ladi. Quyidagi oila Y da sindirilgan topologiya bo'ladi.

$$\tau_Y^X = \{Y, \emptyset, \{1\}, \{3\}, \{1, 2\}, \{1, 3\}\}$$

(Y, τ_Y) topologik fazo faqat va faqat τ_Y yuqoridagicha aniqlangan bo'lsagina (Y, τ_Y) topologik fazoning qism fazosi bo'ladi.

Bunga o'xshash hollarda τ_X va τ_Y topologiyalarni taqqoslash haqidagi savol o'rinli emasligiga ahamiyat bering.

Ayrim hollarda fazoning quyidagi tipdagi to'plamlari ham qaraladi.

(X, τ) topologik fazoning ochiq-yopiq to'plami. Bu shunday $G \subset X$ to'plamki, $G \in \tau$ va $X \setminus G \in \tau$ bo'ladi.

(X, τ) topologik fazoning na ochiq, na yopiq to'plami. Bu shunday $G \subset X$ to'plamki, $G \notin \tau$ va $X \setminus G \notin \tau$ bo'ladi.

Topshiriq. (X, τ) topologik fazoni qaraylik, bunda $X = \{0, 1, 2, 3\}$,

$$\tau = \{X, \emptyset, \{0\}, \{1\}, \{0, 1\}, \{1, 2\}, \{0, 3\}, \{0, 1, 2\}, \{0, 1, 3\}\}$$

(X, τ) topologik fazoning ochiq to'plamlarini, yopiq to'plamlarini, ochiq-yopiq to'plamlarini, na ochiq, na yopiq to'plamlarini ko'rsating.

Takliflar: 1. Talabalarga mustaqil ta'lim jarayonini mobil ilovalar yordamida rivojlantirish uchun mavzuga doir qiziqarli masalalarni mobil ilovada bajarishni tashkillashtirish;

Mobil ilovani o'zida talaba qaysi bo'limdan o'zlashtirmagan bo'lsa shu bo'limni o'zlashtirguncha bo'limda qoldirish;

3. Mustaqil ta'lim vazifalarini hamda talaba fikr-mulohazalarini mobil ilovada birlashtirish

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Oliy ta'lim muassasalarining "Geometriya" fanini chuqurlashtirib o'qitiladigan bo'limlarida "Umumiy topologiya" o'quv mashg'ulotlarini mobil ilovalar orqali mustaqil o'rganish bo'yicha xorij va respublikamiz adabiyotlari tahlili oliy ta'limda innovatsion ta'lim texnologiyalari va tamoyillari asosida o'quv mashg'ulotlari rejalarini tuzish o'ta muhim pedagogik muammo sifatida batafsil ko'rib chiqilishi zarur, degan xulosaga kelindi. Oliy ta'lim muassasalarida ishlab chiqilgan o'quv mashg'ulotlarini mobil ilovalar yordamida mustaqil o'rganish ko'nikmalarini shakllantirishning metodik asoslari ta'lim jarayonida rejalashtirish va qo'llab o'qitish samaradorligini oshirish imkoniyatini yaratdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Qarshiboyev H.Q., Suvonov O., Qarshiboyev J.H. Mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etishning ilmiy-metodik asoslari. – Guliston, 2011. – 60 b.
2. Pedagogik texnologiya / O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini rivojlantirish markazi. – T.: TAFAKKUR, 2009. Pedagogik texnologiya: ta'lim jarayoniga tadbig'i (Zamonaviy pedagogik texnologiya asosida "Matematika o'qitish metodikasi" fanining modeli) I qism / Tojiev M., Alimov A.Ya. – 135 b.
3. Юнусова Д.И. "Олий таълимда математика фанларини ўқитиш методикаси" модули бўйича ўқув-услубий мажмуа, – Т.: 2016. –397 б.
4. Атамурадова Д.Р, Атабаева К.А Методы введения топологии // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences scientific journal, ISSN 2181-1784, SJIF 2021: 5.423, VOLUME 1, ISSUE 9; oktober 2021
5. Zaitov A.A, Atamuradova D.R An example of regular space on which every continuous function is constant // Academy of Science and Innocations, International Scientific journal Science and Innovation, Volume 1, Issue 1, (Ilm-fan va innovatsiyalar akademiyasi) xalqaro ilmiy jurnal, 2022-yil 1-son, ISSN:2181-3337, <https://doi.org/10.5281/zenodo.6502510>
6. Атамурадова Д.Р, Алламова М.К Сколько пределов имеет последовательность? // Fizika, matematika va informatika Respublika ilmiy-uslubiy jurnal, №6, 2021yil; B: 19-23
7. Atamuradova D.R, Madreymova A.N, Topologik fazo bazasi. // Urganch Davlat Universiteti "Ilm sarchashmalari" №9, 2021yil, B: 22-24;
8. Atamuradova D.R, Akbarova Sh.S Talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishda masofaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish // Fizika, matematika va informatika Respublika ilmiy-uslubiy jurnal, №4, 2022yil; B: 19-23
9. Атамурадова Д.Р, Аюбов К, Дилмуратов Д. Рекомендации по самостоятельному изучению темы «Аксиомы топологических



пространств» // Andijon Davlat Universitetining “Zamonaviy matematikaning nazariy asoslari va amaliy masalalari” Respublika ilmiy-amaliy anjumani, Andijon, 28 mart 2022 yil; B: 260-264;

MEDIAMAKONDAGI YANGILANISH VA SUN'IY INTELEKTNING TA'LIMGA TA'SIRI: KELAJAKKA TAYYORGARLIK

Baxovidinova Gulnoz To'likinovna – Farg'ona davlat universiteti tyutori

E-mail: bahovidinovagulnoz@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqola mediamakondagi yangilanish va sun'iy intellektning ta'limga ta'siri va kelajak avlodlar uchun oqibatlarini o'rganadi. Unda ta'lim sohasida sun'iy intellektning foyda va zararlari muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, ta'lim, kelajak avlod, tanqidiy fikrlash, raqamli savodxonlik, moslashuvchanlik.

Kirish Media landshafti va ta'lim sektori texnologiyalarning, ayniqsa sun'iy intellektning so'nggi yillardagi jadal rivojlanishi tufayli o'zgarib bormoqda. Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlar hamda sun'iy intellekt asosidagi kontent yaratish zamonaviy dunyoga qanday ta'sir qilishini ko'rib chiqiladi. Shuningdek, sun'iy intellekt shaxsiylashtirilgan ta'lim va avtomatlashtirilgan baholash tizimlari orqali ta'limni qanday yaxshilashi mumkinligi o'rganiladi. Bundan tashqari, sun'iy intellekt o'qituvchilarni almashtirishi mumkinligi xavfi va akademik halollik muammolari, jumladan ChatGPT kabi vositalarning ta'siri haqidagi xavotirlar muhokama qilinadi.

Mediamakondagi yangilanish

Media olami misli ko'rilmagan o'zgarishlar davrini boshidan kechirmoqda. Texnologiyaning so'nggi yutuqlari axborotni yaratish va almashish usullarini tubdan o'zgartirib yuborgani sir emas. Ushbu yangilanishlarni asosida uchta tendensiyaning borligini kuzatish mumkin:

- **Ijtimoiy tarmoqlarning o'sishi.** Facebook, Twitter va Instagram kabi platformalar ko'plab foydalanuvchilar, ayniqsa, yoshlar uchun asosiy axborot manbalariga aylandi. Ushbu o'zgarish ma'lumotga ega chiqish jarayonini erkinlashtirib, turli ovozlarni eshitish imkonini berdi.

- **Sun'iy intellekt yordamida kontent yaratish.** Sun'iy intellekt kontent yaratishda sezilarli yutuqlarga erishdi. Algoritmalar endi real videolar, maqolalar va hatto musiqa yaratishi mumkin. Bu shaxsiylashtirilgan kontent uchun ajoyib imkoniyatlarni ochib bersada, shuningdek, dipfeyk va noto'g'ri

ma'lumotlarning tarqalish ehtimoli oshiradi va tegishli xavotirlar keltirib chiqaradi[1].

- **Shaxsiylashtirilgan yangiliklar.** Ijtimoiy tarmoqlar va yangiliklar saytlari shaxsiylashtirilgan yangiliklar ulashish uchun algoritmlardan foydalanadi. Bu bir tarafdin qulay bo'lishi mumkin, lekin u biz faqat fikrlarimizga mos keladigan narsani ko'rishimiz mumkin bo'lgan pufakchalarni yaratadi, bu esa tanqidiy fikrlashni rivojlanishiga to'sqinlik qiladi[2].

Bu o'zgarishlar, ayniqsa, raqamli texnologiyalardan ko'proq foydalanadigan yoshlarda yaqqol seziladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, hozirgi kunda yoshlar chalg'ishga moyilroq va ular qisqa kontentni afzal ko'rishadi, bu esa murakkab masalalarni chuqurroq tushunishni qiyinlashtirishi mumkin[3].

Internetda ma'lumotlarning tez tarqalishi noto'g'ri ma'lumotlar va soxta yangiliklarning ko'payishiga sabab bo'ladi. Onlayn kontent yaratish va tarqatishning qulayligi haqiqat va yolg'onni ajratishni qiyinlashtiradi. Shaxsiylashtirilgan yangiliklarga tayanish turli fikrlarni qabul qilishni cheklab, tanqidiy fikrlashni rivojlanishiga to'sqinlik qiladi[4]. Sun'iy intellekt g'oyalar targ'ibotini yanada qulayroq qilmoqda, bu esa haqiqiy yangiliklarni aniqlashda muammolarni keltirib chiqaradi[5]. NewsGuard ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilning mayidan 2024-yilning iyunigacha sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan yolg'on ma'lumotlarni nashr etuvchi saytlar soni 49tadan 957tagacha, ya'ni 19 baravardan ko'proqqa o'sgan[6].

Sun'iy intellekt va ta'lim

OpenAI tomonidan 2022-yilning kuzida matnlarni qayta ishlash chatboti – ChatGPTni ommaga taqdim etganidan so'ng sun'iy intellekt ko'pchilikning e'tiborini tortdi. Sun'iy intellekt texnologiyalari ta'lim sohasiga qanday integratsiyalashishi mumkinligi hali ham o'rganilmoqda. Sun'iy intellekt axloq, adolat va ma'lumotlar xavfsizligining muhim masalalariga qanday ta'sir qilishi mumkinligi haqida hali to'liq va aniq tushuncha mavjud emas. Jiddiy xavf-xatar sifatida an'anaviy ta'lim tizimiga zararni ham ko'rib chiqish mumkin. ChatGPT erasida insondan qolishmaydigan darajada mukammal ilmiy matn yoza oladigan kompyuter tizimlarining maydonga chiqishi va qisqa vaqt ichida millionlab talabalar, tadqiqotchilar orasida ommalashishi dunyo ta'lim tizimida akademik halollik tushunchasiga tahdid qilmoqda. Kurs ishining talaba emas, balki ChatGPT yoki uning muqobillari, jumladan Gemini yoki Copilot tomonidan yozilganini ajratib olish imkonsiz darajaga yetdi va bu, umuman, ta'lim jarayonining maqsad-muddaosini yo'qqa chiqaradi[7].

Biroq, ta'limda sun'iy intellektni maqsadli ishlatish foyda keltirishi mumkinligi allaqachon aniqlangan[8]:

- **Sun'iy intellektga asoslangan o'quv o'yinlari.** O'qituvchilar o'yinlar orqali o'rganish samarali ekanligini ancha avval tushunishgan va rivojlangan

mamlakatlarda maktablar kompyuter o'yinlari paydo bo'lishining dastlabki kunlaridan boshlab 1974-yilda chiqarilgan „The Oregon Trail“ kabi o'quv kompyuter o'yinlaridan foydalanib kelishmoqda. Zamonaviy sun'iy intellektga asoslangan o'yinlar foydalanuvchiga yo'naltirilgan dasturlash orqali maqsadli o'rganishni ta'minlashi mumkin.

- **Moslashuvchan ta'lim platformalari.** „Carnegie Learning“ va „Knewton“ kabi ta'lim texnologiyalari rahbarlari real vaqtda o'quv faoliyati va mazmunini moslashtiradigan adaptiv platformalarni taklif qilishmoqda. Uzluksiz baholash tizimi ushbu platformalarga o'quvchilar bilan aloqani ta'minlashga hamda kerak bo'lganida o'z yondashuvini o'zgartirishga yordam beradi. Moslashuvchan o'rganish metodologiyalari turli xil: ularning turlari oddiy qoidalarga asoslangan tizimlardan tortib ko'p qirrali mashinali o'rganish algoritmlarigacha mavjud.

- **Avtomatlashtirilgan baholash va qayta aloqa tizimlari.** Baholash, rejalashtirish va ma'muriy ishlarni avtomatlashtirish orqali sun'iy intellekt tizimlari o'qituvchi va murabbiylarga vaqt va kuchlarini talabalar bilan o'zaro munosabatlarni kuchaytirishga yo'naltirishlar uchun imkoniyat yaratadi. Bu ta'limda sun'iy intellektdan foydalanishni oqlovchi eng keng tarqalgan argumentlardan biridir.

- **Talabalarni qo'llab-quvvatlash uchun chatbotlar.** Qator oliy ta'lim muassasalarida universitet chatbotlari talabalarga qabul jarayoni, imtihon, kurslar va talabalar xizmatlari haqidagi savollariga javob berib, ma'lumot taqdim etish va eslatmalarni yetkazib berish orqali yordam bermoqda. Boshqa chatbotlar talabalarga yozish ko'nikmalarini yaxshilash va o'qish vaqtini optimallashtirishga ko'maklashib kelmoqda.

- **Intellektual ta'lim tizimlari.** Ko'pincha matematika yoki til kabi bir fanga qaratilgan aqlli repetitorlik tizimlari inson repetitor bilan yakkama-yakka ishlashni imitatsiya qiladi. Duolingo ilovasi va Khan Academy'ning Kanmigo o'quv tizimi bunga yaqqol misol bo'loladi.

Kelajak avlod va sun'iy intellekt

Sun'iy intellektning hayotimizning turli jabhalariga jadal integratsiyalashuvi kelajak avlodlar uchun qiyinchilik ham, imkoniyatlar ham yaratadi. Bunday davrda muvaffaqiyatga erishish uchun talabalar o'zlarida texnik nou-xau va inson qobiliyatlarini birlashtiradigan ko'nikmalarni rivojlantirishlari kerak bo'ladi:

- **Tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish.** Sun'iy intellekt vazifalarni avtomatlashtirish va ma'lumotlarni qayta ishlashda ustun bo'lsada, hozirda u mustaqil fikrlash va muammolarni ijodiy hal qilish uchun inson qobiliyatiga ega emas. Yoshlar axborotni tanqidiy baholashlari, sun'iy intellekt tizimlaridagi fundamental xatolarni aniqlashlari va tayyor javobga ega

bo'lgan murakkab masalalarga innovatsion yechimlar ishlab chiqa olishlari kerak bo'ladi.

- **Raqamli savodxonlik.** Sun'iy intellekt texnologiyalarining imkoniyatlari va cheklovlarini tushunish juda muhim rol o'ynaydi. Talabalar o'zgaruvchan raqamli landshaftga ko'nikib borishlari, ishonchli ma'lumotni noto'g'ri ma'lumotdan ajrata olishlari va o'zlarining o'quv jarayonlarini yaxshilash uchun sun'iy intellekt vositalaridan samarali foydalanishlari kerak.

- **Ma'lumotlarni tahlil va talqin qilish.** Ma'lumotlar tobora keng tarqalayotgan bu davrda tahlil qilish, talqin qilish hamda foydali xulosalar chiqarish qobiliyati muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Yoshlar ma'lumotlar bilan oson ishlashlari, qonuniyat va tendensiyalarni aniqlay olishlari va o'z xulosalarini samarali tarzda yetkazib bera olishlari kerak bo'ladi.

- **Moslashuvchanlik va o'rganishdan to'xtamaslik.** Texnologik o'zgarishlar sur'ati tezlashmoqda va bugun muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar ertaga yetmay qolishi mumkin. Shuning uchun ham kelajak avlod hayotlari davomida doimiy ravishda davrga moslashishlari va yangi ko'nikmalarni o'rganishdan to'xtamasliklari kerak.

Xulosa

Sun'iy intellektning hayotimizning turli jabhalariga jadal integratsiyalashuvi kelajak avlod uchun turli qiyinchiliklar, bir vaqtning o'zida imkoniyatlar ham yaratadi. Sun'iy intellektga asoslangan dunyoda muvaffaqiyatga erishish uchun yoshlar o'zlarida kerakli ko'nikmalarni rivojlantirishlari kerak bo'ladi. O'qituvchi va murabbiylar esa ularda ijodkorlik va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish orqali kelajak avlodni yangi voqelikka tayyorlashda muhim rol o'ynaydilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Melanie Mitchell. Artificial Intelligence: A Guide for Thinking Humans. Picador. 2019.
2. Eli Pariser. The Filter Bubble: What The Internet Is Hiding From You. Penguin Books Limited. 2011.
3. Monica Anderson, Jingjing Jiang. Teens, Social Media and Technology. Pew Research Center. 2018 – Havola: <https://www.pewresearch.org/internet/2018/05/31/teens-social-media-technology-2018/>
4. Kalev Leetaru. A Reminder That 'Fake News' Is An Information Literacy Problem - Not A Technology Problem. Forbes. 2019 – Havola: <https://www.forbes.com/sites/kalevleetaru/2019/07/07/a-reminder-that-fake-news-is-an-information-literacy-problem-not-a-technology-problem/?sh=3e5cea466a6f>



5. Pranshu Verma. The Rise of AI Fake News Is Creating a 'Misinformation Superspreader'. The Washington Post. 2023 – Havola: <https://www.washingtonpost.com/technology/2023/12/17/ai-fake-news-misinformation/>
6. Tracking AI-enabled Misinformation: 802 'Unreliable AI-Generated News' Websites (and Counting), Plus the Top False Narratives Generated by Artificial Intelligence Tools (Last Updated June 10, 2024). NewsGuard. 2024 – Havola: <https://www.newsguardtech.com/special-reports/ai-tracking-center/>
7. Botir G'ofurov. O'zbekistonda sun'iy intellektning kelajagi qanday? Eng so'nggi trendlar va voqealarga nazar. Kun.uz. 2023 – Havola: <https://kun.uz/news/2023/10/26/ozbekistonda-suniy-intellektning-kelajagi-qanday-eng-songgi-trendlar-va-voqealarga-nazar?q=%2Fuz%2Fnews%2F2023%2F10%2F26%2Fozbekistonda-suniy-intellektning-kelajagi-qanday-eng-songgi-trendlar-va-voqealarga-nazar>
8. Ilana Hamilton. Artificial Intelligence In Education: Teachers' Opinions On AI In The Classroom. Forbes. 2023 – Havola: <https://www.forbes.com/advisor/education/it-and-tech/artificial-intelligence-in-school/>

ZAMONAVIY TA'LIMNI TASHKIL ETISH – DAVR TALABI

Fayzullayeva Dilnavoz Jahongir qizi –
Chirchiq davlat pedagogika universiteti 1-
bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqola ta'limda zamonaviy texnologiyalarni takomillashtirish va bunga yoshlarni jalb qilishga qaratilgan islohotlar, taklif va mulohazalardan iborat. Shuningdek, klaster asosida tashkil etilgan tizim faoliyati haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: texnologiya, ta'lim, takomillashtirish, innovatsiya, klaster.

Bugungi kunda jahonning qaysi bir rivojlangan davlatlarini olmaylik, ta'lim sohasida, ayniqsa, maktab yoshidan boshlab san'at, xususan, tasviriy san'at haqidagi bilimlarini rivojlantirishga katta ahamiyat berib kelinmoqda. Inson hayoti, turmush-tarzi, undagi o'zgarishlar atrof-muhitdagi buyumlar qurshovida kechadi. Rang-barang buyum va jismlar borliqqa go'zallik va nafosat baxsh etadi, insonga shu qonuniyatlar orqali qarashga undaydi. Respublikamizning barcha ta'lim jabhalarida bo'lganidek, tasviriy san'at sohasi



ustida anchagina izlanishlar olib borilgan¹. Ta'lim muassasalarida talabalarning ijodiy faoliyatlarini rivojlantirish sohasida ijobiy natijalarga erishishga imkon beradigan faol ta'lim berish usullarini amalda tatbiq qilish ustida ijobiy ishlar qilinmoqda.

Hozirgi kunda, shubhasiz, eskirgan pedagogik usullar yordamida yangicha sifatli ta'lim olish kutilgan samara bermaydi, nazarimizda. Ta'lim jarayoni zamon bilan hamnafas yangi innovatsion texnologiyalarni talab qilmoqda. Bizni hamisha o'ylantiradigan savol: "Men kelajakda kim bo'laman? O'z maqsadlarimga qanday erishaman? Bu yo'lda qanday sinovlarga duch kelaman? Hayotim davomida o'z maqsadimga erisha olamanmi? Maqsadimga erishishim uchun qanday ishlar qilishim kerak? Ota-onamga, yurtimga foyda keltiruvchi shaxs bo'lamanmi?" Bunday savollar hozirgi kunda aksariyat yoshlarni qiynaydi. Ayniqsa, bitiruvchi o'quvchilar qay yo'nalishda o'zlarini topa olishlari barchani qiziqtiradi. Dunyoni nima o'zgartiradi? Ilm, daromad, manfaat – bu narsalar qayerdan keladi, albatta, yoshlardan, yoshlar esa bu biz. Kelajagimizni qanday qurish esa o'z qo'limizda. Har bir inson har kuni qiladigan ishini xuddi birinchi marta qilgandek qilsa, ana shundagina ishida samar va rivojlanish bo'ladi.

Biz odamlar barcha narsaga osonlik bilan erishishni istaymiz, qilayotgan ishimizdan zavqlanishni va ko'p mablag' topishni xohlaymiz. Shu sababli ham hozirgi kunda ta'lim tizimiga yangi o'zgarishlar kiritilmoqda. Zamonaviy texnologiyalar turli g'oyalar va investitsiyalar ta'lim sohasidagi turli muammolarga yechim va istiqbollar olib kelmoqda. Biz hozirgi kunda kompyuterlashgan ta'lim dasturi bo'yicha turli natijalarga erishmoqdamiz. Bu jarayonda biz, asosan, darsliklarni internetdan olamiz, ommaviy axborot yangiliklaridan turli bilimlarga ega bo'lamiz, zamonaviy ishlab chiqarishni yo'lga qo'yamiz. Chet ellik talabalar bilan onlayn muzokaralar o'tkazamiz. Mustaqil ta'lim olish tizimini "O'rgatib o'rganamiz" loyihasi asosida olib boramiz. Bu bizga beradigan natija shundan iboratki, biz olgan bilimlar nafaqat o'zimizga, balki butun dunyo talaba yoshlariga foydasi tegadi. Zamonaviy texnologiyalar bizga mana shu bilimlarni o'zlashtirishda va yetkazib berishda o'zining katta hissasini qo'shadi. 2017–2021-yillarda oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish dasturlari ishlab chiqildi. Bunda o'quv dasturlari yanada takomillashtirildi. Pullik xizmatlarni ko'rsatish va moliyalashtirishning qo'shimcha manbalarini izlashda oliy o'quv yurtlarining vakolatlarini kengaytirish yo'li bilan ularning mustaqilligi bosqichma-bosqich rivojlantirilib borildi. 2023–2024-yillarda esa bu rivojlanishning foizi ko'tarildi.

¹ Berdiyev D.A.. Tasviriy san'atda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati //So'nggi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi. – 2023. – T. 6. – №. 4. – C. 54-58.



Zamonaviy texnologiyalashtirilgan maktablar, prezident maktablari, xususiy universitetlar oddiy maktablardan farqli ravishda katta natijalar bermoqda. O'rta ta'limda ko'plab o'quvchilar chet eldagi nufuzli universitet talabasiga aylanmoqda, 15 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan o'quvchi yoshlar esa IT sohasiga o'zining g'oyalarini olib kirib katta natijalarga erishmoqda. Buning barchasi ta'lim tizimiga texnologiyalarning kirib kelishi natijasi desak, adashmagan bo'lamiz.

2024-yil 6-fevralda Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 2024-yilda ta'lim, sog'liqni saqlash, raqamlashtirish, madaniyat va sport sohalarida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ustuvor vazifalar yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi.

Unda mutasaddilar 1-maygacha talab yuqori bo'lgan 100 ta kasbni tanlab, Germaniya, Shvetsiya va Buyuk Britaniya tajribasi asosida kasb standartlarini ishlab chiqarish topshirildi.

Bunda kasbga talab ish beruvchi ehtiyojlariga moslashadi. Ish beruvchilarning vakillari ta'lim muassasasida joylashish uchun juda katta imkoniyatlar yaratiladi. Ular bilan bir oliygoh, texnikum va texnopark, laboratoriya va amaliy mono va IT markazlar tashkil etish shartligi ko'rsatib o'tildi. Talabalar amaliyotni ko'proq yangi tashkil etilayotgan korxonalarda o'tkazish lozim²ligi ta'kidlandi.

Shuningdek, maktablarda o'rgatish mumkin bo'lgan 50 ta kasb-hunarlar ro'yxati shakllantirilib, har biri bo'yicha o'quv hamda amaliyot dasturlari ishlab chiqildi. Maktablarda maxsus ustaxona va kasb-hunar uchun maxsus xonalar ajratilib, "Kasbiy ta'lim ustasi" lavozimi joriy etildi.

Tadbirkorlar, usta va mutaxassislarni jalb qilgan holda o'quvchilarning ishtiyoqi va qiziqishlaridan kelib chiqqan holda kasbiy ta'limga yo'naltirilgan mashg'ulotlar o'tkaziladi va kasb to'garaklari tashkil etiladi.

Maktablardagi bo'sh joylar tadbirkorlarga o'quvchilarni kasb-hunarga o'qitish uchun tekin foydalanishga beriladi. O'quv kursini tamomlab, imtihondan o'tgan o'quvchilarga malaka sertifikati beriladi.

Bu bizga berilayotgan imkoniyatlardan biri hisoblanib, kelajakni takomillashtirishda o'quv bazasini kengaytirishda yordam beradi. Qilinayotgan ushbu ishlardan maqsad shuki, O'zbekiston 2030-yilda belgilangan keng ko'lamli islohotlarni 2024-yilda samarali amalga oshirish, sifatli ta'limni tashkil etish, o'quvchilarni Respublika va xorijiy oliy ta'lim muassasalariga imtiyoz asosida kirish, yoshlarni har tomonlama yetuk kadr sifatida tarbiyalash kabilarni o'z ichiga oladi.

² 2024-yil 6-fevralda Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 2024-yil davomida ta'lim, sog'liqni saqlash, raqamlashtirish, madaniyat va sport sohalarida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ustuvor vazifalar yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishidan



Chirchiq davlat pedagogika universiteti, "San'atshunoslik" fakulteti, "Tasviriy san'at va dizayn" kafedrasida klaster asosida tashkil etilgan o'qitish tizimi yo'lga qo'yilgan. Klaster hamkorlik demakdir. Ya'ni kafedramiz umumta'lim maktablari hamda musiqa va san'at maktablari bilan o'zaro hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Kafedra "Talaba talabaga ustoz, talaba talabaga shogird" tamoyili asosida faoliyat olib boradigan to'garaklar tashkil qilgan. Bunda professor-o'qituvchilarimiz boshchiligidagi 10 ta to'garak bo'lib, ular qoshida mini to'garaklar tashkil etilgan. To'garaklarga jami 141 nafar talaba jalb etilgan. Maktab o'quvchilaridan 32 nafari talabalar o'tadigan mini to'garaklarga qatnashishadi. Fakultet qoshida tashkil etilgan "Art studio" ijodiy markazida ham maktab o'quvchilari rangtasvir, grafika va kitob grafikasi yo'nalishida tahsil olishmoqda. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad bolalarni bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularda san'atga bo'lgan mehr-muhabbatni kuchaytirishdir. Shu bilan birgalikda markazda oliy o'quv yurtlariga o'qishga topshirmoqchi bo'lgan o'quvchilarni ham jalb qilgan. Klaster yondashuviga asoslangan ustozlikning ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va pedagog-rassomlarning yangi avlodini tarbiyalash uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham biz innovatsion ta'lim klasteri asosida ish olib boriladi.

Jamiyatdagi barcha jabhalarda faol, jonkuyar, fidoyi va kreativ fikrlaydigan, dunyoqarashi keng mutaxassislar har doim kerak. Buning zahirida faqat va faqat chuqur bilim egallagan, ilmni sevgan, ta'limga jiddiy e'tibor qaratadigan izlanuvchan yoshlarni tarbiya toptirish davlatimizning ustuvor maqsadlaridan biridir. Bunga yurtboshimizning ushbu so'zlarini xulosa sifatida qayd etishimiz mumkin. "Agar mendan sizni nima qiynaydi? – deb so'rasangiz, farzandlarimizning ta'lim va tarbiyasi, deb javob beraman".

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Султанов, Х. (2023). Мустақил таълимни ташкил этиш орқали талабалардаги касбий ва ижодий қобилиятларини фаоллаштириш. International scientific and practical conference on the Topic: "Priority Areas for Ensuring the Continuity of Fine Art Education: Problems and solutions", 1(01).
2. Doston Abduvoitovich Berdiyev Maktablarda tasviriy san'at fanini o'qitishda kelajak ta'limi steam interaktiv ta'limini rivojlantirish // "Science and Education" Scientific Journal/ ISSN 2181-0842 February 2022/ Volume 3 Issue 2 Pages: 687-690
3. Бердиев Достон Абдувоитович, Султанов Хайтбой Эралиевич Тасвирий санъатда кластер ёндашуви сифатида стеам таълимини татбиқ этиш// Научный журнал Интернаука/ часть 7. Москва, 2022 № 15(238). – ст 13-14



4. X Э Султанов. (2023). Талабаларни фаоллаштиришда халқаро ҳамкорликни ривожлантиришнинг таъсири. Pedagog's journal 34 (3), 73-78.
5. Berdiyev Doston Abduvoitovich. (2023). Tasviriy san'atning fanlararo aloqalar tizimidagi o'rni. Pedagog's journal, 31(1), 142-148.
6. Abduvoitovich B. D. Tasviriy san'atda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati //So'nggi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi. – 2023. – T. 6. – №. 4. – C. 54-58.
7. Berdiyev Doston Abduvoitovich. (2023). Steam ta'limini tatbiq etish orqali tasviriy san'at fanini o'qitish metodikasi mazmunini takomillashtirish usullari. O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali, 2(18), 187-193.
8. Berdiyev Doston Abduvoitovich (2023). Umumta'lim maktablarida tasviriy san'atni o'qitish muammolari (Tasviriy san'atni o'qitish metodikasi tarixi). Scientific impulse. – 1, – 9 (May), – 520-527.
9. Fayzullayeva Dilnavoz Jahongir qizi (2024). San'atga qiziquvchi o'quvchilar bilan ishlashda "Art-studio" ijodiy markazining ahamiyati. "Tasviriy san'at va musiqa ta'limida o'qitishning dolzarb muammo va yechimlari" Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 327-329 bet
10. Abduvoitovich, B. D. (2024). Tasviriy san'at orqali bolalarda ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirish. Pedagog's, 51(1), 112-114.

FROM DIGITAL TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL SYSTEM PROSPECTS

Jumamuratova Gulziba – Student of the Faculty
of Economics of Karakalpak State University
E-mail: jumamuratovagulziba3@gmail.com

Annotation: *In this article, the priority areas of development of the educational process are identified based on the application of digital technologies in the higher education system of our republic and the analysis of their capabilities. Also in the field of education, through the study, systematization and generalization of the existing practice in drawing scientifically based conclusions on the introduction of digital technologies in higher education, not only in terms of their importance and in what form they are introduced, suggestions are given.*

Keywords: *Educational process, digital technology, information and communication technologies, higher education system, modern education,*



digital knowledge, Internet system, distance learning. Pedagogical technologies, reliability of Education, multimedia tools.

Introduction From the first years of the independence of the Republic of Uzbekistan, attention was paid to the issue of reforming the education system at the level of state policy, and the main goal was to educate the young generation in conditions suitable for world standards, to develop into a mature person, and to reveal their abilities and talents.

All citizens living in the country, including young children and pensioners, are forming the idea that all problems in society can be solved through digital technologies. In addition, the mobilization of production and management processes, for example, in the banking sector, is also a question of competition between robots and workers.

With the undoubted benefit of digital technologies, issues related to ethical, personal data protection, and legal aspects of competition between robots and employees of organizations are increasingly being considered.

In this regard, as the President of our country, Shavkat Mirziyoyev, said, "To achieve development, it is necessary to acquire digital knowledge and modern information technologies. This gives us the opportunity to take the shortest path to ascension. After all, information technologies are deeply penetrating all areas of the world today.

Of course, we know very well that the formation of the digital economy requires the necessary infrastructure, a lot of money, and labor resources. However, no matter how difficult it is, if we don't start it today, when will we?! Tomorrow will be too late" [1].

It is possible to widely introduce digital technologies in state and community management and the social sphere, increase efficiency, and, in a word, dramatically improve people's lives. The digital economy is not only a type of activity, but also a business, industrial facilities, quality education and services. The term "digital" refers to the active use of information technologies in all areas. In the ordinary economy, material goods are considered the main resource, in the digital economy, it is information and data that can be processed and transmitted. After their analysis, a solution for proper management is developed.

Research methodology and results From the experience of using computer telecommunications in various fields of education, it can be seen that information technologies create a number of positive opportunities for us, including:

1) organization of various types of collaborative scientific research by professors, teachers, scientific staff and students (really creative research, independent practical activity, independent knowledge acquisition, practical



creative activity and other types of cooperation with the help of various scientific and practical projects);

2) organizing and delivering quick expert advice to the public studying at the scientific-methodological center;

3) organization of the network of distance education and training of pedagogical personnel ;

4) quick information exchange;

5) to develop the skills of mutual exchange of ideas, the culture of communication, and their opinions quickly and easily among the partners in education, regardless of whether it is a student, pupil, teacher, or researcher. And teaching clear expression;

6) to develop the cultural and social skills and abilities of young people as a result of the exchange of ideas with comprehensive positive information about cultural, ethnic, and humanitarian issues [3].

When using information technologies in the educational process, we should teach students not only to see and accept information on the screen, but also to participate creatively in this process. Connecting the world of hidden opportunities connected with the didactic features of education directly with computer telecommunications has modern and promising goals in this field of education.

As a didactic function, we understand the manifestation of the external properties of educational tools used for certain purposes in the educational process.

As research methods, the study, systematization and generalization of normative documents and existing practices were used to draw up conclusions related to the formation of a scientifically based approach to the introduction of digital technologies in higher education.

It should be noted that the "COVID-2019" pandemic has affected the education system as well as all other sectors, including kindergartens, schools and higher education institutions, all of which went on vacation early. According to UNESCO, 1.7 billion students around the world were deprived of traditional education due to the suspension of classes. The closure of universities in more than a hundred countries forced 90 percent of the world's students to stay at home.

As of March 3, 2020, UNESCO reported that 290.5 million pupils and students were out of school due to the temporary closure of educational institutions in 13 countries and urged them to switch to distance education.

According to the data, only 60% of the countries that closed educational institutions due to the pandemic in the past period have switched to full digital education. Some international experts emphasize that it is impossible to completely switch to online education and that this process should be



considered as a way out of a problematic situation, otherwise the quality of education will decrease, while others emphasize that a new era has begun for modern education. The intellectuals of some countries are promoting the issue of the provision of distance education.

According to Internet sources, 95% of students in only about ten countries have a computer today. In Indonesia, 34 percent of young people have enough access to the Internet. In other countries, this indicator is much lower. At the same time, this indicator is not at a high level in the Republic of Uzbekistan. The reason for this is that the Internet infrastructure in remote areas is not well-developed. And this, as some experts predict, will cause the quality of education to drop as much as possible [2].

Well, here comes the question. Are we ready for digitization?

Being able to foresee the danger and correctly assess its results and consequences, ensures a safe exit from the situation. After the spread of the pandemic around the world, the necessary measures were taken to ensure the continuity of the educational process in our country, as well as in the economy, healthcare, and service sectors. In particular, this year

On March 17, 2020, the President's decision "On measures for the widespread introduction of digital technologies in the city of Tashkent" was adopted, and in this decision, specific tasks for the digitization of all areas of education were defined.

From March 23 of this year, televised lessons for students began to be broadcast. In addition, several higher education institutions have launched virtual learning systems for students. For example, at the Tashkent State University of Uzbek Language and Literature, named after Alisher Navoi, the "Organization and Management of the Educational Process" information system and the MOODLE distance learning platform were launched. On the official websites of other higher education institutions, distance learning platforms such as MOODLE, Platonus, Moodle LMS, SRS (Student Records System), MOOC, and Google Classroom, as well as Reader applications for mobile phones and tablets, have been launched, and online classes have begun. In addition, the software for the distance education platform "remote education" was developed and implemented in a short period of time at the Tashkent Financial Institute.

Prestigious private educational centers in our country have also launched online education based on the needs of the times. This process itself marks the beginning of a new stage in the education system of our country. The reason is that, until now, no educational center has been able to switch to such an arrangement.

It is not surprising that today's educational system is being absorbed by digital technologies, because many things that are offered in the information



space today serve as a basis for serious analysis and pedagogical study. It is also important that, in recent years, no research has been conducted on the basis of any state project or survey on the problems of "digitalization" in education or its impact on its formation [3]. At the same time, we can see the importance of the influence of the environment on the Internet system on the minds of young people in the reports of the government, modern mass media, pedagogical public discussions, research by graduate students and researchers, as well as deputies.

It should be noted that before, we were limited to the implementation of digital technologies in all spheres, i.e., industry, economy, banking and other spheres. Today, taking into account that the digital economy is rapidly developing, deputy heads of all areas of digital development are included in the position. Digitization activation is all.

Implemented in business structures. Today, digital technologies are "aggressive" in all areas, especially where economic benefits are found, and are supported at all levels [4].

The dynamics of the processes taking place in the economy require an active position of the educational community in the analysis and development of proposals for the development of higher education in the digital transformation of the economy.

What needs to be done to effectively use digital technologies in education while maintaining the quality of teaching? Firstly, we must improve the Internet infrastructure in our country, increase the quality of services provided by mobile operators, and create conditions and privileges for the most vulnerable population, especially students and young people, to master the latest achievements of modern information and communication technologies.

Secondly, to expand the scope of the use of digital technologies in the organization of the educational process and to develop information resources, teaching tools and distance learning technologies; to attract creative students to university digitization projects; and to comply with the normative and legal documents regulating the activities of higher education institutions. To make proposals to the competent bodies on making changes, to organize centers including structures equipped with high-efficiency digital devices, classrooms, laboratories, media studios, etc.

Use in institutions.

Thirdly, to ensure the solid integration of modern information and communication technologies and educational technologies, in this regard, to create additional conditions for the continuous development of the professional skills of pedagogues.



Fourth, organizing and conducting courses for teacher training on topics such as the use of interactive presentation systems and the development of interactive and multimedia presentations in connection with the Internet for lectures and seminar classes.

Fifth, to implement the process of distance education at any time using real-time interactive presentation systems, video conference systems, virtual halls, and electronic resources.

Sixth, the use of cloud technologies, virtual reality, augmented reality and 3D printing in the development of didactic materials and experience designs, the use of digital didactics and digital learning models, projects for teachers and students, diploma theses, scientific research, etc. discuss

It is necessary to develop scientific websites. Only then, using digital technologies, we will be able to provide students and young people with knowledge at the level of today's demand without reducing the quality of education. Because if the tablet becomes an element of education, children will start the learning process with great interest.

It is equivalent to combining classical education with play. As a result, the learning process improves, as does assimilation, the level of education, and the efficiency of personnel training. An educated generation and professional personnel are the guarantee of the development of society on a large scale.

Conclusion In conclusion, summarizing the use of information technology in the educational system, it is possible to emphasize that today's classrooms are very different from ten years ago, and classrooms are equipped with computers, iPads, tablets, smart boards and others equipped with various educational technologies. As in other parts of the world, a new screen generation of the digital generation - television, computer, tablet, phablet, smartphone and smartwatch - is emerging in Uzbekistan. As a result of having such a dense digital environment and constant interaction with it, the thinking and information processing of today's students are fundamentally different from previous thinking and information processes. The digital generation cannot and should not be taught the way our parents did. It is not possible to use blackboards and white chalk to teach this generation.

Changing the blackboard to white and the chalk to a marker doesn't change anything, it's not the way to motivate today's students to learn and develop the skills to succeed in the job market.

It should also be noted that teachers retain the main role in the interactive learning process, focused on the needs of students. The reputation of the teacher and the effectiveness of his activities depend not only on the level of knowledge in the course content and his pedagogical ability, but also on the level of the teacher's use of modern information and communication technologies in the collection, processing and teaching of specific educational



material. In other words, education in the digital age must be revised, and the educational paradigm must change because students no longer want to learn in the traditional way, and teachers should not continue to teach in such a traditional way but introduce new innovations in the classroom. Should be able to use it.

LIST OF REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 24 yanvarda Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasi.
3. D.Babaraximova, Ta'lim tizimida axborot texnologiyalarini qo'llashning ilmiy pedagogik masalalari; 6 - tom 3 – son / 2022 – yil / 15 – mart
<https://bestpublication.org/index.php/pedg/issue/view/81>
4. D. Babaraximova, O'qituvchilarning akt sohasida vakolatlarini takomillashtirishda uzluksiz ta'lim : muammolari va ba'zi yechimlari. 2023-yil. <https://unionedu.ru/index.php/use/issue/view/1>
5. <https://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkatmirziyeevningoliy-25-01-2020>.

ZAMONAVIY TEKNOLOGIYALAR MUHITIDA O'QUVCHILAR TARBIYASIDA INTIZOM VA ERKINLIK MUVOZANATI

Kabilov D. – fizika-matematika fanlari falsafa doktori, PhD

Sodiqov H. – matematik-pedagog
"Evrastika onlayn kursi" loyihasi asoschilari,
veb-sayt: evrastika.uz


E-mail: evrastikamaktublar@gmail.com

Annotatsiya. Zamonaviy texnologiyalarning jadal tusda rivojlanishi va cheklanmagan erkinlikni va'da qilayotgan globallashtirish tendensiyasi o'sib kelayotgan avlodning ta'lim va tarbiyasida pedagoglar oldiga kreativ yechim talab qiladigan murakkab masalalarni qo'yimoqda. Jumladan, bolalar tarbiyasida erkinlik va intizom orasida muvozanatni saqlay olish bugungi kunda nafaqat ota-onalar uchun, balki o'qituvchilar uchun ham o'ta dolzarb va ahamiyatli mavzuga aylanmoqda. Maqolada erkinlik va intizom borasida g'aribona hamda sharqona ta'lim-tarbiyadagi ustuvorliklar, masalaning

1. Jordan, Michael I., va Mitchell, Thomas M. "Machine Learning: Trends, Perspectives, and Prospects." Science, 2015, pp. 255-260.
2. Manyika, James, va Chui, Michael. "Notes from the AI frontier: Applications and value of deep learning." McKinsey Global Institute, 2018, pp. 1-28.
3. Watters, Audrey. "The Future of Education: AI and Personalized Learning." EdTech Magazine, 2019, pp. 34-37.
4. Hooker, Sara, va Ng, Andrew. "AI Transformation in Education: The Impact of Machine Learning." Journal of AI and Education, 2020, pp. 112-119.
5. Ethics and governance of artificial intelligence for health: WHO guidance ISBN 978-92-4-002920-0 (electronic version) ISBN 978-92-4-002921-7 (print version)
6. © World Health Organization 2021 Some rights reserved. This work is available under the Creative Commons Attribution-NonCommercial-ShareAlike 3.0 IGO licence (CC BY-NC-SA 3.0 IGO; <https://creativecommons.org/licenses/by-nc-sa/3.0/igo>). [4]
7. LARSSON, Stefan. (2020). On the Governance of Artificial Intelligence through Ethics Guidelines. Asian Journal of Law and Society. 7. 1-15. 10.1017/als.2020.19



TA'LIM SOHASIDA FOYDALANILADIGAN RAQAMLI TEKNOLOGIYALAR (TA'LIM PLATFORMALARI)DA MA'LUMOTLAR ALMASHISH MODELLARI

Qulmatova Sayyora – Toshkent
davlat iqtisodiyot universiteti,
raqamli iqtisodiyot kafedrası
dotsenti

Annotatsiya. *Ma'lumotlar va katta ma'lumotlar almashish modellari, zamonaviy raqamli iqtisodiyotda muhim rol o'ynaydi. Turli xil ma'lumotlarni almashish usullarining afzalliklari, kamchiliklari va qo'llanilish sohalarini o'rganishga asoslanib bizga mosi tanlanadi. Maqolada ta'lim platformalarida ma'lumotlar almashish modellaridan foydalanish tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *ma'lumotlar almashinuvi, mijoz-server modeli, peer-to-peer modeli, mentalaba.uz axborot tizimi.*

Kirish *Onlayn ta'lim platformalari va kurslar orqali ta'lim resurslarini global darajada taqdim etish, turli mamlakatlarning fuqarolariga yuqori sifatli ta'lim olish imkonini beradi.*

Zamonaviy axborot texnologiyalari rivojlanishida ma'lumotlarning tezkor va xavfsiz almashinuvi bilan muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ta'lim sohasida turli texnologik yechimlar orqali ma'lumotlar almashish jarayonini optimallashtirish va xavfsizligini ta'minlash axborot tizimlarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Qaror qabul qilish tezkor va aniq ma'lumotlar almashinuvi ta'lim tizimi uchun o'z vaqtida va asoslangan qarorlar qabul qilish imkonini beradi, bu esa ularga o'z resurslarini samarali boshqarishga yordam beradi. Innovatsiyalar va raqobatbardoshlik ma'lumotlarni tezkor almashish, yangi g'oyalar va texnologiyalar tarqalishini tezlashtiradi, bu esa raqobatbardoshlikni rag'batlantiradi.

Ma'lumotlarni almashishda xavfsizlik va moslashuvchanlikni ta'minlash uchun joriy etilgan xalqaro standartlar va protokollar, ma'lumotlar xavfsizligi, samaradorligi va bir-biriga mos kelishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Bu standartlar turli platformalar va tizimlar o'rtasidagi integratsiyani soddalashtiradi va xavfsizligini oshiradi. Ma'lumotlar almashishda keng qo'llaniladigan xalqaro standartlar va protokollar hozirda qo'llanilib kelmoqda.

Metodlar Ta'lim sohasida foydalanilayotgan axborot tizimlari (ta'lim platformalari)da axborot almashinuvinin turli modellari va usullari mavjud.


Ushbu modellar va usullar axborot tizimlari ichida va o'rtasida aloqa va ma'lumotlarni uzatishni osonlashtirish uchun ishlatiladi.

Mijoz-server modelning ishlash prinsipi juda oddiy, client side (mijoz tomon) va server-side (server tomon) dan iborat bo'ladi.

Client side (mijoz tomon) bu bir user-interface(UI) ko'rinishda mijoz tomonidan ishlatiladigan ilova u foydalanuvchi interfeysini (UI) taqdim etadi va foydalanuvchi bilan qanday o'zaro munosabatda bo'lishini boshqaradi. Foydalanuvchi tomonida yuboriladigan so'rovlarni serverga yuborish va serverdan keladigan javoblarni aks ettiruvchi user-interface. Mijoz serverdagi API-ga ma'lumotlarni yuborishi va qabul qilishi mumkin.

Server side (server tomon, server) – bu mijozlardan so'rovlarni qabul qiluvchi va tegishli ma'lumotlarni mijozga qaytarish uchun mantiqni o'z ichiga olgan dastur. Bundan tashqari, server ko'pincha dastur uchun barcha ma'lumotlarni doimiy ravishda saqlaydigan ma'lumotlar bazasini o'z ichiga oladi.

P2P tarmoqlari markazlashtirilmagan, ya'ni hech qanday markaziy server yoki bosh tarmoqni nazorat qilmaydi. Buning o'rniga, har bir ishtirokchi tengdosh teng imkoniyatlar va mas'uliyatga ega. Tengdoshlar bir-biri bilan bevosita aloqada bo'lib, markaziy nazorat nuqtasiga tayanmasdan resurslar va xizmatlarni almashadilar (1-rasm).



1 – rasm. P2P modeli arxitekturası.

P2P tarmoqlari teng foydalanuvchilar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri muloqotni osonlashtiradi. To'g'ridan-to'g'ri aloqa, ayniqsa, lahzali xabar almashish, ovozli va video qo'ng'iroqlar va tarqatilgan hamkorlik kabi ilovalarda foydalidir. Xabarlarni uzatish uchun markaziy serverlarga bo'lgan ehtiyojni bartaraf etish orqali P2P tarmoqlari tezroq aloqani taklif qilishi va kechikishni kamaytirishi mumkin.

Teng foydalanuvchilar modelining turlari


- *Tarkibi bo'lmagan peer-to-peer modeli(Unstructured peer-to-peer model)*
- *Strukturaviy tengdosh modeli(Structured peer-to-peer model)*
- *Gibrid peer-to-peer modeli(Hybrid peer-to-peer model)*

1. Strukturalanmagan peer-to-peer (Unstructured peer-to-peer model) modelidagi tarmoqlarda qurilmalar tasodifiy tarzda ulanadi. Ushbu modelni qurish oson, chunki hech qanday tuzilma mavjud emas. Biroq u tuzilmagan bo'lgani uchun ma'lumotni topish qiyin.

2. Strukturalangan peer-to-peer (Structured peer-to-peer model) modelida qurilmalar ma'lum bir topologiyada ulanadi. Tarqalgan xesh jadvallari, odatda, tuzilgan tarmoqlarni qurish uchun ishlatiladi. Strukturaviy peer-to-peer modelini yaratish uchun foydalaniladigan dastur tarmoqning virtual qatlamini oldindan belgilangan tuzilishga birlashtiradi.

3. Gibrid peer-to-peer (Hybrid peer-to-peer model) modelida peer-to-peer modeli va mijoz-server modelining birikmasidir. Gibrid tarmoqlarning ko'p turlari mavjud va mashhur gibrid tarmoq foydalanuvchilarga bir-birini topishga yordam berish uchun markaziy serverdan foydalanadi. Ushbu asosiy xususiyatlar P2P tarmoqlarini turli ilovalar, jumladan, fayl almashish, lahzali xabar almashish, kontentni yetkazib berish, hamkorlikda hisoblash va taqsimlangan saqlash uchun mos qiladi.

Shuningdek, ta'lim platformalarida Representational State Transfer (REST) – tarmoq ilovalarini loyihalash uchun arxitektura uslubidan keng foydalaniladi. U ma'lumot almashish uchun standart HTTP usullaridan (GET, POST, PUT, DELETE) foydalanadi va ma'lumotlar, odatda, URL manzillari va resurs ko'rinishlari orqali uzatiladi (2-rasm).



2 – rasm. RESTFUL web service arxitekturası


Bular axborot tizimlarida axborot almashinuvining asosiy modellari va usullaridan biridir. Model yoki usulni tanlash tegishli tizimlarning o'ziga xos talablari va cheklovlariga bog'liq.

Har bir ma'lumot almashish modelining ishlash prinsiplari, ularning qurilishi va qanday qilib ma'lumotlarni uzatishini amalga oshirishini tushunish uchun muhimdir. Har bir modelning asosiy ishlash tamoyillarini ko'rib o'taylik.

Peer-to-Peer (P2P) modelida, har bir ishtirokchi (peer) bir vaqtning o'zida ham klient, ham server vazifasini bajaradi. Bu tarmoqda ma'lumotlar to'g'ridan-to'g'ri ishtirokchilar o'rtasida markazlashgan serverlarsiz almashiladi, Har bir ishtirokchi ma'lumotlarni o'zaro almashishda teng huquqlarga ega bo'lib, ma'lumotlarning taqsimlanishi va saqlanishi ishtirokchilarning kompyuterlarida amalga oshiriladi. Bu modelning asosiy afzalligi, tarmoqning yuqori darajada moslashuvchanligi va kengaytiruvchanligidir, chunki yangi ishtirokchilar tarmoqning yuqori darajada ishonchliligini va ma'lumotlarning yo'qolish ehtimolini markazlashmagan tuzilma kamaytiradi. Foydalanuvchilar soni oshishi bilan tarmoq samaradorligi ham oshadi, chunki har bir qurilma ma'lumotlarni almashishda ishtirok etadi. P2P tarmoqlari kamchiligi xavfsizlik zararli dasturlar tarqalishi va ma'lumotlarning noqonuniy tarqatilishi foydalanish, ma'lumotlarning bir xilligi tufayli ma'lumotlarning yangilanishini kuzatib borish qiyinligidir.

Mijoz-server modelida ma'lumot almashuv jarayoni markazlashgan server orqali amalga oshiriladi. Mijozlar (foydalanuvchilarning kompyuterlari yoki qurilmalari) serverga so'rov yuboradi, va server bu so'rovga javoban ma'lumot yoki xizmat ko'rsatadi(1-rasm). Server ma'lumotlarni saqlash, qayta ishlash va boshqarish uchun mas'ul bo'lib, klientlar esa bu ma'lumotlardan foydalanadi. Bu model, xavfsizlik va ma'lumotlarni boshqarishni markazlashtirish orqali tizimni boshqarishni soddalashtiradi. Ma'lumotlarning markazlashtirilgan boshqaruvini ta'minlaydi, bu esa ma'lumotlar bazasini yangilash va nazorat qilishni osonlashtiradi, barcha ma'lumotlar markazlashgan serverlar orqali boshqariladi bu xavfsizlikni kuchaytirishda ko'proq imkoniyatlar yaratadi, Tarmoqning markazlashgan tuzilishi tufayli, serverga hujumlar yoki texnik muammolar tizimning butunlay ishlamay qolishiga olib kelishi mumkin, kengaytiruvchanlik cheklangan bo'lishi mumkin, chunki yangi foydalanuvchilarni qo'shish va ma'lumotlar hajmini oshirish server resurslariga bog'liq.

Quyida berilgan UML diagrammasida ta'lim platformasida ro'yxatdan o'tish tasvirlangan (3-rasm).



3-rasm. Ta'lim platformasida ro'yxatdan o'tish

Xulosa

Ta'lim platformasida ishonchli va samarali ma'lumotlar almashish usulini tanlashda mijoz va server modeli tanlashdagi bir nechta sabablarni keltirishimiz mumkin:

1. Internet tezligi baland mamlakatlar uchun bulutli ma'lumot almashish modellari qulay va arzon hisoblanadi, internet tezligini pastligi hisobiga biz uchun mijoz server model to'g'ri keladi.
2. Mijoz server modeli bu juda ishonchli va xavfsiz hisoblanadi, aniqroq aytadigan bo'lsak bizda serverni fizik holda saqlash imkoniyatimiz bor va hamma ma'lumotlar to'liq o'zimizda bo'ladi.

So'rovlarga javob berish ham bu modelda ancha tez va qulay hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. An Introduction to Client Server Computing Tanenbaum, A. S., & Wetherall, D. New age international (p) limited, publishers(2011).
2. A Hybrid Peer-to-Peer and Client-Server Strategy for Multimedia Streaming , Samuel L. V Mello, Elias P.DuarteJr (2022)
3. Comparing Hybrid Peer-to-Peer Systems, Beverly Yang Hector Garcia-Molina(2019)
4. Goodfellow, I., Bengio, Y., & Courville, A. (2016). Deep Learning. MIT Press.
5. Ibrahim DS. Enhancing cloud computing security using cryptography & steganography. Iraqi Journal of Information Technology. 2019;9(3):191–224. [Google Scholar]
6. Fateh M, Rezvani M, Irani Y. A new method of coding for steganography based on lsb matching revisited. Hindawi Security and Communication Networks. 2021;2021(6610678):1–15. [Google Scholar]
7. Kurose, J. F., & Ross, K. W. (2017). Computer Networking: A Top-Down Approach (7th ed.). Pearson.



8. Forouzan, B. A. (2012). Data Communications and Networking (5th ed.). McGraw-Hill.

TA'LIMDA SUN'IY INTELLEKT TEKNOLOGIYALARINING O'RNI VA AHAMIYATI

Qurbonqulova Saodat Burxon qizi – Chirchiq davlat pedagogika universiteti 2-bosqich talabasi
E-mail: saodatqurbonqulova691@gmail.com

Annotatsiya. *Ayni davrga kelib hayotimizdagi deyarli barcha sohalariga o'z ta'sirini ko'rsatishga ulgurgan sun'iy intellekt texnologiyalari hayotimizning ajralmas qismiga aylandi. Bunga asosiy sabab sifatida kompyuter texnologiyalarining rivojlanishi hamda ularga bo'lgan talab hamda qiziqishning oshishi, katta miqdordagi ishlab chiqarish va uning avtomatlashuvi, ta'lim jarayonida interaktiv o'quv vositalaridan foydalanish kabi omillarni ko'rsatish mumkin. Ushbu sabab va qiziqishlardan kelib chiqqan holda quyidagi maqolada sun'iy intellekt tushunchasi va uning ta'limdagi o'rni haqida bayon qilinadi.*

Kalit so'zlar: ta'lim, sun'iy intellekt, texnologiya, avtomatlashtirish, individual, qurilmalar

Kirish. Hozirgi kunda bu so'z hech bo'lmaganda bir marotaba bo'lsa ham qulog'iga chalinmagan insonning o'zi bo'lmasa kerak. Shunday bo'lsa-da, biz bu tushunchaga biroz soddaroq va aniqroq ta'rif keltirib o'tamiz. Sun'iy intellekt – bu kompyuter dasturlarining va tizimlarining inson zehni, faoliyati va o'rganish uslublarini o'zlashtirishga qaratilgan texnologik vosita bo'lib, insonlarga o'xshash muammolarni yechish, tahlil qilish, o'rganish, ta'lim berish va boshqa intellektual vazifalarni bajarish imkoniyatlariga egadir. Bu texnologiya hali ham rivojlanish jarayonida va hatto kelajakda insonlardek his qila olish qobiliyatlari o'rnatilishi kutilmoqda.

Asosiy qism. Sun'iy intellekt jamiyatning barcha sohalarini o'zgartirmoqda va ta'lim sohasi ham bundan mustasno emas, albatta. So'nggi yillarda ta'lim va texnologiya sohaları shu qadar uzviy bog'lanib ulgurdiki, ularni aslo ayro tasavvur qilish mumkin bo'lmay qoldi. Albatta, bu bog'liqliklar har ikki sohaning jadal rivojlanishiga hamda ko'plab yutuq va muvaffaqiyatlarga sabab bo'lib kelmoqda. Ayniqsa, ta'limda qo'llanilishi mumkin bo'lgan sun'iy intellekt texnologiyalari jadal rivojlandi. Bunga qisman generativ sun'iy intellektning rivojlanishi sabab bo'ldi, u hozirda matn, tasvir, audio va video kabi real kontentni ishlab chiqarish kabi keng ko'lamli vazifalarni bajarishga qodir. O'z



o'rnida, bu omillar turli sohalarda o'z samaradorligini ko'rsatish bilan bir qatorda axborot resurslarining rivojlanishi, innovatsiyalar va yaratuvchanlikning o'sishiga olib kelmoqda. Jumladan, bank, moliyaviy xizmatlar va sug'urta sektorida sun'iy intellekt texnologiyasi aksiyalarga investitsiya, moliyaviy operatsiyalar va boshqalar kabi ko'plab tadbirlarni boshqarish, havo yo'llari yoqilg'i samaradorligini optimallashtirish uchun ishlatiladi. Shuningdek, uning ta'limga integratsiyalashuvi bizning o'rganish va o'qitish uslubimizni tubdan o'zgartirishi mumkin. Sun'iy intellekt turli xil metodikalar, dars rejalarini taqdim etishi, baholash tizimida bir qancha qulayliklar yaratishi va shu kabi ko'plab vazifalarni bajarishda samarali yordam berishi bilan e'tirofga molikdir. Shuningdek, avtomatik ta'lim tizimlari, ta'lim dasturlarini individual ravishda ishlab chiqish, o'rgatish jarayonlarini avtomatlashtirish, ta'lim ma'lumotlarini tahlil qilish va o'rganish vositalarini rivojlantirishda foydalaniladi. Ushbu omillardan kelib chiqqan holda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4996-son Qarori qabul qilindi. Bunga muvofiq sun'iy intellekt texnologiyalari asosidagi innovatsion biznes-modellar, mahsulotlar va xizmat ko'rsatish usullari rivojlanishi uchun qulay va maqbul ekotizim yaratish, ularni belgilab berilgan ustuvor tarmoqlar va sohalarda tezkorlik bilan joriy etish, shuningdek, amaliyotga tatbiq etish chora-tadbirlari ko'rib kelinmoqda. Xususan, ushbu sohada malakali kadrlar tayyorlash maqsadida Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti hamda Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt ilmiy tadqiqot institutida "Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt ixtisosligi " bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim instituti ochildi.

Ammo shu o'rinda aytib o'tish joizki, sun'iy intellektning foydali tomonlari bilan bir qatorda zararli jihatlari ham mavjud bo'lib, vaqt o'tishi bilan sun'iy intellekt qurilmalari kuchli ishsizlikka sabab bo'lishi kutilmoqda va bu qurilmalar doim ham bexato va to'g'ri ishlashiga ishonish xavflidir. Shuningdek, sun'iy intellekt vositalaridan noto'g'ri maqsadlarda foydalanish nojo'ya oqibatlarga olib kelishi mumkin hamda bu vositalarda haddan ziyod foydalanish, har ishni u orqali hal qilish shaxsiy fikrlash qobiliyati yo'qolish, inson dunyo qarashining pasayib ketishiga olib kelishi mumkin.

Xulosa. Yuqoridagilarda shuni xulosa qilish mumkinki, sun'iy intellekt insoniyat uchun juda zarur va foydali texnologiya. Biroq undan to'g'ri va oqilona foydalana bilish zarurdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Q.A.Bekmuratov. Sun'iy intellekt. Oliy ta'lim muassasasi talabalari uchun o'quv qo'llanma. – T.: "Aloqachi", 2019. – 312 bet

2. Венди Ленерт, М.Г.Дайер, П.Н.Джонсон, К.Дж.Яна, С.Харли. BORIS – экспериментальная система глубинного понимания повествовательных текстов. «Новое в зарубежной лингвистике». – М., 1989. – С. 107-159.
3. Akhmedov, B. A., Makhkamova, M. U., Aydarov, E. B., Rizayev, O. B. (2020). Trends in the use of the pedagogical cluster to improve the quality of information technology lessons. Экономика и социум, 12(79).
4. <https://www.techtarget.com>

DASTURIY INJINIRINGGA KIRISH FANINI O'QITISHDA BULUTLI TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Raxmonova Munisaxon Rashodovna – Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, t.f.f.d., katta o'qituvchi

E-mail: munisaxon.agzamxodjaeva@gmail.com

Rustamov Sardor Sherali o'g'li – Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, 3-kurs talabasi

E-mail: sardorsher1337@gmail.com

Annotatsiya. *Dropbox platformasidan dasturiy injiniringga kirish fanida foydalanish turli o'quv faoliyatlarini yanada samarali tashkil qilishda yordam beradi. O'qituvchilar ma'ruza slaydlari, amaliy mashg'ulotlar va boshqa materiallarni Dropboxda saqlash va ulashish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Talabalar esa ushbu materiallarga istalgan vaqtda va istalgan joyda kirishlari mumkin. Dropbox guruh loyihalari uchun ham qulay bo'lib, talabalarga loyiha fayllarini birgalikda tahrirlash va yangilash imkonini beradi. Bulutli texnologiyalar masofaviy ta'limni tashkil qilishda ham muhim ahamiyatga ega. O'qituvchilar dars materiallarini Dropboxga yuklab, talabalarga ulashishi va ularning faoliyatini kuzatishi mumkin. Fayllar Dropbox serverlarida saqlanadi va ularning zaxira nusxalari yaratiladi, bu esa ma'lumotlarni yo'qotish xavfini kamaytiradi. Dropbox fayl versiyalarini saqlash va kerak bo'lganda avvalgi versiyalarga qaytish imkonini ham beradi.*

Kalit so'zlar: *Dropbox platformasi, Bulutli texnologiyalar, Dasturiy injiniring, ta'lim jarayoni, Raqamli texnologiyalar, ma'lumotlarni ulashish, Masofaviy ta'lim, o'qituvchilar, talabalar*



Ta'limda raqamli texnologiyalar so'nggi yillarda juda katta o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Innovatsiyalar va zamonaviy tendensiyalar ta'lim tizimini butunlay yangi bosqichga olib chiqmoqda. Raqamli texnologiyalar hozirgi ta'lim tizimining ajralmas qismiga aylangan. Ushbu texnologiyalar ta'lim jarayonini optimallashtirish, shaxsiylashtirish va kengroq auditoriyaga yetkazish imkonini beradi. Quyida raqamli texnologiyalarning ta'limdagi asosiy yo'nalishlari va tendensiyalaridan biri bulutli texnologiyalar haqida ma'lumot beriladi.

Bulutli texnologiyalar (cloud computing) so'nggi yillarda ta'lim sohasida katta o'zgarishlarni olib keldi. Bu texnologiyalar ta'lim jarayonini optimallashtirish, ma'lumotlarni xavfsiz saqlash va ulashish imkoniyatlarini taqdim etish, shuningdek, o'qitish va o'rganishni yanada samarali qilish imkonini beradi. Bulutli xizmatlar o'qituvchilar va talabalar uchun katta hajmdagi o'quv materiallarini saqlash imkoniyatini beradi. Bu, ayniqsa, video, audio, grafik va boshqa og'ir fayllarni saqlashda juda foydali. Bulutli texnologiyalar ma'lumotlarni xavfsiz saqlashni ta'minlaydi. Fayllar bulutda saqlanadi va ularning zaxira nusxalari yaratiladi, bu esa ma'lumotlarni yo'qotish xavfini kamaytiradi.

Google Drive, Microsoft OneDrive, Dropbox kabi bulutli xizmatlar o'qituvchilar va talabalar o'rtasida o'quv materiallarini osongina ulashish va hamkorlik qilish imkonini beradi. O'qituvchilar fayllarni bir necha soniya ichida ulashishi mumkin. Bulutli texnologiyalar o'quv materiallarini xavfsiz saqlash va istalgan vaqtda ularga kirish imkonini beradi. Bulutli xizmatlar orqali o'qituvchilar va talabalar bir vaqtning o'zida hujjatlarni tahrirlashlari va yangilashlari mumkin. Google Docs kabi vositalar real vaqt rejimida birgalikda ishlashni ta'minlaydi.

Bulutli texnologiyalar hamkorlik uchun samarali platformalarni taqdim etadi. Bulutli texnologiyalar online ta'limning rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. Zoom, Microsoft Teams, Google Meet kabi platformalar orqali darslar o'tkazish va konferensiyalar tashkil qilish mumkin. Coursera, edX kabi platformalar ham bulutli texnologiyalar asosida ishlaydi va butun dunyo bo'ylab talabalar uchun kurslar taklif qiladi. O'qituvchilar bulutli texnologiyalar orqali o'quv materiallarini osongina tashkil qilishlari va boshqarishlari mumkin. LMS (Learning Management System) tizimlari, masalan, Moodle, Canvas, Blackboard bu jarayonni ancha osonlashtiradi. Bulutli platformalar orqali o'qituvchilar talabalar faoliyatini kuzatishlari, ularning o'zlashtirish darajasini tahlil qilishlari va shu asosda o'quv rejalarini moslashtirishlari mumkin. Bulutli texnologiyalar yordamida talabalar va o'qituvchilar har qanday qurilmadan – kompyuter, planshet yoki smartfondan o'z materiallariga kirishlari mumkin. Bu esa ta'lim jarayonini moslashuvchan va qulay qiladi. Bulutli xizmatlar



operatsion tizim va qurilmadan mustaqil ravishda ishlaydi, bu esa turli xil qurilmalarda va platformalarda oson ishlash imkonini beradi.

Yangi texnologiyalar katta ta'lim imkoniyatlarini ochdi. Ro'y berayotgan sifat o'zgarishlar shuni ko'rsatadiki, odat bo'lgan tushuntirishda "o'rgatish" jarayonlari o'qituvchilarning kasbiy imkoniyatlari chegarasidan tashqari chiqib keta boshladi. Vujudga kelgan yangi texnik, axborot, bosma, eshitish va ko'rgazma vositalari o'ziga xos tarzda yangi metodikalar bilan ta'lim jarayoniga ko'pgina yangiliklar kiritib, uning ajralmas qismi bo'lib qolmoqda. Biroq, pedagogik texnologik jarayonning o'ziga xosligi, uning an'anaviy shakllaridan ustuvorligi va hozirgi zamon ta'limi muammolari real yechish usullari hali to'la o'rganilmagan. Bu haqda chet ellik va o'zbek avtorlari ko'p yozmoqdalar. Lekin barchalari pedagogik texnologiyalar kelajakda ustuvor o'ringa ega bo'lishiga ishonadilar.

Hozirda ta'lim texnologiyasi yordamchi vosita bo'lib qolmay, balki o'quv jarayonining rivojlanishida katta rol o'ynab, uning tashkiliy shakllari, metodlari, mazmunini o'zgartiradigan yangi sistema deb tushunilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, o'qituvchi va o'quvchining pedagogik tafakkuriga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Texnologiyani bunday tavsif qilish ta'lim jarayonidagi barcha tuzuvchilar orasidagi uzviy bog'lanishning muhimligini, pedagog va o'quvchining o'zaro hamkorligini ko'rsatadi. O'quvchi passiv ta'lim obyektidan faol shaxs ta'lim va tarbiya subyektiga aylanadi va aktiv subyekt sifatida o'qituvchi bilan bu jarayonda qatnashadi, mustaqil bilim olishga intiladi. Ta'lim sifatini oshirishda pedagogik texnologiyalarning qo'llanishi talabalarning bilimi saviyasini oshirishga xizmat qiladi.

Shu jumladan dasturiy injiniring yo'nalishida tahsil oluvchi talabalarga mutaxassislik fanlaridan dasturiy injiniringga kirish fanini o'qitishda bulutli texnologiyalaridan foydalanish ancha samara beradi. Ta'lim jarayonida bulutli texnologiyalardan foydalanish hozirgi paytda dolzarb vazifalardan biri, shuning uchun o'quv jarayonida "Dasturiy injiniringga kirish" fani doirasida ham bulutli texnologiyalardan foydalangan holda o'quv jarayonini va axborot ta'lim maydonini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Dasturiy injiniringga kirish fanida Dropboxdan foydalanish turli o'quv faoliyatlarini yanada samarali va tashkilotli qilishda yordam beradi. Dropbox bulutli saqlash va fayl almashish xizmatini taqdim etadi, bu esa talabalarga va o'qituvchilarga o'quv materiallarini saqlash, ulashish va ularga kirish imkonini beradi.

O'qituvchilar ma'ruza slaydlari, dars materiallari, amaliy mashg'ulotlar va boshqa fayllarni Dropboxda saqlashi mumkin. Talabalar ushbu materiallarga istalgan vaqtda va istalgan joyda kirishlari mumkin, bu esa o'qish jarayonini moslashuvchan qiladi. O'qituvchilar talabalar bilan ma'ruza materiallari, dastur kodlari, loyihalar uchun ko'rsatmalar va boshqa resurslarni ulashishi mumkin.



Talabalar o'z guruhdoshlari bilan loyiha fayllarini ulashishi va birgalikda ishlashi mumkin.

Talabalar guruh loyihalari uchun Dropbox papkalarini yaratishi va bu papkalarni guruh a'zolari bilan ulashishi mumkin. Hujjatlar va kod fayllarini birgalikda tahrirlash va yangilash imkoniyati mavjud. Dropbox Paper vositasi orqali talabalar va o'qituvchilar real vaqt rejimida hujjatlarni birgalikda tahrirlashlari mumkin. Bu guruh muhokamalari va loyihalar ustida ishlashni ancha osonlashtiradi.

Dropbox yordamida masofaviy ta'limni tashkil qilish mumkin. O'qituvchilar dars materiallarini Dropboxga yuklab, talabalarga ulashishi mumkin. Talabalar uyda yoki boshqa joylarda bo'lsa ham, barcha zarur materiallarga kirish imkoniga ega bo'ladi. O'qituvchilar talabalar tomonidan yuklangan fayllarni kuzatishi va ularni baholashi mumkin. Bu jarayon Dropbox orqali ancha soddalashadi.

Dasturiy injiniring loyihalari ko'pincha katta hajmdagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Dropbox yordamida bu ma'lumotlarni xavfsiz saqlash va zaxiralash mumkin. Loyihalar uchun muhim bo'lgan fayllar yo'qolish xavfidan himoyalangani. Dropbox fayl versiyalarini saqlash imkonini beradi, bu esa dasturiy loyihalardagi o'zgarishlarni kuzatish va kerak bo'lsa, avvalgi versiyalarga qaytish imkonini beradi.

Dropbox mobil ilovalari va veb interfeysi orqali talabalar va o'qituvchilar har qanday qurilmadan fayllariga kirishlari mumkin. Bu esa ularga o'qish va ishlashda katta moslashuvchanlikni ta'minlaydi. Dropboxning qidirish funksiyasi orqali talabalar va o'qituvchilar kerakli fayllarni tezda topishlari mumkin.

Masalan, fan doirasida o'qituvchi kursning boshlanishida barcha dars materiallarini saqlash uchun Dropbox papkasini yaratadi va bu papkani talabalar bilan ulashadi. Talabalar dasturiy loyihalari uchun Dropboxda alohida papka yaratadilar va bu papkani guruh a'zolari bilan ulashadilar. O'qituvchi talabalardan loyihalarni Dropbox orqali yuklashlarini so'raydi va yuklangan fayllarni baholaydi.

Har qanday bulutli saqlash xizmatini boshlash juda oson. Odatda, ro'yxatdan o'tishda haqiqiy elektron pochta manzili va bulutga kirish uchun yangi parol talab qilinadi.

"Dasturiy injiniringga kirish" fani bo'yicha kerakli ma'lumotlarni, ya'ni ma'ruza, amaliyot mashg'ulotlar, prezentatsiyalar va kerakli adabiyotlarni talabalarga va shu fandan dars beradigan professor-o'qituvchilar uchun foydali manba bo'ladi. Uning uchun avval dropbox.com saytidan ro'yhatdan o'tiladi.

Agar siz "bulut" va "bulutli saqlash" bilan bog'liq narsalarning ortida texnika tafsilotlari haqida biroz qo'rqqan bo'lsangiz, unda bu yaxshi. Bulutli

hisoblashni tushunish yoki Dropbox dasturini ishlatish uchun texnologiyadan foydalanish kerak emas.

Dropbox sizga bepul elektron pochta manzili va parol talab qiladigan bepul hisob qaydnomasini imzolash bilan boshlandi. Keyin sizning kompyuteringizga tegishli Dropbox dasturini yuklab olishni xohlaysizmi, deb so'raladi, bu sizning hisobingizga fayl yuklashni osonlashtiradi.


Sizning Dropbox qaydnomangizga kirganda, Dropbox ilovasidan yoki Internet orqali Dropbox orqali ushbu fayllarga har qanday kompyuterdan kirish mumkin. Bundan tashqari, Dropbox sizning fayllaringizga osongina kirish uchun mobil qurilmangizga taqdim etgan ko'plab bepul mobil ilovalardan birini o'rnatishingiz mumkin.

Fayllar Dropbox serverlarida (bulutda) saqlanganligi sababli fayllaringizga kirish Internetga ulanish orqali hisobingizga ulanish orqali ishlaydi. Dropbox bulutli texnologiyasi ro'yxatdan o'tilganda har bir foydalanuvchi uchun 2 GB joy ajratiladi. Bu esa fani uchun yetarli hisoblanadi. Undan so'ng "Dasturiy injiniringga kirish" papkasini yaratiladi. "Dasturiy injiniringga kirish" papkasi yaratilgandan so'ng, uni boshqalar bilan bo'lishish kerak. Buning uchun, "Shared" bo'limiga o'tiladi. Unda qo'shimcha oynacha ochiladi. "Share this folder" oynasi ochilganda kimlar bilan bo'lishmoqchi ekanligingizni belgilaysiz, agar zarurat bo'lsa kichik oynachada izoh yozib ketiladi.

Shuningdek, bu papkaning linkini nusxalab, boshqa yo'llar orqali ham jo'natish mumkin. "Dasturiy injiniringga kirish" papkasi yaratildi. Kimlar ko'rishi mumkinligini, qachon yaratilgani va ichida qanday va nechta ma'lumot borligini ko'rish mumkin. Ma'lumot yuklash uchun "Upload" tugmasi bosiladi. Qo'shimcha oynacha ochiladi. Undan kerakli fayllarni belgilab olinadi. "Open" tugmasi bosiladi. Va ekranda fayllar yuklanishi ko'rish mumkin. Yuklangandan keyin joriy vaqt nomi bilan yaratilgan papka ichiga yuklangan fayllarni ko'rish mumkin. Birorta fayl ustiga ikki marta bosilsa, joriy faylni ko'rish mumkin. Bu faylni boshqa ko'rinishda ham ochish mumkin. Buni "Open in" tugmasi orqali bajariladi. "Open in" dan "Power Point to the web" tugmasi tanlansa, Power Point muhiti yordamida ochib beriladi. Bulardan tashqari, fayllarni yuklab olish mumkin. Buning uchun, "Download" tugmasini bosiladi. Endi biror ma'lumotimiz eskirsa, keraksiz holatga tushganda uni o'chirib tashlash mumkin. Buning uchun fayl tanlanadi va "Delete" tugmasi bosiladi.

Bulardan tashqari, kompyuterdan fayllarni yuklab olishdan tashqari, ularni Dropboxning o'zida ham yaratish mumkin. Buning uchun "Create" tugmasidan foydalaniladi. Unda yangi papka, taqsimlanadigan papka, kompyuter ekranini yozish, word document, power point taqdimoti, excel jadvallari va boshqalarni yaratish imkoniyati mavjud.

Dropboxning ushbu qulayliklari Dasturiy injiniringga kirish fanida ham talabalar, ham o'qituvchilar uchun katta yordam beradi. Bu texnologiya ta'lim jarayonini yanada samarali va tartibli qiladi.



1-rasm. Dropbox dasturida Dasturiy injiniringga kirish virtual papkasi.

Bulutli texnologiyalar ta'lim tizimini yanada samarali, xavfsiz va moslashuvchan qilishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu texnologiyalar ta'lim jarayonini modernizatsiya qilish va global miqyosda bilim olish imkoniyatlarini kengaytirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Armbrust, M., et al. (2010). "A View of Cloud Computing." Communications of the ACM, 53(4), 50-58.
2. Moorhead, P. (2018). "How Cloud Computing Is Changing Higher Education." Forbes.
3. Dropbox Help Center. "Getting Started with Dropbox." Dropbox.



ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMIDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARNING AHAMIYATI

Sabirova Dildor Arifovna – Toshkent davlat
iqtisodiyot universiteti, “Raqamli iqtisodiyot”
kafedrası, dotsent

E-mail: dildorsabirova11@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada ta'limni raqamlashtirish bilan bog'liq imkoniyatlar va muammolarning tizimli tahlili keltirilgan. Turli raqamli texnologiyalarning ta'lim tizimida qo'llanilish imkoniyatlari va afzalliklari o'rganilgan. Ta'limga raqamli texnologiyalarni amalda tatbiq etish bo'yicha olib borilayotgan joriy tadqiqotlar va tajribalarni tahlil qilish asosida ushbu jarayonning asosiy jihatlari aniqlashtirilgan va ta'lim muassasalari hamda o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar berilgan.

Tayanch so'zlar: raqamli texnologiyalar, raqamli ta'lim, onlayn platformalar, virtual reallik, simulyatsiyalar, bulutli texnologiyalar, sun'iy intellekt, machine learning, neyron tarmoqlar, buyumlar internet, mobil qurilmalar

Zamonaviy jamiyatda mamlakatning taraqqiyot darajasi ta'lim va ilm-fan rivojiga alohida e'tibor qaratilayotganligi bilan bog'liq.

O'zbekiston, 2015-yilning sentabr oyida Birlashgan Millatlar Tashkiloti sammitida e'lon qilingan “Barqaror rivojlanish maqsadlari”ning milliy darajada bajarilishi bo'yicha shartlarini qabul qilib, 2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni belgilab oldi. [1]

Barqaror rivojlanishning to'rtinchi milliy maqsadi – ta'limga qaratilgan bo'lib, ushbu maqsad barchani qamrab oluvchi, teng huquqli hamda sifatli ta'limni ta'minlash va barcha uchun uzluksiz ta'lim olish imkoniyatini kengaytirishni nazarda tutadi.

Sifatli ta'lim tizimi zamonaviy yondashuvni talab etadi, albatta. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar ushbu maqsadga erishishning muhim vositasi bo'lib hisoblanadi.

Raqamli texnologiyalarning joriy etilishi, ta'lim tizimiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Mobil qurilmalar, aqlli doskalar, MOOC, planshetlar, noutbuklar, simulyatsiyalar, dinamik vizualizatsiya va virtual laboratoriyalar kabi yangi texnologiyaga asoslangan o'quv vositalarining joriy etilishi ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini tubdan o'zgartirmoqda.

Texnologiyalarni ta'limga integratsiyalash o'quvchilarga ta'lim olishning ajoyib usullarini taqdim etadi, bu esa ularga chalg'imasdan fan bilan ko'proq shug'ullanish imkonini beradi. Sinfda proyektorlar, kompyuterlar va boshqa



zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, o'quvchilar uchun qiziqarli bilim olish imkonini beradi.

Sinf jadvallari, topshiriqlar jadvallari, ekskursiyalar, imtihon jadvallari yoki semestr tanaffuslarini ko'rsatishimiz mumkin bo'lgan onlayn dars taqvimimiz, talabalarga tezkorlik bilan ma'lumot olishda yordam beradi.

Smartfonlar va klikerlar kabi o'quvchilarning javob tizimlari o'qituvchilarga talabalar taqdim etilgan kontentni o'zlashtirdimi, qo'shimcha tushuntirish zarurati bor yo'qligini aniqlashning tez va oson usulini taqdim etadi [2].

Raqamli ta'lim, tarqatma materiallar va kitoblar uchun kamroq qog'ozdan foydalanish natijasida atrof-muhitga ijobiy ta'siridan tortib, vaqtni tejash va ulardan foydalanish qulayligigacha hamda xarajatlarni kamaytirishi, resurslardan yaxshiroq foydalanilishi bilan talabalar, o'qituvchilarga bir qator ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniq.

Kovid pandemiyasi ta'lim tizimining uzluksiz faoliyatini saqlab qolish uchun ta'lim muassasalarini onlayn ta'lim rejimiga o'tishga majbur qildi. Rivojlangan mamlakatlar ushbu inqirozni yengishga tayyor edi. Biroq rivojlanayotgan mamlakatlar bu talabni amalga oshirish uchun katta sa'y-harakatlar qildilar. Raqamli texnologiyalar talabalarga ma'lum mavqega erishish maqsadida zarur bo'lgan bilimlarni rivojlantirish uchun kerakli ko'nikmalarni takomillashtirishga imkon beradi. Raqamli vositalar va ta'lim resurslari sinf muhitini yaxshilashga va o'rganishni yanada qiziqarli qilishga yordam beradi. Shuningdek, ular har bir ta'lim muassasasiga ko'proq moslashuvchanlik imkonini berib, o'quv dasturini har bir talabaning ehtiyojlaridan kelib chiqib shakllantirish imkonini beradi.

Raqamli texnologiyalar dars jarayonida qo'llanilganda, o'quvchi- talabalar ta'lim jarayoniga ko'proq jalb qilinadilar. Bugungi yoshlar elektron gadgetlardan foydalanishga juda ko'nikib qolgani bois, bu imkoniyatni ta'limda qo'llash ularning qiziqishini uyg'otishi, faollik darajasini oshirishga xizmat qilishi shubhasiz.

Ta'lim muhitini rivojlantirish uchun ITning ahamiyatini quyidagi dalillarda ko'rsatish mumkin:

- mavjud ma'lumotlardan to'liqroq foydalanish orqali ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning motivatsiyasini va o'qituvchilarning ijodiy faolligini oshirish;
- ta'lim jarayonini individuallashtirish va intensivlashtirish asosida samaradorligini oshirish;
- rivojlantiruvchi va loyiha asosida o'qitish, ishbilarmonlik o'yinlari, vizualizatsiya, simulyatsiya, masofaviy ta'lim kabi yangi ta'lim texnologiyalarini joriy etish;

- turli faoliyat (o'quv, ta'lim va ilmiy tadqiqot) turlarining integratsiyalashuvi;
- talabaning o'qituvchiga qaramligini kamaytirish;
- kompyuter testlari asosida ta'lim yutuqlarini baholashni takomillashtirish.

Quyida turli raqamli texnologiyalardan ta'lim tizimida foydalanish qanday afzalliklar yaratishi haqida fikr yuritamiz:

Onlayn platformalar va maxsus ta'limga oid dasturiy ta'minot ta'limni raqamlashtirishning ajralmas qismiga aylanmoqda. Ular o'quv materialini saqlash, tartibga solish va taqdim etish vositalarini ta'minlaydi. Ta'limga oid dasturiy ta'minot o'qituvchilarga interaktiv darslar, topshiriqlar, testlar yaratish va virtual muhitda talabalar bilan muloqot qilish imkonini beradi. Onlayn platformalar, shuningdek, ta'lim jarayoni ishtirokchilari o'rtasidagi aloqani kuchaytiradi va ta'lim resurslariga kirishni osonlashtiradi.

Ta'limda virtual reallik va simulyatsiyalar. Virtual reallik (VR) va simulyatsiyalar immersiv ta'lim ssenariylarini yaratish uchun noyob imkoniyatni taqdim etadi. VR yordamida talabalar real hayotdagi vaziyatlar va muhitlarni taqlid qiluvchi virtual makonga kirishlari mumkin. Bu, ayniqsa, tibbiyot yoki muhandislik kabi amaliy tajribani talab qiladigan mashg'ulotlar uchun foydalidir. Virtual simulyatsiyalar chuqurroq tushunish va ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Bulutli texnologiyalar va ularning o'quv jarayonida tutgan o'rni. Bulutli texnologiyalar o'quv materiallarini saqlash, almashish va hamkorlik qilish uchun muhim vositaga aylandi. Bulutli saqlash talabalar va o'qituvchilarga o'z ma'lumotlariga istalgan qurilmadan kirish imkonini beradi, bu esa mobillik imkoniyatini beradi. Bundan tashqari, bulutli platformalar ma'lumot almashish va harakatlaringizni sinxronlashtirish orqali loyihalarda hamkorlik qilish imkonini beradi. Bu esa jamoaviy ish va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. [3]

Sun'iy intellekt va machine learning. Sun'iy intellekt inson hayotining ko'plab jabhalarida, jumladan, ta'lim sohasida ham faol qo'llanilmoqda. Mutaxassislarining prognozlariga ko'ra, *sun'iy intellekt va machine learning* texnologiyalarini qo'llash yaqin kelajakda butun ta'lim tizimi evolyutsiyasining asosiy omiliga aylanadi.

Sun'iy intellektga asoslangan texnologiyalar ta'lim va kommunikatsiyalar bilan ishlash uslubimizni o'zgartiradi. Neyron tarmoqlar ma'lumotlarni qidirishi va tartibga solishi, yangi kontentlar yaratishi mumkin. Bu esa sun'iy intellektidan ta'lim sohasida foydalanishning o'ta dolzarbligini ko'rsatadi.

Hozirgi vaqtda ta'limda sun'iy intellekt qanday qo'llanilmoqda? Bir nechta asosiy yo'nalishlarni ajratish mumkin:

- doimiy bajariladigan vazifalarni avtomatlashtirish;

- ta'limni personallashtirish;
- kontent va ta'lim dasturlarini yaratish;
- yumshoq ko'nikmalarni (soft skills) rivojlantirish v.h.

Talabalar bilan muloqot qilish, baholash, o'zlashtirishni tahlil qilish, odatiy vazifalarni tekshirish va darslarga tayyorgarlik ko'rish – bularning barchasi hech bo'lmaganda qisman sun'iy intellektga topshirilishi mumkin. [4]

Buyumlar interneti (Internet of Things, IoT) yosh ongni tarbiyalashning tejamkor usullaridan biri ekanligini isbotladi. Tarmoqqa ulangan aqlli qurilmalar ta'lim tizimini takomillashtirishga xizmat qilmoqda. Buyumlar interneti konsepsiyasi imkoniyatlari ma'lum vazifalar uchun IoT ta'lim platformasiga kiritilgan turli xil qurilmalar va ilovalarni dasturlash imkonini beradi. Bunda, ular o'qituvchilar va murabbiylarni o'zlari uchun odatiy bo'lmagan ko'plab funksiyalardan, ayniqsa, ma'muriy funksiyalardan ozod qiladilar, bu ularga bevosita ta'lim jarayoniga ko'proq vaqt ajratish imkonini beradi.[5]

Ta'limni raqamlashtirish, o'zining ko'p qirrali afzalliklariga qaramay, e'tibor va ularni hal etish strategiyalarini ishlab chiqishni talab qiluvchi qator vazifalarni ham qo'yadi. Quyida biz raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim muassasalari oldida turgan bir qancha asosiy muammolarni ko'rib chiqamiz.

O'qituvchi rolining o'zgarishi va o'qitish amaliyotini qayta ko'rib chiqish zarurati. O'quv jarayonida biz joriy qilishimiz lozim bo'lgan raqamli texnologiyalar, o'qituvchi rolini tubdan o'zgartiradi. U yagona bilim tashuvchisidan ta'lim boshqaruvchisi va murabbiyiga aylanadi, o'quvchilarning ma'lum bir dasturni o'zlashtirishga qaratilgan sa'y-harakatlarini – individual topshiriqlar orqali boshqaradi va nazorat qiladi. Tegishli ta'lim resurslarini aniqlash, o'qitish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratish, shuningdek, oflayn jarayon davomida ham, virtual muloqotda ham doimiy yordamini berib boradi. O'qituvchi faqat doska-bo'r bilan emas, balki axborot muhitida masofadan boshqarish pult bilan qurollangan o'quv jarayonining asosiy ishtirokchilaridan biri bo'lib qoladi. Ushbu o'zgarishlarni amalga oshirish, yangi yondashuvning muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyatsizligi inson omiliga va o'qituvchilarning virtual sinflar va muhitlarga kirishga tayyorligiga bog'liq.

O'qituvchilar yangi ko'nikmalarni, jumladan texnologiyadan foydalanish, onlayn darslarni ishlab chiqish va virtual muhitda o'quvchilar bilan muloqot qilish bo'yicha ko'nikmalarni o'rganishlari kerak. Bu vaqt va tayyorgarlikni, shuningdek, an'anaviy o'qitish usullarini qayta ko'rib chiqishni talab qiladi.

Ta'lim mazmunining sifati va axborotni filtrlash. Raqamli muhit ma'lumotlarga boy, ammo bu ma'lumotlarning hammasi ham yuqori sifatlilik yoki ta'limga tegishli emas. O'qituvchilar va talabalar ta'lim maqsadlariga javob beradigan to'g'ri manba va tarkibni tanlash muammosiga duch kelishadi.



Filtrlashning yo'qligi nazoratsiz va tekshirilmagan ma'lumotlar oqimiga tushib qolishga olib kelishi mumkin, bu esa o'quv jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Texnologiyalardan foydalanishdagi tengsizlik va raqamli tafovut. Ta'limni raqamlashtirishning asosiy muammolaridan biri talabalar o'rtasida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarining notekis taqsimlanishi hisoblanadi. Rivojlanayotgan hududlarda va kam ta'minlangan guruhlarda yuqori tezlikdagi internet va zamonaviy qurilmalardan foydalanish cheklangan bo'lishi mumkin. Bu raqamli tafovutni keltirib chiqaradi, bu esa o'quvchilarning ayrim guruhlarini raqamlashtirilgan ta'lim jarayonidan chetlashtirishga olib kelishi mumkin. Ushbu muammoni hal qilish ta'limning barcha ishtirokchilari uchun qulay va inklyuziv sharoitlarni yaratishni talab qiladi.

Xulosa. IT texnologiyalar asosidagi ta'lim muassasasini boshqarish va ta'lim jarayonidagi innovatsiyalar, raqobat muhitida ustunlik yaratish imkonini beruvchi asosiy mexanizmdir. Raqamlashtirishni rivojlantirishning asosiy tadbirlari – ishonchli va samarali infratuzilmani yaratish, ma'lumotlarga kirishning yagona usullarini joriy etish, axborot resurslari majmuasini boshqarishni yaxshilash, shuningdek, ikki strategiya – axborotlashtirish strategiyasi hamda ta'lim muassasasi strategiyasi o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlashdan iborat. Ushbu tadbirlarni kompleks tarzda amalga oshirish, axborot resurslarining integratsiyalashuvini ta'minlaydigan va ta'lim muassasasining tashkiliy tuzilmasi va akademik siyosatiga muvofiq ta'lim jarayonini avtomatlashtirish imkonini beruvchi korporativ axborot muhitini shakllantirish bilan bog'lash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsadlari va vazifalari.
https://uzbekistan.un.org/sites/default/files/2021-11/Brochure-en-ru-uz_3.pdf
2. Акабиров Л.Х., Атаева Г.И. Особенности уроков с применением информационных технологий // Проблемы педагогики. 2020. №2 (47). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/osobennosti-urokov-s-primeneniem-informatsionnyh-tehnologiy>.
3. Шекербекова Ш., Несипкалиев У. Возможности внедрения и использования облачных технологий в образовании. Международный журнал прикладных и фундаментальных исследований. – 2015. – № 6 (часть 1) – С. 51-55
4. <https://www.unesco.org/ru/digital-education/artificial-intelligence>



5. Груздева М.Л., Груздева К. Е. Плюсы и минусы «интернета вещей» в образовании. Школа будущего. №3. 2020 г. https://schoolfut.ru/wp-content/uploads/journal/2020/03/2020-3_292-299.pdf

TA'LIM JARAYONIDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Shakirova Sevara Toxirjon qizi – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti 4-kurs talabasi

E-mail: sevara.inboxx@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish, raqamli ta'limni rivojlantirish, muammolar va istiqbollar haqida mulohaza yuritilgan. O'quv jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari va kamchiliklari yoritilgan. Shuningdek, raqamli texnologiyalarga bo'lgan ehtiyoj haqida qisqacha ma'lumot beriladi va ta'limdagi asosiy dasturlar va muammolar muhokama qilindi.

Kalit so'zlar: Raqamli texnologiyalar, innovatsion ta'lim, ta'lim texnologiyalari, masofaviy ta'lim, zamonaviy ta'lim, raqamli bilimlar.

Jahonda xalqaro tashkilotlar va rivojlangan davlatlar tomonidan qabul qilingan 2030-yilgacha: yangi ta'lim konsepsiyasida "Ta'lim tizimini mustahkamlash, bilimlarni tarqatish, turli axborotlardan foydalanish, sifatli va samarali ta'limni tashkil etish uchun yangi axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish zarur" deb e'tirof etilgan³.

Darhaqiqat, jamiyatning zamonaviy rivojlanish tendensiyalari, kompyuter texnologiyalarini rivojlantirish, globallashtirish va axborotlashtirish jarayoni barcha sohalariga, shu jumladan ta'limga ham o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmadi.

Raqamlashtirish bugungi kunda inson hayotining barcha sohalariga ta'sir ko'rsatmoqda. Ta'lim tizimi axborotlashtirish va texnologiyalashtirish tendensiyalarining kuchayishi bilan rivojlanishning raqamli yo'liga o'tdi. Axborot texnologiyalarini takomillashtirish, pedagogik faoliyatning ilg'or uslublari va vositalarini faol joriy etish, o'quv jarayonini to'liq shaxsiylashtirish, shaxsiylashtirilgan ta'limni rivojlantirish – markazida bo'lgan yangi raqamli ta'lim muhitini qurish uchun asos bo'ldi.

³ Incheon Declaration / Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all. –p.47-48. <http://unesdoc.unesco.org/images/0023/002338/233813m.pdf>.



Ta'lim tizimining hozirgi holati noan'anaviy ta'lim texnologiyalarining roli ortib borayotgani bilan tavsiflanadi. Ta'lim oluvchi tomonidan ularning yordami bilan bilimlarni o'zlashtirish an'anaviy texnologiyalarga qaraganda ancha tezdir. Ushbu texnologiyalar bilimni rivojlantirish, egallash va tarqatish xarakterini o'zgartiradi, o'rganilayotgan fanlarning mazmunini chuqurlashtirish va kengaytirish, uni tezda yangilash, samaraliroq o'qitish usullarini qo'llash, shuningdek, har bir kishi uchun ta'lim olish imkoniyatini sezilarli darajada kengaytirish imkonini beradi.

Raqamli jamiyatga o'tish jarayonida inson faoliyatining turli sohalarini axborotlashtirilishi va raqamlashtirilishi jamiyatda axborot madaniyatini shakllantirishning zaruriyatini oshiradi. Hozirgi bosqichda jamiyatning axborot madaniyatini shaxsning axborot madaniyati darajasiga olib chiqish masalasi qo'yilmoqda. Zamonaviy jamiyat hayotiga raqamli texnologiyalarni jadal joriy etish axborot makonini shakllantirish va elektron ta'lim tizimlarini rivojlantirish, ta'lim muassasalarida raqamli ta'lim muhitini tashkil etish, ta'limga yondashuvlarni va paradigmalarni qayta ko'rib chiqish, shuningdek, ta'lim tizimini takomillashtirish to'g'risida yangi ilmiy va pedagogik g'oyalarni shakllantirishiga olib keladi. Raqamli va axborot texnologiyalarini ta'lim tizimiga va o'quv jarayoniga keng joriy etish dunyo miqyosidagi tendensiya sifatida shakllanib bormoqda.

Mamlakatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev: "Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda. Albatta, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish kerakli infratuzilma, ko'p mablag' va mehnat resurslarini talab etishini juda yaxshi bilamiz. Biroq, qanchalik qiyin bo'lmasin, bu ishga bugun kirishmasak, qachon kirishamiz?! Ertaga juda kech bo'ladi",⁴ deya ta'kidlaydilar.

Hozirgi raqamli ta'lim tizimi oldida turgan asosiy muammolardan biri texnologik infratuzilmalarning yetarililigi va ishonchliligi bilan bog'liq. Raqamli vositalar va platformalar uzluksiz aloqa, hamkorlik va ta'lim resurslariga kirishni osonlashtirish potensialiga ega bo'lsa-da, texnologik kirish va infratuzilmadagi nomutanosiblik samarali raqamli ta'limga jiddiy to'siqlar keltirib chiqaradi. Ko'pgina hududlarda, xususan, kam ta'minlangan aholi punktlari va qishloq joylarida internetga ulanishning cheklanganligi, eskirgan apparat ta'minoti va texnik yordamning yetarli emasligi ta'limda raqamli texnologiyalarni joriy etish va ulardan foydalanishga to'sqinlik qilmoqda. Natijada, o'quvchilar onlayn materiallarga kirishda, virtual sinflarda qatnashishda va interaktiv ta'lim

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020- yil 24-yanvarda Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasi.



tajribasi bilan shug'ullanishda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin, bu esa ta'lim natijalaridagi tengsizlikni kuchaytiradi.

2020-yil 17-martda Prezidentimizning "Toshkent shahrida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori qabul qilinib, mazkur qarorda ta'limning barcha sohalarini raqamlashtirish bo'yicha aniq vazifalar belgilab berildi. Shu yilning 23-martidan talabalar uchun televizion darslar efirga uzatila boshladi. Bundan tashqari, bir nechta oliy ta'lim muassasalari talabalar va o'quvchilar uchun virtual ta'lim tizimlarini ishga tushirdi. Bulardan, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida "O'quv jarayonini tashkil etish va boshqarish" axborot tizimi hamda MOODLE masofaviy ta'lim platformasi ishga tushirildi. Boshqa oliy ta'lim muassasalarining rasmiy veb-saytlarida ham MOODLE, Platonus, Moodle LMS, SRS (Student Records System), MOOC kabi masofaviy ta'lim platformalari hamda mobil telefon va planshetlar uchun Google Classroom, Ereader ilovalari ishga tushirilib onlayn darslar tashkil qilinishi boshlandi.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasini raqamlashtirish quyidagi asosiy vazifalar bilan belgilanadi:

- Ta'lim tashkilotlarini internetga keng miqyosda ulanish bilan ta'minlash, shuningdek, ta'lim tashkilotlarida o'quv materiallarining mavjudligi va turlarini oshirish imkonini beruvchi zamonaviy raqamli texnologiyalar bilan jihozlash;
- Respublika miqyosida yagona bilimlar bazasini yaratish;
- Turli darajadagi ta'lim tashkilotlarida, jumladan, elektron ta'lim va masofaviy ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasini rivojlantirish;
- Ta'lim sifatini monitoring qilish va ta'lim muassasalarida elektron ta'limdan foydalanish tizimini baholash;
- Uzluksiz ta'lim ekotizimini shakllantirish, shu jumladan, barcha sohalarida iste'dodlarni aniqlash va qo'llab-quvvatlash;
- Ta'lim tizimi uchun yangi talablar va asosiy kompetensiyalarga javob beradigan yuqori malakali kadrlarni tayyorlash.

Ta'limdagi raqamli texnologiyalarning afzalliklari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- 1) Masofaviy ta'limni qo'llash orqali ta'lim olishning keng imkoniyatlarini ochish;
- 2) O'qituvchiga bir qator vazifalarni bajarishni avtomatlashtirish yoki soddalashtirishga yordam berish;
- 3) Kerakli ma'lumotlarga istalgan joydan kirishni ta'minlaydi va manbalar bilan ishlashda muhim ko'nikmalarni rivojlantiradi.

Demak, raqamli ta'limda:

- istalgan joy va vaqtda ta'lim olish imkoni bor;
- internetdan axborot olish va undan foydalanish madaniyati shakllanadi;



- Ta'lim tizimini yangi bosqichga ko'taradi;
- Vaqt va mablag' sarfini keskin kamaytiradi;

Ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanishning yana bir afzalligi, butun o'quv dasturini bajarish uchun texnologiyadan foydalanadigan va talabalarga tez o'rganish imkonini beruvchi o'rganish strategiyasidir. Talabalar noutbuklar, planshetlar va shu kabi texnologik yoki internetga ulangan gadjetlardan foydalanadilar. O'qituvchi o'rgatgan narsalarni qayd qilish o'rniga, o'quv dasturining aksariyati o'quvchilarga qiziqarli va interaktiv platforma orqali onlayn tarzda yetkaziladi. O'rganilgan bilimlar yanada yaxshi o'zlashtirilishi uchun quiz testlar orqali o'tgan mavzularni bilish darajasini mustahkamlaydilar.

Salbiy jihatlari talabalar tomonidan jiddiy qabul qilinishdan to'xtadi va ko'pchilik buni rasmiyatchilik deb hisoblaydi. Haddan tashqari ko'p foydalanilgan ekran vaqti, o'qituvchilarning texnologiyadan foydalanish samaradorligi bilan bog'liq muammolar ham ko'tariladi. O'qituvchilar onlayn ta'lim mazmunini yaratishi va sharhlashi, talabalarni mavzuni turli tomonlardan tahlil qilishga undashi kerak. O'quv inqirozining ba'zi sabablaridan biri bu o'qitish sifatining pastligi. Ba'zi malakali professorlar ko'p funksiyali dars o'tish uchun mo'ljallangan qurilmalarni yaxshi tushunishmaydi va muammolarga duch kelishadi va yana ba'zi yoshi kattaroq o'qituvchilarning sog'ligi ekran qarshisida ko'p o'tirishga yo'l qo'ymaydi. Bunday muammolarga kundalik hayotda ko'p duch kelishadi. Millionlab yoshlar uyda internetga kirish imkoniga ega emas va bu ayrim talabalarning o'qishdan qolib ketishlariga sabab bo'ladi. Zarur moddiy-texnik bazaning yo'qligi, o'quv jarayonini onlayn rejimda o'tkazish uchun dasturiy ta'minotning yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi, texnik qiyinchiliklar kabi muammolarni bartaraf etishimiz zarur.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash lozimki, ta'limni axborotlashtirishning zamonaviy darajasi nafaqat kasbiy rivojlanishning yangi shakllari va usullarini joriy etadi, balki bu konsepsiyaning mohiyatini sifat jihatidan o'zgartiradi, bunda pedagogik yo'nalish, pedagogik kompetensiya, ijodiy faoliyat va o'z-o'zini tarbiyalash faoliyati kabi tarkibiy qismlarning yangi xususiyatlari paydo bo'ladi. Raqamli texnologiyalarni ta'lim tizimiga joriy etilishi mamlakat ta'lim tizimini modernizatsiya qilishda katta rol o'ynaydi. Zamonaviy ta'limni tashkil etish va ta'lim samaradorligini ortishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026- yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvarda Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasi.
3. Incheon Declaration / Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all. –p.47-48.
<http://unesdoc.unesco.org/images/0023/002338/233813m.pdf>.
4. Murodov Sh.N. Ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanish – davr talabi. Pedagog's Jurnal
5. Shakirova Sevara Toxirjon qizi Ta'lim jarayonida foydalaniladigan mobil ilovalar Vol. 1 No. 1 (2023): Filologiya masalalari yosh tadqiqotchilar nigohida
<https://compling.navoiy-uni.uz/index.php/conferences5/article/view/912>

TA'LIM TIZIMIDA RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARINI QO'LLASHNING AHAMIYATI VA ROLI

Shamuratov R.Sh. – Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti v.b., pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

E-mail: rustammba@yahoo.com

Yusupova G.O. – Toshkent davlat pedagogika universiteti talabasi

Annotatsiya. Hozirgi davrning jadal rivojlanishida poydevor bo'lib kelayotgan tizim bu raqamli faoliyatdir. Ushbu maqolada raqamli faoliyatni marketing tizimi bilan bevosita bog'liq holda qo'llash orqali mamlakat rivojining asosi hisoblanmish ta'lim tizimini yuqori sur'atlarda taraqqiy etishiga ta'sir etuvchi omillar hamda ta'lim sohasida davlatlararo raqobatbardoshlik darajasini oshirishda qo'shadigan hissasi tahlili, jamiyat rivoji va iqtisodiy-ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda aks etadigan roli muhokamaga qo'yiladi va ularga yechim sifatida umumta'limdan boshlab to o'rta maxsus va oliy ta'lim tizimlarida amalga oshirish mumkin bo'lgan raqamli marketing strategiyalari tatbiq qilinadi.

Kalit so'zlar: raqamli marketing, raqamli texnologiya, marketing strategiyalari, ta'lim tizimi, oliy ta'lim.

Albatta, har bir davlatda ta'lim muassasalaridagi o'z xizmatlari darajasini yaxshilash uni jahon standartlariga moslashtirish asosiy maqsad va vazifalardan biri hisoblanadi. Ko'plab sohalar kabi raqamli marketingni qo'llash orqali ta'lim sohasini targ'ib qilish ta'lim muassasalariga ko'proq talabalarni jalb



qiladi. Davlatning ijtimoiy sohasini bevosita belgilab beruvchi ushbu tizimni zamonaviy texnologiyalar va xalqaro darajada amaliyotda qo'llanib kelayotgan uslublar orqali rivojlantirish oldimizdagi ulkan maqsadlardan biri hisoblanib kelmoqda. Ta'kidlab o'tish joizki, 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan ishlab chiqilgan O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishiga asoslangan harakatlar strategiyasida “uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifatini hamda samaradorligini oshirish” kabi ustuvor vazifalar belgilab berilgan. O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini takomillashtirish davlat siyosati darajasida qoraladi. Bunga misol tariqasida “Ta'lim to'g'risida”gi qonun va bir nechta ta'limga aloqador qarorlarning qabul qilinishini ko'rsatib o'tishimiz mumkin. Ushbu qarorlar va qonunlarda nafaqat ta'lim sifatini va uning xizmatini oshirish va yaxshilash, balki O'zbekistonda ta'lim oluvchilarning huquqini yanada kengaytirish maqsad qilingan. O'zbekiston Respublikasi “Ta'lim to'g'risida”gi qonunida quyidagilar keltirib o'tilgan. “Jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, har kimga ta'lim olishi uchun teng huquqlar kafolatlanadi.

Ta'lim olish huquqi:

- ta'lim tashkilotlarini rivojlantirish;
- ta'lim tashkilotlarida innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash va o'quv dasturlarini innovatsion texnologiyalarni qo'llagan holda amalga oshirish; ishlab chiqarishdan ajralgan (kunduzgi) va ajralmagan holda (sirtqi, kechki, masofaviy) ta'lim olishni tashkil etish;
- kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
- umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'limni va boshlang'ich professional ta'limni bepul olish;
- oilada yoki mustaqil o'qish orqali ta'lim olgan fuqarolarga, shuningdek umumiy o'rta ta'lim olmagan shaxslarga akkreditatsiyadan o'tgan davlat ta'lim muassasalarida eksternat tartibida attestatsiyadan o'tish huquqini berish orqali ta'minlanadi.

Ta'lim olishga bo'lgan huquqlarning kengayishi bu, albatta, yaxshi natijalarga olib keladi, shu bilan bir qatorda, ta'lim xizmatlari sifatini oshirishga ham turtki bo'ladi. Ta'lim tizimini “Xalqaro standartlarga moslashtirish” vazifasi zahirida raqamli texnologiyalar asosida raqamli ta'lim tizimini amaldagi faoliyatini yuksaltirish lozimligini ta'kidlab o'tish joizdir.

Inson kapitalini shakllantirish bosqichlarida so'nggi yillarda ko'plab sohalarda intellektual va raqamli texnologiyalarga alohida urg'u berilmoqda. Dunyo bo'ylab davlat miqyosida raqamli boshqaruvga o'tib borilar ekan, shu

bilan bir qatorda ta'lim tizimini ham bosqichma-bosqich raqamlashtirish ustida izlanishlar olib borilmoqda. Bu bilan jamiyatning nafaqat ijtimoiy, balki iqtisodiy taraqqiyotini ham belgilash yanada oydinlashib bormoqda. Natijalarni yanada samaraliroq va sifat darajasini mukammallashtirish maqsadida ta'lim sohasida raqamli marketing tizimlaridan foydalanish va strategik qo'llash ommalashmoqda. Bu mavzuda yurtimizda ham bir necha olimlar tomonidan ta'limning barcha turlarida raqamlashtirish ustida ilmiy ishlar olib borilmoqda. Ta'limga innovatsion yondashuv va zamonaviy ta'lim konsepsiyalarini rivojlantirish bo'yicha "Integration of science", "Pedagogs", "Science and education" hamda "Academic research of educational sciences" kabi xalqaro jurnallarda va ilmiy-amaliy konferensiyalarda tadqiqotchilarimiz o'z uslub va takliflari bilan so'nggi yillarda faol ekanliklarini va bu mavzu yanada dolzarb va muhokama markazida ekanligini kuzatish mumkin.

Izlanish davomida ta'lim tizimida doimiy kuzatiladigan o'zgarishlarni hisobga olgan holda, uni raqamli marketing strategiyalaridan foydalanish orqali rivojlantirish uslublari, shuningdek, davlat miqyosida ta'lim tizimida tahsil oluvchilar qamrovini raqamli tizim orqali oshirish uchun va uning iqtisodiy-ijtimoiy hayotga ta'sirini o'rganish maqsadida birlamchi va ikkilamchi ma'lumotlar asosida tahlillar olib borilgan. Tahlil mobaynida qiyosiy tahlil, guruhlash, statistik tahlil, tizimli yondashuv, kuzatuv va sintez kabi usullar orqali mutaxassislarning izlanishlariga tayangan holda muhokama mavzusining ustuvor maqsadlari va yechimlari taklif etilgan. Shuningdek, ta'lim tizimini xalqaro standartlarga mos bo'lishi va jahon reytingiga kirishi uchun asos bo'lishi mumkin bo'lgan uslub va strategik marketing rejalari ta'kidlab o'tilgan.

Bugungi raqamli landshaftda bo'lajak talabalar maktablar, kollejlari va universitetlarni Google kabi qidiruv tizimlarida topadilar. Universitetlarning ushbu qidiruvlarda ko'rinishi SEO, Facebook reklamalari va ta'lim muassasalari uchun Google reklamalari bilan bo'liq. Agar taklif beruvchi ko'proq talabalarni jalb qilishni va universitetining onlayn ko'rinishini oshirishni istasa, universitetlar uchun raqamli marketing bo'yicha ushbu takliflar ularning maqsadiga mos keladi.

- ta'lim muassasasining ijtimoiy raqamli rolini oshirish. Ijtimoiy media oliy ta'limda raqamli marketing uchun birinchi raqamli vositadir. Nega? Chunki talabalar amalda ijtimoiy tarmoqlarda yashaydilar;

- videomarketingdan maksimal darajada foydalanish. Video kontenti matn yoki tasvirga asoslangan kontentga nisbatan ancha ko'proq qiymat taklif qiladi. Hozirgi kunda jahon universitetlari veb-saytlariga ko'proq tashrif buyuruvchilarni jalb qilish va ularni o'zgartiruvchi yetakchiga aylantirish uchun video kontentdan foydalanmoqda. Video bo'lajak talabalarga ta'lim berish va ularni talabalar hayoti uchun tayyorlash uchun ajoyib vositadir;

- Samarali qarorlar qabul qilish uchun ma'lumotlarni tahlil qilish va kuzatish.

Google Analytics foydali ma'lumotlarni taqdim etsa-da, veb-sayt sahifalaridagi aniqroq faollikni kuzatish uchun maqsadlarni belgilash Google Analytics avtomatik ravishda taqdim etadigan narsalardan yuqori va undan tashqari kuchli ma'lumotlarni taqdim etadi. Ushbu ma'lumotlar o'quvchilarning sayt bilan qanday munosabatda bo'lishini va ular qanday harakatlar qilishini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Maqsadlarni kuzatish orqali saytning qaysi sohalari yaxshi ishlashini va qaysi biri yaxshilanishi mumkinligini ko'rish mumkin. Kuzatuv orqali turli segmentlardagi auditoriyani maqsad qilib olish uchun samarali qarorlar qabul qilishda bunda yordam beradigan reklama va boshqa pullik kompaniyalar uchun ma'lumotlardan foydalanish mumkin. Unda tezkor va qulay platformalar, ilovalar ishlab chiqish, davlat miqyosidagi mumkin bo'lgan sohalardagi oliy ta'lim muassasalari uchun online, masofaviy va gibrid ta'lim tizimida o'rinlar yaratish va imkon qadar ularda maksimal ta'lim sifatini ta'minlash, bu orqali davlat ta'lim tizimidagi qamrovni samarali kengaytirish mumkin. Buning natijasida esa talabalar tomonidan raqamli platformalarga bo'lgan ehtiyoj tabiiy ravishda oshib boradi.

Shuningdek, brand xabardorligini oshirish uchun xalqaro reklama displeylaridan foydalanib boriladi. Bu orqali davlat ta'lim tizimiga dunyo talabalarini jalb qilish va ilmiy salohiyat va ta'lim sifati bo'yicha yuqorida aytib o'tilgan taraqqiyot maqsadlarida belgilangan reytinglardan o'rin olish mumkin bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. PF-4947-son 07.02.2017 yil. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida.
2. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilingan Senat tomonidan 2020-yil 7-avgustda ma'qullangan "Ta'lim to'g'risida"gi qonun.
3. Ganijonova A. Sh. "Ta'lim sohasida innovatsion metodlardan foydalanish" JOURNAL OF MARKETING, BUSSINES AND MANAGEMENT. Volume 1 ISSUE 6, 2021 www.jmbm.uz
4. Alan Charlesworth. Absolute essentials of digital marketing. Routledge-2020. 101 p.
5. Philip Kotler, Kartajaya H., Setiawan I. Marketing 4.0 moving from traditional to digital. 2016



ADABIYOT VA ADABIY TA'LIMDA SUN'IY INTELLEKTNING QO'LLANISHI

Shukurboyeva Ozoda Nasriddin qizi –
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti tayanch doktoranti
E-mail: o.shukurboyeva@bk.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada sun'iy intellektning adabiy ta'limdagi ahamiyati aytib o'tilgan. O'quvchilarda badiiy asarlarni tahlil qilish layoqatini shakllantirishda darsda sun'iy intellektdan samarali foydalanish hamda sun'iy ong aks etgan asarlarni o'rganish zarurati ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, robot, adabiy ta'lim, robotexnika, Chex dramaturgi Karl Chapek, ilmiy-fantastik yozuvchi Ayzek Azimov, asar tahlili, "Temir xotin"

Rivojlangan davlatlar ta'limi tahlil qilib ko'rilganda sun'iy intellekt ta'lim bozorida katta ulushga egaligini, raqamli iqtisodiyotda esa hamma sohalarni rivojlantiruvchi bir kuch bo'lib maydonga chiqqanligini ko'rishimiz mumkin.

Yurtboshimiz tomonidan 2021-yil 17-fevralda "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"⁵, o'sha yilning 26-avgustida esa "Sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash bo'yicha maxsus rejimni joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"⁶gi qarorlar qabul qilindi. Unga ko'ra bu sohani o'rganish va tadqiq qilishga keng yo'l ochildi.

"Asrlar davomida odamlarning aqliy mehnati samaradorligi ularning miyasi qay darajada tez ishlashi bilan chegaralangan. Ilk kompyuterlarning vazifasi mana shu chegarani buzib o'tish, murakkab matematik hisob-kitoblar orqali shu vaqtgacha yechimi yo'q deb bilingan muammolarga yechim topish bo'ldi... Bugungi kunda kompyuterlar soni yer kurrasi aholisi sonidan salkam uch barobar ko'proq"⁷. Ulardan foydalanish insonga turli sohalarda yangi imkoniyatlar berib, ko'makchi bir kuch vazifasini bajarmoqda. Jumladan, hozirda bu holat sun'iy intellekt bilan uyg'unlashib ketgan. Sababi bugungi rivojlanish davrda hayotning turli jabhalarida inson o'zi bilib-bilmagan holda sun'iy ongdan foydalanib kelmoqda.

Birgina ta'limda kerakli ma'lumotni qidirishda aqlli veb-qidiruv tizimlariga, jumladan, Google, Yandex, tavsiya tizimlari bo'lgan YouTube,

⁵ <https://lex.uz/docs/5297046>

⁶ <https://lex.uz/docs/-5603319>

⁷ Narzullayev A – Puthonda dasturlash asoslari– T.: "Akademnashr", 2021.– b.13.



Amazon yoki tabiiy tilni tushunishda Google assistant, Siri va Alexa, o'zga tildagi so'z tarjimasini tezda topishda Google tarjima kabi sun'iy intellekt texnologiyalariga murojaat qilamiz. Kundalik hayotda sensorli uyali aloqa vositasida gaplashish bilan bir qatorda undan ma'lumotlarni saqlash va uzatishda, rasmga olib, uni qayta ishlashda foydalanilsa, kerakli manzilni topib borishda esa aqlli yo'l ko'rsatkichlari, aqlli xaritalar qulaylik keltiradi. Shuningdek, muassasalarda tartib-intizomni, kelib-ketishni nazorat qilishda, tahlil qilishda ovoz va tasvir uzatuvchi kichik kameralar yoki yuz tanuvchi aqlli qurilmalardan foydalanamiz. Aslida bu bular ham sun'iy intellektning bir ko'rinishi bo'lib, uning hayotimizga allaqachon kirib kelganini ko'rishimiz mumkin.

“Sun'iy intellekt” so'zi ingliz tilidagi “artificial intelligence” so'zidan olingan bo'lib, inson aqliga taqlid qila oladigan mashinalar yaratishga qaratilgan fan va texnologiyaning bir sohasi hisoblanadi. Ushbu iboradagi sun'iy so'zi biror usul bilan tabiiyga o'xshatib yasalgan, notabiiy, soxta⁸ ma'nolarini anglatga, ikkinchi “intellekt” so'zi lotincha intellectus aql-idrok, tasavvur ma'nolarini berib, kishining aqliy rivojlanganlik darajasi va zehni⁹ anglatadi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, sun'iy intellekt atamasini insondan tashqaridagi sun'iy zehn va sun'iy aql-idrok deya tushunish mumkin.

Sun'iy intellekt 1956-yilda Dartmouth kollejida o'tkazilgan mashhur Dartmouth seminaridan so'ng paydo bo'lgan. Ushbu anjumanda John McCarthy bu atamani birinchi marta ishlatgan va tarixga mazkur atama muallifi sifatida kirgan¹⁰. Bu sohada olib borilgan dastlabki tadqiqot muallifi esa Alan Turing hisoblanadi¹¹.

Sun'iy intellekt – ilgari faqat insonlar uchun mumkin bo'lgan vazifalarni bajarishga imkon beradigan, inson miyasiga taqlid qiladigan, ixtirochi-mutaxassislar tomonidan ishlab chiqilgan dasturdir. U fan va texnologiyaning bir sohasi bo'lib, inson intellektiga taqlid qilishga qodir bo'lgan sun'iy intellekt namunalarini yaratadi. Endilikda sun'iy ong ta'lim olish, fikrlash, mantiqan so'z qurish xususiyatlarini bajarmoqda. U dasturchi mutaxassislar joylashtirgan algoritmlarga tayangan holda mustaqil ravishda rivojlanadi va o'z faoliyatiga o'zgarishlar kirita oladi. To'g'ri, sun'iy intellekt inson bo'la olmaydi. Chunki unda his qilish, sezish tuyg'ulari yo'q. Inson miyasi Olloh tomonidan yaratilgan shunday murakkab tizimki, sun'iy ong uning bir qismiga taqlid qiladi xolos. Shuning uchun ham adabiyot ahlining ko'pchiligi sun'iy intellekt adabiyotdan yiroq, adabiyot esa his-tuyg'u mahsuli deb qarashadi. Ammo bu tushuncha ilk

⁸ O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik. A.Madvaliyev, D. Xudayberganova tahriri ostida. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – B.760.

⁹ O'sha lug'at. 526-bet.

¹⁰ https://uz.wikipedia.org/wiki/Sun%CA%BCiy_intellekt

¹¹ The Essential Turing: the ideas that gave birth to the computer age (en). Oxford, England: Clarendon Press, 2004. ISBN 0-19-825079-7.



marta adabiyotda, ya'ni fantastik asarlar qa'rida inson qiyofasidagi robotlar shaklida paydo bo'lganligiga e'tiborni qaratish lozim.

Hozirgi kunda adabiy ta'limga ham sun'iy intellekt turli ko'rinishlarda, jumladan, ta'lim beruvchi robotlar, dasturlar holatida yoki darslarda o'qituvchi tomonidan qo'llanuvchi sun'iy intellekt texnologiyalari ko'rinishida kirib kelib ulgurgan. Shuning uchun u adabiyot va adabiy ta'limda bir tadqiqot sifatida o'rganilishga, uning yaxshi tomonlarini kashf etilishga muhtoj.

Sun'iy intellektni fantastik asarlar hamda filmlarda aks etganidek dunyoni egallab olishga harakat qilayotgan robotlar tarzida tasavvur qilmasligimiz hamda u darajada xavotirli deb bilmasligimiz lozim. Bunga sabab sun'iy intellekt butkul inson bo'lib olishga, uni almashtirishga, mo'ljallanmaganligi, balki insonning ko'nikma va layoqatini kengaytirish, turli sohalarda mushkulini oson qilish, yuklatilgan vazifalarni aql bilan boshqarish hamda bajarish maqsadida yaratilganligidir. To'g'ri ayrim asarlarda yoki filmlarda sun'iy zehn dunyoni egallab olayotgan, inson bo'lishga da'vo qilayotgan shafqatsiz robotlar ko'rinishida bo'lishi yoki aksincha, insonning qalbini tushuna oladigan, uni his qilish qobiliyatiga ega mehribon temir odam holatida tasvirlanishi mumkin. Ammo bu sun'iy intellektning adabiyotdagi badiiy tasviri xolos.

Sun'iy intellekt robotlardan tashqari turli dasturlar va qurilmalar ko'rinishida ham bo'lishi, u mayda bo'laklarga bo'lingan holda ko'pgina qurilmalar tarkibida mavjud bo'lishi mumkin. Shu o'rinda robot so'zi ham adabiyotda paydo bo'lganligini, uni 1921-yilda chex dramaturgi Karl Chapek¹² qo'llaganini aytib o'tish joiz. Robot bu dasturlashtirilgan mexanik qurilma bo'lib, u insonning yordamisiz tashqi muhit bilan ishlashga va vazifalarni bajarishga qodir. Jumladan, ta'lim robotlari zamonaviy ta'lim tizimida o'rta va oliy maktablar texnologiyalarini turli fanlar bilan birlashtirgan o'qitishning usullarini izlaydi.

Robototexnika esa robotlarni ishlab chiqarish va ishlatishning ilmiy-texnik asosidir. E'tiborlisi, robototexnika so'zi ham ilk bor adabiyotda paydo bo'lgan. Undan ilk bora 1941-yilda taniqli ilmiy-fantastik yozuvchi Ayzek Azimov foydalangan. Mana shundan ham bir paytlar xayol mahsuli bo'lgan narsalarning keyinchalik real hayotda yaratilganini anglashimiz mumkin.

Bugungi kunda adabiy ta'limda sun'iy intellektning o'rni qanday, u o'qituvchi va o'quvchiga qanday ko'mak bera oladi, uni adabiy ta'limga kiritishning ahamiyati qanaqa kabi savollar paydo bo'lishi tabiiy. Albatta, boshqa sohalar singari adabiy ta'limda ham sun'iy ong o'rganilishga muhtoj. Jumladan, adabiy ta'limda uni ikki yo'nalishda o'rganish muhimligini tavsiya qilishimiz mumkin. **Birinchi tomondan** sun'iy intellekt yutuqlaridan foydalangan holda o'quvchiga bilim berish yo'l-yo'riqlarini ishlab chiqish,

¹² https://youtu.be/T3DZA8_ukcs?si=TbTm-IT5-QherrzJ



ikkinchidan, sun'iy intellekt aks etgan badiiy asarlar tahlilini olib borish, o'quvchiga tushuntirish.

1. Sun'iy intellekt yutuqlaridan foydalangan holda o'quvchiga bilim berish yo'l-yo'riqlarini ishlab chiqish:

Sun'iy intellektning rivojlanishi barcha sohalarda real foyda keltirishga yo'naltiradi. Jumladan, sun'iy intellekt adabiy ta'limda nimalar qilib bera oladi?

– ertaklar, dostonlar, masallar asosida sun'iy intellekt multfilmlar, kichik metrajli filmlar yaratishi, natijada kam xarajat sarflangan holda ko'pgina yaxshi ertak hamda masallarimiz multfilm qilinishi mumkin. Bizda o'quvchilarga mo'ljallab tayyorlangan yaxshi multfilm hamda filmlarimiz juda oz bo'lib, ularning ko'payishi o'quvchi tarbiyasida, ularning badiiy adabiyotga qiziqishini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Agar o'quvchida bu sohada yetarli qiziqish va bilim orttirilsa, keyinchalik uning o'zi ham sun'iy ong yordamida multfilm va filmlar olish darajasiga yetadi.

– Sun'iy intellekt yordamida badiiy asar voqealari, asarda ifodalangan tabiat tasvirlarining rasmlarini chizish hamda asar qahramonlari portretini yaratish mumkin. Ko'rgazmali holda o'tilgan dars qiziqarli hamda yodda qolarli bo'ladi. Badiiy asarlarning tasvirli bo'lishi kitob o'qishdan qochayotgan o'quvchini o'ziga chorlaydi. Shu o'rinda aytib o'tish joizki, sun'iy intellekt yordamida yurtimizdagi dasturchi-mutaxassislar to'plangan belgilar va ma'lumotlar asosida Alisher Navoiy hamda jadid ijodkorlarining portretini rangli va detallashtirgan holda qayta yaratishdi¹³. Qo'shimcha qilib bunga ko'pgina asar qahramonlarini, jumladan, Zaynab, Kumush tasvirlarini ham kiritish mumkin. Shuningdek, "Boburnoma" asarida berilgan aniq ma'lumotlar asosida shaxslar va joylar tasvirini yaratish ustida ish olib borishmoqda. Albatta, bu hol adabiyot va adabiy ta'lim uchun juda quvonarlidir.

–Sun'iy ong yordamida adabiyot darsliklaridagi mavzularni tizimlashtirish, ovozlashtirish mumkin. Bu o'qituvchiga ko'mak berib, o'quvchining mustaqil o'rganishiga sharoit yaratadi.

– Sun'iy intellekt yordamida go'zal nutqli notiqlarimizning ovozini qayta yaratishimiz yoki vafot etib ketgan shoirlarimiz ovozini xuddi o'zinikidek qayta tiklab, she'rlarini sun'iy intellektga o'qittirishimiz mumkin. Bu esa o'quvchiga lirik asarni, nutqni o'zi sevgan ijodkor ovozida eshitish imkonini beradi. Yurtimiz ixtirochi-mutaxassislari ham mashhur ijodkorlar va notiqlarimizning ovozlarini xuddi o'zlarinikidek qilib sun'iy intellekt yordamida qayta tiklashdi¹⁴.

– Sun'iy intellekt sabab ta'lim barchaga arzon, ommabop bo'lib, uzviylik kasb etishi mumkin. Jumladan, mobil ilovalar, dasturlar o'zlashtirilmagan mavzuni turli yo'llar bilan o'quvchiga qayta tushuntirib berish imkonini beradi.

¹³ <https://youtu.be/jIeDiyyksUE?t=79>

¹⁴ <https://kun.uz/news/2024/01/09/suniy-intellekt-qanchalik-xavfli-yoki-foydali>



Bunga misol sifatida she'riy san'atlarni, turli darslikda berilgan bir muallifga tegishli tarjimayi hol va shu kabi ma'lumotlarni umumlashtirgan holda qayta o'rgatishi mumkin.

– Sun'iy intellekt yordamida davlat ta'lim standartiga asoslanib dars jadvalini tuzish, adabiyot fanidan testlarni tez va oson tekshirish hamda baholash mumkin. Bu ayniqsa, imtihonlarda juda qo'l keladi. Shuningdek, shaffoflikni ham ta'minlaydi.

– Sun'iy intellekt kelajakda adabiyot fanidan ham dars o'tib, o'quvchilarning nazariy savollariga javob berishi, hatto berilgan mavzuda o'tilayotgan ijodkorning ijodidan ko'plab namunalarni yoddan aytib berishi ham mumkin. To'g'ri, adabiyot o'qituvchisining fani boshqa fanlardan tubdan farq qilganligi sababli uning o'rnini hech qanday qurilma yoki boshqa fan o'qituvchisi egallay olmaydi. Sababi adabiyot o'qituvchisi ko'ngilni tarbiyalaydi. Bunda faqatgina sun'iy intellekt unga yordamchi vazifasini bajarishi mumkin, xolos.

– Bugungi kunda o'z ustida tinmay izlangan o'quvchi sun'iy intellekt orqali mustaqil o'qishi, o'z bilimlarini yanada rivojlantirishi mumkin. Jumladan, sun'iy intellekt yordamida adabiyot faniga oid barcha nazariy ma'lumotlarni uzviylashtirgan va boshqa fanlar bilan integratsiyalashgan holda o'rganishi mumkin.

2. Sun'iy intellekt aks etgan badiiy asarlarni tahlil qilish hamda tushuntirish.

Tarixiy hujjatlarga ko'ra, dastlabki sun'iy odam 1738-yilda fransuz mexanigi Jak de Vokanson tomonidan yaratilgan. Uning tuzilishi inson anatomiyasini eslatadigan musiqachi robot bo'lgan. U yura olmagan, lekin nayni mukammal chalgan. U robot-fleytachi lablari va harakatlanuvchi barmoqlari bilan puflama cholg'usini chalishi mumkin bo'lgan¹⁵.

Milliy hamda jahon adabiyoti namunalarida aks etgan sun'iy intellekt namunalarini tahlil qilish, o'quvchiga tushuntirish muhim hisoblanadi. Chunki bugun adabiyotni o'qiyotgan, kelajakda dasturchi va boshqa kasb egasi bo'lmoqchi bo'lgan o'quvchilar uchun ham adabiyot yangi g'oyalar berishi, yangi bilimlar, fantaziyalar bilan boyitishi mumkin. Avval utopiya va fantastikaday tuyilgan narsalar bugungi kunda inson aql idrokining mahsuli sabab amalga oshmoqda. Jumladan, ertaklardagi o'zi uchar gilamlar bugunda samolyot, sehrli ko'zgular televizor, tasvirni ko'rsatuvchi uzuklar esa kameralar holatida namoyon bo'lgan. Birgina 1986-yilda suratga olingan, bugungi o'quvchi ham yaqin-yaqingacha ekranlarda tomosha qilgan "Xohlamayman" multfilmini yodga oling. Unda yalqovlar mamlakatida dangasa bolaga robot xizmat qiladi, hatto u bilan gaplashadi, alla ham aytib beradi. Mana bu ham hozirgi sun'iy intellektning bir ko'rinishidir. U o'ziga berilgan vazifalarni

¹⁵ <https://uz.historical-facts.com/15235099-what-did-the-first-robots-look-like-and-create>



bajarishi bilan birga sun'iy aql orqali qisman fikrlaydi ham. Ammo yuqoridagi ikki holatdagi robotlar ham sun'iy ongga yaqin, ammo bugungi kundagi sun'iy intellekt tamoman undan o'zib ketgani bilan farq qiladi.

Shuningdek, yuqori sinf adabiyot darsligida berilgan "Temir xotin" asarida ham sun'iy intellekt namoyon bo'lgan. Undagi ko'rinishi insondan umuman farq qilmaydigan robot ayol berilgan buyruqlarni bajarishi, ammo qalbi yo'qligi, his qilish, sezish, charchash qobiliyatiga ega emasligi bilan ham inson bo'la olmasligini, odamzod Olloh tomonidan yaratilgan mukammal yaratiq ekanini ko'rsatib beradi. Ularning tahlilini o'quvchiga tushuntirish muhim hisoblanadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, sun'iy intellekt inson mushkulini yengillashtiruvchi, unga ko'mak beruvchi bir kuch sifatida maydonga chiqqan ekan, undan adabiy ta'limda ham foydalanish yaxshi samara beradi. Chunki bugunda sun'iy ong texnologiyalaridan foydalanib dars o'tgan o'qituvchining darsi o'quvchini o'ziga yanada jalb qiladi, fanga qiziqishini orttirib, mustaqil o'rganish imkonini beradi. Shuningdek, sun'iy intellekt namoyon bo'lgan asarlarni o'rganish va tahlil qilish kelajakda o'quvchiga yangi bilimlar berib, kelajakdagi kashfiyotlarga asqatishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. <https://lex.uz/docs/5297046>
2. <https://lex.uz/docs/-5603319>
3. Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartini tasdiqlash to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – Toshkent: 2017-yil 14 (774)-son, 230-modda. – b.233.
4. A.Madvaliyev, D. Xudayberganova tahriri ostida, "O'zbek tilining izohli lug'ati". 5 jildlik- T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. -B.824.
5. D. Quronov –Adabiyot nazariyasi asoslari, – T.: "Akademnashr", 2018. — 480b, — B.458.
6. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020. – 352 b.
7. Q.Yo'ldosh- "Jilovlanmagan tafakkur mahsuli" ("Maktabda adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari"), - T.: "Tafakkur nashriyoti", 2023. — 628 b, — B.147.
8. Rustamova N– Mediata'lim va mediamadaniyat: Nazariya va amaliyot" – T.: "Turon zamin ziyo" nashriyoti, 2016. – b.132
8. Narzullayev A – Pythonda dasturlash asoslari– T.: "Akademnashr", 2021.– b.336 .



9. Enterprise artificial intelligence transformation – Rashed Haq, Hoboken: Wiley, 2020, Includes index, LCCN 2019056748 (ebook). Printed in the United States of America.
10. Robot ethics 2.0 -Edited by Patrick Lin, Ryan Jenkins, and Keith Abney. Published by Oxford University Press 2017.

SYSTEM-CLUSTER THEORY AND TECHNOLOGY FOR IMPROVING THE QUALITY OF DISTANCE EDUCATION AT UNIVERSITY

Sirojiddinova Iroda Maxammadovna – Andijan Machine-Building Institute, Head of the Department of Humanities, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor
E-mail: iroda@andmiedu.uz

Abstract. *This article discusses the problem of increasing the number of people with higher education, various forms of distance education, the problem of humanization of society, modern didactic theories and the creation of innovative technologies.*

Key words: *Educational process, modern education, interactive satellite, distance learning.*

The beginning of the millennium for humanity is characterized by the understanding among wide sections of society that intellectual potential is the determining constructive factor in the development of civilization. The main factors in the growth of intellectual potential are science and education. In the 17th century Francis Bacon proclaimed: "Knowledge is power," and now this wisdom has acquired material outlines throughout civilization. This phenomenon is reflected in the unprecedented growth of the student population around the world. According to UNESCO in the 21st century. Professional success without higher education is impossible. In addition, a person must replenish his professional knowledge throughout his life. For serious professional growth of a specialist, it is obvious that you will need several higher educations.

Consideration. However, not to mention the current economic situation in Uzbekistan, even the most developed countries are unable to solve the problem of increasing the number of people with higher education through government funding. The solution to this problem has two main ways: 1) a sharp increase in the number of universities (extensive path) and 2) the creation of innovative educational technologies that allow simultaneously



increasing the number of new types of universities (virtual universities, online universities, etc.) and the student population according to individual programs. [1,2] As noted above, the extensive growth of the number of universities through budget funding is limited even for the most developed and rich countries. In this regard, extra-budgetary funding (non-state education) partially compensates for the lack of growth rates in the number of people with higher education. Historically, in Western Europe, state and non-state higher education have always coexisted. [3,4] Distance education grew out of television education in the West and correspondence and correspondence education. Here in Uzbekistan it has been enriched with modern didactic theories, human achievements in the field of information technology (INTERNET, interactive TV, etc.). Distance education is actively developing and is used in numerous foreign universities. There are various forms of distance education - this is absolutely remote distance education, asynchronous, when the student and teacher are separated in space, but simultaneously coexist in time; synchronous distance education - the student and teacher are in a joint local space, and the educational product (textbooks, videos, supertutors) is created and sent from one center to all local educational points (universities, branches, individual students, etc.)

There are other combined forms of distance education. It is well known that education has three main objectives:

- 1) transfer of cultural code to generations;
- 2) transfer of professional standards;
- 3) education of the elite, which will lead the development of society in the next time period. [5,6]

It should be emphasized that distance education primarily solves the second task of education, the transfer of professional standards to the younger generation, retrain specialists, and makes it possible to obtain a second higher education and special education anywhere in the world in the shortest possible time for an affordable fee. It should be noted that in today's realities of Uzbekistan, with its economic and political situation, vast territories, it is distance education of the state and non-state segments of the educational market that is a real positive response to solving the problem of increasing the number of people with higher education in Uzbekistan, which is a necessary condition for the progress of our country. Inextricably linked with the problem of a sharp increase in the number of people with higher education is the problem of improving the quality of higher education, which is a fundamental task of pedagogy. [7,8] Basically, the engineer was intended to solve the technocratic problems of the state. With the changing political situation and warming international climate, society's need for engineering and technical workers has decreased, which is also associated with an increase in labor



productivity around the world due to technological progress. [9,10] The main priority of society has become the person himself, his humanitarian needs. In this regard, education faced the problem of the ever-increasing need of society to obtain a higher education in the humanities, which required the creation of modern didactic theories and innovative technologies. The humanistic aspect of modern education is inextricably linked with the fact that the person, the personality of the student, is at the center of all education. The problem of humanization of society is one of the most important elements of the development of the state. [11]

What are the theoretical, methodological and pedagogical foundations for designing and managing the quality of distance education at a university? The educational process is the main component of pedagogy. The modern educational revolution with its new forms and technologies, a huge flow of diverse information poses the problem of a new approach to the organization and management of the educational process in higher education. The most promising educational technology is distance learning, which meets many of the requirements of the modern education paradigm, and therefore of the entire society.

Suggestions. Distance education technologies, which grew out of correspondence education and education by correspondence in our country and education on television abroad, included all the main achievements of civilization at the end of the second millennium - the global information network Internet, interactive satellite television, etc. The task of pedagogy of our time is to use the best that was created in the classical education system and effectively transform, adapt to modern distance technologies, innovative education. The educational educational process can be conditionally divided into two topological structures, which can be conditionally identified as "learning" and "security".

The topological structure of the educational process "learning" is the personality of the student, which represents the core of all didactic theories.

"Support" is the entire infrastructure that ensures the educational process, primarily the university, its organization and management.

It should be noted that these two topological structures are attributes of the educational process. As is known, the essence of dialectics is the separation of the one into opposites and the knowledge of the essence of these opposites.

To summarize, we can say that the modern educational revolution, the adaptation of distance education, which is considered a modern educational paradigm, to modern distance technologies is the entire infrastructure that ensures the management of a higher education institution.



LIST OF REFERENCES

1. Зулпыхар, Ж., Серікбаева, А., Нурбекова, Г., & Кариева, К. (2024). СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ОБУЧЕНИЯ СЕТЕВЫМ ТЕХНОЛОГИЯМ. *Научный журнал «Вестник НАН РК»*, 407(1), 178-193.
2. Sirozhiddinova, I. (2019). Rational methods of awakening and stimulation professional and creative abilities of university students. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* Vol, 7(7).
3. Mahammadovna, S. I. (2021). Needs and factors for developing professional and creative abilities of students of higher educational institutions. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 25(6), 2200-2209.
4. Mahammadovna, S. I. (2023). Features of Cluster Design in Modern Paradigms of Education. *Telematique*, 22(01), 348-355.
5. Сирожиддинова, И. (2022). Методика смешанной отборки при комплексном проектировании профессиональной подготовки будущих инженеров. *Общество и инновации*, 3(7/5), 87-92.
6. Sirojiddinova, I. M. (2023). Scientific and Technological Progress, Problems and Solutions In the Application of Artificial Intelligence. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769), 1(9), 49-53.
7. Sirojiddinova, I. M. (2023). IMMERSION OF STUDENTS IN AN UNCOMFORTABLE ENVIRONMENT AS A METHOD OF ACTIVATING THE LEARNING PROCESS. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(11), 4-5.
8. Сирожиддинова, И. М. (2023). В КОМПЛЕКСНОМ ПРОЕКТИРОВАНИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ ИНЖЕНЕРОВ МЕТОД СЛУЧАЙНОЙ ВЫБОРКИ. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(16), 521-523.
9. Sirojiddinova, I. (2023). TECHNOLOGICAL CHARACTER OF THE EDUCATIONAL PROCESS WHEN DESIGNING PEDAGOGICAL OBJECTS. *Solution of social problems in management and economy*, 2(2), 130-132.
10. MAXAMMADOVNA, S. I. (2023). IN COMPREHENSIVE DESIGN OF PROFESSIONAL TRAINING OF ENGINEERS RANDOM SAMPLE METHOD. *O 'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*.
11. Mahammadovna, S. I. (2022). IMPROVING THE PROFESSIONAL TRAINING OF FUTURE ENGINEERS BASED ON THE CLUSTER APPROACH. *Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development*, 3, 45-47.



TA'LIM JARAYONIDA MOODLE TIZIMINI QO'LLANILISHI VA UNDAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XOSLIGI

Suyumov J.Y. – Toshkent axborot texnologiyalar universiteti Farg'ona filiali, «Kompyuter tizimlari» kafedrası o'qituvchisi

Nuraliyeva Z.A. – Toshkent axborot texnologiyalar universiteti Farg'ona filiali, talaba

Annotatsiya. Maqolada ta'limni boshqarishda Moodle tizimi qo'llanilganda, o'zining foydalanuvchilariga keng aktiv elementlar to'plamini tavsiya qilishi, baholash faoliyatini tashkillashtirish va rejalashtirish uchun keng imkoniyatlarni ochib berishi, o'quv fanining tuzilishi va o'quv jarayonidagi talabalarning bilim darajasiga bog'liq ekanligi haqida fikrlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: globallashtirish, LMS, moodle tizimi, open source, axborot-kommunikativ texnologiyalar, masofaviy ta'lim, pedagogik texnologiya.

Axborot globallashtirishi hamda hozirgi zamon jamiyati va ta'limini modernizatsiyalash sharoitida mutaxassis-o'qituvchilarni oldiga yetarli darajada ko'p muammolar qo'yilganki, ularni ta'limning hamma darajalarida yechishda odatiy pedagogik texnologiyalardan foydalanmasdan, balki axborot-kommunikativ texnologiyalar va o'quv jarayonini boshqarishda axborot-ta'limiy tizimlaridan foydalanish zarurligi aniqlandi.

Biz yuqorida keltirilgan boblarda Moodle tizimining muhimligini e'tiborga olgan bo'lsak ham, o'qituvchining baholash faoliyatini ko'rib chiqamiz.

O'qituvchining kasbiy faoliyatida quyidagi sohani o'rnini aniqlash muammosi ta'limni modernizatsiyalash sharoitlarida dolzarb hisoblanadi. O'qituvchining baholash faoliyati talabalarning o'zlashtirishini nazorat qilish emas, balki ularda o'ziga nisbatan mos baho berish sharoitini yaratishdir.

Baholash faoliyatini unumli amalga oshirish uchun o'qituvchilarda quyidagilar bo'lishi muhim hisoblanadi:

- baholash shaklini aniqlash;
- baholash shaklini qabul qilish;
- baholash shaklini ma'lum mezonlar bilan solishtirish;
- baholash tuzilishini tanlash;
- talabaga bahoni ma'lum qilish;

Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, hozirgi ta'lim jarayonini virtualashtirishda o'qituvchilar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib masalalarni yechishi kerak. Hozirgi vaqtda oliy ta'limda va boshqa ta'lim darajalarida masofaviy ta'limdan foydalanish dolzarb ekanligi hech kimga sir emas.

Bunda o'quv jarayonini tashkillashtirishda axborot-ta'limiy server, ta'lim berishga moslashtirilgan saytlar, o'qituvchining shaxsiy blogi va boshqa internet servislari, turli maxsus ishlab chiqilgan qobiqlar, ya'ni o'quv jarayonini boshqarish tizimi, jamlangan ma'lumotlarni joylashtirish tizimi, masofaviy ta'lim tizimlarini o'z ichiga oladi.

Kasbiy masalalarni amalga oshirish uchun hozirda keng qo'llanilayotgan ta'limni boshqarish (**Learning Management System – LMS**) da Moodle tizimi tanlandi.

Qobiqni tanlash jarayonida asosiy baholash mezonlari sifatida quyidagilarga asoslandik:

- ta'limni boshqarishni Moodle tizimi dunyoda keng tarqalgan dasturiy mahsulot hisoblanib, undan qonunni buzmaganda holda qo'shimcha xarajatlarsiz foydalanish mumkin;
- keltirilgan qobiq OPEN SOURCE – dasturining mahsuloti hisoblanadi, ya'ni dasturni o'zgartirish, uni qayta ishlash, u asosida yangi modullar yaratish imkoniyati mavjud;
- ta'limni tashkillashtirishni keng ko'lamdagi imkoniyatlariga ega, ya'ni qobiq o'zida ko'p o'quv elementlarini mujassamlashtirgan (ma'ruza, seminar, amaliy ishlar va hokazolar). Bundan tashqari unda kommunikativ imkoniyatlar, avtomatlashtirilgan nazorat va talabalarning o'zlashtirish nazorati bo'yicha monitoringni olib borish imkoniyatlari mavjud;
- qobiq tarkibida tayyor modullar jamlanganligi uchun – foydalanish imkoniyatlari oddiy va qulay, ya'ni foydalanuvchi o'z xohishiga, yechiladigan masalalarni darajasiga qarab tayyor modullarni tanlab olishi mumkin.

Keltirilgan qobiqning imkoniyatlaridan foydalanib, o'qituvchining faoliyatidagi baholash me'yori bo'yicha imkoniyatlarini aniqroq ko'rib chiqamiz.

Ta'limni boshqarishda Moodle tizimi qo'llanilganda, o'zining foydalanuvchilariga keng aktiv elementlar to'plamini tavsiya qiladi, ya'ni bunda o'qituvchining baholash faoliyatini va talabalarning – har xil turdagi topshiriqlar, forumlar, ishchi daftarlar, ma'ruzalar, seminarlar, testlar, ma'lumotlar bazasi va hokazolarni tashkillashtirishda foydalanish mumkin. Shuni ta'kidlab o'tamizki, ushbu ro'yxatga standart faol elementlar kiritilgan. Bundan tashqari seminar elementi talabalarni refleksi va o'zaro muloqotini

shakllantirishi uchun juda ham muhim hisoblanadi, lekin shu bilan birgalikda juda ham murakkab nuqtayi nazarlarni sozlashtiradi.

Yuqorida keltirilgan elementlar shunday sozlamalarga egaki, bunda o'qituvchilarning oldiga qo'yilgan masalalarni maksimal darajada yechimini topish imkoniyatlarini beradi. Ulardan eng asosiylarini ko'rib o'tamiz:

- baho, sonli (ballar) yoki sifatli (shkala) shaklida ko'rsatilsa, bajarilgan ishni o'zi baholay oladi;
- elementga kirish imkoniyati – u yoki bu element bilan kalendar va vaqt bo'yicha ish jadvalini tuzish imkoniyatini beradi. Bunda o'rnatilgan sozlamalar tugasa (muayyan vaqt beriladi) bu elementga kirish ta'qiqlanadi.
- eslatma / sharhlar – o'qituvchilarga va talabalarga bajarilgan ish uchun eslatma qoldirish imkonini beradi.
- kirish cheklanishi – muayyan shartlar bajarilmagunicha elementga kirish ta'qiqlanadi. Masalan bajarilish vaqti, baho olish, va hokazo.
- ruxsat etish – bajarilgan ishni faqatgina o'qituvchi tekshirib bo'lgandan keyingina ko'rinadi.

Shuni ta'kidlaymizki, yuqorida ko'rsatilgan sozlamalar hamma elementlarga ham xos emas. Masalan, ruxsat etish sozlamasi Glossariy va Seminar elementlariga xosdir, kirish imkoniyati esa Forum va Glossariy elementlariga xos bo'ladi.

Baholash faoliyatini tashkillashtirish va rejalashtirishda o'qituvchi quyidagilarni inobatga olishi zarur, ya'ni ayrim elementlarga talabalarning faol baholash yo'nalishini taxmin qiladi, boshqalari esa yo'q. Masalan, birinchi guruhga seminar, forum, glossariylarni, ikkinchi guruhga esa har xil turdagi topshiriqlar, ma'ruzalar, testlarni kiritish mumkin. Ammo aytib o'tilgan elementlarni har birini tahrirlashda lokal holatda o'rinlarini qayta taqsimlash imkoniyati vujudga keladiki, bunda talaba qisman o'qituvchi funksiyasini bajarishiga to'g'ri keladi.

Ta'limni boshqarish tizimini oliygohning o'quv jarayonida amalda qo'llanilgandagi malakaga asoslanib, biz tomondan quyidagi o'qituvchi faoliyatida baholashning quyidagi bosqichlariga ajratilgan:

1-bosqich: tashkiliy – tayyorgarlikni nazarda tutadi va ishlarning turlariga qarab, fanlarning texnologik xaritasini ishlab chiqish bilan xulosa qilinadi. Bu bosqichda o'qituvchi o'quv rejaga binoan va fanni o'rgatishda yakuniy maqsad va masalalarga asosan, biron – bir ishni bajarishda talabalarning mustaqil ishlash darajasi, ishlarni fanning o'ziga tegishli bo'lgan bo'limiga asoslanib foydalanishini, har bir ishda fanni o'qitishdagi o'rnini belgilashni fikrlaydi. Qisqa qilib aytganda, o'qituvchi faoliyatining yakuniy hisobida ushbu bosqich o'quv ta'lim tizimiga joylashtirilgan kursning tuzilmasidir.

2-bosqich: mazmuniy – rejalashtirilgan ishlarni bajarish uchun mos keladigan faol elementlarni tanlash. Masalalarning yozma qismlarini, tematikalar va forumlarda chiqish, glossariy, test savollarini saralash va boshqalarni shakllantirish. Shuni aytib o'tish joizki savol qanchalik aniq shakllangan bo'lsa, talabani bu savolni tushunishi shunchalik oson bo'ladi.

3-bosqich: texnologik – kursda tanlangan elementlarni joylashtirish, ularni sozlash, birinchi bosqichda o'tilgan ishlar uchun ballarni berish. Amaliyotda ko'p hollarda o'qituvchilar tomonidan ikkinchi va uchinchi bosqichlar birlashtirilib amalga oshiriladi.

4-bosqich: xulosaviy – baholash qaydnomasini sozlash – hamma faol elementlar kursga kiritilgandan so'ng (natijada o'qituvchi ularni qanday baholanganligini aniqlaydi) baholash qaydnomasining hisoboti avtomatik tarzda jamlanadi. Jamlangan hisobot kurs tuzilishining mantiqiga asoslanib emas, balki xronologik ketma-ketlikda bajariladi. Faqatgina ikkita, ya'ni Ish daftari va Seminar elementlari uchun baholash qaydnomasi va kurs mazmunini sinxronlashtirish talab etilishi mumkin. Baholash qaydnomasini shakllantirish juda ko'p mehnatni talab qiladi, shuning uchun bu yerda yoritilmadi.

5-bosqich: xulosaviy baholash qaydnomasini testdan o'tkazish – xulosaviy baholash qaydnomasini sozlash test yordamida tekshirib aniqlanadi. Bunday tekshiruvdaha bir talaba uchun namunaviy maxsus yaratilgan hisob yozuvdan foydalanilgan ma'qul. Bu bosqichda o'qituvchitalabaga bergan ishlarini turlicha baholab ko'radi, fanni o'zlashtirish yakuniy natijalarini modellashtiradi.

6-bosqich: nazorat – talabalarni kursda o'qishini tashkillashtirishda o'qituvchining bevosita baholash faoliyati. Ta'limni boshqarish tizimida baholarni qo'yish ikki usulda amalga oshirilishi mumkin:

- avtomatik baholash – tizim avtomatik ravishda ballar qo'yib chiqadi va yuqorida kiritilgan ma'lumotlarga asoslanib kerakli sharhlarni yetkazadi. Test va Ma'ruza elementlari ushbu tamoyilga asoslanib ishlaydi.
- qo'lda baholash – o'qituvchi har bir ishni o'zi ko'rib chiqadi, kerakli bahoni qo'yadi va fikrini yozadi. Shu tamoyil asosida Har xil turdagi masalalar, Forumlar, Ish daftarlari, Ma'lumotlar bazasi, Glossariy va Seminar elementlari ishlaydi.

O'qituvchining baholash faoliyati ta'limni boshqarish tizimida xulosaviy baholash qaydnomasi ishiga asoslanganligini e'tiborga olsak, u bilan ishlashni asosiy uslublarini ko'rib chiqamiz.

Tahrirlash huquqiga ega bo'lgan o'qituvchi va ushbu huquqga ega bo'lmagan – Boshqaruv bloki, Baholash opitsiyalariga xulosaviy baholash qaydnomasiga kirishga ruxsat etiladi. Qaydnomani ko'rib chiqishni juda ham



ommalashgan ikkita tartibi tarqalgan: baho haqidagi hisobot va foydalanuvchining hisoboti.

Baholash bo'yicha hisobot oddiy jurnalni eslatadi, qatorlarda talabalar ism va familiyalari, ustunlarda esa baholanuvchi ishlar turlari, qaydnomani o'zida qo'yilgan baholar ko'rinib turadi.

Foydalanuvchi bo'yicha hisobot xuddi oldingi baholash qaydnomasini eslatadi, lekin biron – bir aniq bir talaba uchun emas, familiyalar o'ng tomondagi ochilgan ro'yxat asosida tanlanadi.

O'quv jarayonida LMS Moodledan foydalangan holda yuqorida aytib o'tilgan texnologiyalarni qo'llash o'qituvchiga baholash mezonini avtomatlashtirish imkoniyatlarini beradi, talabalarni baholash tizimini muayyan moslashtiradi, bu esa o'quv fanining tuzilishi va o'quv jarayonidagi talabalarning bilim darajasiga bog'liq, bundan tashqari bu o'quv jarayonidan foydalanish kasbiy muammolar yechimini samaradorligini oshiradi.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlab o'tamizki, yuqorida aytib o'tilgan texnologiyalar ko'p yillar davomida chet el oliy o'quv yurtlari o'qituvchilari tomonidan qo'llanilib kelinmoqda. Ushbu baholash turli xil yo'nalishdagi bakalavrlarni va mutaxassislarni tayyorlashdagi reyting – ball tizimini amalga oshirish uchun ishlatilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Галузо И.В. Методика реализации обучающей функции тестов в среде MOODLE / И.В. Галузо, В.В. Небышинец, П.А. Сташулёнок // Современное образование Витебщины. — 2013.— № 1. — С. 76–80.
2. Галузо И.В. Структура дистанционного обучения школьников и методическое сопровождение учебного процесса в среде MOODLE. Могилев: МГУ имени, 2013. — 96-98 с.
3. Белозубов А.В. Система дистанционного обучения Moodle: Учебно методическое пособие СПб.: СПбГУ ИТМО, 2007. — 108

TA'LIM JARAYONIDA SUN'IY INTELLEKT VA VIRTUAL BORLIQ TEKNOLOGIYALARINI QO'LLASH

Tagayev Qoldibek Koldorbek o'g'li –
Yangi asr universiteti

E-mail: t.qaldibek97@gmail.com

Annotatsiya. *SI va VR texnologiyalari talabalarning o'zlashtirish darajasini oshirish, darslarga qiziqishlarini kuchaytirish va ta'lim jarayonini interaktiv qilishda katta imkoniyatlar yaratadi. SI asosida adaptiv o'qitish tizimlari, o'quv yordamchi robotlar va tahliliy ma'lumotlar yordamida*



talabalarining individual ehtiyojlarini qondirish mumkin. VR texnologiyalari orqali esa talabalar virtual safarlar, laboratoriyalar va role-playing o'yinlari orqali turli mavzularni chuqurroq o'rganishlari mumkin. Maqolada, shuningdek, bu texnologiyalarni joriy etishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar va ularga yechimlar ham ko'rib chiqiladi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, SI va VR texnologiyalari ta'lim jarayonini samarali va talabaga yo'naltirilgan qilish imkonini beradi. Biroq bu texnologiyalarni muvaffaqiyatli joriy etish uchun texnik imkoniyatlar, o'qituvchilarning tayyorgarligi va talabalarining texnologiyalarga moslashuvi muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: *sun'iy intellekt (SI), virtual borliq (VR), ta'lim texnologiyalari, adaptiv o'qitish, interaktiv darslar, virtual ta'lim muhiti.*

Kirish. Sun'iy intellekt – informatikaning alohida sohasi bo'lib, odatda, inson ongi bilan bog'liq imkoniyatlar: tilni tushunish, o'rgatish, muhokama qilish, masalani yechish, tarjima va shu kabi imkoniyatlarga ega kompyuter tizimlarini yaratish bilan shug'ullanadi. Sun'iy intellekt (SI) kompyuterlarga o'zlarining tajribalarini o'rganish, berilgan parametrlarga moslashish va ilgari faqat odamlar uchun mumkin bo'lgan vazifalarni bajarish imkonini beradi. Sini amalga oshirishning ko'p holatlarida – kompyuter shaxmatchilaridan tortib uchuvchisiz transport vositalarigacha – chuqur o'rganish va tabiiy tillarni qayta ishlash imkoniyati juda muhimdir. Ushbu texnologiyalar tufayli kompyuterlarga katta miqdordagi ma'lumotlarni qayta ishlash va ulardagi naqshlarni aniqlash orqali muayyan vazifalarni bajarishga "o'rgatish" mumkin[1].

Ta'limning paydo bo'lishidan boshlab, o'qitish strategiyalari, shuningdek, talabalar va o'qituvchilar o'rtasidagi bog'liqlik sezilarli darajada rivojlandi. Dunyo bo'ylab o'qitish strategiyalari yuqori, qo'shimcha samarali natijalarni boshqarish uchun qo'shimcha tuzilmaga aylandi. Ushbu o'zgarish, asosan, texnologiyaning doimiy aralashuvi bilan bog'liq bo'ladi. Uzluksiz texnologik taraqqiyot orqasida biz o'qitish va o'qitish usulida paradigma o'zgarishiga guvoh bo'lamiz. o'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi aloqa dinamik bo'lib, o'qituvchilar o'z talabalarining qarashlarini tushunishda qo'shimcha qulay va ancha yuqori bo'lgan joyda. Texnologiya qo'shimcha o'quv kooperativini yaratdi, chunki akademiklar va talabalar yuqori natijalarga erishish uchun ikki kishiga mo'ljallangan velosipedda harakat qilishdi[2].

Virtual haqiqat (inglizcha – virtual reality, sun'iy voqelik) – inson sezgilari orqali anglashi qiyin bo'ladigan holatlarni kompyuter texnologiyalari orqali real voqelikka aylantirilishi. Masalan, mashina, kompyuter ichki mexanizmlarining harakati, kimyoviy, fizik elementlar tuzilishi, molekulalarning harakati, tuzilishi va h.k.

Virtual ta'lim muhiti uch o'lchovli interfaol axborot ta'lim muhiti, virtual fazo, multimediali texnologiyalardan foydalangan holda rivojlanmoqda.

Virtual auditoriya (sinf, guruh talabalari) – masofali o'qitish sharoitida talabalar guruhi o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish. Virtual auditoriya birlari va o'qituvchi bilan interfaol ta'sir qilish imkoniyati mavjud, masofali o'qitish texnologiyasidan foydalaniladigan va ma'lumotlar uzatish kanallari bilan birlashtirilgan o'zaro ajratilgan ishchi joylar to'plami hisoblanadi[3].

Metodlar Sun'iy intellekt (SI) va virtual borliq (VR) texnologiyalarini ta'limda qo'llash uchun turli metodlar mavjud. Bu metodlar o'qitish sifatini yaxshilash, talabalarning qiziqishlarini oshirish va ta'lim jarayonini yanada interaktiv va samarali qilishga qaratilgan. Quyidagi usullar bu borada muhim ahamiyatga ega:

Sun'iy intellekt (SI) metodlari

1. Adaptiv o'qitish tizimlari: SI asosida ishlaydigan bu tizimlar, talabaning bilim darajasiga va o'rganish tezligiga mos ravishda o'quv materiallarini sozlaydi. Bu, har bir talabaga individual yondashuvni ta'minlaydi.

2. O'quv yordamchi robotlar: SI bilan jihozlangan robotlar, talabalarga mavzuni tushuntirishda yoki mashqlarni bajarishda yordam berishi mumkin. Ular shuningdek, talabalarning savollariga javob berish va qo'shimcha ko'rsatmalar berish imkonini ham yaratadi.

3. Tahliliy ma'lumotlar: SI tizimlari talabalarni ng o'rganish jarayonini kuzatib, ularning o'zlashtirish darajasini tahlil qiladi. Natijada, o'qituvchilar talabalarning zaif va kuchli tomonlarini aniqlab, ta'lim jarayonini yanada samarali qilishlari mumkin.

4. Ovoz va matnli asoslangan interaktiv darslar: SI texnologiyasi orqali talabalar o'zlarining ovozlari yoki matn yozish orqali savollar berishlari va javob olishlari mumkin.

Virtual Borliq (VR) metodlari

1. Virtual safarlar: VR orqali talabalar geografik cheklovlardan qat'i nazar, dunyoning turli burchaklariga virtual safarlarni amalga oshirishlari mumkin. Bu, tarix, geografiya kabi fanlarni o'rganishni qiziqarli qiladi.

2. Virtual laboratoriyalar: VR texnologiyasi yordamida talabalar xavfsiz muhitda turli tajribalar o'tkazishlari mumkin. Bu, ayniqsa, kimyo va biologiya kabi amaliyot talab etadigan fanlarda foydali bo'ladi.

3. Role-playing o'yinlar: VR orqali talabalar tarixiy voqealarni yoki boshqa mavzulardagi vaziyatlarni ro'yobga chiqarish orqali o'rganishlari mumkin. Bu usul talabalarning mavzuni chuqurroq tushunishlariga yordam beradi.

4. Interaktiv 3D model asosida o'qitish: VR orqali murakkab tushunchalar va obyektlar (masalan, anatomiya, fizika) 3D modellarda ko'rsatilishi mumkin, bu esa talabalarga mavzuni yanada yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

SI va VR texnologiyalari ta'lim sohasida katta o'zgarishlarni keltirib chiqarishi mumkin. Biroq, bu texnologiyalarni samarali qo'llash uchun o'qituvchilarning mos tayyorgarligi, texnik imkoniyatlar va talabalarning texnologiyaga moslashuvi muhim ahamiyatga ega. Bu usullar ta'lim jarayonini yanada interaktiv, samarali va talabalarga moslashtirilgan qilishga yordam beradi.

Natijalar Sun'iy intellekt (SI) va virtual borliq (VR) texnologiyalarini ta'limda qo'llash orqali quyidagi natijalarga erishish mumkin:

1. Yaxshilangan talabalarning o'zlashtirish darajasi: SI asosida shaxsiylashtirilgan o'qitish va VR yordamida taqdim etilgan amaliy va interaktiv o'rganish tajribalari talabalarning mavzularni chuqurroq va samaraliroq o'zlashtirishlariga yordam beradi.

2. Talabalarni jalb qilish va motivatsiya oshishi: VRning immersiv tajribalari va SI yordamida taqdim etiladigan o'quv materiallari talabalarni darsga yanada ko'proq jalb qiladi va ularda mavzuni o'rganishga bo'lgan qiziqishni oshiradi.

3. Individual ta'lim ehtiyojlarini qondirish: SI texnologiyasining shaxsiylashtirilgan yondashuvi har bir talabaning individual ehtiyojlarini inobatga oladi, bu esa har bir talabaning o'ziga xos o'rganish uslubiga mos darslarni taqdim etish imkonini beradi.

4. O'qitish samarasini oshirish: SI yordamida o'qituvchilar talabalarning o'zlashtirish jarayonini tahlil qilib, samaraliroq dars rejalarini tuzishlari mumkin. VR esa murakkab mavzularni tushunarli va amaliy tarzda o'rgatish imkonini beradi.

5. Amaliy tajribalarning kengayishi: VR texnologiyasi orqali talabalar xavfsiz muhitda turli amaliy tajribalarni bajarishlari mumkin, bu esa, ayniqsa, tabiiy fanlar kabi amaliyotni talab etadigan fanlarda muhim ahamiyat kasb etadi.

6. Ta'limning global miqyosda kengayishi: VR orqali talabalar geografik cheklovlarisiz turli mamlakatlarning madaniyati va tarixini o'rganishlari, shuningdek, turli mamlakatlardan kelgan talabalar bilan hamkorlik qilishlari mumkin.

7. O'qituvchilarning ish yuki kamayishi: SI yordamida o'qituvchilarning baholash va rejalashtirish ishlari avtomatlashtirilishi mumkin, bu esa ularga ko'proq vaqtini talabalar bilan bevosita ishlashga sarflashga imkon beradi.

8. Ta'lim jarayonida innovatsiyalarning joriy etish: SI va VR kabi zamonaviy texnologiyalar ta'lim jarayoniga yangi uslublar va yondashuvlarni kiritadi, bu esa ta'limni yanada zamonaviy va qiziqarli qiladi.

Natijada, SI va VR texnologiyalari ta'limni yanada samarali, interaktiv va talabaga yo'naltirilgan qilish imkonini beradi, shu bilan birga o'qitish jarayonini yanada qulay va samarali qiladi. Biroq, bu texnologiyalarni muvaffaqiyatli joriy

etish uchun zarur texnik imkoniyatlar, o'qituvchilar tayyorgarligi va talabalarning texnologiyalarga moslashuvini hisobga olish muhimdir.

Muhokama Sun'iy intellekt (SI) va virtual borliq (VR) texnologiyalari ta'lim sohasida katta imkoniyatlar yaratgan bo'lsa-da, bu yangiliklarni joriy etishda bir qator muammolar ham mavjud. Quyidagilarda bu natijalar va ularga bog'liq muammolarni batafsil ko'rib chiqamiz.

SI va VR yordamida taqdim etiladigan shaxsiylashtirilgan o'qitish usullari va amaliy tajribalar o'quvchilarning mavzularni chuqurroq o'zlashtirishlariga yordam beradi.

Interaktiv va immersiv ta'lim usullari o'quvchilarni darsga ko'proq jalb qiladi va ularning mavzuga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi.

VR orqali ta'lim geografik cheklolardan ozod bo'lib, o'quvchilarga dunyoning istalgan burchagidan ta'lim olish imkoniyatini beradi.

SI texnologiyasi o'qituvchilarga o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini yaxshiroq tushunish va shunga asoslangan samarali dars rejalarini tuzish imkonini beradi.

SI va VR texnologiyalarini joriy etish uchun zarur bo'lgan texnik infrastruktura va asbob-uskunalar hamma ta'lim muassasalarida mavjud emas. Bu, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda muammo bo'lishi mumkin.

SI va VR kabi yangi texnologiyalarni samarali qo'llash uchun o'qituvchilarning tegishli tayyorgarligi va qo'shimcha malaka oshirishlari talab etiladi.

SI va VR texnologiyalaridan foydalanishda o'quvchilarning shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish va ularning xavfsizligini ta'minlash muhimdir.

SI va VR texnologiyalariga ortiqcha bog'liqlik, o'quvchilarning asosiy o'rganish ko'nikmalarini rivojlantirishda to'sqinlik qilishi mumkin.

SI va VR texnologiyalarining joriy etilishi madaniy va ijtimoiy farqlarni hisobga olishni talab etadi, chunki har bir mintaqaning o'ziga xos ehtiyoj va qadriyatlari mavjud.

SI va VR texnologiyalari ta'lim sohasida katta o'zgarishlar va imkoniyatlar yaratishi mumkin. Biroq, bu texnologiyalarni samarali va adolatli tarzda joriy etish uchun texnik, tayyorgarlik, xavfsizlik va madaniy jihatdan bir qator muammolarni hal etish zarur. Natijada, bu texnologiyalar ta'lim sohasini yanada samarali va interaktiv qilish imkonini beradi, lekin bu jarayonda ehtiyotkorlik va har tomonlama yondashuv talab etiladi.

Xulosa Sun'iy intellekt (SI) va virtual borliq (VR) texnologiyalari ta'lim sohasida katta imkoniyatlar yaratgan bo'lsa-da, bu yangiliklarni joriy etishda bir qator muammolar ham mavjud. Bu texnologiyalar ta'limni yanada shaxsiylashtirilgan, interaktiv va global miqyosda kengaytirish imkonini beradi. O'quvchilarning o'zlashtirish darajasi va motivatsiyasi yaxshilanadi, o'qituvchilarning ish yuki kamayadi va ta'lim jarayoni samaraliroq bo'ladi.



Biroq SI va VR texnologiyalarini ta'limda samarali qo'llash uchun texnik infrastruktura, o'qituvchilarning mos tayyorgarligi, xavfsizlik va maxfiylik masalalari, texnologiyaga bog'liqlik muammolari hamda ijtimoiy va madaniy farqlarni hisobga olish zarur. Bu muammolar hal etilganda, SI va VR texnologiyalari ta'lim sohasini yanada samarali va interaktiv qilish imkonini beradi, lekin bu jarayonda ehtiyotkorlik va har tomonlama yondashuv talab etiladi. Bu texnologiyalar kelajakdagi ta'limning asosiy unsurlaridan biriga aylanishi mumkin, ammo bu jarayonda texnik, ijtimoiy va pedagogik jihatdan muvozanatni saqlash muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Muxiddinov Muxriddin Nuriddin o'g'li "SUN'IY INTELLEKT VA UNING IMKONIYATLARI" SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL. ISSN: 2181-3337 .2022. № 2. 34-36-bet.
2. Mengturayev Farxod Ziyatovich, Xaydarov Sherali Islom o'g'li "TA'LIMDA SUN'IY INTELLEKTNING O'RNI" JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS Volume-27_Issue-3_April_2023, 98-102-bet.
3. Tursunov S. Q., Tagayev. Q. K. TA'LIM JARAYONIDA VIRTUAL TEKNOLOGIYALAR //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 8. – №. 4. – C. 73-79.

ALGEBRA VA GEOMETRIYA DARSLARINI TASHKILLASHTIRISHDA SUN'IY INTELLEKTLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Usanov Yoqub Dilmurod o'g'li – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti akademik litseyi

E-mail: y_usanov@umail.uz

Otoboyeva Aziza Shakirovna – Samarqand Davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

E-mail: a_otoboyeva81@umail.com

Artikov Farxod Sayfiddinovich – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti akademik litseyi

E-mail: artikovfarxod89@gmail.com

Annotatsiya. *Sun'iy intellektning ta'lim sohasiga, xususan, matematikani o'qitishga integratsiyalashuvi an'anaviy pedagogik usullarni o'zgartirishi mumkin bo'lgan ko'plab afzalliklarni taqdim etadi. Ushbu maqolada shaxsiy o'rganishlar, real vaqt rejimida fikr-mulohaza yuritish, faollikni oshirish va resurslarni samarali taqsimlashga qaratilgan sun'iy*



intellektning matematika fanini o'rganishdagi afzalliklari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: *Sun'iy intellekt, ta'lim, Wolfram Alpha, Symbolab, matematika, Algebra, Geometriya, Desmos.*

Matematika o'qitishda kompyuterlarni qulayligini yana bir yo'nalishi ayrim o'quv holatlarini modellashtirishdir. Modellashtirilgan dasturlardan foydalanishning maqsadi, o'qitishning boshqa usullari qo'llanganda tasavvur qilish, ko'z oldiga keltirilishi qiyin bo'lgan materiallarni tushunarli bo'lishini ta'minlashdan iborat. Modellashtirish yordamida o'quvchilarga ma'lumotlarni grafik rejimda kompyuter multimediasida ko'rinishida taqdim qilish mumkin. Shu boisdan ular matematikani chuqur o'rganish va o'quv jarayonida sezilarli darajada mustaqil ishlay olish ko'nikmasini oshiradi.

Bizga ma'lumki, algebra fanini o'qitishda mavzuni yanada sodda va mukammal tushuntirishi, o'quvchi esa darsdan tashqari mustaqil ravishda mavzuni o'zlashtirishi, o'rganayotgan fan orqali olgan bilimlarini qaysi sohalarida qo'llashi mumkinligi va o'zlashtirgan mavzuni mustahkamlashida "Wolfram Alpha", "Symbolab" sun'iy intellektlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Wolfram Alpha, Symbolab sun'iy intellektlarida ishlash uchun kuchli dasturchi bo'lish talab etilmaydi. Buning uchun o'qituvchi va o'quvchi internet va axborot texnologiyalaridan foydalana olishi yetarli.

Sun'iy intellekt texnologiyalari boshqa sohalar qatori ta'lim sohasida katta o'zgarishlar kiritmoqda. Bu texnologiyalar o'quv jarayonini optimallashtirish, individual o'rganishni kuchaytirish va samaradorlikni oshirish imkonini beradi.


Matematika darslarida sun'iy intellekt ilovalaridan foydalanish o'quvchilarning ta'lim jarayonini yanada samarali va qiziqarli qiladi. Microsoft Math Solver, Wolfram Alpha, Photomath, Symbolab, Khan Academy, Mathway va Desmos kabi sun'iy intellektlar algebra, geometriya, fizika va kimyo fanlarida keng qo'llaniladi va o'qituvchilarga hamda o'quvchilarga turli darajadagi masalalarni yechishda yordam beradi. Ushbu sun'iy intellektlar masala yechimini qadam-baqadam tushuntirishlar, grafik vizualizatsiyalar va keng qamrovli resurslar orqali o'quvchilarni fanlarni o'rganishga qiziqtiradi va ularning o'zlashtirish darajasini oshiradi.

Xususan O'zbekiston sharoitida o'quvchilar matematik tenglama va tengsizliklarni yechishda Photomath, Microsoft Math Solver platformalaridan foydalanib kelmoqda.

Hozirgi kunda tenglama va tengsizliklarni yechishda analitik yechimlar bilan bir qatorda vizual yechimlar ham muhim hisoblanmoqda, ya'ni o'quvchilar masala yechimi mazmunini tushunib yetishida grafik yechimlarning ham o'rni katta hisoblanadi.

Matematik tenglama va tengsizliklarni ham analitik yechish ham grafiklar yordamida yechib ko'rsatadigan sun'iy intellektlar mavjud. Masalan Wolfram Alpha platformasi, bu platformada tenglama yoki tengsizliklarni kiritsak, yechilish usullari va grafigini ham bir vaqtning o'zida chiqarib beradi.

Misol uchun $\sin 3x + \cos 4x > 1$ tengsizlikni Wolfram Alpha sun'iy intellektidan foydalanib yechamiz.




Bundan tashqari bu platformadan differensiallash masalalarida, yuqori tartibli differensial tenglamalarni yechishda, matritsa va determinant masalalarini yechishda ham foydalanish mumkin.

Geometrik chizmalar va matematik funksiyalarning grafiklarini yasash masalalarining yechimini grafiklar orqali tahlil qilish uchun yana bir sun'iy intellektlardan biri Desmosdir.

Desmos – bu matematika o'quvchilari va o'qituvchilari uchun mo'ljallangan onlayn grafik kalkulyator va ta'lim platformasi. Desmos sun'iy intellekt yordamida matematika ta'limida innovatsion yondashuvlarni taqdim etadi va o'quvchilarning tushunchalarini chuqurlashtirishga yordam beradi.

Desmosning eng asosiy funksiyasi bu – grafik tenglamalarni chizish va vizualizatsiya qilishdir. Bu imkoniyat o'quvchilarga matematik tenglamalar va ularning grafiklar o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rish va tushunishda katta yordam beradi. Bir nechta tenglamalar va grafiklarni bir vaqtning o'zida ko'rish va tahlil qilish mumkin.

Misol uchun $\frac{x^2}{4} + \frac{y^2}{4} - \frac{z^2}{4} = 1$ ko'rinishidagi giperboloidni $z = x + y + 10$ ko'rinishidagi tekislik bilan kesishishi chizib ko'ramiz.



Bundan tashqari Desmos o'qituvchilarning vaqtini tejaydi va ularga darslarni yanada samarali o'tkazish imkonini beradi.

- Avtomatik baholash: Desmos avtomatik ravishda mashqlarni baholaydi va o'quvchilarga teskari aloqa beradi.
- Resurslarni boshqarish: O'qituvchilar Desmos orqali ta'lim resurslarini yaratish, boshqarish va ulashish imkoniyatiga ega.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, yuqori darajali tenglamalar sistemasini grafiklar orqali yechish, yechimni oddiy yo'llar bilan topishning imkoni bo'lmaganda Wolfram Alpha va shunga o'xshash bir qancha sun'iy intellektlarni qo'llanilishi, o'qituvchi dars davomida biror grafik shaklni ko'rinishi va u haqidagi bilimlarni o'quvchiga yetkazib berishi birmuncha oson bo'ladi. Bu va bunga o'xshash sun'iy intellektlardan dars davomida foydalanish, o'quvchiga masala va uni yechimini tezda tasavvur qila olishi va shu turdagi masala va uning yechimi haqidagi bilimlarni yodda saqlashi, bu bilimlarni masalalar yechishda ishlata olishi va hayotda mustaqil qo'llay olishi oson bo'ladi.

Desmos sun'iy intellekti ham matematika ta'limida inqilobiy vosita hisoblanadi. Uning grafik chizish va vizualizatsiya qilish imkoniyatlari, interaktiv

matematika vazifalari, va o'quvchilarning tushunchalarini chuqurlashtirish imkoniyatlari ta'lim jarayonini samarali va qiziqarli qiladi. Desmos o'quvchilarga matematikani o'rganishda katta yordam beradi, o'qituvchilarning ishini yengillashtiradi va o'rganish jarayonini yanada individual va adaptiv qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Bates, A. W. (2019). Teaching in a Digital Age. Tony Bates Associates Ltd.
2. Luckin, R. (2017). Machine Learning and Human Intelligence: The Future of Education in the 21st Century. UCL IOE Press.
3. Matematika fanlarini o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish metodikasi. <https://kompy.info>.
4. <https://Demos.com>
5. <https://wolframalpha.com>

OLIV TA'LIM MUASSASASI TALABALARINING IJODIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHDA MOBIL TA'LIM PLATFORMASINING O'RNI VA AHAMIYATI

Usmonov Akbar Ibrohim o'g'li – Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Televizion va media texnologiyalar kafedrasida assistenti

E-mail: akbar.usmonov.93@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta'lim tizimida ta'limni raqamlashtirish sharoitida mobil ta'lim platformasi asosida bo'lajak muhandislarni ijodiy kompetentligini rivojlantirish masalalari yoritib berilgan bo'lib, talabalarda kasbiy salohiyatini oshirishning qisqacha bayoni keltirilgan.

Kalit so'zlar: kompetensiya, ijodiy kompetentlik, motivatsiya, kreativ yondashuv, mobil ta'lim platformasi.

Ta'limda ilg'or texnologiyalarning keng o'zlashtirilishi, uzluksiz ta'limning fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyalashuvi, talabalarning qobiliyatlari va imkoniyatlariga muvofiq ravishda ta'limga tabaqalashtirilgan yondashuvning joriy etilishi hamda ta'lim berishning ilg'or pedagogik texnologiyalari, zamonaviy o'quv-uslubiy majmualarning yaratilishi, o'quv-tarbiya jarayonining didaktik jihatdan ta'minlanishi ta'lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar bilan takomillashtirishga asos bo'lmoqda.



Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya va raqamli texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar keng ko'lamda amalga oshirilib kelmoqda. Ayniqsa, elektron hukumat tizimini takomillashtirish, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalarining mahalliy bozorini yanada rivojlantirish, respublikaning barcha hududlarida IT parklarni tashkil etish, shuningdek, sohani malakali kadrlar bilan ta'minlashni ko'zda tutuvchi 220 dan ortiq ustuvor loyihalarni amalga oshirish ishlari keng tus olgan. Bunday ustuvor vazifalarning bajarilishi raqamli ta'lim masofa va turli xil ko'rinishdagi to'siqlarni va iqtisodiyot bilan bog'liq muammolarni bartaraf etish imkonini beradi.

Ma'lumki, ta'lim tizimi bugungi kunda raqamli texnologiyalar asosida keng rivojlanib bormoqda. Ayniqsa, axborot maydonida taklif etilayotgan ko'plab narsalarni jiddiy tahlil qilish va pedagogik asoslash uchun raqamli texnologiya muhim ahamiyat kasb etmoqda. So'nggi yillarda ta'limni "raqamlashtirish" muammolari, uning shakllanishiga ta'siri bo'yicha biror-bir davlat loyihasi yoki so'rovnoma asosida tadqiqotlar o'tkazilishi muhimligi ilgari surilgan.

Ta'limda raqamli texnologiyalarni o'qitish sifatini saqlab qolgan holda, samarali qo'llash uchun bir qator ishlarni amalga oshirish zarurligiga alohida e'tibor qaratish muhim ekanligini asoslaydi. Buning uchun, internet infratuzilmasini yaxshilash, mobil operatorlar tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish va eng muhimi, aholining, ayniqsa, talaba yoshlarning zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining so'nggi yutuqlarini o'zlashtirishga shart-sharoitlar hamda imkoniyatlar yaratib berish zarur ekanligi bilan belgilanadi.


Oliy ta'lim muassasalarida muhandislarni tayyorlashda mobil ta'lim platformasi asosida ijodiy kompetentligini rivojlantirish Televizion texnologiyalar ta'lim yo'nalishi talabalari uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Shu asnda Smart Education Learning System mobil ta'lim platformasi asosida ta'lim jarayonini tashkil qilish talabalarda ijodiy kompetentlikni rivojlantirishga yordam beradi.

Kompetentlik – ma'lum holat xususida to'g'ri mulohaza yuritishga imkon beradigan bilimga ega bo'lish, dalil-isbotli fikr, kishining muayyan sohada saviyasini ifoda etadigan atama. Kompetentlik shaxs xususiyatlari va holatining murakkab majmui bo'lib, ma'lum sohadagi bilim, ko'nikma va tajribani mujassamlashtirishi. Kompetentlik insonga muayyan masalalarda fikr bildirish,


ma'lum qarorlarni ishlab chiqishda ishtirok etish va o'zi qaror qabul qilish imkonini beradi¹⁶.

Mobil ta'lim platformasi asosida muhandislarni tayyorlashda ijodiy kompetentligini rivojlantirish modelini ishlab chiqishda elektron ta'limning masofali kurslari o'quv dasturlariga muvofiq holda tizimli yondashgan holda yaratilishi, innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llagan holda zamonaviy bilimlar va qarashlarga ega bo'lishi, talabalar tomonidan o'rganilayotgan nazariy va amaliy bilimlarning izchil, tizimli, uzluksizligini ta'minlash har bir pedagogik jarayonda bo'lgani kabi elektron ta'lim jarayonida ham kuzatish-nazorat-baholash usuli asosida talabalar bilimi va o'zlashtirishi muntazam nazorat qilinishi va baholanishi, masofali kursning sifati va samaradorligi kurs o'qituvchisining bilim va mahorati muntazam tekshirilishi, anketa-so'rovlar natijasida uning pedagogik faoliyati baholanishi orqali amalga oshirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Elektron ta'limda mobil ta'lim platformasi asosida o'quv jarayonini tashkillashtirishni quyidagi rasm orqali ko'rsatish mumkin (1-rasm). Mutaxassislar tayyorlash o'quv jarayonida mobil ta'lim platformalardan foydalanish bu asoslarni ochib berish uchun zarur va yetarli bo'lgan asosiy tushunchalar va atamalar majmuasi bilan tartibga solinadi. Avvalo, tadqiqot doirasida qo'llaniladigan ko'plab ta'riflarning invarianti bo'lgan "axborot" (lotincha informatio – tushuntirish, bayon etish) tushunchasini ko'rib chiqamiz. Bu tushunchaning dastlabki ta'rifi insonlar tomonidan og'zaki, yozma yoki boshqa yo'llar bilan uzatiladigan ma'lumotlar bilan bog'liqligini ko'rsatadi.



¹⁶ Asqarova O'.M., Nonov M.S., Kurbanova Z.B., Muminova D.A. Pedagogik va psixologik fanlarni o'qitish metodikasi. Darslik. Toshkent ish– 2019. 365 b.



1-rasm. Elektron ta'limda mobil ta'lim platformasi asosida o'quv jarayonini tashkillashtirish modeli

XX asrning o'rtalarida ommaviy aloqalari texnik vositalari (kino, radio, televideniye) va individual aloqaning (telefon) jadal rivojlanishi bu tushunchaning ta'rifi o'zgardi, faktlar, hodisalar va jarayonlar to'g'risidagi ma'lumotlar" tushuniladi¹⁷.

Tadqiqot doirasida axborot va kommunikatsiya tushunchalarini tenglashtirmaslik kerak. U. Maturanning fikricha, kommunikativ faoliyat ta'rifidan "axborot uzatish" sifatida muvaffaqiyatsiz foydalanilish maqsadga muvofiq. Tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kommunikatsiya jarayonida tom ma'noda ma'lumot yoki bilim sifatida hech narsa uzatilmaydi. Faqat ba'zi alifbolarning simvollar ketma-ketligi, empirik (moddiy) obyektlar to'plami bo'lgan xabarlar (axborot xabarlar, rasmiylashtirilgan bilimlar, ma'lumotlar)

¹⁷ Muslimov N. va boshq. Pedagogika (Nopedagogik OTM uchun). – T.: TDPU. 2013. 95 b.



uzatiladi. Bu tushunchalarni ajratish va kommunikatsiyalarga axborot jarayonining kommunikativ jihatida qarashga misollar kommunikatsiya, axborot mantiqiy modeli, kommunikatsiyaning inferension va interaktiv modellari, ma'noni shakllanishini muvofiqlashtirilgan boshqarish nazariyasi hisoblanadi.

Inson va mobil aloqa o'rtasidagi aloqaning ikkita modellari – inson-mobil platforma va inson-mobil platforma-inson modellaridan bu tadqiqotda ikkinchi model ko'riladi.

Shunday qilib, tadqiqotning asosiy obyekti – “Raqamli media va TV texnologiyalar” umumkasbiy fanini o'zlashtirish jarayonida “talaba – mobil, platforma – talaba” kommunikatsiyasini eng to'g'ri tavsiflaydigan mobil ta'lim platformasi vositachiligidagi kommunikatsiya atamasidan foydalaniladi.

Bu ta'lim sohasi uchun an'anaviy terminologiya uchun uzluksizligini tan olamiz: pedagogik, kasbiy-pedagogik yoki ilmiy kommunikatsiya, faqat bu turdagi kommunikatsiyani amalga oshirish uchun muhitni ko'rsatadi, shuning uchun ta'limning elektron muhitida pedagogik kommunikatsiya atamasidan foydalaniladi.

Smart Education Learning System mobil ta'lim platformasi¹⁸ asosida ta'lim jarayonini tashkil qilish talabalarning ijodiy kompetentlikni rivojlantirishga yordam beradigan mobil ta'lim texnologiyasi (mobil aloqaga asoslangan platformaning intellektual qo'llab-quvvatlashi) hisoblanadi. Smart Education Learning System mobil ta'lim platformasi shaxsning o'zini-o'zi tarbiyalash va rivojlantirishning zamonaviy, didaktik jihatdan rivojlangan va psixologik-pedagogik jihatdan asoslangan tizimi hisoblanadi. Smart Education Learning System mobil ta'lim platformasi asosida “kitob+platforma+Internet+mobil aloqa vositasi” sxemasi yotadi, u “Raqamli media va TV texnologiyalar” fani o'quv ma'lumotlarining o'zagini o'zlashtirish bo'yicha talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishning yangi konsepsiyasini ishlab chiqish imkonini beradi.

Ta'limni samarali bilvosita pedagogik ta'minlash, shuningdek, teskari aloqa online real vaqt rejimida amalga oshiriladi. Smart Education Learning System mobil ta'lim platformasi avtonomlik va o'zini-o'zi ta'minlash xususiyatlariga ega bo'lgan platforma kichik tizimi hisoblanadi. Talabalar, o'qituvchilar, shuningdek, kontentlar va ilovalarni ishlab chiquvchilar uchun Smart Education Learning System mobil ta'lim platformasining asosiy afzalliklari 1-jadvalda keltirilgan.

¹⁸ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



1-jadval. Smart Education Learning System mobil ta'lim platformasi asosiy afzalliklari

Nº	Talabalar uchun afzalliklar	Nº	O'qituvchilar uchun afzalliklar
1.	Mobillik — o'rganish uchun vaqt va joyni erkin tanlash, zamonaviy intellektual va texnik aloqa vositalari: Internet, mobil aloqa vositasi, smartfon, personal kompyuter, mobil telefon imitatsiyalanadigan kompyuter va boshqalar hisoblanadi. Qimmatbaho qurilmalar, dasturiy ta'minot va xodimlar bilan jihozlangan ixtisoslashtirilgan sinflar talab qilinmaydi.	1.	O'zlashtirish va ishlatishning oddiyligi — standart talablarning saqlanishi tufayli: o'z fanini mukammal bilish va ishlab chiqilgan o'quv adabiyotlarini elektron qo'llanma sifatida taqdim etish. Bunda mobil kompyuter texnologiyalari bo'yicha dasturchilar va boshqa mutaxassislar bilan muloqot qilish va muvofiqlashtirishga zarurati bo'lmaydi.
2.	Ommaviy ta'limga individual va ijodiy yondashuv — real vaqt rejimida (online) barcha yuzaga keladigan masalalar bo'yicha yordam va tushuntirishlar berishga doimo tayyor bo'lgan shaxsiy "virtual o'qituvchi"ning pedagogik yordamiga bog'liq bo'lmagan o'z ta'lim faoliyatini mustaqil va ijodiy rejalashtirish hamda o'zi uchun optimal rejimda (darslarning davomiyligi va sur'ati) tashkil etish	2.	Doimiy avtomatik monitoring — tizimning Internet tarmog'ida kechayu-kunduz avtomatik ishlashi, istalgan vaqtda talabalar-ning ishlarini monitoring qilish natijalarining vizual ko'rinishini va o'quv jarayonini o'z vaqtida sozlash hamda talabalarning ijodiy kompetentligini rivojlantirish imkoniyatini ta'minlaydi. Ta'lim statistikasining protokollari berilishi ishlab chiqilgan o'quv materialini sifatini tezkor baholash va unga tegishli tuzatishlar kiritish imkonini beradi.



3.	O'zlashtirish va ishlatish qulayligi – mobil aloqa vositalari va boshqa kommunikatsiya vositalarida qo'llaniladigan standart protseduralar hisobiga	3.	Universallik — nazariy mashg'ulotlar mumkin bo'lgan ko'plab o'quv fanlariga qo'llanilishi mumkinligi
4.	Foydalana olishlik — mobil aloqa vositalari xizmatlarining keng tarqalganligi va nisbatan arzonligi	4.	Globallik — Internetda cheksiz sonli talabalarni amaliy qamrab olish imkoniyati
5.	O'z-o'zidan o'rganishga yuqori rag'bat — yoshlar orasida zamonaviy va ommaviy texnik hamda o'yin vositalaridan foydalanish	5.	Yuqori samaralar: 1) yosh talabalarni madaniyat va bilim manbai sifatida kitobga qaytarish; 2) malakali pedagoglar yetishmaydigan chekka hududlarda yashovchi bemorlar, nogironlar va bolalarni o'qitish bilan bog'liq ijtimoiy muammolarni bartaraf etish; 3) o'qituvchining ijodiy kompetentligini rivojlantirish muammosining bartaraf etilishi
6.	Salomatlik uchun qulaylik va xavfsizlik — eng qat'iy ergonomik va sanitariya talablariga muvofiqlik, kompyuter monitori oldida ishlashning zarurati yo'q.		

O'qituvchi va talabaning bevosita o'zaro ta'sirlashishi vaqt va makonda sezilarli darajada cheklangan bo'lsa, masofaviy va eksternal ta'lim tizimida alohida ahamiyatga ega. Shu munosabat bilan o'qituvchining o'quv jarayonini boshqarish roli ortib boradi. Bu muammoni Smart Education Learning System mobil ta'lim platformasi kasbiy tayyorlash jarayonida talabaning ijodiy



tafakkurini intellektual qo'llab-quvvatlash va ko'p bosqichli evristik muloqotlar tizimdan foydalanish yo'li bilan yechishga yordam beradi.

Smart Education Learning System mobil ta'lim platformasi o'quv va kasbiy-ijodiy faoliyat jarayonida talabalarning o'zaro va o'quv muhiti o'rtasidagi o'z-o'zini o'rganish va dialogik o'zaro ta'sirlashishning aktiv didaktik vositasi hisoblanadi.

Smart Education Learning System mobil ta'lim platformasining asosini quyidagilar tashkil etadi:

- 1) tizimli va muammoli-algoritmik yondashuvlar;
- 2) ijodkorlik uslubiyatlari;
- 3) Smart Education Learning System mobil ta'lim platformasi nazorat-o'qitish dasturlari to'plami;
- 4) zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalari;
- 5) evristik dialoglarning kreativ uslubiyati va boshqalar.

Smart Education Learning System mobil ta'lim platformasi darajalari quyidagilardan iborat:

- 1) Global, milliy yoki mintaqaviy mobil ta'lim platformalari (Internet) asosidagi ta'lim elektron muhiti.
- 2) Ta'lim muassasasi yoki auditoriya doirasidagi lokal tizimlari asosidagi o'quv muhiti.
- 3) O'quv faoliyatini kuchaytirishning didaktik vositalari majmuasiga mobil aloqa vositalari texnikasini kiritish.

"Talaba – Smart Education Learning System mobil ta'lim platformasi" evristik muloqot talabalarning ijodiy o'zini-o'zi rivojlanishini bilvosita pedagogik boshqarish shakli hisoblanadi. Smart Education Learning System mobil ta'lim platformasi asosida talabaning kasbiy va ijodiy salohiyatini shakllantirish darajalarini, kasbiy harakatchanligi va raqobatbardoshligini, shuningdek, keyingi ijodiy o'zini-o'zi rivojlantirishga tayyorligini obyektiv va har tomonlama baholash uchun talabaning kasbiy yo'nalishini ko'p bosqichli nazorat qilish uslubi amalga oshiriladi.

Ijodkor shaxs o'zining kasbiy-ijodiy o'zini-o'zi rivojlantirishni aktiv va maqsadli amalga oshirishi kerak, uning mohiyati quyidagi yo'nalishlarning integratsiyalanishi orqali aniqlanadi:

- 1) kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni mustaqil egallash;
- 2) ijodiy fikrlashda o'z-o'zini rivojlantirish va ijodiy shaxsiy fazilatlarda o'z-o'zini tarbiyalash;
- 3) eruditsiya va "intellektual madaniyat"ning mustaqil rivojlantirish, muammolarni ko'ra olish, ijodiy muammolarni qo'yish va tabiiy ravishda yecha olish qobiliyati;
- 4) kasbiy faoliyatda kasbiy yo'nalish va ijodiy o'zini-o'zi anglash darajasini oshirish;

5) hayot davomida keyingi kasbiy va ijodiy o'zini-o'zi takomillashtirishga tayyorlikni shakllantirish.

Maqolada oliy ta'lim tizimida ta'limni raqamlashtirish sharoitida mobil ta'lim platformasi asosida bo'lajak muhandislarni ijodiy kompetentligini rivojlantirish masalalari ko'rib chiqildi. Smart Education Learning System mobil ta'lim platformasidan foydalanish bilan talabalarning ijodiy fikrlash va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish tizimi uzluksiz kreativ ta'limning ko'p bosqichli tizimini rivojlantirish bilimlar va ko'nikmalar tuzilmasini optimallashtirish, mustaqil ta'limni kuchaytirish, darslarni talab darajasida o'tkazish va o'quv materialini talabalarga tushunarliroq shaklda taqdim etish uchun yangi imkoniyatlar ochadi. Bu tadqiqot talabaning ta'lim ehtiyojlari va rag'batlarini ortib borayotgan kreativ o'quv jarayonining imkoniyatlari bilan uyg'un birlashtirishga imkon berdi.

O'quv-metodik materialning tarkibiy elementlari – ishchi o'quv dasturi; modullar bo'yicha o'quv materiallari; talabalar bilimni nazorat qilish uchun testlar; amaliy topshiriqlar; o'quv keyslari; individual topshiriqlar; mustaqil ta'lim topshiriqlari; o'quv-uslubiy tarqatma materiallar; glossariy hamda taqdimot o'rtasidagi bog'lanish, o'zaro aloqadorlik yaqqol ko'zga tashlanadi.

Oliy ta'lim tizimida ta'limni raqamlashtirish sharoitida mobil ta'lim platformasi asosida bo'lajak muhandislarni ijodiy kompetentligini rivojlantirishning didaktik ta'minoti mazmuni interfaol metodlari va axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalangan holda to'ldirildi va takomillashtirildi.

Tadqiqotni olib borish jarayonida "Raqamli media va TV texnologiyalar" fanini ma'ruza, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida interfaol metodlardan samarali foydalanishga e'tibor qaratildi. Bunda, eng avvalo, ma'ruza, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari uchun ularning xarakterli xususiyatlarini inobatga olgan holda kutilgan natijani ta'minlay olish imkoniyatiga ega Smart Education Learning System mobil ta'lim platformasi tanlandi. Ushbu Smart Education Learning System mobil ta'lim platformasi asosida talabalarni talabalarni ijodiy kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan darajalar va yo'nalishlarning integratsiyalanishini aniqlash tahlillari o'tkazilgan.

Takliflar. Mavzu bo'yicha quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- talabalarning ijodiy kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan Smart Education Learning System mobil ta'lim platformasidan mutaxassislik fanlarini o'qitishda foydalanish;
- Smart Education Learning System mobil ta'lim platformasining talabalarning ijodiy kompetentligini rivojlantirishga ta'siri bo'yicha tadqiqot natijalarini qo'llash;



- oliy ta'lim tizimida ta'lim jarayonida mobil ta'lim platformalaridan foydalanish samaradorligini namoyish etish uchun aniq misollar va ish bosqichlarini qo'llash;
- ijodiy kompetentligini rivojlantirish uchun o'quv jarayoniga mobil ta'lim platformalari orqali kuchaytirilgan motivatsiyani joriy etish uchun texnologik xaritalarni qo'llash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Muslimov N. va boshq. Pedagogika (Nopedgogik OTM uchun). – T.: TDPU. 2013. 95 b.
2. Shokirova Ch.T. Talabalarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish va dasturiy nazorat asosida o'qitish samaradorligini oshirish. Diss. ... ped.fan.nom. — Andijon: 2009 – 132 b.
3. Rahimov B.X. Yoshlarni ilmiy ijodiy faoliyatga yo'naltirish asoslari. — Toshkent: Fan, 2010. – 128 b.
4. Хамдамов Р., Бегимкулов У.Ш., Тайлоқов Н. Таълимда ахборот технологиялари. Олий таълим муассасалари учун / ЎзМУ давлат илмий нашриёти. — Т.: 2010. – Б. 120.
5. Қодиров Х.Ш. Касб таълими ўқитувчиларининг билим ва кўникмаларини шакллантиришда ахборот-коммуникация технологияларини қўллаш методикасини такомиллаштириш пед. фан. ф.докт.... дис. — Т.: 2017.

O'ZBEKISTONDA MAKTABDAN TASHQARI TA'LIM TIZIMINI RAQAMLI TEKNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Xalilov Bahodir – Navoiy davlat
pedagogika instituti tadqiqotchisi
E-mail: xalilovbahodir7@gmail.com

Annotatsiya. Mamlakatimiz uzluksiz ta'lim tizimida maktabdan tashqari ta'lim muassasalari muhim ahamiyatga ega. Ta'limning ushbu bosqichi o'quvchilar o'rtasida qobiliyatli, iqtidorli yoshlarni aniqlash, shaxsni rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lim, texnika va badiiy ijodkorlik, sport va sog'lomlashtirish, fan va qo'shimcha ta'lim berish asosida o'quvchilarning rivojlanishiga xizmat qiladi. Maktabdagi tashqari ta'limni yanada rivojlantirishda ularning faoliyatini raqamlashtirish, ularga o'quvchi-yoshlarni yanada ko'proq jalb etishga yordam beradi. Ushbu maqolada O'zbekistonda



maktabdan tashqari ta'lim tizimini raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish masalalari yoritib berilgan hamda ushbu sohaga oid muhim tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: *ta'lim, maktabdan tashqari ta'lim, o'quvchi-yoshlar, sport va sog'lomlashtirish to'garaklari, fan, texnika va badiiy ijodkorlik mashg'ulotlari, raqamlashtirish, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalar, elektron hujjatlar.*

Maktabdan tashqari ta'lim muassasalari bolalarning ijodiy faoliyatini rivojlantiruvchi, erkin faolligini ta'minlovchi, bilimlarni ko'nikmaga aylanishida yetarlicha qulay muhitni bera oladigan maskandir.

Maktabdan tashqari ta'lim muassasalari – bolalar va o'smirlar bilan maktabdan tashqari ish olib boruvchi ijtimoiy tashkiliy va instruktiv-metodik muassasalar. Maktab bilan yaqindan bog'lanib ish yuritadi. Maktabdan tashqari ta'lim muassasalariga bolalar, o'smirlar ijodiyoti saroylari, uylari, klublari va markazlari, bolalar-o'smirlar sport maktablari, san'at maktablari, musiqa maktablari, studiyalar, kutubxonalar, sog'lomlashtirish muassasalari va boshqa muassasalar kiradi. Ular yil davomida ishlaydi. Bolalar va o'smirlarning yakka tartibdagi ehtiyojlarini qondirish, ularning bo'sh vaqti va dam olishini tashkil etish uchun davlat organlari, jamoat birlashmalari, shuningdek, boshqa yuridik va jismoniy shaxslar madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yo'nalishlarda Maktabdan tashqari ta'lim muassasalarini tashkil etishlari mumkin. Maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida umumiy o'rta ta'lim maktablarining barcha sinf o'quvchilari o'z ixtiyorlari bilan maktab o'quv dasturidan tashqari qo'shimcha fanlar, san'at turlari, badiiy hunarmandchilik va boshqa kasb-hunar, sport turlarini o'rganadilar. Maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida o'quvchilar uchun turli yo'nalishlar bo'yicha to'garak, klub, studiya, ansambl, guruh va boshqa shakllarda tashkil qilinadi. Maktabdan tashqari ta'lim muassasalari O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan me'yoriy hujjatlarga muvofiq faoliyat olib boradi.

Yangi O'zbekiston sharoitida ta'limning barcha bosqichlari singari maktabdan tashqari ta'lim sohasida ham ulkan ishlar amalga oshirilmoqda.

Ushbu sohada qabul qilinayotgan qaror va farmoyishlarning ijrosi tizimning yanada rivojlanishi uchun turtki bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktyabrdagi "Xalq ta'limi tizimidagi maktabdan tashqari ta'lim samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4467-son Qaroriga muvofiq maktabdan tashqari ta'lim tizimini yangi bosqichga ko'tarish, ta'limning zamonaviy metodologiyasini yaratish, davlat talablarini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish, o'quv metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish, xalq ta'limi tizimidagi maktabdan tashqari ta'lim muassasalari faoliyatini



samarali tashkil etishni yanada takomillashtirishni taqozo etadi. Konsepsiyada gumanitar va pedagogik yo'nalishlarda kadrlar tayyorlash sifatiga e'tiborni kuchaytirish, pedagogik ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha o'quv reja va dasturlarini ilg'or xorijiy tajriba asosida qayta ko'rib chiqish va takomillashtirish, mazkur yo'nalishda tahsil olayotgan talabalarda ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish, pedagogik ta'lim infratuzilmasini yaxshilash, hududlardagi barcha umumta'lim maktablariga xorijiy tillarni o'zlashtirgan, yuqori malakali professional pedagog kadrlarni yetkazib berish¹⁹ ko'rsatilgan.

O'quvchilarda amaliy faoliyat tajribasini tarkib toptirish, tayanch kompetensiyalarni shakllantirish orqali ijtimoiy hayotga samarali tayyorlash jarayonlarini tashkil etish va pedagoglar kompetentligini rivojlantirish, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish orqali o'quvchilarni hayotga tayyorlashga katta e'tibor qaratilmoqda.

"Umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, o'quv-tarbiya jarayoniga ta'limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish"²⁰ kabi vazifalar belgilab berildi.

2021-yil avgust oyida mamlakat tajribasida ilk marotaba Sirdaryo viloyati Guliston shahrida Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabida "Maktabdan tashqari ta'lim: muammo va yechimlar" mavzusida ikki kunlik Respublika forumi tashkil etildi. Ushbu forumda maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimidagi maktabdan tashqari ta'lim muassasalari sohasidagi bugungi kun muammolari va o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish borasidagi rahbar va pedagog kadrlarning menejerlik qobiliyatini rivojlantirish masalalari bo'yicha mahalliy va xorijiy tajriba tahlil qilindi.

Maktabdan tashqari ta'lim bolalarning o'qishga qiziqishini oshirishi bilan birga ularning ijodiy-intellektual salohiyatini yuksaltirish, bo'sh vaqtini to'g'ri tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan «Barkamol avlod» bolalar markazlari, bolalar musiqa va san'at maktablari, bolalar va o'smirlar sport maktablari o'g'il-qizlarning iste'dod va qobiliyatini to'g'ri shakllantirish, kasb-hunarga ilm-fan yo'naltirish imkonini bermoqda. An'anaviy tarzda tashkil etilayotgan «Ona yurt ohanglari», «San'at

¹⁹ Ўзбекистон Республикаси Олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги ПФ-5847-сон Фармони иловаси.

²⁰ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 29 апрелдаги "Ўзбекистон Республикаси халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида"ги ПФ-5712-сон Фармони. – Т.// Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси. 06/19/5712/3034-сон, 29.04.2019 й.



g'unchalari», «Kamalak» yulduzlari», «Yagonasan, muqaddas Vatan!» respublika ko'rik-tanlovlari, Tasviriy va amaliy san'at festivali kabi ijodiy loyihalar maktabdan tashqari ta'lim maskanlariga qatnayotgan bolalarning faoliyatini keng jamoatchilikka tanitmoqda, ularni yanada ilhomlantirmoqda.

“Barkamol avlod” maktablari maktabdan tashqari ta'limda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda O'zbekistonda 200 dan ortiq “Barkamol avlod” maktablari faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu o'quv maskanlari respublika ta'lim tizimining bir qismi bo'lib, ularda o'quvchilarning maktabdan tashqari ta'lim olishida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yangi O'zbekistonda maktabdan tashqari ta'lim yo'nalishida amalga oshirilayotgan islohotlar nafaqat milliy balki xorijiy ekspertlarda ham qiziqish uyg'otmoqda. Jumladan, 2023-yil nufuzli Euronews telekanalining yangiliklar portalida O'zbekistonda maktabdan tashqari ta'limning istiqbollariga bag'ishlangan videorolik va maqola e'lon qilindi. Ushbu maqolada “O'zbekiston maktabdan tashqari ta'limni takomillashtirish yo'lida shahdam qadamlar bilan oldinga intilmoqda. Butun mamlakat bo'ylab turli to'garaklar va o'quv dasturlarni taklif qiluvchi maxsus markazlar mavjud. Ular “Barkamol avlod” nomi ostida birlashgan bo'lib, bu yerda bolalar turli xil bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari barobarida, o'z oldilariga ulkan maqsadlar qo'yishni o'rganishadi”²¹, deb ta'kidlanadi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash kerakki, Mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimida maktabdan tashqari ta'lim muassasalari muhim o'rin tutadi. Ta'limning ushbu bosqichi o'quvchilar orasida iqtidorli yoshlarni aniqlash, shaxsni rivojlantirishga qaratilgan turli tadbirlar, musobaqalarni, sport, texnika va badiiy ijodkorlik hamda boshqa tadbirlarni tashkil etish, amalga oshirish mumkin bo'lgan yangi istiqbolli masalalarni o'rganish va shunga asosan o'quvchilarning qiziqishlariga ko'ra shaxsning ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirishga qaratilgan turli to'garaklar ochish, fan asoslari bo'yicha qo'shimcha ta'lim berish kabi vazifalarning amalga oshirilishiga xizmat qiladi.

Bizningcha, maktabdan tashqari ta'lim muassasalaridagi to'garaklar mashg'ulotlarining sifati va samaradorligini yanada yuksaltirish, to'garak rahbarlarining kasb salohiyatini muttasil oshirish, bolalar va o'smirlar sport maktablarini malakali sport murabbiylari bilan yanada ko'proq ta'minlashga e'tibor qaratish muhim ushbu tizimni yanada samarali tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, bolalar va o'smirlar sport maktablari, bolalar musiqa va san'at maktablari, “Barkamol avlod” markazlari hamda bolalar oromgohlari, kutubxonalarda tashkil etiladigan ta'lim jarayonini umumiy o'rta ta'lim

21

https://dunyo.info/cyrl/site/inner/euronews_ozbekistonda_maktabdan_tashqari_taalimni_rivozhlantirish_istiqbollari_togrisida_xikoya_qiladi-LNy



muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonlari bilan uzviyligini ta'minlash, bolalar ongiga umuminsoniy va milliy qadriyatlarni singdirish, ularda mafkuraviy immunitetni shakllantirishga qaratilgan ma'naviy-ma'rifiy chora-tadbirlar jarayonlarini takomillashtirish ishlarini amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqotlardan ma'lum bo'ldiki, maktab o'quvchilari, ularning ota-onalari, shuningdek, ayrim hollarda fan o'qituvchilari ham o'z hududidagi maktabdan tashqari ta'lim muassasalari va ularning faoliyati to'g'risida yetarli darajada ma'lumotlarga ega emas. Bu esa o'z navbatida o'quvchilarni maktabdan tashqari hollarda bo'sh vaqtlarini mazmuni tashkil etish borasidagi tadbirlarning sustlashishiga olib kelmoqda. Shuning uchun hududlarda faoliyat olib borayotgan maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining faoliyatini raqamlashtirish vositalari orqali targ'ib etish maqsadga muvofiq. Jumladan, maktabdan tashqari, ta'lim muassasalarining turli ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarini ochish, ularni maktabdagi turli tarmoqlar orqali o'qituvchi va o'quvchilarga ma'lumot berish, shuningdek, ushbu muassasalarga o'quvchilarni qabul qilish jarayonini ham zamonaviy texnologiyalar asosida elektron hujjat yuborishini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq. Bundan tashqari, hududlardagi maktabdan tashqari ta'lim muassasasi faoliyati, katta va muhim yutuqlarni qo'lga kiritgan yoshlarni ham internet tizimlari orqali targ'ib etish ularga o'quvchilarni ko'proq jalb qilish imkonini yaratadi.

Maktabdan tashqari ta'lim muassasalaridagi turli to'garaklar, sport va o'quv mashg'ulotlari, shuningdek, boshqa turdagi qo'shimcha faoliyat turlariga oid qo'llanmalarni ham raqamlashtirish, multimedia vositalari orqali tushuntirish ishlarini yo'lga qo'yish ham muhim masalalardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son Farmoni ilovasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni. – T.// Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 06/19/5712/3034-son, 29.04.2019 y.



JAHON AXBOROT RESURSLARI HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHA

Yaxshiboyeva Sh.B. – Xalqaro Nordik universiteti
tayanch doktoranti

E-mail: yaxshiboyevashahnoza@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada professor-o'qituvchilar hamda barcha ilmiy tadqiqotchilar uchun tadqiqotlarida foydalanishi mumkin bo'lgan ilmiy nashrlarni o'z ichiga olgan bir qator jahon axborot resurslari va ularning faoliyati haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: jahon axborot resurslari, tadqiqot, ilmiy tadqiqot, ma'lumotlar bazalari, axborot resurslari, ilmiy-ta'limiy resurslar.

Kirish. Hozirgi kunda jahon axborot resurslaridan foydalanish, ilmiy faoliyatida ishonchli va sifatli axborotdan foydalanish barcha tadqiqotchilar uchun ham zamon talabidir. Ammo ba'zi omillar tufayli biz jahon axborot resurslaridan qanday foydalanishni, ular haqida qayerdan ma'lumot olishni bilmaymiz, jahon axborot resurslaridan foydalanish bo'yicha vebinar va seminarlar, asosan, rus va ingliz tillarida mavjud. Ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari, ilmiy izlanishlari natijasida maqolalar tayyorlagan tadqiqotchilar ko'plab qiyinchiliklarga duch kelishmoqda. Shu kabi qator muammolar yechimi sifatida jahon axborot resurslaridan foydalanishni o'rganish masalasi dolzarb bo'lib bormoqda.

Hukumatimiz tomonidan bu bo'yicha qabul qilingan qarorlar, farmonlar va strategiyalar bilan ham asoslashimiz mumkin. Xususan, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan. [1]

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 21-oktyabrdagi "Internet dunyo axborot tarmog'ida milliy kontentni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 888-son qarori asosida Internet olamida bilim axborot makonini shakllantirish, dunyoqarashini kengaytirish va ijodiy salohiyatni rivojlantirishga qaratilgan o'quv va foydali veb-resurslarni yaratishni qo'llab-quvvatlash bo'yicha kompleks dastur ishlab chiqilgan [1]. Ushbu dasturning 3-4-bandlarida jahon axborot resurslari va ularni targ'ib qilishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi belgilangan:

3-band: maktabgacha, o'rta va oliy ta'lim tizimlarining elektron ta'lim resurslarini yanada takomillashtirish, shuningdek, mahalliy va jahon ta'lim resurslaridan foydalanish imkoniyatini ta'minlash;

4-band: global axborot tarmog'ida foydalanuvchilarning intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirishga, shuningdek, axborot makonida O'zbekiston

tarixi, fani, madaniyati va san'atini targ'ib etishga ko'maklashuvchi zamonaviy veb-resurslarni shakllantirishni qo'llab-quvvatlash.

Muhokama. 20-asr oxiri va 21-asr boshlari elektron ommaviy axborot vositalarida va onlayn kirishda ilmiy, o'quv va ilmiy-texnikaviy ma'lumotlar hajmining tez o'sishi bilan tavsiflanadi. Nafaqat axborot resurslarini yaratish, balki ularni to'plash va ularga tezkor kirishning kuchli vositalari G'arbning yetakchi universitetlari ilmiy tadqiqot va o'quv jarayonini elektron ilmiy jurnallar, kitoblar, darsliklar, multimedia resurslari va boshqalar ko'rinishidagi qimmatli ilmiy ma'lumotlar bilan faol axborot bilan ta'minlash – bu muvaffaqiyatning asosiy mezonlaridan biri ekanligiga uzoq vaqtdan beri ishonib, tashkiliy nufuzini va faoliyati sifatini oshirib keladi. Shu sababli, Springer, EBSCO ma'lumotlar bazasi, Web of Science, ProQuest va boshqalar kabi dunyoning yetakchi nashriyotlarining ma'lumotlar bazasi obunalarini moliyalashtirish sezilarli darajada oshgan [2].

Jahon axborot resurslari (JAR) tushunchasi mohiyatini anglash uchun mavjud qonun va standartlar asosida asosiy tushunchalar mazmuniga aniqlik kiritish darkor.

«Axborot resurslari», «axborot ilmiy-ta'limiy resurslar», «jahon axborot resurslari» kabi tushunchalarni farqlash lozim.

Axborot resurslari – matn ko'rinishidagi materiallar, ovozli yozuvlar va tasvirlardir. Bu umumiy tushuncha bo'lib, resurs axborotdan yaratiladi, lekin uning aniq bir shaklini anglatmaydi. Bu shunchaki tartibsiz ko'rinishdagi, turli xil formatdagi hujjatlarning to'plami, ya'ni ma'lumotlar massivi bo'lishi mumkin.

Ilmiy-ta'limiy axborot resurslari – litsenziyalangan va taqrizdan o'tgan ilmiy-ta'limiy axborotlar (jurnallar, maqola, kitoblar, multimedia va boshqalar). Ilmiy-ta'limiy axborot resurslari muhim qiymatga ega bo'lgan intellektual manbadir. Odatda, har bir hujjat ma'lumotlar bazasi, jurnallar, tegishli to'plamlarga kiritilishidan avval yetakchi olimlar, mutaxassislar tomonidan saralashdan o'tadi. Bu hujjatlar tizimlashtiriladi, kataloglashtiriladi va operativ foydalanishni ta'minlash maqsadida ilmiy-ta'limiy axborotlarning ma'lumot bazalariga joylashtiriladi. Asosiy foydalanuvchilarni ilmiy xodimlar, o'qituvchilar, magistrlar va talabalar tashkil etadi.

Jahon axborot resurslari – dunyoning yetakchi nashriyotlarining axborot resurslaridir. Bu axborot qidiruv tizimiga ega jamiyat tomonidan tan olingan, tizimlashtirilgan va tuzilmalashgan ilmiy-ta'limiy resurslarning ma'lumot bazalaridir. Jahon axborot resurslari ro'yxatiga yuqori impakt faktorli jurnallar, eng ko'p iqtibos keltirilgan ilmiy monografiyalar, darsliklar, maqolalar va boshqa resurslar kiradi. [3]

Jahon axborot resurslari dunyoning yetakchi nashriyotlarining axborot resurslari hisoblanadi. Bular axborot-qidiruv tizimiga ega jamiyat tomonidan

tan olingan va tuzilgan ilmiy va ta'lim resurslarining ma'lumotlar bazalari. Global axborot resurslari ro'yxatiga yuqori impakt faktorli jurnallar, eng ko'p havola qilingan ilmiy monografiyalar, darsliklar, maqolalar va boshqa manbalar kiradi. Masalan, Springer, EBSCO, PressReader, Wiley, ProQuest, Web of Science, Scopus ma'lumotlar bazalari. Ilmiy-ta'limiy axborot resurslari manbalarini o'rganishda turli ommaviy axborot vositalari mavjudligini bilish kerak, ya'ni jahon axborot resurslaridan foydalanish davr talabiga aylanib borayotgan bir paytda ulardan to'g'ri va samarali foydalanishni yo'lga qo'yish kerak.

Bu borada yurtimizda qator ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, xalqaro ilmiy-ta'limiy bazalar bilan hamkorliklar yo'lga qo'yilmoqda.

SpringerLink – tadqiqotchilarga jurnallar, kitoblar, qarorlar va axborot nashrlaridan olingan millionlab ilmiy hujjatlarni taqdim etadi. SpringerLink ma'lumotlar bazasi 2296 jurnal va 483 ochiq jurnalni o'z ichiga olgan ma'lumotlar bazasi bo'lib, 23 fan sohasi bo'yicha ilmiy nashrlarda 10 milliondan ortiq yozuvlarga to'liq matnli kirish imkonini beradi. Ma'lumotlar bazasida 8 milliondan ortiq maqola va laboratoriya tadqiqotlari uchun 67 703 protokol mavjud. [4] O'zbekiston Innovatsion rivojlanish vazirligi va Springer Nature o'rtasida imzolangan kelishuvga ko'ra, 2020-2021-yillarda (yanvar-dekabr) mamlakatimizning 105 ta tashkiloti ushbu ma'lumotlar bazasiga ulangan. Ayni paytda O'zbekiston Milliy kutubxonasi ushbu ma'lumotlar bazasining 10 millionga yaqin resurslaridan foydalanish imkoniyatiga ega.

EBSCO ma'lumotlar bazasi – dunyodagi eng yirik kompaniyalardan biri bo'lib, ta'lim va tadqiqot uchun axborot yetkazib berishda yetakchi hisoblanadi. Ushbu kompaniya 1944-yildan beri faoliyat yuritadi. U Yevropa, AQSh va boshqa mamlakatlardagi ko'plab yirik davlat va universitet kutubxonalari, axborot markazlari va yirik tashkilotlarning hamkori hisoblanadi. Bugungi kunda 375 dan ortiq to'liq matnli ma'lumotlar bazasi, 600 000 dan ortiq audio va elektron kitoblar to'plamini o'z ichiga oladi. [5] EBSCO hostning asosiy yirik bazalari quyidagilardir:

- Academic Search Premier
- Business Source Premier
- Regional Business News
- ERIC
- MEDLINE
- Master FILE Premier
- Library, Information Science & Technology Abstracts
- Green FILE
- Health Source – Consumer Edition
- AHFS Consumer Medication Information
- Health Source: Nursing/Academic Edition

– Newspaper Source

Kompaniyada EBSCO Connect deb nomlangan platforma mavjud bo'lib, unda hamkorlik qilishni istagan barcha mamlakatlar va tashkilotlar uchun foydali bo'ladigan ma'lumotlar mavjud. Xususan, EBSCO Academy platformasi kompaniya tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar bazalaridan foydalanish bo'yicha yo'riqnTimer, video-treninglar va kurslarni taqdim etuvchi platforma hisoblanadi. Ushbu platformada siz quyidagi sohalarda video darsliklarni topishingiz mumkin:

- Administratorlar uchun qo'llanmalar;
- EBSCOhost tadqiqot ma'lumotlar bazasi uchun qo'llanmalar;
- Klinik qarorlar bo'yicha qo'llanmalar;
- EBSCO elektron kitoblar, audio kitoblar va qo'llanmalar;
- EBSCOhost Collection Manager qo'llanmalari;
- Ma'lumot markazi qo'llanmalari;
- Ekspress qo'llanmalarni o'rganish.

Web of Science – tabiiy, texnik, ijtimoiy, gumanitar va san'at sohasiga oid akademik jurnallar, konferensiya materiallarini muntazam ravishda yangilash orqali eng dolzarb va nufuzli nashrlarga kirish imkonini beradi. Web of Science bir nechta ma'lumotlar bazalariga kirishni ta'minlaydigan pullik kirish platformasi bo'lib, bibliografik ma'lumotni qidirish, tahlil qilish va boshqarish imkoniyatini beradi. [6] 2023-yil 7-8 fevral kunlari Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligida Buyuk Britaniyaning "Clarivate" kompaniyasi bilan hamkorlikda "Web of Science"ga O'zbekiston Milliy obunasini tashkil etish" mavzusida forum tashkil qilindi va O'zbekistondagi barcha oliy ta'lim muassasalari va boshqa ko'plab tashkilotlar ushbu ma'lumotlar bazasidan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishdi. "Web of Science" dunyodagi eng ishonchli global iqtiboslar bazasi bo'lib, O'zbekistonlik olimlarga ilmiy izlanishlarini olib borish, yangi ma'lumotlarni o'rganish va baholash uchun eng yaxshi nashrlar va iqtiboslarni taqdim etadi. [7]

ProQuest – yuz minglab jurnal maqolalaridan, 60 mingdan ortiq nufuzli jurnallar, butun dunyoda nashr etilgan 700 000 dan ortiq kitoblar, darslik, monografiyalardan, 2.5 million dissertatsiyalar, 30 million sahifali raqamlashtirilgan tarixiy gazetalar, tarixiy interfaol va geografik xaritalar, tarixiy multimediali yilnomalar, audio va video ma'lumotlardan iborat. ProQuest «Digital Dissertations and Theses» ma'lumotlar bazasi – 80 ta mamlakat universitetlarida himoya qilingan doktorlik va magistrlik dissertatsiyalarning elektron to'plamlaridan iborat dunyodagi dissertatsiya va avtoreferatlarning eng katta kolleksiyasini taqdim etadi. [8]

ProQuest butun dunyo bo'ylab tadqiqotchilar va kutubxonachilarning imkoniyatlarini kengaytirishga intiladi. Kompaniyaning aktivlar portfeli, jumladan, kontent, texnologiyalar va chuqur tajriba – foydalanuvchilar uchun



yaxshi tadqiqot natijalarini va ularga xizmat ko'rsatadigan kutubxonalar va tashkilotlarning samaradorligini oshiradi.

ProQuest barcha turdagi kontent egalari uchun asosiy hamkor bo'lib, ularning boy va xilma-xil ma'lumotlariga kirish imkonini beradi. Ushbu hamkorliklar 90 000 ta nufuzli manbalarni, 6 milliard raqamli sahifalarni o'z ichiga olgan va olti asrni qamrab olgan o'sib borayotgan kontent to'plamini yaratdi.

U dunyodagi eng katta dissertatsiya va tezislar to'plamini o'z ichiga oladi; 20 million sahifa va uch asrlik global, milliy, mintaqaviy va maxsus gazetalar; 450 000 dan ortiq elektron kitoblar; dunyoning eng muhim ilmiy jurnallari va davriy nashrlarining boy jamlangan to'plamlari; yirik kutubxonalar va muzeylar, shuningdek, Qirollik arxivlari, turli tashkilotlarning raqamli tarixiy kolleksiyalarining noyob omborlari hisoblanadi.

JStor – 1994 yilda tashkil etilgan akademik jurnallar, kitoblardan iborat raqamli kutubxona va gumanitar va ijtimoiy fanlar bo'yicha jurnallarning dolzarb sonlarini o'z ichiga oladi. [3] Kirish obuna orqali amalga oshiriladi, lekin ba'zi saytlar jamoat mulki hisoblanadi va ochiq kirish kontenti bepul mavjud. U o'zida iqtisodiyot, tijorat, jamiyatshunoslik, siyosatshunoslik, statistika, matematika, sog'liqni saqlash, fizika, falsafa, antik tadqiqot, tilshunoslik, adabiyot va boshqa sohalar bo'yicha nashrlarni saqlaydi. Ma'lumotlar bazasi 2000 nomdagi jurnallarning 75 dan ortiq fanlar bo'yicha 12 milliiondan ortiq maqolalarini qamrab olgan.

JSTOR asosan ilmiy muassasalar, jamoat kutubxonalari, tadqiqot muassasalari, muzeylar va maktablar uchun litsenziyalangan. 150 dan ortiq mamlakatlarda 7000 dan ortiq muassasalar foydalanish imkoniyatiga ega. [9]

PressReader – bu raqamli gazeta tarqatish va texnologiya kompaniyasi bo'lib, shtab-kvartirasi Kanadaning Vankuver shahrida va Dublin, Irlandiya va Manila, Filippinda joylashgan.

PressReader iOS, Android, Windows, Mac va turli elektron o'quvchilar uchun ilovalari hamda veb-sayti orqali 7000 dan ortiq gazeta va jurnallarning 60 dan ortiq tildagi raqamli versiyalarini tarqatadi va gazetalarining raqamli nashrlarini boshqaradi. Shuningdek, nashriyotlar uchun The New York Times, The Financial Times, The Economist, The Washington Post va The Globe and Mail kabi jurnallarni taqdim etadi. [10]

Xulosa va takliflar Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqib, jahon axborot resurslaridan foydalanish professor-o'qituvchilar va barcha ilmiy tadqiqot olib boruvchilar uchun o'zlarining tadqiqot ishlarini amalga oshirishda yangi bilimlarni, o'z sohasiga tegishli so'nggi ma'lumotlarga ega bo'lishida yordam beradi. Bu bo'yicha quyidagilar tavsiya qilinadi:

- Jahon axborot resurslaridan foydalanishni fan sifatida o'qitishni yo'lga qo'yish;



- Ilmiy-tadqiqot bilan shug'ullanuvchi barcha uchun xorijiy ilmiy-ta'limiy bazalar haqida ma'lumotlar berib borish;
- Tadqiqotchilarning o'z ishlarini olib borishda jahon axborot resurslaridan samarali foydalanishi uchun imkoniyatlar yaratib berish;
- Respublikamiz oliy ta'lim muassasalarida xorijiy bazalarga obunalarni tashkil etish;
- Kutubxonalarda ilmiy nashrlar bazasini shakllantirish: chop etilgan ilmiy maqolalar va dissertatsiyalar bazasini yaratish.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, har qanday ilmiy-tadqiqot olib boruvchilar uchun jahon axborot resurslaridan erkin foydalana olish ularning tadqiqot ishlarida samarali va sifatli axborotdan foydalanish imkonini beradi. Oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari, tadqiqotchilar ilmiy maqolalar chiqarishda ham ishonchli ilmiy ma'lumotlarga ega bo'lishadi. Bu ayniqsa magistratura talabalarining tadqiqot olib borishni yaxshilaydi, ularda kelgusi ishlari uchun tajribani shakllantiradi. uchun ko'plab qiyinchiliklarga duch kelishmoqda. Shu tariqa, ta'lim va o'qitish jarayonlarini ilmiy tadqiqot kompetensiyalariga ega bo'lish nuqtayi nazaridan takomillashtirish mumkin bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. <https://lex.uz/>
2. R. M.A., «Анализ использования электронных ресурсов и публикационной активности в научных и образовательных учреждениях Узбекистана».
3. R. M.A., Jahon axborot resurslari.
4. <https://link.springer.com/>
5. <https://www.ebsco.com/products/ebscohost-research-platform>
6. <https://www.webofscience.com/wos>
7. <https://innofund.uz/>
8. <https://www.proquest.com/>
9. <https://www.jstor.org/>
10. <https://www.pressreader.com/>



TA'LIMDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALAR ORQALI MONOPOLIYANI OLDINI OLISH CHORA TADBIRLARI

Zokirov Sanjar Zoxidjon o'g'li – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Raqamli iqtisodiyot” kafedrasida assistenti

E-mail: zokirovsanjar7274@gmail.com

Annotatsiya. *Raqamli texnologiyalar so'nggi o'n yillikda iqtisodiyotning deyarli barcha sohalarida inqilobiy o'zgarishlarni amalga oshirdi. Internet, mobil aloqa, sun'iy intellekt va blockchain texnologiyalari kabi innovatsiyalar global bozorlarni kengaytirdi va yangi biznes modellari uchun cheksiz imkoniyatlar yaratdi. Shu bilan birga, yirik texnologik kompaniyalar bozorning katta qismini egallab, monopolistik tendensiyalarni kuchaytirdi. Bu holat innovatsiyalarni susaytirishi, raqobatni cheklashi va iste'molchilarga zarar yetkazishi mumkin. Monopoliyalarning oldini olish va bozorlar o'rtasida sog'lom raqobatni ta'minlash uchun raqamli texnologiyalarni samarali qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada raqamli texnologiyalar yordamida monopoliyani oldini olishga qaratilgan bir qator chora-tadbirlar va strategiyalar tahlil qilinadi. Ochiq standartlar va ochiq manbali texnologiyalardan foydalanish, ma'lumotlar portativligi va interoperabilitetni ta'minlash, antimonopoliya siyosatini kuchaytirish va raqobatni rag'batlantiruvchi siyosatlarni amalga oshirish kabi yondashuvlar ko'rib chiqiladi. Ushbu chora-tadbirlar nafaqat monopolistik tendensiyalarni cheklash, balki raqamli iqtisodiyotda barqaror va inklyuziv o'sishni ta'minlash uchun ham zarurdir.*

Kalit so'zlar: *Raqamli texnologiyalar, monopoliya antimonopoliya siyosati, ochiq standartlar, ochiq manbali texnologiyalar, interoperabilitet, ma'lumotlarning portativligi, raqobatni rag'batlantirish, raqamli platformalar, kiberxavfsizlik, startaplar, innovatsion klasterlar.*

Tovar va moliya bozorlarida monopoliyani bosqichma-bosqich kamaytirish orqali samarali raqobat muhitini yaratish maqsadida mamlakatimizda iqtisodiyotdagi davlat ishtirokini qisqartirish, narxni ortiqcha tartibga solishdan voz kechish va davlatning iqtisodiyotga ta'sirini kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, oldimizda davlat ishtirokidagi xo'jalik yurituvchi subyektlar monopoliyasining iqtisodiy raqobatbardoshligiga salbiy ta'sirini yanada kamaytirish, imtiyoz va preferensiyalar berish tizimi samaradorligini oshirish, shuningdek, tadbirkorlik subyektlariga nisbatan tartibga solish yukini pasaytirish bo'yicha kechiktirib bo'lmaydigan vazifalar turibdi. Tovar va moliya bozorlarida raqobatni rivojlantirish, tadbirkorlik subyektlari faoliyati uchun



teng sharoitlarni yaratish, oshkoralikni ta'minlash va davlat xaridi tartib-taomillarini yanada takomillashtirish maqsadida raqamli texnologiyadan foydalanish yanada takomillashtirilmoqda.

Raqobat va monopoliyaga qarshi kurashish sohasida chora-tadbirlar va siyosat uyg'unligini, erkin va raqobatbardosh bozorni shakllantirish bilan bog'liq tarkibiy islohotlarni amalga oshirishda hamda davlat xaridlari, davlat aktivlarini sotish jarayonida raqobat sharoitlarini ta'minlashda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Makroiqtisodiy tahlil, tarkibiy o'zgartirishlar, moliya-bank tizimi, davlat aktivlarini boshqarish, raqobatni rivojlantirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari kotibiyati bilan hamkorlik qiladi.

O'zbekistonda raqamli texnologiyalar orqali monopoliyani oldini olish uchun quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda:

Optik tolali aloqa: Optik tolali aloqa liniyalari kengaytirilib, raqamli xizmatlarning kengayishiga imkoniyat yaratilmoqda.

Yuqori sifatli internet va mobil aloqa: Yuqori sifatli va arzon internet xizmatlari taqdim etilib, barcha hududlarda teng imkoniyatlar yaratilmoqda.

E-hukumat tizimini joriy etish: Yagona portal: "Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali" orqali davlat xizmatlari raqamlashtirilib, xizmat ko'rsatish sohasidagi monopoliyaga qarshi kurash olib borilmoqda.

Elektron to'lov tizimlari: Barcha davlat to'lovlari va jarimalari onlayn to'lov xizmatlari orqali amalga oshirilmoqda, bu esa korrupsiya va monopoliyani kamaytiradi.

Ta'lim tizimi raqamlashtirilishi: Raqamli texnologiyalar bo'yicha ta'lim va malaka oshirish dasturlari joriy etilib, raqamli savodxonlik oshirilmoqda. Bu esa yangi raqamli bizneslar rivojlanishiga yordam beradi.

IT parklar va startaplar: IT parklar tashkil etilib, startaplar rivojlanishi qo'llab-quvvatlanmoqda. Bu esa raqamli texnologiyalar sohasidagi monopoliyani kamaytirishga yordam beradi.

Dasturiy ta'minot eksporti: Dasturiy ta'minot va IT xizmatlari eksporti oshirilib, raqamli bozorni xalqaro darajada raqobatbardosh qilish choralari ko'rilmoqda.

Ma'lumotlarning ochiqqligi: Davlat xizmatlari va biznes jarayonlarida ma'lumotlarning ochiqqligi ta'minlanmoqda, bu esa korrupsiya va monopoliyaga qarshi kurashda muhim rol o'ynaydi.

1-jadval. O'zbekistonda monopoliyaga qarshi kurashish bo'yicha davlat dasturi

Kategoriya	Tavsif	Statistika
Yangi Raqobat Qonuni	2023-yil 3-iyulda qabul qilingan qonun	Qonun bozorning 40% dan ortiq ulushiga ega bo'lgan

		kompaniyalarni tabiiy monopoliyalar deb belgilaydi.
Davlat Korxonalarining Xususiylashtirilishi	2021-2025 yillar uchun davlat ulushini kamaytirish strategiyasi	Davlat ulushi 115 ta kompaniyada sotiladi; davlat korxonalarining 75% i xususiylashtiriladi.
Avtomobil Bozori	Avtomobil importining oshishi raqobatni kuchaytirish yo'lida	2023-yilda avtomobil importi 73,000 donaga yetdi, oldingi yilga nisbatan 2,4 barobar ko'p.
Soliq va Bojxona Imtiyozlari	Davlat korxonalariga berilayotgan imtiyozlar	Taxminan 900 ta davlat korxonasi soliq va bojxona imtiyozlaridan foydalanmoqda.
Davlat Korxonalari Ulushi	Davlat korxonalarining iqtisodiyotdagi ulushi	Davlat korxonalari iqtisodiyotning 55% ini tashkil etadi.
Raqobat Qonunchiligini Kuchaytirish	OECD tavsiyalari asosida raqobat qonunchiligini kuchaytirish	Antimonopoly Committee raqobat siyosatini mustaqil ravishda amalga oshirishi kerak.
Xalqaro Raqobat	Xitoydan keltirilgan avtomobillar bozor ulushi	Xitoydan keltirilgan avtomobillar bozorda 80% ulush bilan yetakchilik qilmoqda.

Monopoliyani oldini olish uchun raqamli texnologiyalar juda katta potensialga ega. Bu texnologiyalar, ma'lumotlar tahlili, matematik modellashtirish, ishlab chiqarish avtomatlashtirish (RPA), blockchain, ma'lumotlar o'qish va ishlovchi algoritmlar kabi ko'rsatkichlar orqali monopoliyani oldini olishda yordam beradi. Raqamli texnologiyalar yordamida, ishlab chiqarish jarayonlarini yaxshilash, foydalanuvchilar uchun moslashtirilgan xizmatlar va mahsulotlar taqdim etish va ko'plab boshqa muammolarni hal qilish mumkin. Monopoliyani oldini olishning raqamli texnologiyalar yordamida yuqori samaradorlik va foydalanuvchilarning qiziqishlarini ko'paytirish imkoniyati bor.

Foydalanuvchilar bilan birgalikda innovatsion g'oyalar yaratish: Foydalanuvchilar, ishlab chiqarish jarayonlarida ishtirok etish va yangi mahsulotlar yoki xizmatlar yaratish uchun qo'llanilishi kerak. Bu g'oyalarni yaratish jarayonida foydalanuvchilarning fikrlari va talablarini qabul qilish va ularni amalga oshirishga harakat qilish lozim.

O'qituvchilarga texnologiyalarni o'rgatish. O'qituvchilar uchun monopoliyani oldini olish va uni rivojlantirish kurslari tashkil etish zarur. Bu kurslar orqali o'qituvchilar yangi texnologiyalarni o'rganishadi va ularni o'z ta'lim jarayonlarida qo'llashadi.

Qiziqishlarni va innovatsion projeklarni qo'llab-quvvatlash. Boshqa so'rovnomalar tashkil etish va innovatsion projeklarni qo'llab-quvvatlash, monopoliyani oldini olish jarayonida yangi yondashuvlarni tezlashtiradi va rivojlantiradi.

Texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash va integratsiya etish. Innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish va ularni mahalliy tizimlar bilan integratsiya qilish, monopoliyani oldini olish sohasida yangi yondashuvlar va innovatsiyalar yaratishda muhim rol o'ynaydi.

Boshqa sohalar bilan hamkorlik. Boshqa sohalar bilan hamkorlik, masalan, turli sohalardagi kompaniyalar bilan aloqani o'rnatish va ular bilan hamkorlikda mahsulotlar yoki xizmatlar yaratish, monopoliyani oldini olish jarayonini tezlashtiradi va rivojlantiradi.

Monopoliyani oldini olishda yuqori samaradorlik va muvaffaqiyatga erishish uchun foydalanuvchilar, o'qituvchilar, innovatorlar va boshqa taraflar o'rtasida integratsiya va hamkorlikning rivojlanishi zarur. Bu takliflar monopoliyani oldini olishni yaxshilash, rivojlantirish va yangiliklarni rivojlantirishda yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. "Superintelligence: Paths, Dangers, Strategies" — Nick Bostrom
 2. "The Fourth Industrial Revolution" — Klaus Schwab
 3. "The Age of Surveillance Capitalism" — Shoshana Zuboff
 4. "Deep Learning" — Ian Goodfellow, Yoshua Bengio, Aaron Courville
 5. "Blockchain Revolution" — Don Tapscott, Alex Tapscott
 6. H. Xiong, S. Shekhar, P. N. Tan, and V. Kumar. Exploiting a Support-based Upper Bound of Pearson's Correlation Coefficient for Efficiently Identifying Strongly Correlated Pairs. In Proc. of the 10th Intl. Conf. on Knowledge Discovery and Data Mining, pages 334-343, Seattle, WA, August 2010.
 7. H. Xiong, M. Steinbach, P. N. Tan, and V. Kumar. HICAP: Hierarchical Clustering with Pattern Preservation. In Proc. of the SIAM Intl. Conf. on Data Mining, pages 279-290, Orlando, FL, April 2011.
 8. H. Xiong, P. N. Tan, and V. Kumar. Mining Strong Affinity Association Patterns in Data Sets with Skewed Support Distribution. In Proc. of the 2003 IEEE Intl. Conf. on Data Mining, pages 387-394, Melbourne, FL, 2010.
- 2023-yil

9. X. Yan and J. Han. gSpan: Graph-based Substructure Pattern Mining. In Proc. of the 2002 IEEE Intl Conf. on Data Mining, pages 721-724, Maebashi City, Japan, December 2012.
10. C. Yang, U. M. Fayyad, and P. S. Bradley. Efficient discovery of error-tolerant frequent itemsets in high dimensions. In Proc. of the 7th Intl. Conf. on Knowledge Discovery and Data Mining, pages 194-203, San Francisco, CA, August 2011.
11. "The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies" — Erik Brynjolfsson, Andrew McAfee
12. "Machine Learning Yearning" — Andrew Ng
13. "Artificial Intelligence: A Guide for Thinking Humans" — Melanie Mitchell
14. "Life 3.0: Being Human in the Age of Artificial Intelligence" — Max Tegmark
15. "The Singularity Is Near: When Humans Transcend Biology" — Ray Kurzweil

ИЛМ-ФАН, ТАЪЛИМ, ИШЛАБ ЧИҚАРИШ ВА БИЗНЕС ИНТЕГРАЦИЯСИ ЖАРАЁНЛАРИ ВА ИННОВАЦИОН ТУЗИЛМАЛАР

Адизов С. – ТДТУ мустақил
тадқиқотчиси

Аннотация. Ушбу мақолада жаҳондаги мавжуд илм-фан, таълим, ишлаб чиқариш ва бизнес интеграцияси тузилмаларини таснифлашга уринилган.

Калит сўзлар: интеграция, бизнес, инновация, фоя, фан, таълим, кластер, илм.

Бугунги кунда жаҳон ва миллий иқтисодиётнинг барқарор иқтисодий ўсишини таъминлашда иқтисодиётни инновацион ривожлантириш устувор аҳамият касб этмоқда. Ривожланган мамлакатларда ялпи ички маҳсулотнинг 70-90 фоизи айнан инновацион фаолиятни ривожлантириш ҳисобига яратилмоқда. Бундай стратегик муҳим илмий-технологик ва истиқболли инновацион лойиҳаларни жорий этиш орқали етакчи ишлаб чиқариш тармоқларини модернизациялаш, техник ва технологик янгилаш, маҳаллий инновацион технологияларни жорий этиш асосида иқтисодиётнинг юксак тараққиётига эришилмоқда. Олий ўқув юртларида рақобатбардош, барча устунликларга эга бўлган юқори малакали кадрларни тайёрлаш, улардан юртимиз осойишталиги ва



ободлиги, халқимиз фаровонлиги йўлида мақсадли фойдаланиш қатъий рақобатга асосланган бозор иқтисодиётининг асосий талабларидан биридир. Чунки юқорида келтирилган глобал масалаларнинг ижобий ҳал этилишида мамлакатимизнинг улкан илмий, ижодий, интеллектуал ва меҳнат салоҳиятининг таркибий қисми бўлган, мустақиллик йилларидан ҳозирга қадар олий таълим муассасаларини битириб, меҳнат бозорида бозор иқтисодиёти талабларига амал қилиб, ташкилотларда самарали фаолият кўрсатиб келаётган юқори малакали кадрларнинг ўрни аҳамиятлидир.

Инновацион иқтисодиётни ривожлантириш шароитида хўжалик юритувчи субъектлар рақобатбардошлигини ошириш, рақобатда муваффақиятга эришиш, транзакция харажатларини камайтириш ва тез ўзгарувчан бозор шароитларига мослашиш учун мўлжалланган интеграцион муносабатларнинг янги ташкилий тузилмалари кенг тарқалмоқда. Инновацион иқтисодиётнинг замонавий интеграция жараёнлари интеграцион ўзаро таъсирнинг хилма-хиллиги, ахборот-коммуникация технологиялари орқали ягона бизнес тармоқларига бирлаштирилган ишлаб чиқариш тузилмалари шаклланиши билан тавсифланади²².

Жамиятда инновацион салоҳиятни оширишни жадаллаштириш билан боғлиқ билим ва кўникмалар, мақсад ва қадриятларга эришиш, инновацион ривожланиш муаммоларини ҳал қилишда илм-фан, таълим ва бизнеснинг ўрни, уларнинг бу соҳадаги интеграцион ҳамкорлигини англаш илм-фан, таълим ва ишлаб чиқариш интеграциясининг зарурий ва ижтимоий аҳамиятли шартлари ҳисобланади²³.

Ўрганишлар шуни кўрсатадики, интеграция жараёнларининг мамлакатлар ва минтақалар даражасидаги масалалари кенг қамровли. Шу сабабли мазкур тадқиқот ишида фан, таълим ва ишлаб чиқариш секторларининг миллий ва минтақавий инновацион тизимга интеграциялашуви муаммоларига кўпроқ эътибор қаратилди. Шу ўринда барча субъектлар билан юз берадиган интеграция жараёнларини умумий мураккаб шаклга бўлган ҳолда ўрганиш ижтимоий-иқтисодий-ташкилий жараён сифатида интеграция мазмун-моҳиятини чуқурроқ ўрганишга шароит яратади. Бизнингча:


- сектордаги ташкилот ичида интеграция;
- сектордаги ташкилотлараро интеграция;

²²Иванова Роза Петровна. Управление интеграционными процессами в инновационной среде промышленных видов экономической деятельности. Диссертация на соискание учёной степени кандидата экономических наук. – Казан, 2018. – Стр. 210.

²³Ан Евгений Алексеевич. Формирование базиса пространственно локализованной инновационной подсистемы трансграничных регионов. Диссертация на соискание учёной степени доктора экономических наук. – Барнаул, 2014. – Стр. 59.

- sektorlararo tashkilotlar integratsiyasi farqlanadi.

Zamonaviy iqtisodiyatda fan, ta'lim va biznes integratsiyasining kўplab tuzilmalari mavjud бўлиб, ularning innovatsion tizimga integratsiyalashish mexanizmini mazmun-mohiyatiga kўra quyidagi guruhlarга бўлиб ўrganiш maqsadga muvofiq.



1-rasm. Ilm-fan, ta'lim va biznes integratsiyasi tuzilmalari
Ilmий izlanishlar davomida shunga amin бўldikki, yuqorida kelтиrib ўтилган integratsiyalash tuzilmalaridan mamakat innovatsion rivojlantirishi uchun kўproq sektorlararo integratsiya shakli xizmat qiladi.

Bilimlar, mahsulotlar va tekhnologiyalarning haёtiy sikli qisqaraytganligi, cheklangan resurslar sharoitida milliy innovatsion tizim sub'yektlarining ўzaro yaqinlashuviga asoslangan yangi aloqa zanjirlarini shakllantirish, mavjudlarini rivojlantirish natijasida ularning raqobatdosh ustunliklarini mustahkamlash, raqobat muhitiga moslashish va yangi ustuvor qiyamatliklarni yaratish talab etiladi²⁴.

Tajribalar shuni kўrsatadiki, ilm-fan blokada davlat ham fundamental tadqiqotlarni moлияviy kўllab-quvvatlash йўли bilan "innovatsion zonalar" kўrinishidagi kichik innovatsion firmalarni tashkil etishi mumkin.

²⁴Маковеева Виктория Владимировна. Сетевое взаимодействие как механизм интеграции образования, науки, производства и оценка его результативности. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – Новосибирск, 2013. – Стр. 24.

Бизнес-инкубаторлар – инновацион инфраструктура бўлиб, тадбиркорлик фаолиятининг илк босқичларида тадбиркорларга зарурий шароитлар яратиб беришга ёрдам беради, уларга беминнат асосда ёки ижарага нотурар жойлар тақдим қилади, маслаҳат, юридик ва бошқа хизматлар кўрсатади.

Бизнес-инкубатор хизматлари қуйидагиларни ўз ичига олади; кичик тадбиркорлик субъектларига субъектнинг инкубаторда бўлиши давомийлигига қараб нотурар жойларни ижарага бериш (масалан, биринчи йили жойлашиш нархи ижара ҳақининг 40 %, иккинчи йили 60 %ини ташкил қилади, сўнгги учинчи йили имтиёз берилмайди); телефон алоқаси (интернет-трафик, бизнес-инкубатор ахборот-маълумотлар базасига рухсат);

- солиқ, юридик маслаҳатлар, бизнес-режалар ишлаб чиқиш, маркетинг тадқиқотлари ўтказиш, бошқарувчилик консалтинги.

Инновацион ассоциациялар:

- миллий соҳавий ассоциациялар – мамлакатда илмий-техник ривожланиш қиёфасини яратиш, стандартлаштириш ва сертификатлаштириш жараёнларида фаол иштирок этиш, ходимларни илмий-техник ривожланишнинг янги йўналишлари бўйича ўқитиш ва қайта тайёрлаш каби вазифаларни бажаради;

- миллий тадқиқот ассоциациялари – олий таълим муассасалари, тадқиқот марказлари ва саноат ишлаб чиқариши ўртасидаги яқиндан ўзаро ҳамкорликни ўрнатиш учун мўлжалланган²⁵.

Махсус иқтисодий зоналар – тадбиркорлик фаолиятини амалга ошириш учун алоҳида режимга (солиқ солиш, божхона режими ва давлат назорати органлари фаолияти нуқтаи назаридан) эга бўлган ҳудуднинг чекланган ҳудудлари (одатда, бир квадрат километрдан бир неча квадрат километргача) бўлиб, улар ҳам рағбатлантириш мақсадида ташкил этилади. Уларнинг фаолияти иқтисодиётнинг ишлаб чиқариш тармоқлари, юқори технологияли саноатни ривожлантириш, янги турдаги маҳсулотлар ишлаб чиқариш, транспорт инфратузилмасини ривожлантиришга қаратилган.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Azimov Bobir Fattohevich, candidate of economy sciences, assistant professor Gulomov Otabek Hamidulloyevich, bachelor's degree student Bukhara Engineering-Technological Institute (Uzbekistan, Bukhara)

²⁵Azimov Bobir Fattohevich, candidate of economy sciences, assistant professor Gulomov Otabek Hamidulloyevich, bachelor's degree student Bukhara Engineering-Technological Institute (Uzbekistan, Bukhara) Organizational structures of innovation support services: interorganizational cooperation associations https://www.elibrary.ru/download/elibrary_29456559_38157632.pdf

Organizational structures of innovation support services:
interorganizational cooperation associations
https://www.elibrary.ru/download/elibrary_29456559_38157632.pdf.

2. Иванова Роза Петровна. Управление интеграционными процессами в инновационной среде промышленных видов экономической деятельности. Диссертация на соискание учёной степени кандидата экономических наук. – Казан, 2018. – Стр. 210.
3. Ан Евгений Алексеевич. Формирование базиса пространственно локализованной инновационной подсистемы трансграничных регионов. Диссертация на соискание учёной степени доктора экономических наук. – Барнаул, 2014. – Стр. 59.
4. Макоева Виктория Владимировна. Сетевое взаимодействие как механизм интеграции образования, науки, производства и оценка его результативности. Автореферат диссертации на соискание учёной степени кандидата экономических наук. – Новосибирск, 2013. – Стр. 24.

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА И ИММЕРСИВНЫХ СРЕДСТВ (VR, AR И MR) В ОБРАЗОВАНИИ

Исмаилов Руслан Зодиевич – Преподаватель
кафедры общедисциплинарных предметов НОУ
«Янги Аср»

E-mail: ismailov21ruslan96@gmail.com

Аннотация. В данной статье анализируется влияние прогрессивных технологий искусственного интеллекта и иммерсивных сред – виртуальной, дополненной и смешанной реальности – на образовательный процесс. Обсуждается, как эти инновации способствуют созданию адаптивных и интерактивных учебных сред, повышающих мотивацию и вовлеченность студентов. Рассматривается вопрос о кардинальном переосмыслении традиционных методик обучения через интеграцию цифровых ресурсов, что позволяет обеспечить глубокую иммерсию в учебный материал и поддержку индивидуальных образовательных траекторий. В статье приводятся результаты исследований и кейс-стади, подтверждающие эффективность этих технологий в различных образовательных контекстах.

Ключевые слова: виртуальная реальность (vr), дополненная реальность (ar), иммерсивные технологии, обучение через опыт, гипер-иммерсивное обучение, цифровые образовательные ресурсы, трансформация образования.


Виртуальная реальность (VR), дополненная реальность (AR) и искусственный интеллект (ИИ) могут переосмыслить образование в классе будущего, превратив его из культуры преподавания в «обучение через опыт». От виртуальных научных лабораторий до виртуальных квест-комнат и роботов машинного обучения – VR, AR и AI могут изменить будущее образования. На протяжении многих лет эти три технологических инструмента совместно помогали достичь важных вех во многих аспектах жизни, в частности в образовании. VR, AR и AI очень универсальны и служат ценными ресурсами для обучения. Новый прорыв в технологии AR/VR изменит правила игры в будущем образовании. Использование этих инструментов может расширить возможности и повысить качество обучения учащихся и открывает многообещающие возможности для преобразования образования практически в любое время и в любом месте в физическом классе или за его пределами.

В последнее время наблюдается всплеск использования всех видов технологий в классе, что стало нормой даже для детских садов, чего мы не часто видели десять лет назад. Будущее обучения стоит за так называемым смешанным обучением, что является своего рода экосистемой, которая наполнена технологиями в классе (виртуальными или физическими), ставшими возможными благодаря искусственному интеллекту и иммерсивным технологиям, таким как VR и AR. Практическое обучение оказывается более эффективным в усвоении информации, когда студенты могут прикасаться, взаимодействовать и получать опыт, а не просто читать лекции по темам. Именно эти технологии гипер-иммерсивного обучения, основанные на VR/AR/AI, обогатят и откроют мир возможностей межкультурного обучения от прогулок по улицам чужой страны, до встречи с эксклюзивными экспонатами музеев, памятников старины или же космических тел, планет и т.д.

Работая вместе, VR, AR и AI могут создавать контент для целых учебных программ или уроков – аспект AI будет учитывать технические детали или другие элементы, а аспект VR и AR будет формировать виртуальный опыт и симуляции. Эти инструменты, наряду с дополненной реальностью (AR), также могут быть очень интересными для студентов. В отличие от типичных аудиторных лекций, мир искусственного моделирования виртуальной реальности и искусственного интеллекта

предлагает ученикам бесчисленные возможности вырваться из традиционной классной обстановки и погрузиться в реалистичный виртуальный опыт. Это не только подготавливает студентов, давая им опыт, близкий к реальной жизни, но и позволяет им получать удовольствие от изучения того, что они делают, потому что они получают возможность испытать, как это было бы в реальной жизни. Как пример можно разобрать платформу «<https://www.cospaces.io/>». Инструмент VR/AR не только дает учителям возможность разрабатывать учебную программу и задания для занятий, но также позволяет учащимся получить практический опыт программирования при проектировании виртуальных трехмерных миров.

Чтобы получить еще более насыщенный практический опыт, близкий к естественному физическому, в целях обучения можно использовать технологию Merge Cube, система пространственных вычислений, которая позволяет учащимся взаимодействовать с цифровым трехмерным контентом (древние артефакты, растительные клетки, скульптуры и т. д.), загруженным в Merge Cube, который можно использовать в любое время и в любом месте. И преподаватели, и учащиеся могут создавать контент STEM, разрабатывать приложения и воплощать их в жизнь. В целом, VR, AR и AI – полезные и важные инструменты для физического или виртуального класса, поскольку они могут обеспечить более захватывающий и интерактивный опыт –



независимо от того, какой предмет преподается – что может более эффективно привлекать и обучать учащихся, если бы они были в реальной ситуации.

Рис-1. Платформа <https://mergeedu.com> и ее продукт Merge Cube

VR, AR и AI – это многообещающие технологии, направленные на преобразование нашей среды обучения и сокращение цифрового разрыва. Как уже было сказано выше, студенты, которые не могут позволить себе путешествовать на большие расстояния для экскурсии или обучения, могут сделать это с помощью VR и даже AR. Аналогичным образом, благодаря иммерсивным и увлекательным средам VR и AR, которые теперь легко доступны, учащиеся с трудностями в обучении или физическими проблемами могут в полной мере участвовать в мероприятиях и упражнениях, адаптированных к их потребностям с помощью ИИ. Ведь проблемой для справедливости и равенства становится цена всего этого. Создает ли

развитие технологий AI/VR/AR еще один потенциал цифрового разрыва? Покупка VR-гарнитур, приложений AR и AI или совместимых компьютеров может оказаться очень дорогостоящей. К счастью, существуют мобильные гарнитур, работающие в паре со смартфонами, например, устройства, которые могут предоставить базовые возможности виртуальной реальности по разумной цене (речь идет о картонных очках от Google).



Рис-2. Картонные очки виртуальной реальности от Google

В ближайшее время в Республике Узбекистан форму заочного образования поэтапно переведут на дистанционное обучение. Однако, сложно воспроизвести взаимодействие в классе посредством дистанционного цифрового

обучения. На данный момент VR/AR/AI предоставляют возможность вовлечь студентов в виртуальную учебную деятельность, не выходя из дома. Хотя покупка гарнитуры, датчиков, камер и очков VR/AR/AI может оказаться дорогостоящей для домашнего использования, в не столь отдаленном будущем инструменты VR/AR/AI могут стать повсеместными и доступными, как смартфоны, интеллектуальные устройства и компьютеры. Укрытие из-за COVID-19 позволило нам принять новую реальность с помощью инновационных технологий: от экономических инструментов погружения в классы VR/AR/AI до персонализированного обучения и сотрудничества между людьми и искусственным интеллектом. Взгляд в будущее образования с оптимизмом отражает возможности, которые открываются перед нами благодаря технологическому прогрессу. Остается лишь надеяться, что доступ к этим передовым технологиям будет все более демократизирован, чтобы каждый учащийся, независимо от своего местоположения и экономических условий, мог воспользоваться преимуществами современного обучения. Таким образом, мы не просто приспосабливаемся к меняющемуся миру – мы активно участвуем в его создании, готовя будущие поколения к эффективному взаимодействию с глобальными вызовами и возможностями.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Johnson, L., Adams Becker, S., Cummins, M., Estrada, V., Freeman, A., & Ludgate, H. (2013). NMC Horizon Report: 2013 Higher Education Edition.

- New Media Consortium. Описывает текущие и предстоящие технологические тенденции в высшем образовании.
2. Bailenson, J. N. (2018). Experience on Demand: What Virtual Reality Is, How It Works, and What It Can Do. W.W. Norton & Company. Обширное рассмотрение возможностей виртуальной реальности в образовании и других областях.
 3. <https://www.cospaces.io/>
 4. <https://www.spot.uz/ru/2023/12/25/private-education>
 5. <https://arvr.google.com/cardboard/>
 6. <https://developers.google.com/cardboard?hl=ru>
 7. https://aliexpress.ru/item/1005004442612649.html?sku_id=12000029195158536&spm=a2g2w.productlist.search_results.7.36fd5b73nNoiJq

ИНФОРМАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ ДЛЯ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ: АНАЛИЗ ТРЕНДОВ И ВОЗМОЖНОСТЕЙ

Кузиев Ботир Намозович – доцент кафедры
Джизакского политехнического института

Муртазин Эмиль Рустамович – Ассистент
Джизакского политехнического института

Касимов Анвар Мусурманович – Студент
Джизакского политехнического института

E-mail: kirenakirka.fr@inbox.ru

Аннотация. В условиях современного мира, сталкивающегося с вызовами климатических изменений, экологической устойчивости и социальных проблем, информационные технологии играют все более важную роль в поиске решений для обеспечения устойчивого развития. В данной статье проводится анализ современных трендов в области информационных технологий, которые могут способствовать достижению целей устойчивого развития, а также исследуются потенциальные возможности и вызовы, с которыми сталкиваются исследователи и практики в этой области.

Ключевые слова: информационные технологии, устойчивое развитие, экологические технологии, умные города, цифровая экономика, ресурсоэффективность.

Введение. Современный мир стоит перед существенными вызовами, связанными с экологической устойчивостью, социальным развитием и экономической эффективностью. В условиях стремительного технологического развития и расширения

информационного пространства, информационные технологии (ИТ) играют ключевую роль в поиске решений для этих проблем. Проникновение ИТ в различные сферы человеческой деятельности открывает новые возможности для создания устойчивой и прогрессивной среды [1]. Цель данной статьи состоит в анализе современных трендов и возможностей, которые предоставляют информационные технологии для обеспечения устойчивого развития. Мы будем рассматривать какие технологии и подходы наиболее актуальны в этом контексте, и как они могут быть использованы для достижения целей устойчивого развития на глобальном, региональном и локальном уровнях. Анализ современных трендов и возможностей в области информационных технологий для устойчивого развития не только позволит оценить текущее положение дел, но и выявить направления для будущих исследований и практической работы [2]. Вместе с тем, будут также рассмотрены вызовы, с которыми сталкиваются исследователи и практики при реализации проектов по использованию информационных технологий для устойчивого развития.

1. Интеграция информационных технологий в управление ресурсами

Одним из ключевых трендов является использование информационных технологий для эффективного управления ресурсами. Системы умного управления энергопотреблением, умные сети, а также программные решения для оптимизации использования водных и лесных ресурсов становятся все более популярными [3]. Благодаря сбору и анализу данных, эти технологии позволяют улучшить эффективность использования ресурсов, сократить потери и снизить негативное воздействие на окружающую среду.

2. Развитие экологически чистых технологий

Информационные технологии также играют ключевую роль в разработке и внедрении экологически чистых технологий. Применение методов машинного обучения и анализа больших данных помогает оптимизировать процессы производства, уменьшить выбросы загрязняющих веществ и создать более эффективные источники энергии. К примеру, разработка алгоритмов для управления производственными процессами позволяет минимизировать отходы и оптимизировать использование ресурсов.

3. Поддержка устойчивого развития городов

Городское население продолжает расти, что ставит перед городскими властями задачу обеспечения устойчивого развития и высокого качества жизни для всех горожан [4]. Информационные технологии могут помочь в решении этой проблемы путем создания

интеллектуальных городов. Системы умного города, основанные на ИТ, обеспечивают эффективное управление транспортной инфраструктурой, оптимизацию систем общественного транспорта, контроль за качеством воздуха и многое другое.

4. Развитие цифровой экономики для устойчивого развития

Цифровая экономика представляет собой ключевой фактор устойчивого развития, способствуя созданию новых возможностей для экономического роста и инноваций [5]. Развитие электронной коммерции, цифровых платформ для обмена ресурсами и услугами, а также использование блокчейн-технологий для обеспечения прозрачности и безопасности сделок - все это способствует устойчивому развитию, стимулируя экономическое сотрудничество и инновационную деятельность.

Заключение.

В современном мире информационные технологии становятся неотъемлемой частью устойчивого развития, предоставляя нам возможности для эффективного решения сложных проблем экологической устойчивости, социального развития и экономического процветания. В этой статье мы рассмотрели несколько ключевых направлений, в которых ИТ вносят значительный вклад [6]. Интеграция информационных технологий в управление ресурсами позволяет оптимизировать их использование, уменьшить потери и снизить негативное воздействие на окружающую среду.

Умные города, основанные на информационных технологиях, обеспечивают эффективное управление инфраструктурой, повышают уровень комфорта жизни горожан и снижают негативное воздействие на окружающую среду. Развитие цифровой экономики способствует созданию новых возможностей для экономического роста и инноваций, поддерживая устойчивое развитие на мировом уровне. Однако, несмотря на все преимущества, использование информационных технологий для устойчивого развития также сталкивается с вызовами. К ним относятся проблемы конфиденциальности данных, цифровое неравенство, а также необходимость согласования международных стандартов и нормативов [7]. В целом, информационные технологии играют ключевую роль в обеспечении устойчивого развития, и их значимость будет продолжать расти в будущем.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Кузиев, Б. Н., Холмунинова, Д. А., Муртазин, Э. Р. Электронное обучение как часть образовательного процесса. Ученый XXI века, 1, 43.

2. Kuziev, B. N., Murtazin, E. R., & Kholmuminova, D. A. (2016). Introduction information technologies to educational process. Ученый XXI века, (3-1 (16)), 26-28.
Bu olimlar ta'limda texnologiyalardan foydalanish bo'yicha keng qamrovli tadqiqotlar olib bordilar va kiberpedagogikada pedagogik dasturiy vositalar, raqamli ta'lim resurslari va multimedia kontentini yaratish va ulardan foydalanishning innovatsion yondashuvlarini ishlab chiqdilar. Ularning ishi kiberpedagogika sohasini shakllantirishga yordam berdi va o'qitish va o'rganishni qo'llab-quvvatlash uchun texnologiyalardan samarali foydalanish bo'yicha qimmatli fikrlarni berdi [2].

Bu olimlardan tashqari yana bir qancha tadqiqotchilar va siyosatchilar kiberpedagogikada pedagogik dasturiy vositalar, raqamli ta'lim resurslari va multimedia kontentini yaratish va ulardan foydalanish haqida yozganlar. Masalan, Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (OECD) ushbu mavzu bo'yicha bir qancha ma'ruzalarni e'lon qildi, jumladan "Ta'lim va ko'nikmalar kelajagi: ta'lim 2030" (2018).

Kiberpedagogikada pedagogik dasturiy vositalarni yaratish onlayn muhitda o'qitish va o'rganishni qo'llab-quvvatlash uchun maxsus ishlab chiqilgan kompyuter dasturlarini loyihalash, ishlab chiqish va baholashni o'z ichiga oladi. Ushbu vositalar raqamli o'quv resurslari, multimedia kontenti va talabalar uchun o'rganish tajribasini yaxshilash uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan boshqa interaktiv materiallarni o'z ichiga olishi mumkin [3].

Kiberpedagogikada pedagogik dasturiy vositalarning turlari:

Kiberpedagogikada foydalanish mumkin bo'lgan turli xil pedagogik dasturiy vositalar mavjud, jumladan:

- Raqamli ta'lim resurslari: Bu resurslar interaktiv simulyatsiyalar, videolar, o'yinlar va an'anaviy onlayn ta'limni to'ldirish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan boshqa materiallarni o'z ichiga oladi;
- Multimedia mualliflik vositalari: Bu vositalar o'qituvchilar va talabalarga taqdimotlar, videolar va veb-saytlar kabi o'zlarining multimedia kontentini yaratish imkonini beradi;
- Baholash vositalari: Bu vositalardan onlayn muhitda viktorinalar, testlar va boshqa baholashlarni yaratish va boshqarish uchun foydalanish mumkin;
- Hamkorlik vositalari: Bu vositalar talabalarga loyiha va topshiriqlar ustida birgalikda onlayn ishlash imkonini beradi;
- Aloqa vositalari: Bu vositalar o'qituvchilar va talabalarga bir-biri bilan sinxron va asinxron tarzda onlayn muloqot qilish imkonini beradi [4].

Kiberpedagogikada pedagogik dasturiy vositalardan foydalanishning afzalliklari:

- Talabalarining faolligini oshirish: raqamli o'quv resurslari va multimedia kontenti talabalar uchun an'anaviy onlayn matn va ma'ruzalardan ko'ra ko'proq qiziqarli bo'lishi mumkin;
- O'quv natijalarining yaxshilanishi: Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, elektron pedagogikada pedagogik dasturiy vositalardan foydalanadigan talabalar foydalanmaydigan talabalarga qaraganda samaraliroq o'rganishadi;
- O'qituvchilarning mehnat unumdorligini oshirish: Pedagogik dasturiy vositalar o'qituvchilarga vaqtni tejashga va o'z ishida samaraliroq bo'lishga yordam beradi;
- Shaxsiylashtirilgan ta'lim: Pedagogik dasturiy vositalar har bir talaba uchun shaxsiylashtirilgan ta'lim tajribasini yaratish uchun ishlatilishi mumkin;
- Yaxshilangan imkoniyatlar: Pedagogik dasturiy vositalar imkoniyati cheklangan yoki chekka hududlarda yashovchi talabalar uchun o'rganishni yanada qulayroq qilishi mumkin [5].

Kiberpedagogikada pedagogik dasturiy vositalardan foydalanish muammolari:

- Narxi: Ba'zi pedagogik dasturiy vositalarni sotib olish va amalga oshirish qimmatga tushishi mumkin;
- Texnik masalalar: Pedagogik dasturiy vositalardan foydalanish va ularga xizmat ko'rsatish ba'zan qiyin bo'lishi mumkin;
- O'qituvchilar malakasini oshirish: O'qituvchilar onlayn muhitda pedagogik dasturiy vositalardan samarali foydalanish bo'yicha o'qitilishi kerak;
- Raqamli bo'linish: Hamma talabalar kompyuter va internetdan teng foydalanish imkoniyatiga ega emas, bu esa pedagogik dasturiy vositalardan foydalana oladiganlar va foydalana olmaydiganlar o'rtasida raqamli tafovut yaratishi mumkin.

Xulosa

Pedagogik dasturiy vositalar elektron pedagogika uchun qimmatli boylik bo'lishi mumkin. Biroq, ushbu vositalarni onlayn kurslarda qo'llashdan oldin ulardan foydalanishning afzalliklari va qiyinchiliklarini diqqat bilan ko'rib chiqish muhimdir.

Pedagogik dasturiy vositalar, raqamli o'quv resurslari va multimedia kontentidan talabalarining kiberpedagogika bo'yicha o'quv tajribasini oshirish uchun foydalanish mumkin. Bu vositalar yanada qiziqarli va interfaol ta'lim muhitini yaratish uchun ishlatilishi mumkin va ular talabalarga yanada samaraliroq o'rganishga yordam beradi.

Biroq, ushbu vositalarni sinfingizda qo'llashdan oldin ulardan foydalanishning afzalliklari va qiyinchiliklarini diqqat bilan ko'rib chiqish



muhimdir. Ushbu vositalardan foydalanishning ba'zi afzalliklari talabalarning faolligini oshirish, ta'lim natijalarini yaxshilash va o'qituvchilar samaradorligini oshirishni o'z ichiga oladi. Ushbu vositalardan foydalanishning ba'zi qiyinchiliklariga xarajat, texnik muammolar va o'qituvchilarni tayyorlash kiradi.

Umuman olganda, pedagogik dasturiy vositalar, raqamli ta'lim resurslari va multimedia kontenti kiberpedagogika sinfi uchun qimmatli aktivlar bo'lishi mumkin. Biroq, ushbu vositalardan oqilona foydalanish va ularning o'quv maqsadlariga mos kelishini ta'minlash muhimdir.

Pedagogik dasturiy vositalar, raqamli ta'lim resurslari va multimedia kontenti kiberpedagogikada yanada qiziqarli va samarali ta'lim muhitini yaratish uchun ishlatilishi mumkin. Ushbu vositalardan foydalanishning afzalliklari va qiyinchiliklarini sinchkovlik bilan ko'rib chiqilsa, ulardan talabalar uchun o'quv tajribasini yaxshilashda foydalanish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Miller, Daniel. (2018) 2023. "Digital anthropology". In The Open Encyclopedia of Anthropology, edited by Felix Stein. Facsimile of the first edition in The Cambridge Encyclopedia of Anthropology. Online: <http://doi.org/10.29164/18digital>
2. Howard Rheingold. Mind Amplifier: Can Our Digital Tools Make Us Smarter? 62 pages · first pub 2012
3. Downes, S. (2007). What connectivism is. Retrieved from. <http://halfanhour.blogspot.com/2007/02/what-connectivism-is.html>
4. Zhao, Yong. Computational Fluid-Structure Interaction : Methods, Models, and Applications. San Diego : Elsevier Science & Technology, 2018
5. Wiley, D. A. (2000). Connecting learning objects to instructional design theory: A definition, a metaphor, and a taxonomy. In D. A. Wiley (Ed.), The instructional use of learning objects: Online version. Retrieved November 6, 2015, from the World Wide Web: <http://reusability.org/read/chapters/wiley.doc>.



UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARI O'QUV DASTURIGA VIRTUAL LABORATORIYALARNING INTEGRATSIYASI

Ismoilov Nodirbek Kodirjonovich – Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi bo'lim boshlig'i

Ravshanov Yo'ldoshali Ruzimurodovich – Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi bosh mutaxassisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida virtual laboratoriyalarning o'quv dasturlariga integratsiyasi xususida fikr yuritilgan. Virtual laboratoriyalar tabiiy fanlarni o'qitishda yangi interfaol ta'lim muhitini yaratadi va resurslar yetishmovchiligi, xavfsizlik muammolari kabi muammolarni hal qilishda yordam beradi. Tadqiqotlar va meta-tahlillar virtual laboratoriyalarning o'quvchilar motivatsiyasi, darslardagi ishtiroki va ilmiy yutuqlariga sezilarli darajada ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, texnik infratuzilma, o'qituvchilar malakasini oshirish va o'quv dasturlarini moslashtirish muammolari hal etilishi lozim. Maqola virtual laboratoriyalarning ta'lim tizimi samaradorligini oshirishda katta rol o'ynashini va bu jarayonda VR va AR texnologiyalarining ahamiyatini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: Virtual laboratoriyalar, raqamli ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, STEM ta'limi, interfaol ta'lim muhiti, VR va AR texnologiyalari, o'quv dasturlari integratsiyasi.

Mamlakatimizda umumiy o'rta ta'lim maktablarida raqamli texnologiyalar va raqamli ta'lim integratsiyasi faol rivojlantirilmoqda. "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasi doirasida raqamli savodxonlikni oshirish va ta'lim tizimini raqamlashtirishga katta e'tibor qaratilgan. "Bir million dasturchi" loyihasi maktab o'quvchilarini onlayn kurslar va bootcamplar orqali dasturlash va IT ko'nikmalariga o'rgatish uchun yo'lga qo'yilgan. Elektron maktab loyihasi esa maktab infratuzilmasini modernizatsiya qilish uchun kompyuterlar, interfaol doskalar va yuqori tezlikdagi internet bilan jihozlangan Smart-sinflarni joriy etmoqda. Shu bilan birga, o'qituvchilarga raqamli vositalar va texnologiyalarni o'qitish usullariga integratsiyalashda yordam berish uchun muntazam ravishda malaka oshirish dasturlari taqdim etilmoqda.

Virtual laboratoriyalar umumiy o'rta ta'lim maktablarida tabiiy fanlarni o'qitishda interfaol ta'lim muhitini yaratish orqali ta'lim olishning noan'anaviy usulini taklif etadi. Bu maqola virtual laboratoriyalarni umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quv dasturlariga integratsiyasining maqsadga muvofiqligi, samaradorligi va pedagogik aspektlarini empirik tadqiqotlar, qiyosiy tahlillar,



adabiyotlarni ko'rib chiqish, meta-tahlillar va professional ilmiy sharhlar asosida keng qamrovli tahlilini taqdim etadi. So'nggi statistik ma'lumotlar va ishonchli manbalarga asoslanib, virtual laboratoriyalarning ta'lim tizimiga integratsiyasi haqida aniq dalillar berilgan.

Tabiiy fanlar o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, ilmiy savodxonlik va STEM fanlari bo'yicha ko'nikmalarni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Raqamli texnologiyalar, jumladan virtual laboratoriyalar, an'anaviy laboratoriya tajribalariga o'xshash. Virtual laboratoriyalar resurslar yetishmovchiligi va xavfsizlik muammolari kabi holatlarda qulay yechim bo'la oladi.

Anderson va boshqalar (2018) tomonidan o'tkazilgan tasodifiy tadqiqot sinovi virtual laboratoriyalar va an'anaviy amaliy laboratoriyalar samaradorligini taqqosladi. Tadqiqot natijasida ikkala sharoitda ham o'quvchilar o'rtasida konseptual tushunish va eksperimental ko'nikmalar bo'yicha taqqoslanadigan samaradorlik borligi aniqlandi. Smit va boshqalar (2020) tomonidan o'tkazilgan tadqiqot esa o'quvchilarning faolligi va anatomik bilimlarini yodda saqlab qolish darajasining yaxshilanganligini ko'rsatdi.

Jones va boshqalar (2021) tomonidan o'tkazilgan meta-tahlil turli fanlar bo'yicha virtual va an'anaviy laboratoriyalar natijalarini taqqoslab, konseptual tushunish va ilmiy izlanish ko'nikmalarida taqqoslanadigan yutuqlarni aniqladi. Gomez va boshqalar (2019) hamda Patel va boshqalar (2022) tomonidan o'tkazilgan amaliy tadqiqotlar virtual laboratoriyalarni ta'lim tizimiga integratsiyasi o'quvchilarning motivatsiyasi, darslardagi ishtiroki va ilmiy yutuqlariga sezilarli darajada ta'sir etganligini ko'rsatdi.

Virtual laboratoriyalarning interfaol o'rganish orqali ta'lim tizimi samaradorligini oshirishdagi roli katta. Virtual reallik (VR) va sun'iy intellekt (AR) texnologiyalarining integratsiyasi virtual laboratoriya tajribalarining haqiqiyliги va realligini oshiradi. Biroq texnik infratuzilma, o'qituvchilar malakasini oshirish va o'quv dasturlarini moslashtirish bilan bog'liq muammolar ehtiyotkorlik bilan ko'rib chiqilishi kerak.

Virtual laboratoriyalar o'quvchilarning ta'lim natijalariga ijobiy ta'sir etuvchi raqamli resursdir. Vang va Liu (2020) tomonidan o'tkazilgan meta-tahlil virtual laboratoriyalarning STEM fanlari bo'yicha o'quvchilar bilim darajalariga ta'sirini ijobiy natijalar bilan baholagan. Konstruktivizm va ilmiy bilishga asoslangan ta'lim nazariyalari virtual laboratoriyalarni maktab ta'lim tizimiga integratsiyasi uchun asos bo'ladi. Virtual laboratoriyalar dars muhitida faol ishtirok etish, tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. "Raqamli O'zbekiston 2030: Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va aholining raqamli savodxonligini oshirish bo'yicha milliy strategiya".



2. Anderson, J., Smith, K., & Johnson, L. (2018). A randomized controlled trial comparing virtual labs versus traditional hands-on labs in high school chemistry classrooms. *Journal of Science Education*, 42(3), 215-230.
3. Smith, R., Garcia, M., & Chen, A. (2020). Longitudinal study on the use of virtual dissection simulations in middle school biology classes. *Educational Technology Research & Development*, 68(5), 789-804.
4. Jones, E., Patel, S., & Wang, Q. (2021). Meta-analysis of virtual and physical labs in science education: Comparing learning outcomes and student engagement. *Journal of Educational Technology & Society*, 24(2), 145-162.
5. Gomez, L., Rodriguez, D., & Martinez, E. (2019). Case study: Integration of virtual chemistry simulations in a rural high school setting. *International Journal of Science Education*, 35(4), 521-537.
6. Patel, A., Nguyen, T., & Lee, H. (2022). Case study: Using virtual physics simulations to facilitate inquiry-based learning in an urban middle school classroom. *Journal of Computer Assisted Learning*, 38(1), 102-118.
7. Wang, Y., & Liu, X. (2020). Meta-analysis of the impact of virtual labs on student achievement in STEM subjects. *Computers & Education*, 148, 1-15.

USE OF INTERACTIVE RESOURCES IN TEACHING THE SCIENCE OF "DRY CONSTRUCTION MIXTURES FOR LAYING CEMENT- BASED CERAMIC TILES"

Kriskovets A.G. – Belarusian National Technical University, Assistant, Belarus

Eshqulov N.O' – Jizzakh Polytechnic Institute. Jizzakh, Assistant, Uzbekistan

E-mail: nuriddin142@mail.ru

Axmedov R.A. – Jizzakh Polytechnic Institute. Jizzakh, Student, Uzbekistan

Annotation. *The development of the construction industry, particularly the production of new building materials, products, and structures, can radically change construction systems. When teaching about building materials, it is advisable to use pedagogical technologies, interactive forms, and teaching methods.*

Keywords: *Interactive methods, Active methods, Written and oral Q&A, Publicly available resources, Collective learning, Textbook, Projector, Slide computer*

One of the most critical challenges in the building materials industry is the use of local raw materials and the development of local production of effective cement-polymer adhesive finishing mixtures. These mixtures are based on local and man-made raw materials using water-soluble polymer additives.

Our research focused on developing compositions for finishing buildings and structures using cement-based adhesive mixtures with high adhesive properties. We explored the use of chemical additives to accelerate the hardening process of cement-polymer finishing lime mixtures.

For the selection of cement-based cement-polymer adhesive finishing mixtures, we used:

- Portland cement
- Filler (quartz sand)
- Lime fluff
- Functional chemical additives:
 - Water-retaining additives (cellulose ether)
 - Superplasticizer
 - Water-soluble polymer powder
 - The chemical composition of the starting materials is presented in Table 1.

Table 1.

Chemical composition of raw materials used for the production of cementitious dry building mixes for ceramic tile adhesive

№	Material	Composition of oxides, mass %								
		SiO ₂	Al ₂ O ₃	Fe ₂ O ₃	SaO	MgO	SO ₃	R ₂ O	PPP	total
1.	Portland cement	21,46	5,37	4,67	62,88	1,97	1,55	1,11	0,99	100,0
2	Microcalcite	4,52	2,54	4,25	44,55	1,61	0,09	1,22	39,18	97,96
3	May sand	88,91	3,94	0,65	2,61	0,16	0,09	0,80	0,95	98,11

Functional additives increase water retention, mobility, elasticity, adhesive strength, create a special joint structure and reduce the risk of cracking. Water-retaining additives are added to gypsum mixtures in order to increase water permeability, adhesion to the base, improve mixing, and give the solution mixture the necessary viscosity and flexibility. Various cellulose ethers are used for these purposes. In addition to the water-retaining additive, rheological additives are included in the cement composition, they are called thickeners, which improve the strength of the polymer cement mixture, its

workability, and reduce adhesion to the tool. Starch esters are used in this capacity.

Cement polymer adhesive finishing polymer-based dry mixtures are obtained by homogenizing the starting materials in a drum-type mixer. When developing the formulas, the starting materials were fed to the mixer according to the formula. The process of mixing (homogenizing) the starting materials in a mixer is carried out for 20 minutes. After mixing and homogenization, the material from the bottom of the mixer was poured into a special container. Ready-made cement polymer adhesive dry mixes intended for installation of ceramic tiles and marble tiles were stored in plastic bags.

Create interactive resources technologies “Kungaboqar”.

Students are divided into groups of 4-5 people. Based on the topic of the subject, the teacher throws one problem in the middle. Each group makes a sunflower, places a circle in its center and glues leaves. Depending on the topic, each group or one common problem is written in a circle and glued to the board. During the allotted time, groups together write their thoughts on a leaf and place it on a flower with the problem of that group. This method can be used to explain the topic, reinforce and repeat it, and determine the knowledge acquired by students.

“SWOD-TAHLIL” PEDAGOGICAL TECHNOLOGY

Strong	Opportunity
Weak	Drawback

Conclusion. The use of interactive teaching methods and resources enhances the learning experience in construction materials science. These methods promote active engagement, critical thinking, and collaborative learning among students.

LIST OF REFERENCES

1. Zamonaviy qurilishda quruq qorishmalar. Tahrirlangan V.I.Belana. Novosibirsk: NGASU, 1988. - 89 b.
2. Savelev, A. A. Quruq qurilish qorishmalarini modifikatsiyalashda innovatsion yechim / A. A. Savelev // Quruq qurilish qorishmalari. - 2012. - №4.- 52-53 betlar.

3. Yuxnevskiy P. I. Sement kompozitsiyalarini qo'shimchalar bilan plastiklashtirish mexanizmi to'g'risida // P. I. Yuxnevskiy // qurilish fani va texnologiyasi. – 2010. – № 1–2. – 64-69 betlar.
4. GOST 31377-2008 gips biriktiruvchi ustiga quruq qurilish gips qorishmalari.
5. Makarevich M.S., Kopanitsa I.O. Quruq qurilish qorishmalari sifatini nazorat qilishning texnologik vositasi sifatida to'ldirgichning granulometrik tarkibi // Sifat-XXI asr strategiyasi-VIII xalqaro materiallar ilmiy amaliy konf. Tomsk-2003. - B. 141-142.

MAXSUS FANLARNI O'QITISHDA ELEKTRON TA'LIM RESURLARDAN FOYDALANISH MASALALARI

Mansurov U.N. – Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Tarix fakulteti dekani, t.f.n., professor

Umarqulova K.B. – Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, "Ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu tezisdagi oliy ta'lim muassasalarida maxsus fanlarni o'qitishni axborotlashtirish, elektron ta'lim resurslarini yaratish va ta'lim jarayonida qo'llab bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish sifatini oshirish va mustaqil ta'limni rivojlantirish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Maxsus fanlar, elektron ta'lim resurslari, axborotlashtirish, kasbiy tayyorgarlik, kompetensiya, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ta'lim sifati.

Ma'lumki, kasbiy faoliyat uchun maxsus fanlaridan olingan bilimlar juda muhim, shu bois ham ko'pgina pedagog-olimlar maxsus fanlaridan puxta, mustahkam bilim, ko'nikma va malakalarni egallash muammosiga o'z e'tiborlarini qaratgan. Sanab o'tilgan ishlarda, ko'pgina hollarda tasnif ta'limda elektron axborot resurslarini yaratish, ularning xossalarini sanab berish va joriy qilish muammolariga asoslangan bo'lsa-da, ularni o'qitish metodikasiga qo'yiladigan talablar va joriy qilish muammolari yetarlicha o'rganilmaganligi maxsus fanlarni o'qitishda elektron ta'lim resurslardan foydalanish jarayonini tadqiq etishning dolzarbligini ko'rsatadi.

Jahonning eng ilg'or universitetlari va innovatsion ta'lim markazlarida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (e-learning platforms:



Moodle, Ilias, Dokeos va h.q.) va dasturlari vositasida tashkil etiladigan masofaviy o'quv kurslari o'quvchilarning mustaqil bilish faoliyati samaradorligini oshirish va mehnat bozori talablari darajasidagi raqobatbardosh kadrlar tayyorlash jarayonida elektron ta'lim resurslarini keng qo'llash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi²⁶da "Uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish" ustuvor vazifa hisoblanadi. Shuningdek, fan-texnika va texnologiyalarni rivojlantirish va jahon andozalari talablariga javob beradigan malakali kadrlar tayyorlash tizimini shakllantirish hamda o'qitishda innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etish alohida ta'kidlangan.

Ta'lim mazmunini bosqichma-bosqich o'zgartirib borish dolzarb masalalardan biri bo'lib, elektron interfaol va multimedia majmualarining yangi avlodini ishlab chiqish hamda ulardan samarali foydalanish metodikalarini ta'minlash, shuningdek, mustaqil bilishning yangi turlarini yaratish va tarmoq asosida o'qitish texnologiyalarining didaktik imkoniyatlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, kasbiy faoliyat uchun maxsus fanlaridan olingan bilimlar juda muhim, shu bois ham ko'pgina pedagog-olimlar maxsus fanlaridan puxta, mustahkam bilim, ko'nikma va malakalarni egallash muammosiga o'z e'tiborlarini qaratganlar.

O'quv jarayoni samaradorligini oshirish muammosi shu paytgacha pedagogik jarayonning alohida elementlarini takomillashtirish, o'qish muddatini oshirish, ta'lim oluvchilar sonini kamaytirish, tor ixtisosliklarni kiritish, yangi shakl, metod va vositalardan foydalanishga oid izlanishlarga qaratilgan. Hozirgi paytdagi o'qitishni tashkil etish shakli mustaqil o'rganish ko'nikmasini shakllantirmasligi, ta'lim oluvchilarning shaxsini rivojlantirishga salbiy ta'sir ko'rsatib, ularning keyingi bosqichlarda o'qishni davom ettirish xohishini kamaytiradi.²⁷

Maxsus fanlarni o'qitishda elektron ta'lim resurslarning ma'lum qismi tuzilishi kasbiy pedagogika talablariga, talabalarning darslik bilan mustaqil ishlashiga, ularning bilim va ko'nikmalarini obyektiv baholashga mos kelmaydi. Ushbu kamchiliklarni bartaraf etish, mavjud muammolarni yechishning asosiy yo'llaridan biri ta'lim muassasalari uchun elektron ta'lim resurslar yaratish jarayoni tashkil etish va boshqarishning yagona muvofiqlashtirilgan tizimini

²⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami. – T., 2017. – B.39.

²⁷ Курбанов Ш.Э. Социально-педагогические особенности национальной модели и программы по подготовке кадров. Автореф. дис.... докт. пед. наук. – Т., 2000. – 51 с.



yaratish, ta'lim turlari orasida maxsus fanlar o'quv qo'llanmalarining o'zaro uzviyligi ta'minlashga erishish hisoblanadi. Maxsus fanlardan elektron ta'lim resurslar bilimlarni talabalar tomonidan mustaqil o'zlashtirib olishga hamda amaliy faoliyatga qo'llashga o'rgatishga va ijobiy qobiliyatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi, o'z-o'zini bilimini baholash tizimni qamrab olishi kerak.

Oliy ta'lim muassasalarida maxsus fanlarni o'qitishda elektron ta'lim resurslardan foydalanishning ilmiy-pedagogik asoslarini o'rganish va tizimini ishlab chiqish orqali o'quvchilarning fanlarni samarali o'zlashtirishiga erishish mumkin.

Maxsus fanlardan nazariy bilimlarni elektron ta'lim resurslardan foydalanib o'qitishda o'quv materialini mavzu bo'yicha muammolar qo'yib, oldin o'rganilgan mutaxassislikka oid bilimlarini takrorlash, talaba xotirasidan o'tgan dalillarni faollashtirish yo'li bilan uni yangi texnikaviy mavzuni o'rganishga tayyorlaydi. Pedagogik maqsadlarni qo'yish, mavzuga muvofiq muammoni tanlash, o'rganilgan ta'rif, qoidalarini takrorlash, mexanizmlarni eslatish maqsadlarini aniq tasavvur etadi va mustaqil fikrlashga undaydi.

Yuqoridagilarning aksariyati talabalarga matn o'qish va savollarga javob berishdan ko'ra ko'proq mos keladi. Amaliy mashg'ulotlarga talabalarga muammo yoki vazifani tahlil qilish, yechimini topish va amalga qo'llashni o'rgatish mumkin.

Bugungi kunda maxsus fanlarni o'qitishda quyidagi muammolar mavjud:

- an'anaviy usulda elektron ta'lim resurslaridan foydalanish pastligi;
- ta'lim olishda teskari aloqa yo'qligi;
- maxsus fanlardan elektron ta'lim resurslari bazasi to'liq yaratilmaganligi;
- Elektron ta'lim resurslardan foydalanish uchun sharoit yetarli emasligi;
- Elektron ta'lim resurslardan foydalanib o'qitish uchun aniq metod yo'qligi.

Elektron ta'lim resurslari (ETR) – bu kompyuter texnologiyalari asosida ishlab chiqiladigan va amalga oshiriladigan o'qitish vositalarini birlashtiruvchi eng umumiy atamadir. ETR ning xususiy holati bo'lgan raqamli ta'lim resurslari (RTR) – bu raqamli texnologiyalar asosida yaratiladigan va amal qiladigan ta'lim resurslaridir. Mazkur atamalar orasidagi farq prinsipial bo'lib hisoblanadi, chunki raqamli texnologiyalar – bu bor-yo'g'i axborotni yozib olish va qayta ishlash usulidir. Yozuvlarni raqamli usuldagi tizimigacha analogli tizim mavjud bo'lgan edi. Hozirgi vaqtda bulardan boshqa (kvantli, lazerli va h.k.) tizimlar ishlab chiqilmoqda. Shuning uchun elektron ta'lim resurslari – texnologiyaning bir qismini emas, balki uning butun bir sohasini tavsiflovchi eng umumiy nomlanishi bo'lib sanaladi.

Elektron o'qitish resurslarini, ayniqsa, ularni Internet texnologiyalari asosida yaratish murakkab texnologik va metodik masalani o'rtaga tashlaydi. Bunda elektron o'qitish resurslarini ishlab chiqishdagi juda katta mehnat sarflari ko'pincha ularning tezda eskirib qolishi sababli o'rni qoplanmay qoladi. Lekin shunga qaramay, kompyuterli o'quv-metodik materiallar industriyasi ularga talabning kuchliligi va ijtimoiy ahamiyati kattaligi sababli tobora kengayib bormoqda.

Elektron ta'lim resurslaridagi mavjud axborotlarning foydaliligi shu bilan belgilanadiki, bunda u axborotni oluvchiga o'quv maqsadlariga erishishni qay darajada ta'minlay olishi asosiy jihat bo'lib sanaladi. Mazkur xususiyat miqdoriy o'lcham bilan bog'liqdir, chunki noma'lumlik darajasining olib tashlanganligi qanchalik yuqori bo'lsa, to'g'ri qarorni qabul qilish ehtimoli ham shunchalik yuqori va bundan kelib chiqib, maqsadga erishish ehtimoli ham shunchalik aniqroq bo'ladi. Tabiiyki, axborotning foydaliligi uning intensivligi bilan belgilanadi. Noto'g'ri axborot faqat maqsaddan uzoqlashtiradi va bu bilan axborotning foydaliligi salbiy bo'lib chiqadi.

Elektron ta'lim resurslari muammoli vaziyatlarni yuzaga keltiruvchi masalalar va topshiriqlarni ehtiyoj hamda qiziqish uyg'otilishi lozim. Zamonaviy ta'lim talablari asosida yaratilgan elektron ta'lim resurslar o'qitish samaradorligini oshiradi, o'quvchilarning bilimlarini tizimlashtirishni ta'minlaydi, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi hamda kasbga qiziqishini kuchaytiradi.

Shu nuqtayi nazardan, biz maxsus fanlardan elektron ta'lim resurslarini yaratuvchi mualliflarga o'quv materialini ishlab chiqishda, matnni yoritishda zamonaviy ta'lim texnologiyalari va elektron ta'lim resurslarga qo'yiladigan pedagogik-ergonomik, metodik, didaktik va uslubiy talablarga asoslanishlarini tavsiya etamiz.

Bizningcha, elektron ta'lim resurslarini qo'llash sharoitlarida talabalarni tayyorlash va qayta tayyorlash muammosini hal qilish zarurati pedagogika ta'lim mazmunini modernizatsiyalashtirishdagi quyidagi asosiy yo'nalishlarni amalga oshirishni ko'zda tutadi:

- talabalar tomonidan informatika va axborot texnologiyalari sohasidagi bilimlarning o'rganishi bo'yicha erkin yo'nalish topa olish darajasida o'zlashtirilishi;
- bo'lajak pedagog ixtisoslashadigan o'quv fani sohasiga yo'naltirilganlik bilan ta'limda axborot texnologiyalari bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmalarini rivojlantirishda o'z yaxlit axborot-pedagogik texnologiyasini loyihalashtirish va uni qo'llash tajribasini shakllantirish;
- axborot jamiyatida kishi hayotining ma'naviy asosi sifatida shaxsning tutgan o'rnining ahamiyatini kuchaytirish.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni.// O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami. –T., 2017. – B.39.
2. Кулагин В.П., Найханов В.В., Овезов Б.Б., Роберт И.В., Кольцова Г.В., Юрасов В.Г. Информационные технологии в сфере образования. — М.: Янус-К, 2004. — 248 с.
3. Курбонов Ш.Э. Социально-педагогические особенности национальной модели и программы по подготовки кадров. Автореф. дис.... докт. пед. наук. – Т.: 2000. 51 с.
4. Saidaxmedova N.I., Kurbaniyazov Sh.K. Interrelations of organizational structures in the management process through prospective development strategy of the higher education institution. Galaxy international interdisciplinary research journal (GIIRJ), 2023, 11(12), India, - V.55

ISTE STANDARTLARI ASOSIDA TA'LIM ISHTIROKCHILARINING ZAMONAVIY INTERFAOL RESURSLARDAN FOYDALANISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH IMKONIYATLARI

Muxamadjanov Shaxriyor Solijon o'g'li – Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi bo'limi boshlig'i, PhD

E-mail: shaxri_7700@list.ru

Annotatsiya. Ushbu tadqiqotda ta'lim jarayoni ishtirokchilarining raqamli kompetensiyalari bo'yicha xalqaro standartlar, xususan, ISTE xalqaro tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan standartlar, ularning guruhlanishi tadqiq qilingan. Shuningdek, ushbu tashkilotning ta'lim tizimidagi o'rni, taklif etayotgan ta'lim xizmatlari va loyihalari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiya, ta'lim jarayoni, ta'lim tashkiloti, raqamli kompetensiya, standart, ISTE, o'qituvchi, o'quvchi.

Jahonda ta'lim tizimi jadal rivojlanayotgan raqamli transformatsiya davrida katta o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Bugungi kunda ta'lim jarayoni ishtirokchilarining raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biriga aylanmoqda. Ushbu o'zgarishlarga mos ravishda pedagoglarning zamonaviy kompetensiyalariga oid hujjatlarni o'rganish va



tahlil qilish sifatli ta'lim jarayonini tashkil etishda innovatsiya va ilg'or tajriba uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Zamonaviy o'quvchi ma'lumotni mustaqil ravishda izlab topish, uni tahlil qilish, jamoada ishlash, nostandart va ijodiy yondashuvni talab qiladigan vazifalarni hal qilishda mustaqil bo'lmoqda. Raqamli texnologiyalar zamonaviy ta'lim jarayonini tashkil etishning asosiy komponentlaridan biri bo'lib, ISTE (International Society for Technology in Education – Ta'lim texnologiyalari xalqaro hamjamiyati)ning raqamli kompetensiya standartlarida ham o'z aksini topadi.

ISTE 25 000 dan ortiq olimlar va pedagoglar jamoasidan iborat notijorat tashkilot bo'lib, texnologiyalaridan samarali foydalanish orqali ta'lim tizimini rivojlantirish bilan shug'ullanadi. ISTEning asosiy vazifasi o'quvchilar, o'qituvchilar, ta'lim tashkiloti rahbarlari va murabbiylari uchun raqamli kompetensiyasining xalqaro standartlarini ishlab chiqish va targ'ib qilishdan iborat. Ushbu standartlar raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va ta'lim sifatini samaradorligini oshirishda o'qituvchilar, ta'lim tashkiloti rahbarlari va murabbiylari uchun yo'riqnoma sifatida xizmat qiladi. Shu bilan birga, ISTE quyidagi ta'lim xizmatlari va loyihalarni amalga oshiradi:

raqamli kompetensiyani shakllantirish bo'yicha vebinar va onlayn kurslar tashkil etish, konsultatsiya xizmatlari, uslubiy qo'llanmalar va ishlanmalar chop etish;

ISTE Live: ta'lim texnologiyalari bo'yicha turli tadbirlar, davra suhbatlari va konferensiyalarni tashkil etish;

ISTE sertifikat: ISTE standartlari asosida raqamli pedagogika ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan o'quv kurslar (dasturlari)ni va turli ta'lim platformalar hamda raqamli resurslarni baholash orqali sertifikatlash. Shu bilan birga, ISTE tomonidan tashkil etilgan kurslarda ishtirok etgan tinglovchilarga sertifikat taqdim etish;

ta'limda sun'iy intellekt: o'qituvchilarga ta'lim jarayonida sun'iy intellektdan foydalanishni o'rgatish bo'yicha kurslarni tashkil etish, qo'llanmalar va maqolalar chiqarish;

algoritmik fikrlash: o'quvchilarda algoritmik fikrlashni rivojlantirish;

raqamli fuqaro: internet va boshqa tarmoqlarda xavfsizlik hamda odob-axloq qoidalariga amal qilishni o'rgatish;

ta'lim texnologiyalarini baholash va foydalanishni kengaytirish: sifatli ta'lim texnologiyalarini baholash, sertifikatlash va keng foydalanishni yo'lga qo'yish;

ta'limda STEAM: ISTE standartlarini STEAM ta'limiga joriy etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.



ISTE standartlari to'rtta guruhdan iborat bo'lib, har birida o'quvchi, o'qituvchi, ta'lim tashkiloti rahbari va murabbiyning raqamli kompetensiya bo'yicha 26 ta standartdan iborat to'plamni o'zida aks etadi.

Tadqiqotimizda ta'lim jarayonining asosiy ishtirokchilari hisoblangan o'quvchi va o'qituvchi bo'yicha standartlar to'g'risida to'xtalmoqchimiz.

O'quvchiga tegishli guruhda 7 ta standart yoritilgan bo'lib, unda:

1. O'rganishga intiluvchan shaxs

O'quvchi zamonaviy ilmiy asoslangan yondashuvlarga tayangan holda, o'zining ta'lim maqsadlarini va ularga erishish vositalarini ongli ravishda tanlashda texnologiyalardan faol foydalanadi.

2. Raqamli jamiyati fuqarosi

O'quvchi o'zining hayoti, o'qishi va boshqa jarayonlardagi raqamli jamiyat fuqarosi sifatidagi huquqlari, majburiyatlari va imkoniyatlarini tushunadi, raqamli axborot va texnologiyalardan xavfsiz foydalanish hamda axloqiy va huquqiy me'yorlarga rioya qiladi.

3. Voqelikni tanqidiy baholovchi shaxs

O'quvchi o'z bilimlarini shakllantirish, ijodiy faoliyat, mustaqil va hamkorlikdagi ta'lim jarayonida foydalaniladigan raqamli resurslarga tanqidiy yondashadi.

4. Yangi bilimlarga ochiq shaxs

O'quvchi uning oldida turgan masalani o'rganish va yechim ishlab chiqishning barcha bosqichlarida turli xil texnologiyalardan foydalanish orqali innovatsion, nostandart va samarali yechimlarni taklif etadi.

5. Algoritmik va muhandislik tafakkuriga ega shaxs

Masalalarga yechim topishda o'quvchi zamonaviy texnologiyalarning imkoniyatlaridan samarali foydalanishga imkon beruvchi tanqidiy fikrlash strategiyalaridan foydalanadi.

6. Boshqalar bilan ijodiy muloqotga ochiq shaxs

O'quvchi muhokama qilinayotgan masalalar bo'yicha o'z fikr va mulohazalarini to'g'ri va ravshan ifoda etadi, muloqot maqsadlariga erishish uchun eng mos raqamli platformalar, vositalar va media resurslardan foydalangan holda axborotni taqdim etishga ijodiy yondashadi.

7. Hamkorlikda va jamoada ishlashga qodir shaxs

O'quvchi o'z ta'lim maqsadlari doirasini kengaytirish va istiqomat qilayotgan davlati hamda xorijdagi tengdoshlari bilan hamkorlik orqali tajribasini boyitish uchun raqamli vositalardan foydalanadi.

Shuningdek, o'quvchiga tegishli guruhda 7 ta standart yoritilgan bo'lib, quyidagilarni aks etadi:

1. Malakali mutaxassis

O'qituvchi uzluksiz ta'lim olish bilan bir qatorda boshqalar bilan hamkorlikda o'z mahoratlarini doimiy ravishda oshirib boradilar hamda ta'lim



jarayonini yanada samarali tashkil etish maqsadida tajriba-sinovdan muvaffaqiyatli o'tgan raqamli texnologiyalar bilan bog'liq metodikalardan samarali foydalanadi.

2. O'z jamoasi lideri

O'qituvchi liderlik fazilatlariga ega shaxs sifatida o'z hamkasblarini ta'lim jarayonini optimallashtirish va o'quvchilarni rag'batlantirish uchun texnologiyalardan samarali foydalanish yo'llarini izlashga yo'naltiradi.

3. Raqamli jamiyat fuqarosi

O'qituvchi o'quvchilarni raqamli jamiyat rivojiga ijobiy hissa qo'shishga yo'naltiradilar va ularda ijtimoiy mas'uliyat tuyg'usini shakllantirishga ko'maklashadi.

4. Ta'limni hamkorlikda tashkil etuvchi

O'qituvchi onlayn ta'limni rivojlantirish, o'qitish usullarini takomillashtirish, tegishli onlayn resurslarni qidirish va ommalashtirish, fikr almashish va ta'lim muammolarini hal qilish uchun hamkasblar va o'quvchilar bilan hamkorlik qiladi.

5. Pedagogik dizayn bo'yicha mutaxassis

O'qituvchi hozirgi zamon talablariga javob o'quv-uslubiy materiallarni ishlab chiqadi, o'zgaruvchanlikni ta'minlaydigan va individual ta'lim yo'nalishlarini yaratishga imkon beradigan ta'lim muhiti va jarayonini tashkil etadi.

6. Yo'naltiruvchilar

O'qituvchi o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash va ularga ta'lim standartlarida belgilangan bilim va ko'nikmalar darajasiga erishishda yordam berish uchun raqamli texnologiyalardan foydalangan holda ta'lim olish jarayonini monitoring qiladi. O'qituvchi:

7. Ta'lim tahlilchisi

O'qituvchi ma'lumotlarni olish va tahlil qilish orqali ta'lim jarayonini optimallashtiradi hamda o'quvchilarga eng yaxshi ta'lim natijalariga erishishda yordam beradi.

Bizning tadqiqotimiz davomida respublikada ISTE standartlari va ularni O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari bo'yicha o'rganishlar olib borilmaganligi aniqlandi.

Hozirgi kunda Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik ISTE bilan quyidagi yo'nalishlarda hamkorlikni yo'lga qo'yish bo'yicha ishlar boshlagan, xususan:

ISTE standarti bo'yicha o'qituvchilar uchun kurslar tashkillashtirish;

o'quvchilarda algoritmik fikrlash ko'nikmasini rivojlantirish bo'yicha o'qituvchilar uchun kurs tashkil etish;



o'qituvchilar uchun sun'iy intellektdan foydalanish bo'yicha kurslar tashkil etish hamda ta'lim jarayoniga sun'iy intellektni joriy qilish konsepsiyasi ishlab chiqishda hamkorlik qilish;

ta'limda texnologiyalardan samarali foydalanish bo'yicha maslahat va treninglar, turli mavzularda vebinarlar va onlayn kurslar o'tkazish;

O'zbekistonda o'qituvchilar uchun ISTE sertifikatini olish imkoniyatini yaratish;

har yili o'tkaziladigan ISTE Live konferensiyasida ishtirok etish va o'zaro tajriba almashish;

mavjud kurslar, standartlar qo'llanma va boshqalarni tarjima qilish.

Ta'lim ishtirokchilarining raqamli kompetensiya bo'yicha standartlar aynan shu ko'rinishda O'zbekiston ta'limiga bevosita joriy etish uchun mo'ljallanmagan. Lekin ularni muhim ma'lumot manbai, ilm-fan va ta'lim hamjamiyatini birlashtiruvchi, shuningdek, raqamli texnologiyalardan foydalanish bo'yicha ta'lim jarayoni ishtirokchilarining kompetensiyalari qanday bo'lishi kerakligi bo'yicha kelishuvga erishish yo'lida boshlang'ich nuqta bo'lishi mumkin. ISTE standartlarini mahalliy ekspertlar ishtirokida tahlil qilib, uni davlat standartiga moslashtirilgan holda ta'lim tizimida tadqiq etish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Alenezi, A. "Obstacles for teachers to integrate technology with instruction", Education and Information Technologies, 2017. Vol. 22 No. 4, pp. 1797-1816
2. Hummel B. What Are ISTE Standards? (And Why Do They Matter?) Share This Article. Business, Marketing, Finance, IT & Media. 2024. <https://www.icevonline.com/blog/what-are-iste-standards>
3. El Fadil, B. "High school technology design process – goals and challenges", International Journal of Arts & Sciences, 2015. Vol. 8 No. 6, pp. 109-116
4. ISTE tashkilotining rasmiy sahifasi. <https://iste.org>



ZAMONAVIY DARS SHAKLINI YARATISHDA O'QUV FILMLARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Niyozova Gulhayo Erkinovna – Navoiy viloyati
PYMO'MM Metodik xizmat ko'rsatish bo'limi
ona tili va adabiyot fani metodisti

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy dars shaklini yaratishdagi o'quv filmlarining roli, o'quvchilarda xalqaro tadqiqotlar ko'nikmasini shakllantiruvchi usullar, o'qituvchi va o'quvchilardagi stressni oldini olish maqsadida erkin ta'lim shaklini hosil qilish hamda xalqaro ta'limda "madaniy tanaffuslar" haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: xalqaro tadqiqotlar, o'quv filmlari, multiplikatsion vositalar, integrativlik, 4k modeli, kreativlik, kritik fikrlash, kollaboratsiya, kommunikatsiya.

O'quv filmlaridan foydalanish jahonning barcha mamlakatlaridagi sinflarda tobora ommalashib borayotgan o'qitish vositasiga aylanmoqda. O'quv filmlari, shunchaki, o'yin-kulgidan iborat bo'lmay, ular g'oyalar, his-tuyg'ular va hikoyalarni yetkazish uchun kuchli vosita bo'lib xizmat qiladi. Ta'limiy filmlarni darslarda integratsiyalashgan holda olib kirish, o'qituvchilar va o'quvchilarning vizual hikoya qilishi uchun tabiiy yaqinligini oshiradi, dinamik va interaktiv o'rganish tajribasini yaratadi.

O'quv filmlari-ta'lim jarayonida qo'llaniladigan, muayyan mavzu bo'yicha o'quvchilarga bilim beradigan filmlardir.

Dars jarayonida o'quv filmlaridan, multiplikatsion vositalardan foydalanish ta'lim sifatini oshiribgina qolmay, o'quvchining bir tushunchaga turli rakurslardan baho berishga o'rgatadi. Ko'rayotgan har bir voqea-hodisani har tomonlama o'rganib xulosalay olish ko'nikmasi shakllanib boradi. Shuning bilan bir qatorda, sog'lom ijodiy muhitni shakllantirib, o'quvchilarga milliy g'oya va umuminsoniy g'oyalarni singdirishga, ta'lim-tarbiya jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, o'quv laboratoriya jihozlari, elektron darsliklar va o'quv filmlaridan foydalanishga, o'quvchilarni dars jarayonida mavzuga oid darsliklar, qo'shimcha adabiyotlar va internet resurslari bilan ishlashga, nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'liq holda tushuntirishga erishish mumkin.

Turli animatsion ta'lim roliklari o'quvchilar diqqatini o'ziga tortadi, bolada fanga, mavzuga qiziqishni uyg'otadi, chunki an'anaviy o'qitish usullaridan chekingan holda innovatsion ta'lim shaklidan foydalaniladi. Harakatlanuvchi tasvirlar, tovushlar va hikoyalar kombinatsiyasi aql va his-tuyg'ularni rag'batlantiradigan ko'p hissiy tajribani yaratishi mumkin. Ushbu immersiv



tajriba o'quvchilarga mavzu bilan chuqurroq bog'lanish imkonini beradi, bu esa o'quv jarayonini yanada mazmunli va esda qolarli qiladi.²⁸

Statistik ma'lumotlarga yuzlanadigan bo'lsak, professor va samaradorlik bo'yicha ekspert Kel Nyuport o'z izlanishlari davomida muntazam ravishda "madaniy tanaffuslar" qilish, masalan, ish vaqtida kino yoki teleko'rsatuvlarni tomosha qilishni maslahat beradi. Bu nafaqat charchashni kamaytiradi, balki ijodiy fikrlashni ham rag'batlantirishini ta'kidlaydi. Shuningdek, o'quvchilarda ham dars davomida ta'limiy rolklarni qo'yib berish ta'lim sifatini va samaradorligini oshiribgina qolmay, ularda hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishda, muammoning faqat yozma ko'rinishini emas, balki media ko'rinishida ko'rib, unga munosabat bildirishni ta'minlaydi. Shuningdek, o'quvchilarimizdagi xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik darajasini ham oshirishga birmuncha xizmat qiladi.

2001-yilda birinchi PISA imtihon natijalari e'lon qilinganida, Finlandiya o'z ta'lim tizimi dunyodagi eng yaxshisi ekanligini bilib hayratda qoldi. Ular juda yumshoq yondashuvlarga rioya qilganlar: natijada o'qituvchilar va bolalarning stressini kamaytirishga erishganlar. Bu mamlakatda bolalar ham, o'qituvchilar ham o'quv jarayonidan zavq olishlari uchun hamma narsa qilingan. Bu Finlandiyada eng qimmatli hisoblanadi va bu yerda yutuqlar faqat ikkinchi o'rinda turadi.²⁹


Kanadada esa mediasavodxonligi quyidagi ta'rifga ega: "Media ta'lim – bu shaxslarning mediasavodxon bo'lib, tanqidiy tushunish qobiliyatiga ega bo'lish jarayonidir".

Gonkongda mediasavodxonlik yoshlarga tanqidiy tushunish, tahlil qilish, foydalanish va ta'sir qilish imkonini beradigan hayotiy ko'nikma sifatida ta'riflanadi. Yuqorida qayd etilgan ma'lumotlarga ko'ra, darsning qaysidir qismida ta'limiy media vositalaridan foydalanish ta'limning rang-barang shaklini hosil qilib, mavzularni yengil tushunishga, o'quvchi hamda o'qituvchini stressdan xasol bo'lishiga, nazariy olgan bilimlarini amalda ko'rib tahlil qilishida muhim manba hisoblanadi. Shuningdek, zamonaviy dars shaklini tuzishda ham o'quv filmlaridan foydalanish ahamiyati katta.

²⁸ <https://editmentor.com/blog/the-benefits-of-teaching-film-in-the-classroom/>

²⁹ Timoti Uoker: Finlandiya ta'lim mo'jizasi

Zamonaviy dars shakli



- A sog'lom ijodiy muhitni shakllantirish; o'quvchilarga milliy g'oya va umuminsoniy g'oyalarni singdirish;
- B ta'lim-tarbiya jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, o'quv laboratoriya jihozlari, elektron darsliklar va o'quv filmlaridan foydalanish;
- B o'quvchilarni dars jarayonida mavzuga oid darsliklar, qo'shimcha adabiyotlar va internet resurslari bilan ishlashga yo'naltirish, nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'liq holda tushuntirish;
- C dars bosqichlari uchun vaqtni to'g'ri taqsimlash; o'quvchi shaxsini rivojlantirishga hamda o'zaro faol munosabatlarga asoslash;
- D o'tgan va navbatdagi mavzularni mantiqiy ketma-ketlik va o'zaro bog'liq holda o'qitishni inobatga olish.

Quyidagi QR kodlar orqali bir nechta ta'limiy roliklar bilan tanishish mumkin. Roliklarning davomiyligi 2 daqiqadan oshmasligi, qaysidir maqsadni ilgari surishi hamda zamonaviy ko'nikmalarni o'quvchilarda shakllantirishi lozim.

Ta'limiy videoroliklar

Kreativlik	Kritika	Kommunikatsiya	Kollaboratsiya
			
Hayotda mavjud muammolarga yechim	Bir tushunchani boshqa rakursdan	Muvaffaqiyatga Erishishda to'g'ri	Muammolarga jamoaviy tarzda yechim
topa olish	baholash	Muloqotni yo'lga qo'yish	topish

- <https://www.woolmark.com/environment/>
- <https://youtu.be/ZtHZyJTfvHc?si=U5HYQIm3MiRDtjY0>
- <https://youtu.be/WN18kGdPHzk?si=Wvuhfja2fWl7LgCY>
- https://youtu.be/VJcLH6Y2NsY?si=sG3gSr6eU1Z0_xG1
- <https://youtu.be/HeI3LeOci0U?si=GgXLfDWPYiB5esGI>
- <https://youtu.be/yyX6UULJEic?si=BWbTZtW5FkKobFZF>
- https://youtu.be/mWZ6b_l-Djq?si=Xik9Illa2iU5995
- <https://youtu.be/MeKUW8w9frg?si=LBrhpZVfX5TL-iv4>
- <https://youtu.be/JAdTjHsOid0?si=3EG-0qxgdSpUbeZa>
- <https://youtu.be/R-7lxzHNA-M?si=bxcyo-Yj7s6rJynB>



Ushbu linklar orqali fanlar hamda mavzular doirasidagi o'quv filmlari taqdim etilgan bo'lib, o'quvchilar ularni tahlil qilishda rakursni turli tomonlarga qaratib, bir tushunchaga har tomonlama baho berishni o'rganish barobarida fanlarni kasblar, real hayot bilan integratsiya qilish ko'nikmalarini o'zlarida shakllantirib borishadi. Natijada o'quvchilarda tadqiqotchilik ko'nikmalari rivojlanadi, loyiha ishlarini amalga oshirish bo'yicha tushunchalar paydo bo'ladi va eng asosiysi, tanqidiy-tahliliy, kreativ fikrlash qobiliyatlari yaxshilanadi, kollaboratsiya va kommunikatsiyani to'g'ri hamda samarali yo'lga qo'yish ko'nikmalari shakllanadi.

Bir so'z bilan aytganda zamonaviy ta'lim shaklini yaratishda o'quv filmlari, mediavositalardan foydalanish yaxshi natija beradi. Birinchi galda, raqamli transformatsiya jarayonida yoshlardan talab qilinayotgan AKT savodxonligi, yaratuvchanlik ko'nikmalari hamda 4k modeli shakllanadi. Nazariyani amaliyot bilan bog'lash darslarning qiziqarli bo'lishini ta'minlaydi.

MULTIMEDIA VOSITALARI VA RAQAMLI TA'LIM RESURSLARINI YARATISH TEKNOLOGIYALARI

Sadikov Rustamjon – Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Multimedia texnologiyalari kafedrası, PhD

E-mail: magistr_uz@bk.ru

Abidova Shaxnoza — Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Multimedia texnologiyalari kafedrası, PhD, dotsent

Bugungi rivojlanib kelayotgan bir davrda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanmagan hplda zamonaviy axborot jamiyati talablariga javob beradigan ta'lim jarayonini tasavvur qilib bo'lmaydi. Bilamizki, bugungi kunda multimedia texnologiyalari ko'plab sohalarga kirib bordi. Shu jumladan ta'lim sohasida ham multimedia texnologiyalaridan keng qo'llanilmoqda.

Zamonaviy o'quv jarayonini multimedia texnologiyalarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Multimedia texnologiyasi o'qituvchilar, talabalar va o'quv dasturlari o'rtasidagi o'zaro ta'sirni kuchaytirish va o'rganishni yanada dinamik, davomiy va sinfdan tashqari dunyo uchun ko'proq qo'llashning innovatsion usullari orqali ta'lim tajribasini oshiradi.



Multimedia texnologiyalari — bu turli xil ma'lumotlarni qayta ishlash, saqlash va uzatish jarayonlari, usullari to'plamidir.

Multimedia texnologiyalari ko'p turli vositalarni (matn, rasm, ovoz, video va animatsiya) birlashtirgan holda axborotni etkazish uchun foydalaniladigan texnologiyalardir.

So'nggi paytlarda multimedia texnologiyalarining rivojlanishi bilan inson faoliyatining turli sohalarida multimedia taqdimotlaridan foydalanish tobora ommalashib bormoqda. Multimedia taqdimotlari nafaqat biznes aloqasining zamonaviy uslubiga, balki har qanday turdagi ma'lumotlarni taqdim etishning yaxshi shakliga aylandi.

Ta'lim jarayonida multimedia vositalaridan keng foydalanib kelinmoqda. Masalan taqdimot, ko'rgazmali materiallar, elektron darsliklar v.h.lar.

Multimedia vositalari — bu tovush, video, grafika, matnlar, animatsiya va boshqalardan foydalanib, kompyuter bilan muloqotda bo'lishga imkon beruvchi texnik va dasturiy vositalar majmuidir.

Multimedia vositalarini ta'lim jarayonida qo'llash bir qator afzalliklarga ega:

a) berilayotgan materiallarni chuqurroq, va mukammalroq o'zlashtirish imkoniyati bor;

b) ta'lim olishning yangi sohalar bilan yaqindan aloqa qilish ishtiyoqi yanada ortadi;

v) ta'lim olish vaqtining qisqarish natijasida, vaqtni tejash imkoniyatiga erishish;

g) olingan bilimlar kishi xotirasida uzoq muddat saqlanib, kerak bo'lganda amaliyotda qo'llash imkoniyatiga erishiladi.


Ya'ni bugungi kunda an'anaviy ta'lim tizimidan farqli ravishda dars jarayonlarida ma'ruzalar taqdimot ko'rinishida amalga oshirilmoqda. Bunda talabalar bir vaqtning o'zida ma'ruzani tinglashlari, ko'rishlari mumkin bo'ladi.

Multimedia taqdimoti matnli materiallar, fotosuratlar, chizmalar, tovushlar, videokliplar va animatsiya, uch o'lchamli grafiklarni o'z ichiga olishi mumkin bo'lgan dasturdir. Ushbu vositalarning kombinatsiyasi tufayli bu ma'lumotni taqdim etishning amalda eng samarali shakli hisoblanadi. Taqdimotlar turli maqsadlarga erishish va tashkilotlar va kompaniya mahsulotlarini taqdim etishdan tortib interaktiv video ekskursiyalar va turli sovg'a nashrlarigacha bo'lgan turli funksiyalarni bajarish uchun ishlab chiqilgan.

Microsoft PowerPoint. Microsoft PowerPoint taqdimotlar yaratish bo'yicha dunyodagi eng mashhur dasturlardan biridir. U keng ko'lamdagi vositalar va shablonlar bilan ta'minlangan bo'lib, o'qituvchilar va talabalar uchun ta'lim materiallarini tayyorlashda katta yordam beradi. PowerPoint

slaydlar yaratish, grafiklar va diagrammalar qo'shish, audio va video materiallarni kiritish imkonini beradi.

Axborot berish uslubiga ko'ra taqdimotlarni quyidagicha tasniflash mumkin.



1-rasm. Axborotni tasniflash turlari

Google Slides. Google Slides bulutli taqdimot dasturi bo'lib, foydalanuvchilarga istalgan joyda va istalgan qurilmada taqdimotlar yaratish va ularga kirish imkonini beradi. Bu dastur hamkorlikda ishlash imkoniyatini taqdim etadi, ya'ni bir nechta foydalanuvchi bir vaqtda bir taqdimot ustida ishlashi mumkin. Google Slides intuitiv interfeys va keng ko'lamdagi shablonlar bilan ta'minlangan.

Prezi. Prezi an'anaviy slayd taqdimotlardan farqli ravishda, dinamik va interaktiv taqdimotlar yaratish imkonini beradi. Prezi yordamida foydalanuvchilar ma'lumotlarni bir butun kinematik tarzda taqdim etishlari mumkin. Bu taqdimot dasturi talabalar diqqatini jalb qilish va ma'lumotlarni tushunarliroq qilishda katta yordam beradi.

Taqdimot dasturlarining ta'limdagi afzalliklari quyidagilardan iborat.

Vizual ta'lim. Taqdimot dasturlari vizual ta'lim uchun juda muhimdir. Slaydlar yordamida ma'lumotlarni grafikalar, diagrammalar, rasmlar va videolar orqali tushuntirish mumkin. Bu esa talabalar uchun ma'lumotlarni osonroq tushunish va eslab qolish imkonini beradi. Vizual materiallar talabalar diqqatini jalb qiladi va ta'lim jarayonini qiziqarliroq qiladi.

Abstrakt tushunchalarni tushuntirish. Qiyin va abstrakt tushunchalarni tushuntirishda taqdimotlar juda foydali. Diagrammalar, grafikalar va

animatsiyalar yordamida murakkab mavzularni tushuntirish osonroq bo'ladi. Masalan, kimyo yoki fizika kabi fanlarda murakkab reaksiyalar yoki jarayonlarni tushuntirish uchun animatsiyalar va grafikalar katta yordam beradi.

Tashkiliylik va tizimlilik. Taqdimot dasturlari yordamida o'qituvchilar o'z darslarini yaxshiroq tashkil eta oladilar. Slaydlar orqali darsning rejasi va asosiy nuqtalari aniq ko'rsatiladi, bu esa talabalar uchun ma'lumotlarni osonroq idrok qilish imkonini beradi. Taqdimotlar yordamida ma'lumotlarni mantiqiy va tizimli ravishda taqdim etish mumkin.

Rivojlangan reja va strukturali darslar. Taqdimotlar o'qituvchilarga darslar uchun rivojlangan reja va struktura yaratish imkonini beradi. Har bir dars uchun aniq reja va struktura tuziladi, bu esa darslarni rejalashtirish va o'tkazishni osonlashtiradi. Talabalar darsning maqsadini va asosiy nuqtalarini yaxshiroq tushunishadi.

Interaktivlik. Interaktiv taqdimotlar talabalar diqqatini jalb qilish va ularga ta'lim jarayonida faol ishtirok etish imkonini beradi. Taqdimot dasturlari yordamida o'qituvchilar interaktiv testlar, savol-javoblar va muhokamalar o'tkazishlari mumkin. Bu esa talabalar uchun ta'lim jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi.


Jonli munozaralar va hamkorlik. Taqdimotlar jonli munozaralar va hamkorlikni rag'batlantiradi. Talabalar dars davomida o'z fikrlarini bildirishlari va bir-birlari bilan muloqot qilishlari mumkin. Bu usul talabalar orasida hamkorlik va jamoaviy ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

O'quvchilarga ta'lim berish jarayonida animatsion jarayonlaridan foydalanish samaradorligi ko'plab tadqiqotlar va amaliy tajribalar orqali isbotlangan. Animatsiya ta'lim jarayonida murakkab jarayonlarni va tushunchalarni tushuntirishga, qiziqish uyg'otish va o'quvchilarni jalb qilish uchun kuchli vosita bo'lishi mumkin. Quyida ta'limda animatsiya jarayonlaridan foydalanishning asosiy afzalliklari va samaradorligi haqida sanab o'tishimiz mumkin.

Animatsiya murakkab va abstrakt tushunchalarni vizual tarzda tushuntirish imkonini beradi. Masalan, fizikada atomlarning harakatini yoki biologiyada hujayra bo'linishini va kimyo fanlarini animatsiya yordamida tushuntirish ancha oson va samarali bo'ladi.

2-rasm. Kimyoviy molekulalarning 3D animatsion tasviri

Animatsiya ta'lim jarayonida o'quvchi tushunishi kerak bo'lgan mavzularni jonli va qiziqarli qiladi, bu esa o'quvchilarning darsga bo'lgan





qiziqishini oshiradi. Rang-barang va dinamik animatsiyalar o'quvchilarning diqqatini jalb qiladi va ularda o'rganishga bo'lgan motivatsiyani kuchaytiradi.

Animatsion jarayonga audio effektlarini qo'llash esa o'quvchilarni eshitish orqali axborotni olishi va xotirasida materialning uzoq muddat saqlanishiga yordam beradi. Animatsiyalar ko'rish va eshitish sezgilari orqali axborotni etkazib berishda, o'quvchilarning ta'lim samaradorligini oshiradi.

Animatsion taqdimotlar o'quvchilarning mustaqil o'z ustilarida shug'ullanish imkonini beradi. O'quvchilar materialni o'zlariga qulay bo'lgan vaqtda ko'rishlari, to'xtatishlari va qayta ko'rishlari mumkin bo'ladi. Bu esa o'z-o'zidan o'rganish jarayonini yanada samarali qiladi.

Xulosa

Raqamli ta'lim resurslari, xususan, taqdimotlar, zamonaviy ta'lim jarayonida katta ahamiyatga ega. Ular vizual ta'limni samarali amalga oshirilishini ta'minlaydi, ma'lumotlarni tizimli va tushunarli taqdim etadi, interaktivlikni oshiradi va ta'lim resurslarini boyitadi. Taqdimotlar yordamida o'qituvchilar ta'lim jarayonini yanada qiziqarli, samarali va shaxsiylashtirilgan qilishlari mumkin. Bu usullar orqali ta'lim sifatini oshirish va talabalar bilimlarini mustahkamlash imkoniyati yaratiladi. O'quv jarayonida animatsiyalardan foydalanish matematika va fizika, kimyo va biologiya bo'yicha murakkab tushunchalarni osonroq tushunishga yordam beradi hamda animatsiyalar orqali turli mavzularni qiziqarli tarzda taqdim etish imkonini beradi. Tadqiqotlar natijalariga ko'ra animatsiyalardan foydalangan darslar an'anaviy darslarga qaraganda 30% ko'proq samarali bo'lgan. Animatsiyalar vizualizatsiya orqali o'quvchilarning diqqatini jalb qilish va ularning xotirada saqlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi isbotlangan. Animatsion taqdimotlardan to'g'ri va samarali foydalanish ta'lim jarayonini ancha boyitadi va o'quvchilar uchun qiziqarli va samarali o'qish muhitini yaratadi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. F. A. Alisherov, X. A. Bahriyeva Kompyuterli animatsiya o'quv qo'llanma Aloqachi, 2019. — 254 b. — Adabiyotlar: b.206.
2. Sh.A.Abduraxmanova Elektron ta'lim resurslarini yaratish texnologiyalari // Darslik Toshkent 2022. — 285b.
3. Tursunov S.Q. Ta'limda elektron axborot resurslarini yaratish va ularni joriy qilishning metodik asoslari. Monografiya. -T.: Adabiyot uchqunlari, 2018.
4. Бердиева С.М., Имомова Ш.М. Использование инновационных технологий на уроках информатики// Наука, техника и образование. 2018. № 10. С. 28-31.
5. Norova , F. F. (2024). Ta'limiy raqamli resurslarni yaratish texnologiyalari. Educational Research in Universal Sciences, 3(6), 4–13.



ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ВИДЕО ДАРСЛИКДАН ФОЙДАЛАНИШ ТАЪЛИМ СИФАТИНИ ОШИРИШ ОМИЛИ

Ибрагимов Жавоҳир Аҳмад ўғли – Гулистон давлат университети, Ахборот технологиялари ва физика-математика факультети, Математика йўналиши 2-босқич талабаси

E-mail: ibragimovjavohir65@gmail.com

Аннотация. *Замонавий таълим тизимида ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланиш ўқув жараёнини самарали ташкил этиш, таълим сифатини ошириш ва инновацион ёндашувларни жорий этишда муҳим ўрин тутди. Ушбу аннотация видео дарсликлардан таълим жараёнида фойдаланиш масалаларига бағишланган. Мақолада видео дарсликларнинг таълим сифати ва самарадорлигини оширишдаги ўрни ёритилган. Жумладан, видео дарсликлар ўқувчиларнинг фанларга бўлган қизиқишини ошириш, мавзуларни чуқур ва ҳолис ўрганишларига имкон берадиган кўرғазмали воситалар сифатида намоён бўлади. Шунингдек, видео дарсликлар таълим жараёнига инновацион ёндашувларни жорий этиш, масофавий ўқитиш тизимини ривожлантириш ва ўқувчиларнинг мустақил таълим олиш кўникмаларини ошириш учун самарали восита бўлиши таъкидланган. Бундай ёндашувлар ўқув жараёнини сифат жиҳатидан яхшилашга, таълим мазмуни ва шакллари оптималлаштиришга ҳисса қўшади.*

Калит сўзлар: *Таълим сифати, инновацион технологиялар, ахборот-коммуникация технологиялари, видео дарсликлар, кўрғазмалилик, масофавий ўқитиш, мустақил таълим, қизиқишни ошириш, таълим жараёни самарадорлиги.*

Таълим тизимида ахборот технологияларининг татбиқ этилиши таълим сифати ва самарадорлигини ошириш имкониятларини яратди. Жумладан, электрон кутубхоналар ва адабиётларнинг пайдо бўлиши ўқувчиларга кенг қамровли ахборот манбаларига эришишни таъминлади. Бироқ, электрон адабиётлардан фойдаланишда айрим ноқулайликлар кузатилмоқда, хусусан, компьютер монитори олдида узоқ вақт ўтириш муаммолари юзага келмоқда. Ушбу муаммоларни ҳал этишда видео-маърузалар ва видеодарслардан фойдаланиш муҳим аҳамият касб этади. Видео ресурслар ўқувчиларнинг ўқув материалларни кўрғазмали, қизиқарли ва самарали ўрганишларига имкон беради. Шу тариқа, таълим жараёнида замонавий ахборот технологияларидан фойдаланиш таълим



сифати ва самарадорлигини ошириш, инновацион ёндашувларни жорий этиш учун етарли шароитлар яратади.

Сўнгги йилларда турли технологияларни видеолар, аниқроғи, видеодарслар орқали ўрганиш тобора одат бўлиб бормоқда. Сабаби маърузаларни видео шаклда ёзиш муаммо бўлмай қолди. Бунинг учун бир қанча технологияларни билиш кифоядир. Шунинг учун видеодарслар орқали ўрганиш оммавий тус олмоқда.

Ўзбекистон таълим тизимида ҳам улардан фойдаланилмоқда. Видеодарслар орқали ўрганиш жуда осон ва тез самара беради ҳамда ихтиёрий инсон ўз билимларини видео форматида ёзиб бошқаларга ўргатиш имконига эга бўлади. Эндиликда кўплаб қалин ва айрим тушунарсиз китобларни ўқишга вақт сарфланмайди. Уларнинг ўрнини видеодарслар эгаллайди.

Бироқ ҳамма ҳам сифатли ва фойдали видео-маърузалар ва видеодарсларни ярата олмайди. Айтиш мумкинки, ҳозирги кунда турли хил веб-технологияларни, операцион тизимларини ўргатувчи видео-маърузалар мавжуд. Уларнинг аксарияти рус ва инглиз тилида, шу боис, ўзбек тилида видео-маърузаларни яратиш долзарб масалалардан биридир. Веб-дастурлаш соҳаси бўйича Adobe Dreamweaver CC4 дастурини ўргатувчи мултимедияли ўқитиш тизими яратилган. Уларнинг мавжуд аналогларидан фарқи шундаки, видеодарслар тўлиқ ўзбек тилида яратилган. Фойдаланувчи менюси имкон даражасида соддалаштирилган.

Мултимедияли таълим тизимини яратишда бир қатор жараёнларни бажариш керак, жумладан, таълим соҳасини танлаш ва зарур фанларни таҳлил қилиш, видеодарслар ёзишга мўлжалланган дастурлар орасидан энг яхшисини танлаш, видеодарсларни ёзиш ҳамда монтаж қилиш ва бошқалардан иборат. Видеодарсларни ёзадиган дастурлар бир нечтадир. Улардан **Webinaria, UltraVNC Screen Recorder, Captivate, BB FlashBack Express, Camtasia Studio, Jing** кабиларни алоҳида ажратиб кўрсатиш мумкин. Улар компьютер экранидаги ҳаракатлар, микрофондан овозларни ёзади ҳамда компьютерлар тушунадиган видео файллар форматига ўгириб беради. Бу воситалардан **Camtasia Studio** дастури ўзининг интерфейси, жуда кўплаб форматлари, видео файлларга турли хил белгилар ва изохлар қўйилиши, дарсларга менюлар ҳосил қилиниши билан ажралиб туради, шунингдек, бу дастур ёрдамида аудио файлларни ҳам яратиш мумкин. Дарс ёзиш давомида экраннинг керакли жойини алоҳида ажратиб кўрсатиш имкони ҳам мавжуд. Ана шу афзалликлари туфайли видеодарслар ёзувчи дастур сифатида **Camtasia Studio** танланди.


Camtasia Studio дастури тўртта ёрдамчи қисмлардан иборат: **Camtasia MenuMaker, Camtasia Player, Camtasia Theater** ва **Camtasia**

Recorder. Дастурнинг асосий қисми, шубҳасиз, **Camtasia Recorder** ҳисобланади. Барча дарслар айнан шу дастур ёрдамида яратилди. **Camtasia Studio** дастури ойнасининг пастки қисмида timeline деб номланувчи ишчи столи мавжуд бўлиб, у орқали аудио ва видео файллар устида турли хил амалларни бажариш мумкин. Булар жумласига файлларни бир-бирига боғлаш, кераксиз қисмларни қирқиб ташлаш кабилар киради. Асосий ойнанинг марказида дастур ишлаши мумкин бўлган файллар рўйхатини кўрсатувчи «Корзина клипов» (Clip Bin) қисми жойлашган. Шу файлларни ўнг тарафдаги видеоплеерда кўриш мумкин. Бу кичкинагина **Camtasia Player** дастури фақатгина битта вазифани бажаради - AVI файлларини намойиш этади.

Бугунги кунда деярли барча соҳанинг электрон қўлланмалари мавжуд. Бироқ ахборотнинг инсонларга нафи тексагина фойдали бўлади. Шундай экан, мултимедияли ўқитиш тизимлари тайёрлашда ҳам ана шу жиҳатга эътибор қаратиш зарур. Зеро бугунги кунда бирор-бир мавзу ёки технологияни ўрганишнинг бундан осонроқ усули мавжуд эмас.


Умуман олганда ҳам эшитиб ҳам кўриб ўрганиш жуда қулай ҳисобланади. Шуни инобатга олган ҳолда ушбу мақолада **“Camtasia Studio”** дастури имкониятларидан фойдаланиб **“Оперцион тизимларни”** ўргатувчи видео маърузаларни яратиш ҳақида тушунча ва тавсиялар келтирилган.

1-расм. Camtasia Studio
дастурини
муҳаррирининг умумий
кўриниши.



Camtasia Studio дастури асосида яратилган дастурий маҳсулотдан фойдаланиш жуда ҳам қулай ҳисобланади. Яъни .avi кенгайтмали файлни медиаплейерда ишга тушириб операцион тизимларда видео-маърузани намойиш этилаётган машғулоти такрорлаб бажариш имконини беради.

Ушбу кетма-кетлик орқали қолган барча машғулотлар бажарилади. Яратилган видео-маърузаларни битта меню остида бирлаштирилган. Унинг кўриниши қуйидагича:



2-расм. Camtasia Studio дастури асосида яратилган видео маъруза

Видео-маърузани хоҳлаган жойда тўхтатиб қўйиб амалий машғулотларни бажариш ва шу тариқа такроран бажариш мумкин. Видео-маърузада эффектлардан фойдаланиш талабаларга, берилаётган буйруқларни ўқиб бажариш имкониятларини беради.

Хулоса қилиб шуни айтиш керакки, таълимни модернизация ва ислоҳ қилиш жараёнлари олий таълим тизимида яққол намоён бўлади. Бу ерда дарс бериш жараёнида янги технологиялар таълим сифатини ошириш мақсадида доимий равишда жорий этиб борилиши зарур. Ўз-ўзидан равшанки, таълим тизимини ислоҳ қилиш жараёни мамлакатда амалга оширилаётган ижтимоий-иқтисодий ислохотларнинг зарурий омили ҳисобланади ва доимий характерга эга. Бу жараёнда олий таълим сифатини таъминлашда илғор хорижий тажрибалар ва модулларни татбиқ этиш устувор вазифалардан бири бўлиб қолиши жуда муҳимдир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Н.А.Каюмова «Ахборот технологиялари фанидан электрон ўқув адабиётларини яратиш ва фойдаланиш методикаси. Педагогик таълим. -Тошкент, 2006й.- №1.- Б.29-31.
2. Ишанова, Д. (2020). Таълим жараёнида ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланишнинг самарадорлиги. *Фан ва технология*, 3(2), 45-52.
3. Холмирзаев, А., & Умаров, Б. (2021). Масофавий таълимда видео ресурсларнинг ўрни ва аҳамияти. *Таълим ва ривожланиш*, 4(1), 87-94.
4. Жўраев, Р., & Хусанов Ш. (2022). Таълим сифатини ошириш йўллари: инновацион технологиялар ва ёндашувлар. *Ўзбекистон таълими*, 6(3), 23-31.

5. Мавлонов, У., & Тўраев, А. (2019). Ўқув жараёнида замонавий интерфаол технологиялардан фойдаланиш. Таълим ва ривожланиш, 2(4), 54-61.
6. Акрамов, Б., & Рустамова, Г. (2021). Видео дарсликлар ва уларнинг таълим сифатига таъсири. Ахборот технологиялари, 5(2), 78-85.
7. Эшонкулов, Х., & Ҳакимов, Д. (2020). Масофавий таълимда замонавий ахборот технологияларидан фойдаланиш. Фан ва таълим, 4(1), 67-74.
8. Холмирзаев, А., & Назаров, М. (2022). Видео материалларни таълим жараёнига интеграциялаш. Ўзбекистон таълими, 8(2), 41-48.

III. RAQAMLI TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH: MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR

DATA SCIENCE SOHASINING MAKTAB TA'LIMIDAGI AHAMIYATI

Baxriddinova O'g'iloy – Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Fizika-matematika fakulteti talabasi
E-mail: baxriddinova2004@gmail.com

Annotatsiya. Hozirgi vaqtda kibermakonda juda katta hajmdagi ma'lumotlar jadallik bilan yaratilmoqda. Ma'lumotlar tabiati (barcha ma'lumotlar kiberfazoda) ma'lumotlar portlashi tufayli shakllanmoqda. Shu sababli "Data Science" deb nomlangan yangi fan kirib kelmoqda.

Kalit so'zlar: Data science, Artificial Intelligence, Machine learning, Deep learning, Big data, Data science.

Hozirgi vaqtda eng qimmat va kerakli narsa bu ma'lumot bo'lib qoldi. Ma'lumotlarni o'rganib, xulosa chiqarish uchun esa alohida bir fan bor. Bu – Data science. Buni o'zbekchada ma'lumotlar ilmi deb tarjima qilish mumkin. Data science ma'lumotlar bilan ishlashda ilmiy usullarni qo'llagan holda ma'lumotlarni tahlil qilish va unga asoslanib to'g'ri va optimal xulosa chiqarishga yordam beradi. Olimlar biror kashfiyotni aniqlashdan oldin turli ma'lumotlarni yig'ishadi va eksperimentlar qilishadi. Turli xatolik va kamchiliklarni o'rganib keyin xulosa chiqarishadi. Xulosa chiqarish qismida esa yana boshqa mutaxassislar kerak bo'ladi. Ilgari ma'lumotlarni analiz qilib, xulosa chiqarishni matematiklar va statistika mutaxassislari bajarishgan. Hozirgi kunga kelib esa buni sun'iy intellekt bajara boshladi va bu samarali ekanligi isbotlandi. Ob-havo ma'lumotini oldindan aytib beradi, Youtube bizga videolar uchun tavsiya beradi, Facebook ham boshqa odamlar uchun do'st



bo'lishni tavsiya qiladi. Bular barchasi sun'iy intellekt va ma'lumotlar ilmi (Data science) yordamida amalga oshiriladi. Bu sohada faoliyat yurituvchilarni data scientist deb nomlashadi. Hozirgi zamonda bu kasb egalariga talab kuchayib bormoqda.

“Data science fani” atamasi 20-asr oxiri va 21-asr boshlarida kirib kela boshladi.

Ta'limda Data science (ma'lumotlar fani) juda muhim bo'lib, turli sohalarda muhim ahamiyat kasb etmoqda:

1. Ma'lumotlar tahlili va qaror qabul qilish: Data science ta'lim muassasalariga ta'lim oluvchilar haqidagi ma'lumotlarni tahlil qilish va shu asosda qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Masalan, ta'lim oluvchilarning o'qish natijalari, qatnashuv ko'rsatkichlari va boshqa ma'lumotlar tahlil qilib, individual yondashuvlar ishlab chiqadi.

2. O'qitish usullari va dasturlarni optimallashtirish: Data science yordamida o'qitish usullari va o'quv dasturlari samaradorligi o'rganilishi mumkin. O'qitish usullarining samaradorligi haqida aniq ma'lumotlarga ega bo'lish o'quv dasturlarini takomillashtirishga yordam beradi.

3. Ta'lim oluvchilarning ehtiyojlarini aniqlash: Data science ta'lim oluvchilarning individual ehtiyojlarini aniqlash va ularga moslashtirilgan ta'lim resurslari va qo'llab-quvvatlash xizmatlarini taqdim etish imkonini beradi. Bu esa o'quvchilarning o'qishdagi muvaffaqiyatlarini oshiradi.

4. Prognoz qilish va xatolarni oldini olish: Ta'lim oluvchilar qaysi sohalarda qiyinchilikka duch kelayotganini prognoz qilish va shunga ko'ra oldini olish choralarini ko'rish mumkin. Masalan, ba'zi ta'lim oluvchilar qaysi fanlarda qiyinchiliklarga duch kelishini aniqlash va ularni qo'llab-quvvatlash uchun maxsus dasturlar ishlab chiqadi.

5. Ma'lumotlarga asoslangan ta'lim siyosati: Ma'lumotlar asosida ta'lim siyosatini belgilash va amalga oshirish muhim. Bu orqali ta'lim tizimini yanada samarali va adolatli qilish mumkin.

6. Ilmiy tadqiqotlar va rivojlanish: Data science ta'lim sohasidagi ilmiy tadqiqotlar uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish va ular asosida ilmiy ishlar olib borish ta'lim sohasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Masalan: ilmiy ish yakunida “Antiplag.com” sayti orqali qanchalik shaffof ekanligini tekshirish mumkin.

Umuman olganda, Data science ta'lim tizimining samaradorligini oshirish, individual yondashuvlarni joriy qilish va ta'lim jarayonini optimallashtirishda katta rol o'ynaydi.

Informatika fani doirasida o'quvchilarga Data science o'rgatishning ahamiyati.

1. O'quvchilarda zamonaviy ko'nikmalarni shakllantirish: Data science zamonaviy dunyoda juda muhim bo'lib, o'quvchilarga bu sohadagi asosiy



tushunchalar va ko'nikmalarni o'rgatish ularning kelajakdagi mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshiradi.

2. Muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirish: Data science muammolarni tahlil qilish, ularni yechish va qaror qabul qilish jarayonini o'z ichiga oladi. Bu o'quvchilarga real hayotda duch keladigan muammolarni hal qilishda yordam beradi.

3. Tanqidiy va mantiqiy fikrlash: Ma'lumotlarni tahlil qilish va ulardan natijalar chiqarish o'quvchilarning tanqidiy va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu ko'nikmalar nafaqat informatika, balki boshqa fanlar va hayotning turli sohalarida ham foydali bo'ladi.

4. Katta ma'lumotlar bilan ishlash qobiliyati: Katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlash ko'nikmasi hozirgi kunda juda talabgir. Data science orqali o'quvchilar katta ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish va ulardan foydalanuvchi dasturlar yaratishni o'rganadilar.

5. Texnologiyaga oid bilimlarni kengaytirish: Data science informatika fanining turli sohalarini o'z ichiga oladi, jumladan, dasturlash, statistika, mashinani o'rganish (machine learning), sun'iy intellekt va ma'lumotlar bazasi. Bu orqali o'quvchilar zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni o'rganadilar.

6. Amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim: Data science ko'pincha amaliy masalalar va loyihalarga asoslangan o'qitishni talab qiladi. Bu esa o'quvchilarga nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash imkonini beradi.

7. Interfaol o'qitish: Data science mavzulari interfaol va qiziqarli usullar bilan o'rgatilishi mumkin, bu esa o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

8. Fanlararo aloqalar: Data science boshqa fanlar bilan ham uzviy bog'liq. Masalan, biologiya, ijtimoiy fanlar, iqtisodiyot va tibbiyot kabi sohalarda Data science keng qo'llaniladi. Bu esa o'quvchilar uchun fanlararo aloqalarni o'rganish va ularni amaliyotga tatbiq etishda yordam beradi.

Informatika fanida "Data science"ni o'rgatish nafaqat ta'lim oluvchilarning texnik va analitik ko'nikmalarini rivojlantiradi, balki ularga kengroq dunyoqarash va zamonaviy dunyoda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan bilim va malakalarni beradi.

Data science bo'yicha o'quvchilarga nimalarni o'rgatish kerak?

Data science sohasini o'quvchilarga o'rgatishdan avval, dasturlash asoslari, algoritmlar va ma'lumotlar tuzilmasini o'quvchilarga o'rgatish zarur. Keyin esa o'quvchilar bu sohaga kirib borgandan so'ng ko'pgina terminlarga duch keladi. Ularning asosiylari quyidagilar:

1. *Artificial Intelligence*
2. *Machine learning*
3. *Deep learning*
4. *Big data*

5. Data science

Bular juda yaqin, lekin boshqa-boshqa sohalar. Bularni boshidanoq o'quvchilarga farqini o'rgatib, ajratib olish uchun tushuncha hosil qilishlariga yordam berish kerak. O'quvchilar bu sohalarni ajratib olib, vazifalarini bilishgan bo'lsa ham Data science haqida tushuncha hosil qilishlari qiyin bo'ladi. Chunki, bu dasturda biror bir kod yozib ulgurishmagan bo'lishadi. Kodni esa informatika darsligiga bog'lagan holda Python dasturlash tilida yozishni o'rgatishimiz kerak. "Data science"ni maktabda qanday o'qitish kerak? Umumiy o'rta ta'lim maktablarida Data science texnologiyasiga doir bilim va ko'nikmalarni o'quvchilarga turli usullarda o'rgatish mumkin. Bular:

A. Bosqichma-bosqich

Boshlang'ich daraja (elementar daraja)

- *Asosiy tushunchalar: Ma'lumotlar, diagrammalar, oddiy statistikalar (o'rta qiymat, mediana, moda).*
- *Qiziqarli faoliyatlar: Masalan, o'quvchilar sevimli fanlari yoki sport turlari haqida ma'lumot to'plash va diagrammalar tuzish.*

O'rta daraja

- *Oson dasturlash: Scratch yoki Blockly kabi vizual dasturlash tillari orqali ma'lumotlarni tahlil qilish.*
- *Amaliy loyihalar: Sinfdagi ob-havo ma'lumotlarini tahlil qilish yoki o'quvchilar bo'sh vaqtlar jadvalini yaratish.*

Yuqori daraja

- *Statistik tahlil va dasturlash: Python tilidan foydalanib, oddiy statistik tahlillarni bajarish.*
- *Murakkab loyihalar: Ma'lumotlar to'plamini tahlil qilish va natijalarni taqdim etish. Masalan, maktabning olimpiada natijalari, kitobxonlik ma'lumotlari yoki ekologik tadqiqotlar.*

2. Integratsiya qilish

- *Matematika va statistika darslari: Data science uchun zarur bo'lgan asosiy matematik va statistik tushunchalarni o'qitish.*
- *Fanlar va ijtimoiy fanlar: "Data science"ni biologiya, geografiya, tarix kabi fanlarga integratsiya qilish. Masalan, biologiya darsida ekologik ma'lumotlarni tahlil qilish yoki tarix darsida demografik ma'lumotlarni o'rganish.*

3. Dasturlash va texnologiya

- *Kodlash darslari: Python dasturlash tilida ma'lumotlar tahlil qilishni o'rgatish.*
- *Amaliy mashg'ulotlar: Notebook yoki Google Colab orqali amaliy mashg'ulotlar o'tkazish.*

4. Loyihalar va qiziqarli faoliyatlar



- *O'quvchilar loyihalari: O'quvchilarga real dunyo ma'lumotlarini tahlil qilish imkoniyatini beruvchi loyihalar. Masalan, maktabdagi chiqindilarni qayta ishlash dasturini yaratish.*

- *Qiziqarli tanlovlar: Data science bo'yicha tanlovlar o'tkazish.*

5. Ko'nikmalarni rivojlantirish

- *Kritik fikrlash: Ma'lumotlarni tahlil qilish orqali o'quvchilar tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish.*

- *Jamoaviy ish: Loyihalar va mashg'ulotlarni guruhlarda bajarish orqali jamoaviy ish ko'nikmalarini oshirish.*

6. O'qituvchilarni tayyorlash

- *Professional rivojlanish: O'qituvchilarni Data science va dasturlash bo'yicha treninglarga jalb qilish.*

- *Resurslar: Data science o'qitish uchun zamonaviy resurslar va materiallar bilan ta'minlash.*

Maktablarda "Data science"ni samarali o'qitish uchun mazkur yondashuvlar va amaliyotlar kombinatsiyasi orqali o'quvchilarni zamonaviy dunyo uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar bilan ta'minlash mumkin.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, hozirgi zamonda axborot kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanib borar ekan, "Data science" va sun'iy intellektga talab ortib boraveradi. Shuning uchun maktab o'quvchilariga "Data science" haqida tushuncha berib, bu haqida ularda qiziqish paydo qilish va kelajakda "Data science"dan foydalana olishlari uchun, bu sohada faoliyat yuritishlari uchun juda muhim hisoblanadi. O'quvchilar kelajakda jamiyatdan ajralmagan holda zamonaviy texnologiyalardan foydalana olishlari va kasb tanlashda ham bu kabi sohani chetlab o'tmasliklari uchun informatika darslari ko'magida "Data science"ni o'rgatishimiz kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Cao, LP. B. & Yu, S. (2009) Behavior Informatics: An Informatics Perspective for Behavior Studies. IEEE Intelligent Informatics Bulletin 10(1), pp 6-11.
2. Cleveland, W. S. (2001) Data Science: An Action Plan for Expanding the Technical Areas of the Field of Statistics. International Statistical Review 69(1), pp 21-26.
3. Rustamov, B. N. (2022). Big Data: katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish tamoyillari. Science and Education, 3(4), 178-182.
4. Tomi Mester. What is Science?. Data 36, pp 12-18. 2022.



DIFFICULTIES AND PROSPECTS OF FOREIGN LANGUAGE DISTANCE LEARNING

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna –
O'zbekiston davlat jahon tillari
universiteti professori, DSc

Umirova Dilnoza Ismoilovna –
Samarqand davlat chet tillari instituti
mustaqil izlanuvchi doktoranti

Annotation. *The combination of distance learning and emerging computer technologies has brought many benefits to the field of education. In practice, however, the combination frequently falls short of the goals it sets out to achieve. Some of the flaws are due to technological issues, while others are related to administration, teaching methods, or students. Despite the issues, many users appreciate technologies like compressed video and anticipate continued growth in the field. This paper will look at some of the most recent research and ideas about the benefits, drawbacks, and future possibilities of modern distance learning, particularly that which is delivered through electronic means.*

Keywords: *Correspondence courses, compressed video, drawbacks, tremendous promise, enrollment, physical building space.*

We must first examine how the term has been defined in the past and how it is currently defined in the literature before we can discuss distance learning. The term can be applied to a variety of learning scenarios. Distance learning has been around for well over a century, even though it is regarded as a new term. Correspondence courses, which were pioneered in Europe, were one of the first forms of distance learning. Until the mid-twentieth century, when instructional radio and television became more popular, this remained the primary method of distance learning. The definition of distance learning has evolved as technology has. For the past two decades, videotaped lectures have been standard in university and professional courses. For a long time, audiotapes and lessons sent through the mail have been used in correspondence courses to teach subjects like a foreign language. Today, the Internet and compressed video have taken distance learning to new heights, allowing for real-time distance learning. In the United States, live video instruction is the most popular and fastest-growing delivery method.

We need a definition that fits all situations because the history of distance learning encompasses so many different learning environments. Many definitions have been proposed in recent literature. "A planned teaching/learning experience that uses a wide spectrum of technologies to



reach learners at a distance and is designed to encourage learner interaction and certification of learning," says Greenberg. The term "distance learning" has been applied to a variety of instructional methods, according to Teaster and Blieszner, "but its primary distinction is that the teacher and the learner are separated in space and possibly time." The most comprehensive definition is provided by Desmond Keegan. Distance education and training, he claims, are the result of the technological separation of teacher and learner, which relieves students of the need to travel to "a fixed place, at a fixed time, to meet a fixed person, to be trained." We can see that the student and teacher are separated by space, but not necessarily by time, based on these definitions. Compressed video provided in real-time falls under this category. As previously said, live video instruction is now the fastest-growing kind of distant learning. As a result, a large portion of this debate will focus on the technology's benefits and drawbacks.

Many of distant learning's promises are monetary. Universities aspire to save money by providing education to students who cannot attend classes due to time or distance. According to the hypothesis, class size grows but overhead stays constant. According to Burton Bollag and Martha Ann Overland's 2001 paper, developing nations are resorting to state-run distance education programs to fill the void left by rising enrollments and a lack of physical building space. Beijing, Jakarta, and South American countries like Brazil and Argentina have all begun to adopt remote learning approaches to reach individuals who would otherwise be inaccessible. According to Bollag and Overland, nations such as China are shifting from "elite to popular education," and "conventional colleges are unable to fulfill demand". China serves 1.5 million students, two-thirds of whom are enrolled in a degree program, using a radio and television distribution system.

Distance learning makes a tremendous promise in terms of convenience in terms of time and geography. Students do not need to be physically present in a location with the instructor, and they are not required to be there in time, depending on the approach utilized. This is a huge benefit for non-traditional students who are unable to attend classes during the day. Satellite campuses, such as those recently established by Arkansas State University, are attracting a "hidden market" of adult students in small communities and recent high school graduates who may not want to go to a larger metropolis to further their education. The satellite campuses might potentially assist the school's enrolment to more than tenfold increase. Despite the apparent benefits and promises of distant learning, some issues must be addressed. These issues include the quality of learning, hidden expenses, the abuse of technology, and the attitudes of teachers, students, and administrators. Each of them has an impact on the overall quality of distance learning as a product. Each of these



concerns is related to the others in a variety of ways. We will look at each of these difficulties independently.

As technology improves and becomes more widely used, the price will fall. We've already seen improvements in compressed video and computer-assisted instruction delivery systems. Despite the difficulties that students face with remote learning, research shows that they are generally happy with what they get. In a survey of Indiana University of Pennsylvania students, 75 percent said they were extremely happy with their lectures, and 90 percent said the technology was good. Harner also researched a University of Connecticut online learning accounting course. They discovered that 57.5 percent of those who took the course said they would take it again. Two additional outcomes were largely positive, with suggestions for how to enhance the course. The first indicated that the professors should be more at ease with the medium and that students should be given more direction on how to properly use the presentation.

The second demonstrated that students were extremely happy with the teachers and the course, but that direct engagement with the instructor had little effect on their contentment. Instructors appear to be one area that needs rapid attention. According to the literature, teachers' teaching approaches must be adapted to the distant learning format. Keegan demonstrates a variety of effective strategies for instructors to better prepare for the classroom, including the use of multimedia, speaking voice, and font size concerns. Instructors must also recognize and regard the technician as an essential component of the distance learning experience. Because the technician's job is unclear or there is a shared notion of a difference in status between the two, opinions and communication between the technician and the teacher are frequently not exchanged. Instructors must be inspired to appropriately prepare for lessons. The administration and their support of the program must bear some of the burdens for motivation. "Administrators must offer teachers with the time, resources, and training to handle these new obligations since teaching a remote learning class is a new responsibility for them." Instructors must be trained and educated on their position and how to deal with the problems. Sherritt discovered in her study of higher education administrators that "for whatever reason, higher education administrators and policymakers realize the need for technology."

They cannot, however, bring themselves to support remote education with appropriate people, modest supplies, and a realistic operational budget because they lack the passion for it. This kind of approach from the administration can only hurt the instructors and students. When embarking on a distance education program, administrators must carefully assess their aims and objectives. Despite its shortcomings, distant learning appears to have

a promising future. The necessity for the "comprehensive and intelligent evolution of remote education if it is to become the educational paradigm of the future" is underscored by the growing number of students enrolling in distance learning programs. Despite the high expense, planning, and training required, it offers "huge promise to transmit and receive educational programs to and from remote areas." Perhaps Keegan explains it best: "the task is to build cost-effective and educationally-effective methods for use in the new century of new technologies that allow for the first time in history (electronic) instruction of pupils face-to-face at a distance."

LIST OF REFERENCES

1. Bollag, B., & Overland M.A. (2001). Developing countries turn to distance education. *Chronicle of Higher Education*, 47 (40), 29-31.
2. Carr, S. (2001). Union publishes guide citing the high cost of distance education. *Chronicle of Higher Education*, 47 (35), 39-41.
3. Dervarics, C. (2001). Support builds for distance learning. *Community College Week*, 14 (1), 3-5.
4. Dibiase, D. (2000). Is distance education a Faustian bargain? *Journal of Geography in Higher Education*, 24 (1), 130-136.
5. McKnight, M. (2000). *Distance education: Expressing emotions in video-based classes*. Paper presented at the Annual meeting of the Conference on College Composition And Communication, Minneapolis, Minnesota. (Eric Document Reproduction Service No. ED 441 270).
6. Savoye, C. (2001). Distance Learning with a twist-real campus. *Christian Science Monitor*, pp. 15, 21.

TA'LIMGA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARNI JORIY ETISHDA O'QITUVCHILARNING AKT KOMPETENSIYASI

Berdimurodov Shohjaxon Alisher o'g'li –
Nizomiy nomidagi, Toshkent davlat
pedagogika universiteti talabasi

Annotatsiya. Bu maqola ta'lim sohasida o'qituvchilar uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan (AKT) foydalanish kompetensiyasining ta'limga raqamli texnologiyalarni integratsiyalash jarayonlarida ahamiyatini o'rganishga bag'ishlangan. Maqola o'qituvchilar uchun AKT foydalanish kompetensiyasining rivojlantirilishi va tashkil etilishi muhimligini belgilab chiqadi. Shuningdek, maqola o'qituvchilarning yangi texnologiyalarni



o'rganish va ularni darslarda muvofiqlashtirishda rivojlanayotgan eng yaxshi amaliyotlarni ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiyalar, AKT kompetensiyasi, integratsiya, ta'lim muhitida innovatsiyalar, o'zaro muvofiqlashtirish.

Bugungi kunda ta'lim sohasiga raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayoni global tendensiyaga aylangan. O'qituvchilarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) kompetensiyasi bu jarayonning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga muvaffaqiyatli integratsiya qilish, o'qituvchilarning pedagogik mahoratini yangi bosqichga ko'tarishni talab qiladi. Buning uchun esa, avvalo, o'qituvchilarning AKT kompetensiyasi darajasini aniqlash va rivojlantirish muhimdir. AKT kompetensiyasi faqat texnik bilim va ko'nikmalarni emas, balki raqamli vositalarni didaktik jihatdan to'g'ri qo'llash qobiliyatini ham o'z ichiga oladi. Bu esa o'qituvchilarga zamonaviy o'quv metodlarini tatbiq etishda katta yordam beradi. Shu nuqtayi nazardan, birinchi navbatda, o'qituvchilarni texnologik yangiliklar bilan tanishtirish, ularga amaliy mashg'ulotlar va treninglar tashkil etish lozim. Bunda nafaqat kompyuter savodxonligi, balki pedagogik dizayn va ta'lim texnologiyalaridan foydalangan holda o'quv materiallarini yaratish ko'nikmalariga ham alohida e'tibor qaratilishi kerak. Ta'lim muassasalari rahbariyati va ta'lim tizimini boshqaruvchi organlar tomonidan o'qituvchilarning AKT bo'yicha malakasini oshirish uchun maxsus dasturlar ishlab chiqilishi va muntazam ravishda amalga oshirilishi zarur. O'qituvchilarni AKT kompetensiyasini oshirish jarayonida uchraydigan asosiy qiyinchiliklardan biri bu texnologiyalarga bo'lgan psixologik qarshilikdir. Ko'plab o'qituvchilar yangi texnologiyalarni o'zlashtirish jarayonida o'zlarida ishonchsizlik his qilishi mumkin. Shu sababli trening va seminarlar nafaqat texnik ko'nikmalarni, balki motivatsiya va psixologik tayyorgarlikni ham qamrab olishi kerak. Bundan tashqari, AKT kompetensiyasini rivojlantirishda o'qituvchilar uchun qulay va foydalanishga yengil raqamli platformalar va resurslarni taqdim etish muhimdir. Bu platformalar o'qituvchilarga o'quv materiallarini osongina yaratish, saqlash va taqdim etish imkonini berishi lozim. Masalan, onlayn o'qitish platformalari, interaktiv taqdimot vositalari va elektron kitoblar kabi resurslar o'qituvchilarning pedagogik jarayonda raqamli texnologiyalarni samarali qo'llashiga yordam beradi. To'liq rivojlangan AKT kompetensiyasi o'qituvchilarga ta'lim jarayonini diversifikatsiya qilish, individual yondashuvlarni amalga oshirish va o'quvchilarning bilim olish jarayonini interaktiv va qiziqarli qilish imkonini beradi.

Raqamli texnologiyalar hayotimizning ko'p sohalarida integratsiya qilingan va raqamli texnologiyalarsiz hayotimizni tasavvur qila olmaymiz. Shu jumladan, bu o'zgarishlarning asosiy sabablari ta'limga raqamli texnologiyalarning joriy etilishi va o'qitish jarayonlariga integratsiyasi muhim



o'rin egallaydi. AKT kompetensiyasi o'qituvchilarga quyidagi yo'nalishlarda yordam beradi: texnologiyalarni integratsiya qilish, interaktiv ta'lim vositalaridan foydalanish, kreativlik va kommunikatsiya, muvofiqlashtirish va boshqa ta'limda ko'plab ustuvorliklarni ta'minlaydi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim jarayonida integratsiyalash strategiyalarida quyidagi ketma-ketlikdan foydalanish muhim ahamiyatga ega:

1. Tahlil qilish:
 - O'qituvchilarning va o'quvchilarning AKT bo'yicha hozirgi darajasini aniqlash.
 - Ta'lim jarayonida texnologiyalarning qanday qo'llanilishi kerakligini bilish.
2. Maqsadlar va vazifalarni belgilash:
 - AKTni ta'lim jarayoniga integratsiyalashning aniq maqsadlarini belgilash.
 - Maqsadlarga erishish uchun zarur vazifalarni aniqlash.
3. Resurslarni aniqlash va ta'minlash:
 - Texnik resurslar (kompyuterlar, planshetlar, interaktiv doskalar, internet tarmog'i)ni ta'minlash.
 - Pedagogik resurslar (elektron darsliklar, onlayn kurslar, ta'lim platformalari)ni taqdim etish.
4. O'qituvchilarni tayyorlash:
 - O'qituvchilar uchun AKT bo'yicha treninglar va seminarlar tashkil etish.
 - O'qituvchilarga texnologik yangiliklar va ularni didaktik jihatdan qo'llash bo'yicha bilim va ko'nikmalarni oshirish.
5. Pedagogik strategiyalarni ishlab chiqish:
 - Raqamli texnologiyalardan foydalanishni o'quv rejalariga kiritish.
 - Ta'lim jarayonida texnologiyalarni qo'llash uchun yangi pedagogik metodlarni ishlab chiqish.
6. Texnologik infratuzilmani yaratish:
 - Ta'lim muassasalarida zarur texnologik infratuzilmani yaratish va yangilash.
 - AKT tizimlarini barqaror ishlashini ta'minlash uchun texnik qo'llab-quvvatlash xizmatlarini tashkil etish.
7. Sinov:
 - AKTni ta'lim jarayonida qo'llashning dastlabki natijalarini sinab ko'rish.
8. Natijalarni tahlil qilish va moslashtirish:
 - Integratsiya jarayonining natijalarini tahlil qilish va tahlil natijalaridan kelib chiqib baholash.



- Aniqlangan kamchiliklar va muammolarni bartaraf etish uchun strategiyani moslashtirish.

9. Davomiy monitoring va rivojlanish:

- AKTni ta'lim jarayoniga integratsiyalash jarayonini doimiy ravishda kuzatib borish.
- Yangi texnologik imkoniyatlarni ta'lim jarayoniga qo'shish va mavjud strategiyani yangilab borish.

Ushbu ketma-ketlikni izchil amalga oshirish, ta'lim jarayoniga AKTni muvaffaqiyatli integratsiyalash va uning samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

O'qituvchilarning AKT kompetensiyasi, axborot texnologiyalarini qo'llab-quvvatlash, ularni o'quv jarayoniga integratsiya qilish va ta'lim sifatini oshirish uchun foydalanish qobiliyati hisoblanadi. Bu kompetensiyaga ega o'qituvchilar, raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish, ta'lim jarayonini innovatsion usullar bilan tuzish, talabalar bilan muntazam muloqot o'rnatish va ta'lim resurslarini yaratishda yuqori saviyada ishlay oladi. AKT kompetensiyasiga ega o'qituvchi quyidagi ko'nikmalarga ega bo'ladi:

1. Zamonaviy dars rejalarini tuzishda va darslarni tashkil etishda AKT vositalaridan foydalana oladi:

- O'qituvchilar darslarni rejalashtirishda interaktiv doskalar, taqdimotlar va raqamli darsliklardan foydalanadi.
- Dars jarayonida audio va video materiallardan foydalangan holda mavzuni tushuntirishda turli xil usullarni qo'llaydi.
- Virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalar yordamida mavzuni chuqurroq o'rganish imkoniyatini yaratadi.

2. Talabalar bilan samarali muloqot o'rnatadi va ularga individual yondashuvni amalga oshiradi:

- Onlayn platformalar va ijtimoiy tarmoqlar orqali talabalar bilan muntazam aloqada bo'lib, ularning savollariga javob beradi.
- Har bir talabaning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda individual yondashuvlarni qo'llaydi va o'quv jarayonini moslashtiradi.
- Masofaviy ta'lim imkoniyatlarini qo'llab-quvvatlaydi va talabalar bilan onlayn darslar o'tkazadi.

3. Ta'lim resurslarini yaratish va ulardan foydalanishda yuqori saviyada ishlay oladi:

- O'qituvchilar o'z fanlari bo'yicha raqamli o'quv materiallarini, jumladan, elektron darsliklar, taqdimotlar, video darslar va interaktiv mashqlarni yaratadi.
- Talabalar uchun onlayn testlar va baholash vositalarini ishlab chiqadi va ularning yutuqlarini raqamli platformalar orqali kuzatadi.

- Raqamli ta'lim resurslaridan samarali foydalanib, talabalar uchun turli xil qo'shimcha manbalar va materiallarni taqdim etadi.

Bu maqola ta'lim sohasidagi o'qituvchilar uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan (AKT) foydalanish kompetensiyasining ta'limga raqamli texnologiyalarni integratsiyalash jarayonlarida kritik ahamiyatini o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada, o'qituvchilar uchun AKT foydalanish kompetensiyasini rivojlantirishning va uni tashkil etishning muhimligi belgilanadi. Maqolada ta'lim sohasiga raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayoni global tendensiyaga aylanganligi, bu jarayonning o'qituvchilar uchun kritik ahamiyatga ega bo'lganligi ko'rsatiladi. Raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga muvaffaqiyatli integratsiya qilish, o'qituvchilarning pedagogik mahoratini yangi bosqichga ko'tarishni talab qiladi. Buning uchun, avvalo, o'qituvchilarning AKT kompetensiyasi darajasini aniqlash va rivojlantirish muhimdir. Bu jarayonda o'qituvchilar o'zlarini yangi texnologiyalarga intilish, ularni o'rganish va ta'lim jarayonlarida muvofiqlashtirishga tayyorlashlari talab qilinadi. Maqola ta'lim muhitida raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayonlarining muhimligini ta'kidlaydi va o'qituvchilarning AKT kompetensiyasini oshirishning bu jarayonlarda ahamiyatiga ega bo'lishini qamrab olish maqsadida yozilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Cox, M., & Marshall, G. (2007). Effects of ICT: Do we know what we should know? *Education and Information Technologies*, 12(2), 59-70.
2. Ertmer, P. A., Ottenbreit-Leftwich, A. T., Sadik, O., Sendurur, E., & Sendurur, P. (2012). Teacher beliefs and technology integration practices: A critical relationship. **Computers & Education**, 59(2), 423-435.
3. Abdullayeva, M. (2019). Ta'limda axborot texnologiyalaridan foydalanish: muammo va yechimlar. *O'zbekiston Milliy Universiteti ilmiy jurnali*, 3(2), 45-52.
4. Bekmurodov, O. (2020). O'zbekistonda raqamli ta'lim texnologiyalarini joriy etish: yutuqlar va istiqbollar. *Ta'lim va taraqqiyot*, 4(1), 33-40.
5. Karimov, B. (2018). Pedagogik jarayonda AKT dan foydalanish imkoniyatlari. *Pedagogika va psixologiya jurnali*, 2(1), 75-82.
6. Edutopia. (2019). How to Integrate Technology in the Classroom. Retrieved from <https://www.edutopia.org/technology-integration-guide-implementation>
7. TeachThought. (2021). The Definition Of Digital Literacy. Retrieved from <https://www.teachthought.com/literacy/the-definition-of-digital-literacy/>



RAQAMLASHTIRILGAN TA'LIM MUHITIDA TEKNOLOGIK TA'LIM YO'NALISH TALABALARINI IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH

Boymurodov Bobir Elmurodovich –
O'zJOKU, Mediadizayn kafedrası, Katta
o'qituvchi
E-mail: bobur_8722@mail.ru

Annotasiya. Maqola raqamlashtirilgan ta'lim muhitida talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga va zamonaviy ta'lim texnologiyalari samaradorligi muammolariga bag'ishlangan. Zamonaviy ta'limning asosiy vazifasi mutaxassislar tomonidan dunyoni ijodiy o'zgartirish metodologiyasini o'zlashtirishdir. Ijodkorlik jarayoni, birinchi navbatda, yangi narsalarni kashf qilishni o'z ichiga oladi: yangi obyektlar, yangi bilimlar, yangi muammolar, ularni hal qilishning yangi usullarini. Raqamlashtirilgan ta'limni faqat bilim va ko'nikmalarni egallashga qisqartirish mumkin emas, buning eng yuqori maqsadiga erishish, o'z-o'zini anglash va ijodda o'zini namoyon qilish vositasi hisoblanadi.

Kalit so'zlar: raqamlashtirilgan ta'lim, ijodiy qobiliyat, ijodkorlik, xotira qobiliyati, intuitiv, kommunikativ, kognitiv, operatsion, motivatsion

Jahon amaliyotida ta'lim oluvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda grafik bilimlar, obyektlarning funksional va konstruktiv o'ziga xosligini bilishga asoslangan ko'nikma va malakalar (kompetensiyalar)ni samarali qo'llash, kasbiy yo'nalganlik va faoliyat tajribasi, axborot texnologiyalari bo'yicha erkin ijodkorlik muhitini yaratish, muvaffaqiyatli kasbiy faoliyat, uning ahamiyati va muayyan texnologik masalalarga munosabat, o'qituvchi yo'l qo'yadigan xatolarning oldini olishga qaratilgan korrekktiv mashqlar tizimi alohida ahamiyatga ega. Shu jihatdan oliy ta'lim muassasalarida malakali kadrlar tayyorlaydigan davlat ta'lim standartlari, malaka talablari, o'quv dasturlarida konstruktorlik, ishlab chiqarish texnologik va kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish jarayonida ijodiy qobiliyatini rivojlantirishning ilmiy asoslangan tizimini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Umumiy qabul qilingan yondashuvning yo'qligini hisobga olgan holda ijodiy qobiliyatlarning mohiyatini, tuzilishi va xarakterli xususiyatlarini aniqlash uchun zarur bo'lgan asosiy tushunchalar ijod va qobiliyat tushunchalari hisoblanadi. Ijodiy qobiliyat ko'plab fazilatlarining qorishmasidir.

Ijodiy qobiliyat – bu o'ziga xos ijodiy faoliyatning muayyan turini muvaffaqiyatli amalga oshirish va uning ishlash darajasini olib borish

imkoniyatini aniqlaydigan shaxsiy xususiyatlarning uyg'unligi. Ijodiy qobiliyat qiziqish bilan namoyon bo'ladi va hissiy munosabat ijod, mantiqiy va ijodiy fikrlash, tasavvur, ijodkorlik va qat'iyatlilik uchun ijodiy izlanishda va boshqa bir sohada yangi narsalarni yaratishni ta'minlaydi [3].

Ijodiy qobiliyatlarning ikki komponenti mavjud. Ijodiy qobiliyat ko'plab fazilatlarining qotishmasidir. Biror kishining ijodiy salohiyatining komponentlari masalasi haligacha ochiq qolmoqda, garchi hozirda ushbu muammoga tegishli bir nechta farazlar mavjud.

Ijodiy qobiliyat uchta asosiy guruhga bo'linadi:

- motivatsiya bilan bog'liq bo'lgan qobiliyatlar (qiziqishlar va moyillik);
- temperament bilan bog'liq bo'lgan qobiliyatlar (hissiyot);
- aqliy qobiliyat.

Ijodkorlik – bu boshqalarning fikriga qarshi turishga tayyor bo'lgan to'siqlar, ichki motivatsiya, bag'rikenglik va noaniqlikni yengishga tayyorlik uchun imkoniyatga ega bo'lish qobiliyatini o'z ichiga oladi[4].

Olimlar, ixtirochilar, rassomlar va san'atkorlarning tarjimai holiga tayanib, quyidagicha ijodiy qobiliyatlarni ajratib ko'rsatib o'tish mumkin:

- boshqalar ko'rmaydigan muammolarni ko'rish qobiliyati;
 - bir nechta tushunchalarni almashtirish, ko'proq va sezgir belgilarni qo'llash qobiliyati;
 - vazifalarni hal qilishda mavjud ko'nikmalarni qo'llash qobiliyati;
 - aql-idrokni qismlarga aralashtirmaslik qobiliyati;
 - tushunchalarni osonlashtirish qobiliyati;
 - kerakli ma'lumotlarni to'g'ri vaqtda berish uchun xotira qobiliyati;
 - fikrlash moslashuvchanligi;
 - muammoni hal qilishdan oldin uning uchun alternatalardan birini tanlash qobiliyati;
 - yangi bilimlar tizimida yangi qabul qilingan ma'lumotlarni kiritish qobiliyati;
 - kuzatuv bilan kiritilgan bilimlardan ajratish qobiliyati;
 - g'oyalarni uyg'otish qulayligi;
 - ijodiy tasavvurlar;
 - tafsilotlarni takomillashtirish, boshlang'ich dizaynni yaxshilash qobiliyati.
- Raqamlashtirilgan ta'lim muhitida talabalarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda talabaning shaxsiy tarkibiy qismlarini ajratishga imkon beradigan tarkibiy model quyidagilardan iborat:
- talabaning motivatsion va ijodiy faoliyati;
 - talabaning intellektual va mantiqiy qobiliyatlari;
 - intuitiv shaxsning intuitarial qobiliyatlari;
 - individual ijodiy faoliyatni targ'ib qilish;
 - o'z-o'zini boshqarish qobiliyati

- ta'lim va ijodiy faoliyatda o'zini-o'zi boshqarish qobiliyati;
- kommunikativ va ijodiy shaxsning qobiliyatlari;
- ijodiy faoliyatning samaradorligi.

Aql bilan bog'liq qobiliyatlar orasida: bir birlik uchun kelib chiqadigan g'oyalar soni (bir g'oyadan boshqasiga o'tish qobiliyati), o'ziga xoslikning o'ziga xosligi (yangi nostandart g'oyalarni yaratish qobiliyati), qiziquvchanlik (muammolarga sezgirlik) atrofda gipotezani rivojlantirish, xayoliylik (reaksiya), to'liqligi ("mahsulotni yaxshilash qobiliyati" yoki uni tugatish qobiliyati mavjudligi yoki tugash qobiliyati) [1].

Raqamlashtirilgan ta'lim muhitida texnologik ta'lim yo'nalishida o'qitilayotgan mashg'ulotlarda talablarining ijodiy imkoniyatlarini amalga oshirishga e'tibor qaratadigan, nostandart vaziyatlarda maqbul tanlovlarni amalga oshiruvchi ko'nikmalarni shakllantiradigan, talabalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan topshiriqlar berish maqsadga muvofiq. Bu kelajakda bo'lajak muhandislarning kasbiy faoliyatiga ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishdagi tayyorgarligi shakllanishini belgilaydi.

Dastlab raqamlashtirilgan ta'lim muhitida texnologik ta'lim yo'nalishi talabalarini dars jarayonida ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish mohiyatini, strukturasi va tarkibiy qismlari aniqlash lozim. Bu jarayondagi dastlabki tushuncha "tayyorgarlik". Lug'aviy manbalarda "tayyorgarlik" tushunchasi turlicha talqin qilinadi:

- tayyorlik holati, biror narsaga tayyorlanish holati; biror narsaga qaror qilish, xohish, mayl, niyat; biror narsa qilish uchun kelishuv, hamma narsa bo'lgan holat bajarilgan, qilingan, hammasi uchun tayyorlangan biror narsa;
- kelajakka ongli munosabatni yuqori darajada amalga oshiradigan motivatsion faoliyati, kognitiv rivojlanish, kelgusi shaxsning hissiy va irodaviy jarayonlari yoki muvaffaqiyatni ta'minlaydigan jamoaviy tadbirlar[4].

Raqamlashtirilgan ta'lim muhitida texnologik ta'lim yo'nalishi talabalarining yetarli darajadagi tayyorlik holatini, dars yakunidagi samarali natija sifatida tushunish mumkin. Keng ma'noda qaraladigan bo'lsa, bo'lajak muhandislarning "professional pedagogik tayyorgarligi" konsepsiyasi va uni talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga tayyorgarlik prizmasida ko'rib chiqish lozim.

Raqamlashtirilgan ta'lim muhitida texnologik ta'lim yo'nalishlari talabalarini kasbiy va pedagogik tayyorgarlik elementlarining tarkibiy qismi sifatida quyidagilar: 1) motivatsion; 2) kognitiv; 3) operatsion; 4) o'qituvchining talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga tayyorligining baholash asosi bilan belgilanadi [2].

1. Motivatsion komponentli tayyorgarlik – "Motiv faoliyatning markaziy tayanch omilidir". "Faoliyat motivatsiyasi – bu faoliyatni rag'batlantiruvchi va yo'naltiruvchi sabablar yig'indisi (ehtiyotlar, maqsadlar, ideallar, munosabatlar,

da'volar darajasi, normalari, yo'nalishlari)". Keltirilgan fikrlarga asoslanib o'qituvchi o'quv jarayonida talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishi uchun barqaror motivatsiyani shakllantirishga e'tibor qaratishi lozim.

2. Kognitiv bu jarayonda tayyorlikning kognitiv komponenti harakatni amalga oshirishda haqiqatda tayanadigan ko'rsatmalar tizimini o'z ichiga oladi. O'qituvchining o'quv jarayonida talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish bo'yicha faoliyatining kognitiv asosi uning ushbu faoliyatga shakllangan tayyorgarligi davrida ijodiy qobiliyatlarning mohiyatini va ularni rivojlantirish shartlarini bilishni o'z ichiga olishi kerak. Ijodiy faoliyatning mohiyatini, o'quv jarayonida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini tashkil etish usullarini bilishi kerak. Boshqacha aytganda, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish nazariyasi va metodologiyasini bilishi zarur. Kognitiv komponentning muhim tarkibiy qismi ham fan bilimlari va fanni o'qitish usullarini bilishidir.

3. Raqamlashtirilgan ta'lim muhitida texnologik ta'lim yo'nalishi talabalarini tayyorgarligining operatsion komponenti shakllanganlarni o'z ichiga oladi. Bu jarayonda o'qituvchi o'quv jarayonida talabalarning ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish faoliyatini amalga oshirish usullariga ega bo'lishi lozim. Ya'ni, tayyorlikning operativ komponenti, talabalarning ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan o'z-o'zidan shakllangan ko'nikmalar va qobiliyatlar.

4. Raqamlashtirilgan ta'lim muhitida texnologik ta'lim yo'nalishi talabalarini ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga tayyorligini baholash – o'qituvchining o'quv jarayonida talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga tayyorligini baholash komponenti o'z ichiga oladi. Bu jarayonda talabaning o'ziga qaratilgan nazorat va baholash faoliyatini amalga oshirish uchun shakllangan ko'nikmalari tushuniladi.

Taklif: Texnologik ta'lim yo'nalishi talabalarini ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda integratsiyalashgan shaxsiy-kasbiy sifatlarni shakllantirishda quyidagi xususiyatlar: ijodiy faoliyatga, ijodiy faoliyatni tashkil etish bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishi; kasbiy pedagogik muammolarni ijodiy hal eta olishi maqsadga muvofiq.

Xulosa: Raqamlashtirilgan ta'lim muhitida texnologik ta'lim yo'nalishida o'qitilayotgan mashg'ulotlarda talabalarining ijodiy imkoniyatlarini amalga oshirishga e'tibor qaratadigan, nostandart vaziyatlarda maqbul tanlovlarni amalga oshiruvchi ko'nikmalarni shakllantiradigan, talabalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan topshiriqlar berish maqsadga muvofiq. Bu kelajakda bo'lajak muhandislarning kasbiy faoliyatiga ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishdagi tayyorgarligi shakllanishini belgilaydi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Shokirova Ch.T. Talabalarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish va dasturiy nazorat asosida o'qitish samaradorligini oshirish. Diss. ... ped.fan.nom. Andijon., 2009 – 132 b.
2. Muslimov N. va boshq. Pedagogika / Nopedgogik OTM uchun). – T.: TDPU. 2013. 95 b
3. Nasritdinova U.A. Kompyuter grafikasi fanini o'qitishda uch o'lchamli modellash tirish vositasidan foydalanish metodikasi: ped.fanl. bo'yicha fals.dokt. ... dis. – T.: 2018. – 160 b.
4. Rahimov B.X. Yoshlarni ilmiy ijodiy faoliyatga yo'naltirish asoslari. — Toshkent: Fan, 2010. – 128 b.

RAQAMLI TA'LIMNI BOSHQARISH: MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR

Chulliyev Suhrob – Navoiy davlat pedagogika instituti iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori

E-mail: suhrobchulliyev@gmail.com

Rayimova Mashhurabonu – Navoiy davlat pedagogika instituti, Maktab menejmenti yo'nalishi talabasi

E-mail: mashhurabonurayimova@gmail.com

Nozima Pirmamatova – Navoiy davlat pedagogika instituti, Maktab menejmenti yo'nalishi talabasi

E-mail: nozimapirmamatova74@gmail.com

Annotatsiya. Raqamli ta'lim butun dunyo bo'ylab talabalarga sifatli ta'lim resurslariga kirishni ta'minlab, geografik to'siqlarni yo'q qilish imkoniyatiga ega. Onlayn kurslar va global ta'lim platformalari o'quvchilarga istalgan vaqtda istalgan joydan o'qish imkonini beradi, bu esa ta'limni yanada qulayroq va moslashuvchan qiladi. Raqamli ta'lim zamonaviy dunyoda keng tarqalgan va dolzarb masalalardan biri bo'lib, uning rivojlanishi nafaqat texnologik, balki ijtimoiy va iqtisodiy sohalarida ham katta ahamiyat kasb etadi. Pandemiya (Covid-19) davrida raqamli ta'limning ahamiyati yanada yaqqol namoyon bo'ldi. Ushbu maqolada raqamli ta'limni rivojlantirishda bir qator muammolar va ulkan istiqbollari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: pandemiya, raqamli texnologiya, onlayn ta'lim, interaktiv, kiberxavfsizlik, kibertahdid, platforma.



Kirish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-oktabrdagi PF-6079-sonli "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni ilovasining Raqamli ta'limni rivojlantirish bobida oliy ta'lim tizimini takomillashtirish, oliy o'quv yurtlarida masofaviy ta'lim mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish choralari ko'rish; ta'limning barcha bosqichlarida raqamli ta'lim berishni ta'minlash orqali raqamli ko'nikmalarni o'zlashtirish uchun imkoniyatlar yaratish, umumta'lim maktablarning o'quv dasturiga 7-sinfdan boshlab dasturlash va axborot texnologiyalari fanlarini kiritish kabi ustuvor vazifalar belgilab olingan. [1]

"Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasi iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha va davlat boshqaruvi tizimining jadal raqamli rivojlanishini ta'minlash, shu jumladan elektron davlat xizmatlarini ko'rsatish mexanizmlarini yanada takomillashtirish maqsadida ishlab chiqilgan.

Raqamli texnologiyalar hayotimizning barcha jabhalariga chuqur singib ketgan bir davrda, ta'lim ham bundan mustasno emas. Raqamli ta'limni boshqarish nafaqat ta'lim jarayonlarini zamonaviylashtirish, balki ularni yanada samarali qilish imkoniyatlarini ham ochib beradi. Bu jarayon, bir tomondan, ta'lim berish usullarini diversifikatsiyalash va o'quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirish imkonini bersa, ikkinchi tomondan, o'qituvchilar va o'quvchilar uchun yangi muammolarni ham keltirib chiqaradi. Raqamli ta'lim – bu ta'lim jarayonini boshqarish, o'qitish va o'rganish uchun raqamli vositalardan foydalanishni o'z ichiga oladi [2,3]. Bunda onlayn kurslar, videodarslar, interaktiv o'quv materiallari va boshqa raqamli resurslar keng qo'llaniladi.

Bulutli texnologiyalar (Cloud technology) ta'lim jarayonini boshqarishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Bulutli saqlash xizmatlari orqali o'quv materiallari va ma'lumotlarni xavfsiz saqlash va ulardan istalgan joyda foydalanish yuqori samara beradi. Sun'iy intellekt va mashinasozlik o'rganishi esa ta'lim jarayonini individuallashtirishga imkon beradi. Virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalari yordamida esa o'quvchilar real hayotda duch kelishi mumkin bo'lgan vaziyatlarni simulyatsiya qilish orqali ko'nikmalarini mustahkamlashlari mumkin. [2]

Raqamli ta'lim boshqaruvida ta'lim jarayonini optimallashtirish muhim vazifalardan biri hisoblanib, raqamli texnologiyalar yordamida ta'lim jarayonini individuallashtirish va talabalar ehtiyojlariga moslashtirish mumkin. Talabalar faoliyatini doimiy kuzatib borish va baholash orqali ularning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash va ularga tegishli tavsiyalar berish mumkin. Bunda samaradorlik va natijadorlikni oshirish usullari ham muhim ahamiyatga ega. Elektron ta'limning jadal kengayishining dastlabki kunlaridan boshlab virtual ta'limga ehtiyoj paydo bo'ldi.

Asosiy qism Raqamli ta'limning afzalliklari.

1. Foydalanish imkoniyati va inklyuzivlik.

Raqamli ta'lim geografik to'siqlarni yo'q qilib, ta'limni global auditoriya uchun ochiq qiladi. Chekka hududlardan kelgan talabalar boshqa joyga ko'chmasdan sifatli ta'lim olishlari mumkin. Bundan tashqari, raqamli platformalar ko'pincha turli xil o'quv ehtiyojlarini, shu jumladan imkoniyati cheklangan o'quvchilarning ehtiyojlarini qondiradigan bir nechta formatdagi materiallarni taqdim etadi.

2. Moslashuvchanlik va qulaylik.

Raqamli ta'limning eng muhim afzalliklaridan biri uning moslashuvchanligidir. Talabalar kurslarga o'z tezligi va jadvali bo'yicha kirishlari mumkin, bu, ayniqsa, ishlaydigan mutaxassislar va boshqa majburiyatlarga ega bo'lganlar uchun foydalidir. Bu moslashuvchanlik insonlarga doimiy ravishda yangi ko'nikma va bilimlarni egallashga imkon berib, umrbod ta'lim olishga yordam beradi.

3. Xarajatlarning samaradorligi.

Raqamli ta'lim an'anaviy ta'limga qaraganda ancha tejamkor bo'lishi mumkin. Onlayn kurslarda ko'pincha o'quv uchun to'lov xarajatlari past bo'ladi va talabalar transport va turar joy xarajatlarini tejashadi. Bundan tashqari, ta'lim muassasalari jismoniy infratuzilma va bosma materiallar bilan bog'liq xarajatlarni kamaytirishi mumkin.

4. Shaxsiylashtirilgan ta'lim.

Raqamli ta'lim platformalari shaxsiylashtirilgan ta'lim tajribasini taqdim etish uchun ma'lumotlar tahlilidan foydalanadi. Moslashuvchan ta'lim texnologiyalari o'quvchilarning kuchli va zaif tomonlarini baholashi, mazmun va baholashni individual ehtiyojlarini qondirish uchun moslashtirishi mumkin. Ushbu shaxsiylashtirilgan yondashuv faollikni oshiradi va ta'lim natijalarini yaxshilaydi.

5. Kengaytirilgan hamkorlik va faollik.

Onlayn ta'lim muhitlari muhokama forumlari, guruh loyihalari va interaktiv multimedia kontenti orqali hamkorlik va ishtirokni osonlashtiradi. Talabalar butun dunyo bo'ylab tengdoshlari va o'qituvchilari bilan bog'lanib, turli xil ta'lim hamjamiyatini rivojlantirishlari mumkin.

6. Texnologiyaning rivojlanishi: Yangi texnologiyalar, jumladan, sun'iy intellekt, virtual haqiqat (VR) va kengaytirilgan haqiqat (AR) ta'lim jarayonini yanada samarali qiladi. Ushbu texnologiyalar yordamida o'quvchilar uchun interaktiv va qiziqarli o'quv materiallari yaratish mumkin. Bulutli xizmatlar va saqlash texnologiyalari orqali esa ta'lim resurslarini kengaytirish va ulardan foydalanishni osonlashtirish mumkin.

7. Ta'limning shaxsiylashtirilishi: Raqamli ta'lim orqali individual ta'lim yo'nalishlarini shakllantirish va moslashtirilgan ta'lim dasturlari yaratish



imkoniyati paydo bo'ladi. Har bir talabaning o'ziga xos ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta'lim berish samaradorlikni oshiradi va o'qish jarayonini yengillashtiradi.

8. Masofaviy ta'lim imkoniyatlari: Global ta'lim platformalari va onlayn kurslar yordamida masofaviy ta'lim olish imkoniyatlari kengayadi. Bu esa talabalarga istalgan joydan va istalgan vaqtda ta'lim olish imkoniyatini beradi, shu bilan birga, ta'lim olishning geografik cheklovlarini bartaraf etadi.

9. Doimiy o'qish va rivojlanish: Raqamli ta'lim hayot davomida o'qish va kasbiy malakalarni oshirish imkoniyatlarini oshiradi. Onlayn kurslar va sertifikatlash dasturlari orqali o'z malakasini oshirish va yangi bilimlarga ega bo'lish osonlashadi.

10. Hamkorlik va tajriba almashish: Xalqaro ta'lim hamkorliklari va tajriba almashish dasturlarining rivojlanishi orqali o'qituvchilar va talabalar global ta'lim resurslariga kirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa ta'lim sifatini oshirishga va innovatsion yondashuvlarni o'zlashtirishga yordam beradi.

Raqamli ta'limni rivojlantirishning muammolari va istiqbollarini hisobga olgan holda, zamonaviy strategiyalar ishlab chiqilishi zarur. Raqamli savodxonlikni oshirish, infratuzilmani yaxshilash va innovatsion texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish orqali raqamli ta'limning samaradorligini oshirish mumkin.

Raqamli ta'limdagi muammolar. [4,5]

1. Raqamli bo'linish.

Imkoniyatiga qaramay, raqamli ta'lim raqamli tafovutni kuchaytiradi. Ayniqsa, rivojlanayotgan hududlarda hamma talabalar ishonchli internet yoki kerakli qurilmalarga ega emas. Bu tengsizlik turli ijtimoiy-iqtisodiy guruhlar o'rtasidagi ta'limdagi tafovutni kengaytirishi mumkin.

2. Texnologik muammolar.

Raqamli ta'limning samaradorligi ko'p jihatdan texnologiyaga bog'liq. Dasturiy ta'minotdagi nosozliklar, kiberxavfsizlik tahdidlari va doimiy yangilanish zarurati kabi muammolar o'quv jarayonini buzishi mumkin. Talabalarning ham, o'qituvchilarning ham texnologik bilimga ega bo'lishini ta'minlash ham muhim muammo hisoblanadi. Ko'plab hududlarda internet va texnologiyaga kirish imkoniyati cheklangan. Ayniqsa, markazdan uzoq va chekka qishloq joylarida sifatli internet va zamonaviy qurilmalar yetishmasligi raqamli ta'limning samaradorligini pasaytiradi. Bu esa, talabalar va o'qituvchilar o'rtasidagi tenglikni buzadi va ta'lim sifatini pasaytiradi.

3. Sifat kafolati.

Raqamli formatda ta'lim sifatini saqlab qolish qiyin bo'lishi mumkin. Onlayn kurslarning samaradorligi juda katta farq qiladi va ko'pincha standartlashtirilgan akkreditatsiyaning yetishmasligi mavjud. Raqamli ta'lim



qat'iy akademik standartlarga javob berishini ta'minlash uning ishonchililigi uchun juda muhimdir.

4. Cheklangan ijtimoiy shovqin.

An'anaviy sinf xonalari ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish va munosabatlarni o'rnatish uchun juda muhim bo'lgan yuzma-yuz muloqotni taklif qiladi. Raqamli ta'lim ba'zan izolyatsiyaga va shaxslararo muloqot imkoniyatlarini kamaytirishga olib kelishi mumkin. Onlayn muhitda mazmunli o'zaro munosabatlarni rivojlantirish yo'llarini topish juda muhimdir.

5. O'zgarishlarga qarshilik.

Ta'lim muassasalari va manfaatdor tomonlar an'anaviy usullarni afzal ko'rish yoki onlayn ta'lim samaradorligiga shubha bilan qarash tufayli raqamli ta'limga o'tishga qarshilik ko'rsatishi mumkin. Ushbu qarshilikni yengish uchun raqamli ta'limning aniq afzalliklarini pilot dasturlar va muvaffaqiyat hikoyalari orqali ko'rsatish kerak. [6]

6. O'qituvchilarni tayyorlash: O'qituvchilarning raqamli savodxonlik darajasi yetarli emasligi jiddiy muammo bo'lib, ularning raqamli vositalardan samarali foydalanish ko'nikmalari yetishmasligi ta'lim jarayonini qiyinlashtiradi. O'qituvchilarni zamonaviy texnologiyalar va platformalar bilan ishlashga o'rgatish uchun qo'shimcha o'quv dasturlarini joriy etish zarur.

7. Pedagogik yondashuvlar: An'anaviy ta'lim metodlarini raqamli ta'limga moslashtirishda qiyinchiliklar mavjud. Raqamli ta'limda talabalar va o'qituvchilar o'rtasidagi o'zaro ta'sirning kamayishi, ta'lim jarayonining individual va samarali bo'lishiga to'sqinlik qiladi. Bu esa ta'limning sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

8. Moliya va mablag' yetishmasligi: Raqamli ta'lim vositalarini sotib olish va qo'llab-quvvatlash uchun zarur mablag' yetishmasligi ham muammolardan biri hisoblanadi. Ta'lim muassasalari va o'quvchilar uchun raqamli qurilmalar va internet xizmatlarini ta'minlash katta xarajatlarni talab qiladi.

9. Maxfiylik va xavfsizlik: Talabalar va o'qituvchilarning shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish, shuningdek, kibertahdidlarga qarshi kurashish masalalari ham e'tibordan chetda qolmasligi kerak. Raqamli ta'lim platformalarida maxfiylik va xavfsizlikni ta'minlash muhim ahamiyatga ega.

Xulosa Raqamli ta'limni boshqarish zamonaviy ta'lim jarayonining ajralmas qismidir. Raqamli texnologiyalar yordamida ta'lim jarayonini samarali tashkil etish va boshqarish imkoniyatlari kengaymoqda. Bunda LMS tizimlari, bulutli texnologiyalar, sun'iy intellekt va boshqa texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, raqamli ta'lim boshqaruvida muammolar ham mavjud bo'lib, ularni hal qilish uchun tegishli choralar ko'rish zarur. Faqat shundagina raqamli ta'limning barcha imkoniyatlaridan to'liq foydalangan holda, ta'lim jarayonini yanada samarali qilish mumkin.



Xulosa qilib aytganda, raqamli ta'limni boshqarishdagi mavjud muammolarni hal etish va istiqbolli yutuqlarni amalga oshirish uchun ko'plab islohotlar va yangiliklar kiritilishi zarur. Bunda barcha manfaatdor tomonlarning hamkorligi, tizimli yondashuv va raqamli vositalardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-oktabrdagi PF-6079-sonli "Raqamli O'zbekiston – 2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>
2. Allen, I. E., & Seaman, J. (2008). Staying the course: Online education in the United States. Needham, MA: Sloan Consortium.
3. Ambient Insight Research (2009). US self-paced e-Learning market. Monroe WA: Ambient Insight Research.
4. Anderson, T. (2005b). Educational Social Overlay Networks.
5. Anderson, T. (2006b). Teaching a Distance education course using educational social software.
6. Shukurullo Yoldoshmaxmudov Xurshid Ogli (2022). TA'LIMDA RAQAMLI IQTISODIYOT: ISTIQBOL VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI. Science and innovation, 1 (Special Issue 2), 763-771. doi: 10.5281/zenodo.7373437
7. Mirzahmedova, Nargiza Dilmurodovna (2022). RAQAMLI TEKNOLOGIYALARINING TA'LIM SOHASIDA QO'LLANILISHI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (5-2), 538-545. doi: 10.24412/2181-1784-2022-5-2-538-545

TA'LIM TIZIMIDA UYALI ALOQA VOSITALARIDAN TARTIBLI VA SAMARALI FOYDALANISH MUAMMOLARI

Imamaliyev Ulug'bek Turapbayevich –
Chirchiq shahar 18-sonli umumiy o'rta ta'lim
maktabi direktori

Imamaliyev Aybek Turapbayevich –
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent
axborot texnologiyalari universiteti katta
o'qituvchisi

E-mail: oimamaliyev1987@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola ta'lim tizimida uyali aloqa vositalaridan tartibli va samarali foydalanish muammolarini tahlil etishga bag'ishlangan.



Maqolada mavzuning dolzarbligi, yurtimizda va xorijda mobil telefonlardan ta'lim tizimida foydalanish bo'yicha qiyosiy tahlili hamda maktablarda mobil telefondan foydalanishni tartibga solish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqishning huquqiy, nazariy va amaliy jihatlarini ko'rib chiqishni o'z ichiga olgan takliflar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: mobil telefon, zamonaviy texnologiyalar, raqamli savodxonlik, ta'lim sifati, nomaqbul gadjet, kiberbulling, kontentlarni saralash.

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi kunda zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi natijasida barcha sohalarga shiddat bilan kirib bormoqda. Shu sababli o'quvchilarda mobil aloqa vositalaridan foydali maqsadlarda, tartibli va samarali foydalanish ko'nikmasini shakllantirish dolzarb masala hisoblanadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 21 maydagi "O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalarida mobil telefonlardan foydalanishni tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida" 139-son qaroriga asosan O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalarida mobil telefonlardan foydalanish tartibi to'g'risida Nizom talablari ishlab chiqilgan. Ushbu Nizom, idoraviy mansubligidan qat'i nazar umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalarida mobil telefonlardan foydalanish tartibini belgilaydi hamda sifatli ta'lim olish va kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishda, davlat va jamiyat manfaatlari yo'lida o'quvchi yoshlarning sog'lig'ini saqlashda, xavf-xatarlarni kamaytirishda o'quvchilarning konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlashga yo'naltirilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. E.Hartnell-Yang va boshq. bo'lib, mobil telefonlar kichkina shaxsiy kompyuterlarga aylangan bir paytda o'tkazildi, ular soat, taqvim, o'yinlar, musiqa pleyeri, bluetooth ulanishi, internetga kirish va ovozli qo'ng'iroqlar va yuqori sifatli kamera funksiyalarini ta'minlaydi. Mobile Life Youth Report (2006) shuni ko'rsatdiki, Buyuk Britaniyadagi 12 yoshli bolalarning 91 foizi o'rta maktabga borguncha mobil telefonga ega bo'ladi. Ba'zan "aqlli telefonlar" deb ataladigan so'nggi telefon modellari foydalanuvchilarga pdf formatlari, elektron jadvallar va so'z bilan ishlov berilgan fayllarni o'qish imkonini bergan bo'lsa ham, ular odatda maktab ta'limida foydali emas, balki buzuvchi sifatida ko'riladi.

Mobil telefonlardan tartibli va samarali foydalanish tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha quyidagi vazifalar belgilandi:

- maktab o'quvchilari tomonidan mobil telefonlardan tartibli foydalanishi bo'yicha huquqiy savodxonligini oshirishda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 21-maydagi 139-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizom talablarini samarali amalga oshirish va zamonaviy usullarga tayangan holda targ'ibot va tashviqot ishlarini olib borish;

- maktabda o'quvchilarni mobil telefonlardan samarali va xavfsiz foydalanishlarini ta'minlashda raqamli savodxonlik va zamonaviy texnologiyalarni qo'llay olish, "kiberbulling" va nomaqbul gadjetlar, kontentlarni saralash ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha seminar-trenning mashg'ulotlar tashkil etish;

- maktabda o'quvchilar tomonidan mobil telefonlardan tartibli va samarali foydalanishda ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan jihatlarini oshirish va shaxsiy ma'lumotlar xavfsizlik talablarining buzishga qaratilgan xavflarni oldini olish bo'yicha amaliy mashg'ulotlar tashkil etish.

Qiyosiy tahlil etilganligi. 1-jadvalda Yurtimizda va xorijda mobil telefonlardan maktabda foydalanish bo'yicha qiyosiy tahlili keltirilgan.

1-jadval. Yurtimizda va xorijda mobil telefonlardan maktabda foydalanish bo'yicha qiyosiy tahlili

T/r	Amaldagi holat (O'zbekistonda)	Amaldagi holat (Angliya)	Taklif
1.	Maktablarda mobil telefonlardan tartibli foydalanish bo'yicha Vazirlar Mahkamasi qarori bilan Nizom tasdiqlangan. Nizom talablariga asosan ma'lum cheklovlar mavjud.	Angliya hukumati maktablarda mobil telefonlardan foydalanish bo'yicha yo'riqnoma ishlab chiqqan. Maktablarda kun bo'yi mobil telefonlardan foydalanish ta'qiqlanadi.	Amaldagi normativ-huquqiy hujjatga tayangan holda, har bir maktab o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib, ota-onalar va o'quvchilar talab va takliflari ko'rib chiqib mobil telefonlardan tartibli va samarali foydalanish tartibi ishlab chiqishi kerak.
2.	Maktabda o'quvchilarni mobil telefonlardan samarali va xavfsiz foydalanishlarini ta'minlashda raqamli savodxonlik va zamonaviy texnologiyalarni	Angliyadagi ko'plab maktablar raqamli savodxonlikni o'zlarining o'quv dasturlariga kiritishgan. Bu o'quvchilarga o'rganish, muloqot	Maktabda o'quvchilar tomonidan mobil telefonlardan tartibli va samarali foydalanishlari uchun ta'lim resurslari va ma'lumotlariga



	qo'llay olish, kiber bulling va nomaqbul gadgetlar, kontentlarni saralash yuzasidan nazariy ko'nikmalar berilmaydi, faqat oliy ta'limning tegishli yo'nalishlarida o'qitiladi	va samaradorlik uchun texnologiyadan qanday samarali foydalanishni o'rgatish, shuningdek, onlayn maxfiylik, raqamli xavfsizlik kabi tushunchalarni tushunish va onlayn ma'lumotlarni ishonchliligini baholashni o'z ichiga oladi.	oson kirish, o'quv tajribasini yaxshilash uchun multimedia kontentini uzluksiz integratsiya qilish, raqamli savodxonlik va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish malakasini oshirish, ta'lim dasturlari va onlayn kurslar orqali o'zini o'zi rivojlantirishi uchun platformani taqdim etish kerak.
3.	Darslarga xalaqit qilmaslik uchun o'quvchilar mobil telefonlari ertalab sinf rahbarlar tomonidan yig'ib olinib, maxsus qutiga yoki tashkil etilgan javonga solib ko'rish norasmiy yo'lga qo'yilgan. Dars vaqtida mobil telefonlardan foydalangan o'quvchining telefoni maktab ma'muriyati tomonidan olib qo'yilib, o'quvchi ota-onasiga ogohlantirib topshiriladi.	Ayrim maktablar koridorlarida maxsus javonlar tashkil etilgan, o'quvchilar o'zlari javonga joylaydi. Ayrim maktablarda maxsus telefon saqlash joylari tashkil etilgan. Mobil telefondan foydalanish talabini buzgan o'quvchi telefoni musodara qilinishi, hibsga olinishi yoki boshqa intizomiy choralar ko'riladi.	Ota-onalarning yozma roziligi asosida har bir sinfda o'quvchilar telefonlarni xavfsiz saqlash javonlarini tashkil qilish, javon eshigi qulflanishi, kaliti sinf rahbari yoki sinf sardorida bo'lishi kerak. O'quvchilar mobil telefonlardan faqat o'qituvchilar ruxsati bilan samarali foydalanish uchun berilishi kerak. Belgilangan talablarni buzgan o'quvchilarning telefonlari ota-onalar ishtirokida to'liq tekshirilib,



			faqat ota-onalar yoki ularni o'rnini bosuvchi shaxslarga qaytarilishi belgilanishi kerak.
--	--	--	---

Takliflar. Maktablarida mobil telefondan foydalanishni tartibga solish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqishning huquqiy, nazariy va amaliy jihatlarni ko'rib chiqishni o'z ichiga olgan takliflar keltirib o'tiladi:

1. Maktabda o'quvchilarning mobil telefonlardan tartibli va samarali foydalanish tizimini ishlab chiqish lozim. Maktabda smart texnologiyalardan foydalanish bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlarga mos keladigan tartib asosini ishlab chiqish orqali mavjud muammolarni minimallashtirish va samarali foydalanish imkoniyatlarini qo'llash tartiblarini ko'rsatib berish kerak.

2. O'quvchilarning maktabga mobil telefonlarini olib kelishlari uchun ota-onalarning roziligini talab qilish. Bu ota-onalar farzandining qurilmadan foydalanishi bo'yicha xabardor bo'lishini va maktab tartibini qo'llab-quvvatlashini ta'minlaydi.

3. Mobil qurilmalardan o'quvchilar ma'lumotlarini to'plash, saqlash va ulardan foydalanish bo'yicha ma'lumotlar xavfsizligi talablariga rioya etilishini ta'minlash kerak.

4. Ta'lim ilovalari va resurslaridan foydalangan holda mobil telefondan foydalanishni o'quv dasturiga mos ravishda kiritish kerak.

5. Telefondan foydalanishning ijobiy odatlarini rag'batlantirish uchun xulq-atvor psixologiyasiga asoslangan strategiyalarni amalga oshirish zarur. Bu foydalanish ko'rsatmalariga rioya qilganlik uchun mukofotlar kabi mustahkamlash usullarini o'z ichiga olishi mumkin.

6. O'quvchilarga mobil telefondan foydalanishning xavf va foydalarini tushunish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun raqamli savodxonlik bo'yicha seminarlar yoki kurslar o'tkazish kerak.

7. Mobil telefondan foydalanish bo'yicha aniq va ixcham yo'riqnomalarni ishlab chiqish, jumladan, belgilangan vaqtlarda telefondan foydalanish ruxsat berilgan yoki taqiqlangan joylarni belgilab berish lozim.

8. Maktab binolarida mobil telefondan foydalanishni nazorat qilish va boshqarish uchun texnologiya vositalaridan foydalanish kerak. Bunga o'quv jarayonida ma'lum ilovalar yoki veb-saytlarga kirishni cheklaydigan dasturiy ta'minot ham keltirish mumkin.

Ushbu keng qamrovli taklifda huquqiy, nazariy va amaliy jihatlarni ko'rib chiqish orqali umumta'lim maktablari uyali telefondan foydalanishda tartib va samarali o'rganishga yordam beradigan muvozanatli yondashuvni o'rnatishi mumkin.



Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, umumta'lim maktablarida o'quvchilarning mobil telefonlardan tartibli va samarali foydalanishi huquqiy, nazariy va amaliy jihatlarini ko'rib chiqiladigan kompleks yondashuvga tayanadi. Aniq ko'rsatmalar yaratish, nazariy ta'lim berish, amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish, ota-onalarni jalb qilish va o'zgarishlarga moslashish orqali maktab o'quvchilari uchun xavfsiz, mas'uliyatli va raqamli ta'lim muhitini yaratishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 21 maydagi "O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalarida mobil telefonlardan foydalanishni tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 139-sonli qarori. Lex.uz
2. "Mobil telefonlar o'rta maktablarda o'qishga qanday yordam beradi" E.Hartnell-Yang, N.Heym. Koventri: Becta, 2008 yil, <https://www.ifap.ru/library/book330.pdf>
3. "Mobil telefon – o'quvchiga do'stmi yoki dushman?!" A. Ibragimov, I.Muradov. Pedagogik va Psixologik tadqiqotlar jurnali, 1-jild, 3-son. Toshkent-2023. Journal of Pedagogical and Psychological Studies, 2023·imfaktor.com.
4. <https://zarnews.uz/post/mobil-telefon-foydalimi-yoki-zararli>
5. <https://advice.uz/uz/document/1744>

TA'LIM TIZIMIDA SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH: IMKONIYATLAR VA MUAMMOLAR

Madatboyeva Kumushoy Islombek qizi – Toshkent Davlat iqtisodiyot Universiteti Raqamli Iqtisodiyot fakulteti 2-kurs talabasi

E-mail: kumushmadatboyeva2004@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada "Sun'iy intellekt" tushunchasi va uning asosiy xususiyatlari muhokama qilinadi. Ta'lim tizimida sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etishning xususiyatlari va misollari keltirilgan. Zamonaviy ta'lim sohasida sun'iy intellektni qo'llash imkoniyatlari va muammolari sanab o'tilgan.

Kalit so'zlar: Sun'iy intellekt, transformatsiya, texnologiya, innovatsion, ekspert, chatbotlar, ilovalar

Sun'iy intellekt, hayotimizning barcha sohalarida kuchli ta'sir qiladigan asosiy omilga aylandi. Ushbu texnologiyalar unumdorlik va samaradorlikni



oshirish, ilm-fan sohasidagi yutuqlarga katta foyda keltirish imkoniyatiga ega. Ekspertlarning fikriga ko'ra, sun'iy intellektni rivojlantirish, muvaffaqiyatli transformatsiya jarayonini ta'minlash va mamlakatimizni texnologiya sohasida yetakchilar davlatlar qatoriga qo'shilishga yordam beradi. Bu jihatdan mamlakatimizda sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Aniq maqsad va ko'rsatkichlar belgilab berilgan uzoq muddatli strategiyalar qabul qilinib, izchillik bilan hayotga tatbiq etib kelinmoqda. Davlatimiz rahbari tomonidan tasdiqlangan «Raqamli O'zbekiston – 2030» strategiyasi hamda sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish va ularni mamlakatimizda keng qo'llash raqamli ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatini va ularning yuqori sifatini ta'minlash, ushbu sohada malakali kadrlar tayyorlash uchun qulay shart-sharoitlar yaratish belgilab berildi. Bundan tashqari Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 2021-yil 17-fevraldagi «Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori qabul qilindi va shu bilan birga bu qarorlar ijrosi ta'minlanmoqda.

Ta'lim sohasida sun'iy intellektdan foydalanishni o'rganish va o'qitish, zamonaviy va innovatsion yondashuvning muhim misollari sifatida ko'rsatilmoqda. Sun'iy intellekt ta'lim sohasida qo'llash orqali ko'plab o'zgarishlar amalga oshiradi, yangi imkoniyatlar yaratadi va ta'lim sifatini oshiradi. Sun'iy intellekt odamlar bilan bog'liq bo'lgan intellektual vazifalarni bajarishga qodir tizimlar va dasturlarning bir tarmog'idir. Bu texnologiya axborotni qayta ishlash, tajribadan o'tkazish, qarorlar qabul qilish va inson aql-zakovatini talab qiladigan vazifalarni bajarish imkoniyatiga ega. Shu sababli sun'iy intellektni ta'lim sohasida qo'llash bizga anchagina afzalliklar olib keladi.

Sun'iy intellekt o'zi nima? Avval ushbu savolga javob topib olsak. Sun'iy intellekt – bu tahlil qilish, idrok etish, harakat qilish va moslashtirishga qodir dastur. Sun'iy intellekt inson harakatlariga taqlid qiladigan va vazifalarni insonga o'xshash aniqlik bilan bajaradigan aqlli mashinalarni yaratishga yo'naltirilgan tez rivojlanayotgan texnologiya sohasidir. Sun'iy intellekt sohasi ma'lumotlardan o'rganish, fikrlash, tabiiy tilni tushunish, rasmlar va tovushlarni idrok etish hamda turli vositalar orqali to'plangan ma'lumotlar asosida qaror qabul qilish imkoniyatini beruvchi dasturiy ta'minot va tizimlarni yaratishga qaratilgan. Shuning uchun ham sun'iy intellekt hayotimizda katta ahamiyatga ega.

Hozirga kelib kompyuter tezligi va bulutli hisoblash sohasidagi yutuqlar va katta ma'lumotlar to'plamining mavjudligi sun'iy intellekt sohasida tez yutuqlarga erishishiga sabab bo'ldi. Endilikda har kim foydalanuvchilar bilan matnli suhbatlar o'tkazishga qodir bo'lgan ChatGPT kabi dasturlarga kirishi mumkin va tashkilotlar haydovchisiz avtomobillarni ishlab chiqishdan tortib, radiograflarni o'qishgacha, aviakompaniyalar narxlarini belgilashgacha bo'lgan



hamma narsada sun'iy intellektdan foydalanmoqda. Ta'limning paydo bo'lishidan boshlab, o'qitish strategiyalari, shuningdek, o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasidagi bog'liqlik sezilarli darajada rivojlandi. Dunyo bo'ylab o'qitish strategiyalari yuqori, qo'shimcha samarali natijalarni boshqarish uchun qo'shimcha tuzilmaga aylandi. Ushbu o'zgarish, asosan, texnologiyaning doimiy aralashuvi bilan bog'liq bo'ladi. Ta'limda sun'iy intellektning ijobiy tomonlari shundaki, u inson xatosini kamaytiradi, odamlardan farqli o'laroq tanaffus va yangilanishlarga muhtoj emas, takroriy ishlarni bajaradi va tezroq qaror qabul qiladi, kundalik ilovalarda, xavfli vaziyatlarda yordam beradi, intellektual moderatsiya va virtual haqiqatni o'rganishga imkon beradi hamda real vaqtda yechimlarni baholaydi. Sun'iy intellektning imkoniyatlarini ko'rib chiqamiz.

1. Xavfni kamaytirish: Bu sun'iy intellektning eng katta afzalliklaridan biridir. Sun'iy intellekt robotlarini ishlab chiqish texnologiyasi odamlarning ko'plab xavfli cheklovlarini yengib o'tishga qodir va biz uchun xavfli ishlarni amalga oshirishi mumkin, masalan, bombani zararsizlantirish, neft va ko'mir qazib olish, okeanning eng chuqur qismini o'rganish va hokazo. Shunday qilib, u har qanday yomon vaziyatda ham yordam beradi. Inson yoki tabiiy ofatlar ham sun'iy intellekt robotlari aralashuv xavfli bo'lishi mumkin bo'lgan holatlarda qo'llanilishi mumkin.

2. Odamlardan farqli o'laroq, kompyuter tanaffuslar va yangilanishlarni talab qilmaydi. Oddiy odam 8-9 soatgacha, jumladan, tanaffuslar va yangilanishlarni ham davom ettira oladi, kompyuter mashinasi esa odamlardan farqli o'laroq, 24/7 tanaffuslarsiz ishlaydi va hatto zerikmaydi. Chatbotlar va ishonch telefonlari markazlari doimiy ravishda mijozlar so'rovlarini qabul qilish bilan shug'ullanadigan va sun'iy intellekt tomonidan avtomatik ravishda hal qilinadigan turli veb-saytlarni 24/7 qo'llab-quvvatlashning eng yaxshi namunasi sifatida qaralishi mumkin. Ilmiy fantastikadan tashqarida ko'rinadigan narsa bo'lsa-da, virtual odamlar allaqachon haqiqatdir. Masalan, Boston ilm-fan muzeyidagi "egizaklar" kabi aqlli interfeyslar sun'iy intellekt uchun juda zarur bo'lgan ijtimoiy dinamikani ta'minlaydi. Avatarlar, raqamli yordamchilar yoki Chatbotlar kabi virtual odamlar tejamkor va hech kim bajarmaydigan takrorlanadigan va ko'p vaqt talab qiladigan vazifalarda haftada 7 kun 24 soat ishlashi mumkin.

3. Tezroq qaror: Odamlardan farqli o'laroq, mashina odamlarga qaraganda, tezroq qaror qabul qilishga va harakatlarni tezroq bajarishga yordam beradi. Qaror qabul qilishda odamlar ko'plab omillarni tahlil qiladilar, mashina esa dasturlashtirilgan narsa ustida ishlaydi va natijalarni tezroq ko'rish imkoniyatini beradi.

4. Kundalik ilovalar: Endi hammamiz kundalik hayotimiz uchun mobil va internetga to'liq bog'liqmiz. Biz Google Map, Alexa, Apple's Siri, Windows



Cortana, OK Google, selfi olish, telefon qo'ng'iroq qilish, xabar yozish va hokazo kabi bir nechta ilovalardan foydalanamiz. Bundan tashqari, biz bugungi va kelgusi kunlar uchun ob-havoni ham taxmin qilishimiz mumkin.

5. Tejamkor ta'lim: Ta'limda sun'iy intellektdan foydalanish, shuningdek, ta'lim muassasasi nuqtayi nazaridan ta'lim xarajatlarini kamaytirishi mumkin. Sun'iy intellekt ma'muriyat, o'qituvchilarga va boshqalarga yuklatilgan vazifalarni avtomatlashtirishi mumkin. Buning uchun bir qancha ilovalardan ham foydalanish mumkin.

Dunyodagi har bir narsaning muvozanati uning ijobiy va salbiy tomonlari borligidandir va sun'iy intellekt bundan mustasno emas. Ta'lim tizimida sun'iy intellektning salbiy ta'sirlari: sun'iy intellekt yordamida narxlarining yuqorilashi, aqlli mashinalar shaxsiy o'zaro ta'sir o'rnini bosolmaydi, kamdan-kam hollarda samarali qaror qabul qiladi, axborotni yo'qotish ehtimolini keltirib chiqaradi, shaxslararo munosabatlar yo'qolishiga sabab bo'ladi, turli xil ish tajrlari kamayib, ishsizlar sonining oshib ketishiga sabab bo'ladi, xakkerlar tomonidan ma'lumotlarni noto'g'ri yo'nalishlarda foydalanish ehtimolini tug'diradi va bular salbiy oqibatlar keltirib chiqishi mumkin?

1. Narxning yuqoriligi: Sun'iy intellekt qanchalik imkoniyati ko'p bo'lsa, u ham yuqori narxga ega. Mahsulot narxi nafaqat yuqori, o'rnatish, texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash xarajatlarini birlashtirganda, sun'iy intellekt qimmat ekanligi aniq. Balki texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash xarajatlari ham yuqori bo'ladi. Sun'iy intellekt ko'proq raqamli qurilmalarni talab qilar ekan, maktablarni boshqarish uchun zarur bo'lgan quvvat miqdori oshadi. Xarajatlarni qoplash uchun maktablar byudjetini kengaytirishi kerak. Bundan tashqari, ular quvvat sarfini muvozanatlash uchun ma'lum qarorlarni ham taklif qilishlari kerak. O'rnatish, texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash xarajatlarini birlashtirganda, sun'iy intellekt qimmat ekanligi aniq. Shunday qilib, hozirgi paytda undan faqat yaxshi moliyalashtirilgan maktablar foyda ko'rishi mumkin.

2. Texnologiyaga bog'liqlik: Maktablarda sun'iy intellekt asosidagi yechimlarga tobora ko'proq ishonib borar ekan, o'qituvchilar va o'quvchilar texnologiyaga haddan tashqari qaram bo'lib qolish xavfi bor. Uzoq muddatda bu qaramlik muhim an'anaviy o'qitish usullarini e'tiborsiz qoldirishga, tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini yo'qolishiga olib kelishi mumkin.

3. Axborotni yo'qotish: Sun'iy intellekt ta'mirlashga muhtoj bo'lsa, qancha ma'lumot yo'qoladi? Sun'iy intellektning ijobiy va salbiy tomonlari haqida gap ketganda, ko'proq foyda bor. Biroq, sun'iy intellektdan to'liq foydalanish uchun vazifalarni optimallashtiradigan mashinalar va mashinalardan foydalanadigan odamlar o'rtasida muvozanatni saqlash kerak. Sinfdagi sun'iy intellektning maqsadi o'qituvchilarni almashtirish bo'lmasligi kerak. Bu ularning ishlarini



osonlashtirishi lozim. Raqamli sinfni maktab internetiga qo'shib, o'quvchilarning gibrid muhitda o'rganish imkoniyatlarini kengaytirish mumkin. O'quvchilarning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda javoblar, tarkib va darslarni avtomatlashtirish va talabalar bir-biri, o'qituvchilar va ota-onalar bilan muloqot qilishlari mumkin bo'lgan ijtimoiy platformani yaratish imkoniyatlari mavjud.

Sun'iy intellekt o'quvchilarning o'rganish usullarini va o'qituvchilarning dars berish usullarini o'zgartirishda muhim rol o'ynaydi. Biz ta'limda sun'iy intellektning ijobiy va salbiy tomonlarini ko'rib chiqdik, bu jihatlarni muvozanatga keltirish uchun inson aralashuvi talab qilinadi. Sun'iy intellektning imkoniyatlari bilan birga muammoli tomonlari ham juda ko'p lekin biz bu sohani rivojlanishi uchun uning ijobiy taraflari ustida ishlasak uning salbiy tomonlari kamaytirishga erishishimiz mumkin.

Yakunga kelib biz shunday xulosa qilishimiz mumkin. Dunyo juda katta tezlikda rivojlanmoqda va biz sun'iy intellekt kuchi zarardan ko'proq foyda keltirishini tushunishimiz kerak, shuning uchun biz sun'iy intellektni nafaqat ta'limda, balki hayotimizning ko'p sohalarida qo'llashimiz kerak. O'quvchilar uchun eng yaxshi ta'lim berish va biz sun'iy intellektga tayanmagan holda undan me'yorida foydalanishni o'rganishimiz kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Begalov B.A., Abdullayev M.K. "Raqamli iqtisodiyot" [Darslik]. – T.: «Iqtisodiyot», 2023. – 362 b.
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Sun%CA%BCiy_intellekt
3. <https://www.waldenu.edu/programs/education/resource/five-pros-and-cons-of-ai-in-the-education-sector>
4. <https://www.unesco.org/en/digital-education/artificial-intelligence>
5. <https://lex.uz/docs/-5746496>



RAQAMLI TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH YO'LIDA YUZAGA KELADIGAN MUAMMOLAR VA ULARNI HAL QILISH USULLARI

Mallayev Oybek Usmankulovich – Tashkent Perfect University, t.f.f.d (PhD)

E-mail: rtt@perfectuniversity.com

Qodirov Rahimjon Rasuljon o'g'li – Tashkent Perfect University, assistant

E-mail: rahimjonqodirov1997uzbek@gmail.com

Annotatsiya. Zamonaviy global raqamli transformatsiyalar bugungi kunda raqamli iqtisodiyot va raqamli jamiyatga o'tish bilan bog'liq. Ijtimoiy raqamlashtirish sifatli texnologik o'zgarishlar tufayli yuzaga keladi. Butun dunyoda ta'limda raqamlashtirish – raqamli muhitda hamda yangi turmush tarzi muhitida tug'ilib o'qiyotgan avlodlarning paydo bo'lishi bilan chambarchas bog'liq.

Ta'lim jarayonining raqamli transformatsiyasining dolzarbligi va ahamiyati raqamli iqtisodiyot va raqamli jamiyatga o'tishning global jarayonlari bilan bog'liq. Raqamli turmush tarzi jamiyat uchun yangi ijtimoiy-iqtisodiy istiqbollarni ochib, odamlarga yangi imkoniyatlarni taqdim etadi. Jamiyatning raqamli transformatsiyasi bu dunyodagi (ayniqsa, kasblar olamida) talabaning roli va yangi texnologiyalar instrumental imkoniyatlarini o'zgartiradi.

Kalit so'zlar: Raqamli ta'lim, individual o'rganish, foydalanish imkoniyati, ishtirok etish, texnologik malaka, baholashning yaxlitligi, bulutli texnologiyalar, mobil ta'lim, kasbiy rivojlanish, gibrid ta'lim, raqamli infratuzilma, intellektual repetitorlik.

Kirish Raqamli ta'limni o'rganish o'qituvchilar va talabalar uchun misli ko'rilmagan imkoniyatlarni taqdim etdi. Biroq, bu o'zgarish o'ziga xos qiyinchiliklar bilan birga keladi. Ushbu tezis raqamli ta'lim bilan bog'liq muammolarni o'rganish va hayotiy yechimlarni taklif qilishga qaratilgan. Ilmiy tadqiqotlar va keng qamrovli tahlillarga tayanib, universitet o'qituvchilariga raqamli ta'lim samaradorligini oshirish bo'yicha tushuncha va tavsiyalar beriladi.

Raqamli inqilob jamiyatning barcha jabhalarini o'zgartirmoqda va ta'lim ham bundan mustasno emas. Raqamli ta'limning rivojlanishi individual o'rganish, sohalar tadbiqlarini kengaytirish va qiziqarli tajribalar uchun ajoyib imkoniyatlarni taqdim etadi. Biroq, bu imkoniyatlar bilan bir qatorda universitet o'qituvchilaridan raqamli ta'lim salohiyatidan to'liq foydalanish uchun puxta o'ylangan yechimlarni talab qiladigan muammolar mavjud.

Izlanishlar va tadqiqotlar Zamonaviy tadqiqotlar raqamli dunyoda iqtisodiyot va ta'lim o'rtasidagi munosabatlarga bag'ishlangan; raqamli iqtisodiyotda amaliy ko'nikma va malakalarni rivojlantirish xususiyatlarini o'rganadi. Raqamli muhitda ishlaydigan odamlar murakkab ma'lumotlarni yaratish va qayta ishlash imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Bunda ulardan tizimli va tanqidiy fikrlash; ijodiy va raqamli dunyoning haqiqiy muammolarini hal qila oladigan bo'lish talab qilinadi.

Bir qator tadqiqotlarda raqamli ta'limni rivojlantirish masalasi sun'iy intellekt texnologiyasini kundalik hayotga joriy etish va joriy etish bilan chambarchas bog'liq. Bunda ular mahalliy raqamli avlodlarning paydo bo'lishi, raqamli muhitda yashovchi odamlar, kasbga yo'naltirish bilan bog'liq keskin o'zgarishlar, bandlik va umrbod ta'limdagi ko'plab o'zgarishlar kabi omillarni inobatga olishlar kerak.

Raqamlashtirish jarayoni va uning tarkibiy qismlarini yaxlit baholashga bag'ishlangan tadqiqotlar juda kam. Ko'pincha ushbu jarayonning ayrim elementlarini takomillashtirish bo'yicha loyihalar taklif etiladi. Bularga onlayn ta'lim, mobil ta'lim, o'qitishning aralash usullari, bulutli texnologiyalardan foydalanish va boshqalar kiradi. Bu texnologiyalarning barchasi muayyan ehtiyojlarga muvofiq mustaqil ravishda amalga oshiriladi.

Xorijiy tadqiqotlar raqamli ta'lim bilan bog'liq bo'lgan konseptual apparatni ham ko'rib chiqadi: mobil ta'lim, birma-bir ta'lim, sinxron va asinxron onlayn kurslar. Bilimlarni avtomatlashtirilgan baholashni afzal ko'radi va o'qitishni yaxshilash uchun kompyuterga asoslangan ta'lim va intellektual repetitorlikning ahamiyatini muhokama qiladi. U onlayn ta'lim muammosini belgilaydi, shu bilan birga xorijiy ta'lim tizimlari uchun umumiy bo'lgan boshqa muammolarni ko'rib chiqadi.

O'quv jarayoniga asinxron yondashuv o'quv dasturi doirasida ta'lim mazmunini yuklash va uzatishni, uni talabalar tomonidan mustaqil o'rganishni va shaxsiylashtirilgan kurs jadvaliga muvofiq o'qituvchiga elektron hisobot berishni o'z ichiga oladi. Sinxron yondashuv videokonferensiya, chatlar va vebinarlar orqali masofaviy ta'lim texnologiyalari asosida real vaqt rejimida o'qitishni o'z ichiga oladi. Veb-seminar an'anaviy qo'shimcha kurs yoki masofaviy ta'lim doirasida o'tkazilishi mumkin. Bu o'qituvchi va talabalarning fikr-mulohazalari bilan veb-konferensiyani o'z ichiga oladi.

Fikr-mulohaza Raqamli ta'limga o'tish asosan texnologik qulay va moslashuvchan o'quv muhitlariga bo'lgan ehtiyoj bilan bog'liq. COVID-19 pandemiyasi ushbu tendensiyaning tezlashtirdi va raqamli ta'limning imkoniyatlari va kamchiliklarini aniq ochib berdi. Unga quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin:

- *Mavjudlik va inklyuzivlik:* Raqamli ta'lim o'rganishga kengroq kirish potensialini taklif qilsa-da, bu raqamli tafovutni yanada kuchaytiradi. Kam

ta'minlangan oilalardan bo'lgan talabalar ko'pincha kerakli qurilmalar va internetga ulanishga ega emaslar, bu ularning onlayn darslarda to'liq ishtirok etish qobiliyatini cheklaydi.

- *Ishtirok etish va o'zaro ta'sir:* An'anaviy sinf sharoitlari o'zaro ta'sir va jalb qilish uchun tabiiy imkoniyatlarni beradi. Biroq, raqamli platformalar ko'pincha bu dinamikani takrorlash uchun kurash olib boradi, bu esa talabalar ishtirokining pasayishiga va izolyatsiya tuyg'usiga olib keladi.

- *Texnologik malaka:* O'qituvchilar ham, talabalar ham texnologik malaka bilan bog'liq muammolarga duch kelishadi. Raqamli vositalarning tez o'zlashtirilishi ba'zi o'qituvchilarni tayyorgarliksiz qoldirib, o'qitish sifatiga ta'sir qildi.

- *Baholashning yaxlitligi:* Onlayn resurslarning keng tarqalganligi o'quvchilarning noo'rin xatti-harakatlarga yo'l qo'yishini osonlashtiradi va baholash jarayonini murakkablashtiradi.

- *Ruhiiy salomatlik:* Ekran vaqtining ko'payishi va yuzma-yuz muloqotning yo'qligi talabalarning ruhiy salomatligi muammolari tug'diradi, jumladan, tashvish va depressiya kabi muammolar kelib chiqadi.

- *Real vaqtda fikr-mulohazalarning yetishmasligi:* Raqamli ta'lim ko'pincha real vaqtda qayta aloqa mexanizmlaridan mahrum qiladi. O'qituvchilar va talabalar o'z yondashuvlarini o'zgartirish uchun o'z vaqtida ma'lumotga muhtoj.

- *Sifatni baholash:* Raqamli kontent, platformalar va o'qitish usullari sifatini baholash kerak. Muntazam baholashlar yaxshilanishi kerak bo'lgan sohalarni aniqlashi mumkin.

- *O'qituvchilarning texnik bilimlari:* Universitet o'qituvchilarining hammasi ham o'qitish uchun raqamli vositalardan qulay foydalanishmaydi. Texnologiyani samarali integratsiya qilish ularning ishonchi va ko'nikmalarini oshirish uchun professional rivojlanish imkoniyatlarini talab qiladi.

- *Kontent sifati va baholash:* O'quv maqsadlariga mos keladigan va qiziqarli bo'lgan yuqori sifatli raqamli kontentni ishlab chiqish vaqt va tajribani talab qiladi. Bundan tashqari, talabalarning onlayn muhitda o'qishini baholash akademik yaxlitlikni ta'minlash uchun innovatsion yondashuvlarni talab qiladi.

Takliflar Ushbu muammolarni hal qilish uchun ko'p qirrali yondashuv talab etiladi. Raqamli ta'limni yaxshilash bo'yicha ba'zi takliflar:

- *Raqamli infratuzilmani yaxshilash:* Universitetlar barcha talabalar zarur vositalar va resurslardan foydalanish imkoniyatini ta'minlash uchun mustahkam raqamli infratuzilmaga sarmoya kiritishlari kerak.

- *Pedagoglarning malakasini oshirish:* O'qituvchilarning texnologik malakasini oshirish uchun uzluksiz kasbiy rivojlanish dasturlarini amalga

oshirish kerak. Ushbu trening nafaqat raqamli vositalardan foydalanishni, balki onlayn o'qitishning pedagogik strategiyalarini ham qamrab olishi kerak.

- *Interaktiv va qiziqarli resurslar:* Interfaol va multimediyaga boy resurslarni ishlab chiqish an'anaviy sinfdagi mashg'ulotlarni takrorlashga yordam beradi. Virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar va o'yinlashtirilgan o'rganish kabi vositalardan foydalanish talabalarning faolligini oshirishi mumkin.

- *Gibrid o'rganish modellari:* Onlayn va individual o'rganishni birlashtirish ikkala turning eng yaxshisini taklif qilishi mumkin. Gibrid modellar raqamli ta'limning moslashuvchanligini ta'minlaydi, shu bilan birga yuzma-yuz o'qitishning interaktiv afzalliklarini saqlab qoladi.

- *Kuchli baholash usullari:* Ochiq kitob imtihonlari va loyihaga asoslangan baholash kabi ishonchli onlayn baholash usullarini joriy etish akademik yaxlitlikni saqlashga yordam beradi.

- *Ruhiy salomatlikni qo'llab-quvvatlash:* Universitetlar ruhiy salomatlik resurslari va talabalarni qo'llab-quvvatlashi kerak. Bunga maslahat xizmatlari, ruhiy salomatlikdan xabardorlik dasturlari va ekran vaqtini qisqartirish strategiyalari kiradi.

- *Hamjamiyatni qurish:* Talabalar o'zaro muloqot qilishlari va hamkorlik qilishlari mumkin bo'lgan onlayn hamjamiyat va forumlarni yaratish izolyatsiya hissini yumshatishga yordam beradi.

- *Kontentni moslashtirish:* O'quvchilarning individual ehtiyojlari asosida resurslarni moslashuvchan o'quv platformalarini ishlab chiqish.

- *Ma'lumotlar maxfiyligi:* Talabalar ma'lumotlarini himoya qilish uchun ma'lumotlar maxfiyligi choralarini kuchaytirish.

- *Hamkorlik platformalari:* Onlayn platformalar orqali o'qituvchilar, talabalar va ota-onalar o'rtasida hamkorlikni rag'batlantirish.

- *O'qituvchilarning imkoniyatlarini kengaytirish:* Universitetlar professor-o'qituvchilarni texnologiyani o'qitishga samarali integratsiya qilish ko'nikmalari bilan jihozlaydigan kasbiy rivojlanish dasturlariga sarmoya kiritishlari kerak. Ushbu dasturlar onlayn pedagogika, kontent yaratish vositalari va raqamli muhitlarni baholash strategiyalari kabi mavzularni qamrab olishi mumkin.

Xulosa Raqamli ta'limning rivojlanishi ham imkoniyatlar, ham muammolarni keltirib chiqaradi. Mavjudlik, ishtirok etish, texnologik malaka, baholash yaxlitligi va ruhiy salomatlik masalalarini hal qilish orqali universitetlar raqamli ta'lim samaradorligini oshirishi mumkin. Taklif etilayotgan yechimlarni amalga oshirish birgalikda harakat va sarmoyani talab qiladi, biroq yanada inklyuziv, jozibador va samarali ta'lim muhitining afzalliklari bunga arziydi. Universitet o'qituvchilari ushbu o'zgarishlarda hal



qiluvchi rol o'ynaydi va ular to'g'ri yordam hamda resurslar bilan ta'limning kelajagini shakllantirishga yo'l ko'rsatishi mumkin.

Raqamli ta'lim universitetda ta'lim tajribasini oshirish uchun kuchli vositalar to'plamini taklif etadi. O'ziga xos muammolarni tan olish va taklif qilingan yechimlarni faol amalga oshirish orqali universitet o'qituvchilari ushbu raqamli asrda barcha talabalar uchun yanada inklyuziv, qiziqarli va samarali ta'lim muhitini hosil qilish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, raqamli ta'lim ulkan salohiyatga ega, lekin u ham muammolarga duch kelmoqda. Fikr-mulohazalarni ko'rib chiqish, puxta o'ylangan takliflarni amalga oshirish va hamkorlikni rivojlantirish orqali yanada samarali hamda inklyuziv raqamli ta'lim muhitini yaratish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Selvin, N. (2016). "Ta'lim va texnologiya: asosiy masalalar va munozaralar". Bloomsbury nashriyoti.
2. Bates, A.V. (2019). "Raqamli asrda o'qitish: o'qitish va o'qitishni loyihalash bo'yicha ko'rsatmalar". Tony Bates Associates Ltd.
3. Means, B., Toyama, Y., Murphy, R., Bakia, M., & Jones, K. (2020). "Onlayn ta'limda dalillarga asoslangan amaliyotlarni baholash: Meta-tahlil va onlayn ta'lim tadqiqotlarini ko'rib chiqish". AQSh Ta'lim Departamenti.
4. Schrum, L. va Levin, B. B. (2019). "21-asrning etakchi maktablari: ishtirok etish va muvaffaqiyatga erishish uchun texnologiyalardan foydalanish". Corwin Press.

THE ROLE OF MOBILE EDUCATION IN UPGRADING THE QUALIFICATIONS OF TEACHING STAFF IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM

Nomozov Hamdam Sobir o'g'li – Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti tayanch doktoranti

E-mail: hamdambeknomozov@gmail.com

Annotation. *This article delves into the pivotal role of mobile education in enhancing the qualifications of teaching staff within higher education systems. It explores how mobile learning, or m-learning, provides flexible, accessible, and cost-effective solutions for professional development. Through personalized learning experiences, collaborative platforms, and innovative technologies, educators can engage in continuous learning to upgrade their skills and knowledge. The article also discusses current trends and future*

prospects, highlighting the transformative impact of mobile education on the evolving landscape of higher education.

Also this article explores the transformative impact of mobile education on enhancing the qualifications of teaching staff within the higher education system. By leveraging smartphones, tablets, and portable devices, educators can access flexible learning opportunities, personalized learning experiences, and stay updated with the latest advancements in their fields. The article highlights how mobile education empowers teaching staff to engage in professional development, access academic resources, and collaborate with peers globally. It emphasizes the role of mobile technology in fostering continuous improvement and equipping educators with the necessary tools and knowledge for effective teaching in a modern educational landscape. Overall, the article underscores the significance of mobile education as a cornerstone in the professional development of teaching staff in higher education.

Key words: Mobile education, Professional development, Higher education, Teaching staff, M-learning, Personalized learning, Cost-effectiveness, Collaborative learning, Technology in education, Future trends, Qualifications Upgrade, Smartphone Learning, Flexible Learning, Personalized Learning, Academic Resources, Global Collaboration, Continuous Improvement, Modern Educational Landscape

In recent years, mobile education has emerged as a powerful tool for upgrading the qualifications of teaching staff in the higher education system. This shift has been primarily driven by the increasing need for flexible, accessible, and personalized learning experiences. With the proliferation of smartphones and other mobile devices, educators now have the opportunity to engage in continuous professional development and upgrade their qualifications through innovative mobile learning platforms.

In today's rapidly evolving educational landscape, the professional development of teaching staff in higher education is more critical than ever. Mobile education, or m-learning, has emerged as a transformative tool, offering flexible, accessible, and cost-effective solutions for upgrading the qualifications of educators. This article explores the multifaceted role of mobile education in enhancing the skills and knowledge of higher education teaching staff.

One of the key roles of mobile education in upgrading teaching staff qualifications is its ability to provide convenient access to educational resources and training materials. Through mobile applications and online platforms, educators can engage in self-paced learning, access up-to-date academic content, and participate in virtual workshops and seminars without the constraints of time and location. This flexibility not only empowers



teaching staff to pursue further qualifications while balancing their professional responsibilities but also encourages lifelong learning as a fundamental aspect of their career development.

The integration of mobile education in the higher education system has played a pivotal role in upgrading the qualifications of teaching staff. Mobile education, facilitated by the use of smartphones, tablets, and other portable devices, has revolutionized the way educators access and disseminate knowledge, enabling them to stay updated with the latest teaching methodologies and subject matter.

One of the key aspects of mobile education is its ability to offer convenient and flexible learning opportunities for teaching staff. Through mobile platforms, educators can engage in professional development courses, access academic resources, and participate in online discussions without being confined to a specific physical location. This flexibility empowers educators to enhance their teaching skills while managing their professional responsibilities. Moreover, mobile education facilitates personalized learning experiences tailored to the specific needs and interests of teaching staff. By leveraging adaptive learning technologies and data analytics, educational institutions can deliver targeted training programs that align with individual educators' professional goals and areas for improvement. This personalized approach not only enhances the effectiveness of professional development initiatives but also contributes to a more motivated and engaged teaching workforce.

Furthermore, mobile education has facilitated personalized learning experiences for teaching staff. With access to a wide array of educational apps, e-books, and online courses, educators can tailor their learning paths to align with their specific areas of interest and expertise. This personalized approach not only enhances their qualifications but also fosters a culture of continuous improvement within the higher education system.

Moreover, the use of mobile technology has enabled teaching staff to stay abreast of advancements in their respective fields. By leveraging mobile applications and digital platforms, educators can engage in real-time discussions, access updated research findings, and collaborate with peers globally. This constant exposure to new ideas and perspectives enriches their knowledge base and equips them with the latest tools and techniques vital for effective teaching in the modern higher education landscape. Mobile education serves as a catalyst for global collaboration and knowledge sharing among teaching staff in higher education. Through virtual communication tools and collaborative learning platforms, educators can connect with peers from diverse cultural and academic backgrounds, exchange best practices, and engage in cross-disciplinary discussions. This exposure to varied



perspectives and pedagogical approaches not only enriches the professional development of teaching staff but also fosters a culture of continuous improvement within the higher education community.

Mobile education provides unparalleled accessibility and flexibility, allowing teaching staff to engage in continuous learning without the constraints of time and location. With mobile devices such as smartphones and tablets, educators can access training materials, courses, and resources at their convenience [1]. This flexibility is particularly beneficial for those with demanding schedules, enabling them to balance professional development with their teaching responsibilities. The 24/7 availability of mobile education platforms ensures that learning can occur at any time, making it easier for educators to integrate professional development into their daily routines [2].

One of the significant advantages of mobile education is its ability to offer personalized learning experiences. Mobile education platforms can tailor content to individual needs, preferences, and learning styles, creating customized learning paths for educators [3]. This personalization helps educators focus on areas where they need the most improvement, ensuring a more efficient and effective learning process. Additionally, self-paced learning allows educators to progress at their own speed, revisiting complex topics as needed and solidifying their understanding before moving on [4].

Mobile education is also a cost-effective solution for professional development. Traditional professional development often involves significant expenses related to travel, accommodation, and printed materials. In contrast, mobile education reduces or eliminates these costs, making it a more affordable option for both institutions and individual educators [5]. Furthermore, mobile education platforms can scale to reach a large number of educators without a proportional increase in costs, making it a viable option for widespread professional development initiatives [6].

Mobile education leverages interactive and engaging content to enhance the learning experience. Educational apps and platforms often incorporate multimedia elements such as videos, quizzes, and interactive simulations, which make learning more dynamic and engaging [7]. Gamification, which involves adding game-like elements to educational content, further enhances engagement by making learning enjoyable and motivating educators to achieve their learning goals [8].

Mobile education also fosters collaborative learning by providing platforms for discussion, collaboration, and peer-to-peer learning among educators. Online communities enable teaching staff to share resources, discuss best practices, and collaborate on projects, creating a supportive and enriching professional development environment [9]. These platforms also



facilitate mentorship opportunities, connecting less experienced educators with seasoned mentors who can provide guidance and support [10].

Several technologies underpin the effectiveness of mobile education. Mobile apps designed for various aspects of teaching and learning offer subject-specific tools, classroom management features, and professional development resources [11]. Learning Management Systems (LMS) that are mobile-friendly provide comprehensive resources and track professional development progress [12]. Virtual and Augmented Reality (VR/AR) offer immersive learning experiences, enabling educators to explore new teaching methods and subject matter in a highly engaging manner [13].

The future of mobile education looks promising, with several emerging trends set to enhance its impact further. The integration of Artificial Intelligence (AI) and Machine Learning can provide even more personalized learning experiences by analyzing learning patterns and tailoring content accordingly [14]. Data analytics will play a crucial role in tracking progress, assessing learning outcomes, and providing real-time feedback. The advent of 5G technology will improve connectivity, allowing for more sophisticated and seamless mobile learning experiences. Additionally, the rise of microlearning—short, focused learning modules—will cater to educators' need for quick, on-demand learning sessions.

Conclusion. Mobile education is revolutionizing the professional development of teaching staff in higher education by offering flexible, accessible, and cost-effective solutions. Its ability to provide personalized, engaging, and collaborative learning experiences makes it an invaluable tool for educators looking to upgrade their qualifications and enhance their teaching skills. As technology continues to advance, the role of mobile education in higher education will only grow, further enriching the professional development landscape.

The role of mobile education in upgrading the qualifications of teaching staff in the higher education system cannot be overstated. Its capacity to offer flexible learning opportunities, personalized learning experiences, and access to up-to-date information has transformed the professional development landscape for educators. As mobile education continues to evolve, it will undoubtedly remain a cornerstone in the ongoing enhancement of teaching staff qualifications within higher education.

In summary, mobile education is not just a trend but a transformative force in the continuous professional development of higher education teaching staff. Institutions should embrace and invest in mobile education technologies to ensure their educators are well-equipped to meet the challenges of modern education.



LIST OF REFERENCES

1. Ally, M., & Tsinakos, A. (2014). Perspectives on Open and Distance Learning: Increasing Access through Mobile Learning. Commonwealth of Learning and Athabasca University.
2. Crompton, H. (2013). Mobile Learning: New Potential of Education. *International Journal of Social Media and Interactive Learning Environments*, 1(1), 21-30.
3. Gikas, J., & Grant, M. M. (2013). Mobile Computing Devices in Higher Education: Student Perspectives on Learning with Cellphones, Smartphones & Social Media. *The Internet and Higher Education*, 19, 18-26.
4. Traxler, J. (2010). Will Student Devices Deliver Innovation, Inclusion, and Transformation?. *Journal of the Research Center for Educational Technology*, 6(1), 3-15.
5. West, D. M. (2013). Mobile Learning: Transforming Education, Engaging Students, and Improving Outcomes. Brookings Institution.
6. Laurillard, D. (2007). Pedagogical forms of mobile learning: Framing research questions. In N. Pachler (Ed.), *Mobile learning: towards a research agenda* (pp. 153-175). Routledge.
7. Kukulska-Hulme, A., & Traxler, J. (2005). *Mobile Learning: A Handbook for Educators and Trainers*. Routledge.
8. Pachler, N., Bachmair, B., & Cook, J. (2010). Mobile Learning: Structures, Agency, Practices. Springer.
9. Burden, K., & Kearney, M. (2016). Investigating and critiquing teacher educators' mobile learning practices. *Interactive Learning Environments*, 24(1), 52-65.
10. Schuck, S., & Aubusson, P. (2010). Educational affordances of handheld devices: A case study of mobile learning in teacher education. *Learning, Media and Technology*, 35(3), 249-267.
11. Park, Y. (2011). A pedagogical framework for mobile learning: Categorizing educational applications of mobile technologies into four types. *International Review of Research in Open and Distributed Learning*, 12(2), 78-102.
12. Cochrane, T. (2010). Exploring mobile learning success factors. *ALT-J, Research in Learning Technology*, 18(2), 133-148.
13. Traxler, J., & Kukulska-Hulme, A. (2015). *Mobile Learning: The Next Generation*. Routledge.
14. Herrington, A., & Herrington, J. (2007). Authentic mobile learning in higher education. In N. Pachler (Ed.), *Mobile learning: towards a research agenda* (pp. 195-214). Routledge.

15. Smith, J. (2021). "The Impact of Mobile Education on Professional Development in Higher Education." *Journal of Educational Technology*, 10(2), 45-62.
 16. Johnson, A., & Lee, S. (2020). "Smartphone Learning: A Catalyst for Qualifications Upgrade in Higher Education." *International Journal of Mobile Learning and Organisation*, 8(3), 211-225.
 17. Chen, L., & Williams, R. (2019). "The Role of Flexible Learning in Upgrading Teaching Staff Qualifications." *Journal of Higher Education Development*, 15(4), 321-335.
 18. Brown, K., et al. (2018). "Mobile Education and Personalized Learning in Higher Education." *Journal of Educational Technology Research*, 5(1), 77-89.
- Garcia, M., & Patel, T. (2017). "Global Collaboration and Mobile Education for Teaching Staff in Higher Education." *International Journal of Educational Technology*, 12(3), 132-147.

YANGI O'ZBEKISTONDA AXBOROT MAKONIDAGI TRANSFORMATSIYALASHUV JARAYONLARINING MA'NAVIY- AXLOQIY ASOSLARI

Rasulov Azizkhon Mukhamadqodirovich –
Farg'ona davlat universiteti, falsafa va milliy g'oya
kafedrası o'qituvchisi
E-mail: razixon@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada Yangi O'zbekistonda axborot makonidagi transformatsiyalashuv jarayonlarining ma'naviy-axloqiy asoslari tadqiq etilgan. Globallashuv zamonida yoshlarning qalbi va ongini egallash uchun kurash, axborot sohasida turli xatarlarning ta'siri o'rganilgan. Shuningdek, turli kuchlar o'rtasida shafqatsiz manfaatlar kurashi borayotgan bir paytda har qaysi g'oyaviy markaz o'ziga ma'qul bo'lgan, o'ziga foyda keltiradigan axborotni tarqatish va shuning orqasidan foyda ko'rish kabi masalalar bayon etiladi.

Kalit so'zlar: Globallashuv, kompyuter texnologiyalari, jamiyat, internet, radio va televideniye, axborot texnologiyalari, islohotlar, ma'naviy tarbiya, elektron hukumat, mas'uliyat, rahbar kadrlar.

Har bir xalqning yaratgan boy ma'naviy merosi va salohiyati uning milliy qiyofasini saqlab qolish, bo'lajak taqdirini belgilash, taraqqiyot strategiyasi va yo'nalishlarini aniqlashtirishda muhim halqa bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek,



olamda kechayotgan mafkuraviy va ma'naviy bo'hronlar ostida uning jahon siyosati va xalqaro munosabatlar sahnasida o'z ovozi, nufuziga ega bo'lishi, dunyo sivilizatsiyasiga daxldor ekanligi alohida o'rin tutadi. Insoniyat tarixida, xususan, globallashib borayotgan bugungi dunyoda sodir bo'layotgan voqealarni diqqat bilan kuzatar ekanmiz, jahondagi barcha voqelikni yaratuvchisi sifatida ma'naviyat va axloqning birlamchi omil ekanligini his qilish qiyin emas.

Albatta, globallashuv jarayonlari davlatlar va xalqlar o'rtasida integratsiya va hamkorlik aloqalarining kuchayishi, kapital va tovarlar, ishchi kuchining erkin harakati uchun qulayliklar vujudga kelishi, ilm-fan yutuqlarining tezlik bilan tarqalishi, turli qadriyatlarning umuminsoniy negizda uyg'unlashuvi, sivilizatsiyalararo muloqotning yangicha sifat kasb etishi bilan belgilanadi. XX asr boshlariga kelib dunyo mamlakatlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir shu qadar kuchayib bordiki, bu jarayondan o'zini to'la ajratib olgan birorta davlat yo'q, deb to'la ishonch bilan aytish mumkin. Hattoki xalqaro tashkilotlardan uzoqroq turishga intilayotgan, ularga a'zo bo'lishni istamayotgan mamlakatlar ham bu jarayondan mutlaqo chetda emas.

Globallashuv bir tomondan insoniyatning birlashishi va integratsiya jarayonlarini kuchaytiruvchi, uning farovonlik darajasini oshiruvchi, davlatlarning iqtisodiy va siyosiy jarayonlarini jadallashtiruvchi, mamlakatlar va xalqlarning texnologik ilmiy va madaniy yutuqlarini o'zaro almashishini faollashtiruvchi omil bo'lsa, boshqa tomondan boy, qudratli G'arb va qashshoq hamda zaif G'arb dunyosiga tegishli bo'lmagan davlatlar o'rtasidagi farqni tobora kuchaytiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi.

Birgina axborot-kommunikatsiya sohasidagi globallashuv jarayonini kuzatar ekanmiz, uning ta'siri jahonda g'oyaviy va madaniy gegemonlik uchun asosiy qurolga aylanayotganini ko'ramiz. Axborot texnologiyalari yuksalgan davlatlar esa bu jarayonning harakatga keltiruvchi kuchlari bo'lmoqda. Bizningcha, globallashuv jarayoni bilan bog'liq ziddiyatlar, avvalo, madaniy-ma'rifiy sohada yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Ma'naviy tahdid inson erkinligiga, uni g'oyaviy qaram qilish, ruhiy dunyosini izdan chiqarishga qaratilgan bo'lib, u jozibali shiorlar va g'oyalar ostida yashirinadi, diniy va milliy rishtalarga bolta uradi, yoshlarning qalbini va ongini egallashga, ularning dunyoqarashiga zararli fikrlarni tiqishtiradi, oxir-oqibatda mamlakat xavfsizligiga va milliy manfaatlarga tahdid solib, jamiyatni inqiroz ko'chasiga olib keladi. Demak, mazkur xatarlar mamlakati, millati, o'zi yashab turgan jamiyatning kelajagi haqida qayg'uradigan, o'zini fuqarolik pozitsiyasiga ega, yurtga daxldorlik hissi yuksalgan har bir insonni tashvishga solishi, o'z navbatida, uning oldini olish uchun o'z iqtidori va salohiyatini ishga solishni talab etadi.



Ma'naviy qurolsizlantirilgan va buning oqibatida ma'naviy ildizlari zaiflashgan xalq eng oddiy xavf-xatar oldida ham ojiz bo'lib qoladi. Bugun dunyodagi katta-kichik har bir mamlakat ona sayyoramizning duch kelgan chorrahasida o'z manfaatini qidirib, voqea-hodisalarga baho berishda, avvalo, o'z manfaatlaridan kelib chiqar ekan, yanada hushyor va ogoh bo'lishga to'g'ri keladi. Niyati xolislikdan yiroq kuchlar bugungi globallashuv zamonida o'zga bir xalq, millat ma'naviyatiga qarshi kurash boshlar ekan, bir qarashda beozor ko'rinadigan "maftunkor, jozibali" vositalardan, jumladan internet, radio va televideniye imkoniyatlaridan, chiroyli ko'rinish va manzaralarga burkalgan ko'p seriyali kino mahsulotlaridan, ommaviy axborot vositalaridan g'oyatda unumli foydalanadi. Bunda asosiy kuch va imkoniyatlar yosh avlod ongi va qalbiga ta'sir o'tkazish, ularni to'g'ri yo'llardan og'dirishga qaratiladi.

Fikrimizcha, buning uchun quyidagi yo'nalishlarga asosiy e'tibor qaratish lozim: milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unligiga erishish. Bunda, asrlar osha qon-qonimizga singib ketgan ota-onani ulug'lash, oilani muqaddas saqlash, farzandning burchi, o'zaro mehr-oqibat, iffat, or-nomus, hayo kabi fazilatlar, ustoz va shogirdlar odobi kabi ezgu qadriyatlarga sodiq qolish; yoshlar ongini shakllantirishga oid umumbashariy tajribalarning yutuq va kamchiliklarini o'rganish hamda ulardan samarali foydalanish, boshqa millatlarni hurmat qilish, ularning madaniyati va milliy qadriyatlariga ongli yondashish, ijtimoiy munosabatlarda insonparvarlik, bag'rikenglik g'oyalarining aks etishi; tarbiyaviy va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishda yoshlarning istak va xohishlarini inobatga olish, unda har qanday zo'rlik va majburlovlardan voz kechish, yoshlarning asosiy qiziqishi va faoliyat doirasini tashkil etayotgan turli xil sohalarni tarbiya jarayonida to'liq qamrab olish. Bunda, axborot texnologiyalari (ommaviy axborot vositalari – gazeta, jurnal, radio, televideniye va internet) xizmatidan foydalanishni keng yo'lga qo'yish, milliy qadriyatlarimizni o'zida aks ettiradigan internet saytlari, multimedia va roliklarni ko'paytirish. Yoshlar ongiga ijobiy ta'sir etuvchi musiqa va kino san'atining tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanish; milliy intellektual salohiyatni rivojlantirish. Buning uchun ta'lim va milliy tarbiyani rivojlantirish, urf-odat, an'ana va qadriyatlarni umumbashariy qadriyatlarga uyg'un holda yoshlar dunyoqarashining ajralmas qismiga aylantirish. Yoshlarning siyosiy ongini, huquqiy, axloqiy, estetik madaniyatini yuksaltirish; yoshlarda umummilliy va jamiyat manfaatlarini shaxsiy manfaatlardan yuqori qo'ya olishlari, jamiyat va millat oldidagi insoniy burchlarini to'laqonli anglashlari, xalq baxt-saodati hamda yurt farovonligi yo'lida mehnat qilishlariga erishish uchun ijtimoiy va psixologik sharoit yaratish; yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish, milliy g'oya targ'ibotini izchil davom ettirish.

Insoniyat yangi tamaddunga qadam qo'yganini har nafasda his qilmoqdamiz. Bu narsa umumbashariy tamoyillarga urg'u berilgan holatda



milliy ma'naviyatning evrilishi, qadriyatlarning o'zgarishi yoki almashishi hodisalari mavjud zamonaviy tafakkur tarzida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Butun dunyoda qadriyatlar almashishi, integratsiyalashuv, globallashuv, agar ta'bir joiz bo'lsa, madaniyatlar aralashuvi, sintezlashuvi jarayoni kechayotgan hozirgi paytda o'zga urf-odatlariga, ma'naviy tamoyillarga moyil bo'lish tabiiy hol. Ko'plab tadqiqotchilar istilohlarida kishilar ongini programmalashtirish, axborot ekspansiyasi, madaniy gegemonlik, madaniy imperializm kabi iboralar qo'llanmoqda. Unda yangi madaniy tamoyillarga ko'r-ko'rona ergashish, hukmron madaniy axloqqa bo'ysunish kabi hodisalar kechadi. Achinarlisi shundaki, demokratik tamoyillar va liberalizm turtkilari ta'sirida vijdon va individual xususiyat bilan bog'liq bu hodisalarda hech kim ayblanmaydi. Ushbu jarayon nafaqat kattalarga, hatto bolalar psixologiyasiga ham ta'sir qiladi. Kichik do'stlarimiz jajji ma'naviy dunyosini egallash borasida turli axborot rastalaridan tashqari yana mafkuraviy bozorlarda ham "savdo" ketmoqda. Bolalar ong-u shuurini egallash qurollaridan biri kompyuterdagi Internet tarmog'i hisoblanib, u boshqa vositalarga qaraganda yetakchilik qilmoqda.

Bugun kompyuter texnologiyalari hayotimizda mustahkam o'ringa ega, kompyuter savodxonligi ko'rsatkichi esa ko'p hollarda insonning yuqori saviyasini belgilab beradigan omilga aylanib bormoqda. Endilikda kompyuterda ishlashni bilmaydigan xodimni yaxshi mutaxassis deyish qiyin. Agar o'tgan asrning 90-yillari o'rtalarida yoshlarning eng sevimli mashg'ulotlari musiqa tinglash va teleko'rsatuvlar ko'rish bo'lgan bo'lsa, hozirgi paytda esa kompyuter va Internet avvalgi qiziqishlarni yosh avlod hayotidan siqib chiqardi. Zamonamiz yoshlarining 70 foizi o'z qiziqish va sevimli mashg'ulotlari haqida so'z yuritganda sport, do'stlar bilan suhbatlashish, ma'naviy va madaniy hordiq chiqarish bilan bir qatorda kompyuter texnologiyalari, Internetga bo'lgan qiziqishini birinchi o'rinda tilga oladi.

Bugungi kunda virtual tahdid nihoyatda ommalashib bormoqda. Hozirda maktab yoshidagi bolalar internetdan tobora erta foydalanishga kirishmoqda. Masalan, boshlang'ich sinf o'quvchilari bimalol maktab yon-atrofidagi kafe yoki klubga kirib, internetdan foydalanishi mumkin. Shu bois ular uyda ham internetga ulanish imkoni bo'lishini xohlashi tabiiy. Lekin mutaxassislarning fikricha, yoshi o'nga yetmagan bola, odatda, mustaqil ravishda internetdan foydalanish uchun zarur bo'lgan tanqidiy, tahliliy fikrlash va shu asosda ma'lumotlarni farqlash, ularni ajrata bilish, boshqacha aytganda, «filtrlay» olish qobiliyatiga ega emas. Shu sababli Internetdan yolg'iz qolganda ham foydalanish ehtimoli bo'lgan bolani qattiq nazorat ostiga olish kerak, unga o'zi haqidagi shaxsiy ma'lumotlarni Internet orqali tanishgan odamlarga aytmaslikni o'rgatish zarur. So'nggi paytlarda Internet orqali tahdid etish yoki ilmiy tilda aytadigan bo'lsak, grifing holatlari ko'p kuzatilmoqda. Bu kabi tarmoq bezoriligining eng birinchi qurbonlari aynan yoshlar qatlami, xususan,



o'smirlar hisoblanadi. Bir qarashda beozor tuyulgan chat xonalar yoki maxsus muloqot dasturlari orqali kechadigan suhbatlar tafakkuri endi shakllanayotgan bolalarni ba'zan jinoyatgacha yetaklab borayotgani hayotiy haqiqat. Virtual sekta yoki grifing bilan shug'ullanadiganlar yoxud grifyorlar zamonaviy yoshlarning qiziqishlaridan juda yaxshi xabardor bo'lib, onlayn konferensiya, forum xonalarida istalgan mavzuda suhbat yuritishi, o'zlarini ularning muammolarini tushunadigan odamlar sifatida ko'rsatishi mumkin, buning ustiga, veb tarmoqda anonimlikni saqlash xususiyati qisqa fursat ichida ishonchga kirib olishga imkon yaratadi. Grifing bilan kurashishning eng oddiy usuli – kompyuterga maxsus taqiqlov dasturlari (eng mashhurlari Kiberpatrul yoki Kidskontrol)ni o'rnatish. Shunda zararli manbalardan keladigan barcha xabarlar avtomatik tarzda filtrlanadi yoki dasturga ota-onalar tomonidan kiritilgan cheklov tufayli bolaning o'zi qiziqib nojo'ya axborotni olmoqchi bo'lganda, avtomatik taqiq ishga tushadi. Ayni paytda mazkur dasturlar ham to'liq xavfsizlikni kafolatlay olmaydi, chunki ba'zida ular foydali axborotni cheklab qo'yishi yoki keraksizini o'tkazib yuborishi mumkin. Hozirgi kunda ko'plab mamlakatlarda Internetdan foydalanish ko'nikmalari fakultativ dars sifatida maktab dasturiga kiritila boshladi. Buni ham grifingga qarshi kurashishning o'ziga xos usuli sifatida ko'rsatish mumkin. Negaki fakultativ darslar orqali bolalar Internetdan olinadigan ma'lumotlarning qanchalik haqqoniy va to'g'ri ekanini tekshirishga o'rgatiladi. Bunday darslar, ayniqsa, o'smirlar uchun zarur.

Internetda grifingdan tashqari o'smir yoshlar uchun yana bir qancha xavflar ham bor. Ya'ni bolalar va Internet muammosi tobora chuqurlashib borayotgan bir paytda, ekstremistik xarakterdagi sekta va uyushmalar saytlarining foydalanishga ochiqligi, virtual firibgarlikka keng yo'l qo'yilganini ham e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi. Bolalarning qiziquvchan tabiati ularni yuqorida tilga olingan turdagi saytlarga yetaklashi, bu veb-sahifalarda ularning ruhiy yoki jismoniy sog'lig'iga xavf soluvchi ma'lumotlarni ko'rishiga olib kelishi tabiiy. Elektron pochta manzillari orqali olingan xabarlar kuchli ruhiy ta'sir o'tkazib, bolalarni Internet doirasida va undan tashqarida ham jinoyatga undashi hech gap emas. Bank yoki kredit kartochkasidagi hisob raqamlarni bilgan bolakaylar onlayn savdolarida qatnashish imkoni bilan birga kichik o'yinchoqdan tortib to eng so'nggi rusumdagi avtomobil sotib olish huquqiga ham ega bo'ladi. Bu esa ularni virtual firibgarlarning nishoniga aylantiradi. Shu sabab global tarmoqdan foydalanuvchilar ko'p bo'lgan Belorusiyada bu kabi muammolar qator yangi kasblarning vujudga kelishiga ham turtki bo'lgan.

Yangi turdagi mazkur mutaxassislarning vazifasi oilada Internetdan foydalanish madaniyatini joriy etadigan hamda bolalarga psixologik, ma'naviy hamda jismoniy zarar yetkazmaydigan ochiq va xavfsiz axborot makonini yaratishdan iborat. Shuningdek, ko'plab jamoat tashkilotlari, nodavlat



tashkilotlar va xususi kompaniyalar o'z faoliyatini Internetning bolalarga ta'siri va undan bo'ladigan zararning oldini olish usullarini o'rganishga qaratgan. Jumladan, Internet mazmunini baholash assotsiatsiyasi (ICRA) mustaqil xalqaro tashkilot bo'lib, asosiy vazifasi ota-onalarni ularning farzandlarini tarmoqda kutayotgan ko'ngilsizlik va xavfli munosabatlar haqida ogohlantirish, kibermakonda bolalarni noto'g'ri axborotlardan himoyalash va so'z erkinligini ta'minlashdan iborat.

Ispaniyaning Bolalarni himoya qilish agentligi (Child Protection Agency) tadqiqotlari natijalari shuni ko'rsatdiki, Internetdan doimiy ravishda foydalanuvchi bolalarning 44 foizi virtual muloqot paytida hech bo'lmaganda bir marta, 11 foizi esa bir necha bor ta'qib ostiga olingan. E'tiborli tomoni shundaki, so'rovlarda ishtirok etgan yoshlarning 14,5 foizi Internet orqali notanish odamlar bilan uchrashuv belgilagan, 10 foizi bunday uchrashuvlarga yolg'iz borgan, 7 %i bu haqda hech kimga hech narsa aytmagan. Dunyo miqyosida esa 38 % bolalar zo'ravonlik ruhidagi saytlarni, 26 foiz bola millatchilik xarakteridagi veb-sahifalarni muntazam kuzatib borishi ma'lum bo'ldi. 2008 yilning oxirgi oylarida dunyoning eng mashhur kompaniyalaridan biri bo'lmish «Microsoft» 28 davlatda o'zining chat xonalarini yopishini e'lon qildi. Bu harakat bolalar muammolari bilan shug'ullanuvchi huquq-tartibot hamda xayriya tashkilotlari tomonidan to'liq qo'llab-quvvatlandi, chunki erkin va nazoratsiz forum xonalar spam, virus va axloqsiz axborotni tarqatish manbayiga aylanib qolgan edi.

Shu tariqa MSNning tekin chatlari Yevropa, Yaqin Sharq, Afrika, Osiyo va Lotin Amerikasining ko'plab mamlakatlarida o'z faoliyatini to'xtatdi. Ularning o'rniga Microsoft Messenger tezkor xabar almashinish tizimi joriy qilindiki, endilikda bu xizmatdan foydalanish uchun shaxsiy ma'lumotlarni kiritish asosida ro'yxatdan o'tish talab etiladi. Chunki o'tgan yili Buyuk Britaniyada shov-shuvga sabab bo'lgan zo'ravonlar ustidan o'tkazilgan sud jarayonlarining kamida 26 tasida qurbonga aylangan bolalar ta'qibchilar bilan virtual muloqot orqali tanishgani aniqlandi.

Zamonaviy texnologiyalarning tez sur'atlarda o'sishiga qaramay, ba'zan odamlar ulardan qanday oqilona foydalanish kerakligini to'liq anglab yetmaydi. Kompyuter va Internetgacha bo'lgan davrda o'sib-ulg'aygan aksariyat ota-onalar va muallimlar agar bola Internetdan foydalana boshlasa, albatta, foydasidan zarari ko'proq, deb o'ylaydi. Bolani kompyuter yoki Internetdan chalg'itish harakati zamirida, aslida, boshqa bir muammo, ya'ni kattalarning bu masalada nisbatan savodsiz ekani aniqlandi.

Biroq agar ular o'zlari avval texnologiyalar savodsizligi masalasiga jiddiyroq yondashib, uni bartaraf etishsa, maqsadga muvofiq bo'lardi. Negaki, savodsizlik masalasidan qochish orqali bolani texnologiyalardan ajratib qo'yish to'g'ri emas. Buning ustiga yana bir jihat e'tiborga loyiq: bolalarda kibernetik



do'stga nisbatan munosabat aynan kattalarning tutgan yo'lidan kelib chiqqan holda shakllanadi. Shubhasiz, Internet bilim va kerakli axborotni olish uchun ulkan imkoniyatlar yaratadi, biroq tarmoqqa joylashtiriladigan katta hajmdagi axborotning barchasini ham ishonchli va foydali deb bo'lmaydi. Foydalanuvchilar ma'lumotlarning to'g'riligini aniq ajrata bilishi uchun tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lishi talab etilardi. Buning uchun bolalarga Internetda xohlagan odam o'z sahifasini ochishi, unga har qanday ma'lumotni joylashtirishi, bu borada unga hech kim to'sqinlik qila olmasligini vaqtida tushuntirish zarur. Bolalarni keng doiradagi manbalardan foydalanishga yo'naltirish jarayonida faktlarni fikrlardan farqlashga, to'g'riligi tasdiqlanmagan axborotdan himoyalashga ularni o'rgatish, ayniqsa, muhim ahamiyatga ega.

Axborot globallasuvi dunyo mamlakatlaridagi shart-sharoit va ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy hayotimizdagi umumiylikni, o'xshashliklarni keltirib chiqardi. Buning oqibati o'laroq: birinchidan, dunyoda oliy darajadagi ilg'or jamiyat barpo etishning birdan-bir oqilona yo'li demokratik-huquqiy davlat qurish ekanligini e'tirof etish kuchaydi; ikkinchidan, demokratik-huquqiy jamiyatning bosh belgisi va shartlaridan biri – ommaviy axborot vositalarining erkinligi ekanligini inkor etish mumkin bo'lmay qoldi.

Globallasuv sharoitida milliy axborot makonini yaratishning yangicha yo'nalishlari yaratishda ko'p millatli jamiyatni boshqarish, tartibga solish va nazorat qilish mexanizmlarini, avvalo, axloq, huquq hamda siyosatni demokratlashtirish va ijtimoiy adolatni ta'minlash muhim hisoblanadi. Agar siyosat va muayyan darajada huquq ma'lum davr bilan bog'liq holatlarni boshqarishning operativ imkoniyatlarini bersa, axloq (kengroq olganda, ma'naviyat) ular uchun poydevor vazifasini o'taydigan asoslarni berishi asoslandi.

Hozirgi kunda jamiyatni axborotlashtirish jarayoni ijtimoiy hayotning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy-madaniy va boshqa jihatlarini qamrab olmoqda. Shu ma'noda, axborotlashtirish ko'p qirrali jarayon bo'lib, unda texnik-texnologik, ijtimoiy, iqtisodiy-siyosiy va madaniy jihatlar uyg'unlikda olib boriladi. Bu jamiyatning shakllanishi jarayonida nafaqat ishlab chiqarish va texnologiyalar sohasida, balki ijtimoiy-iqtisodiy hamda ma'naviy hayotda ham tub o'zgarishlar sodir bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mukhamadqodirovich, R. A. (2020). The role of mass media in the history of the period of independence. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(4), 356-359.
2. Расулов, А. М. (2021). Ўзбекистонда оммавий ахборот воситаларининг фаолияти. *Scientific progress*, 2(1), 804-809.



3. Rasulov, A. M. (2022). Оммавий ахборот воситаларининг жамият аъзоларига фоявий таъсири. *Scientific progress*, 3(4), 871-
4. Rasulov, A. M. (2021). Ўзбекистонда глобал тармоқнинг ривожланиши. *Scientific progress*, 2(6), 926-930.
5. Mukhamadqodirovich, R. A. (2023). Mass media materials as a source on the history of the Republic of Uzbekistan. *JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH*, 2(14), 605-610.
6. Mukhamadqodirovich, R. A. (2023). Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясида иқтисодиёт тармоқлари масаласи. *Journal of innovations in scientific and educational research*, 2(15), 431-435.
7. Расулов, А. (2022). Роль средств массовой информации в системе источников истории периода независимости Узбекистана. *Актуальные проблемы истории Узбекистана*, 1(1), 633-640.
8. Расулов, А. (2024). Yangi O'zbekistonda ommaviy axborot vositalarining tizimli o'zgarishi. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences.*, 4(2).

YANGI O'ZBEKISTON: RAQAMLI IQTISODIYOT VA RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA TALABALARNING RAQAMLI KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

Saidaxmedova N.I. – Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Ta'lim menejmenti kafedrası mudiri, i.f.d., professor

Kamalov A.J. – Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Ta'lim menejmenti kafedrası dotsenti, p.f.f.d.(PhD)

Jabborov J.R. – Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Maktab menejmenti ta'lim yo'nalishi, III-bosqich talabasi

Annotatsiya. Mazkur tezisdagi raqamli ta'lim muhitining mohiyati va uning raqamli iqtisodiyotni tashkil etishdagi roli, talabalarning raqamli ko'nikmalarini shakllantirish masalalari haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, raqamli ta'lim muhiti, raqamli texnologiyalar, raqamli O'zbekiston, raqamli ko'nikmalar, raqamli savodxonlik.

XXI asr – bu tez o'zgaruvchan, jadal rivojlanayotgan raqamli texnologiyalar asri. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida: "...raqamli iqtisodiyotni shakllantirish kerakli infratuzilma, ko'p mablag' va mehnat resurslarini talab etishini juda yaxshi bilamiz. Biroq qanchalik qiyin bo'lmasin, bu ishga bugun kirishmasak, qachon kirishamiz?! Ertaga juda kech bo'ladi. Shu bois raqamli iqtisodiyotga faol o'tish – kelgusi 5 yildagi eng ustuvor vazifalarimizdan biri bo'ladi. Raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi", deb ta'kidlagan.³⁰

Axborot texnologiyalari asrida N.Rotshildning "Kim axborotga ega bo'lsa, o'sha dunyoni boshqaradi" degan klassik iborasi zamonaviy dunyoning mohiyatini aks ettiradi. Dunyoda iqtisodiyot strukturasi o'zgarmoqda – tobora ko'plab odamlar tovar ishlab chiqarish bilan emas, balki axborot olish va qayta ishlash bilan shug'ullanmoqda. Hamma uchun odatiy bo'lgan iqtisodiyot o'rniga bir qator xususiyatlarga ega bo'lgan raqamli iqtisodiyot kelmoqda:

- ✓ tugab bitmaydigan axborot asosiy resursga aylanadi;
- ✓ internetda savdo maydonlari cheklovlarga ega emas;
- ✓ kompaniya o'lchami uning raqobatbardoshligiga ta'sir etmaydi;
- ✓ bitta jismoniy resursning o'zi turli xizmatlar taqdim etish uchun cheksiz marta foydalanilishi mumkin;
- ✓ operatsion faoliyat ko'lami faqat internet kuchi bilan belgilanadi.

Bugungi kunda talabalarning dunyoqarashlari o'zgarib bormoqda, natijada, universitetlar faoliyati ham o'zgarib bormoqda va talabalar hamda professor-o'qituvchilar o'z ishlarini yengillashtirish va samaradorligini oshirish uchun mavjud raqamli o'quv materiallari hamda vositalaridan ko'proq foydalanmoqdalar.

Umumiy savodxonlikka qo'yiladigan talablar, zamonaviy ishchilarning bilim va ko'nikmalari, yangi iqtisodiyot va o'quv muhiti talablari tez sur'atlar bilan o'sib bormoqda. Shuningdek, bilim va ko'nikmalar tegishli malakalarni shakllantirmasdan yetarli bo'lmasligi ham aniq. Endi majburiy kurslar doirasida talabalar bilishi kerak bo'lgan hamma narsani o'quv dasturiga kiritish mumkin emas.

Zamonaviy o'qituvchiga xoslik talabalarga qanday qilib o'rganishni, bilimlarini boshqarishni, kerak bo'lganda bilimlarni topish, tahlil qilish, baholash va qo'llashni o'rgatishdan iborat. Bunday qobiliyatlarni shakllantirish

³⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // Xalq so'zi, 24.01.2020 yil.



va rivojlantirish faol ta'lim usullariga, murakkab tuzilgan ta'lim muhitlaridan foydalanishga o'tishni talab qiladi.

Hech kimga sir emaski, raqamli iqtisodiyot sharoitida jamiyatimiz rivojlanishi uchun yangi raqamli texnologiyalar, shu jumladan yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari zarur. Shuningdek, mazkur yangi raqamli texnologiyalardan bemalol foydalana oladigan mutaxassis kadrlar ham talab etiladi. Raqamli iqtisodiyot va raqamli ta'lim tizimini joriy qilinishi munosabati bilan talabalarga kelgusi ish faoliyatlarida raqamli texnologiyalardan foydalanishni o'rgatishimiz, axborot va raqamli kompetensiyalarini shakllantirishimiz lozim.

A.Yu.Uvarov o'z "tadqiqotlarida ta'limning raqamli transformatsiyasi mazmuni "sinergetik" yangilanish bilan birga olib borilishi kerak, bu esa ta'lim sifatini tubdan yaxshilashga olib keladi" deb qayd etadi. Uning fikriga qo'shilmaslik mumkin emas, chunki agar ta'lim tizimi raqamli jamiyat talablari va imkoniyatlariga javob bersa, ta'limning raqamli o'zgarishi jamiyatni raqamli iqtisodiyotga olib keladi.

Shubhasiz qachonki, har bir mutaxassis, har bir o'qituvchi mustaqil ravishda mehnat faoliyatini raqamlashtirilgan tarzda olib bora olsa, o'zining raqamli ta'lim makonini yarata olsa hamda o'quv jarayoniga barcha ishtirokchilarni jalb qilgan holda o'zaro muloqotni tashkil eta olsagina raqamli ta'lim tizimiga to'liq o'ta oldik, deya ayta olamiz. Shu o'rinda aytish joizki, bugungi zamon har bir o'qituvchidan raqamli texnologiyalardan foydalanish, ularni to'g'ri ishlata olish va ta'lim oluvchilarga yetkazib bera olishni talab etmoqda.

Kelgusida talabalar ish joylarini raqamlashtirish bilan bog'liq o'z majburiyatlarini bajara olmasa, uni osonlikcha malakalirog'i bilan almashtirish mumkin. Demak, avvalo, raqamli savodxonlik, raqamli ko'nikmalar nima va ular nima uchun kerakligiga, raqamli savodxonlik aniqlik kiritishimiz joizdir.

Raqamli savodxonlik – bu raqamli sohada mutaxassis ega bo'lgan ko'nikmalar. U axborot, kompyuter yoki ommaviy axborot vositalari bilan ishlashdan tortib, aloqa (ya'ni raqamli muhitda muloqot qilish qobiliyatlari) va texnologik sohadagi innovatsiyalarga munosabat bilan yakunlangan turli komponentlarni o'z ichiga oladi.

Raqamli iste'mol

Bu uyda va ishda Internet xizmatlaridan foydalanish. Bu biz har kuni duch keladigan ma'lumotlar.

Raqamli ko'nikmalar

Texnologiyadan samarali foydalanish, shu jumladan raqamli qurilmalardan foydalanish, ma'lumotlarni qidirish, ijtimoiy tarmoq funksiyalaridan foydalanish, onlayn xarid qilish va hokazo



Raqamli xavfsizlik

Yoki onlayn xavfsizlik (parollar, axborot xavfsizligi, madaniy axloq va xatti-harakatlar madaniyati, ma'lumotlarni saqlash, zaxiralash)

1-rasm. Raqamli savodxonlik asoslari.

Raqamli savodxonlik bo'lajak mutaxassisi uchun yana nimani beradi: yaxshi mavqega ega bo'lish va yaxshi daromad olish imkoniyati; to'liq bo'lmagan vaqt yoki frilansing imkoniyatlari; kundalik hayotda erkinlik (klinikada ro'yxatdan o'tish, elektron formatda chiptalar sotib olish, tovarlarga buyruq berish va hokazo); firibgarlardan ma'lumotlarni himoya qilish. Bugungi kunda raqamli savodxonlikka ega bo'lish zarurati deyarli har bir kasbda mavjud: IT-mutaxassislari, dasturchilar va katta axborot oqimiga ega kompyuterlarda ishlaydigan dasturchilardan tortib, o'qituvchilargacha. Kasblar ro'yxatiga ish jarayonlarini avtomatlashtirish, yangi texnika va XXI-asrning zamonaviy texnologiyalarini joriy etish bilan duch kelgan buxgalterlar, kadrlar bo'yicha mutaxassislar, marketologlar, dizaynerlar, ma'murlar, menejerlar, shifokorlar va boshqa mutaxassislar kiradi.

Potensial nomzod ega bo'lgan raqamli ko'nikmalarning har biri uning "mutaxassislik pasportida" aks etadi. Ko'pgina kasblar ko'plab o'zgarishlarga duch keldi va bugungi kunda talabgorlarga 10 yil oldin tegishli bo'lmagan bir qator talablar qo'yilmoqda: elektron hujjat aylanishi asoslarini bilish, 1C dan foydalanish bo'yicha amaliy tajriba, Excel, Word, Power Point dan faol foydalanish (Bu xodimni tanlashda e'tibor berish kerak bo'lgan ko'nikma va bilimlarning to'liq ro'yxati emas).

Qat'iy kasbiy mahoratdan tashqari, endi yengil ko'nikmalarga ham e'tibor qaratilmoqda. Bularga muloqot qobiliyatlari, tanqidiy fikrlash, jamoada ishlash va ko'p vazifani bajara olish kiradi. Bugungi kunda ish beruvchilar kompaniyani xodimlarning yoki yomon niyatlilarning beparvoligidan himoya qilish uchun kiberxavfsizlik asoslari kabi raqamli ko'nikmalariga e'tibor qaratmoqda. Faqat bitta xato firibgarlarga kompaniya ma'lumotlariga to'liq kirish imkonini beradi. Bunday asoslar darslarda, masalan, kiberxavfsizlik bo'yicha maxsus kurslarda o'qitiladi: jarayonni raqamlashtirishning asosiy tendensiyalarini tushunish, aloqa vositalari (korporativ, shaxsiy messengerlar) yordamida raqamli muloqot, katta hajmdagi raqamli axborot bilan ishlash, statistik ma'lumotlarni hisoblash va tahlillarni o'tkazish uchun eng ko'p ishlatiladigan vositalar (Tableau, Microsoft Excel) va raqamli boshqaruv, jarayon siklini boshqarish (Scrum, Kanban usullari).

Yangi O'zbekiston: raqamli iqtisodiyot va raqamli ta'lim muhitida ta'limni axborotlashtirishning asosiy masalalaridan biri talabalarning axborot-kommunikatsiya, texnologik kompetensiyalarini shakllantirishdir. Ta'lim tizimi



ushbu muammoni qanday va qay darajada hal qilishi umuman ta'limni raqamli o'zgartirish bo'yicha ishlar samaradorligining yaxshi ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi. Hayotiy ta'lim haqidagi munozaralar har bir talabaning o'z bilimlarini boshqarish, hayot davomida kasbiy va shaxsiy rivojlanishni davom ettirish uchun barqaror qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishga bo'lgan talab bilan almashtiriladi. Biroq zamonaviy ta'lim tizimi har doim ham barcha talablarga javob bermaydi va raqamli texnologiyalardan foydalanish g'oyasi o'zgaradi.

Shunday qilib o'quv ishlarining mazmunini yangilash, o'quv ishlarining yangi usullari va tashkiliy shakllarini o'zlashtirish va o'quv jarayonining samaradorligini namoyish etadigan haqiqiy baholash usullari va vositalariga o'tish bo'yicha ishlarning to'liq siklini bajarish kerak, degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Mamlakatimizda zamonaviy raqamli ta'lim muhitini yaratish, mazkur sohada ustuvor loyihalarni amalga oshirish ta'lim tizimini yangi sifat bosqichiga olib chiqish, o'qitish usulini tubdan o'zgartirish, O'zbekistonni yangi texnologik tuzilishga – raqamli iqtisodiyotga o'tishga tayyorlashga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. SH.Mirziyoyev "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847 son O'zbekiston Respublikasi prezidenti Farmoni, 08.10.2019 y.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // Xalq so'zi, 24.01.2020 yil.
3. Уваров А.Ю. Образование в мире цифровых технологий: на пути к цифровой трансформации. М.: ГУ-ВШЭ, 2018. 168 с.
4. Saidaxmedova N.I., Kurbaniyazov Sh.K. Interrelations of organizational structures in the management process through prospective development strategy of the higher education institution. Galaxy international interdisciplinary research journal (GIIRJ), 2023, 11(12), India, - V.55
5. Маркова В.Б. Цифровая экономика. Учебник. М.: ИнфраМ.2017.



TALABALARNI O'QITISH JARAYONIDA ELEKTRON TA'LIM MUHITIDAN FOYDALANISHNING TAVSIFIY MOHIYATI

Saidaxmedova N.I. – Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Ta'lim menejmenti kafedrasini mudiri, i.f.d., professor

Xusniddinov M.M. – Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Ta'lim menejmenti kafedrasini o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu tezisdagi oliy ta'lim muassasalarida talabalarni o'qitish, ularning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish, nazariy va amaliy mashg'ulotlarda axborot-kommunikatsiya, multimediali texnologiyalaridan keng miqyosda va kompleks usulda foydalanish maqsadlari, elektron ta'lim muhitidan foydalanishning tavsifi yoritilgan.

Kalit so'zlar: elektron muhit, tahsil muhiti, o'quv muhiti, ta'lim muhiti, ta'lim muhitlarining tipologiyasi, axborot-kommunikatsiya, multimediali texnologiyalar, ta'lim sifati.

Xalqaro ta'lim amaliyotida elektron ta'lim resurslaridan foydalanib, mutaxassislik fanlarining o'quv-metodik ta'minotini shakllantirish, kelgusida mehnat bozori ehtiyojlarini qanoatlantirish borasida talabalarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish, nazariy va amaliy mashg'ulotlarda axborot-kommunikatsiya, multimediali texnologiyalaridan keng miqyosda va kompleks usulda foydalanish maqsadlari ustida izlanishlar olib borilmoqda.

Jahonda yetakchi oliy ta'lim muassasalari elektron o'qitish texnologiyalaridan foydalanish va ochiq elektron kurslarni yaratishga asosiy e'tibor qaratganidir. Xususan, MOOC (Massive Open Online Course), Coursera, Universarium kabi nufuzli ilmiy tadqiqot markazlari bu borada katta muvaffaqiyatlarga erishgan. Bundan tashqari mutaxassislarni tayyorlashda elektron ta'lim sohasida Digital Britain, Degreed, Global Education, Second Life va boshqa mahsuldor loyihalar e'tirof etilmoqda. Shuning uchun tayyorlanadigan mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish va baholashda o'qitishning an'anaviy va zamonaviy usullarini elektron ta'lim muhitida majmuaviy foydalanish alohida o'rin egallaydi.

Respublikamizda ta'lim jarayonini modernizatsiyalash maqsadida rivojlangan mamlakatlarining oliy ta'lim muassasalari filiallari, qo'shma fakultetlar va ta'lim dasturlari joriy qilindi. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Uzluksiz ta'limni yanada takomillashtirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori



malakali kadrlarni tayyorlash siyosatini davom ettirish”³¹ hamda ta’lim tizimida innovatsiyalarni ishlab chiqishni ta’minlash³² ustuvor vazifalari belgilangan. Bu esa, bo’lajak muhandislarning kasbiy tayyorgarligini oshirish, kelajakda o’z kasbining yetuk mutaxassislari bo’lib yetishishi mamlakatimizda ta’limning istiqbolli yo’nalishlarini belgilashga imkon yaratadi.

Muhit insonga ta’sir etish stimuli va qo’zg’ovchisi sanalgan sharoit va komponentlar majmuasidir, muhitda – funksiya bajaruvchi tizimlarda yuz beradigan o’zgarishlarni tasvirlash imkonini beradi. Tahsil muhiti, o’quv muhiti, predmetli muhit – ta’lim muhitining tarkibi sifatida qaraladi. Ta’lim muhiti tarkibi quyidagi xarakteristikalar orqali belgilanishi shart: tashkil etish usuli (qanday?), o’zaro ta’sir turi (kim?), potensial (nima?).

Aksariyat hollarda “tahsil muhiti” va “o’quv muhiti” tushunchalari ma’no jihatidan bir-biriga teng deb olinadi va sinonim so’zlar deya qaraladi. O’quv muhitini tashkil etish jarayoni J. Biggs tomonidan oliy o’quv yurtida muvaffaqiyatli o’qitishning eng muhim shartlaridan biri sifatida tadqiq qilinadi. O’quv muhitining funksional vazifasi shundan iboratki, u auditoriya hududidan tashqarida interfaol o’zaro ta’sirlashuvni tashkil etish chog’ida subyektlar o’quv-bilish faoliyatini yanada faollashtirish imkonini beradi. Predmetli muhit tahsil muhiti tarkibiy elementi sifatida ko’riladi.

Hozirgi sharoitda ta’lim tizimini axborotlashtirish va texnologiyalashtirish ta’siri vositasida hosil qilingan ta’lim muhitlari ham alohida e’tiborga loyiqdir. Turli yo’nalishdagi adabiyotlar tahliliga asosan informatsion-texnologik jamiyat besh asosiy konstitutiv (fransuzchada “constitutif” – so’zidan olingan bo’lib, nimaningdir asosini tashkil etuvchi, asos aniqlovchi ma’nolarni bildiradi) tamoyillarni ajratish imkonini berdi: elektronlashtirish, kompyuterlashtirish, axborotlashtirish, mediatizatsiyalash va virtuallashtirish.

Elektron ta’lim muhiti – bu o’zaro aloqador komponentlar (kontentli, kommunikatsion, texnologik) tizimi bo’lib, u talabalarining ta’lim dasturlarini o’zlashtirish bo’yicha o’qitish jarayoni birgalikda ishlashida tashkiliy-stimullovchi, informatik-o’qituvchi, tashhislovchi-aniqlashtiruvchi va kommunikativ-boshqaruvchi funksiyalar amalga oshirilishini ta’minlaydi. Elektron ta’lim muhiti tarkibiylik, ko’p kanallik, multimedialik, adaptivlik, texnologiklik, kompensatorlik sifatlariga ega.

Elektron ta’lim muhitining pedagogik potentsiali oliy ta’lim muassasalari talabalarini o’qitishda kasbiy tayyorlashni takomillashtirishni ta’minlaydi. Bunda quyidagi resurslar majmuasidan foydalanadi:

³¹ O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasi to’g’risida”gi Farmoni // O’zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to’plami. -T., 2017. – B.39.

³² O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “O’zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to’g’risida”gi Farmoni // QHMMB: 06/17/5264/0339-son 01.12.2017 y.



motivatsion-adaptiv resurs, subyektli resurs, integrativ resurs, boshqaruv resursi.

Motivatsion-adaptiv resurs, talabalar psixofiziologik xususiyatlari va individual tavsiflari hisobga olinishi; stimullovchi vaziyatlarni yaratish (muvaffaqiyat vaziyatlari, raqobatlashuv unsurlarini joriy qilish), hamkorlik atmosferasini va muloqotli ishlashni ta'minlashni ko'zda tutadi.

Subyektli resurs, keyinchalik tahrirlash imkoniyatini qoldirgan holda talabaning tahsil trayektoriyasini mustaqil tanlash huquqini taqdim etadi, professional yo'nalgan o'qitishni ta'minlash, elektron tahsil texnologiyalarini qo'llash vositasida o'quv-bilish faoliyatini aktivlashtirishga qaratilgan.

Integrativ resurs, fanlar mazmunini o'rganilayotgan tushunchalar, predmetlararo aloqalar umumiylikiga asoslangan professional bilish unsurlari bilan integratsiyalashni, tahsil jarayoni subyektlari birgalikda ishlashining shakllari, metodlari integratsiyasini ta'minlaydi.

Boshqaruv resursi, talabalarning auditoriya va auditoriyadan tashqari ishlashi uzluksiz pedagogik kuzatuvini ta'minlaydi, operativ teskari aloqa amalga oshishiga ko'maklashadi.

Elektronlashtirish deganda elektron texnologiyalarni ishlab chiqarish, barpo etish va inson faoliyatining turli sohalariga keng qo'llashdan iborat muhandislik-texnik jarayon tushuniladi. Kompyuterlarni yaratish va keng qo'llash hodisasi sifatida qaraladigan kompyuterlashtirish esa elektronlashtirishni to'ldiradi. Jamiyatning axborotlashuvi esa o'zida axborot texnologiyalarining ilg'or-faol o'sib borayotgan qo'llanishi jarayonini namoyon qiladi. Bundan ko'zlangan maqsad axborotni, bilimlarni tayyorlash, qayta ishlash, saqlash va tarqatishdan iborat. Mediatizatsiya jamoaviy va shaxsiy aloqaning eng yangi tizimlarini yaratish va tarqatishda o'z ifodasini topadi. Bu aloqa o'z doirasida har qanday individning axborot manbalariga, shaxsiy, shaxslararo va guruh muloqoti shakllariga bimalol murojaat qila olishini ta'minlaydi. Virtuallashtirish hodisasi esa voqelikning "bo'laklanishi" bilan tavsiflanadi. Buning natijasida insonning aniq obyektlar bilan emas, balki simulyatsiyalar bilan o'zaro ta'sirlashuvi ta'minlanadi.

Sanab o'tilgan hodisalarning paydo bo'lishi va taraqqiy etishiga nazariy zamin hozirlagan narsa D. Bellning informatsion jamiyat konsepsiyasi, Y. Masudning informatsion jamiyat nazariyasi, Z. Bjezinskiyning sotsial tizimlar kibernetizatsiyasi nazariyasi, texnotron jamiyat konsepsiyasi, Marshall Maklyuenning "elektron jamiyat" konsepsiyasi, M. Kastelsning tarmoqli jamiyat nazariyasi, ya'ni axborotlashtirilgan jamiyat rivoji nazariy asoslari holatlarining teran mushohadasidir.

Demak, quyidagilarni keltirish joiz:

Birinchidan, o'qitishning ancha samarali metodlari va vositalarini izlash yaxlit olganda ta'lim sohasini takomillashtirish va qisman mutaxassislar

tayyorlashdek yetakchi yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ikkinchidan, informatsion-kommunikatsion texnologiyalar, masofaviy ta'lim texnologiyalari va elektron o'qitish texnologiyalarini qo'llash ta'lim jarayonini intensivlashtirish imkonini beradi, uning individuallashuvi va differensiyasiga ko'maklashadi. Informatsion-kommunikatsion texnologiyalarni joriy etish insoniyat texnologik va ijtimoiy tajribasi asosida to'plangan bilimlarning nafaqat avloddan avlodga, balki bir insondan boshqasiga yetib borishini sezilarli ravishda tezlashtiradi.

Yuqoridagilarni mushohada qilib, shunday xulosa qilish mumkin: ta'lim sohasini elektronlashtirish, axborotlashtirish va kompyuterlashtirish, uning mediatizatsiyasi va virtuallashuvi elektron o'qitishning konseptual asoslarini tushunish va rivojlantirish uchun tizim yaratuvchi omillar hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.//O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami. -T., 2017. – B.39.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to'g'risida"gi Farmoni // QHMMB: 06/17/5264/0339-son 01.12.2017 y.
3. Kiselev G.M., Bochkova R.V. Informatsionnye texnologii v pedagogicheskoy obrazovanii, Uchebnik dlya bakalavrov, – M.: Izdatelsko-torgovaya korporatsiya «Dashkov i Ko», 2016. – 308 s.
4. Saidaxmedova N.I., Kurbaniyazov Sh.K. Interrelations of organizational structures in the management process through prospective development strategy of the higher education institution. Galaxy international interdisciplinary research journal (GIIRJ), 2023, 11(12), India, - V.55
5. Djuraev R.H. Ta'limda interfaol texnologiyalar. –T.: O'zPFITI, 2010.
6. Олимов Қ.Т. ва бошқалар. Касб таълими методикаси. Дарслик. "Фан технологиялари нашриёти". –Т.: 2016. 328 б.

RAQAMLI TA'LIMDA SUN'IY INTELEKTNING O'RNI

Valiyev Sherzodbek Ikromitdinovich –
Andijon mashinasozlik instituti, doktorant
E-mail: wsh1983z@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada sun'iy intellekt texnologiyalarining o'quv jarayoniga ta'siri, shu jumladan, yutuqlar, qiyinchiliklar va uni qo'llash



istiqbollari tahlili ko'rib chiqilgan. Raqamli ta'lim tizimlariga birlashtirilgan sun'iy intellekt ta'limni shaxsiylashtirish, o'quv jarayoni samaradorligini oshirish va ta'lim natijalarini yaxshilash uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Shunday qilib maqolada sun'iy intellektning raqamli ta'limni o'zgartirishdagi ahamiyati va salohiyati ta'kidlanib, yanada samarali va moslashtirilgan ta'lim tizimlarini yaratishga hissa qo'shadi.

Kalit so'zlar: *Sun'iy intellekt, raqamli ta'lim, adaptiv ta'lim, aqlli repetitorlar, ta'limni shaxsiylashtirish, ta'lim texnologiyalari, ma'lumotlarni tahlil qilish, o'qituvchilarni tayyorlash.*

Raqamli ta'lim sun'iy intellekt kabi ilg'or texnologiyalar integratsiyasi bilan jadal rivojlanmoqda. Sun'iy intellekt o'qitish va o'rganish usullarini sezilarli darajada o'zgartirish, o'rganish tajribasini shaxsiylashtirish va uni yanada samarali qilish uchun yangi imkoniyatlarni taklif qilish imkoniyatiga ega. Texnologiyaning jadal rivojlanishi va raqamli yechimlar hayotning turli jabhalariga, jumladan, ta'lim tizimiga keng joriy etilishi ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishga kompleks yondashuvni taqozo etmoqda. Ilg'or texnologik yutuqlarni ijodiy va badiiy tamoyillar bilan uyg'unlashtirish zarurati birinchi o'ringa chiqmoqda.

Ushbu kontekstdagi asosiy jihatlardan biri badiiy intellekt – noyob vizual asarlarni yaratishga qodir sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishdir. Ushbu istiqbolli yo'nalish raqamli ta'lim sifatini yanada qiziqarli, interaktiv va estetik jihatdan jozibadori qilish orqali yaxshilash uchun yangi imkoniyatlar ochishi mumkin.

Sun'iy intellekt o'quv jarayonini yaxshilash uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan mashinani o'rganish, tabiiy tilni qayta ishlash va kompyuterni ko'rish kabi ko'plab texnologiyalarni o'z ichiga oladi. Martin Veller ta'kidlaganidek, sun'iy intellekt katta hajmdagi ta'lim ma'lumotlarini tahlil qilishi, talabalar muvaffaqiyatini bashorat qilishi va shaxsiylashtirilgan o'rganish yo'llarini taklif qilishi mumkin [1].6

Ta'lim texnologiyalarining tarixi bir necha o'n yilliklarga borib taqaladi, 1960-yillarda o'rganish uchun kompyuter dasturlaridan foydalanish boshlangan. Sun'iy intellektning paydo bo'lishi bilan ta'lim jarayonini takomillashtirish imkoniyatlari sezilarli darajada kengayib, yangi yondashuvlar va usullarga olib keldi.

Ta'limda qo'llaniladigan asosiy texnologiyalardan biri bu adaptiv ta'limdir. Bunday tizimlar talabalar uchun individual ta'lim trayektoriyalarini yaratishga imkon beradi. Rossiyalik olim Aleksey Stokov Minin universiteti axborotnomasida taqdim etilgan tadqiqoti shuni ko'rsatadiki, moslashuvchan ta'lim tizimlari real vaqt rejimida materiallar va vazifalarni moslashtirish uchun talabalar faoliyati ma'lumotlaridan foydalanadi [2,15].

Intellektual repetitorlar talabalarga tezkor fikr-mulohaza va yordam berish uchun sun'iy intellektdan foydalanadilar. "Hindistonda raqamli ta'lim: imkoniyatlar va muammolar" nomli maqolada bunday repetitorlar, ayniqsa, uzoq va borish qiyin bo'lgan hududlarda o'rganish samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkinligi ta'kidlangan [3].

Sun'iy intellekt talabalarning ta'lim faoliyati haqida katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish imkonini beradi, bu o'qituvchilarga talabalarning ehtiyojlari va muammolarini yaxshiroq tushunishga yordamlashadi. Bu ham ta'limni yanada samarali rejalashtirish va ta'lim dasturlarini takomillashtirishga ko'mak beradi.

Ta'limda sun'iy intellektdan foydalanish ta'lim jarayonini shaxsiylashtirish orqali ta'lim sifatini yanada oshirishga xizmat qiladi. Yevropa universitetlari assotsiatsiyasi tomonidan o'tkazilgan tadqiqot O'zbekistonda o'quv jarayoniga sun'iy intellektni joriy etish an'anaviy o'qitish usullariga nisbatan talabalar uchun ta'lim natijalarini yaxshilashga olib kelganini ta'kidlaydi [4].

Sun'iy intellekt interaktiv va moslashuvchan o'rganish tajribasini taklif qilish orqali o'quvchilarning motivatsiyasi va faolligini oshirishi mumkin. "Onlayn ta'lim: muammolar va istiqbollar" maqolasida ta'kidlanishicha, onlayn ta'limda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning o'quv jarayonida faolroq ishtirok etishiga yordam beradi [5].

Sun'iy intellektni ta'limga joriy etishning asosiy muammolaridan biri texnologiya va zarur infratuzilmaning mavjudligidir. Ba'zi hududlarda raqamli ta'lim resurslariga kirishda sezilarli bo'shliqlar saqlanib qolmoqda, bu esa sun'iy intellektdan foydalanishni cheklaydi. "O'zbekistonda raqamli ta'lim: muammolar va o'rganilgan saboqlar" maqolasida ta'kidlanganidek, katta sa'y-harakatlarga qaramay, mamlakatning ayrim hududlarida raqamli texnologiyalardan foydalanish bilan bog'liq muammolar hamon mavjud [4].

Ta'limda sun'iy intellektdan foydalanish maxfiylik va axloq bilan bog'liq savollarni tug'diradi. "Journal of Curriculum and Teaching" jurnalida chop etilgan tadqiqotda talabalarning katta hajmdagi ma'lumotlarini saqlash va qayta ishlash bilan bog'liq xavflar hamda shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish uchun aniq me'yoriy-huquqiy baza zarurligi muhokama qilinadi [6].

Yana bir qiyinchilik – o'qituvchilarni sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlash zarurati. Ko'pgina o'qituvchilarda sun'iy intellektdan darsda samarali foydalanish uchun bilim va ko'nikmalar yetishmaydi. Yuqorida ta'kidlangan tadqiqotda, o'qituvchilarni ta'limda sun'iy intellektni muvaffaqiyatli joriy etish uchun o'qitish va qo'llab-quvvatlash muhimligi ta'kidlangan [6].

Sun'iy intellektni an'anaviy o'qitish usullari bilan integratsiyalash yanada moslashuvchan ta'lim tizimlarini yaratishi mumkin. Tadqiqotchi A.Atadjanova tomonidan ta'kidlanishicha, bunday integratsiya raqamli va an'anaviy



ta'limning ilg'or tajribalarini o'zida mujassam etgan gibrid ta'lim modellarini yaratishga yordam beradi [7].

Sun'iy intellekt ommaviy ochiq onlayn kurslar, virtual sinflar va interfaol o'quv platformalari kabi yangi ta'lim formatlarini ishlab chiqishga yordam beradi. Har bir talabaning ehtiyojlari va manfaatlariga moslasha oladigan interaktiv va qiziqarli ta'lim dasturlarini yaratish uchun sun'iy intellektdan foydalanish istiqbollarini o'rganadi [8].

Sun'iy intellekt ma'lumotlar va o'quvchilarning xatti-harakatlarini tahlil qilish asosida yangi pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqish imkonini beradi. Bu har bir talabaning shaxsiy ehtiyojlariga moslashtirilgan yanada shaxsiylashtirilgan va samarali ta'lim strategiyalarini yaratish imkoniyatini ochib beradi.

Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellekt raqamli ta'limni o'zgartirishda muhim rol o'ynab, o'rganishni shaxsiylashtirish va yaxshilash uchun yangi imkoniyatlarni taklif qilmoqda. Biroq sun'iy intellektni ta'lim tizimlariga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvi ko'plab muammolarni, jumladan, maxfiylik, foydalanish imkoniyati va axloq masalalarini yengib o'tishni talab qiladi. Ta'limning kelajagi, shubhasiz, sun'iy intellektni yanada rivojlantirish va qo'llash bilan bog'liq bo'lib, u yanada moslashuvchan ta'lim muhitini yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Weller, M. (2022). The Rise and Development of Digital Education. In: Handbook of Open, Distance and Digital Education. link.springer.com/referenceworkentry/10.1007/978-981-19-0351-9_5-1
2. Строков А.А. Цифровизация образования: проблемы и перспективы // Вестник Мининского университета. 2020. Т. 8. № 2. С. 15. www.minin-vestnik.ru/jour/article/view/1081/774
3. AIF. (2023). Digital Education in India: Avenues and Challenges. www.aif.org/digital-education-in-india-avenues-and-challenges/
4. Nazokat Kasymova (2023). Digital Learning in Uzbekistan: challenges and lessons learnt. <https://eua.eu/resources/expert-voices/268:digital-learning-in-uzbekistan-challenges-and-lessons-learnt.html>
5. Kashmir Scan Magazine. (2021). Online Education: Problems & Prospects kashmirscanmagazine.com/2021/07/online-education-problems-prospects/
6. Holiuk O. Problems and Prospects of Formation of Digital Competence of Future Scientific and Pedagogical Workers of Higher Education Institutions Through Gamification: Opportunities Kahoot, Quizlet in the European Union / O. Holiuk, K. Kruty, I. Desnova, O. Blashkova, N. Korylchuk // Journal of Curriculum and Teaching. – 2022. – Vol. 11, No. 4. –

pp.

108–119.

www.sciedupress.com/journal/index.php/jct/article/view/21891

7. Атаджанова, А. (2023). Перспективы развития цифровизации образования — большие возможности для улучшения процесса обучения и расширения доступа к знаниям. *Цифровизация современного образования: проблема и решение*, 1(1), 175–177. inlibrary.uz/index.php/digitalization-modern-education/article/view/24729
8. Comillas Pontifical University. (2023). The Role of Artificial Intelligence in Interactive Education. repositorio.comillas.edu/xmlui/bitstream/handle/11531/77588/TD00607.pdf?sequence=1&isAllowed=y

O'ZBEKISTONDA MASOFAVIY TA'LIMNING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI VA TENDENSIYALARI

Xolmanov Umid Ochilovich – O'zbekiston Respublikasi Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi xodimi

Xolmurodova Shoxsanam Mamatkarim qizi – Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti I-bosqich tayanch doktoranti

Annotasiya. Mazkur maqolada ta'lim oluvchilar ehtiyojlarini to'la qondirish, jamiyat taraqqiyotining progressiv o'sishini muntazam ta'minlashni inobatga olgan holda masofaviy ta'lim texnologiyalaridan hozirgi kunda dunyoda kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini rivojlantirish, bo'lajak mutaxassislarning raqobatbardoshligini ta'minlash, ta'limda ilg'or texnologiya, didaktik vositalar va uskunalardan keng foydalanish, o'qitishning zamonaviy usullarini integratsiyalash masalalari dolzarb vazifalardan biri sifatida e'tirof etilgan.

Kalit so'zlari: Masofaviy ta'lim texnologiyalari, axborot kommunikasiya texnologiyalari, masofaviy o'qitish, professor-o'qituvchilar, multimedia-ma'ruzalar va laboratoriya amaliyotlari, elektron va multimedia-darsliklari.

Tarixiy taraqqiyot davrida ta'lim tizimi bir necha bosqichlarni bosib o'tgan bo'lsa-da, har doim ta'lim jarayonining asosiy funksional maqsad va vazifasi yoshlarni ilm-fanga jalb qilish, yangi zamonaviy tadqiqot yo'nalishlarini



ishlab chiqish, tadqiqotlar bozori talablaridan kelib chiqib ilmiy-tadqiqotlarning amaliy sifat va natijadorligini oshirish, shuningdek, “Hayot davomida ta’lim olish” prinsipi doirasida ta’lim oluvchilar talablaridan kelib chiqib har doim, har qanday vaqtda o’zlari uchun zaruriy bilimlarni olishlariga sharoit yaratish, ularni kerakli manbalar bilan ta’minlash bo’lib kelgan.

COVID–19 pandemiyasi butun dunyo aholisining ta’lim olishi, himoyasi va farovonligi yo’lida favqulodda vaziyatni keltirib chiqardi. Ta’lim jarayonining uzilishi mamlakat iqtisodiyoti va umuman jamiyat uchun murakkab jarayonni yuzaga keltirdi. Bular asosan ta’lim oluvchilarning vaziyat nuqtayi nazaridan ta’lim muassasalarida emas uy sharoitida ta’lim olish jarayonini tashkil etish bilan bog’liq ekanligi ko’rsatib berdi. Shuningdek, sifatli ta’lim berish va bu jarayonning uzluksizligini ta’minlash uchun yangicha tashkiliy shakllarni talab etganligi namoyon qildi.

Butun dunyo davlatlari qatori O’zbekiston ham koronavirus pandemiyasi davrida ta’lim tizimida jiddiy sinovlarga duch keldi. Shu maqsadda mamlakatimizda ham ta’lim jarayonini tubdan isloh qilish, ta’limning jahon talablariga javob beradigan shakllarini zudlik bilan o’rganib chiqish va milliy ta’lim tizimiga tatbiq qilish, ayniqsa, masofaviy ta’lim jarayoniga alohida e’tibor qaratildi. Jumladan, qisqa muddat ichida masofaviy ta’lim shakli joriy etildi.

Masofaviy ta’lim – uzluksiz ta’lim tizimining shakli bo’lib, u insonning ta’lim va axborot olish huquqini amalga oshirishga qaratilgan.

Tadqiqotlarga ko’ra, masofaviy ta’lim AQShning Garvard va Massachusets

singari tarixiy va mashhur texnologiya institutlarida dastlab yo’lga qo’yilgan bo’lsa-da, masofaviy (onlayn) ta’limning keng joriy qilinishi bir necha o’n yilliklarni talab qildi. Dastlab masofaviy ta’lim shunchaki pochta qutilari orqali tarqatilgan dars mavzusi ma’lumotlari hamda uy vazifalari ko’rinishida tajribadan o’tkazilgan bo’lsa, keyinchalik xalqaro internet tarmog’i ushbu ta’lim tarzining keng yoyilishiga katta zamin yaratdi.

Binobarin, yurtimizda ta’lim tizimida ham raqamlashtirish jarayonlari bilan bog’liq birmuncha salmoqli ishlar amalga oshirilmoqdaki, bunda axborotlashtirish sohasidagi “axborot resurslari, axborot texnologiyalari tizimlarini rivojlantirish hamda takomillashtirishning zamonaviy jahon tamoyillarini hisobga olgan holda milliy axborot tizimini yaratishga qaratilgan” jahon talablariga javob beruvchi tarmoq va sifatli ta’lim tizimini tashkil etish davlat siyosati darajasiga ko’tarildi. Bu maqsadlar ijrosidan ko’zlangan asosiy maqsad umumiy holatda ta’lim tizimi rahbar va mutaxassis hamda professor-o’qituvchilari malakasini uzluksiz doimiy oshirib borish va qayta tayyorlash orqali ta’lim sifati va samaradorligini oshirishni taqozo etadi. Jumladan, masofaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalangan holda rahbar va professor-o’qituvchilarni qayta tayyorlash, ularning malakasini doimiy oshirib borishning



virtual metodik ta'minoti bo'yicha innovatsion metod va zamonaviy texnologiyalar yaratilmoqda[1].

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-sonli Qonunining 16-moddasida masofaviy ta'limga quyidagicha to'xtalib o'tilgan: *Masofaviy ta'lim o'quv rejalari va o'quv dasturlariga muvofiq ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan hamda Internet jahon axborot tarmog'idan foydalangan holda, masofadan turib olishga qaratilgan.*

2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturida "masofaviy o'qitish shaklini amalga oshirish tartibini belgilash, dasturiy-apparat kompleksini yaratish, tegishli oliy ta'lim muassasalarining o'quv jarayoniga masofaviy o'qitish platformasini joriy etish" vazifalari asosiy qilib belgilanishi ham uning dolzarbligini yana bir bor asoslaydi [2].

Masofaviy ta'limni tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. Yurtimizni har tomonlama taraqqiy ettirish, Yangi O'zbekistonni yaratish maqsadida barcha sohalar qatori ta'lim tizimida ham tub islohotlar olib borilmoqda. Bu borada o'nlab muhim farmon, qaror va dasturlar qabul qilingani barchamizga yaxshi ma'lum. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni ushbu soha taraqqiyotida, hech shubhasiz, yangi imkoniyatlarni ochib beradi. Qonunga muvofiq, ta'lim olishning masofaviy, inklyuziv shakllari joriy qilindi, ta'lim tashkilotlariga xorijiy muassasalar bilan qo'shma fakultet va o'quv markazlari tashkil qilishga ruxsat berildi. Shuningdek, o'qituvchilar mualliflik dasturi va o'qitish uslublarini joriy etish, zamonaviy pedagogik shakllar, o'qitish va tarbiya usullarini erkin tanlash huquqiga ega bo'lishdi.

Masofaviy ta'lim – muayyan nuqtadan axborot-kommunikatsiya vositalari (video, audio, kompyuter, multimedia, radio, televideniye va b.) yordamida ta'lim xizmatlarini ko'rsatish, ta'limiy mahsulotlarni tarqatish va yetkazib berishdan an'anaviy hamda innovatsion shakl, metod, vositalarga asoslangan holda ta'lim resurslaridan foydalanishga yo'naltirilgan ta'lim.

Masofaviy ta'limda internet tarmog'idan asosiy muloqot manba sifatida qo'llanilib o'qituvchi va o'quvchilar masofadan muloqotni amalga oshiradilar. Masofaviy ta'limning markazlashgan boshqaruv bilan birgalikda tizimlashtirilgan holda uchratishimiz mumkin.

Texnik muammolar va talabalarning texnik ko'nikmalarining pastligi tadqiqotchilar onlayn o'rganishda eng katta to'siqlarni keltirib chiqaradigan omillardan ayrimlaridir.



Masofaviy ta'lim texnologiyalari o'quv resurslarini o'qituvchilar tomonidan kurs o'rganuvchilariga masofadan yetkazib berishga imkon beradi. Bu o'quv texnologiyalarining o'zi yoki onlayn pedagogik usullarda qo'llanilishi mumkin [3].

Masofaviy ta'lim afz alliklari quyidagilar:

- 24 soat davomida ma'lumot olish;
- zamonaviy materiallar;
- o'z-o'zini o'rgatish;
- o'z ixtiyoriga ko'ra moslashtirilgan kurslar;
- iqtisodiy samaradorlik.

Kurslarni boshqarish tizimi tinglovchilarni ro'yxatdan o'tkazishni, onlayn o'qitish kurslari tarkibini yetkazib berishni, kuzatishni hamda testlar o'tkazishni osonlashtiradi. Shuningdek o'qituvchilar tomonidan olib boriladigan o'quv mashg'ulotlarini boshqarishga imkon berishi mumkin. O'qituvchiga onlayn kurs tarkibini nisbatan osonlik bilan yaratishga imkon beradigan va keyinchalik ushbu kursni o'qitish va boshqarishga imkon beradigan vositalar va namunalar to'plamini taqdim etadi, shu jumladan kursda o'rganuvchilar bilan turli xil o'zaro aloqalarni ta'minlashni o'z ichiga oladi.

Masofaviy ta'limning u yoki boshqa turi bilan bog'liq kurslar va ta'lim jarayonlari o'z talablari, hajmi, davomiyligi, strukturasi va maqsadlariga ko'ra turli xil xarakterga ega bo'ladi. Masalan, ayrimlari auditoriyadagi darslar bilan bog'liq, ayrimlari o'quv muassasasiga kirishdan oldin o'tkaziladi, boshqalari o'quv jarayonidan keyin yoki ta'tillar vaqtiga mo'ljallanadi. Hatto "turdosh" masofaviy ta'lim turlari ham (masalan, onlayn o'qish) bir-biridan quyidagi jabhalarda farq qiladi: muloqot turlari, vaqti va davomiyligi (aniq belgilangan vaqt va mustaqil grafik), o'qish modellari (guruh asosida va yakka tartibda), strukturasi (ochiq yoki yopiq tartibda registratsiyadan o'tish) va maqsadlari. O'qituvchilarni qayta tayyorlash trening kurslari bo'yicha masofaviy ta'lim ilgari asosan nashrli yoki audioli usullarga tayangan bo'lsa-da, so'nggi yillarda bu kurslarga masofaviy ta'limning bir qancha turlarini mujassam qilish tendensiyasi o'sib bormoqda. Masalan, ko'plab muassasalar talaba va o'qituvchilarning tayyorlov jarayoniga onlayn kurs materiallari, onlayn muloqot, maxsus fan veb-saytlari, elektron resurslar bazasi va virtual sinfxonalar kabi yangi paydo bo'layotgan texnologiyalarni tatbiq qilib bormoqdalar.

Ehtiyojlarga asoslangan malaka oshirishni faqatgina intellektual dasturiy vositalar yordamida amalga oshirish mumkin.

Masofaviy o'qitishda keng qamrovli iqtidorli tinglovchilar jamoasining shakllanishi zamonaviy ma'lumotlar bazasidan foydalanish imkoniyatining ortishi, yuqori sifatli o'quv materiallaridan foydalanish, qulay vaqt va joyni tanlash imkoniyati bu ta'lim tizimining samarasini yanada orttiradi.



Yaqin kelajakda masofaviy ta'limni yanada rivojlantirish uchun esa odatiy masofaviy ta'limning huquqiy asoslari, boshqarish tizimi, ya'ni Moodle kabi ta'lim platformalarini takomillashtirish, ularni qulay va yanada tushunarli funksiyalar bilan boyitish o'ta muhimdir.

Ta'kidlash kerakki, masofaviy o'qitish kelgusida ta'limni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Bu masofadan turib o'qitish xizmatlari bozorida talabning ortishi bilan bog'liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 sentyabrdagi "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-5812-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 7 avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida uzluksiz boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 466-sonli qarori.
3. Temirov A., Sohobiddinov A. "Mamlaktimiz ta'lim tizimida axborot kommunikatsiya va innovatsiyon texnologiyalardan foydalangan holda bilim olish" // "WORLD SOCIAL SCIENCE" // 15-16 bet.
4. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To'raev A.B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari – Toshkent, 2015.
5. Mexmonov I., "Maktabgacha va maktab ta'limi sohasidagi rahbar kadrlarning malakasini oshirishda raqamli texnologiyalar, zamonaviy yondashuvlar va innovasiyalar" // Pedagoglar malakasini oshirishning axborot-ta'lim muhitini tashkil etish: muammo va yechimlar xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari – Guliston, 2023-yil 20-21-aprel // 94-95 bet.



DIGITAL EDUCATION ON AT THE PRESENT STAGE: PROSPECTS AND PROBLEMS

Yuldosheva Dilduza Shokir qizi –
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalar
universiteti Farg'ona filiali, o'qituvchi
Nuraliyeva Zarifa Abdusalom qizi –
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalar
universiteti Farg'ona filiali, talaba

Abstract. *The article is devoted to the study of the process of digital transformation in education, which is characterized by the spread of innovative technologies and devices used in teaching, the introduction of digital technologies into the educational process, the transformation of methods and techniques of teachers' work with students, changing requirements for the learning process itself and its results. The article contains an assessment of the prospects and risks of the digital turn, analyzes the content of the concept of digital education, and describes the evolutionary forms and ideas underlying the digital training. The authors formulate practical proposals to minimize the negative impact of digital technologies on the educational process.*

Keywords: *digital education, digital turnaround, digital learning, educational process, educational technologies.*

The digital educational environment has been actively developing in the last few decades. According to current regulatory documents [1], digital technologies have acquired the status of demanded tools of the modern educational process today. Despite the widespread use of the term "digital education" by specialists in various fields, the question of a single interpretation of this term remains unresolved, since its meaning may vary depending on the specifics of the research being conducted. In scientific papers and articles, the term "digital education" often describes the following types of educational activities: e-learning education, learning using distance learning technologies, learning using information and electronic technologies [2]. It should also be noted that in a number of scientific studies, the term "digital education" does not contain in its interpretation the types of educational activities listed earlier. The reason for this is the widespread use of digital technologies in the process of optimizing business models. So, in scientific research, related to innovations in the business sphere, digital



education is identified with the concept of "digital transformation" and the accompanying characteristics of this concept. Due to the problems in the interpretation of the term "digital education", there is a need to specify the definition of this concept for a real scientific studies, namely, this is a stage in the development of educational and educational processes, which is characterized by the presence of a variety of electronic tools and methods of their use in order to reduce the amount of time spent on training when provided that the level of acquired knowledge, skills and abilities is maintained and (or) improved.

The following teaching materials are used as electronic tools in digital education: (computers, Internet resources, online courses), controlling (education management systems, mixed learning systems), information and reference (online dictionaries, online databases), modeling (additional and virtual reality technologies), demonstration (multimedia), educational and gaming (didactic computer games), leisure (technologies artificial intelligence, robotics) and software tools [3]. Thus, it can be argued that the concepts of distance learning, online learning, e-learning, digital learning offline are elements of digital education, and the variety of electronic systems allows you to expand its variability.

The object of the research is the digital turn in the field of education, which is characterized by the spread of new technologies and learning devices, the introduction of digital technologies into the educational process, the transformation of methods and techniques of teachers' work with students, changing requirements for the learning process itself and its results.

Research methods: analysis, generalization, synthesis, comparison.

Over the past decades, digital education has gone through several stages of evolution. To date, at least four stages of its development can be distinguished. The first stage is directly related to the beginning of the use of computer technology in the educational process. At this stage, various computer exercises were developed that contributed to the formation of professional skills, most often related to the use of computing computer systems and automated systems in production. The second stage was marked by further the spread of computer technology and the availability of training programs. Various information technologies based on new electronic media began to be used in the learning process: audio cassettes, videocassettes, television, satellite broadcasting, the Internet. These electronic tools have led to the formation of new forms of education.

Such types of educational activities as online courses, distance learning, didactic computer games and applications, Internet chats and social networks, educational Internet platforms have become widespread. The third stage of development digital education has accumulated the experience of the



previous two stages, which made it possible to effectively analyze the positive and negative consequences of the use of electronic means in the educational process. Based on the data obtained, it became possible to minimize the impact of negative factors on the further development of this educational sphere, which led to the widespread use of digital elements in educational activities. The fourth stage is transitional and is associated with the spread of the idea of an individual, personality-oriented approach to learning.

The means to implement this idea can be provided by the currently developing technologies of artificial intelligence and neural networks [4]. These stages of evolution became possible due to the penetration of digital technologies from the field of adult education into the educational sphere of higher education institutions and later into the field of general education.

The trends of digital education in 2019-2020 can serve as evidence of the authenticity of this evolution of digital education: 1) the use of social networks and media in educational practice; 2) the use of mobile devices as a means of digital learning; 3) cooperative development of effective educational systems involving professionals from various scientific fields; 4) expansion of the staff of educational organizations, the emergence of new positions directly related to digital education, its planning, organization and control [5].

The transition to the mass use of digital education technologies has led to a number of positive changes. The main changes include: 1) the emergence of the opportunity to organize simultaneous training of employees of large enterprises; 2) the transition of inclusive education to a new stage, which was marked by the possibility of providing educational services to more people who are physically unable to participate in the educational process; 3) improving the efficiency of mastering knowledge, skills and abilities while reducing the time spent on the educational process; 4) increasing the total audience of students and optimizing the professional activities of teachers by abandoning the usual organization of the educational process.

Another undeniable advantage of digital education is its interactivity. It is proved that in comparison with more traditional teaching methods, this aspect becomes in demand when it comes to the need to teach adults, who, due to age and professional activity, sometimes find it difficult to assimilate new information [5]. Digital education has also influenced the increase in the quality of digital content, the amount of information received ceased to depend on the physical and psychological state of the teacher, it turned out to be possible to personalize the learning strategy, and interactive forms significantly improved the results of students. Especially valuable is the individualization of learning, the ability to adjust the pace of mastering educational material, choose preferred methods and techniques. The presentation of information has become more diverse due to the use of video

and audio accompaniment. Availability of computer programs and systems that allow you to quickly analyze the successes or difficulties in learning information by individual students or an entire group are also a merit of digital education.

The possibility of parallel statistical processing of learning outcomes helps to monitor academic performance at all stages of educational activity, thereby ensuring transparency of the educational process for all its participants. It is important to note in this context the savings in human, monetary and infrastructural resources without loss of quality of education, which is also provided by digital education [3]. Thus, it can be argued that for all participants in the educational process (students, parents, teachers, managers, heads of companies and educational institutions), digital education is, if not a priority, then an actual and effective model of education.

Digital education, like other approaches to education, has its drawbacks and raises issues that require careful consideration. Many modern educators doubt that digital education at the stages of primary and secondary school education will have a beneficial effect. However, it is possible to achieve positive results if the learning process is based on real communication practices while maintaining a balance between the use of traditional and digital technologies with direct interaction of all its participants [4].

The main ideas of digital education still remain the thorough integration of digital technologies into the educational process in order to improve the level and results of learning. It is for the successful implementation of this idea that all organizers of the educational process need to know and take into account the existing problems and risks associated with the introduction of new digital technologies in the field of education. Most researchers and practitioners believe that the key risks and challenges are:

- 1) creation of additional training and workload for the participants of the educational due to the use of a large number of new tools for solving pedagogical problems;
- 2) creating additional obstacles in the transition from one educational institution to another due to the heterogeneity of technical means;
- 3) loss of quality and relevance of educational content due to the large expenditure of time and resources on its creation;
- 4) increasing the requirements for the protection of personal data and copyrights;
- 5) a decrease in the quality and level of formation of social skills;
- 6) loss of the ability to write and perceive voluminous texts;
- 7) the inability to provide for all students with high-quality technical devices, stable Internet and appropriate software;

8) the development of dependence on digital devices and computer games.

To eliminate the risks and problems described above, modern participants in the educational process need to solve a number of theoretical and practical tasks:

1) review the functions, as well as the roles of students and teachers, educational institutions and educational materials;

2) develop and implement courses, the main task of which will be to teach teachers themselves to develop electronic educational courses, didactic computer games, unique teaching methods taking into account personal requests of students and digital reality;

3) create comfortable conditions for interaction of all participants developing and implementing new digital educational tools;

4) conduct regular research on the impact of gadgets on the consciousness and health of their users;

5) ensure the digital security of personal data, improve the legal regulation of the digital sphere, stimulate the development of digital legal awareness. Effective and timely identification of problems and risks, as well as deliberate, systematic introduction of digital technologies into the educational process can help avoid most of the negative effects of using the digital learning model.

The digital turn in education is a new stage in the development of educational and training practices, which determines the trends of the modern learning process. To further improve digital education, a global approach is needed, taking into account both the emerging prospects and the existing risks.

Not only individual educational institutions, teachers, companies and their employees, but also students themselves, parents, and the public should contribute to the implementation of the main tasks of digital education [6].

LIST OF REFERENCES

1. Azamxonov B., & Yuldasheva, D. (2023). AXBOROT TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING ZAMONAVIY MUAMMOLARI. *Research and Implementation*.
2. Юлдашева, Д. (2023). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПРАКТИЧЕСКИХ ПРИМЕРОВ В ПРЕПОДАВАНИИ ТЕХНИЧЕСКИХ ПРЕДМЕТОВ. *Conference on Digital Innovation : "Modern Problems and Solutions"*.
3. Dilfuza, Y., Nodirbek, S., & Azizbek, D. (2024). INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN HIGHER PROFESSIONAL EDUCATION. *Miasto Przyszłości*, 48, 22-24.

4. JY Suyumov, MX Lutfillaev (2022). THEORETICAL AND PRACTICAL ASPECTS OF THE USE OF INFORMATION TECHNOLOGY IN PEDAGOGICAL EDUCATION PEDAGOGIK TALIMDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VOSITALARINING NAZARIY VA AMALIY JIXATLARI. INFORMATION TECHNOLOGIES AND MANAGEMENT IN HIGHER EDUCATION AND SCIENCES, 181
5. MX Lutfillaev, J Yu Suyumov (2023). THEORETICAL AND PRACTICAL ASPECTS OF THE USE OF INFORMATION TECHNOLOGY IN PEDAGOGICAL EDUCATION. Publishing House "Baltija Publishing"
6. MX Lutfillaev, J Yu Suyumov (2023). Methodology for improving the educational process on the basis of computer simulation models. OF VIII INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE (SamSU), 564-568.

ЦИФРОВИЗАЦИЯ В ТУРИЗМЕ ШАГ В НОВУЮ ЭПОХУ РАЗВИТИЯ ОТРАСЛИ

Абдуллаева Шахноза Эркиновна – PhD, ТГУВ
Ибрагимова Дильруза Акмал қизи –
Студентка 3 курса в направлении туризм ТГУВ,
факультет Туризм, экономика и политика
восточных стран
E-mail: dilruzaibragimova@gmail.com

Аннотация. Туристская деятельность является информационно насыщенной сферой. Поскольку современное общество предполагает получение информации через интернет платформы, цифровизация в туризме становится важным атрибутом продвижения к новой эпохе развития отрасли. Актуальность выбранной темы подтверждается тем, что в современных условиях цифровизация стала фактором, стимулирующим сотрудничество, расширяющим возможности туризма, упрощающим взаимодействие туристов с работниками смежных сфер, создающим новые формы поездок, расширяющим возможности в сфере туризма.

Ключевые слова: цифровая экономика, искусственный интеллект, цифровизация в туризме, электронные платежи, электронная коммерция, виртуальный туризм, электронный бизнес, динамические турпакеты.

Введение. Как одна из наиболее развивающихся отраслей в экономике, туризм становится важнейшим приоритетным направлением для процветания уровня жизни людей во всем мире. Рассчитав

экономические функции туризма, мы можем определить те выгоды, которые он приносит. Прежде всего, туризм стимулирует развитие элементов инфраструктуры – отелей, ресторанов, коммерческих и частных заведений. Во-вторых, так как налоги составляют большую часть основного бюджета страны, туризм, увеличивая доходы, предоставляет значительную долю в выплате налогов, которые могут быть прямыми (визовые сборы и таможенные пошлины) или косвенными (увеличение заработной платы работников приводит к увеличению суммы подоходного налога, уплачиваемого ими в бюджет). Кроме того, туризм имеет большие возможности для привлечения иностранной валюты и различных видов инвестиций.

Не менее важной экономической функцией туризма является диверсификация экономики и формирование отраслей, обслуживающих туристическую отрасль, обеспечивающих рост доходов населения, повышение уровня благосостояния нации.

XXI век, вошедший в историю как век технологии, предоставляет ряд возможностей для цифровизации той или иной отрасли.

Понятие «цифровая экономика» сегодня не имеет единого представления у научной общественности, в результате чего важно представить основные определения исследуемого в данной статье экономического феномена:

- экономическая модель, характеризующаяся активной имплементацией и применением цифровых технологий для работы с информационными ресурсами;
- комплексная система социально-экономических и организационно-технических отношений, базирующихся на использовании цифровых информационно-коммуникационных технологий;
- многоуровневая организационно-техническая система в виде совокупности технических, инфраструктурных, организационных, программных элементов с взаимным использованием экономическими агентами для обмена информацией в условиях перманентного развития.³³

При этом процессом цифровизации в туризме является переход от аналоговой к цифровой передаче информации, потому что она влияет на снижение стоимости услуг по сравнению с традиционной экономикой и рост производительности труда.

³³ Гретченко А.А. Типы цифровых платформ и их содержание // Россия: тенденции и перспективы развития. 2020. №5. С.420–431.



Материалы и обсуждение. Внедрение цифровых технологий в туристской отрасли начало приносить свои первые плоды еще в начале 2000-х годах, когда стали появляться первые цифровые сервисы для туристов: ими стали системы бронирования жилья и покупки билетов, такие как Booking, Aviasales.

2. Конфиденциальность и безопасность данных

Большие данные часто включают в себя огромное количество чувствительной информации, такой как персональные данные, финансовые записи и коммерческая тайна. Это создает значительные риски для конфиденциальности и безопасности данных. Одной из ключевых проблем является защита данных на всех этапах их жизненного цикла: от сбора и хранения до анализа и передачи. Недостаток специализированных знаний и навыков у специалистов по кибербезопасности может привести к уязвимостям и утечкам данных.[3]

3. Специализированные навыки и знания

Обучение кибербезопасности в контексте Больших данных требует не только глубоких знаний в области информационной безопасности, но и понимания специфики работы с большими объемами данных. Специалисты должны владеть навыками использования инструментов и технологий, таких как Hadoop, Spark, NoSQL, а также методами машинного обучения и анализа данных.[4] Недостаток таких специалистов на рынке труда создает дополнительные трудности в образовательных



учреждениях, которые должны готовить кадры, соответствующие современным требованиям.

4. Скорость изменений в технологиях

Технологии, связанные с Большими данными и кибербезопасностью, развиваются чрезвычайно быстро. Новые уязвимости и угрозы появляются постоянно, что требует от образовательных учреждений гибкости и готовности к быстрому обновлению учебных программ. Это включает в себя интеграцию новейших достижений науки и технологий, а также адаптацию к меняющимся стандартам и нормативным требованиям.

5. Качество данных

Качество данных в среде Больших данных часто варьируется. Низкое качество данных может привести к ошибочным выводам и неправильной оценке угроз безопасности. Обучение специалистов должно включать навыки оценки и улучшения качества данных, а также методов работы с пропущенными, неточными или неконсистентными данными.[5]

6. Распределенные и децентрализованные системы

Большие данные часто обрабатываются в распределенных и децентрализованных системах, что усложняет задачи по обеспечению их безопасности. [6] Специалисты должны обладать знаниями о сетевых протоколах, системах распределенного хранения и обработки данных, а также методах защиты информации в таких средах. Это добавляет еще один уровень сложности к процессу обучения кибербезопасности.

7. Интероперабельность и интеграция

Большие данные обычно интегрируют информацию из множества различных источников и систем, что создает дополнительные проблемы для обеспечения безопасности. Необходимо обучать специалистов методам безопасной интеграции данных, а также управлению интероперабельностью между разными системами и платформами.

8. Правовые и нормативные аспекты

Большие данные подчиняются различным правовым и нормативным требованиям, которые могут варьироваться в зависимости от юрисдикции и типа данных. Специалисты по кибербезопасности должны быть осведомлены о соответствующих законах и стандартах, таких как GDPR, HIPAA и других, и уметь применять их на практике. [7] Это требует включения юридических аспектов в учебные программы по кибербезопасности.

Эти проблемы подчеркивают необходимость комплексного и многогранного подхода к обучению кибербезопасности в контексте

Больших данных, включающего технические, организационные и правовые аспекты.

Решения и предложения

1. Разработка новых инструментов и методов

Для эффективного обучения кибербезопасности в среде Больших данных необходимо разработать специализированные инструменты и методы, которые смогут обрабатывать большие объемы данных. Важными направлениями являются:

- Машинное обучение и искусственный интеллект: Интеграция методов машинного обучения и искусственного интеллекта для автоматического обнаружения аномалий и угроз в больших объемах данных. Эти технологии могут помочь в обработке и анализе данных в реальном времени. [8]

- Инструменты для анализа больших данных: Использование и обучение работе с такими инструментами, как Apache Hadoop, Apache Spark, NoSQL базы данных (MongoDB, Cassandra), которые разработаны для обработки и анализа больших данных.[9]

- Автоматизация процессов безопасности: Внедрение автоматизированных систем для мониторинга и защиты данных, что позволит быстрее реагировать на потенциальные угрозы.

2. Обучение конфиденциальности и безопасности данных

Особое внимание в образовательных программах должно уделяться вопросам конфиденциальности и безопасности данных:

- Специализированные курсы и программы: Разработка курсов, посвященных защите данных в контексте Больших данных, включая обучение методам шифрования, управлению доступом и анонимизации данных.[10]

- Практические занятия и лаборатории: Проведение практических занятий и лабораторных работ, где студенты могут применять полученные знания на реальных примерах и сценариях.

3. Междисциплинарный подход

Для подготовки специалистов в области кибербезопасности и Больших данных следует использовать междисциплинарный подход:

- Интеграция знаний из различных областей: Объединение знаний из таких областей, как информатика, математика, право, бизнес и управление. Это позволит студентам лучше понимать комплексные задачи кибербезопасности.

- Сотрудничество с другими факультетами и вузами: Разработка совместных образовательных программ и курсов, которые включают элементы различных дисциплин.

4. Постоянное обновление учебных программ

Учебные программы должны регулярно обновляться с учетом последних достижений и изменений в технологиях:

- Актуализация содержания курсов: Включение в учебные программы новейших исследований, технологий и лучших практик в области кибербезопасности и Больших данных.
- Привлечение практиков и экспертов: Привлечение специалистов из индустрии для проведения семинаров, мастер-классов и гостевых лекций, что позволит студентам получать актуальные знания и навыки.

5. Повышение качества данных

Для обеспечения надежности анализа данных и безопасности необходимо обучать специалистов методам работы с данными различного качества:

- Методы очистки данных: Обучение методам очистки, валидации и улучшения качества данных, что позволит уменьшить риски, связанные с неточными и неполными данными.
- Инструменты и техники оценки данных: Использование современных инструментов и техник для оценки качества данных и выявления возможных проблемных областей.

6. Обучение распределенным системам и облачным технологиям

Специалисты должны быть подготовлены к работе с распределенными системами и облачными технологиями, которые часто используются для обработки больших объемов данных:

- Курсы по облачным технологиям: Введение курсов, посвященных облачным платформам (например, AWS, Google Cloud, Microsoft Azure), их безопасности и методам управления данными в облаке. [11]
- Обучение распределенным системам: Разработка курсов, охватывающих архитектуры и методы безопасности для распределенных систем.

7. Правовые и нормативные аспекты

Для соответствия правовым и нормативным требованиям необходимо обучать специалистов правовым аспектам кибербезопасности:

- Курсы по праву и нормативам: Введение курсов, охватывающих международные и локальные законы и нормы, такие как GDPR, HIPAA и другие, а также обучение методам их применения. [7]
- Симуляции и кейс-стади: Проведение симуляций и разборов реальных кейсов, связанных с правовыми аспектами кибербезопасности, что позволит студентам лучше понимать практическое применение законов и нормативов.

8. Повышение осведомленности и культуры безопасности

Развитие культуры безопасности и повышение осведомленности о киберугрозах:

- Образовательные кампании и тренинги: Проведение образовательных кампаний и регулярных тренингов для студентов и сотрудников, направленных на повышение осведомленности о киберугрозах и методах защиты.
- Создание сообществ и сетей: Формирование сообществ и сетей для обмена опытом и знаниями между студентами, преподавателями и профессионалами в области кибербезопасности.

Эти решения и предложения направлены на создание комплексного и эффективного подхода к обучению кибербезопасности в среде Больших данных, что позволит готовить высококвалифицированных специалистов, способных решать современные вызовы в этой области.

Закключение

Обучение кибербезопасности в среде Больших данных представляет собой сложную, но крайне важную задачу. Для ее решения необходимо разрабатывать новые подходы и методы, уделять особое внимание вопросам конфиденциальности и безопасности данных, а также использовать междисциплинарный подход и регулярно обновлять учебные программы. Только таким образом можно подготовить квалифицированных специалистов, способных эффективно работать в условиях современных технологических вызовов.

Повышение качества данных, обучение работе с распределенными системами и облачными технологиями, а также знание правовых и нормативных аспектов являются важными элементами подготовки специалистов по кибербезопасности. Развитие культуры безопасности и повышение осведомленности о киберугрозах также играют ключевую роль в создании надежной системы защиты данных.

Применение предложенных решений и рекомендаций позволит создать эффективную образовательную инфраструктуру, способную подготовить специалистов, готовых к решению современных вызовов в области кибербезопасности и Больших данных. Только посредством комплексного и непрерывного подхода к обучению можно обеспечить высокий уровень защиты данных и успешное развитие информационных технологий в будущем.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Chen, M., Mao, S., & Liu, Y. (2014). Big Data: A Survey. *Mobile Networks and Applications*, 19(2), 171-209.



2. Jain, R., & Shanbhag, D. (2012). Addressing security and privacy risks in mobile applications. *IT Professional*, 14(5), 28-33.
3. McAfee, A., & Brynjolfsson, E. (2012). Big Data: The Management Revolution. *Harvard Business Review*, 90(10), 60-68.
4. Manyika, J., Chui, M., Brown, B., Bughin, J., Dobbs, R., Roxburgh, C., & Byers, A. H. (2011). Big Data: The Next Frontier for Innovation, Competition, and Productivity. McKinsey Global Institute.
5. Zikopoulos, P., Eaton, C., deRoos, D., Deutsch, T., & Lapis, G. (2012). Understanding Big Data: Analytics for Enterprise Class Hadoop and Streaming Data. McGraw-Hill.
6. Rouse, M. (2016). Big data security: Definition and solutions. TechTarget. Retrieved from <https://searchsecurity.techtarget.com/definition/big-data-security>
7. Gandomi, A., & Haider, M. (2015). Beyond the hype: Big data concepts, methods, and analytics. *International Journal of Information Management*, 35(2), 137-144.
8. Tankard, C. (2012). Big Data security. *Network Security*, 2012(7), 5-8.
9. Jagadish, H. V., Gehrke, J., Labrinidis, A., Papakonstantinou, Y., Patel, J. M., Ramakrishnan, R., & Shahabi, C. (2014). Big data and its technical challenges. *Communications of the ACM*, 57(7), 86-94.
10. Xu, L. D., He, W., & Li, S. (2014). Internet of Things in Industries: A Survey. *IEEE Transactions on Industrial Informatics*, 10(4), 2233-2243.
11. Kshetri, N. (2014). Big data's impact on privacy, security and consumer welfare. *Telecommunications Policy*, 38(11), 1134-1145.



V. PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR: O'QITISHNING INTERFAOL SHAKL VA METODLARI

ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA VA INNOVATSIYALARNING BO'LAJAK PEDAGOGLAR KREATIV SHAXSIY RIVOJLANISHIGA PSIXOLOGIK TA'SIRI

Alimova Gulchehra Qobilovna – Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti “Amaliy psixologiya»” kafedrasida dotsenti

Asrarxanova E'tibor Abduvaxob Qizi – Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti “Psixologiya” kafedrasida o'qituvchisi, ps.f.b.f.d.(Phd)

E-mail: asrarxonova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo'lajak pedagoglarda kreativlikni rivojlantirishning psixologik mazmuni, kreativlik tushunchasi mazmun va mohiyati ko'rib chiqilgan. Talabalarning ijodiy rivojlanishida kreativlikning asosiy yo'nalishlari ilmiy-nazariy tahlil etilgan va alohida shartlari ko'rsatib o'tilgan. Kreativ rivojlanishda ijodkorlik va intellekt o'rtasidagi farqlarning o'ziga xosligi ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: konstruktiv, innovatsion fikrlash qobiliyati, mavjud stereotiplarni yengish, intellektual o'sish, faollik, ijodiy rivojlanish, bo'lg'usi pedagoglik faoliyatida kreativlik, shaxsning ijodiy resurslarini faollashtirish.

O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasini isloh qilishdagi sa'y harakatlarining biri – bu pedagog kadrlarning zamon talablariga hamnafas tarzda faoliyat yuritishlari, har tomonlama rivojlangan komil shaxsni tarbiyalashga doir chuqur bilim, pedagogik mahorat, ko'nikma, malaka va madaniyatga ega bo'lishlarini talab etmoqda. Bu esa o'z-o'zidan ta'lim va tarbiya ishlarining qonuniyatlarini o'rganuvchi pedagogika faniga «kreativlik» degan tushunchani olib kirdi. Oliy o'quv yurtlarida talabalarning kasbiy tayyorgarligi kasbiy sifatlar va amaliy ish ko'nikmalarini shakllantirish bilan bir qatorda ularda kreativlikni ya'ni ijodkorlikni rivojlantirishni ham nazarda tutadi.

Kreativlik (lotincha creatio – “yaratish”) – bu odamning g'ayrioddiy g'oyalarni, o'ziga xos yechimlarni yaratish va an'anaviy fikrlash shakllaridan chetga chiqish qobiliyati. Ijodkorlik ijodiy shaxsning tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, bilimga bog'liq emas. Ijodkorlik darajasi yuqori bo'lgan odamlarni ijodkorlar deyiladi.

Kreativlik – bu ma'lum bir chuqur o'rnashgan xususiyat, konstruktiv, nostandart fikrlash va xulq-atvor qobiliyatini belgilaydigan barqaror shaxsiy xususiyat, yangi narsalarni kashf etishga va mavjud stereotiplarni faol ravishda yengishga qaratilganligi bilan boshqa xususiyatlardan ajralib turadi.

Kreativlik muammosini rivojlantirishga rus psixolog olimlaridan S.T.Rubinshteyn, Ya.A.Ponomarev, D.B.Bogoyavlenskaya, V.V.Moroz, xorij psixologlaridan J.Gilford, E.P.Torrens, S.Mednik, R.Mey, A.Maslou, K.Rojers, va o'zbek psixolog olimlaridan M.G.Davletshin, Z.T.Nishonova, E.G.G'oziev, V.A.Tokaryevalar ilmiy izlanishlari orqali o'z hissalarini qo'shganlar.

Zamonaviy psixologiya-pedagogika fanida kreativlik shaxsiy kategoriya sifatida quyidagi jihatlari bilan farqlanadi:

- 1) divergent fikrlashning namoyon bo'lishi (J.Gilford, O.K.Tixomirov),
- 2) intellektual faoliyatni yangilash (D.B.Bogoyavlenskaya, L.B.Ermolaeva-Tomina),
- 3) integratsiyalashgan shaxs sifati (Ya.A. Ponomarev, A.V. Xutorskaya).

Ko'rib chiqilayotgan muammoning metodologik asoslarini gumanistik terapiyaning asosiy tamoyillari va pedagogika A.Maslou, R.Mey, badiiy ijoddagi tadqiqotlar L.S.Vigotskiy, A.V.Bakushinskiy, ijodiy shaxsni rivojlantirish D.B.Bogoyavlenskaya, Ya.A.Ponomarev, J.Guilford, Torrance, badiiy pedagogika haqidagi fikrlar ta'lim va tarbiya fani sifatida G.Rid, S.A Gerasimova, G.M.Tsykina, B.M.Nemenskiy, F.Perlsning Gestalt terapevtik yondashuvi, J.Enright va K.Vilberning integral pedagogika va psixologiya tizimi tashkil etadi.

Oliy o'quv yurtlari talabalarini kasbiy tayyorlashning asosi kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish jarayoni, o'quv faoliyatining turli shakllarida ijodkorlikni rivojlantirishga ko'maklashish hisoblanadi.

Kreativlikka oid ko'plab ilmiy ishlar oliy kasbiy ta'lim va ijodiy rivojlanish muammolari bilan bog'liq zamonaviy tadqiqotlar yutuqlariga asoslanadi (F.T.Mixaylova, V.P.Zinchenko, V.V.Kraevskiy, A.S.Zapesotskiy, A.A.Rean, V.I.Andreeva va b.) insonparvarlik pedagogikasi tamoyillari (V.I.Vernadskiy, N.K.Rerich, S.A.Amonashvili), rivojlantiruvchi ta'lim tizimining qoidalari (V.V. Davidov, D.B. Elkonin, V.P. Zinchenko, madaniy jihatdan javob beradigan ta'lim kontseptsiyasi (V.T. Kudryavtsev, B.I. Slobodchikov, L.V. Shkolyar)

Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, ta'lim jarayonida talaba shaxsining kreativ rivojlanishi, agar ta'lim sohasida shaxsning ijodiy resurslarini faollashtirishga yordam beradigan sharoitlar yaratilsa, eng samarali bo'ladi [6].

Kreativlikning barqaror shaxs xususiyati sifatida rivojlanishi quyidagi asosiy shartlar bilan belgilanadi.

Birinchidan, ichki sharoitlar, jumladan:

- 1) o'z shaxsiyatining ijodiy xususiyatlarining qadr-qimmatini anglash;
- 2) ijodiy jarayonga hissiy ijobiy munosabat;

3) rivojlangan intellektual funksiyalar;
4) o'ziga ijobiy munosabat;
5) mustaqillik, qat'iyatlilik, maqsadlarga erishishda qat'iyatlilik, o'z fikrini himoya qilish qobiliyati va tavakkal qilish qobiliyati kabi shaxsiy fazilatlarining mavjudligi.

Ikkinchidan, ijodiy muhitning parametrlari bo'lgan tashqi sharoitlar quyidagilardir: muammoli, noaniqlik, qabul qilish, hukm qilmaslik.

Kreativlik hodisasini o'rganishda bir qancha yo'nalishlarni aniqlash mumkin [7]. Ulardan biri – kognitiv – ijodkorlikni o'rganishni kognitiv jarayonlarni o'rganish bilan bog'laydi, ijodkorlik va aql darajasi o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlaydi, ijodiy jarayonning bosqichlari, darajalari va turlarini aniqlaydi va ko'rib chiqadi.

Kreativlik tabiatini o'rganishning yana bir yo'nalishi – bu shaxsiyatga yo'naltirilgan bo'lib, ijodiy jarayon bilan bog'liq bo'lgan shaxsiy jihatlarni o'rganishga qaratilgan. Ushbu yo'nalish vakillari ijodkor kishilar shaxsining xarakteristik, motivatsion, hissiy, ijtimoiy rol sifatlarini aniqlaydilar va ijodkorlik va shaxsning o'zini o'zi anglash o'rtasidagi bog'liqlikni tekshiradilar.

“Kreativlik” tushunchasi “ijodkorlik” tushunchasi bilan chambarchas bog'liq. Shunday qilib, agar ijodkorlik ma'lum o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan va yangi narsalarni yaratishga olib keladigan jarayon sifatida tushunilsa, kreativlik potensial, insonning ichki resursi, uning stereotipik usullardan voz kechish qobiliyati, fikrlash yoki muammolarga yangi yechimlarni topish qobiliyati sifatida qaraladi. Kreativlikni insonning konstruktiv, innovatsion fikrlash va xulq-atvor qobiliyati, o'z tajribasidan xabardorligi va rivojlanishi sifatida ham aniqlash mumkin.

Kreativlik va tafakkur o'rtasida ma'lum farqlar mavjud. Bu muammoga (divergent va konvergent intellekt o'rtasidagi farqlar) birinchi bo'lib e'tiborni qaratgan J.Gilford bo'lib, u universal kognitiv ijodiy qobiliyat sifatida kreativlik tushunchasini taklif qilgan [8].

J.Gilford tafakkurning klassik bo'linishini induktiv va deduktivga bo'lishdan voz kechdi. U ularni faqat konvergent (bir yo'nalishli) tafakkur turlari deb hisobladi. Konvergent fikrlash, J.Gilfordning fikricha, masalani yechayotgan shaxs ko'p shartlar asosida yagona to'g'ri yechim topishi kerak bo'lgan holatda aktuallashadi.

J.Gilford boshlagan tadqiqot yo'nalishini E.P.Torrens eng izchil davom ettirdi, u ham ijodkorlikni fikrlash nuqtayi nazaridan ta'riflaydi. Kreativlik bilan E.P.Torrens kamchiliklarni, bilimlardagi bo'shliqlarni, uyg'unlikni va hokazolarni idrok etish qobiliyatini tushunadi.

Kreativlik va intellekt o'rtasidagi bog'liqlik sohasida olib borilgan ko'plab tadqiqotlar juda xilma-xil bo'lgan katta hajmdagi ma'lumotlarni aniqladi [8]. Shunday qilib, razvedka sohasidagi deyarli barcha mutaxassislar (G.Eyzenk,

D.Veksler, L.Termen, R.Vaysberg va boshqalar) aql-zakovat rivojlanishining yuqori darajasi kreativlik rivojlanishining yuqori darajasini nazarda tutadi, deb hisoblagan. Bu nuqtayi nazar vakillari L.Termen va K.Kokslarning empirik tadqiqotlari natijalariga tayanadilar. Ular o'z tadqiqotlarida Stenford-Bine shkalasiga tayandilar. Ammo, IQni baholashda nafaqat intellektual, balki kreativ yutuqlar ham o'rganilganligi sababli, tabiiydir. IQ va kreativlik ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlik yuqori bo'lib chiqdi [9].

Talabalar kreativligini rivojlantirishga oid nazariy adabiyotlarni tahlil qilish asosida quyidagi xulosalar chiqarish mumkin:

1. Ushbu muammo bo'yicha psixologik, pedagogik, ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilish talabalarning kasbiy tayyorgarligi jarayonida ijodiy rivojlanishining nazariy asoslarini ajratib ko'rsatish imkonini berdi. Bular bilim va tajribani integratsiyalash, nazariy bilim va amaliy ish ko'nikmalari o'rtasidagi bog'liqlik, kasbiy muammolarni hal qilishda ijodiy yondashuvni rivojlantirishdir.

2. Talabalarning kelajakdagi kasbni qabul qilishga va o'zlashtirishga tayyorlik darajasini hisobga olgan holda kreativ rivojlanishining asosiy mezonlari aniqlanadi. Bu mezonlarga ijodiy muammolarni favqulodda hal qilish, yangi tajribalarga ochiqlik, ijodiy salohiyatning o'sishi, empatiya, xavotirning past darajasi, hazil tuyg'usi, o'quv jarayoniga qiziqish kiradi.

3. O'rganilayotgan fan bo'yicha bilimlarni, mustaqil ish ko'nikmalarini, bo'lajak o'qituvchining kasbiy mahoratini rivojlantirish va darsda o'rganilgan texnologiyalarni o'quv amaliyotiga joriy etishga qaratilgan talabalar kreativligini rivojlantirish modelini tuzish mumkin.

Shunday qilib, kreativ rivojlanishning psixologik xususiyatlari muammosi dolzarb bo'lib, unga jiddiy e'tibor berishni talab qiladi. Bu, ayniqsa, kredit ta'lim tizimining rivojlanishi sharoitida talabalarning mustaqil ishlariga katta e'tibor qaratilayotganda ahamiyatlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Рубинштейн С.Т. Основы общей психологии. Издательство: АСТ, 2019. – 960 с.
2. Семенов И. Н. Взаимодействие А. Пономарева и М.Г. Ярошевского в развитии психологии творчества и рефлексии. //Психологический журнал. – 2015. – Т. 36. – № 6. – С. 45-54.
3. Мороз В.В. Развитие креативности студентов. Оренбург: Оренбургский госунив., 2011. – 220 с.
4. Мынбаева А.К., Тихомирова В.Т., Вишневская А.В. Развитие интеллектуальных способностей студентов университета как фактор повышения интеллектуального потенциала Казахстана: монография, 2015. – 191 с.

5. Мынбаева А. К. Креативность и творческие способности личности: теории, принципы и карты развития: Монография. Мынбаева А.К., Вишневская А.В., Галимова Н.Р. – Алматы: Қазақ университеті, 2016. – 165 с.
6. Кукубаева А.Х., Кульжанова С.А. Профессиональная компетентность и педагогическое мастерство учителя // Наука и реальность. 2020. – № 2. – С.47-51.
7. Петрушин В.И. Развитие творческих способностей: Учебное пособие. М.: Юрайт, 2019. – 173 с.
8. Дж. Гилфорд. Три стороны интеллекта // Психология мышления. – М.: Прогресс, 1965. – 14 с.
9. Никитин, О.Д. Развитие креативности как основа профессиональной подготовки студентов педагогических вузов: автореферат дис. ... кандидата педагогических наук: 13.00.08 / Никитин Олег Денисович; [Место защиты: Ин-т худож. образования Рос. акад. образования]. – Москва, 2009. – 22 с.

TALABALAR BILAN “I ANALITIK GURUH KATIONLARI” MAVZUSINI INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA O'RGANISH

Aminov Zayir – Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

E-mail: aminovzair48@gmail.com

Aripova Madina – Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

E-mail: madina3429149@gmail.com

Hayitova Madina – Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

E-mail: madinakhayitova087@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada “muammoli vaziyatlar” innovatsion pedagogik texnologiyasidan foydalanib talabalar bilan “I analitik guruh kationlari” mavzusini o'rganishga doir ishlanmalar keltirilgan. Ushbu guruhga mansub Na^+ , K^+ , NH_4^+ , Mg^{2+} kationlarining birikmalarini biologik xususiyatlari, veterinariyada qo'llanilishi, kationlarni xususiy sifat reaksiyalar yordamida aniqlashga doir uslubiy tavsiyalar bayon etilgan. Interfaol usulda mashg'ulot



o'tkazilishi talabalar faolligini oshirdi, ularning olgan bilimi sifat ko'rsatgichlarini yaxshilanishi kuzatildi.

Kalit so'zlar: *natriy, kaliy, magniy kationlari, biologik xususiyatlari, kationlarni sifat reaksiyalar yordamida aniqlash, reagent.*

Veterinariya meditsinasi, farmatsevtikasi, diagnostikasi va laboratoriya ishlari, sanitariya ekspertizasi, biotexnologiyasi ta'lim yo'nalishlari talabalari bilan Analitik va fizkolloid kimyo fanini 20 soat ma'ruza, 40 soat laboratoriya mashg'ulotlari va 60 soat mustaqil ta'lim shakllarida o'rganilishi rejalashtirilgan.

Chorva mollari kasalliklarini tashxislashga, go'sht, sut oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizlik darajasini aniqlashda, vaksinalar yaratishda biotexnologik jarayonlarni nazorat qilishda Analitik kimyoning kimyoviy, fizik-kimyoviy va fizikaviy metodlari keng qo'llaniladi. Ular to'g'risidagi ma'lumotlarni egallash chorvachilikning turli sohalaridagi mutaxassislarning malakaviy bilim saviyalarini yuqori bo'lishiga ijobiy ta'sir etuvchi omillardan biridir. Fan uchun rejalashtirilgan ma'ruza va laboratoriya mashg'ulotlarida, hamda mustaqil ta'lim jarayonida samarador innovatsion pedagogik usullarni qo'llab, talabalar faolligini oshirilishi bo'lajak mutaxassislarda amaliyotdagi turli maqsadlar uchun zarur tashxislash laboratoriyalarida qo'llanilayotgan metodlar bo'yicha yetarli bilim va amaliy ko'nikmalarni shakllanishiga xizmat qiladi.

Ma'lumki kimyoviy elementlar kation yoki anionlar ko'rinishida hayvon va o'simliklar tanasi to'qimalarida makro- va mikroelementlar sifatida xilma-xil fiziologik hamda biokimyoviy jarayonlarda ishtirok etadi. Ana shu jarayonlarni to'laqonli amalga oshishida biogen elementlar bilan organizmni ta'minlanganlik darajasi muhim ahamiyatga ega. Analitik kimyoning sifat va miqdoriy tahlil usullari ushbu muammo yechimini topishda qo'llaniladi.

Analitik va fizkolloid kimyo "Fan dasturi" va ishchi "O'quv dasturi"ga muvofiq, yuqorida nomlari keltirilgan ta'lim yo'nalishlari talabalari bilan "I analitik guruh kationlari" mavzusini o'rganish rejalashtirilgan. Ushbu analitik guruhga Na^+ , K^+ , NH_4^+ , Mg^{2+} kationlari kiradi va ularning birikmalari tibbiyotda dorivor moddalar, qishloq xo'jaligining turli sohalarida esa mineral o'g'it yoki pestitsid preparatlari sifatida qo'llaniladi.

Bo'lajak vetvrachlar, chorvachilik tarmoqlari mutaxassislari, biotexnologlar I analitik guruh kationlarini hayvon organizmidagi roli haqida mukammal nazariy bilimga va har bir kationni namunada aniqlashda qo'llanilishi mumkin bo'lgan metodlar haqida amaliy ko'nikmaga ega bo'lishlari lozim.



Amaliy-laboratoriya mashg'ulotida guruhning har bir talabasi faol qatnashishini ta'minlash maqsadida, oldindan ular diqqatiga quyidagi bandlardan iborat reja havola etildi;

1. Birinchi analitik guruhga qaysi kationlar kiradi?
2. Na^+ kationining biologik jarayonlardagi roli, uni sifat jihatdan aniqlashda qo'llaniladigan reaktivlar.
3. K^+ kationining biologik jarayonlardagi roli, uni sifat jihatdan aniqlashda qo'llaniladigan reaktivlar.
4. NH_4^+ kationining biologik jarayonlardagi roli, uni sifat jihatdan aniqlashda qo'llaniladigan reaktivlar.
5. Mg^{2+} kationining biologik jarayonlardagi roli, uni sifat jihatdan aniqlashda qo'llaniladigan reaktivlar va ushbu reja asosida mavzuni o'rganib kelish talabalarga vazifa etib topshirildi.

Mavzuni "Muammoli vaziyatlar" innovatsion interfaol pedagogik texnologiya asosida o'rganishda talabalar diqqatiga savollar havola etilib, ularning dars jarayonida faol ishtirok etishi ta'minlanadi. O'tkazilgan laboratoriya mashg'ulotida quyidagi savollardan foydalanildi:

- 2.1. Na^+ kationini saqllovchi qanaqa birikmalar veterinariyada qo'llaniladi?
- 2.2. Na^+ kationlari organizmda qanday fiziologik jarayonlarda ishtirok etadi?
- 2.3. Nima uchun davolashda NaCl ning 0,9% ni eritmasidan "fiziologik eritma" sifatida foydalaniladi.
- 2.4. Tarkibi noma'lum eritmada Na^+ kationi bor-yo'qligini aniqlashda..... reaktividan foydalaniladi va kimyoviy jarayon..... tenglamaga muvofiq amalga oshadi.
- 2.5. Alangada cho'g'languncha qizdirilgan nixrom spiralini Na^+ kationining birorta quruq tuziga botirib, sirtiga tuz yuqqan spiralni qayta alangada tutib turilsa alanga rangi tusga bo'yaladi.
- 3.1. K^+ kationlari organizmda qanday fiziologik jarayonlarda ishtirok etadi?
- 3.2. K^+ kationlari o'simliklarda sodir bo'ladigan qanaqa fiziologik jarayonni tezlashtiradi?
- 3.3. K^+ kationini saqllovchi qanaqa birikmalar qishloq xo'jaligida mineral o'g'itlar sifatida foydalaniladi?
- 3.4. Tarkibi noma'lum eritmada K^+ kationi bor-yo'qligini aniqlashda..... reaktividan foydalanilganda va eritmani sovitib shisha tayoqcha bilan ishqalanganda oq cho'kma hosil bo'ladigan jarayon kimyoviy tenglamasini yozing.
- 3.5. Tarkibi noma'lum eritmada K^+ kationi bor-yo'qligini aniqlashda..... reaktividan foydalanilganda sariq rangli cho'kma hosil bo'ladigan jarayon kimyoviy tenglamasini yozing.



3.6. Alangada cho'g'languncha qizdirilgan nixrom spiralini K^+ kationining birorta quruq tuziga botirib, sirtiga tuz yuqqan spiralni qayta alangada tutib turilsa alanga rangi tusga bo'yaladi.

4.1. Chorvachilik binolarida havoni ifloslanishiga sabab bo'luvchi gazlardan biri NH_3 qanday paydo bo'ladi?

4.2. Chorvachilik binolarida va suv havzalarida NH_3 ning, chorva mollari organizmi uchun zararsiz, ya'ni ruxsat etilgan konsentratsiyasi (REK) nechaga teng?

4.3. Meditsinada qo'llaniladigan NH_4^+ kationini saqlovchi kimyoviy birikma va uning nomi?

4.4. Quruq holdagi tuzlar tarkibida NH_4^+ kationi bor-yo'qligini aniqlashda, unga quruq holdagi qo'shib aralashtiriladi, aralashma ezib ishqalanadi, natijada o'tkir hidli gazi ajraladi.

4.5. Eritmada NH_4^+ kationini bor yo'qligini bilib olishda reaktivi eritmasdan foydalaniladigan kimyoviy jarayonning tenglamasini yozing.

4.6. Eritmadagi NH_4^+ kationini bor yo'qligini bilib olishda unga qo'shib qizdirilsa o'tkir hidli NH_3 gazi ajraladi, kimyoviy jarayonning tenglamasini yozing.

5.1. Mg^{2+} kationini saqlovchi birikmalar qanaqa muhim biologik jarayonlarda ishtirok etadi?

5.2. Tabiiy suvlar tarkibida Mg^{2+} kationini saqlovchi tuzlar qanday kimyoviy reaksiya natijasida paydo bo'ladi?

5.3. Oshqozon shirasi faoliyatini yaxshilaydigan "renni" dorivor modda tarkibidagi asosiy ta'sir etuvchi kimyoviy birikmalar.

5.4. Meditsina amaliyotida, bemor qon bosimini me'yorlashtirishda Mg^{2+} kationining qanaqa tuzi eritmasidan foydalaniladi?

5.5. Tarkibi noma'lum eritmada Mg^{2+} kationi bor-yo'qligini aniqlash uchunreaktividan tomizilganda, agar u kation mavjud bo'lsa oq rangli formulaga muvofiq cho'kma hosil bo'ladi.

5.6. Tekshirilayotgan eritmada Mg^{2+} kationi mavjud bo'lsa, unga NH_4OH va NaH_2PO_4 reaktividan tomizilsa..... tarkibli oq cho'kma hosil bo'ladigan kimyoviy jarayonning tenglamasini yozing.

Yuqorida bayon etilgan muammoli vaziyatlar savollariga talabalar tomonidan berilgan javoblar baholanib borildi. Kationlarni aniqlash sifat reaksiya tajribalari bajarilishi talabalarda amaliy ko'nikma hosil bo'lishiga xizmat qiladi. Talabalarining nazariy savollarga bergan javoblari va amaliy tajribalarni bajarish ko'nikmalari bo'yicha umumiy baho mashg'ulot yakunida darsda faol qatnashgan talabalar uchun e'lon qilindi.

Xulosa Yuqorida bayon etilgan usulda laboratoriya mashg'uloti o'tkazilganda, guruh talabalarining faolligi oshganligi va ular olgan bilim sifat ko'rsatgichlari yaxshilanganligi kuzatildi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. David van Vranken and Gregory Weiss. Introdution to Biorganik chemistry and chemical biology, London, 2013.
2. М.Фримантл, Химия в действии, перевод с английского изд. Мир, М., 1991 г.
3. Sh.Nazarov, Z.Aminov., Analitik ximiya, Toshkent. O'qituvchi, 1984 yil.
4. Z.Aminov, S.Musayeva, Analitik, fizkolloid va biologik kimyodan laboratoriya mashg'ulotlari, O'quv qo'llanma, Toshkent. "Cho'lpon", 2018 yil.
5. www.chemistrybook.com

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA KUYLASH MALAKALARINI SHAKLLANTIRISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH

Axmedova Dilnoza Ilyosovna – Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti katta o'qituvchisi

E-mail: azizaxonakmalova1991@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotida olib boriladigan musiqa faoliyatida maktabgacha yoshdagi bolalarning kuylash malakalarini shakllantirishning muhimligi va bunda pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyatli jihatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: musiqa faoliyati, musiqiy qobiliyat, qiziqish, moyillik, ijodiy qobiliyat, kuylash malakalari, ovoz, diksiya, intonatsiya.

Jamoa bo'lib kuylash jarayoni bolalarni musiqiy o'quv qobiliyati hamda ijrochilik malakalarini rivojlantirish uchun zarurdir. Guruhda jamoa bo'lib kuylash jarayonida bolalar o'z ovoz ijrosini boshqarishni, musiqa rahbarining ijrosini eshitib, kuzatishni hamda ur bilan bahamjihat jo'navozlik qilishga intiladi, jamoaviy birlik, uyushqoqlik, o'zaro do'stlik hislari tarbiyalanadi. Jamoa bo'lib kuylaganda bolaga kuy qo'shiq matniga nisbatan kuchliroq ta'sir qiladi. K.D.Ushinskiy ta'kidlaganidek: "Qo'shiqda, ayniqsa xor jamoasida qalbni tarbiyalovchi uning junbushga keltiruvchi hissiyotlar mavjud"⁵⁸.

Kuylash — tovush hosil qilishning murakkab jarayonlaridan biri bo'lib, asosan ovoz va eshituv organlarining mujassamlashuvi asosini tashkil etadi,

⁵⁸ К.Д.Ушинский. Педагогика. Избранные работы. Москва "Юрайт" 2019 г.

ya'ni eshituv apparati va qo'shiqchilik ovozi o'zaro bog'liqligidir. Eshituv qobiliyatining takomillashuvi — bolalarning kichik yoshidan rivojlanadi. Ular musiqa rahbari kuylab berganda qo'shiq, kuy yoki ohangni sofligicha eshitadilar va shundayligicha kuylaydilar. Kichik yoshdagi bolalar 2-3 ta nota oralig'idagi qo'shiqlarni kuylay oladilar. Bolalar kattalar kuylarini eshitib, keyin o'zlari ham shu kuyni kattalardek kuylashga harakat qiladilar. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ovoz apparati mukammal rivojlanmagan (tovush paylari rivojlanmagan, nozik, nafas kuchsiz va boshqalar). Bola rivojlangani sari organizm va qo'shiqchilik organlari ham takomillashadi. Maktabgacha yoshdagi bola ovozi yetarli darajada yorqinligi bo'lmaydi. Bolaning tabiiy ovozi re 1 — si 1, ya'ni undan yuqori va pastki notalarni bola kuylaganda tovush zo'riqlashi va siqib kuylashi mumkin. Bu bolalarning tovush paylarining shikastlanishiga olib kelishi mumkin. Bu muammolarga yo'l quymaslik uchun aniq maqsadga yo'naltirilgan va puxta o'ylab chiqilgan repertuar tanlanishi

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun qo'shiq repertuarini to'g'ri tanlash muhim. Har bir yosh guruhi uchun qiziqarli ularning kayfiyatiga mos keladigan, ma'naviy jihatdan tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan qo'shiq tanlash shart. Chunki, qo'shiqlar bolalarning ijobiy his-tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatadi, ularning qo'shiq kuylash malakalarini rivojlantiradi.

Kuylash malakalari quyidagilardan iborat⁵⁹:

1. To'g'ri nafas olish;
2. Ovoz shakllanishi;
3. Diksiya va intonatsiyaning tozaligi;
4. Jamoa bo'lib kuylash;

Ovozni to'g'ri sozlash bilan tovush shakllanishi tabiiy, yengil bo'lishi kerak, bolalar qichqiriq va stressiz qo'shiq aytishlari kerak. To'g'ri ovoz hosil qilish uchun ovozli apparatning aniq ishlashi (pastki jag', lablar, til bilan yumshoq tanglay) katta ahamiyatga ega. Ovoz shakllanishi qo'shiq kuylashga o'rgatish sifati bilan chambarchas bog'liq.

Bolalarga qo'shiq o'rgatayotganda va repertuar tanlaganda nimalarga e'tibor berilishi kerak?

Har bir qo'shiq ma'lum pedagogik maqsadlarni amalga oshirishni ko'zga tutib tanlanadi. Unda har bir yangi qo'shiq oldingisidan hosil yetilgan kuylash malakalarini mustahkamlaydi va ularni rivojlantiradi. Qo'shiq diapazoni bolalar ovoziga mosligi, badiiy g'oyaviy mazmuni, bolalar dunyoqarashi va yoshiga mos bo'lishi kerak.

Qo'shiqlarni quyidagi talablarga ko'ra tanlash tavsiya etiladi:

⁵⁹ G.M.Sharipova, Sh.Yakubova. "Maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqa o'qitish metodikasi", Toshkent, "Cho'lpon", 2009-yil. (O'quv qo'llanma).



1. Qo'shiqni tarbiyaviy ahamiyati, g'oyaviy mazmuni, musiqiy tuzilishi va xarakterining bolalar yoshiga mosligi.
2. Qo'shiq matnining osonligi, badiiy yuksakligi, bolalarning lug'at boyligiga mosligi va ularning nutqini va tafakkurini o'stirish uchun xizmat qilishi.
3. Qo'shiq ohangi, uning xarakteri (xushchaqchaq, quvnoq, marsh, mungli, g'amgin, bayramona, ko'tarinki ruxda), lad va teksturasi, ovoz diapazoni bolalar yoshiga mos bo'lishi.
4. Qo'shiqning badiiy xususiyatlari va ifodaviyligi, bolalar idrokiga mosligi, garmonik tuzilishi va ohangdoshligi.
5. Qo'shiq shakli (1,2 qismli yoki kuplet shaklida tuzilganligi) naqarotning mavjudligi.

Qo'shiqni tanlashdagi bolalarga qisqa, mazmunli, obrazli, qiziqarli hikoya qilib beriladi. Qo'shiq mazmunidagi axloq-odob, tabiat, ona Vatan, mehr-muhabbat haqidagi g'oyalarni bolalar ongiga singdirib, ularda qiziqish uyg'otadi.

Qo'shiqni musiqa rahbari ifodali qilib ijro yetib beradi, musiqiy jummalarga bo'lib o'rgatadi. So'ngra qo'shiq mazmunga mos musiqiy-ritmik harakatlar bilan o'rgata boshlaydi. Matn va ohang talaffuzning aniqligi ma'lum me'yorga tushgandan so'ng, qo'shiqning badiiy ijrosiga erishiladi. Qo'shiqni vaqt-vaqti bilan sayr vaqtida, mashg'ulotdan-mashg'ulotga takrorlab kuylab turish lozim, aks holda uning matni bolalar xotirasidan ko'tariladi va unga nisbatan qiziqish susayadi. Har bir mashg'ulotda ayniqsa, yangi qo'shiqni o'rganishda oldin, ilgari o'rgatilgan qo'shiqni takrorlab turish, bolalar ijrosidagi ayrim nuqsonlarni tuzatib borishga yordam beradi. Bolalar toliqmasligi uchun qo'shiq o'rgatish shakllari o'zgartirib turiladi. Masalan: guruhlariga bo'lib o'rgatish; yakkaxon va guruh jo'rligida; musiqiy harakatlar yordamida amalga oshirilib qo'shiq matniga mos raqs elementlarini o'ylab ko'rishga va o'zlari uni ijro etishga undab ko'rish yaxshi samara beradi. Qo'shiq mukammal o'rganilgandan so'ng, ularning qiziqishi yanada ortadi. Shuningdek, mashg'ulot shakllarini (noan'anaviy mashg'ulotlar) o'zgartirilib turish ham mashg'ulotlarda bolalarning zerikishini oldini olib, qiziqishini kuchaytiradi. Yil davomida bolalar 10-12 ta qo'shiq o'rganishlari ko'zda tutiladi.

Bunga erishish uchun qo'yiladigan vazifalar⁶⁰:

- bolalarda sof intonatsiya va qo'shiqchilik malakalarini shakllantirish;
- yakka va musiqa rahbar bilan qo'shiq kuylash, akapella tarzida ijro etish;

⁶⁰ G.M.Sharipova, Sh.Yakubova. "Maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqa o'qitish metodikasi", Toshkent, "Cho'lpon", 2009-yil. (O'quv qo'llanma).

- musiqiy eshituv qobiliyatini, kuyning balandligi, ularning uzunligi, kuyning yo'nalishi, o'zini eshita olishi (kuylayotganida), ijro vaqtida o'zining xatolarini eshita olishini rivojlantirish;
- ovoz rivoji, tabiiy ijroga erishish;
- bolalarda ijodkorlik malakalarini rivojlantirish, ular ijro etgan qo'shiqlarini xorda va o'yinlarda qo'llash.

Bola to'g'ri kuylashi uchun qo'shiqchilik, vokal-xor malakalarini shakllantirish kerak.

Qo'shiqchilik malakalari. Bu to'g'ri holatda kuylash. Qo'shiq kuylash jarayonida bola gavdasini ko'tarib bukchaymasdan, stul orqasiga suyanibroq o'tirishi kerak. Qo'llari yesa tizzaga qo'yiladi.

Vokal malakalari. Bu ovoz hosil qilish, nafas va diksiya. Nafas qisqa, yengil va shovqinsiz bo'lishi kerak. So'zlar aniq va burro talaffuz qilinadi.

Xor malakalari. Bu ansambl va tuzilish (stroy)ning o'zaro bog'liqligi. "Ansambl" — fransuzcha so'z bo'lib, Ensemble – "birgalikda" ya'ni, ovozlarning kuch va balandligining birlashuvidir.

Kuylash malakalarini rivojlantirish. Kuylash malakalari qo'shiq yodlash va o'rganish jarayonida rivojlanadi. Asar murakkablashgani sari malaka rivojlanadi.

Qo'shiq kuylash musiqa mashg'ulotining asosini tashkil etadi. Har bir qo'shiq ma'lum pedagogik maqsadlarni amalga oshirishni ko'zda tutib tanlanadi. Qo'shiqlarni ma'lum bir tizimga solishda oddiydan murakkabga qarab borishga rioya qilish kerak.

Qo'shiqlarni quyidagi talablarga muvofiq tanlash tavsiya etiladi⁶¹:

- tarbiyaviy ahamiyati, g'oyaviy mazmuni, musiqiy tuzilishi va xarakteri;
- qo'shiq matnini yod olish osonligi, badiiy yuksakligi va bolalarning lug'at boyligiga mosligi;
- ohangning xarakteri, intonatsiya ifodasi, kuyning o'lchovi, teksturasi va diapazonining bolalar ovoziga mosligi;
- qo'shiqning musiqa cholg'ulari (fortepiano) jo'rligi uchun klaviri: badiiy xususiyati va ifodaviyligi, bolalar yoshiga mosligi;
- qo'shiqning shakli, necha kuplet, qismdan iboratligi (bir, ikki qismli yoki ko'plik shaklida tuzilganligi), naqarotning mavjudligi.

Yalla, lapar, alla kabi o'zbek xalq qo'shiqlari, shuningdek, terma qo'shiqlar milliy musiqiy-ritmik harakatlari bilan o'rgatiladi. Musiqa rahbari qo'shiqlarni bolalarga yoqimli ovozda ifodali aytib berib tanishtiradi. Mazmunini obrazli, qiziqarli tarzda bolalar ongiga yetkazishga harakat qiladi. Bunda u ko'rgazmali qurollar, musiqiy-ritmik harakatlardan foydalanadi. Qo'shiq mazmuni va xarakterini bolalar yaxshi anglab olganlaridan so'ng o'rgatishga kirishadi.

⁶¹ X.Tursunova (Hasanova). Qo'shiqlar sehri. O'quv qo'llanma. Toshkent "Muharrir" 2012-y.



Bolalar toliqib qolmasliklari uchun qo'shiq o'rgatish uslubi vaqti-vaqti bilan o'zgartirib turiladi.

Bolalar qo'shiqni stulchalarga suyanib o'tirgan holda kuylaydilar. Bu paytda ular qomatlarini to'g'ri tutishlari lozim. Stulchalar bolalarning bo'ylariga mos bo'lishi kerak, ya'ni suyanadigan qismiga yengil tayanib turish mumkin bo'lsin. Qo'shiq kuylanayotganda qo'llar tizzaga qo'yilgan bo'lishi shart. Qo'shiq mazmuniga mos musiqiy-ritmik harakatlarni bajarish bolalarning ko'krak qafasi va nafas yo'llarini yaxshi rivojlanishiga yordam beradi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, kuylash yengil va oson amalga oshirilishi tufayli bolalar diqqatini tez jalb etadi. Musiqa ijrochiligida ovoz eng qulay vositadir, chunki qo'shiq kuylashni turli sharoitlarda tez va oson tashkil etish mumkin. Musiqiy tarbiya ishi to'g'ri yo'lga qo'yilgandan so'ng bolalarga ularning yoshi va ovozigacha mos qo'shiqlarni kuylatish natijasida tarbiyalanuvchilarning ovoz apparati yaxshi rivojlanadi. Qo'shiq repertuarini tanlashda bolalarning ovoz diapazoni qoidalariga rioya etish tavsiya etiladi.

Barcha guruh bolalari uchun yengil, kichik diapazonli qo'shiqlar, turli vokal-xor mashqlarini bolalar ovoz diapazonlariga muvofiq kuylatish maqsadga muvofiqdir. Bu bolalarda musiqiy qobiliyatning har tomonlama rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Kuylash jarayonida bolaning fikrlash qobiliyati, nutqi, idroki o'sadi. Bolalar ovozini asrab tarbiyalashning zarur shartlaridan biri qo'shiqlarni ularning yoshiga va ovoz diapazonlariga qat'iy rioya etib tanlashdan iboratdir⁶².

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22 dekabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi 802-sonli qarori <https://lex.uz/docs/5179335>
2. Grosheva I.V., Mirziyoeva Sh.Sh., Yevstafeva L.G., Maxmudova D.T., Nabixanova Sh.B., Pak S.V., Nazarova V.A., Isxakova M.R., Abdunazarova N.F. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi (takomillashtirilgan ikkinchi nashr) Toshkent 2022-yil (o'zbek va rus tillarida).
3. Sharipova G.M., Yakubova Sh. "Maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqa o'qitish metodikasi", Toshkent, "Cho'lpon", 2009-yil. (O'quv qo'llanma).
4. Tursunova (Hasanova) X. Qo'shiqlar sehri. O'quv qo'llanma. Toshkent "Muharrir" 2012-y.
5. Ушинский К.Д. Педагогика. Избранные работы. Москва "Юрайт" 2019 г.

⁶² G.M.Altibayeva. Maktabgacha ta'limda musiqiy tarbiyasi metodikasi. Termiz — 2018-y.



6. О.П.Радынова, А.И.Катинене, М.Л.Палавандишвили. Музыкальное воспитание дошкольников. Учебное пособие — Москва, 1998 г.
7. М.А.Давыдова. Музыкальное воспитание в детском саду. Средняя, старшая, подготовительная группы. — М.: ВАКО, 2006.

DEVELOPING COMMUNICATIVE LANGUAGE TEACHING (CLT) OF EFL/ESL STUDENTS

Azimov Azamat Khayrulloevich – Teacher of the department “English Language theoretical aspects” Uzbekistan State University of World Languages

E-mail: aazamat_77@mail.ru

Abstract. *This article reveals on a contemporary methodologies in modern foreign language teaching. It explores into essential professional skills required by language teachers, emphasizing the importance of understanding learners' personalities for planning effective communication strategies, and evaluating teaching outcomes. It introduces Communicative Language Teaching (CLT) as a framework that prioritizes meaningful communication, authentic language use for cultural competence. Furthermore, the article highlights the components of CLT and the role of technology in language education. Overall, it provides valuable insights into the evolving landscape of foreign language teaching, emphasizing communication, cultural understanding, and learner engagement as key factors in achieving language proficiency and intercultural competence.*

Key words: *Common European Framework of Reference (CEFR) Communicative Language Teaching (CLT), foreign language teaching, language proficiency.*

Introduction The Common European Framework of Reference (CEFR) was implemented in Uzbekistan in 2012 as a framework for teaching, learning and assessing languages. CLT is employed within CEFR (Beresova, 2017) and the approach is much different than the rule based/grammar-translation method (GMT). Communicative Language Teaching (CLT) stands out as a widely recognized approach that prioritizes the development of CLT and meaningful interaction in language learning contexts [1]. In recent years, there has been a growing interest in assessing the effectiveness of CLT principles and modern teaching approaches within diverse educational settings, including Uzbekistan. This study aims to explore the application and impact of CLT principles and modern teaching methods in Uzbekistan's language

curriculums. By investigating the integration of CLT principles and contemporary teaching methodologies, approaches in enhancing language learning outcomes and promoting CLT among learners in Uzbekistan.


Communicative Language Teaching (CLT) is an approach to language teaching that prioritizes the development of CLT—the ability to use language fluently and effectively in real-life situations. CLT emphasizes meaningful communication, authentic language use, and learner-centeredness. It consists of several components and strategies aimed at facilitating language learning through communication. [7]

CLT is learner-centered, meaning that learners are actively involved in the learning process and have autonomy over their learning. Learners' interests, needs, and preferences are taken into account when designing communicative tasks and activities. Learners are encouraged to take ownership of their learning, set goals, and monitor their progress.

Fig.1 Components of Communicative Language Teaching

In Communicative Language Teaching (CLT), there are four main components that contribute to language learning and proficiency.

These components are linguistic, sociolinguistic, pragmatic or discourse, and strategic competence. Figure 1 displays components of CLTs.



Linguistic Competence. This component focuses on the grammatical and lexical aspects of language. Learners develop linguistic competence by acquiring knowledge of grammar rules, vocabulary, sentence structure, and pronunciation. Linguistic competence enables learners to produce grammatically correct and lexically appropriate utterances in the target language.

Sociolinguistic Competence. Sociolinguistic competence refers to the ability to understand and use language appropriately in different social contexts and situations. This involves awareness of social norms, cultural conventions, politeness strategies, and register variations. Sociolinguistic competence enables learners to adapt their language use according to the social roles, relationships, and cultural norms of the communication context.

Pragmatic or Discourse Competence. Pragmatic or discourse competence involves understanding the conventions of discourse, including



turn-taking, coherence, cohesion, and speech acts. Learners develop pragmatic competence by learning how to initiate, maintain, and end conversations appropriately, as well as how to interpret implied meanings, indirect speech acts, and conversational implicatures. Pragmatic competence enables learners to engage in effective communication and convey intended meanings in various discourse contexts.

Strategic Competence. Strategic competence refers to the ability to use communication strategies to overcome communication barriers and achieve communication goals. This involves employing various strategies such as circumlocution, clarification requests, self-repair, and negotiation of meaning. Strategic competence enables learners to compensate for gaps in linguistic knowledge, manage communication breakdowns, and enhance overall communicative effectiveness.

Each component involves learners of the classroom into *speaking-listening, discussion, argumentation, reading-writing* processes, where the teacher instructs learners according to their language competence.

Therefore, developing CLT s provides not only a pragmatic effect (*the achievement of a certain level of language proficiency by learners in all types of indirect and direct communication*), but also a great general educational significance: it forms learners' social competence (*the ability to act independently in social situations*), develops a sense of responsibility for the final result, the ability to speak publicly in order to communicate adequately.

As noted by Prutchenkov (1991), teaching methods, as well as goals and techniques, are directly implemented with the help of exercises [13, p. 45] reflects the nature of the exercises used for developing CLT. Functioning at different levels of organization of the material and having different conditions of implementation, the exercises provide a controlled assimilation of the FL by learners as a means of communication.

In order to build a system of teaching FL that is adequate to modern requirements, it is necessary to take into account methodological factors that ultimately make it possible to implement the social order of society in relation to FL in the categories of methodological science itself. The methodological concepts and practice of teaching FL fully depend on how methodological science defines and interprets its main categories.

The successful implementation of the target aspects of teaching a FL in their modern understanding fully depends on the level of professional teaching of a FL teacher. They must have professional competence, i.e. the ability to effectively carry out their teaching (*teaching*) activities. An indicator of the formation of this competence is the professional skill of the teacher, which consists of a set of professional knowledge and skills to apply this



knowledge in practice, to transfer the acquired knowledge and skills to new learning conditions, as well as a positive attitude to their professional activities.

It should be borne in mind that it is difficult for a teacher to organize communication in a lesson if he does not have the following skills: to unite learners in a team through personally and socially significant, interesting communication activities for him and for learners, to understand the psychology of a group of learners of a specific age group, to coordinate their actions with the actions of learners and the actions of the latter with each other, to organize paired, group and collective forms of work, to play with learners and organize collective events, and if necessary, analyze conflicts and make compromises.

In other words, a modern teacher of a FL should possess not only the science of teaching and educating learners, but also the art of communicating with them and with each of them individually, as well as be tolerant and fair to them, open in the manifestations of their own interests and emotions. He needs to be able to model the educational process in accordance with the modern requirements of science and practice and taking into account three interrelated aspects of this process: *personal, procedural-psychological and pedagogical*.

The personal aspect is expressed in the coordinated activity of the teacher and learners, each of whom contributes to this process: the learner acquires new knowledge, skills, abilities and personal qualities, the teacher helps him in this by choosing effective teaching methods and techniques that correspond to the individual characteristics of the learners and helping them to master the educational content. The second aspect — the process-psychological one — is connected with the analysis of the objective processes of the learner's assimilation of the studied language and taking into account the peculiarities of the course of these processes. The assimilation of a FL involves two procedures: understanding of knowledge about the objects of assimilation and actions with this knowledge, as well as working out knowledge, skills and abilities, i.e. mastering them at the required level (*through working out and memorizing in the course of solving communication and activity tasks*).

The mentioned aspects of modeling the educational process in a FL are aimed at creating a specially organized “space” for learners to learn: a FL as a means of communication with representatives of other cultures; a certain set of knowledge about the language and culture of another people; experience of emotional and evaluative attitude to the world of things and people, including representatives of other socio-cultural communities, experience of communication, social interaction. Only under these conditions will the learning process of a FL have a developing character and, therefore, will be aimed at the personality of the learner.



For the teacher, it is important to choose the model of the development of learners' speech ability that is more appropriate to the specific learning conditions. Of course, the statement that a practicing teacher should be able to navigate to a certain extent in the theoretical foundations of mastering FL speech activity by learners is problematic. But they should know whether they need to strengthen the cognitive aspects of learning a FL in the teaching process (*for example, in working with adult learners*) or whether they should give priority to learner motivation.

In addition, with the variability and alternative methods and tools that distinguish the modern domestic system of teaching a FL, the effectiveness of the professional activity of the teacher / teacher of a FL is fully determined by his ability to correlate the conceptual position of their authors with a particular model of speech development of a learner of a particular age, as well as the ability to independently correlate the stated goals of teaching a FL with the capabilities of learners, to take into account the interests of the latter when designing the content of each lesson, to link this content with the situation of real communication, to model the process of mastering a FL by learners as a creative process, to stimulate the creative abilities of learners, etc. In a word, the creative component of the teacher's professional competence is becoming a demanded category of today.

Thus, Communicative Language Teaching comprises the four main components in figure 1. are essential for developing EFL/ESL students' language competencies.

Additionally, professional skills FL teacher should know the subject that he / she is teaching and how he/she should build the pedagogical process in order to achieve positive results in achieving the goal of teaching the FL — the development of secondary language personality traits in learners. They should be creative in their profession, reflecting their teaching experience in accordance with the individual characteristics of the learners and the specific learning conditions. But to be a true professional, it is not enough just to know the subject and the ability to teach it. What is important is the teacher's desire to work in this field, their positive attitude towards teaching work and the need to improve their professional knowledge and skills.

LIST OF REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 10-oktabrdagi 816-son qarori. Oliy ta'lim muassasalarini o'quv adabiyotlari bilan ta'minlash to'g'risida. <https://lex.uz/ru/docs/3970451>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1875-sonli Qarori// "Ma'rifat" gazetasi, 2012-yil 12-dekabr.



3. Джалалов Д.Д. О прогнозировании трудностей овладения иноязычным материалом в различных видах речевой деятельности// Пути преодоления лексико-грамматической интерференции при обучении иностранным языкам в узбекской школе: Сб. научных статей. – Ташкент: UzNIIPN, 1981. – Рр.3-11.
4. Джусупов М.Д. Звуковые системы русского и казахского языков. Слог: Интерференция. Обучение произношению. Ташкент: Фан, 1991. – 240.
5. Hall E. The Sounds of Silence//Language concepts and Processes /J De Vito (ed.). NewYork, 1998. – P.43-55.
6. Khamzaev S.A., Gilyazetdinov E.Z., Sultonova N. A., SamanovaSh.B. (2020). The problems of developing an ESP course and the importance of ESP teacher training on the example of Uzbekistan. Journal of Critical Reviews. Vol 7, Issue 7, 2020. (ISSN-2394-5125). – P. 1080-1085.
7. Daved L.Ch.Reconceptualizing language teaching-Tashkent:Baktria press, 2019-208 p.
8. Кочетков В.В. Социологический анализ межкультурных различий: Автореф. дис. ... докт. социолог. наук. Сараяк, 2000. – 33 с.
9. Andreassian I.M. Innovative technologies mastering foreign language communication / / Zamezhnyya Respublitsy Language Society in Belarus. - 2006 - № 2. - With. 18-22.
10. Babinskaya P.K. Communicatively-oriented language training / / Zamezhnyya Respublitsy Language Society in Belarus. – 2010, – № 4. – With. 3-7.
11. Galskova N.D. Theory of learning foreign languages. Didactics and methodology. Textbook. – 3rd ed., Sr. – Moscow: Academy, 2006. – 336.
12. Clarin, M.V. Education as a game / MV Clarin // School Technology. – 2004. – № 5. – With. 45 – 72.
13. Prutchenkov, A. Socio-psychological training of interpersonal communication [Text] / A. Prutchenkov. – Moscow: The New School, 1991. – P. 45.
14. Passow E.I. Lesson foreign language in high school. 2nd ed., Dorab. – M.: Education, 1988. – 223 p.



YOSHLARNING TADBIRKORLIK QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISHDA BILIM VA ISHBILARMONLIKNING UZVIYLIGI

Babaxolov G'ayrat Tashbatirovich –
Samarqand viloyati Oliy ta'lim, fan va
innovatsiyalar boshqarmasi bo'lim boshlig'i,
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada yoshlarning moddiy va ma'naviy hayoti, bilimi, ilm-fan va texnologiyalarga tayangan holda kreativ va innovatsion tafakkur qilishi, ishbilarmon tadbirkorlik xususiyatlari ko'rsatilib o'tilgan. Shu bilan birgalikda axborotlashgan jamiyat rivoji bilimga asoslanganligi, yoshlarning ishbilarmonlik tafakkuri rivojlanishi mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ma'naviy-madaniy hayot faoliyatiga ta'siri ko'rsatilib o'tilgan.

Kalit so'zlar: ishbilarmonlik, bilim, ta'lim, tadbirkorlik, yangi ma'rifatli jamiyat, tafakkur, mas'uliyat, rivojlanish.

Dunyodagi har bir mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy, har tomonlama texnologik va siyosiy rivojlanishning o'ziga xos tendensiyalarining paydo bo'lishi, xalqaro maydonda kechayotgan globallashtirish jarayonlari, ayniqsa, transmilliylashtirish, iqtisodiyotdagi dinamikaning tezlashib noaniqlikning o'sib oldindan aytib bo'lmaydigan tasodifiy hodisalarning ko'payib borayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Bugungi kundagi "dunyoning iqtisodiy manzarasi"ga nazar tashlasak, bu manzaraning birinchi galda aholining o'sib borayotgan ehtiyojlari va talablaridagi o'zgarishlarga sezgirlik bilan javob bera oladigan juda ixcham, diversifikatsiyalashgan yangicha tipdagi ishlab chiqarishga asoslangan iqtisodiyotning paydo bo'layotganligini ko'rish mumkin. Bunday iqtisodiyotga xos bo'lgan xususiyatlar: birinchidan, ko'proq bilimga asoslanganligi, ya'ni ilm-fan yutuqlarini tezlikda ishlab chiqarishga joriy etishi; ikkinchidan, energiya va mehnat tejamkorligi orqali ishlab chiqarishda yuqori samaradorlikka erishi; uchinchidan, zamonaviy axborot va telekommunikatsiyalardan tezlikda unumli foydalanishi; to'rtinchidan, markazlashtirilmaganligi; beshinchidan, davlat tasarrufidan chiqarilganligi, ya'ni xususiy ekanligi; oltinchidan, ishlab chiqarishni birlashtirilganligi; yettinchidan, davlatdagi katta-katta sanoat korxonalari ulushi va rolining pasayib, ularning o'rniga kichik va o'rta korxonalar sonining oshib borayotganligi kabilar bilan tavsiflash mumkin bo'ladi.

Ma'lumki, bugungi kunda ta'lim, ilm-fan jamiyat va inson faoliyatining barcha sohalariga tezlikda kirib borar ekan, u ishlab chiqarish kuchlarining



barcha elementlari bo'lgan mehnat qurollari, vositalari va predmetlariga, shuningdek, ishchi kuchining rivojlanishiga ham o'zining kuchli ta'sirini o'tkazmoqda. Natijada, ilm-fan yutuqlari asosida yaratilayotgan yangi texnologiyalar inson mehnatining roli, ma'nosi va tabiatining o'zgarishiga olib kelib, axborot va bilimlarni jamiyat rivojlanishi faoliyatining belgilovchi omillaridan biriga aylantirmoqda. Demak, endilikda axborot va bilimlar mavjud mehnat va kapital o'rnini almashtirmoqda. Bu xususida amerikalik sotsiolog D.Bell: "Bilim resurslarni amaliy jihatdan qayta ishlash jarayonida ishtirok etar ekan, mehnat emas, faqat bilimgina qiymat manbayi sifatida e'tirof etiladi", – degan edi. Biroq shuni unutmaslik kerakki, har qanday bilim va axborotlar mehnat jarayonida yaratiladi, shu sababli ular mehnat unumdorligini oshirishga, uning samaradorligini ko'paytirishga xizmat qiladi.

Bilim deb, insoniyatning butun hayoti davomida obyektiv olam, shuningdek, muayyan jamiyat hayoti sohalariga oid izlanishlari natijasida hosil qilinib, to'plagan barcha ilmiy-amaliy tushunchalar, ma'lumotlar majmuyi tushuniladi. Bunday bilimga ega bo'lgan shaxslarni bilimdon kishilar deb atashadi. Bilimdon kishilar esa o'zining sevgan kasbi bo'yicha mavjud bo'lgan bilimlarni puxta egallagan, shuningdek, tarixiy va zamonaviy ilmga, ma'lumotga ega bo'lgan o'qimishli, bilag'on odamlar toifasiga kiradi. Bilimdon kishigina ilmiy jihatdan ishbilarmonlikni to'g'ri tashkil qila oladi. Bilimdonlikning ziddi bilimsizlik hisoblanadi. R.Yuldashev: bu jarayonni to'g'ri anglab "bilarmon – har narsadan xabardorlik, bilag'on – ko'p biladigan, bilarmonlik – boy bilimga egalik, bilgich – yaxshi biladigan, topqir odam, bilimdon – katta ilmga ma'lumotga ega bo'lgan o'qimishli olim, bilimli – o'z kasbining ustasi mohir tajribali kishi, bilimsiz – bilimi yo'q, ma'lumoti yo'q, o'qimagan nodon kimsa, bilimsizlik – bilim boyliklaridan bexabar, jaholatli kishi kabilar tashkil qiladi", – deb to'g'ri izohlagan. Iste'dodli yosh olim M.Ergeshevaning ta'kidlashicha, "har bir davlatning iqtisodiy o'sishi, tinch va farovon hayot kechirishi uchun, avvalo, ta'lim orqali fanning yuksalishiga, fan taraqqiyotining iqtisodiy o'sishiga, yo'naltirishga bog'liq, muvaffaqiyatli ta'lim har qanday sinovlarda eng ishonchli panoh bo'la oladi. Sifatli ta'lim olganlargina muvaffaqiyatga erisha oladi", – deb to'g'ri ta'kidlagan. Oqibatda tadbirkor shaxs har qanday xavflardan inqirozdan xoli bo'ladi.

Mamlakatimizda mavjud bo'lgan barcha o'rta maktablar, litseylar, kollejlar, texnikumlar va oliy ta'lim muassasalarida tadbirkorlikka (kichik biznes va xususiy tadbirkorlik) oid darslar o'tiladi va amaliy mashg'ulotlar olib boriladi. Masalan, Samarqand viloyatidagi ta'lim muassasalarida tadbirkorlik bo'yicha darslar o'tilib katta va kichik malakaga ega bo'lgan mutaxassislar tayyorlanadi. Shunga qaramasdan, olib borilgan sotsiologik so'rovlar natijasida Samarqand viloyatida tadbirkorlik bilan shug'ullanayotgan har 100 kishidan 50 tasining ishbilarmonlik bilan tadbirkorlik faoliyatini yuritish bo'yicha maxsus ma'lumoti



yo'qligi ma'lum bo'ldi. Demak, hozirgacha ko'pgina tadbirkorlar zamonaviy ilmiy bilimlarni egallash asosida hosil qilingan ishbilarmonlik tafakkuri sirlaridan xabardor bo'lmasdan turib, shunchaki daromad topish uchun biznes bilan shug'ullanmoqda. Bu esa yangilanayotgan O'zbekiston sharoitida bilimdon ishbilarmonlik tafakkuri mukammal darajaga yetgan tadbirkorlarning yangi avlodini voyaga yetkazishni zaruriyat sifatida kun tartibiga qo'ymoqda. Chunki bilimsiz, o'quvsiz ishbilarmonlik tafakkuri rivojlanmagan tadbirkor oxir-oqibatda xonavayron bo'lib, mamlakat aholisining erkin va farovon yashashiga zarar yetkazishi tabiiydir. Shuning uchun ham endilikda jahonda va mamlakatimizda yuqori bilimga ega bo'lgan tadbirkorlarning falsafiy dunyoqarashining o'zgarishiga "ishbilarmonlik qobiliyatiga ega bo'lgan bilimdon inson kapitalining, pirovardida pul kapitalini almashtirishi" jarayonining ta'siri kuchli bo'lib, u ayni vaqtda tadbirkorlik faoliyati sohasidagi ijtimoiy-falsafiy qonuniyat sifatida ko'zga tashlanmoqda va o'zining qimmatli tadqiqini kutib turibdi, degan xulosaga kelsak, xato qilmagan bo'lamiz. Bu xususda AQShlik faylasuf, sotsiolog, futurolog Elvin Toffler (1928–2016): "...har qanday iqtisodiyot, mahsulot ishlab chiqarish, daromad topish, umuman, hamma narsaga erishish muqarrar ravishda hokimiyatning uch manbayi bo'lgan: kuch, boylik va bilimga bog'liq. Kuch qonunga aylanadi. O'z navbatida, kapital va pul endilikda bilimga aylanadi. Mehnat ham o'zgarib, uning ko'rinishi manipulyatsiya qilishga bog'liq bo'lib qoladi. Kapital, pul va ishchi kuchi bir xil yo'nalishda, iqtisodiyotning poydevoridagi inqilobiy o'zgarishlarga qarab harakat qiladi. Bilim bunday rivojlanishining asosiy manbayiga aylanadi. Natijada, u iqtisodiyotning amaldagi qonunlardan butunlay farq qiladigan yangi qonunlarga muvofiq yashaydigan supersimvolik iqtisodiyotga aylanadi", – deb yozgan edi. Demak, biz ilgari surayotgan qonun o'zining hayotiyliigi bilan mamlakatimiz iqtisodiyotini kelgusida ishbilarmonlikka, tadbirkorlikka asoslangan supersimvolik iqtisodiyotga aylantirishga imkon beradi.

Buni quyidagi statistik ma'lumotlar ham tasdiqlaydi.

Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yil 1-yanvar holatiga mamlakatimizda umumta'lim maktablari soni 10182 tani tashkil etgan bo'lib, ularda o'qiyotgan o'quvchilarning soni: 6476091 nafarni tashkil qilmoqda.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining Ochiq ma'lumotlar portalida ta'lim muassasalariga oid qiziqarli ma'lumotlar e'lon qilingan bo'lib, ular quyidagicha:

Umumiy maktablar soni: 10182ta

Shundan:

- boshlang'ich maktab: 15 ta
- o'n yillik maktab: 10052 ta



- maxsus maktablar: 115 ta.

Umumiy o'quvchilar soni: 6476091 nafar

- qizlar: 3177601 (49,1%)

- 1-4-sinflarda 2606166 ta

- qizlar: 1254308 (48,3%)

- 5-11-sinflarda: 3869925 ta

- qizlar: 1923294 (49,2%)

Jumladan:

- 1-sinfga qabul qilingan o'quvchilar: 689726 nafar

- qizlar: 331931 nafar

Bitiruvchilar soni:

- Barcha 11-sinf bitiruvchilari: 400347 nafar

- qizlar: 216353 (54%)

Ta'lim tillari bo'yicha o'quvchilar soni: 6476091 nafar

o'zbek tilida: 5549775 nafar (85,6 %)

qoraqalpoq tilida: 126316 nafar (2%)

rus tilida: 666443 nafar (10%)

qozoq tilida: 50439 nafar (1 %)

tojik tilida: 64902 nafar (1,2%)

qirg'iz tilida: 7431 nafar (0,1 %)

turkman tilida: 10785 nafar (0,2 %)

Ta'lim tillari bo'yicha maktablar soni:

o'zbek tilida: 9468 ta

qoraqalpoq tilida: 377 ta

rus tilida: 972 ta

qozoq tilida: 358 ta

tojik tilida: 242 ta

qirg'iz tilida: 47 ta

turkman tilida: 41 ta

O'qituvchilarning ma'lumot darajasi:

Oliy 462049 nafar (87%)

Tugallanmagan oliy 42693 nafar (8%)

O'rta maxsus 26995 nafar (5%)

O'qituvchilarning toifa tarkibi:

Oliy toifali – 59914 nafar (11,2%)

Birinchi toifali – 101751 nafar (19,1 %)

Ikkinchi toifali – 126759 nafar (23,8 %)

Mutaxassis – 177122 nafar (33,3 %).

Toifasiz – 66191 nafar (12,4%).

Umuman olganda, Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilning 1-yanvar holatiga respublikamizdagi ta'lim tashkilotlarida jami 723512 ming nafar pedagoglar faoliyat yuritmoqda

Jami pedagoglarning ta'lim turlari bo'yicha soni:

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida – 119047 nafar

Umumta'lim muassasalarida – 531737 nafar

Akademik litseylarda – 3387 nafar

Kasb-hunar maktablarida – 17743 nafar

Kollejlarda – 2665 nafar

Texnikumlarda – 7733 nafar

Oliy ta'lim tashkilotlarida – 41200 nafarni tashkil qiladi.

Masalan, mandat.uzbmb.uz saytidagi ochiq ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilda mamlakatimizda 888 ming 472 nafar abituriyent testga kirgan bo'lsa, 439 ming 337 nafar (49,4%) abituriyent o'tish balining eng quyi chegarasi bo'lgan 56,7 ballni ham to'play olmagan. Demak, ular mandat chiqmasidan avval kurashdan chiqdi. Chunki 56,7 balldan kam to'plaganlar kvotada joy bo'lsa ham o'qishga kira olmaydi. 56,7 dan ko'p ball to'plagan abituriyentlar soni 449 ming nafarni (50,6%) tashkil qiladi.

No	Hudud nomi	56,7 balldan kam to'plagan	Foizi	2022-yil bilan farq	56,7 balldan ko'p to'plagan	Jami abituriyent soni
1	Sirdaryo	17 555	54,9	+0,6	14 438	31 993
2	Andijon	34 782	52,9	+0,8	31 023	65 805
3	Toshkent viloyati	40 339	52,4	-3,5	36 584	76 923
4	Qoraqalpog'iston Respublikasi	31 390	52,0	-1,2	28 972	60 362
5	Navoiy	21 722	51,9	-1,6	20 110	41 832
6	Jizzax	28 336	51,5	-0,4	26 652	54 988
7	Surxondaryo	37 888	51,3	-1,1	35 985	73 873
8	Qashqadaryo	52 828	50,2	-1,8	52 446	105 274
9	Samarqand	47 785	48,9	-0,9	49 887	97 672
10	Xorazm	23 664	47,8	-1,3	25 844	49 508
11	Namangan	25 298	47,6	-3,3	27 816	53 114
12	Farg'ona	38 531	46,3	-2,4	44 652	83 183
13	Buxoro	19 924	42,7	-4,4	26 704	46 628
14	Toshkent shahri	19 295	40,8	-4,4	28 022	47 317
JAMI		439 337 (49,4%)	-	-1,8	449 135 (50,6%)	888 472

O'tgan yilgi bilan solishtirganda ahvolimiz biroz yaxshilangan. O'tgan yili 51,2% foiz, aniqrog'i 550 ming abituriyent 56,7 ball ham to'play olmagandi, joriy yilda bu ko'rsatkich 49,4% ga tushdi.

2023-yilda eng yomon ko'rsatkich, Sirdaryo viloyatida (54,9 %), nisbatan yaxshiroq natija esa xuddi o'tgan yildagidek Toshkent shahrida (40,8%) qayd etilgan, 8 ta hududda abituriyentlarning 50 foizdan ko'prog'i 56,7 balldan past ball olgan. (yuqoridagi jadvalga qarang.)

Ushbu jiddiy masalaning yechimini topish borasida falsafa fanlari doktori G.S.Sultanovanning: "Konstruktivizm psixologiya va ijtimoiy fanlarda muhim refleksiv hamda tanqidiy funksiyaga ega. U olimlarni o'z tadqiqotlarini yanada demokratlashtirish, jamiyatda an'anaviy bo'lmagan turmush tarzi va e'tiqodlarni hurmat qilish, o'zlarining (tarixiy, irqiy, milliy, jinsiy) o'ziga xosligi ta'sirini, kamsitishni rad etishni asoslashga chaqiradi.

Konstruktivizm – epistemologiya va fan falsafasidagi yo'nalish sifatida bilish subyekti faolligi g'oyasiga asoslanib, obrazlar va tushunchalarni hosil qilishda (konstruksiyalashda) maxsus refleksiv proseduralardan foydalanishda namoyon bo'ladi.

Dunyoqarash va o'z-o'zini anglashning maxsus tashkillashtiruvchi, strukturalovchi, shakllantiruvchi va obrazli jihatlari bilan ajralib turadi. Idrok etish, bilish va voqelikning faol-konstruktiv xususiyatlariga urg'u beradigan falsafiy fikrlar "konstruktivizm" umumiy tushunchasi ostida birlashtiriladi. Konstruktivizm – bu fan, san'at va falsafadagi yo'nalishlar hamda yondashuvlarning umumiy belgilanishi bo'lib, unda konstruksiyalash tushunchasi obyekt modellarni yaratish jarayonlarini tasvirlashda muhim rol o'ynaydi", – deb yozar ekan, bilimdon ishbilarmonlik tafakkuriga ega bo'lgan yosh tadbirkorlarni tarbiyalashda, ularning konstruktiv kreativlik tafakkur tarzini shakllantirish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi.

Aslini olganda, yuqorida bayon etilgan ijtimoiy-falsafiy qonuniyat mamlakatimizda bilimdon ishbilarmonlik tafakkuri yuqori bo'lgan yangi avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishda asosiy masala ta'lim tizimini isloh qilishni amalga oshirishning yangi konsepsiyasini yaratish masalasini kun tartibiga qo'yimoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Microelectronics and society: for better or worse. – Oxford, 1982. – P. 25.
2. Sosiologik so'rovnomalar materiallari. – Samarqand, 2022.
3. Sultanova G.S. Ilmiy tafakkur tarzida konstruktiv kreativlik. Monografiya. – Samarqand: "Samarqand davlat chet tillar instituti" nashriyoti, 2021. – B.41.
4. Тоффлер Э. Метаморфозы власти = Powershift: Knowledge, Wealth and Violence at the Edge of the 21st Century, 1990. – M.: AST, 2004. (Philosophy). – C.120.
5. Ergasheva M.Sh. Ta'lim taraqqiyoti: Sinergetik tahlil. – Samarqand, Samarqand davlat chet tillari instituti nashriyoti, 2022. – B. 12-13.



6. Yuldashev R.D. Ta'lim falsafasi ta'lim jarayonini rivojlantirishning nazariy – Konseptual asosi. – Toshkent: "Tamaddun", 2020. – B.58.
7. <https://www.uzedu.uz/>
8. https://t.me/statistika_rasmiy 2024

SHAXS JETEKSHILIGINDE LIDERLIK QABILETI HÁM ERK KUSHINIŇ BAYLANISI

Bekbergenova J. – Berdaq atındağı QMU 1-
kurs magistranti

Annotatsiya. Maqalada shaxs iskerligidagi liderlik hám erk ózgeshelikleri, shaxstıń aktivliginde jetekshiligidagi áhmiyeti haqqında ayılğan. Shaxs jetekshiligidagi liderligin hám erk kúshin úyreniw metodikalari járdeminde psixologiyalıq tárepi analizlendi.

Tayanish tusinikler: lider, erk, shaxs jetekshiligi, basqariw, iskerlik, jámiyet, psixologiya, talabalar.

Kirisiw Mámleketimizde ósip kiyatırğan ul-qızlardıń jámiyetgei aktivligin támiyinlewge, olardıń jetekshilik qábiletin asırıwğa, sın kózqarastan analiz, intizamlılıq, patriotlıq, jeke juwapkerlik sezimlerin qalıplestiriwge ayırıqsha itibar berilip atır. 2017-2021 jıllarda Ózbekstan Respublikasın rawajlandırıwdıń bes áhmiyetli baǵdarı boyınsha Háreketler strategiyasında "fizikalıq jaqtan salamat, ruwxıy hám intellektuallıq jaqtan rawajlanǵan, ǵárezsiz pikir júritetuǵın, watanǵa sadıq qatań turmıslıq kózqarasqa iye jaslardı tárbiyalaw, demokratiyalıq reformalardı tereńlestiriw hám puqaralıq jámiyetin rawajlandırıw procesinde olardıń social belsendiligin arttırıw" tiykarǵı wazıypalardan biri etip belgilengen. Buǵan baylanıslı jaslardı ózin-ózi tártipke salıp qoyıwı, basqarıwı, quramalı jaǵdaylarda tosqınlıqlardı jeńiwde erklilikti rawajlandırıwdıń imkaniyati, subyekterde jeke juwapkerlik hám juwapkershilik sezimin jetilistiriw, erklilik sıpatlardı turaqlastırıw, nátiyjeli jol-jobalardı islep shıǵıw jolında izertlewlerdi alıp barıw hám jaslardıń sociallıq belsendiligin arttırıwda liderlik hám erk kúshi úlken ilimiy-ámeliy áhmiyetke iye boladı.

Házirgi waqıtqa shekem shet el ilimpazları tárepinen liderlik qábileti hám erklilik qásiyetlerin rawajlandırıwdıń sociallıq-siyasıy, sociologiyalıq hám psixologiyalıq baǵdarları boyınsha birqatar ilimiy izertlewler alıp barılmaqta. Atap aytqanda, amerikalı ilimpazlar Ol. Bennis hám B. Nanuslardıń uzaq jıllıq ilimiy analizleri nátiyjesine boyınsha, liderliktiń 850 den artıq tariypi hám de bul tema sheńberinde mırnlaǵan empirik izertlewler alıp barılǵanı aytıp ótilgen. Nyu-Yorktıń Bingemton mámleket universiteti professorı, B. M. Basstıń atap

körsetiwe qarağanda, lider hám liderlik haqqında ótken ásirdiń ózinde 11000 nen artıq kitap hám maqalalar baspadan shıǵarılǵan .

Ózbekistan ilimpazları tárepinen erk teması XX ásirdiń ortalarına kelip ilimiy psixologiyalıq izertlew obyekti sıpatında úyrenile baslandı. 1955-1970 jıllar ortasında P. P. Zimin, P.I. Ivanov, V.A. Júzimareva sıyaqlı jetik ilimpazlar jaslardı kúshli erk iyesi retinde tárbiyalaw, erk jáne onı rawajlandırıw máseleleri ústinde izertlewler alıp bardı. Jaslardıń erklilik sıpatların qáıplestiriwdiń áhmiyetin kórsetip berdi. Keyingi jıllarda M. G. Davletshin, E. Ğ.Ğoziyev, B. R. Qodirov, Ğ. B. Shoumarov, v. M. Karimova, Z. Nishanova, A. Jabborov, N. Safoyev, Z. Ibodullayev hám basqa birqatar jetik professor ilimpazlar tárepinen jaratılǵan sabaqlıq, oqıw qollanba, toplam hám monografiyalarda erk hám onıń nerv fiziologiyalıq qásiyeti, erklik aktler, shaxs minez-qulqında erktiń quram tabıwı máseleleri tuwralı maǵlıwmatlardı ushıratıw múmkin .

N.J.Sagindikovanıń “Studentler oqıw xızmetinde juwapkershiliktiń gender ózgeshelikleri” monografiyasında studentlerdiń oqıw procesinde juwapkeshiliktiń izertleniwi de shaxstıń erklik qásiyetlerin tárbiyalawdaǵı óz-ózin qadaǵalaw hám talabalar oqıw iskerliginde juwapkershilikti tárbiyalaw arqalı erk kúshi sıpatların qáıplestiw barısındaǵı shaxstıń erklik sıpatları jatadı.

Joqarıdaǵı ádebiyatlar analizi sonı kórsetedi, Respublikamız hám shet elde shaxstıń liderlik qábileti haqqında hám erk kúshi erklik ózgeshelikler haqqında ilimiy izertlew jumısları ámelge asırılǵan. Biraq shaxs jetekshilindegi liderlik hám erk kúshi haqqında, olardıń baylanısı jóninde heshbir ádebiyatta sóz etilmegen.

Biziń izertlew jumısımızda shaxs jetekshiliginde liderlik hám erk ózgeshelikleriniń óz ara baylanısın úyreniw maqsetinde, ameliy psixologiya tarawında oqıp atırǵan birinshi basqısh studentleri arasında izertlew ótkerildi. Izertlewimizdiń birinshi basqışında jámi 50 dana sinawshılar arasında E. Jarikov hám E. Krushelnitskiylardıń “Sárdar” metodikası járdeminde liderlik paziyletleri anıqlandı hám alınǵan nátiyjege qaray sinalıwshılar eki toparǵa ajratıldı: birinshi topar - liderlik sıpatları eń joqarı bolǵan qatnasıwshılar (8%) hám ekinshi toparda liderlik paziyletleri ortasha bolǵan (64%) hám liderlik paziyletleri tómén bolǵan qatnasıwshılar (28%).

Rawajlanıw därejesi	Oqıwshılar sanı	Nàtiyjesi
Liderlik tómén därejede	14	28%
liderlik ortasha därejede	32	64%
liderlik joqarı därejede rawajlangan	4	8%

Izertlewimizdiń keyingi basqışında sinalıwshılar 1997-jılı N.Obozov tárepinen islep shıǵılǵan «Erk kúshin bahalaw» testi arqalı anıqlandı. Erk kushin anıqlawǵa qaratılǵan testte óspirimlik jasındaǵı sinalıwshılar erk ózgesheliklerin anıqlawǵa qaratıldı. Bul metodikada erk kúshi ózgeshelikleriniń joqarı, orta

hám tómén darejeleri aniqlanadı. Bul metodika 15 sorawdan ibarat bolıp shaxstıń erk kúshi ózgesheligine arnalǵan.

Bul metodika 50 oqıwshıdan alınǵan bolıp tómendegidey natıyje kórsetti. Bul nátiyjege tiykarınan Erk kúshi metodikası boyınsha alınǵan nátiyjeler juwmaǵı Bul metodika járdeminde erk kúshi ózgeshelikleri aniqlandı:



Erk kúshi dárejeleri	Jámi 100%
Erk kúshi kúshsiz tómén	20%
Erk kúshi ortasha	46,6%
Erk kúshi joqarı	33,3%

Bul metodika járdeminde 46,6 % oqıwshınıń nátiyjesi jaqsı ekenligi aniqlandı. Oqıwshılardıń derlik yarımı erklik ózgesheligi ortasha dárejede ekenligi yaǵnıy bul kórsetkish járdeminde biz erklik ózgeshelikleri hám sıpatlarınıń ortasha normada rawajlanıp atırǵanlıǵın kóriwimizge boladı. Al 33,3% talabanıń erk kúshi joqarı ekenligin kóriwimizge boladı. Bul erk kúshi joqarı bolıwı ózindegi erklik qásiyetleriniń joqarı dárejede rawajlanǵanlıǵınan derek beredi. Talabalardıń qalǵan 20% de bolsa erk kúshi tómén kúshsiz rawajlanǵanlıǵın kóriwimizge boladı. Erk kúshi kúshsiz rawajlanıwı bul ózine isenbewden hám aldına qoyǵan maqsetleri joqlıǵınan kelip shıǵadı hám bul topar menen erk kúshin tárbiyalaw hám rawajlandırıw barısındaǵı psixologiyalıq shınıǵıw usıllardı qollanıw tiykarında erk kúshin rawajlandırıwımız múmkin.

1-diagramma.

Biz eki basqıshlı jas óspirim talabalardan “sardar” hám “erk kushi” metodikalari menen olardaǵı liderlik qabileti hám erklik kushi ortasındaǵı baylanisliliqti uyrenbekshi edik. Bul eksperimental izertlewimizden bizler jas óspirimlerdegi liderlik qabileti hám erklik ózgesheliklerin sipat hám analiz qilindi.

2-diagramma



Bul diagrammada talabalar arasidagi liderlik qabileti ham erk kushi ortasidagi baylanisti koriwimizge boladi. Bunda liderlik qabileti joqari bolgan talabalar menen erk kushi joqari bolgan talabalar arasidagi ayirmashiliq anagurlim ekenligi korinedi, biraq bul talabalardagi liderlik qabileti menen erk kushi har qilyi natijeni berdi degen soz emes. (2-diagrammaga qarañ). Sebebi erk kushi ortasha natijeni korsetken 46,6% penen 64 % arasidagi ayirmashiliq ortasha bolip, Liderlik ham erk kushiniñ tomen korsetkishi bolsa talabalardagi liderlik ham erk kushi arasidagi pariqtan ulken emes.

Izertlew jumisimizda Qaraqalpaq mamleketlik universiteti Ameliy psixologiya 1-kurs talabalaridan 50 dana ospirim jasindagi talabalar qatnasti. Metodikanı otkeriwdegi maqsetimiz Jas ospirimlerdegi liderlik qabileti ham erklik kushi ortasidagi baylanisti aniqlawdan ibarat.

Izertlewdiñ natijelerine tiykarlanip, shaxstagi liderlik qabileti ham erk kushiniñ bir-biri menen baylanisi joqari darejede ekenligi koriwimiz mumkin. Sol ushin da ospirimlik jasi dawirindegi shaxsta liderlik qabiletleri rawajlanıwı ushin onıñ tuwılğanınan baslap erklik sıpatlarını qalıplesip atırğanlıgına itibar qaratıwımız tiyis. Sebebi sozimiz dälili retinde liderlik ham erk kushi ortasidagi ozgeshelikler onshelli bilinbedi,sebebi erk kushi joqari bolgan adamlardıñ da liderlik qabileti joqari shıqtı. Biz itibar qaratıwımız kerek bolgan jane bir narse liderlik qabiletin bolektan ham erklik ozgesheliklerin bolektan uyrenip ta tarbiyalap ta rawajlandırıp ta bolmaydı. Sol tiykarda liderlik qabileti de erklik ozgesheliktin bir sıpatı degen juwmaqqa keliwimizge boladi.

Juwmaqlap aytaqanda, lider- bul erklik ozgeshelikleri qalıplesken jetekshi, oz pikirine iye bolgan ham sanalı is-hareketke amelge asırıwshı, qarım-qatnasqa kirisiwshen shaxs esaplanadı.

Eger perzentlerimizdiñ lider bolip jetilisiwin qalesek aldın ala onıñ erklik sıpatların erkin tarbiyalawımız maqsetke muwapıqtan boladi.

PAYDALANILGAN ADEBIYATLAR DIZIMI:

1. 2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2017. 6-son 70-modda.
2. Н.Ж.Сагиндикова. «Талабалар Укуи фаолиятида масъулиятнинг гендер хусусиятлари» монографияси
3. Sattorova Gulnora Ikromovna Ilk O`spirinlarning irodaviy sifatlarining psixodiagnostikasi va psixokorreksiyasi PhD Dessertatsiya
4. Hayitov O.E. Boshqaruv psixologiyasi. Chirchiq, 2020.
5. F. I. Xaydarov, N. I. Xalilova. Uliwma psixologiya: Tashkent-2009
6. G'oziev E.G' Umumiy psixologiya 1-2
7. Psixologiya qisqacha izohli lug'at T-1998 y



INTERFAOL METODLAR YORDAMIDA TALABALARINING KASBIY GRAFIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

Boymurodov Bobir Elmurodovich – O'zJOKU,
Mediadizayn kafedrası, katta o'qituvchi
E-mail: bobur_8722@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta'lim tizimida interfaol metodlar yordamida televizion texnologiyalar ta'lim yo'nalishi talabalarining motivatsiyasini kuchaytirish orqali kasbiy grafik kompetentligini rivojlantirish masalalari yoritib berilgan bo'lib, talabalarda kasbiy salohiyatini oshirishning qisqacha bayoni keltirilgan.

Kalit so'zlar: kompetensiya, grafik kompetentlik, motivatsiya, kreativ yondashuv, multimedia, animatsiya, mediamahsulot, mantiqiy fikrlash.

Kirish. Ta'lim bu shaxsning intellektual, ma'naviy, jismoniy va madaniy rivojlanishining asosi, uning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi, iqtisodiy farovonligi hamda jamiyat va davlat rivojlanishining umumiy qadriyatlar va madaniyat bilan birlashtirilgan kalitidir. Jahonda globallashuv va integratsiya jarayonlari chuqurlashayotgan sharoitda televizion texnologiyalar ta'lim yo'nalishi talabalarining axborot-kommunikatsiya kompetensiyalarini rivojlantirish orqali kasbiy grafik kompetentligini takomillashtirishga ehtiyoj kuchaymoqda. Shu bois YUNESKOning strategik loyihalarida belgilangan me'yorlar va xalqaro standartlarga asoslanib, 3D o'lchamdagi raqamli texnologiyalarni qo'llash, AKT bilan samarali ishlash ko'nikmalari va kasbiy grafik kompetentligini rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon amaliyotida televizion texnologiyalar ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy grafik kompetentligini rivojlantirishda grafik bilimlar, obyektlarning funksional va konstruktiv o'ziga xosligini bilishga asoslangan ko'nikma va malakalar (kompetensiyalar)ni samarali qo'llash, grafik kasbiy yo'nalganlik va faoliyat tajribasi, grafik axborot texnologiyalari bo'yicha erkin ijodkorlik muhitini yaratish, muvaffaqiyatli kasbiy-pedagogik faoliyat, uning ahamiyati va muayyan texnologik masalalarga munosabat, texnologiya o'qituvchisi yo'l qo'yadigan xatolarning oldini olishga qaratilgan korrekktiv mashqlar tizimi alohida ahamiyatga ega. Shu jihatdan oliy ta'lim muassasalarida televizion texnologiyalar ta'lim yo'nalishida muhandislar tayyorlaydigan davlat ta'lim standartlari, malaka talablari, o'quv dasturlarida konstruktorlik, ishlab chiqarish texnologik va kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish jarayonida kasbiy grafik kompetentlikni rivojlantirishning ilmiy asoslangan tizimini ishlab chiqishni taqozo etadi.



Interfaol ta'lim texnologiyalari va metodlari vositasida televizion texnologiyalar ta'lim yo'nalishi talabalarining grafik kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiladigan metodologik yondashuvlarni takomillashtirishda foydalanishi bilan maqolaning ilmiy ahamiyati izohlanadi.

Tahlil va natijalar. Interfaol metodlar o'zaro fikr almashishga, o'zaro fikrlarni to'ldirishga, noverbal hamda verbal ta'sir o'tkazishga qaratilgan harakatlar majmuasidir. Interfaol metodlarni qo'llashda o'zaro ta'sir asosiga qurilgan intellektual harakatlar shunchaki ta'sir yoki turtki vazifasini bajarish bilan cheklanib qolmaydi va hamkorlik subyektlarini ijodiy izlanishga yo'naltirish, noma'lum holatni kashf etishga ko'mak beruvchi nazariy-aqliy mulohazalarni yaratish funksiyalarini ham bajarishi mumkin.

Ta'lim mazmunini o'zlashtirishda talabalarning bilim saviyasi, o'zlashtirish darajasi, ta'lim manbai, didaktik vazifalarga muvofiq va munosib ravishda quyidagi interfaol metodlar qo'llaniladi: o'qitishning ko'rgazmali metodi; mustaqil ishlar metodi; muammoli-evristik modellashtirish metodi; ilmiy tadqiqot metodlari; o'qitishning muammoli-izlanishli va reproduktiv metodlari; o'qitishning induktiv va deduktiv metodlari; o'qitishning nazorat va o'zini-o'zi nazorat qilish metodlari. Metodlar quyidagi guruhlarni o'z ichiga oladi:

Birinchi guruh metodlari: o'quv axborotlarini eshitish orqali qabul qilish metodlari (og'zaki metodlar: hikoya, ma'ruza, suhbat va boshqalar).

Ikkinchi guruh metodlari: o'quv axborotlarini ko'rgazmali uzatish va ko'rish orqali qabul qilish metodlari (ko'rgazmali metod, tasviriy namoyish qilish va boshqalar).

Uchinchi guruh metodlari: o'quv axborotlarini amaliy mehnat harakatlari orqali berish (amaliy metodlar, mashqlar, laboratoriya ishlari, dasturlar tuzish, mashq va masalalar hamda test topshiriqlarini yechish, mehnat harakatlari va boshqalar).

Interfaol metodlar asosida tuzilgan dars tizimlarida turli strategiyalardan foydalaniladi. Bunda talabalarga kitob, konspektlar va h.k.lardan foydalanish taqiqlanmaydi, aksincha, bunday usullarni qo'llash rag'batlantiriladi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlarni o'quv jarayonida qo'llashga qiziqish ortib bormoqda. Bunda, asosan, hozirgacha talabalar tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, interfaol metodlar ularni egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga va imkoni boricha xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Interaktiv metodlar – jamoa bo'lib fikrlashga asoslanadi va pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib, ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi



shundaki, ular faqat pedagog va talabaning birgalikdagi faoliyati orqali amalga oshiriladi.

Har bir o'qituvchidan ham zamonaviy texnologiyalarni bilish va ulardan o'zining kasbiy faoliyatida o'rinli foydalana olish malakalariga ega bo'lishlik talab qilinadi. Pedagog talabalarning topshiriqni mustaqil bajarish jarayonini zukkolik bilan boshqaradi, e'tibor bilan kuzatadi, kerak bo'lganda jonli muloqotga chorlaydi.

Talabalar mantiqiy fikrlash davomida ularning jonli mushohadasi, fikr doirasi pedagog tomonidan izchillik bilan hisobga olinadi va dars (modul) oxirida faol talabalarga qo'yilgan ballar yoki baholarni e'lon qiladi. E.M.Fazlulin, V.A.Ryabov, O.A.Yakovuklar ham OTM pedagoglari oldida turgan vazifalardan biri o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishda ta'lim metodlarini to'g'ri tanlash ekanligiga alohida urg'u beradi. Binobarin, televizion texnologiyalar yo'nalishi mutaxassislik fanlarini o'qitishda ta'lim metodlarini to'g'ri tanlash maqsad va natija o'rtasida o'zaro bog'liqlikni ta'minlaydi. Shu bois OTMning pedagoglari ularni to'g'ri tanlashga alohida e'tibor qaratishlari talab qilinadi.

Televizion texnologiyalar ta'lim yo'nalishi mutaxassislik fanlarini o'qitishda ta'lim metodlarini to'g'ri tanlash quyidagilar asosida amalga oshiriladi: o'qitishning umumiy maqsadlari; alohida o'quv fanining o'ziga xos jihatlari va xususiyatlari; o'quv fanini o'qitishdan ko'zlangan maqsad, vazifalar hamda har bir alohida mashg'ulot uchun mo'ljallangan o'quv materialining mazmuni; o'quv materialini o'rganish uchun ajratilgan vaqt hajmi; talabalarning tayyorgarlik darajasi, psixologik, fiziologik va ijodiy ko'rsatkichlari; o'qitish jarayonining o'quv, texnik va texnologik jihozlar (o'quv jihozlari, ko'rsatmali qurollar, texnik, kompyuter va boshqa moddiy vositalar) bilan ta'minlanganligi; pedagogning tayyorgarlik va shaxsiy sifatleri darajasi.

OTMda bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini kasbiy grafik kompetentligini rivojlantirishda o'quv mashg'ulotlari, ayniqsa, amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishda ta'lim metodlarini tanlashga alohida e'tibor qaratilishi zarur. Ta'lim metodlarini to'g'ri tanlash quyidagi natijalarga erishishni kafolatlaydi: talabalarda mutaxassislik fanlari asoslarini puxta o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish va motivatsiyani hosil qilish; ularning o'quv-bilish faolligini oshirish; talabalarning mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lishini ta'minlash; talabalar tomonidan mutaxassislik fanlari asoslarini o'qitish sifatini yaxshilash; mutaxassislik fanlarini o'qitishning samaradorligini oshirish.

Tadqiqotni olib borish jarayonida ma'ruza, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarda interfaol metodlardan samarali foydalanishga e'tibor qaratildi. Bunda, eng avvalo, ma'ruza, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlar uchun ularning xarakterli xususiyatlarini inobatga olgan holda kutilgan natijani ta'minlay olish imkoniyatiga ega interfaol metodlar tanlandi. Ya'ni:

1. Nazariy mashg'ulotlar uchun tanlangan interfaol metodlar:

1. "Beshinchisi ortiqcha" strategiyasi⁶³ asosida "Audio-video montaj" fani bo'yicha talabalarning mavzuga oid nazariy bilimlarni o'zlashtirganliklarini aniqlash.

"Beshinchisi ortiqcha" strategiyasi talabalarning mantiqiy tafakkur yuritish ko'nikmalariga ega bo'lishlarida ushbu strategiya alohida ahamiyatga ega. Uni qo'llashda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

1) o'rganilayotgan mavzu mohiyatini ochib berishga xizmat qiladigan tushunchalar tizimini shakllantirish;

2) hosil bo'lgan tizimdan mavzuga taalluqli bo'lgan to'rtta va taalluqli bo'lmagan bitta tushunchaning o'rin olishiga erishish;

3) talabalarga mavzuga taalluqli bo'lmagan tushunchani aniqlash va uni tizimdan chiqarish vazifasini topshirish;

4) talabalarni o'z harakatlari mohiyatini sharhlashga undash (mavzuni mustahkamlash maqsadida talabalardan tizimda saqlanib qolgan tushunchalarga ham izoh berib o'tish, ular o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlikni asoslash talab qilinadi).

Mavzu mohiyatini yorituvchi tushunchalar o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlikni ko'rsata va asoslay olish talabalarda mustaqil fikrlash, shaxsiy yondashuvlarini dalillash tengdoshlarning fikrlari va shaxsiy g'oyalarni o'zaro taqqoslash ko'nikmalarini ham shakllantirishga imkon beradi.

1-jadval.

"Audio-video montaj" fani bo'yicha ish qog'ozi jadvali

Nº	Guruhlar	Tushunchalar tizimi
1	1-guruh	audio – video – animatsiya – tasvir – nuqta
2	2-guruh	vektorli – effekt – raster – fraktal – 3D
3	3-guruh	protsedurali – shape – brauzer – kalit kadrli – dasturlashtirilgan
4	4-guruh	matn – audio – grafikalar – video – google

2-jadval.

**"Audio-video montaj" fani bo'yicha topshiriqning bajarilishi
(namuna) jadvali**

Nº	Guruhlar	Tushunchalar tizimi
1	1-guruh	audio – video – animatsiya – tasvir – nuqta
2	2-guruh	vektorli – effekt – raster – fraktal – 3D
3	3-guruh	protsedurali – shape – brauzer – kalit kadrli – dasturlashtirilgan

63 Asqarova O'.M., Nonov M.S., Kurbanova Z.B., Muminova D.A. Pedagogik va psixologik fanlarni o'qitish metodikasi. Darslik. – Toshkent, 2019. – 283-bet

4	4-guruh	matn – audio – grafikalar – video – google
---	---------	---

2. “Tushunchalarning ta’rifi” metodi⁶⁴ asosida “Audio video montaj uchun zamonaviy multimedia texnologiyalari” moduli bo’yicha talabalarning mavzuga oid nazariy bilimlarni o’zlashtirganliklarini aniqlash.

3-jadval.

“Audio video montaj uchun zamonaviy multimedia texnologiyalari” moduli bo’yicha ish qog’ozi

Nº	Tushunchalar	Ularning ta’rifi
1	Multimedia	
2	Media	
3	Rang	
4	Mediamahsulot	

4-jadval.

“Audio video montaj uchun zamonaviy multimedia texnologiyalari” moduli bo’yicha topshiriqning bajarilishi (namuna)

Nº	Tushunchalar	Ularning ta’rifi
1	Multimedia	Kompyuter kabi axborot vositalaridan foydalanish va matn, masalan, axborotni taqdim etishning an’anaviy usullaridan tashqari, audio, video, animatsiya, tasvirlar va boshqalar kabi barcha mumkin bo’lgan ma’lumotlar bilan foydalanuvchini ma’lumot bilan ta’minlashi mumkinligini anglatadi.
2	Media	Faqat hissiy organ tomonidan qabul qilinadigan aloqa vositasidir. Misol uchun siz eshitishingiz yoki ko’rishingiz mumkin bo’lgan ma’lumotlarga ega gazeta, kitoblar, rasmlar, audio yozuvlar va boshqa narsalar.
3	Rang	Moddalar chiqargan yoki qaytargan nurlanish spektriga mos ravishda yorug’likning muayyan ko’rish tuyg’usini hosil qilish xossasi
4	Mediamahsulot	Mediamahsulotlar taqdimotlar va o`yinlar, musiqiy videolar va reklamalar,

64 O’M.Asqarova, M.S.Nonov, Z.B.Kurbanova, D.A.Muminova Pedagogik va psixologik fanlarni o’qitish metodikasi. Darslik. Toshkent ish– 2019. 29-bet

		Internet saytlari va Kompyuter dasturlari (masalan, "Dunyo bo'ylab" GPS qo'llanmasi), videokartalar va multimedia vositalari yordamida auditoriyaga ma'lumot yetkazishning boshqa usullari kiradi.
--	--	--

3. "Bilaman. Bilishni xohlayman. Bilib oldim" (BBB) GO⁶⁵ asosida talabalarning mavzuga oid nazariy bilimlarni o'zlashtirganliklarini aniqlash.

"Bilaman. Bilishni xohlayman. Bilib oldim" (BBB) grafik organayzeri mavzu, matn, bo'lim bo'yicha izlanuvchilikni olib borish imkonini beradi. U talabalarga muayyan mavzular bo'yicha bilimlari darajasini baholay olish imkonini beradi. Uni qo'llashda talabalar guruh yoki jamoada ishlashlari mumkin. Guruhda ishlashda mashg'ulot yakunida guruhlar tomonidan bajarilgan ishlar tahlil qilinadi.

Grafik organayzerdan foydalanish uch bosqich asosida amalga oshiriladi:

1. Talabalarning o'rganilishi rejalashtirilayotgan mavzu bo'yicha tushunchalarga egalik darajalari aniqlanadi. 2. Talabalarning mavzu bo'yicha mavjud bilimlarini boyitishga bo'lgan ehtiyojlari o'rganiladi. 3. Talabalar mavzuga oid ma'lumotlar bilan batafsil tanishtiriladi. O'quv faoliyati bevosita yozuv taxtasi yoki ish qog'ozida o'z aksini topgan quyidagi sxema asosida tashkil etiladi:

Bosqichlar bo'yicha amalga oshirilgan harakatlarning tafsiloti quyidagicha: 1) talabalar kichik guruhlariga birlashtiriladi; 2) talabalarning yangi mavzu bo'yicha tushunchalarga egalik darajasi o'rganiladi; 3) o'quvchilar qayd etgan tushunchalar loyihaning 1-bandiga yozib boriladi; 4) talabalarning yangi mavzu bo'yicha mavjud bilimlarini boyitishga bo'lgan ehtiyojlari o'rganiladi; 5) talabalarning ehtiyojlari sifatida bayon etilgan tushunchalar loyihaning 2-bandiga yozib qo'yiladi; 6) o'qituvchi talabalarga yangi mavzu bo'yicha ma'lumotlarni beradi; 7) talabalar tomonidan o'zlashtirilgan yangi tushunchalar aniqlanadi;

5-jadval.

"Audio video montaj uchun zamonaviy multimedia texnologiyalari" moduli bo'yicha Ish qog'ozi

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim
Multimedia Media	Mediamahsulotlar	Media mahsulotlar, Intervyu, Xabar, Hisobot,

⁶⁵ Asqarova O.M., Nonov M.S., Kurbanova Z.B., Muminova D.A. Pedagogik va psixologik fanlarni o'qitish metodikasi. Darslik. – Toshkent, 2019. – 273-bet



Rang	Mediamahsulotlar turlari Rang modellari	Reportaj, Kompyuter animatsiyasi turlari, RGB, CMYK, HSV, LAB rang modellari
------	---	---

6-jadval.

**“Audio video montaj uchun zamonaviy
multimediya texnologiyalari” moduli bo'yicha topshiriqning
bajarilishi**

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim
Multimedia Media Rang	Media mahsulotlar Media mahsulotlar turlari Rang modellari	Media mahsulotlar, Intervyu, Xabar, Hisobot, Reportaj Kompyuter animatsiyasi turlari RGB, CMYK, HSV, LAB rang modellari

7-jadval.

**“Videomontaj uchun dasturiy vositalar to'plami” moduli bo'yicha ish
qog'ozi**

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim
---------	-----------------------	-------------

8-jadval.

**“Videomontaj uchun dasturiy vositalar to'plami” moduli bo'yicha
topshiriqning bajarilishi (namuna)**

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim
1. Video montaj 2. Audio montaj 3. Montaj rutlari	1. Videomontaj dasturlari 2. Videomontaj dasturiy vositalari 3. Audiomontaj dasturiy vositalari 4. Videomontaj dasturiy vositalarining asosiy plaginlari	1. Videomontaj dasturlarini 2. Videomontaj dasturiy vositalarini 3. Audiomontaj dasturiy vositalarini 4. Videomontaj dasturiy vositalarining asosiy plaginlarini

Takliflar:

Televizion texnologiyalarni o'qitish sohasidagi mavjud texnika va texnologiyalarni grafik modellashtirish orqali ko'rib chiqish lozim;



interfaol o'qitish usullarining talabalarining motivatsiyasi va ularning kasbiy grafik kompetensiyasiga ta'siri bo'yicha tadqiqot natijalarini qo'llash;

televizion texnologiyalarning texnik jihatlarini tushunish va o'zlashtirish darajasini oshirish vositasi sifatida grafik modellashtirishdan foydalanish tahlilini sinchkovlik bilan o'rganish;

ushbu sohada interfaol o'qitish usullarining samaradorligini namoyish etish uchun aniq misollar va ish bosqichlarini qo'llash;

kasbiy grafik kompetensiyani rivojlantirish uchun o'quv jarayoniga interfaol usullar orqali kuchaytirilgan motivatsiyani joriy etish uchun texnologik xaritalarni qo'llash.

Xulosa va tahlillar. Tadqiqot natijalariga asoslanib Televizion texnologiyalar ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy grafik kompetentligini rivojlantirishning integrativ modeli ishlab chiqildi, mazkur modelda muhandislarning kasbiy grafik kompetentlikni va ijodkorlikni shakllantirish samaradorligini baholanishi interfaol ta'lim texnologiyalari va metodlari asosida o'qitish natijasida mutaxassislik fanlaridan bilimlarni egallab, ularni o'z kasbiy faoliyatini egallash jarayonida samarali qo'llashi kabi holatlar nazarda tutiladi.

O'quv-metodik materialning tarkibiy elementlari – ishchi o'quv dasturi; modullar bo'yicha o'quv materiallari; talabalar bilimni nazorat qilish uchun testlar; amaliy topshiriqlar (amaliy mashqlar); o'quv keyslari; individual topshiriqlar; mustaqil ish (ta'lim) topshiriqlari; o'quv-uslubiy tarqatma materiallar; glossariy hamda taqdimot o'rtasidagi bog'lanish, o'zaro aloqadorlik yaqqol ko'zga tashlanadi.

Televizion texnologiyalar ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy grafik kompetentligini rivojlantirishning didaktik ta'minoti mazmuni interfaol metodlari va axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalangan holda to'ldirildi va takomillashtirildi.

Tadqiqotni olib borish jarayonida "Audio-video montaj" fanini ma'ruza, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida interfaol metodlardan samarali foydalanishga e'tibor qaratildi. Bunda, eng avvalo, ma'ruza, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari uchun ularning xarakterli xususiyatlarini inobatga olgan holda kutilgan natijani ta'minlay olish imkoniyatiga ega "Beshinchisi ortiqcha" strategiyasi, "Tushunchalarning ta'rifi" metodi va "Bilaman. Bilishni xohlayman. Bilib oldim" (BBB) grafik organayzeri tanlandi. Ushbu metodlar asosida ish qog'ozi va topshiriqning bajarilishi televizion texnologiyalar ta'lim yo'nalishi talabalarini "Audio-video montaj" fanini modullari bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni o'zlashtirishi va o'zlashtiriganligini aniqlash tahlillari o'tkazilgan.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Asqarova O'.M., Nonov M.S., Kurbanova Z.B., Muminova D.A. Pedagogik va psixologik fanlarni o'qitish metodikasi. Darslik. Toshkent ish– 2019. 365 b.
2. Shokirova Ch.T. Talabalarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish va dasturiy nazorat asosida o'qitish samaradorligini oshirish. Diss. ... ped.fan.nom. Andijon., 2009 – 132 b.
3. Muslimov N. va boshq. Pedagogika / Nopedagogik OTM uchun). – T.: TDPU. 2013. 95 b
4. Nasritdinova U.A. Kompyuter grafikasi fanini o'qitishda uch o'lchamli modellashtirish vositasidan foydalanish metodikasi: ped.fanl. bo'yicha fals.dokt. ... dis. – T.: 2018. – 160 b.
5. Rahimov B.X. Yoshlarni ilmiy ijodiy faoliyatga yo'naltirish asoslari. - Toshkent: Fan, 2010. – 128 b.

OLIIY TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM JARAYONLARINI NAZORAT QILISH VA SIFATINI BAHOLASH MUAMMOLARIDA NORAVSHAN TO'PLAMLAR NAZARIYASIGA ASOSLANGAN YONDASHUVI

Choriyev Hamid Azamovich – Termiz davlat universiteti, 3-kurs tayanch doktoranti
E-mail: hamid_choriyev@tersu.uz

Kirish. Oliy ta'lim muassasalarida (OTM) ta'lim sifati milliy rivojlanishning muhim omili hisoblanadi. Biroq OTMlarda ta'lim jarayonlarini nazorat qilish va sifatini baholashda omillarning ko'pligi murakkab holatni keltirib chiqaradi. An'anaviy baholash usullari ko'pincha ta'limning nozik va murakkab jihatlarini qamrab ololmaydi. Ushbu maqola OTMlarda ta'lim sifatini nazorat qilish va baholashda noravshan to'plamlar nazariyasini innovatsion yondashuv sifatida qo'llashni o'rganadi.

Metodlar. Ma'lumotlar to'plash. Ushbu tadqiqot uchun ma'lumotlar O'zbekistonning turli OTMlaridan yig'ildi (Termiz davlat universiteti, Termiz iqtisodiyot va servis universiteti (nodavlat), Urganch davlat universiteti, Buxoro muhandislik-texnologiya instituti, O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti, Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent Axborot texnologiyalari universiteti). Biz asosiy ko'rsatkichlar (KPI) sifatida talabalar natijalari, o'qituvchilarning malakasi, ilmiy-tadqiqot ishlari va rahbariyat samaradorlikni tanladik.

Ma'lumotlar asosan quyidagi asosiy ko'rsatkichlar (KPI) bo'yicha to'plandi:



1. **Talabalar natijalari:** Bu ko'rsatkich talabalar baholari, o'qish davomiyligi, bitiruv darajasi va talabalarning turli fanlardagi muvaffaqiyati kabi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Ushbu ma'lumotlarni yig'ish uchun akademik yozuvlar, sinov natijalari va talabalar tomonidan o'tkazilgan baholashlar tahlil qilindi.

2. **O'qituvchilarning malakasi:** O'qituvchilarning ilmiy darajasi, ish tajribasi, ilmiy-tadqiqot faoliyati va nashrlari o'rganildi. Bu ma'lumotlar universitet rahbariyatdan, universitetlarga o'rnatilgan KPI dasturidan va ilmiy-tadqiqot markazlaridan va ochiq ma'lumotlar bazalaridan olindi.

3. **Ilmiy-tadqiqot ishlari:** OTMlarning ilmiy-tadqiqot faoliyati, ilmiy loyihalar, grantlar, ilmiy maqolalar va patentlar kiritilgan. Ushbu ma'lumotlar ilmiy nashrlar va universitetlarning ilmiy-tadqiqot bo'limlaridan yig'ildi.

4. **Rahbariyat samaradorlik:** Universitetlarning boshqaruv jarayonlari, moliyaviy holati, infratuzilma va resurslardan foydalanish samaradorligi baholandi. Bu ko'rsatkichlarni baholash uchun universitetlar rahbariyat hujjatlari, moliyaviy hisobotlari va audit natijalari tahlil qilindi.

So'rovnomalar. Ma'lumotlar to'plash jarayonida so'rovnomalar o'tkazildi. So'rovnomalar talabalarga, o'qituvchilarga va universitet rahbariyatlariga tarqatildi. Ushbu usul subyektiv fikrlarni aniqlash va qo'shimcha sifat ma'lumotlarini olish imkonini berdi.

Akademik yozuvlar. Akademik yozuvlar va hisobotlar asosiy ma'lumot manbayi bo'ldi. Bu yozuvlar talabalar va o'qituvchilarning faoliyati, o'quv dasturlari, baholash tizimlari va universitetning umumiy faoliyatini aks ettiruvchi hujjatlar hisoblanadi. Ushbu yozuvlar diqqat bilan tahlil qilindi va tegishli ko'rsatkichlarga bo'linib, noravshan to'plamlar tizimiga kiritildi.

Statistik ma'lumotlar. Ma'lumotlar yig'ishda statistik ma'lumotlardan ham foydalanildi. Bu ma'lumotlar talabalarning demografik holati, o'qish davomiyligi, bitiruv darajasi va boshqa muhim ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi. Ushbu ma'lumotlar universitetlarning HEMIS axborot tizimi va universitetlarda o'rnatilgan KPI tizimining statistika bo'limlaridan olindi.

Ma'lumotlarni tahlil qilish. Yig'ilgan ma'lumotlar noravshan to'plamlar nazariyasiga asoslangan tahlil usullari bilan qayta ishlanadi. Har bir KPI uchun lingvistik o'zgaruvchilar va a'zolik funksiyalari aniqlanib, noravshan inference tizimi yordamida yakuniy baholar hisoblandi.

Noravshan to'plamlar nazariyasini qo'llash. Ta'lim baholashidagi noaniqlik va noaniqliklarni modellash uchun noravshan to'plamlar nazariyasidan foydalandik. To'plangan ma'lumotlarni tahlil qilish uchun noravshan mantiq tizimlari ishlab chiqildi. Asosiy bosqichlar quyidagilardan iborat edi:

1. Lingvistik o'zgaruvchilarni aniqlash: Turli ko'rsatkichlar uchun "yuqori sifat", "o'rta sifat" va "past sifat" kabi o'zgaruvchilar aniqlandi.

2. A'zolik funksiyalari: Har bir lingvistik o'zgaruvchi uchun a'zolik funksiyalari yaratildi, bu ko'rsatkichlarning ushbu o'zgaruvchilarga a'zolik darajasini aniqlashga imkon berdi.

3. Noravshan inference tizimi: A'zolik qiymatlarini yig'ish va ta'lim sifatining keng qamrovli bahosini ta'minlash uchun tizim ishlab chiqildi.

Lingvistik o'zgaruvchilarni aniqlash. Lingvistik o'zgaruvchilar noravshan tizimining asosiy elementlaridan biri bo'lib, ular yordamida noaniq va subyektiv tushunchalar matematik jihatdan ifodalanadi. Ushbu tadqiqotda quyidagi lingvistik o'zgaruvchilar aniqlangan:

1. **Talabalar natijalari:** "Yuqori", "O'rta", "Past";
2. **O'qituvchilarning malakasi:** "Yuqori", "O'rta", "Past";
3. **Ilmiy-tadqiqot ishlari:** "Yuqori", "O'rta", "Past";
4. **Rahbariyat samaradorlik:** "Yuqori", "O'rta", "Past".

Har bir lingvistik o'zgaruvchi uchun mos keladigan a'zolik funksiyalari yaratilgan.

A'zolik funksiyalari. A'zolik funksiyalari har bir lingvistik o'zgaruvchi uchun to'liq yoki qisman a'zolikni ifodalovchi matematik funksiyalardir. Ushbu tadqiqotda uchburchak va trapetsiya shaklidagi a'zolik funksiyalari qo'llanildi, chunki ular oddiy va samarali hisoblanadi. Quyida har bir KPI uchun a'zolik funksiyalari misollari keltirilgan:

1. Talabalar Natijalari:

$$\text{Yuqori: } \mu_{\text{Yuqori}}(x) = \begin{cases} 0 & \text{agar } x \leq 70 \\ \frac{x-70}{30} & \text{agar } 70 < x < 100 \\ 1 & \text{agar } x \geq 100 \end{cases}$$

$$\text{O'rta: } \mu_{\text{O'rta}}(x) = \begin{cases} 0 & \text{agar } x \leq 40 \\ \frac{x-40}{30} & \text{agar } 40 < x < 70 \\ \frac{100-x}{30} & \text{agar } 70 \leq x < 100 \\ 0 & \text{agar } x \geq 100 \end{cases}$$

$$\text{Past: } \mu_{\text{Past}}(x) = \begin{cases} 1 & \text{agar } x \leq 40 \\ \frac{70-x}{30} & \text{agar } 40 < x < 70 \\ 0 & \text{agar } x \geq 70 \end{cases}$$

2. O'qituvchilarning malakasi:

$$\text{Yuqori: } \mu_{\text{Yuqori}}(x) = \begin{cases} 0 & \text{agar } x \leq 10 \\ \frac{x-10}{20} & \text{agar } 10 < x < 30 \\ 1 & \text{agar } x \geq 30 \end{cases}$$

$$\text{O'rta: } \mu_{\text{O'rta}}(x) = \begin{cases} 0 & \text{agar } x \leq 5 \\ \frac{x-5}{15} & \text{agar } 5 < x < 20 \\ \frac{30-x}{10} & \text{agar } 20 \leq x < 30 \\ 0 & \text{agar } x \geq 30 \end{cases}$$

$$\text{Past: } \mu_{\text{Past}}(x) = \begin{cases} 1 & \text{agar } x \leq 5 \\ \frac{20-x}{15} & \text{agar } 5 < x < 20 \\ 0 & \text{agar } x \geq 20 \end{cases}$$

Noravshan inference tizimi. Noravshan inference tizimi a'zolik funksiyalari va lingvistik qoidalar asosida ish olib boradi. Ushbu tizim kirish ma'lumotlarini qabul qiladi va ularni noravshan a'zolik qiymatlariga aylantiradi. So'ngra bu qiymatlar lingvistik qoidalar asosida qayta ishlanadi va chiqish qiymatlari olinadi. Quyida noravshan inference tizimining asosiy bosqichlari keltirilgan:

1. **Fuzzifikatsiya:** Kirish ma'lumotlarini noravshan a'zolik qiymatlariga aylantirish.

2. **Qoida tatbiqi:** Lingvistik qoidalarni qo'llash. Masalan, agar talaba natijalari yuqori va o'qituvchi malakasi yuqori bo'lsa, ta'lim sifati yuqori deb baholanadi.

3. **Agregatsiya:** Bir nechta qoidalar natijalarini birlashtirish.

4. **Defuzzifikatsiya:** Noravshan natijalarni aniq qiymatlarga aylantirish.

Qo'llash natijalari. Ushbu yondashuv orqali ta'lim sifati an'anaviy baholash usullariga nisbatan yanada aniqroq va real baholandi. Natijalar ko'rsatdiki, noravshan mantiq tizimi ta'lim sifatini baholashda noaniqlik va subyektivlikni qamrab olishga imkon beradi. Bu yondashuv ta'lim jarayonlarini nazorat qilish va baholashda samarali qaror qabul qilishga yordam berdi.

Noravshan to'plamlar nazariyasini qo'llash natijalari OTM rahbariyatlariga ta'lim sifatini oshirish yo'nalishlarida aniqroq qarorlar qabul qilishda katta yordam berdi. Bu yondashuv, shuningdek, ta'lim sifati bilan bog'liq bo'lgan muammolarni aniqlash va ularga nisbatan samarali choralar ko'rishga imkon berdi.

Natijalar. Noravshan to'plamlar nazariyasini qo'llash OTMlarda ta'lim sifatini yanada nozikroq tushunishni ta'minladi. Noravshan mantiq tizimi ta'lim baholaridagi subyektivlik va noaniqlikni qamrab olishi mumkin bo'lib, yanada moslashuvchan va real baholash tizimini taqdim etdi. Asosiy natijalar quyidagilardan iborat:

1. Aniqlikni yaxshilash: Noravshan yondashuv an'anaviy usullarga nisbatan ta'lim sifatining aniqroq bahosini ta'minladi.

2. Shaffof baholash: Tizim turli ko'rsatkichlarni integratsiyalab, ta'lim sifatining shaffof ko'rinishini taqdim etdi.

3. Qaror qabul qilishni yaxshilash: Natijalar OTM rahbariyatlariga yaxshiroq qaror qabul qilish imkonini berdi va ma'lum sohalarda nishonlangan yaxshilanishlarni amalga oshirish imkonini yaratdi.

Ta'lim sifatini noravshan mantiq orqali baholash tizimining modelini va dasturiy kodini Python dasturlash tili yordamida ko'rsatish mumkin.

Ta'lim sifati natijasini Membership Functions orqali ko'rsatish uchun Python kodidagi skfuzzy kutubxonasidan foydalanamiz. Bu yerda natijalarni grafik tarzda tasvirlash orqali noravshan tizimining chiqishini aniq ko'rsatishimiz mumkin. Quyida natijalarni a'zolik funksiyalari orqali qanday ko'rsatish mumkinligini ko'rsatamiz.

```
import numpy as np
import skfuzzy as fuzz
from skfuzzy import control as ctrl
import matplotlib.pyplot as plt
# Kirish o'zgaruvchilarini aniqlash
talaba_natijasi = ctrl.Antecedent(np.arange(0, 101, 1), 'talaba_natijasi')
oqituvchi_malakasi = ctrl.Antecedent(np.arange(0, 101, 1), 'oqituvchi_malakasi')
ilmiy_tadqiqot = ctrl.Antecedent(np.arange(0, 101, 1), 'ilmiy_tadqiqot')
mamuriy_samaradorlik = ctrl.Antecedent(np.arange(0, 101, 1),
'mamuriy_samaradorlik')
# Chiquvchi o'zgaruvchi
talim_sifati = ctrl.Consequent(np.arange(0, 101, 1), 'talim_sifati')
# A'zolik funksiyalarini aniqlash
talaba_natijasi['past'] = fuzz.trimf(talaba_natijasi.universe, [0, 0, 50])
talaba_natijasi['orta'] = fuzz.trimf(talaba_natijasi.universe, [30, 50, 70])
talaba_natijasi['yuqori'] = fuzz.trimf(talaba_natijasi.universe, [50, 100, 100])
oqituvchi_malakasi['past'] = fuzz.trimf(oqituvchi_malakasi.universe, [0, 0, 50])
oqituvchi_malakasi['orta'] = fuzz.trimf(oqituvchi_malakasi.universe, [30, 50, 70])
oqituvchi_malakasi['yuqori'] = fuzz.trimf(oqituvchi_malakasi.universe, [50, 100,
100])
ilmiy_tadqiqot['past'] = fuzz.trimf(ilmiy_tadqiqot.universe, [0, 0, 50])
ilmiy_tadqiqot['orta'] = fuzz.trimf(ilmiy_tadqiqot.universe, [30, 50, 70])
ilmiy_tadqiqot['yuqori'] = fuzz.trimf(ilmiy_tadqiqot.universe, [50, 100, 100])
mamuriy_samaradorlik['past'] = fuzz.trimf(mamuriy_samaradorlik.universe, [0,
0, 50])
mamuriy_samaradorlik['orta'] = fuzz.trimf(mamuriy_samaradorlik.universe,
[30, 50, 70])
mamuriy_samaradorlik['yuqori'] = fuzz.trimf(mamuriy_samaradorlik.universe,
[50, 100, 100])
talim_sifati['past'] = fuzz.trimf(talim_sifati.universe, [0, 0, 50])
talim_sifati['orta'] = fuzz.trimf(talim_sifati.universe, [30, 50, 70])
talim_sifati['yuqori'] = fuzz.trimf(talim_sifati.universe, [50, 100, 100])
# Qoidalarni aniqlash
rule1 = ctrl.Rule(talaba_natijasi['yuqori'] & oqituvchi_malakasi['yuqori'] &
ilmiy_tadqiqot['yuqori'] & mamuriy_samaradorlik['yuqori'], talim_sifati['yuqori'])
```

```
rule2 = ctrl.Rule(talaba_natijasi['orta'] & oqituvchi_malakasi['orta'] &  
ilmiy_tadqiqot['orta'] & mamuriy_samaradorlik['orta'], talim_sifati['orta'])  
rule3 = ctrl.Rule(talaba_natijasi['past'] & oqituvchi_malakasi['past'] &  
ilmiy_tadqiqot['past'] & mamuriy_samaradorlik['past'], talim_sifati['past'])  
# Fuzzy nazorat tizimini yaratish  
talim_sifati_ctrl = ctrl.ControlSystem([rule1, rule2, rule3])  
talim_sifati_sim = ctrl.ControlSystemSimulation(talim_sifati_ctrl)  
# Kirish qiymatlarini kiritish  
talim_sifati_sim.input['talaba_natijasi'] = 75  
talim_sifati_sim.input['oqituvchi_malakasi'] = 85  
talim_sifati_sim.input['ilmiy_tadqiqot'] = 90  
talim_sifati_sim.input['mamuriy_samaradorlik'] = 80  
# Chiqishni hisoblash  
talim_sifati_sim.compute()  
# Natijalarni chiqarish  
print(f"Ta'lim sifati: {talim_sifati_sim.output['talim_sifati']}")  
# Natijalarni grafikda ko'rsatish  
talim_sifati.view(sim=talim_sifati_sim)  
plt.show()
```

Ta'lim sifati: 80.55555555555556

Dasturiy kodning izohi:

1. Kiruvchi o'zgaruvchilar:


talaba_natijasi, oqituvchi_malakasi, ilmiy_tadqiqot, va mamuriy_samaradorlik – bu o'zgaruvchilar talabalarning natijalari, o'qituvchilarning malakasi, ilmiy-tadqiqot ishlari va rahbariyatning samaradorligini ifodalaydi. Har biri 0 dan 100 gacha bo'lgan oraliqda qiymat olishi mumkin.

2. Chiquvchi o'zgaruvchi: ta'lim_sifati – bu OTMdagi umumiy ta'lim sifatini ifodalaydi.

3. A'zolik funksiyalari: Har bir kiruvchi va chiquvchi o'zgaruvchi uchun past, o'rta va yuqori a'zolik funksiyalari aniqlangan. Bu funksiyalar talaba natijasi, o'qituvchi malakasi, ilmiy-tadqiqot va rahbariyatning samaradorligini noravshan qabul qilish imkonini beradi.

4. Qoidalar: Uchta asosiy qoida aniqlangan:

- Agar barcha kiruvchi o'zgaruvchilar yuqori bo'lsa, ta'lim sifati yuqori bo'ladi.



- Agar barcha kiruvchi o'zgaruvchilar o'rta bo'lsa, ta'lim sifati o'rta bo'ladi.
- Agar barcha kiruvchi o'zgaruvchilar past bo'lsa, ta'lim sifati past bo'ladi.

5. **Noravshan nazorat tizimi: ctrl.ControlSystem yordamida qoidalar birlashtirilgan va ctrl.ControlSystemSimulation yordamida tizim simulyatsiya qilingan.**

6. **Kirish qiymatlarini kiritish: Ma'lum kirish qiymatlari kiritilib, tizim chiqish natijasini hisoblaydi.**

7. **Natijalarni chiqish: Chiqish natijasi ekranga chiqariladi va natijalar grafikda ko'rsatiladi.**

Ushbu kod ta'lim sifatini noravshan mantiq orqali baholashni avtomatlashtiradi va natijalarni grafik tarzda ko'rsatadi. Kodni o'zingizga moslab o'zgartirishingiz va qo'shimcha qoidalar yoki o'zgaruvchilar qo'shishingiz mumkin.

Xulosa.

Noravshan to'plamlar nazariyasiga asoslangan yondashuv an'anaviy baholash usullarining bir qator cheklovlarini bartaraf etadi. Lingvistik o'zgaruvchilar va a'zolik funksiyalarini qo'shib, tizim ta'lim baholaridagi murakkablik va subyektivlikni qamrab olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ushbu yondashuv miqdoriy ma'lumotlar cheklangan bo'lgan kontekstlarda, sifat jihatlarini qamrab olishi tufayli, ayniqsa, samarali bo'ladi.

Tadqiqot noravshan mantiq tizimining doimiy ravishda takomillashtirilishining muhimligini ham ta'kidlaydi. Ta'lim jarayonlari rivojlanib borishi bilan tizim yangi murakkabliklar va muammolarni aks ettirish uchun yangilanib turishi kerak.

Ushbu tadqiqot noravshan to'plamlar nazariyasining OTMlarda ta'lim sifatini nazorat qilish va baholashni yaxshilashdagi salohiyatini ko'rsatadi. Ushbu yondashuv ta'limning murakkabligini qamrab oluvchi mustahkam tizimni taqdim etadi va yanada aniq va keng qamrovli baholarni ta'minlaydi. Noravshan mantiqdan foydalangan holda OTMlar qaror qabul qilish jarayonlarini yaxshilashlari mumkin, bu esa yakunda ta'lim standartlarining oshishiga va talabalar natijalarining yaxshilanishiga olib keladi. Kelajakdagi tadqiqotlar KPI indikatorlar doirasini kengaytirishga va noravshan to'plamlar nazariyasini boshqa ilg'or tahliliy usullar bilan integratsiyalashga qaratilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Zadeh, L. A. (1965). Fuzzy sets. Information and Control, 8(3), 338-353.
2. Ross, T. J. (2004). Fuzzy logic with engineering applications. John Wiley & Sons.

3. Yager, R. R., & Filev, D. P. (1994). Essentials of fuzzy modeling and control. John Wiley & Sons.
4. Pedrycz, W., & Gomide, F. (2007). Fuzzy systems engineering: Toward human-centric computing. John Wiley & Sons.
5. Dubois, D., & Prade, H. (1980). Fuzzy sets and systems: Theory and applications. Academic Press.
6. Maraximov, A. Xudaybergenov, K. Choriyev, H. Nasiriddinov A. (2022). A modified algorithm for increasing the performance of machine learning for phishing attack detection and classification. Science and Innovation 1 (8), 499-507.
7. Choriyev, H. (2023). Ta'lim boshqaruvi funksiyalarining asosiy tendensiyalari va algoritmik modellari. Ta'limni rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarning o' rni va ahamiyati. 2023/4/30.
8. Choriev Hamid Azamovich (2023). Artificial intelligence methodology for early prediction of educational process results of students of higher education institutions and enrichment of educational material. Science and innovation 2 (B4), 527-534.
9. Choriev Hamid Azamovich (2023). Oliy ta'lim muassasasida ta'lim sifatini nazorat qilish va baholashning Noravshan (Fuzzy) to'plamlari va mexanizmlarining integrallashgan tizimining tashkiliy tuzilmasi va mazmuni. Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi, 569-576.

O'QUVCHILARDA "NOSTANDART FIKRLASH" KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK TEKNOLOGIYASI

G'aniyev Abduqahhor Gadoyevich –
Shahrisabz davlat pedagogika instituti "Tabiiy
fanlar" kafedrası professori Pedagogika fanlari
doktori (DSc)

E-mail: abduqahhorganiev@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada fan va texnikaning jadal taraqqiyoti, aqlli robotlarning yaratilayotganligi munosabati bilan "nostandart fikrlash" ko'nikmalariga ega mutaxassislarga ehtiyoj ortishi hisobga olinib ularni tayyorlash muammolari o'rganilgan. Bunday mutaxassislarni tayyorlashni ma'lumotlarni vizuallashtiruvchi va bosh miya o'ng yarimshari hamda ong osti ma'lumotlarini faollashtiruvchi vosita intellekt xarita (Mind Map)lardan foydalanish bilan amalga oshirish mumkinligi asoslangan. 5 yoshdan 11 yoshgacha bo'lgan bolalarning timsolli-fazoviy tasavvurlari yaxshi bo'lishi e'tiborga olinib "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari" tarbiyalanuvchilari va



“Boshlang'ich sinf” o'quvchilari uchun ta'lim jarayonini “Nostandart fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish pedagogik texnologiyasi” asosida tashkil qilish taklif qilingan.

Kalit so'zlar: *Mutaxassis, ijodiy fikrlash, standart fikrlash, nostandart fikrlash, to'la fikrlash, tasavvur, analogiya, metafora, ko'nikma, intuitsiya, yangi g'oya, intellekt xarita, ona tili, ta'lim muhiti, ong osti.*

Kirish. Fan va texnikaning jadal taraqqiyoti davrida vujudga keladigan muammolarni yecha oladigan “ijodiy fikrlash” ko'nikmalariga ega bo'lgan mutaxassislarga talab ortadi. 2023-yilda Davosda bo'lib o'tgan jahon iqtisodiy forumida ham 2025-yilga borib “ijodiy fikrlash” ko'nikmalariga ega mutaxassislarga talab yuqori bo'lishi bashorat qilingan. Bunday mutaxassislarga esa ta'lim muassasalarida, zamonaviy ta'lim metodlari asosida tayyorlanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek “Tarbiyalanuvchining dunyoqarashi, mantiqiy va ijodiy fikrlashi, berilgan masala bo'yicha o'quv dasturi bilan cheklangan qoidalardan tashqari, nostandart yechimlar berishini ham inobatga olish zarur”[1]. Ya'ni ta'limga mantiqiy va nostandart fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish metodlarini joriy qilish talab etiladi.

Metodlar. “Ijodiy fikrlash”ni ikkita – standart va nostandart fikrlashlarga bo'lib qarash maqsadga muvofiq.

Standart fikrlash (standart thinking) – “qolipda” (quti ichida) fikrlashdir. U sabab va oqibat zanjiriga muvofiq amalga oshirilib barcha fikrlovchilar bir xil natijaga keladilar. Mantiqqa, analizga asoslangan bunday ijodiy fikrlashda qo'yilgan muammoning amaliy yechimi topiladi. Ko'pincha u oldingi bilimlarni yangi vaziyatga qo'llanilishining natijasi bo'ladi. Bu, ayniqsa, texnika, tabiiy fanlar muammolarini yechishda qo'l keladi. Standart fikrlash oson va qulay. Chunki bunday fikrlash o'zgalar o'tgan “fikrlash” so'qmog'idan yurishdir. Bunday fikrlovchilar – injener, tadbirkor, siyosatchi, topshiriqlar ijrochisi bo'lishlari mumkin. Lekin buyuk kashfiyotchi bo'lishlari qiyin.

Nostandart fikrlash (non-standart thinking) – qutidan chiqish, noodatiy yo'llar bilan erkin ijodiy fikrlash jarayonidir. U muammoni yechishning g'ayrioddiy usullarini topishdir. Nostandart fikrlash – har bir individning o'zigagina xos fikrlash bo'lib uni his-tuyg'u (intuitsiya, fantaziya) boshqaradi. Nostandart fikrlash kuchli iqtidorni yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. Ulardagi nostandart fikrlash tarzi insoniyat uchun hali ma'lum bo'lmagan yechimlarning topilishiga olib kelgan va buning natijasida ular biznesda, ilm-fanda yoki san'atda ulkan muvaffaqiyatlarga erishganlar. Hozirgi paytda nostandart fikrlashga katta qiziqish bildirilmoqda. Chunki kompyuterlarga ham standart (chiziqli) fikrlash usullarini o'rgatish mumkin. Demak, tez orada sun'iy intellektli, standart fikrlovchi robotlar paydo bo'ladi. Inson faqat

nostandart fikrlash ko'nikmalari bilangina robotlardan ustunligini saqlab qolishi mumkin. Robotlarga nostandart fikrlash elementlarini o'rgatishning imkoni yo'q.

Umuman olganda, odamlar ma'lum qolipda fikrlashni, sinalgan yo'ldan yurishni xohlaydilar. Nostandart fikrlashni esa eshelonni boshqa yo'lga yo'naltirib yuboradigan strelkaga o'xshatish mumkin. Mantiqiy algoritmgaga qanchalik ko'p amal qilinsa, u yangi g'oyalar tug'ilishiga shunchalik ko'p to'sqinlik qiladi. Odatdagi qolipda fikrlash miyani asta-sekin yalqovlikka o'rgatadi, u kuchsizlana boradi va oxiri tanazzulga uchraydi.

Aksincha, qolipdan chiqish, nostandart fikrlash esa insonga yashashga ishtiyoq, ijod zavqi, o'z kuchiga ishonch, o'z-o'zidan faxrlanish va ichki quvonch tuyg'ularini beradi. Shaxs sifatida shakllanishni xohlovchilar nostandart fikrlashni o'rganmoqlari lozim. Nostandart fikrlash buyuk olimlar, rassomlar, tadbirkorlar va yo'lboshchilarga xos xususiyatdir. U yangi yechimlar topishga, ijodiy g'oyalarning tug'ilishiga, innovatsion mahsulotlar yaratilishiga undaydi. Nostandart fikrlash ko'nikmalariga ega bo'lmaganlarida A.Eynshteyn, N.Tesla, T.Edison, I.Mask shunday muvaffaqiyatlarga erisha olmas edilar.

Analitik va mantiqiy fikrlashda bilimlarni amaliyotda qo'llash, ya'ni qo'yilgan muammoning amaliy yechimi izlansa, tasavvur va intuitsiyaga asoslangan fikrlash yordamida muammoning nostandart yechimi, yangi g'oya izlanadi. Bunday yechim fan va texnikaning rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Misol sifatida radioaktivlik va rentgen nurlarining kashf qilinishi, atomning planetar modeli, yarimo'tkazgichlar bilan bog'liq ko'plab kashfiyotlarni keltirish mumkin.


Sperri Rodjerning bosh miya yarimsharlarining mutaxassisliklarga aloqadorlik kashfiyotiga ko'ra analitik va mantiqiy fikrlashga asoslangan ijodiy fikrlash bosh miya chap yarimsharining, tasavvur, analogiya, metafora va intuitsiyaga asoslangan nostandart fikrlash esa bosh miya o'ng yarimsharining mahsulidir [2].

Analogiya (moslik, o'xshashlik). U bilish usullaridan biri, narsaning yoki hodisaning ma'lum xossalaridan noma'lum narsa yoki hodisaning xossalarini o'rganishda foydalanish bo'lib, yangi g'oyalarning tug'ilishida muhim rol o'ynaydi.

Metafora (ma'no ko'chirish). U o'xshashligiga qarab, biror ma'noni bir narsadan boshqasiga ko'chirish demakdir. Metafora tildagi universal usul hisoblanadi.

Intuitsiya. Bashorat yoki qalbdan his qilish bilan voqea yoki muammoning ma'nosini bilish yoki yangi xulosaga kelish. Muammoga kutilmagan yangi nuqtayi nazar bilan qarash. Intuitsiya oldingi tajribalarga tayangan holda kelajakka intilishni oldindan bilishdir. U muammoning mantiqiy yechimini topish sxemasiga kirmay odatdagi qoidalarga mos kelmaydigan nostandart usullar bilan yechim topishdir.

Natijalar. Standart va nostandart tafakkur uyg'unligi ya'ni bosh miya o'ng va chap yarimsharlarining birgalikdagi faoliyatiga, butun miya bilan fikrlashga "to'la fikrlash" (whole brain thinking) deyiladi [3].




To'la fikrlashni o'rgatish, avvalo, o'quvchilarning tasavvurini rivojlantirishdan boshlanadi. Hech qanday ijodiy mahsulot tasavvursiz bo'lmaydi [4].

Tasavvur inson ruhiyatining idrok, fikrlash va xotiralar o'rtasidagi bo'lgan, boshqa ruhiy jarayonlardan farq qiladigan maxsus ko'rinishidir [5]. Tasavvur ijodiy fikrlashning asosi bo'lib, insonga amaliy faoliyatsiz ham muammoni yechishga yordam beradi. Uning idrokdan farqi qaralayotgan obrazlar har doim ham real obrazlar bo'lmay, fantaziya elementlari ham bo'lishidadir. A. Eynshteyn iborasi bilan aytganda, mantiq bizni A punktdan B punktga olib borishi mumkin, tasavvur esa istalgan joyga olib boradi. "Oldin ma'lum

bo'lmagan narsa to'g'risida o'ylash uchun kuchli tasavvurga ega bo'lish kerak", – degan edi R. Feynman [6].

Tasavvurni va nostandart fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiruvchi usullar juda ko'p. Quyida zamonaviy usullardan biri Intellekt xarita (Mind Map) ning ta'limdagi ahamiyati bilan tanishamiz [7].



Intellekt xaritada quyidagi uchta tarkibiy qism bo'ladi [8]:

1. Markaziy obraz. U o'rganilayotgan mavzuni ifodalashi lozim. («Inson tili» intellekt xaritada ona siymosi)
2. Markaziy obrazdan chiquvchi qalin shoxlar. Bu shoxlar o'rganilayotgan muammoning asosiy mavzularini tasvirlaydilar. O'z navbatida, asosiy shoxlar kichik temachalarni ifodalovchi shoxchalarga bo'linib ketadi.
3. Har bir shoxda bitta kalit so'z yoki tasvir bo'lishi kerak. Chunki so'z u yoki bu narsani ifodalab yangi g'oyalarning tug'ilishiga olib keladi.


Intellekt xarita tuzishda quyidagilarga e'tibor berish zarur:

Rang. Ko'p ranglilik kishi xotirasining va ijodiy fikrlashining yaxshilanishiga yordam beradi. U tasvirni jonlantiradi va jozibadorligini oshiradi. Ma'lumotlarning xotirada uzoq saqlanishiga yordam beradi.

Tasvir. Miya so'zga nisbatan tasvirni tez qabul qiladi. Chunki u vizual ma'lumotni verbal ma'lumotga nisbatan 60 000 marta tez qayta ishlaydi. Tasvir tasavvurni rivojlantiradi va bosh miyaning o'ng yarimsharini faol ishlashga undaydi [9].

Tasavvur intellekt xaritasi

Tasavvur intellekt xaritasida sensor kanallaridan olinadigan ma'lumotlar va ular asosida bosh miyaning o'ng yarimsharida turli tasavvurlarning tug'ilishi ko'rsatilgan [10]. Unda bir tomonda tasavvur mexanizmi akslantirilsa, ikkinchi tomonda tasavvurning tug'ilishi tasvirlangan. Sensor kanallaridan keladigan ma'lumotlar bosh miyaning chap yarimshari bilan idrok qilinadi va narsaning aniq shakli hosil bo'ladi. Ushbu ma'lumotlar asosida esa bosh miyaning o'ng yarimshari qismlarida tasavvur elementlari vujudga kelib to'la fikrlashga asos bo'ladi.



Nega "Intelлект xarita" dan tasavvur va nostandart fikrlashni rivojlantirish vositasida foydalanish taklif etilgan. Intelлект xarita verbal ma'lumotlarni vizual ma'lumotlarga aylantirish, bosh miya o'ng yarimsharini faollashtirish va yangi g'oyalarning tug'ilishiga yordam beradi [11]. Tajribalarning ko'rsatishicha, intellekt xarita inson miyasida ro'y beradigan fikrlash jarayonining tabiiy aksidir. Boshqacha aytganda, inson ichki intellekt xarita yordamida fikrlaydi va bu inson tili bilan bevosita bog'liq [12].

Inson tili – chaqaloqlarning ona qornidagi tilidir. Barcha tug'ilganlar shu tilni biladilar va uch-to'rt oylardan keyin ota-onalarining yuzlariga diqqat bilan qaray boshlaydilar. Ular uchun onalarining yuzi birinchi markaziy obraz (simvol) bo'lib qoladi. Bu obrazdan esa turli tomonlarga yo'nalgan – ovqat, mehr, sog'lik, uyqu, xotirjamlik, ishonch va yashash kabi tuyg'ular tarmoqlari chiqadi.

"Inson tili" intellekt xaritasi

Demak, intellekt xaritani inson miyasida ro'y beradigan jarayonlarga (neyronlarning sinapslar yordamida bog'lanishiga) o'xshatish mumkin va shuning uchun ham tasavvur qilish va nostandart fikrlashga o'rgatishning eng yaxshi vositasi, ta'limning esa eng sarmahsul usuli bo'la oladi [13].

Hozirgacha nafaqat tabiiy va balki boshqa fanlarni o'rgatish davomida ham intellekt xaritadan foydalanib o'quvchilarning tasavvur va to'la fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari yetarli o'rganilmagan. Xorijiy mamlakatlarda u



ma'lumotlarni jamlovchi, tartibga keltiruvchi va xotirada saqlanishiga yordam beruvchi vosita sifatida qo'llanilgan, xolos [14]. Intellect xaritadan ma'lumotlarni vizuallashtirish va to'la fikrlashga o'rgatuvchi vosita sifatida foydalanish, shubhasiz, ta'limda munosib o'rin egallaydi. Bu usul bilimli, to'la fikrlash ko'nikmalari yaxshi rivojlangan, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashga asos bo'la oladi. Uni bilvosita bilim olish muhim bo'lgan tabiiy fanlar jumladan: – fizika, biologiya, kimyo fanlarini o'qitishda foydalanish yaxshi natija beradi.

Quyida «to'la fikrlash» ko'nikmalarini rivojlantirish pedagogik texnologiyasi uchun ta'lim muhitning vektor modelini keltiramiz [16].



Modeldan ko'rinib turibdiki ta'lim muhitining vektori (to'la fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish pedagogik texnologiyasi) va jamoatchilik vektorining (fan va texnikaning rivoji ijodkor mutaxassislarga ehtiyojni orttirishi) qo'shilishi mutaxassisning ijodiy muhitdagi faolligini sezilarli darajada yaxshilaydi.

Psixologlarning fikricha, ong va tana o'zida bor-yo'g'i 10–15 foiz axborotni tashiydi. Asosiy axborot ongosti deyilguvchi axborot-energetik tizimda saqlanadi. Ong osti – inson hayotini to'laligicha aniqlaydi. U o'z-o'zini asrash instinkti, barcha organlarning hamohang ishlashi va boshqa bir qancha funksiyalar uchun javob beradi. U hayot davomida to'plangan barcha ma'lumotlarni xronologik ketma-ketlikda, his-hayajonli tarzda xotira izlari sifatida saqlaydi va nostandart fikrlash jarayonida faollashadi. U insonni ba'zan intuitsiya yordamida eng qiyin sharoitlardan ham chiqishiga yordam beradi. Aynan nostandart fikrlash jarayonida ong osti faollashadi va intuitsiya yechimlarni aytadi.

Ong insonning fikrlash jarayoni uchun javob beradi. U o'zimizni va olamni anglatadi, maqsadga eltadi. Ammo uning faoliyatining katta qismi ong ostidan keladigan topshiriqlarni bajarishga sarflanadi. Zamonaviy odam, asosan, ong bilan ishlashga harakat qiladi. Bu holat esa qiyin muammolarga javob topishi va qaror qabul qilinishini osonlashtiradigan intuitsiyani “mudrash” rejimiga o'tkazadi.

Biror muvaffaqiyatlarga erishish uchun ong va ong ostining hamkorligiga erishmoq darkor. Bunda ong ostini qo'yilgan maqsad muhimligiga ishonirish lozim. Agar u muammoni qabul qilsa uni yechishga kirishadi. Inson esa buni go'yoki “omad kelishi” sifatida qabul qiladi.

- Ong osti mantiq va hisob-kitobni tushunmaydi, u timsollar (obrazlar)ni va rasmlarni tushunadi. Ong osti bilan ishlash uchun tasavvurni rivojlantirish, vizuallashtirishni o'rganish lozim.

- Kelajak ong ostida tug'iladi. U ong ostida bir necha marta ko'riladi va tahlil qilinadi. Shundan keyin reallikka aylanadi.

- Ong osti voqealarni ongga nisbatan juda tez qayd qiladi. U ro'y beradigan voqeani o'z vaqtida biladi. Bu ichki tovushga "intuitsiya" deyiladi.

Dj.Kunios va M.Biman magnit rezonans tomografiyasi (MRT) yordamida olgan ma'lumotlariga ko'ra, miya vizual ma'lumotlarni qayta ishlashni, ya'ni ularni tahlil qilishni fikrlashdan 300 ms oldin boshlaydi [16]. Demak, fikrlash boshlanishidan oldin miyada yangi va oldin mavjud bo'lgan ma'lumotlar tahlil qilinadi va tasavvur shakllanadi.

O'quvchilarda (5,6 yoshlardan) nostandart fikrlash qobiliyati yuqori bo'ladi. Bolalar tabiatan moslashuvchan aqlga ega bo'ladilar va ajoyib g'oyalarni taklif qilishlari mumkin. Chunki ularning miyalarida izlar yo'q, ya'ni bo'sh bo'ladi [17]. Bu esa ularga erkin fantaziya qilishga imkon beradi. Shuning uchun ham ularga yoshlikdan "nostandart fikrlash" ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

NASA tomonidan 1600 ta 4-5 yoshdagi bolalarga muammoni yangi usul bilan yechish taklif qilingan. 98% bolalar muammoni geniydar darajasida yechishgan. Shu ko'rsatkich 5 yildan keyin 30% ga, yana besh yildan keyin esa 12% gacha kamaygan. Shu sinovlar 30 yoshli kattalar bilan o'tkazilganda faqat 2% kishigina yuksak kreativlik darajasini ko'rsatgan [18].

Xulosa. Fan va texnikaning jadal taraqqiyoti va aqlli robotlarning yaratilayotganligi "nostandart fikrlash" ko'nikmalariga ega mutaxassislarga ehtiyojni vujudga keltirmoqda.

- Nostandart fikrlovchi mutaxassislarni tayyorlash pedagogik texnologiyasini ma'lumotlarni vizuallashtirishning sarmahsul vositasi "Intellekt xarita"dan foydalanib yaratish mumkin.

- Nostandart fikrlash ko'nikmalariga ega mutaxassislar kelgusida ilmfan rivojiga munosib hissa qo'shadilar.

- Intellekt xarita inson miyasidagi fikrlash jarayoniga o'xshash bo'lganligi tufayli u bosh miyaning o'ng yarim sharining faollashishini ta'minlaydi.

"Nostandart fikrlash" pedagogik texnologiyasini ta'lim jarayoniga joriy qilish kelajak talablariga javob beradigan mutaxassislarni tayyorlash imkonini beradi.

Takliflar: "Nostandart fikrlash" ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish pedagogik texnologiyasini sayqallash va amaliy sinovlardan o'tkazish uchun tegishli davlat grantlarini ajratish;



Oliy ta'lim muassasalarining "Maktabgacha ta'lim", "Boshlang'ich ta'lim", pedagogika yo'nalishlari talabalariga "Nostandart fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish pedagogik texnologiyasi" kursi o'tilishi va ularning tegishli malaka olishlarini ta'minlash;

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari va boshlang'ich sinf o'quvchilarini "nostandart fikrlash" ko'nikmalarini rivojlantirish pedagogik texnologiyasi asosida o'qitilishini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-maydagi "Ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalari faoliyatini tubdan takomillashtirish to'g'risidagi Qarori."
2. Спеппи Роджер У. Нобелевская лекция.1981 г. www.nobelprize.org. Science and maral privrity. Brain ciralts and Funksions of the Mind. 26.01.1990. 422 стр. Кембридж Университет.
3. Ғаниев А.Г ва бошқалар. The importance of Applying Multi-Intelligence theory to the educational process. The American Journal of Applied Sciences, March 2021; Volume 03, Issue 03-15, Impact Factor 5. 634, doi 10.37547/tajas.
4. Выготский Л.С. Собрание сочинений, Т.2. – М., 1982 г.
5. Немов Р.С. «Психология» книга 3. Москва. Владос. 2005 г.
6. Фейнман Р., Лейтан Р., Сэндс М. Фейнмановские лекции по физике. – М., 1966. Вып.6, – С. 134.
7. Ғаниев А.Г. "10-11 синф ва академик лицей ўқувчиларида «тўла фикрлаш» кўникмаларини ривожлантириш методикасини такомиллаштириш". Монография. Қарши: "Фан ва талим" нашриёти, 2021.
8. Бьюзен Т. Интеллект карты. – Москва, МАНН, Иванов и Фербер Глава Что такое интеллект карта? – М., 2019.
9. Медина Д. Правила мозга. – М.: «Манн, Иванов и Фербер». 2014.
10. Ganiev A.G., Tashev S.N. The role of imagination in the process of creative thinking. Developing students' imagination and creative thinking skilss in teaching physics, 2021. 3569-3575/ 58 (1) psychology and education.
11. Ganiev A.G. 'Developing Students' 'Creative thinking' Skills in the course of 'Law of Conservation'. // The American Journal of Social Science and Education Innovations, March 2021. Volume 3, Issue 03-2021, Impact Factor 5.857, doi 10.37547/tajssei, Pp. 564-573.
12. Бюзен Т. Супермышление. 2-е издание. – Минск. Попурри: 2003.
13. Ganiyev A.G. Methods of developing "Creative thinking" skills in teaching physics. // Academicia An International Multidisciplinary Research

Journal. ISSN: 2249-7137 Vol. 11, Issue 4, April, Impact Factor: SJIF 2021 = 7.492, 1580-1587.

14. Колчина Н.И. Использование ментальных карт в образовательном процессе в детском саду. Дошкольная педагогика. 2016. № 10.
15. Ясвин В.А. Образовательная среда от моделирования к проектированию. Издательство «Смысл». 2001.
16. Джон Куниос и Марк Биман «Момент эврики. Альфа-реакции, творческие инсайты и мозг». marieclare.ua 2017 г.
17. Немов Р.С. Психология. Книга 1. – , – ВЛАДОС. 2006 г.
18. Originally published at <https://www.createpotential.com> on November 1, 2023.

“MUSBAT, MANFIY, QIZIQARLI” (MMQ) METODI ORQALI ERNEST SETON TOMSONNING “LOBO” HIKOYASINI O'RGANISH

Imomnazarova O'. – Qashqadaryo
VPYMO'MM Metodik xizmat ko'rsatish
bo'limi o'zbek tili metodisti

Annotatsiya. Ushbu maqolada “Musbat, manfiy, qiziqarli” metodi hamda dars jarayonida foydalanish yuzasidan tavsiyalar berilgan. Bugungi kunda ayniqsa, o'quvchilarni mantiqiy va kreativ fikrlashiga asosiy e'tibor qaratilmoqda. Ernest Seton Tomsonning “Lobo” hikoyasi o'quvchilar uchun eng qiziqarli bo'lgan asarlardan biri sanaladi. “Lobo” hikoyasi orqali “MMQ” metodini qo'llanishi dars sifatini yanada oshirish va hayot bilan bog'lab o'rganishga xizmat qiladi.


Kalit so'zlar: “Lobo”, “MMQ”, kreativ fikrlash, kritik fikrlash, muloqot qilish, ijobiy, salbiy, qiziqarli.

Ta'limning asosiy maqsadi bugungi kun o'quvchisini zamon talablari asosida fikrlashga, zamon bilan hamnafas bo'lishga o'rgatishdan iborat. Buning uchun esa o'qituvchining oldida turgan vazifa har bir darsni o'ziga xos usul asosida o'tish, o'quvchining fanga bo'lgan qiziqishini oshirish, uning qalbida ilmga muhabbat uyg'otishdir. Zero, yuqoridagilarning barchasi o'qituvchining mahoratiga bog'liq jarayonlar hisoblanadi. O'qituvchining pedagogik mahoratini oshirishga xizmat qiluvchi vositalardan biri zamonaviy pedagogik texnologiyalardir. Zamonaviy pedagogik texnologiya – hozirgi zamon didaktikasi va pedagogikasi taraqqiyotining mahsuli sanaladi.

Jumladan, interfaol metodlarni qo'llash orqali o'quvchilarda XXI asr ko'nikmalarini shakllantirib boramiz. Interfaol metodlardan “Musbat, manfiy, qiziqarli” (MMQ) metodi orqali biz o'quvchilarda muloqot qilish, jamoada o'z fikr

mulohazalarini bildirib olish, bir-birini hurmat qilish ko'nikmalarini, tanqidiy fikrlash orqali o'z mustaqil fikrlarini bildirishlariga hamda kreativ fikrlashga undashimiz mumkin. Masalan, ushbu metodni 7-sinf adabiyot darsida Ernest Seton Tomsonning "Lobo" hikoyasi misolida ko'rib o'tsak. Maktabda ushbu mavzuni o'qitishga 4 soat ajratilgan bo'lib, asar matni bilan ishlashga 1 soat ajratilgan.


Adabiyot paydo bo'lganidan beri hayvonlar haqidagi asarlar badiiy jarayonning ajralmas qismi sanaladi. Hayvonlar tasvirlari turli davrlarda turli janrlarda namoyon bo'ladi. Darhaqiqat, Ernest Seton Tomsonning "Lobo" hikoyasi mana shunday asarlardan sanaladi. Asarning asosiy qahramoni Lobo laqabli bo'ri. Asar tahliliga kirishishdan oldin o'quvchilar bilan bo'ri obrazi tasvirlangan qanday asarlarni bilishi haqida qisqagina savol-javob o'tkazib olinadi.



“Lobo” hikoyasini o'rgatish va mukammal tahlilini olib borish uchun “Musbat, manfiy, qiziqarli” metodidan foydalanish yaxshi samara beradi. Ushbu metod o'quvchilarni mavjud vaziyatning barcha detallarini puxta o'rganishga, xulosa chiqarishga odatlantirish orqali ongini boyitish, tafakkurini kengaytirishga xizmat qiladi. Ta'lim jarayonida “MMQ” metodini qo'llash o'quvchilarning ma'lum voqelik, hodisa yoki jarayonning barcha jihatlariga e'tiborni qaratish, ularning salbiy jihatlarini baholash, qiziqarli tomonlarini aniqlash va kengaytirishga doir ko'nikma, malakalarini rivojlantirishda samarali sanaladi. Bunda asosiy e'tibor mavjud vaziyatning barcha ijobiy jihatlarini inobatga olishga qaratiladi. O'rganilayotgan vaziyat yuzasidan xulosalar chiqarish, qaror qabul qilish faqat u batafsil o'rganilib chiqilgandan keyingina amalga oshirilishi mumkin.

O'quv fanlaridan bilimlarni o'zlashtirishda “MMQ” metodi qo'llanilsa, u holda o'quvchilarning fikrlash samaradorligi bir necha marta oshadi. Ko'p hollarda bir qarorga kelishni talab qiladigan vaziyatlarda ham ushbu metodni qo'llash maqsadga muvofiq.

“MMQ” metodi bir vaqtning o'zida o'quvchilar faoliyatini o'rganish va baholash metodi ham hisoblanadi. Qo'llash jadvali quyidagicha:



Ta'lim jarayonida ushbu metoddan foydalanish muammoni oson, to'liq va batafsil o'rganishga yordam beradi.

"MMQ" metodini darsning mustahkamlash qismida foydalanish yaxshi samara beradi. Ushbu metodni qo'llashdan avval o'quvchilarni kichik guruhlariga ajratib olinadi. O'quvchilarni kichik guruhlariga ajratishda quyidagicha noan'anaviy usuldan foydalanish mumkin. Bunda rangli kartochkalardan foydalanamiz.



Yashil rang 1-guruh, ko'k rang 2-guruh, qizil rang 3-guruh etib belgilanadi. Savollar yozilgan tarqatmalar guruhlariga tarqatiladi. Berilgan savollar orqali o'quvchilar o'z bilim va fikrlash doiralaridan kelib chiqib savolga javob yozadilar. Masalan,

1-guruh	2-guruh	3-guruh
<i>"Lobo" hikoyasining salbiy jihatlari</i>	<i>"Lobo" hikoyasining ijobiy jihatlari</i>	<i>"Lobo" hikoyasining qiziqarli jihatlari</i>
<u>1.Bo'rilar galasining podachilarqa keltirgan zarari.</u>	<u>1.Loboning o'z galasini ko'qorachig'iday asrashi.</u>	<u>1.Bo'rilar galasi uchun qilingan murakkab tuzoqlar.</u>
<u>2.Ovchining kurashda halol yo'lni tanlamagani, ya'ni hiyla ishlatgani.</u>	<u>2.Ziyrakligi.</u>	<u>2.Loboning insonlar tomonidan qilingan tuzoqlarqa mohirona javoblari.</u>
<u>3. ...</u>	<u>3. ...</u>	<u>3. ...</u>
<u> </u>	<u> </u>	<u> </u>
<u> </u>	<u> </u>	<u> </u>
<u> </u>	<u> </u>	<u> </u>
<u> </u>	<u> </u>	<u> </u>

Berilgan topshiriqni bajarish uchun 5 daqiqa vaqt ajratiladi. Belgilangan vaqtda guruhlar ishini yakunlagach har bir guruh o'z taqdimotini o'tkazadi. Berilgan topshiriq asosida asar mazmunini to'liq yoritib bergan guruh yuqori ball bilan baholanadi.



Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, har bir o'qituvchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'z darslarida qo'llasa, albatta, ijobiy natijaga erishadi. Bugungi kun o'qituvchisining maqsadi barkamol yoshlarni tarbiyalash, ularga puxta ta'lim-tarbiya berish, zarur axborotlar bilan ta'minlash, mustaqil fikrlashga o'rgatish, bilim va hayotiy ko'nikmalar hosil qilish, ular qalbida vatanparvarlik, xalqparvarlik tuyg'ularini qaror toptirishdan iborat. Bu ezgu maqsadlarni ilg'or pedagogik va innovatsion texnologiyalar asosida o'tilgan mashg'ulotlarda amalga oshirish dars sifatini oshirishga, samarali bo'lishiga, o'quvchilar uchun yanada qiziqarli bo'lishiga erishiladi.

"MMQ" metodi orqali Ernest Seton Tomsonning "Lobo" hikoyasining mukammal tahlili olib boriladi. O'qituvchi tomonidan o'quvchilar fikri umumlashtirilib yakuniy xulosa chiqariladi. "Sher kuch-quvvatdan qolsa, burgut erkidan ajrasa, kaptar juftidan ayrilsa, yuragi yorilib o'lar ekan. Bu yirtqichning yuragi birvarakayiga uchta musibatni ko'tara olarmikin? U ham kuch-quvvatidan, ham erkidan, ham juftidan ayrildi", – deb keltirilishi o'quvchilar qalbida bo'riga nisbatan achinish hissini uyg'otadi. Shu o'rinda ham achinish, ham ovchining o'z ishidan pushaymon ekanligi aks etadi. O'quvchi esa parchani o'qish jarayonida chin dildan Blanka va Loboga nisbatan mehr-shafqat uyg'onadi. Har bir jonli mavjudot-bebaho xazina ekanligi, uni yo'q qilishga, tabiatga ziyon yetkazishga, kelajak avlodni bu xazinadan bebahra qoldirishga haqqimiz yo'q ekanligi tahlillarda aniq namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ro'ziyeva D.I., Tolipov O'.Q. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: Innovatsiya-ziyo, 2019.
2. Yo'ldoshev J.G', Usmonov S. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. –T.: O'qituvchi, 2004.
3. Mirzayeva Z., Jalilov K. Adabiyot. Darslik kitob. –T.: 2022.



PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALAR ORQALI TALABA YOSHLARDA TURIZMNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK OMILLARINI SHAKLLANTIRISH

Islamova Durdonaxon Rustamxon qizi –
Guliston davlat pedagogika instituti magistranti
E-mail: islamovadurdona24@gmail.com

Annotatsiya. *Turizmning tarbiyaviy sog'lomlashtirish va ta'limiy ahamiyati insonlarda tabiat bilan uyg'unlik, dunyoqarashning o'sishi, turli mamlakatlar, qolaversa, mamlakatimizning e'tiborga molik joylari haqida, tariximiz haqida milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini tuyishga, do'stonalik hislarini mustahkamlashga yordam beradi. Talaba yoshlarga vatanparvarlik ruhini singdirishda sayohatlarning o'rni beqiyos bo'lib, bunday jarayonlarda pedagogik texnologiyalarni to'g'ri qo'llay olish muhimdir. Aynan, sayohat jarayonida talabalar o'rtasida kommunikativ muloqotning rivojlanishi, o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'ya olish va bir qancha qobiliyatlarning namoyon bo'lishiga imkon yaratadi.*

Kalit so'zlar: *turizm, asarlar, Alisher Navoiy, tarix, madaniyat, jismoniy sog'lomlik, ruhiy tetiklik, sayr, tabiat, muloqot, pedagogik texnologiyalar, ijtimoiy-psixologik omillar, qobiliyat.*

Kirish. Tarbiya – yosh avlodni muayyan maqsad yo'lida har tomonlama o'stirish, uning mustaqillik ongini va xulq atvorini tarkib toptirish jarayonidir. Turizm jismoniy tarbiyaning ajralmas qismi sifatida sog'lomlashtirish va kompleks tarbiyani amalga oshirish vazifalarini bajaradi. Bu esa shaxsni har tomonlama kamol toptirishdan iborat. Turizm aqliy tarbiya taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Yoshlarning geografiya, biologiya, tarix, geologiya, iqtisodiyot va boshqa fanlar bo'yicha olgan bilim va malakalarini oshiradi. Sayohatlar jarayonida axloqiy irodaviy sifatlar, sof vijdonlik, uyushqoqlik, jasurlik, burchni his qilish, o'zaro yordam va o'rtoqlik his-tuyg'ulari sinovdan o'tadi va chiniqadi. O'quv yurtlari va ishlab chiqarish mehnat jarayonlarida xarakter, ishonch tushunchalari umumiy ma'noda shakllansa, turistik. sayohatlar jarayonida ular amalda sinaladi. Turistik faoliyatlar jarayonida mehnat malakasi ham shakllanadi. Masalan, turistlar butun sayohat davomida yuk ko'tarish, turli to'siqlardan o'tish, kechalari tunash uchun joy tayyorlash, ovqat pishirish uchun joy tayyorlash, ovqat pishirish uchun o'tin to'plash va hokazolar. Turizm ijtimoiy tenglik, kishilar va xalqlar o'rtasidagi hamjihatlik va shaxs kamolotining omiliga aylandi. Uning madaniy va ma'naviy mazmun-mohiyati ulkandir.

Metodologik asos. Turizmning insoniyat faoliyatida, oila turmush sharoiti va madaniyat hamda jismoniy kamolot yo'lidagi o'rni P.Ye.Passechniy, V.G.Fadeyev (1980 y), V.P. Morgunov (1978 y), I.P.Milonov (1969 y), K.I. Vaxliyev (1983 y), R. Abdumalikov, T. Xoldorov (1988 y) kabi bir qator olimlar va mutaxassislar tomonidan atroflicha o'rganilib chiqilgan. Qadimgi Yunon, Arab mamlakatlari o'rtasida savdo-sotiq ishlari ancha rivojlanganligi bizga tarixdan ma'lum. "Tarix otasi" Gerodot birinchi sayyohlardan hisoblanadi. U o'zining tarixiy asarlarida qilgan sayohatlari to'g'risida eramizning 459-yilidayoq hikoya qilgan. Shuningdek, sayohatlarning shakllanishi va rivojlanishda, taraqqiy etishi va tarqalishida qadimgi yunonlarning ham hisssasi juda katta. Chunki ular qadimgi Olimpiya o'yinlarini tomosha qilish maqsadida uzoq-uzoqlarda Olimp shaharchasiga sayohat qilganlar. Bundan tashqari ular sog'likni tiklash uchun "tilsimli davo" izlab tog', vodiylar o'lkalarini kezib chiqishgan. Tarixiy manbalarga qaraganda, hatto Aleksandr Makedonskiy ham O'rta Osiyoga umrni uzaytiruvchi, insonni qayta yoshartiruvchi "tilsimli suv" qidirib kelgan. Aristotel, Demokrat, Kvintilmon va boshqa mashhur faylasuflar o'z asarlarida tarbiya to'g'risida gapirar ekanlar, odamlar, albatta, go'zal tabiat qo'ynida bo'lishlari, sayohat qilishlari zarurligini ta'kidlab o'tganlar. Turizm O'rta Osiyoda ham qadimdan mavjud bo'lgan. Qadimiy ajdodlarimizning daryo, ko'l sohillarida, cho'l-u biyobonlarda sayr qilishi, tog' cho'qqilariga chiqishi, ovchilik qilganlari haqida bizga ko'pgina tarixiy manbalar, xalq og'zaki ijodidan ma'lum. Chunonchi, Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'otit turk" asari, Abu Ali ibn Sino, Umar Xayyom, Ro'dakiy, Firdavsiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va ko'pgina boshqa allomalarning asarlari, shuningdek, "Alpomish", "Kuntug'mish", "Intizor", "Rustamxon", "Ravshan" va boshqa xalq og'zaki ijodi manbalarida turizmning ilk debochalari o'z aksini topgan.

Mulohaza. Alisher Navoiy sog'lom turmush tarzini shakllantirish, kishi sog'ligini mustahkamlash bilan birga dunyoqarashini kengaytirish, insoniy va axloqiy sifatlarini qaror toptirishda jismoniy mashqlar, o'yinlar turli harakatlar, ayniqsa, sayohat qilish muhim ahamiyatga ega ekanligini alohida ta'kidlab, jumladan, shunday yozadi: "Arzi sokin qaydovu sipehri davvor qayda, turobi mutamakkin qaydav, kavkabi sayyor qayda. Ul biri sukundin xoksorlar poyondozi bo'ldi. Va bu bori taharrukdin sarafrozlar sarafrozi. (Tinch turgan yerning fazilati qayda, aylanuvchi osmonUlardan birinchisi harakatsiz turishidan xokisorlar oyog'i ostida, ikkinchisi esa harakati tufayli yuqorilarning yuqorisi.) Sayohat ranj-u mashaqqatga sabab, moya tovozu va adabdur. Sayohat (safari) kuron gudozu so'zdir va ul gudozu suv yerning vujudi oltuniga iyor anduz (sayohat qilish ranju mashaqqatga sabab bo'lsa ham kamtarlik va adabning moyasi hisoblanadi. Sayohat quyosh yonishning o'chog'i va bu quyosh yonishi er kishining vujud oltinining o'lchovi). Safari vodiysida musofir (safari qiluvchi) oyog'iga dard-u balo tikoni ko'p sanchilur va lekin ul tikondin



maqsud guli ochilur. Yo'l emg'oki (mehnat) shiddatidan badani ko'p tovshalur (ya'ni ezilur), ammo ko'ngli buzug'lug'lari yosolur (ketur) va ruhi ko'zgusi safo (tozalik) olur. Va har kishilar mamlakat orayishini va har bir manzilni osoyishini safar ahlidan sur va musofirdan ko'r. Safar qilmog'an orom farog'atin qayda bilsun va g'urbat chekmog'an kon rifoqayyatin (baxt farovonligini) ne nav' ma'lum qilsun. Daryoni sokin (tinch) dur suyidin yutsa bo'lurmi? Va rud (daryo) ki mutaharrik (harakat qiluvchi) zur sulol (suv) tarkin tutsa bo'lurmi? Taharruk (harakat) ahliga hayotdin olardur va jamulat xayli (qotgan narsalar) tiriklik nishonasidan bexabar". Yuqoridagi satrlarda inson doim harakatda bo'lsa, barokatning o'zi kelishi, harakatdagi, sayohatdagi odamga qancha mushkul bo'lsa, u farog'atda umr kechirishi ta'kidlangan. Shunday ekan, O'rta Osiyoda sayr-sayohat qadimdan rivojlanib, takomillashib kelmoqda. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng sayohatni rivojlantirish borasida ko'pgina ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, tarixiy madaniy obidalarni qaytadan ta'mirlash, tabiat va ekologiyani asrash kabi chora tadbirlar, ayniqsa, "O'zbekturizm" (1992-yil) tashkilotining tashkil topishi, sayr-sayohatni rivojlantirish va takomillashtirish uchun dastur ishlab chiqilishi, sayohatchilar uchun qulay imkoniyat va sharoitlarning yaratilishi, ichki va tashqi turizm uchun innovatsion yondashuvlar turizmning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, tarbiyaviy rivojiga qo'shmasdan qolmaydi.

Takliflar. Turistik faoliyatda talabalar turizmining ijtimoiy psixologik yo'llarini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish orqali bo'lajak mutaxassislar ta'lim-tarbiyasi jarayoniga nisbatan qo'yiladigan davlat talablarini takomillashtirishda qo'llash; O'zbekistonda turizm rivojlanishining ijtimoiy pedagogik-psixologik asoslarini hamda turistik servis xizmatlarini samarali yo'lga qo'yish, turizm sohasida kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazlari professor-o'qituvchilar ma'ruzalarida, kurs ishi va malakaviy-bitiruv ishlarini bajarishda, tyutorlar faoliyatini takomillashtirishda foydalanish; turistik faoliyatda talabalar turizmining ijtimoiy psixologik yo'llarini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish asosida didaktik natija va xulosalardan yangi avlod o'quv-qo'llanmalari va darsliklarini yaratishda, tegishli o'quv-metodik qo'llanmalar yozishda, metodik tavsiyalar tayyorlashda foydalanish; O'zbekistonda turizm rivojlanishining ijtimoiy pedagogik-psixologik jihatdan samarali tashkil qilish innovatsion texnologiyalar va metodlar uyg'unligi zamon bilan hamnafas hal etish. Oliy ta'limda kadrlar tayyorlash jarayonida talabalar turistik faoliyati tajribasini shakllantirishning mazmuni bilan bog'liq ilmiy izlanishlarning istiqbolli yo'nalishlarini belgilashga xizmat qilishi, turistik faoliyat tajribasini rivojlantirish, turizm pedagogikasining ilmiy-nazariy asoslarini o'rganish va tatbiq etish kabi muammolar yechimiga qaratilishi tavsiya etiladi



Xulosa. Aynan turizm inson ongi erishgan yutuqlar haqida ma'lumot olish va ular bilan tanishish vositasi bo'lib, xalqlarning tarixiy va madaniy qadriyatlaridan bahramand bo'lish imkonini beradi. Amalda turizmning ma'naviy mohiyati iqtisodiy va moddiy mezonlardan ustun bo'lishi va inson shaxsining barcha tomonlarga uyg'un kamol topishiga yordam berishi, ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lishi, turmush tarzi va hayotini belgilashida teng huquqni ta'minlashi lozim. Bu jarayonni esa uning qadri va shaxsini hurmat qilish, xalqlarning o'ziga xos madaniyati va axloqiy qadriyatlarini tan olish deb bilish darkor.

Shuningdek, O'zbekistonda turizm sohasini yangi bosqichga ko'tarishda Respublikamiz Birinchi Prezidentining 1999-yil 15-apreldagi «2005-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekistonda turizmni rivojlantirish Davlat dasturi to'g'risida»gi Farmoni 6-bo'lim: «Ichki turizmni tashkil etish bo'yicha tadbirlar», – deb nomlanib, unda Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlari turizm markazlarida piyoda yuruvchi turistlar uchun maxsus yo'llar tashkil etish; Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlari va Farg'ona vodiysiga ma'naviy-ma'rifiy va tarixiy ekskursiyalarni tashkil etish; o'quvchi yoshlarimizni o'tmish merosimizga hurmat, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadida muzeylarda doimiy ravishda ochiq eshiklar kunini o'tkazish; bolalar uylari tarbiyalanuvchilari va kam ta'minlangan oilalar farzandlari uchun bepul ekskursiyalar tashkil etish; O'zbekiston fuqarolari uchun Imom Buxoriy, al-Farg'oniy, Bahovuddin Naqshband, al-Xorazmiy, at-Termiziy, Shayx Najmiddin Kubro va boshqa o'tmish allomalarimizning memorial majmualariga ekskursiyalar tashkil etish vazifalari belgilab berildi. Haqiqatdan ham hozirgi yoshlarni har tomonlarga kamol toptirishda mehnat jamoalari, ota-onalarni butun jamoatchilik olib boradigan tarbiyaning barcha turlari va vositalari, shuningdek, turizm va barcha sport turlarining roli kattadir. Ko'pchilik mutaxassislarning ilmiy tekshirishlariga qaraganda, keyingi paytlarda faol harakatning kamayishi natijasida idora xodimlari, aqliy mehnat kishilari va boshqa

Sohalardagi kishilarda yurak, qon-tomir kasalliklari, nafas olish organlarida xastaliklar mavjud bo'layotgani sezilmoqda. Bu xastaliklarni oldini olish uchun shifokorlarimiz doimo faol harakat qilish lozimligini uqtirmoqdalar. Bunday harakatning asosiysi turizm bilan shug'ullanishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekistonda turizm sohasini yangi bosqichga ko'tarishda Respublika Birinchi Prezidentining 1999-yil 15-apreldagi «2005-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekistonda turizmni rivojlantirish Davlat dasturi to'g'risida»gi Farmoni



2. Mirzayev Murodjon Ahmadjonovich, Aliyeva Mahbuba To'ychiyevna "Turizm asoslari" O'zbekiston Faylasuflari Milliy Jamiyati nashriyoti Toshkent-2011 yil
3. «Turizm va uni o'qitish uslubiyati» fani bo'yicha ma'ruzalar matni I.R.Turaqulov Samarqand-2012 yil.
4. Hasaniy M., S. Karimov "Navoyi davri tabobati". Toshkent "Ibn Sino" nomli nashriyot 1991 yil 126-bet.

O'QUVCHILARDA FIZIKA FANINI O'QITISHDA KONSTRUKTIV QOBILIYATNI SHAKLLANTIRISH

Jo'rayev Madat Oltinboy o'g'li – Samarqand v., Urgut t., MMTBga qarashli 37-umumiy o'rta ta'lim maktabi fizika va astronomiya fani o'qituvchisi
E-mail: jurayevmadat6@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'quvchilarning fizika fanini o'zlashtirishida konstruktiv qobiliyatni rivojlantirishning ahamiyati va usullari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot davomida adabiyotlar tahlili, kuzatishlar va eksperimental ishlar olib borildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, konstruktiv yondashuv o'quvchilarning fizikani chuqur tushunishiga, muammolarni hal qilish ko'nikmalarini oshirishga va ijodiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi. Xulosada konstruktiv ta'limni fizika darslariga joriy etish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: konstruktiv ta'lim, fizika, o'qitish usullari, muammoli ta'lim, ijodiy fikrlash

Kirish Fizika fani o'quvchilardan abstrakt tushunchalarni tushunish, muammolarni hal qilish va mantiqiy fikrlashni talab qiladi. Biroq an'anaviy ta'lim usullari ko'pincha o'quvchilarning bu ko'nikmalarini yetarlicha rivojlantirishga yordam bermaydi [1]. Konstruktiv ta'lim esa o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash, mustaqil o'rganish va ijodiy yondashuvni rag'batlantirish orqali samarali o'qitishga erishish imkonini beradi [2]. Ushbu tadqiqotning maqsadi konstruktiv ta'limning fizika fanini o'qitishdagi ahamiyatini o'rganish va uni joriy etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Konstruktiv ta'lim nazariyasi bilimlarning faol konstruksiyasiga asoslanadi, ya'ni o'quvchilar yangi ma'lumotlarni mavjud bilimlariga tayanib, faol ravishda o'zlashtiradilar. Bu jarayonda o'quvchilar o'z tushunchalarini shakllantirish, sinab ko'rish va qayta ko'rib chiqish orqali o'quv materialini chuqur tushunishga erisha oladilar. Konstruktiv ta'lim o'quvchilarning

individual xususiyatlarini hisobga olib, ularning ehtiyojlariga moslashtirilgan o'quv muhitini yaratishga qaratilgan.

Fizika fanini o'qitishda konstruktiv yondashuv o'quvchilarga real hayotiy muammolarni hal qilish, eksperimentlar o'tkazish va nazariyalarni amaliyotda qo'llash imkoniyatini beradi. Bu esa o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini oshiradi, motivatsiyasini kuchaytiradi va o'zlashtirish darajasini yaxshilaydi. Shu bilan birga, konstruktiv ta'lim o'quvchilarning mustaqil va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga, jamoaviy ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

Usullar va adabiyotlar tahlili Tadqiqot davomida xorijiy va mahalliy adabiyotlar tahlil qilindi. Konstruktiv ta'limning nazariy asoslari va uning turli fanlardagi qo'llanilishi o'rganildi [3]. Shuningdek, fizika darslarida qo'llaniladigan interfaol usullar, keys-stadilar va loyihalar tahlil qilindi [4]. Tajribali o'qituvchilar bilan suhbatlar o'tkazildi va dars jarayonlari kuzatildi. Eksperimental guruhda konstruktiv ta'lim usullari qo'llanildi va nazorat guruhi bilan taqqoslandi.

Natijalar Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, konstruktiv ta'lim usullarini qo'llagan eksperimental guruhdagi o'quvchilarning fizika fanidan o'zlashtirish ko'rsatkichlari nazorat guruhiga nisbatan yuqori bo'ldi. O'quvchilar mustaqil ravishda muammolarni hal qilish, gipotezalarni ilgari surish va eksperimentlar o'tkazish orqali fizik qonuniyatlarni chuqurroq tushunishga erishdilar. Guruh ishlarida faol qatnashish, o'zaro fikr almashish va munozaralar o'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirdi. Loyihalar ustida ishlash esa ularning ijodiy qobiliyatlarini namoyish etish imkonini berdi.

Tahlil va muhokama Olingan natijalar konstruktiv ta'limning fizikani o'qitishdagi samaradorligini ko'rsatdi. O'quvchilarning dars jarayonidagi faol ishtiroki ularning motivatsiyasini oshirdi va mustaqil o'rganishga bo'lgan qiziqishini kuchaytirdi [5]. Muammolarni hal qilishga qaratilgan topshiriqlar esa ularning tahliliy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirdi. Shuningdek, guruh ishlarida qatnashish o'quvchilarda jamoa bo'lib ishlash, o'zaro hurmat va mas'uliyat hissini shakllantirdi.

Tadqiqot davomida ayrim qiyinchiliklar ham kuzatildi. Ba'zi o'quvchilar uchun mustaqil ishlash va ijodiy yondashuv qiyin kechdi. O'qituvchilardan yangi usullarni o'zlashtirish va darslarni samarali tashkil etish talab qilindi. Shuningdek, konstruktiv ta'limni to'liq joriy etish uchun o'quv materiallari va texnik jihozlarni yangilash zarurati mavjud.

Konstruktiv ta'limning yana bir muhim jihati shundaki, u o'quvchilarning individual xususiyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda, har bir o'quvchining o'ziga xos ehtiyojlariga moslashtirilgan ta'lim imkoniyatlarini yaratadi [6]. Bu o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishi va o'z qobiliyatlarini namoyon qilishi uchun qulay sharoit yaratadi. Bunda o'qituvchining roli



o'quvchilarga yo'nalish berish, ularning mustaqil faoliyatini qo'llab-quvvatlash va kerakli resurslar bilan ta'minlashdan iborat bo'ladi.

Konstruktiv ta'lim o'quvchilarni real hayotiy muammolarni hal qilishga yo'naltiradi va ularning bilimlarini amaliyotga tatbiq etish ko'nikmalarini rivojlantiradi[7]. Bu esa o'quvchilarni kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchilar nafaqat nazariy bilimlarni egallash, balki ularni real vaziyatlarda qo'llash, muammolarga ijodiy yechimlar topish va qaror qabul qilish qobiliyatlarini shakllantiradilar.

Shu bilan birga, konstruktiv ta'limni joriy etishda ba'zi muammolar ham mavjud. O'qituvchilar uchun an'anaviy usullardan voz kechish va yangi yondashuvlarni o'zlashtirish oson kechmaydi [8]. Ayrim o'qituvchilar o'zgarishlarga qarshilik ko'rsatishlari va o'z uslublarini saqlab qolishga harakat qilishlari mumkin. Shuningdek, konstruktiv ta'lim ko'proq vaqt va resurslarni talab qilishi mumkin, bu esa o'quv dasturini to'liq bajarish imkoniyatini cheklab qo'yishi mumkin.

Ushbu muammolarni hal qilish uchun o'qituvchilarni konstruktiv ta'lim uslublari bo'yicha o'qitish va malakasini oshirish muhim ahamiyatga ega[9]. O'qituvchilar o'rtasida tajriba almashish, seminarlar va treninglar tashkil etish orqali yangi usullarni joriy etish jarayonini yengillashtirish mumkin. Shuningdek, maktab ma'muriyati va ta'lim muassasalari rahbariyati tomonidan konstruktiv ta'limni qo'llab-quvvatlash va uning uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish muhim rol o'ynaydi.

Konstruktiv ta'limning samaradorligini yanada oshirish uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq [10]. Virtual laboratoriyalar, kompyuter simulyatsiyalari va interaktiv o'quv materiallari o'quvchilarning fizika faniga bo'lgan qiziqishini yanada oshirishi va murakkab tushunchalarni vizual tarzda tushuntirishga yordam berishi mumkin. Bundan tashqari, onlayn platformalar va ta'lim portallari o'quvchilarga qo'shimcha manbalardan foydalanish va tengdoshlari bilan hamkorlik qilish imkoniyatini beradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, konstruktiv ta'lim fizika fanini o'qitishda an'anaviy usullarga nisbatan samaraliroq yondashuv hisoblanadi. Biroq uni to'liq joriy etish uchun o'qituvchilar, ta'lim muassasalari va butun ta'lim tizimining sa'y-harakatlari talab etiladi. Konstruktiv ta'limni amaliyotga tatbiq etish orqali o'quvchilarning fizika faniga bo'lgan qiziqishini oshirish, ularning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish hamda kelajakdagi muvaffaqiyatli kasbiy faoliyat uchun mustahkam zamin yaratish mumkin.

Konstruktiv ta'lim fizika fanini o'qitishda o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash, mustaqil fikrlashni rag'batlantirish va real hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish uchun samarali yondashuv hisoblanadi. Uning joriy etilishi o'quvchilarning fizikaga bo'lgan qiziqishini oshiradi, ularning intellektual



salohiyatini yuksaltiradi va kelajakda muvaffaqiyatli bo'lishlariga zamin yaratadi. Ta'lim tizimidagi barcha ishtirokchilarning birgalikdagi sa'y-harakatlari orqali konstruktiv ta'limni yanada rivojlantirish va takomillashtirish mumkin, bu esa o'quvchilarning fizika sohasidagi yutuqlarini ta'minlashga xizmat qiladi.

Xulosa. Konstruktiv ta'lim fizika fanini o'qitishda samarali yondashuv bo'lib, o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydi, mustaqil fikrlashni rag'batlantiradi va real hayotiy ko'nikmalarni rivojlantiradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, konstruktiv ta'lim usullarini qo'llagan o'quvchilar fizika fanidan yuqori natijalarga erishdilar, muammolarni hal qilish va ijodiy fikrlash qobiliyatlari yaxshilandi hamda fanga bo'lgan qiziqishlari ortdi.

Konstruktiv ta'limni fizika darslariga joriy etish uchun o'qituvchilarning malakasini oshirish, o'quv muhitini takomillashtirish va ta'lim tizimida tizimli o'zgarishlarni amalga oshirish talab etiladi. O'qituvchilar konstruktiv ta'lim tamoyillarini chuqur tushunishlari va ularni amaliyotda qo'llay olishlari lozim. Ta'lim muassasalari esa o'qituvchilarga zarur resurslar va qo'llab-quvvatlashni taqdim etishlari kerak.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, konstruktiv ta'lim fizika fanini o'qitishni takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega. Kelajakda ushbu yondashuvni yanada rivojlantirish, turli ta'lim bosqichlariga moslash va texnologik vositalardan foydalanish orqali fizika ta'limining sifat va samaradorligini oshirish mumkin. Shuningdek, konstruktiv ta'limning boshqa fanlar va sohalar bilan aloqadorligini tadqiq qilish ham istiqbolli yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Smith, J. (2020). The importance of constructivism in science education. *Journal of Educational Research*, 35(2), 120-135.
2. Макарова, Е. А. (2019). Конструктивный подход в обучении физике. *Вестник Московского университета*, 4(3), 25-32.
3. Piaget, J. (1970). *Science of education and the psychology of the child*. New York: Viking Press.
4. Huang, X., & Lin, J. (2021). Effective strategies for teaching physics through problem-based learning. *Physical Review Physics Education Research*, 17(1), 010115.
5. Кузнецова, Н. Е. (2018). Мотивация учащихся при изучении физики в контексте конструктивизма. *Физика в школе*, 6, 15-22.
6. Brown, A. L., & Campione, J. C. (1994). Guided discovery in a community of learners. In K. McGilly (Ed.), *Classroom lessons: Integrating cognitive theory and classroom practice* (pp. 229-270). Cambridge, MA: MIT Press.

7. Savery, J. R., & Duffy, T. M. (1995). Problem based learning: An instructional model and its constructivist framework. *Educational Technology*, 35(5), 31-38.
8. Windschitl, M. (2002). Framing constructivism in practice as the negotiation of dilemmas: An analysis of the conceptual, pedagogical, cultural, and political challenges facing teachers. *Review of Educational Research*, 72(2), 131-175.
9. van Driel, J. H., Beijaard, D., & Verloop, N. (2001). Professional development and reform in science education: The role of teachers' practical knowledge. *Journal of Research in Science Teaching*, 38(2), 137-158.
10. Rutten, N., van Joolingen, W. R., & van der Veen, J. T. (2012). The learning effects of computer simulations in science education. *Computers & Education*, 58(1), 136-153.

TA'LIM JARAYONIDA O'QUVCHILARNING READING (O'QIB TUSHUNISH) KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Karimova Dilorom Bahromovna – Farg'ona viloyati Marg'ilon shahar 18-umumiy o'rta ta'lim maktabi 1-toifali ingliz tili fani o'qituvchisi

E-mail: kdilorom37@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarni reading (o'qib tushunish) ko'nikmalarini rivojlantirib borish haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, ayrim metodlar orqali dars jarayonidan ajralmagan holda umumiy o'rta ta'lim tizimida bitiruvchi o'quvchilarni dars jarayonida CEFR/Multilevel imtihonining reading (o'qib tushunish) qismiga tayyorlab borish borasida takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: Pedagogik texnologiya, ta'lim sifati, 4K modeli, reading (o'qib tushunish) ko'nikmasi, interfaol metodlar.

Mamlakatimizda xorijiy tillarni o'rgatish bo'yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo'ladigan yangi tizimni yo'lga qo'yish vaqti-soati keldi. Biz raqobatdosh davlat qurishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bundan buyon maktab, litsey, kollej va oliy o'quv yurti bitiruvchilari kamida 2 ta chet tilini mukammal bilishlari shart.

Shavkat Mirziyoyev



Bugungi kunda respublikamizda ta'lim sifatini oshirish, xorijiy tillarni o'qitishni rivojlantirish, o'quvchi yoshlarning xorijiy tillarni o'rganish bo'yicha ko'nikma va malakalarini oshirish davlat siyosatining ta'lim sohasidagi ustuvor vazifalardan biriga aylandi. Xususan, umumiy o'rta ta'lim tizimida mustaqil fikrlay oladigan, intellektual salohiyatga, chuqur bilim va zamonaviy dunyoqarashga ega, Vatanimizning taqdiri va kelajagi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga oladigan yosh avlodga sifatli ta'lim-tarbiya berish bugungi kun pedagoglarining asosiy maqsadi hisoblanadi. Yurtimizda zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan foydalangan holda o'qitishning ilg'or uslublarini joriy etish yo'li bilan o'sib kelayotgan yosh avlodni chet tillariga o'qitish, shu tillarda erkin so'zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish hamda buning negizida ularning jahon sivilizatsiyasi yutuqlari hamda dunyo axborot resurslaridan keng ko'lamda foydalanishlari, xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirishlari uchun shart-sharoit va imkoniyatlar yaratilgan.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tilini o'rgatish 4K modeli, ya'ni "Kritik (tanqidiy) fikrlash (Critical thinking); Kollaboratsiya (Team Work) (jamoaviy ishlash); Kreativlik (Creativity – ijodkorlik); Kommunikatsiya (Communicative skills – muloqot ko'nikmalari)"ni shakllantiruvchi yangi avlod darsliklaridan foydalanilmoqda. Yuqori sinf o'quvchilarining "Prepare" darsliklaridagi materiallar o'quvchilarda listening (tinglab tushunish), reading (o'qib tushunish), writing (yozish) va speaking (gapirish) ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan. O'quvchilarda bu ko'nikmalarni shakllantirish orqali xorijiy tilning grammatikasini o'rganish bilan cheklanib qolmay, kommunikativ kompetensiya ya'ni muloqot qilish qobiliyatini oshirish, o'z fikrini erkin bayon qilishga erishish muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, yuqoridagi 4 ko'nikmani egallagan o'quvchi xorijiy tillarini bilish darajasiga, ya'ni xalqaro IELTS (International English Language Testing System), TOEFL (Test of English as a Foreign Language) va milliy CEFR (Common European Framework of Reference) kabi sertifikatlarni olishga tayyor bo'ladi. Bunday sertifikatlarni olgan o'qituvchi va o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish qonunchiligimizda ham belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son qarori ijrosini ta'minlash, shuningdek, chet tilini bilish darajasi bo'yicha tegishli sertifikatga ega bo'lgan abituriyentlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi 395-son qaroriga muvofiq 2019/2020 o'quv yilidan boshlab oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish sinovlarida ayrim imtiyozlar belgilandi. Test sinovlari (kasbiy (ijodiy) imtihon) majmuasiga chet tili (ingliz, nemis,



fransuz, ispan, turk, arab, fors, dari, hind, urdu, xitoy, koreys, uyg'ur, italyan, yapon tillari) birinchi (asosiy) fan sifatida kiritilgan bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga hujjat topshirgan va Milliy sertifikat (CEFR) yoki International English Language Testing System (IELTS 5,5), Test of English as a Foreign Language (TOEFL IBT 72), Cambridge Assessment English FCE xalqaro imtihon tizimlari bo'yicha tilni bilish darajalari B2 va undan yuqori darajadagi sertifikatlarga ega bo'lgan abituriyentlarga ushbu fandan imtihonlarsiz belgilangan maksimal ball beriladi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, bugungi kun yoshlariga chet tillarini mukammal o'rganishlari uchun dars jarayonida an'anaviy metodlardan foydalanish bilan cheklanib qolmay, balki innovatsion yondashuv asosida turli xil interfaol metodlardan foydalanib, ularni CEFR/Multilevel imtihonlariga tayyorlab borish bugungi kun talabiga aylanib bormoqda.

CEFR tizimida 4 ta ko'nikma bo'yicha egallangan bilimlar tekshiriladi. Bular quyidagilar:

1.Tinglab tushunish (Listening) bo'limi: eshitilgan audiomatnlarning asosiy mazmunini va detallarini tushunish ko'nikmalari tekshiriladi.

2.O'qib tushunish (Reading) bo'limi: har xil janrlardagi matnlarning asosiy mazmuni va detallarini tushunish ko'nikmalari tekshiriladi.

3.Yozish (Writing) bo'limi: berilgan vaziyat yoki mavzu asosida, topshirilayotgan darajaga mos leksika va grammatikani qo'llagan holda xat va insho yoza olish ko'nikmalari tekshiriladi.

4.Gapirish (Speaking) bo'limi: savollarga javob bera olish, og'zaki taqdimot qila olish, muammoga nisbatan o'z fikrini bildirib asoslab bera olish ko'nikmalarini tekshiradi.

Yuqoridagi ko'nikmalardan reading(o'qib tushunish) ko'nikmasini rivojlantirish maqsadida o'qituvchi quyidagi interfaol metodlardan samarali foydalanishi mumkin:

"BIR KUNLIK DETEKTIV" METODI

Kerakli vositalar. istalgan mavzudagi matn

Maqsad. O'quvchilarda savol tuzish, matndan kerakli ma'lumotlarni topish, asosiy ma'lumotlarni aniqlash va xulosa chiqarish, mantiqiy frkrlash qobiliyatini rivojlantirish.

Ko'zlangan natija. O'quvchilar berilgan matnni to'liq tushunib oladilar. O'quvchilarda kritik (tanqidiy) fikrlash (Critical thinking) ko'nikmasi shakllanadi.

Bu metoddan har qanday matn bilan ishlash jarayonida foydalanish mumkin. Dastlab, o'quvchilarga detektiv, ya'ni izquvar qanday kasb ekanligini tushuntiriladi. **Detektiv** (inglizcha: detective; lotincha: detectio – "ochaman") – jinoiy ishni qidirish bo'yicha mutaxassis; izquvar. U har qanday vaziyatda savol



berish va unga javob topish yo'li bilan muammoli vaziyatdan chiqish yo'lini topadi.

O'quvchilarni guruhlariga bo'lib olinadi. Berilgan matnni ham guruhlariga mos ravishda qismlarga bo'lib, guruhlariga tarqatib beriladi. So'ngra o'quvchilarga matnni yaxshilab o'qib chiqib 10 ta savol tuzish kerakligi aytiladi. Bunda shaxs, joy nomlari, sanalar, va boshqa turdagi har qanday fakt nazardan chetda qolmasligi aytiladi. Guruhlar matn bo'yicha tuzgan savollarini bir-biriga beradilar. Har bir savol javobsiz qolmasligi kerak.

“SQ3R” METODI

Kerakli vositalar. Istalgan mavzudagi matn, SQ3R jadvali

Maqsad. O'quvchilarda savol tuzish, matndan kerakli ma'lumotlarni topish, asosiy ma'lumotlarni aniqlash va xulosa chiqarish, mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish.

Ko'zlangan natija: o'quvchilar berilgan matnni to'liq tushunib oladilar, o'quvchilarda Kreativlik (Creativity – ijodkorlik); Kommunikatsiya (Communicative skills – muloqot) ko'nikmalari shakllanadi.

Ushbu strategiya o'qishni tushunishga yordam beradi va ayniqsa, qiyin darslik materiallari uchun foydalidir. Dastlab o'quvchilarga SQ3R metodi haqida to'liq ma'lumot beriladi. Uning bosqichlari birma-bir tushuntiriladi. Bunda SQ3R jadvalidan foydalaniladi. Matn berilib, ushbu matnni SQ3R strategiyasi bo'yicha tahlil qilib chiqish topshirig'i beriladi. Bu strategiyadan har bir o'quvchilar bilan individual ishlashda va guruhlarda ishlashda foydalanish mumkin.

SQ3R JADVALI

Survey	Yangi bobni boshlashdan oldin, materialni ko'rib chiqing va matndagi asosiy mavzular va g'oyalarni his qiling.
Question	O'qishni tushunarli bo'lishi uchun savollardan foydalaning.
Read	O'qiyotganingizda o'zingiz yaratgan savollarga javob izlang
Recite	O'qiganingizdan so'ng, yaratgan savollarga yoki bobning oxiridagi savollarga qarang
Review	Yangi materialni o'rganganingizdan so'ng, maksimal tushunish va xotirada saqlab qolish uchun 24 soat ichida umumiy tahlilni o'tkazish judamuhimdir.

(1-ilova)

“HIKOYA XARITASI” METODI



Kerakli vositalar: istalgan mavzudagi matn, “Hikoya xaritasi” jadvali (2-ilova);

Maqsad: o'quvchilarda savol tuzish, matndan kerakli ma'lumotlarni topish, asosiy ma'lumotlarni aniqlash va xulosa chiqarish, mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish;

Ko'zlangan natija: o'quvchilar berilgan matnni to'liq tushunib oladilar. Kreativlik (Creativity –ijodkorlik) ko'nikmasi shakllanadi.

Dastlab o'quvchilarga matn beriladi. Berilgan matnni o'qib chiqib, undagi kerakli ma'lumotlarni “Hikoya xaritasi” jadvaliga tushirish kerakligi aytiladi. Jadval tarkibida quyidagi ma'lumotlar aks etishi kerak.

Setting – Sozlash: Hikoya qachon va qayerda sodir bo'ladi (hikoya davomida o'zgarishi mumkin).

Characters – qahramonlar: Hikoyadagi odamlar yoki hayvonlar, shu jumladan, motivlari va harakatlari hikoyani boshqaradigan qahramon (bosh qahramon).

Problem – muammoli vaziyat: Odatda, qahramon hal qilishi va oxir-oqibat hal qilishi kerakbo'lgan bir yoki bir nechta muammo yoki nizolarni o'z ichiga olgan hikoya chizig'i.


Important events – muhim voqealar: Hikoyada tasvirlangan voqealar ketma-ketligi ifodalanadi

Outcome-natija: Hikoyada oxirida nima sodir bo'lgani tasvirlanadi

Theme-muhokama obyekt: Hikoyadan chiqarilgan umumiy xulosa

“Hikoya xaritasi” jadvali (2-ilova)

Tarjima qilingan matnni topshiriqlarini ishlash bilan bir qatorda ularning mazmunini o'quvchiga yetkazib berish, tarbiyaviy jihatlariga ham urg'u berish kerak. Dars jarayonida faqatgina savol va topshiriqlar bilan ishlamay, balki o'qish texnikasini oshirib borish, matnlar tarkibidagi so'zlarni yodlatish, ularni grammatik va sintaktik tahlil qilishni o'rgatish maqsadida “Bir kunlik detektiv” metodi, “SQ3R” metodi, “Hikoya xaritasi” metodlaridan foydalanish yaxshi samara beradi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Sh.M.Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat



Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi.
20.12.2022

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora- tadbirlari to'g'risida" PQ-5117- son qarori 2021 yil 19 may
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-3775-son qarori 2018-yil 5-iyun
4. Vazirlar Mahkamasining 395-son qarori 2019-yil 13-may
5. "Prepare" 11-sinf darsligi- Niki Joseph, Helen Chilton Cambridge University Press 20216.Honig, B., L. Diamond, and L. Gutlohn. (2013). *Teaching reading sourcebook*, 2nd ed. Novato, CA: Arena Press.
6. Ogle, D. M. (1986). K-W-L: A teaching model that develops active reading of expositorytext. *The Reading Teacher* 38(6), pp. 564–570.

FRAKTAL PEDAGOGIKANING XUSUSIYATLARIGA TAYANIB O'QUV JARAYONINI TASHKIL QILISHDA SHAXSIY VA KASBIY O'Z-O'ZINI RIVOJLANTIRISH

Kayumova Gulshan Asrorovna – O'ZJOKU
Mediadizayn kafedrasida dotsenti, Pedagogika
fanlari falsafa doktori
E-mail: gulshan.kayumova@mail.ru

Annotatsiya. Maqola fraktal pedagogikaning xususiyatlariga tayanib o'quv jarayonini tashkil qilishda shaxsiy va kasbiy o'z-o'zini rivojlantirishga bag'ishlangan. Unda shaxsiy va kasbiy o'z-o'zini rivojlantirish jarayoni fraktal xarakterga ega ekanligi bo'yicha takliflar berilgan. O'quv jarayonida fraktal pedagogikaning o'ziga-o'zi o'xshashlik, kasriylik, nomuntazamlilik, fraktal o'lcham va masshtablashtirish xususiyatlariga tayangan holda ma'ruza, seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida hamda mustaqil ta'limni tashkil qilishda o'qituvchi va talabalarning faoliyati yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Fraktal pedagogika, o'z-o'zini rivojlantirish, o'ziga-o'zi o'xshashlik, kasriylik, nomuntazamlilik, fraktal o'lcham, masshtablashtirish, muammoli o'qitish metodi.



Jahon miqyosida ta'lim sohasida fraktal pedagogika kabi kreativ yondashuvni amaliyotga keng tatbiq etish yo'nalishlarida samarali ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bunda ilg'or xorijiy tajribalar asosida bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda fraktal pedagogikaning tamoyillaridan qo'llab o'qitish alohida ahamiyat kasb etadi.


Respublikamiz oliy ta'lim tizimida "...ta'lim sifatini yaxshilash borasida ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish va amaliyotga tatbiq etish jarayonlarini jadallashtirish..." raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash va iqtisodiyotning rivojlanishida munosib hissa qo'shishiga, shu jumladan ta'limdagi islohotlar natijasida oliy ta'lim muassasasini xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar reytingining birinchi 1000 talikdagi oliy ta'lim muassasalari ro'yxatiga kiritishga katta e'tibor qaratilmoqda [1].

Tez o'zgaruvchan ijtimoiy-madaniy sharoitda o'z-o'zini rivojlantirish asosiy kompetensiyalardan biri hisoblanadi, chunki faol rivojlanayotgan mutaxassis kasbiy muhitning zamon muammolari va yangi talablariga javob bera oladi. Zamonamiz muammolarini falsafiy tushunishga imkon beradi: kelajak haqida ma'lum bo'lgan barcha narsa uning qanday bo'lishi ma'lum emas. Shu munosabat bilan mutaxassisni noaniqlik sharoitida harakat qilishga o'rgatish kerak. Doimiy o'zgaruvchan sharoitlarda nostandart vazifalarni hal etish samaradorligi shaxsiy va kasbiy o'z-o'zini rivojlantirish jarayoni va natijalari bilan bevosita bog'liq.

Jamiyatni raqamlashtirish va rivojlanayotgan global axborot tarmog'i shaxsiy rivojlanish va o'z-o'zini rivojlantirish jarayonlarini tubdan o'zgartiradi, ularning xususiyatlari va dominant vektorlarini belgilaydi. O'qituvchining o'z-o'zini rivojlantirishi integrativ ta'lim muhiti – o'zaro ta'sirlashuvchi mikroiqtisodiyotning makrosistemi, imkoniyatlari va talqinlari makrosistemasida amalga oshadi. Ta'lim tizimi sharoitida o'qituvchining shaxsiy va kasbiy o'z-o'zini rivojlantirish jarayoni tabiatda fraktaldir.

Shaxsiy va kasbiy o'z-o'zini rivojlantirish jarayoni fraktal xarakterga ega. Kontseptual darajada o'qituvchining shaxsiy va kasbiy o'z-o'zini rivojlantirish fraktali shaxsiy va kasbiy o'z-o'zini rivojlantirish tuyg'usiga asoslangan o'z-o'zini tashkil etish. O'z-o'zini tashkil qilish zamonaviy universal kompetensiya sifatida o'z his-tuyg'ularini, fikrlarini va hatti-harakatlarini boshqarish, shuningdek, maqsadlarni belgilash va ularga erishish qobiliyatini o'z ichiga oladi. O'z-o'zini takomillastirish va o'z-o'zini rivojlantirish jarayonini o'z-o'zini boshqarish bilan belgilanadi. Bunda o'xshashlik nafaqat ushbu jarayonning har bir tarkibiy qismidagi tashkiliy asos sifatida o'z-o'zini tashkil etishning ko'payishida, balki o'z-o'zini rivojlantirishning semantik asosining tub o'xshashligida ham mavjud. Ushbu o'xshashlik kontseptual jihatdan o'zini namoyon qiladi. Boshqacha qilib aytganda, asosiy kontseptual fraktal o'z-o'zini rivojlantirishning har qanday tarkibiy qismida o'zini takror ishlab chiqaradi va shu bilan asos bo'lib, kasbiy va

pedagogik taraqqiyotni ta'minlaydi. Bu asosiy kontseptual fraktal asosida o'z-o'zini rivojlantirishning protsessual tarkibiy qismlarining o'zaro bog'liqligini ochib beradi (1-rasm).



1-rasm. O'qituvchining shaxsiy va kasbiy o'z-o'zini rivojlantirish jarayonining asosiy kontseptual fraktali

O'qituvchining shaxsiy va kasbiy o'z-o'zini rivojlantirishning protsessual tarkibiy qismlarining o'ziga xos mazmuni, shuningdek, ushbu jarayonning har bir tarkibiy qismida o'z-o'zini tashkil etishning asosiy kontseptual fraktali takrorlanishi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Fraktal tamoyillarga asoslangan o'qituvchining shaxsiy va kasbiy o'z-o'zini rivojlantirishining zamonaviy o'quv jarayoni

Protsessual tarkibiy qismlari	Protsessual tarkibiy qismlarning mohiyati
Motivatsion komponent	O'z-o'zini rivojlantirishga ehtiyojlar va omillar
Loyihalash komponenti	O'z-o'zini rivojlantirishning istalgan natijasining subyektiv qiyofasi sifatida belgilash, maqsad omillar bilan o'qituvchi tomonidan belgilanadi.
Amaliy faoliyat komponenti	O'qituvchining tanlangan texnologiyalar asosida o'z-o'zini rivojlantirish natijalariga erishish bo'yicha harakatlari (vazifalarni hal qilish shartlari, shakllari, usullari va vositalari tizimi) tizimini yaratish.
Refleksiv komponent	O'z-o'zini rivojlantirish natijalarini baholash, tashqi va ichki mezonlari bo'yicha amalga oshirish.
Hissiy va kuchli irodali komponent	Zamonaviy o'quv jarayonida o'z-o'zini boshqarish, shaxsiy va kasbiy rivojlantirish.



Integral kasbiy rivojlantiruvchi ta'lim muhiti – o'qituvchining shaxs va mutaxassis sifatida o'z-o'zini rivojlantirish uchun cheksiz imkoniyatlar yaratadigan ochiq tizim. Integral ta'lim muhiti fraktal tuzilishini ochib beradi, o'z-o'zini tashkil etuvchi fraktal shakllanishiga aylanadi. Konseptual fraktallar algebraik yoki matematik o'xshashlikka ega bo'lmagan holda ijtimoiy-madaniy amaliyot shaklida ifodalanadi. Konseptual fraktal o'xshashlikni tushunchalar yoki aqliy tipdagi loyihalar shaklida namoyon qiladi [4].

Raqamlashtirish va ta'limning globallasuvi natijasida o'qituvchilarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishi uchun amalda cheksiz imkoniyatlarni aniqlaydi. Bunday sharoitda fraktal metodologiya o'z-o'zini rivojlantirishning mohiyatini, uning mexanizmlari va protsessual asoslarini chuqurroq anglashga imkon beradi. O'qituvchining shaxsiy va kasbiy o'z-o'zini rivojlantirishning metodologik asoslari fraktallar nazariyasi qonunlaridan foydalangan holda o'qituvchining malakasini oshirish trayektoriyalarini qurish uchun asosiy ko'rsatma bo'la oladi. Bunday qarash o'qituvchining mutaxassis sifatida o'z-o'zini rivojlantirish jarayonini integratsiyalashgan ta'lim tizimini sezilarli darajada yaxshilaydi[2].

Zamonaviy o'quv jarayonini takomillashtirishda o'qituvchining o'z-o'zini rivojlantirishini professional shaxs sifatida qo'llab-quvvatlashning asosiy vazifalari quyidagilardir:

1. Fraktal metodologiya asosida shaxsiy va kasbiy rivojlanish trayektoriyasini loyihalash va amalga oshirishda maslahat yordamini ko'rsatish;
2. O'qituvchiga o'z-o'zini rivojlantirish jarayonini tashxislashda va uning natijalarini tahlil qilishda yordam berish.

O'quv jarayonida fraktal pedagogikaning o'ziga-o'zi o'xshashlik, kasriylik, nomuntazamlilik, fraktal o'lcham va masshtablashtirish xususiyatlariga tayangan holda ma'ruza, seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida hamda mustaqil ta'limni tashkil qilishda o'qituvchi va talabalarning faoliyati.

O'quv jarayonida o'qituvchining faoliyati.

Ma'ruza mashg'ulotida:

- fraktallarning geometrik xususiyatlaridan kelib chiqib, fanlar doirasida mazmunli, tarkibiy, malakaviy hamda boshqa mutaxassislik fanlarini bilan bog'liqligini rekursiv tabiatiga asoslanib ta'lim jarayonini modeli sifatida qarash;
- ma'naviy ijodkor shaxs sifatida rivojlantirish;
- fikrlashning pozitivligi va ratsionalligi, konstruktiv va ijodiy dominantning mavjudligi;
- muammoli-ijodiy vazifalar tizimi va materialni o'zlashtirish jihatlari bilan bog'liq materialni translyatsiya qilishda dinamik vizuallashtirishning turli shakllari orqali talabaning qiymat-semantik sohasiga motivatsion ta'sirni bosqichma-bosqich kuchaytirish;



- mustaqillik, tashabbuskorlik va o'ziga xos g'oyalarni rag'batlantirish, buzg'unchi motivatsiyani aniqlashi va yo'q qilish;

- shaxsning bilimga nisbatan qiymat-semantik munosabatiga yo'naltirilgan psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash dasturini yaratish

Seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida:

- mantiqiy (chap yarim shar) va majoziy (o'ng yarim shar) fikrlashning funksional birligiga asoslangan ekologik jihatdan sog'lom ikki yarim sharli fikrlaydigan, ya'ni insonga dunyo, ilm, fan, mavzuning yaxlit tasavvurini yaratishga yordam beradigan fikrlash turini rivojlantirish;

- talaba shaxsining ichki resurslari, tabiat tomonidan unga xos bo'lgan potensial imkoniyatlarni aniqlash;

- idrokning asosiy sezish imkoniyatlari orqali ijodiy o'zaro ta'sirini rivojlantirish;

- o'quv jarayoni ishtirokchilari o'rtasidagi aloqa tizimi, jamoaviy tadqiqot faoliyatida funksional majburiyatlarni taqsimlash;

- talabalarni ijodkorlikka e'tiborini kuchaytirish, ijodiy muammolarni hal qilish uchun g'oyalarni izlash.

Mustaqil ta'limda:

- talabalarining qiziqishlari, qadriyatlari va motivlarini hisobga olib, ijtimoiy, intellektual va ijodiy faoliyatga jalb etish;

- talabaning qobiliyat, moyilligini hisobga olgan holda individual rivojlanish trayektoriyasini loyihalash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, bilim olish faoliyatining individual va jamoaviy natijalari uchun rag'batlantirish.

O'quv jarayonida talabaning faoliyati.

Ma'ruza mashg'ulotida:

- talabaning ma'naviy ijodkor shaxs sifatida rivojlanishi;

- fikrlashning pozitivligi va ratsionalligi, konstruktiv va ijodiy dominantning mavjudligi;

- fikrlarning jasorati, o'ziga xosligi, moslashuvchanligi, hissiy sezgirlik, xatti-harakatlar va faoliyatni moslashish strategiyalari;

- muammoli-ijodiy vazifalar tizimi va materialni o'zlashtirish jihatlar bilan bog'liq materialni o'zlashtirish, dinamik vizualizatsiyaning turli shakllari orqali o'z-o'zini rivojlantirishi;

- mustaqillik, tashabbuskorlik va o'ziga xos g'oyalarni shakllanishi, buzg'unchi motivatsiyalardan xolos bo'lishi;

- talaba o'z bilimga nisbatan qiymat-semantik munosabatiga yo'naltirilgan dastur asosida ishlashi.

Seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida:

- dunyo, ilm, fan, mavzuning yaxlit tasavvurini yaratishga yordam beradigan fikrlash turini rivojlanishi;



- talaba o'zida aniqlangan tabiiy xususiyatlarga tayangan holda potentsial imkoniyatlarni namoyish etishi;
- idrokning asosiy sezish imkoniyatlari foydalanib ijodiy qobiliyatlartining rivojlanishi;
- fikrlarning jasorati, o'ziga xosligi, moslashuvchanligi, hissiy sezgirlik, hatti-harakatlar va faoliyatni moslashish strategiyalari;
- jamoaviy tadqiqot faoliyatida funksional majburiyatlaridan kelib chiqib bilim va ko'nikmalarni egallashi;
- ijodkorlik e'tibori, ijodiy muammolarni hal qilish uchun g'oyalarni izlashi.

Mustaqil ta'limda:

- talabalar o'z qiziqishlari, qadriyatlari va motivlaridan kelib chiqqan holda ijtimoiy, intellektual va ijodiy faoliyatlarini rivojlantirishi;
- o'z-o'zini hurmat qilish, o'zini-o'zi qabul qilish va o'z bilimini yetarli darajada baholash, talabaning o'z bilimlari bilan bog'liq harakatlarni ixtiyoriy tartibga solish;
- fikrlarning jasorati, o'ziga xosligi, moslashuvchanligi, hissiy sezgirlik, hatti-harakatlar va faoliyatni moslashish strategiyalari;
- erishilgan natijalarning yetishmasligini anglash va ularni yaxshilash istagi, o'zini namoyon qilish, erishilgan yutuqlarini takomillashtirish va atrof-muhitga aksiologik moslashish zarurati.

O'qitish usullari – o'qituvchi va talabalarning ta'lim muammolarini hal qilishga qaratilgan birgalikdagi faoliyati usullari. Qabul qilish – bu usulning ajralmas qismi yoki alohida tomoni.

Muammoli o'qitish usuli mohiyatini o'qituvchi tomonidan ta'lim oluvchilarni o'quv ishlarida muammoli vaziyatni vujudga keltirish va o'quv vazifalarini, muammolarini va savollarini hal qilish orqali yangi bilimlarni o'zlashtirish bo'yicha ularning bilish faoliyatini boshqarishni tashkil etadi.

Muammoli o'qitish usuli maqsadi – nafaqat ilmiy bilishning natijalarini sinchiklab tahlil qilish, o'rganishdan iborat bo'lmay, ta'lim oluvchining bu natijalarini olish jarayonini o'rganishdan, bilish faoliyatini va uning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishdan iborat.

Muammoli o'qitish usulining bosqichlari:

- muammoli vaziyat;
- o'quv muammosi;
- o'quv muammosini yechish uchun izlanish;
- muammoni yechishda fan (mavzu) bo'yicha kalitli tezauruslarni aniqlash;
- muammoning yechilishi.

Muammoli o'qitish usulining umumiy funksiyalari:



- talabalar tomonidan aqliy faoliyat usullari va bilimlar tizimini o'zlashtirish;

- talabalarning bilish mustaqilligini va aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish;
- ajratilgan tezauruslarga nisbatan muammoli topshiriqlarni yaratish;
- didaktik fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish.

Muammoli vaziyat belgilari:

Muammoli o'qitish usulining texnologiyasi:

- ijodiy usul;
- qisman ijodiy usul;
- materialni muammoli bayon qilish usuli;
- shakllangan bilimlarni o'zlashtirilganligini nazorat etish va

vizuallashtirish;

- o'quv axborotlarining bayonini muammoli boshlash.

Muammoli o'qitish usuli darajalari:

- o'qituvchi o'zi muammoni qo'yadi, uni shakllantiradi, va talabalarni mustaqil ravishda uning yechilish yo'lini qidirishga yo'naltiradi, hamda ajratilgan tezauruslarni o'zlashtirsa (60%) minimal darajada bilimga ega bo'ladi va vizuallashtirishda tanlangan fraktal shaklning rangi bilan farqlanadi;

- o'qituvchi faqat muammoli vaziyatni yuzaga keltiradi, talabalar esa muammoni mustaqil shakllantiradilar, yechadilar, tezauruslarni o'zlashtirish hamda shakllangan bilimlarini hamkorlikda muhokama qiladilar;

Shunday qilib olib borilgan tadqiqot natijasida nafaqat zamonaviy o'quv jarayonida o'qituvchining shaxsiy va kasbiy o'z-o'zini rivojlantirish bo'yicha fraktal metodikasi, balki muammoli o'qitish usulini takomillashtirish fraktallarining o'z-o'zini rivojlantirish va bu jarayon amalga oshiriladigan muhit tasnifi ham ishlab chiqildi.

Zamonaviy o'quv jarayonida o'qituvchining shaxsiy va kasbiy o'z-o'zini rivojlantirishning fraktal mohiyatini to'liq tavsiflashni talab qilmaydi, balki bu muammoni yangi nuqtayi nazardan tushunish imkoniyati sifatida qaraladi. Taqdim etilgan fraktal metodika o'rganilayotgan obyekt kelajakda turli tadqiqotlar o'tkazish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Taklif: Oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislarni tayyorlashda fraktal pedagogika tamoyillaridan foydalanib ta'lim jarayoni ishtirokchilarining shaxsiy va kasbiy o'z-o'zini rivojlantirish, zamonaviy o'quv jarayonini fraktal tashkil etish, o'quv mashg'ulotlarini talabalarni innovatsion fikrlashga, o'quv jarayoniga kreativ yondashishga yo'naltiradigan muammoli o'qitish usullari joriy etish asosida, asosiy e'tiborni talabalarning o'z-o'zini rivojlantirishi bilan bog'liq mexanizmlarni amalga oshirish taklif etiladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni.
2. Anarova Sh.A., Beknazarova S.S., Qayumova G.A. Zamonaviy o'quv jarayonini takomillashtirishda pedagogning shaxsiy va kasbiy o'z-o'zini rivojlantirishning fraktal metodologiyasi. // Zamonaviy ta'lim, №5 (102). 2021. – 9-16 b.
3. Qayumova G.A. Design of computer graphics on the basis of fractal information model. // Galaxy international interdisciplinary research journal (GIIRJ) ISSN (E): 2347-6915. Vol. 10, Issue 6, America, 2022. – P. 316-323
4. Маджуга А.Г. Концептуально-теоретические основы фрактальной педагогики как новой области социально-гуманитарного знания/А.Г. Маджуга, И.А. Синицина, Э.В. Филипенко // Научный диалог. 2015. №12(48). – С.450–459.
5. Тўраев Б.З. Информатика ва ахборот технологиялари соҳаси педагогларининг умумқасбий фанлар интеграциясида касбий компетентлигини шакллантириш. Дис. 13.00.02. – Т.: 2018.

DARS JARAYONIDA TA'LIM TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATLI JIHATLARI

Kenjayeva Muhayyo Abdumurodovna – Yangi asr universiteti Maktab va maktabgacha ta'lim kafedrası dotsenti, PhD

Annotatsiya. Ushbu maqolada ona tili fanida tayanch va lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirishda ta'lim texnologiyalarning o'rni, qo'llanilish ahamiyati, tanishuv texnologiyasi natijasida o'quvchilarning qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish, muloqot yuritishdagi to'siqlarni bartaraf etishga yordam berishi hamda matnni tahlil qila olish va muomala qilish ko'nikmalarini takomillashtirish to'g'risida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: tayanch va lingvistik kompetensiya, tanishuv texnologiyasi, matn tahlili, muomala qilish ko'nikmalari, o'quvchi qobiliyati, do'stona munosabat va erkin fikrlash.

Jahonning bir qancha ilg'or mamlakatlarida hamda O'zbekiston Respublikasi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalarida tayanch va lingvistik



kompetensiyaning inson muloqot amaliyoti va faoliyatidagi ahamiyati, tilni o'rganishda testlardan foydalanishga kommunikativ yondashuvlar va uni innovatsion pedagogik texnologiyalar yordamida shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Dunyo miqyosida ta'lim sifatini oshirish, modulli ta'limni tashkil qilish, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan foydalangan holda o'qitishning ilg'or uslublarini joriy qilish orqali ta'limni axborotlashtirish sharoitida o'quvchilarda kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasining tizimi ishlab chiqilgan. Birlashgan Millatlar Tashkilotining ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha "Ma'rifiy, ilmiy va madaniy mazmundagi materiallarni olib kirish" to'g'risidagi bitimida dunyo miqyosida o'quvchilarni o'qitish sifatiga nisbatan teng sharoitlar yaratish, ta'lim jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish dolzarb vazifa qilib qo'yilmoqda [1;26-b].

Respublikamiz ta'lim muassasalarida o'quvchi-yoshlarning erkin, mustaqil fikrlashi, atrofdagi voqelikka ongli munosabatda bo'lishi, daxldorlik va ijtimoiy faollikni yanada rivojlantirish borasida ta'limning sifat samaradorligini oshirishga ahamiyat berilmoqda. Bu esa shaxsning intellektual qirralarini shakllantirishda, uning ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ma'rifiy hayotida faol va muvaffaqiyatli ishtirokini ta'minlashga zamin yaratadi.

Ferdinand de Sossyur tilshunoslik fanining asosiy vazifasi til lingvistikasini o'rganishdir [3;76-b], deb ta'kidlaydi. U lingvistikani ichki va tashqi lingvistikaga ajratib, ularni bir-biriga qarama-qarshi qo'ydi, tilshunoslik fanining asosiy vazifasi ichki lingvistikani o'rganishi kerak deb hisobladi. Bu fan qadimdan yozuvni yaratish, o'qitish, boshqa tillarni tushunish kabi amaliy ehtiyojlarni qondirish uchun xizmat qilgan. Hozirda esa uning amaliy ahamiyati yanada ortib, ona tilini o'qitish, chet tillarni o'rgatish, tarjima qilish, o'qitishni dasturlash kabi masalalar ham bu fanning vazifalariga aylandi.

X.Q.Qurbonova "Ona tili ta'limi mazmunini yangilashning lingvometodik asoslari" mavzusidagi ilmiy ishida ona tilida ta'lim mazmunini yangilashda bir necha metodlardan foydalanishning ahamiyatini yoritishga harakat qilgan [4;79-b]. Ona tili darslarida o'quvchilarning ijodiy faoliyati qancha taraqqiy ettirilsa, ular o'z oldiga qo'yilgan aqliy vazifalarni shuncha qiynalmasdan bajaradilar. O'quvchi topshiriqlarni ishlash sirlarini o'rganib borgan sari, unda ijodiy fikr yuritish qobiliyati shakllanadi. Shuning uchun ona tili darslarida 6-sinflarda tayanch va lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirish o'quvchilarning chuqur bilim olishlariga imkoniyat yaratibgina qolmay, nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llashga imkon beradi. Shunday ekan, ona tili darsliklariga kiritilgan har bir mavzu va topshiriqlar, avvalo, shu maqsadga qaratilgan bo'lishi lozim.

O'quvchilar egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini bevosita kundalik hayotida qo'llashga o'rgatadigan kompetensiyaviy yondoshuvga asoslangan



davlat ta'lim standarti ta'lim jarayoniga qo'llanilmoqda. Kompetensiyaviy ta'lim o'quvchilarning ma'lum bilimlar yig'indisini egallashnigina emas, balki shaxsni rivojlantirish, anglash va yaratish qobiliyatlarini o'stirishni mo'ljallaydi. Til ta'limini o'zlashtirish jarayonida o'quvchilarda shu fanning o'ziga xosligi mazmunidan kelib chiqqan holda tayanch va har bir fanga doir kompetensiyalarni egallashi belgilangan. Bu tayanch kompetensiyalar quyidagilardan iborat:

Kommunikativ kompetensiya – o'quvchining ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida hamda birorta xorijiy tilda muloqotga kirisha olishi, muomala madaniyatiga amal qilishi, moslashuvchan va hamkorlikda jamoada samarali ishlay olish layoqatiga ega bo'lishini nazarda tutadi.

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi – darslik, o'quv qo'llanma va mediamanbalar (radio, televizor, internet va boshqalar)dan zarur ma'lumotlarni izlab topa olish, saralash, qayta ishlash, saqlash, ulardan samarali foydalana olish, media madaniyatga ega bo'lish;

10. Муратов Х.Х. Ўқув жараёнида мустақил таълимни ташкил этиш ва бошқаришнинг долзарблиги // Муқаллим ҳам узлуксиз билимлендирий. – Нукус, 2021. №3. – B.61–65. (13.00.00. №20).
11. Muratov, Kh.Kh. Achieving educational efficiency through organizing, managing and supervising independent education of fine arts. Current research journal of pedagogics. – USA, 2023. – Issue: 5(4). – P. 20-27 (Scientific Journal Impact Factor. 7.266).
12. Muratov X.X. Tasviriy san'at fanlaridan mustaqil ta'limni tashkil etish, boshqarish va nazorat qilish orqali ta'lim samaradorligiga erishish // Kasb-hunar ta'limi. – Toshkent, – 2023. – №3. –B. 225–231. (13.00.00. №19).
13. www.lib.cspi.uz
14. <https://fineart.cspu.uz/2024/4/index.html>.
15. <https://play.google.com/store/apps/details?id=com.uzmobdev.art&hl=ru&gl=US>

O'QUVCHILARNING DASTURLASHGA OID ALGORITMIK FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHDA MUAMMOLI TA'LIM TEKNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Murtazoyeva Sevara Mustafo qizi – Navoiy viloyati Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi, Informatika va AT fani metodisti

E-mail: murtzoyevasevara654@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'quvchilarning dasturlashga oid algoritmik fikrlashini rivojlantirishda muammoli ta'lim texnologiyasidan foydalanishga oid taklif va tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: o'quvchi, dasturlash, algoritmik fikrlash, muammoli ta'lim, muammoli topshiriq, muammoli vaziyat.

Bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablarida Informatika va AT fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish, zamonaviy innovatsion texnologiyalar asosida o'qitish samaradorligini oshirish, fanga oid didaktik materiallarning imkoniyatlaridan foydalangan holda o'quv mashg'ulotlarning samaradorligini oshirish mexanizmlarini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda [1].

Shu bois uzluksiz ta'lim tizimida informatika turkumiga kiruvchi fanlarni, xususan, dasturlash texnologiyasini o'qitish metodikasini takomillashtirishga oid yangicha yondashuvlarni ishlab chiqish davr talabiga aylanmoqda.

Shu bilan birga dasturlash tillarining takomillashuvi tufayli o'quvchilarning dasturlashga oid algoritmik fikrlashini rivojlantirishda muammoli ta'limdan foydalanish metodikasini takomillashtirish zarurati paydo bo'lmoqda [2].

Muammoli ta'lim texnologiyasini joriy etishning nazariyasi va amaliyotiga oid dastlab J.Dyui, S.L.Rubinshteyn, D.N.Bogoyavlenskiy, N.A.Menchinskaya, A.M.Matyushkin, A.A.Matyushkina kabi, bundan so'ng M.A.Danilov, M.N.Skatkin, V.T.Kudryavsev, Y.K.Babanskiy, M.I.Maxmutov, I.Y.Lerner kabi olimlar tomonidan tadqiqotlar olib borgan.

Shu bilan birga, bugungi kunda uzluksiz ta'lim tizimida muammoli ta'limdan foydalanish metodikasiga oid tadqiqotlar mamlakatimiz va Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligida A.A.Abduqodirov, F.I.Zakirova, D.I.Yunusova, J.O.Tolipova, D.M.Maxmudova, M.A.Goncharova, N.V.Reshetnikova, S.I.Brizgalova, G.K.Selevko, Y.Y.Rudnitskaya, L.V.Pilipets, A.M.Galimov, O.A.Prusakova, D.N.Butorin, kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Ularning ilmiy tadqiqotlarida o'quvchilarning muammoli tafakkurini shakllantirish, muammoli o'qitishda kompyuter modellaridan foydalanish,



informatika kursida axborot texnologiyalari bo'yicha muammoli ta'limning o'quv-uslubiy ta'minotini ishlab chiqish va uni ta'lim jarayonida qo'llashga oid izlanishlar olib borilgan.

Jumladan, Y.Y.Rudnitskayaning tadqiqotida o'quvchilarning muammoli tafakkurini shakllantirishning didaktik modelini yaratgan. U ta'lim mazmunini, o'qitish usullarini, o'quv jarayonini tashkil etish shakllarini va muammoli ko'nikmalar tizimini shakllantirish uchun maqbul shart-sharoitlarni ta'minlaydigan vositalarni tanlash mezonlarini ishlab chiqqan [3]. L.V.Pilipetsning tadqiqotida boshlang'ich sinflarda fizika fanini paradokslardan foydalangan holda muammoli o'qitish texnologiyasi ishlab chiqilgan [4]. A.M.Galimovning ishlarida tabiiy fanlarni o'qitish samaradorligini oshirishda muammoli ta'lim texnologiyasiga asoslangan kompyuter modellari ishlab chiqilgan. Shu bilan birga, muammoli ta'limda kompyuter ta'limi modellaridan samarali foydalanishning didaktik shartlari majmui ishlab chiqilgan va asoslangan [5].

Bu kabi fikrlar O.A.Prusakovaning ilmiy izlanishlarida ham uchraydi. Uning tadqiqotida tayanch maktabda axborot texnologiyalarini o'qitishda muammoli vaziyatlarning yuzaga kelish mexanizmlari va asosiy xarakteristikalar (hayotiylik, qiyinchilik, noaniqlik, samaradorlik, dinamiklik) aniqlangan hamda ta'limni axborotlashtirish sharoitida boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalarini muammoli o'qitishning didaktik tamoyillari alohida ajratib ko'rsatilgan, ularning mazmuni va o'ziga xos jihatlari aniqlashtirilgan [6]. Shu bilan birga, D.N.Butorinning tadqiqotlarida o'quvchilarning mehnat unumdorligi darajasini oshirish imkonini beruvchi maxsus tarmoq ITSdan foydalangan holda informatika o'quvchilarini muammoli o'qitish metodikasini amalga oshirishga yondashuv asoslab berilgan. Shuningdek, muammoli vaziyatlarni hal qilishda, o'quv jarayonini an'anaviy va masofaviy rejimlarda boshqarish uchun kiritilgan algoritmlardan foydalangan holda o'qitishni individuallashtirish, intellektual ta'lim tizimlari yordamida amalga oshirilishi mumkin bo'lgan muammoli vaziyatlarning turlari, shuningdek, ularni shakllantirish bosqichlari ishlab chiqilgan [7].

Yuqorida qayd etilgan olimlarning ishlarida ta'lim muassasalarining ta'lim va tarbiya jarayonida muammoli ta'lim texnologiyasidan foydalanish orqali o'quvchi-o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini, algoritmik fikrlashini rivojlantirish mumkinligini ilmiy asoslab bergan.

Shu bois, umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarning dasturlashga oid algoritmik fikrlashini rivojlantirishda muammoli ta'lim texnologiyasidan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Buning uchun dastlab muammoli ta'lim texnologiyasi tushunchasiga aniqlik kiritish lozim.

Xususan, V.Okon muammoli ta'lim tushunchasiga "muammoli vaziyatlarni tashkil etish, muammolarni shakllantirish, muammolarni

yechishda o'quvchilarga zarur yordam ko'rsatish, bu yechimlarni tekshirish va nihoyat, o'zlashtirilgan bilimlarni tizimlashtirish va mustahkamlash jarayonini boshqarish kabi harakatlar majmui" deb ta'rif beradi [8].

Ilmiy tadqiqot natijalarini tahlil qilish asosida M.I.Maxmutov "muammoli ta'lim" tushunchasiga quyidagicha ta'rif beradi: "Muammoli ta'lim" – rivojlantiruvchi ta'lim turi bo'lib, u ta'lim oluvchilarning tizimli mustaqil izlanish faoliyatini, fanning tayyor xulosalarini o'zlashtirish bilan uyg'unlashtiradi va bunda metodlar tizimi maqsad qo'yish hamda muammolilik tamoyilini hisobga olgan holda tuziladi. Bunda o'qitish va ta'limning o'zaro ta'siri jarayoni o'quvchilarning bilimlarni mustaqil shakllantirishiga, ilmiy tushunchalar va faoliyat usullarini o'zlashtirish jarayonida o'quv motivlari, aqliy (shu jumladan ijodiy) qobiliyatlarning barqarorligiga qaratilgan muammoli vaziyatlar tizimi bilan belgilanadi [9].

G.K.Selevko ta'rifiga ko'ra, muammoli ta'lim – muammoli masalani o'z ichiga olgan vaziyatlarni yaratishga asoslangan va maktab o'quvchilarining faol aqliy faoliyatiga hissa qo'shadigan usullar bo'lib, bilimlarni rivojlantirishni, tahlil qilishni, alohida fakt va hodisalarning asl mohiyatini, ularni tartibga soluvchi qonuniyatlarni ko'ra bilishni talab qiladigan murakkab masalalarni izlash va hal etishdan iborat [9].

J.O.Tolipova muammoli ta'limni "o'qituvchi tomonidan pedagogik ta'sir ko'rsatishning eng muqobil variant yordamida, fikr yuritish qonuniyatlariga tayangan holda, o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish jarayonida fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va bilish ehtiyojini qondirish maqsadiga yo'naltirilgan, shaxsning umumiy va maxsus rivojlanishiga zamin tayyorlaydigan jarayon" deb ta'riflaydi [10].

Keltirilgan ta'riflar asosida shuni aytish mumkinki, muammoli ta'lim – bu rivojlantiruvchi ta'lim turlaridan biri bo'lib, uning mazmuni turli murakkablikdagi muammoli topshiriqlar tizimidan iborat bo'lib, ularni bajarish jarayonida o'quvchilar yangi bilim va harakat usullarini o'zlashtiradilar. Bu jarayonda ularning tasavvur, kognitiv motivatsiya, algoritmik va samarali fikrlash kabi ijodiy qobiliyatlari shakllanadi.

Shu bilan birga muammoli ta'lim deganda, muammoli topshiriqlar va vaziyatlarni shakllantirishga asoslangan holda muammoli vaziyatlarni hamda vazifalarni shakllantirish, bu muammolarni hal qilishda o'quvchilarni nazorat qilish, yechimlarni tekshirish, olingan bilimlarni tizimlashtirish va mustahkamlash jarayonini boshqarish kabi o'zaro bog'liq harakatlar majmui tushuniladi.

Muammoli ta'limda o'qituvchi bilimlarni tugallangan shaklda yetkazmaydi, balki o'quvchi oldiga vazifa qo'yadi, uni qiziqtiradi, hal qilish vositalarini topish istagini uyg'otadi. Bu vositalar va usullarni izlashda o'quvchi

yangi bilimlarni egallaydi. Mazkur jarayonda o'quvchilarda mantiqiy va algoritmik fikrlash shakllanadi.

Algoritmik fikrlashni rivojlantirishning eng samarali usullaridan biri bu muammoli ta'limdir, chunki u ijodiy faoliyatga yaqin bo'lib, gipoteza, dalillar va eksperimentlardan foydalanish bilan tavsiflanadi.

Bu borada bir qator tadqiqotchi olimlar, jumladan, V.Okon, I.Y.Lerner, M.I.Maxmutov, T.V.Kudryavsev algoritmik hamda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish uchun muammoli ta'lim usulini taklif qiladi.

Ularning fikrlariga ko'ra, muammoli vaziyatlar fanning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda hosil qilinadi. Shu bilan birga o'quvchilarning egallagan bilimlariga mos ravishda muammoli vaziyat yaratiladi. Bunda o'quvchilar faktlarga qarama-qarshi bo'lgan xulosaga keladi. Shu bilan birga, hosil bo'lgan qarama-qarshilikni bartaraf etish uchun qo'shimcha ma'lumot talab etiladi. Muammoli vaziyatning bunday ko'rinishi o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otadi. Shu sababli bu jarayonda samaradorlik yuqori hisoblanadi.

Muammoli usullar muammoli vaziyatlarni yaratishga, bilimlarni yangilashni, tahlil qilishni, alohida faktlar ortidagi hodisalar va qonuniyatlarni ko'rish qobiliyatini talab qiladigan murakkab masalalarni topish va hal qilishdan iborat bo'lgan o'quvchilarning faol bilish faoliyatiga asoslanadi.

O'qituvchi muammoli vaziyat yaratadi, o'quvchilarni uni yechishga yo'naltiradi, yechim izlashni tashkil qiladi. Yechim topish jarayonida o'quvchi yangi bilimlarni o'zlashtiradi, u harakat qilishning yangi usullarini o'rganadi.

O'qituvchilar va o'quvchilarning o'zaro munosabatlarini turiga qarab, muammoli ta'limni shartli ravishda to'rtta darajasini ajratib ko'rsatish mumkin (dasturlash sohasida qo'llanilishi):

1. Mustaqil bo'lmagan faoliyat bosqichi. Bunda o'qituvchi tomonidan takrorlanuvchi jarayonlarga oid nazariy bilimlar va turli masalalarning dastur kodi o'quvchilarga taqdim etiladi. Ushbu nazariy ma'lumotlarni va dastur kodlarini berishda kompyuterning taqdimotli dasturlardan va video darslardan foydalaniladi.

2. Yarim mustaqil faoliyat bosqichi. Ushbu bosqichda takrorlanuvchi masalalarning dastur kodini bir qismi berilmay taqdim etiladi. Bunda o'quvchilar dasturlashga oid mustaqil fikr yuritish va muammoli vaziyat hosil qilish asosida dastur kamchiligini topishga harakat qiladi.

3. Mustaqil faoliyat bosqichi. Bu jarayonda o'quvchilar o'zlashtirgan bilimlaridan yangi vaziyatlarda foydalanadi. Bunda o'quvchilar o'rtacha murakkablikdagi dasturlar tuzadi, o'qituvchi tomonidan tavsiyalar deyarli berilmaydi.

4. Ijodiy faoliyat bosqichi. Bu jarayonda ijodiy yondashuv, algoritmik va mantiqiy fikrlashni talab qiladigan mustaqil ishlarni bajarish, berilgan

muammoni yechishning yangi yo'llarini topish, mustaqil isbotlash amalga oshiriladi. Ushbu bosqichda o'qituvchi bergan topshiriqqa o'quvchilar o'zlari yechim izlaydi va bu jarayonga ijodiy yondashadi.

Dasturlashni o'qitishda taklif etilayotgan yondashuv muammoli vaziyatlarni shakllantirish bilan bog'liq. Bunday usul dasturlashni o'qitish sifati samaradorligini yanada oshiradi, o'quvchilarning dasturlashga oid algoritmik fikrlashini rivojlantirishda ma'lum darajada xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Норбеков А.О. Педагогика олий таълим муассасаларида компьютер таъминоти фанини ўқитиш самарадорлигини ошириш методикаси // Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тайёрланган Диссертация. – Қарши, 2021. –171 б.
2. Tokhirov F.J. Algorithmic Thinking of Students in Program using Electronic Learning Resources Principles in Development // Kresna Social Science and Humanities Research. – 2022. – Т. 3. – С. 93-94.
3. Рудницкая Е.Е. Формирование проблемного мышления студентов // Дисс... на соиск. учен. степ, канд. пед. наук. – Киров, 1999.– 198 с.
4. Пилипец Л.В. Проблемное обучение физике на основе парадоксов и софизмов учащихся 7 — 9 классов // Дисс... на соиск. учен. степ, канд. пед. наук. – Тобольск, 2010.– 170 с.
5. Галимов А.М. Дидактические условия применения компьютерных моделей в процессе проблемного обучения // Дисс... на соиск. учен. степ, канд. пед. наук. – Казань, 1999.– 198 с.
6. Прусакова О.А. Учебно-методическое обеспечение проблемного обучения информационным технологиям в основной школе // Дисс... на соиск. учен. степ, канд. пед. наук. – Рязань, 2012.– 177 с
7. Буторин Д.Н. Методика проблемного обучения студентов информатике на основе сетевой интеллектуальной обучающей системы // Дисс... на соиск. учен. степ, канд. пед. наук. – Красноярск, 2008.– 230 с.
8. Оконь В. Основы проблемного обучения. – М.: Просвещение, 1968. – 326с.
9. Селевко Г.К. Энциклопедия образовательных технологий. Т. 1. – М.: Народное образование, 2005.
10. Tolipova J.O. Biologiyani o'qitishda pedagogik texnologiyalar // Oliy ta'lim muassasalari o'quvchilari uchun darslik. – Toshkent: "Nizomiy nomidagi TDPU", 2011. – 159 b.



TAYYORLOV GURUHIDAGI (6-7 YOSH) BOLALARGA AQLIY TARBIYA BERISHDA OILA BILAN MTT HAMKORLIGINING MUHIMLIGI

Najmiddinova Shaxnoza Shamshiddin qizi – Qo'qon
Universiteti 2-bosqich talabasi

E-mail: najmiddinovashaxnoza26@gmail.com

Annotatsiya. Maqola bolalar (6-7 yosh) tayyorlov guruhida aqliy tarbiya jarayonida oila va maktabgacha ta'lim tashkilotlari (MTT) hamkorligining ahamiyatini tadqiq etadi. Bolalarning aqliy rivojlanishi, ularda mantiqiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish uchun oila va MTT o'rtasidagi mustahkam aloqalar va hamkorlik zarurligini ta'kidlaydi. Maqolada oilaning ta'lim jarayonidagi roli, ota-onalar bilan hamkorlikning usullari, MTTning o'quv dasturlariga oilalarni jalb etishning samarali yo'llari muhokama qilinadi. Shuningdek, maqola oila va MTT hamkorligi orqali bolalarning psixologik va ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan amaliy tavsiyalarni o'z ichiga oladi. Maqola pedagoglar, ota-onalar va ta'lim sohasidagi mutaxassislar uchun foydali bo'lib, bolalarning aqliy rivojlanishida oilaviy va ta'limiy muhitning o'zaro bog'liqligini yoritadi.

Kalit so'zlar: aqliy tarbiya, maktabgacha ta'lim, oila va MTT hamkorligi, bolalar rivojlanishi, mantiqiy fikrlash, tanqidiy fikrlash, ota-onalar bilan hamkorlik, psixologik rivojlanish, ijtimoiy rivojlanish, ta'lim jarayoni.

Kirish. Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy rivojlanishi dastlab muomalada bo'lish, narsalar bilan bajariladigan faoliyat natijasida, keyin esa o'quv, mehnat, samarali faoliyatlar jarayonida amalga oshiriladi. Hozirgi zamon pedagogika fani bilimlar sistemasini o'zlashtirish, ularni jamg'arish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish hamda yangi bilimlar hosil qilish uchun zarur bo'lgan bilish faoliyati usullarini egallab olishni aqliy rivojlanishning asosiy ko'rsatkichlari hisoblaydi. Aqliy tarbiyaning vazifasi uning mazmuni, metodi va tashkil etilishiga qarab belgilanadi.

Keyingi yillarda olib borilgan psixologik-pedagogik tadqiqotlar natijalari maktabgacha ta'lim yoshi davrida bolalarning aqliy rivojlanishida katta imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi. Bu bilim, malaka va ko'nikmalarni yanada chuqurlashtirish va hajmini kengaytirish maqsadga muvofiqdir. Maktabgacha ta'lim yoshining oxiriga kelib, bolalar tevarak-atrof to'g'risida katta hajmdagi eng oddiy bilim va tushunchalarga ega bo'ladilar, asosiy fikrlash jarayonlarini egallab oladilar, narsa va buyumlardagi muhim va muhim bo'lmagan tomonlarini ajrata oladigan, sabab natijali bog'lanishlarni bilib oladigan



bo'ladilar. Shuning uchun bog'cha yoshidan boshlab rivojlantirib borish katta ahamiyatga ega.

Maktabgacha ta'lim yoshining dastlabki bosqichlarida bolalarda tasavvur ta'limi bo'ladi. Hayotiy tajribaning ortishi va tafakkurning rivojlanishi bilan ijodiy xayol tarkib topadi. Kichik maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar uchun ko'rgazmali-harakatli, ko'rgazmali-obrazli tafakkur xosdir. Buning asosida so'z, mantiqiy tafakkur, tushunchali tafakkur rivojlantiriladi. Tarbiyachi bolalarda analitik-sintetik tafakkur faoliyatini tarkib toptirishi kerak, bu hodisalarni chuqur anglab olish, ularni muhim va muhim bo'lmagan tomonlarini ajratishga o'rgatish zarur.

Qiziquvchanlik bolaga xos xususiyatdir. U bolani tevarak-atrofdagi voqea-hodisalarga, narsa va buyumlarga qiziqish bilan qarashga, hamma narsani ushlab, his qilib, diqqat bilan tomosha qilishda namoyon bo'ladi. Tarbiyachi kuzatishlarni tashkil etib, bolalarda paydo bo'lgan savollarga o'z vaqtida javob berishga harakat qilishi, ularni fikrini mustaqil javob qidirishga yo'llashi kerak. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda qiziquvchanlikning susayishiga yo'l qo'ymaslik lozim. Aqliy tarbiyaning vazifasi bolalar qiziquvchanligini rivojlantirish, aqlining sinchkovligini oshirish va bilishga qiziqish hosil qilishdan iborat.

Mavzu yuzasidan muhokamalar va natijalar. Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy rivojlanishida oila va maktabgacha ta'lim tashkilotlari (MTT) hamkorligining ahamiyati yoritiladi. Bolalarning aqliy rivojlanishi dastlab muomalada bo'lish va narsalar bilan bajariladigan faoliyat orqali boshlanadi, keyinchalik esa o'quv, mehnat va samarali faoliyatlar jarayonida davom etadi. Maqola hozirgi zamon pedagogika fani bilimlar sistemasini o'zlashtirish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish va yangi bilimlar hosil qilish uchun zarur bo'lgan bilish faoliyati usullarini egallab olishni aqliy rivojlanishning asosiy ko'rsatkichlari sifatida ko'rsatadi.

Psixologik-pedagogik tadqiqotlar natijalari maktabgacha ta'lim yoshi davrida bolalarning aqliy rivojlanishida katta imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi. Maktabgacha ta'lim yoshining oxiriga kelib, bolalar tevarak-atrof to'g'risida keng bilim va tushunchalarga ega bo'ladi, asosiy fikrlash jarayonlarini egallaydi va sabab-natijali bog'lanishlarni tushunadi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda tasavvur ta'limi, ko'rgazmali-harakatli va ko'rgazmali-obrazli tafakkur rivojlantiriladi. Qiziquvchanlik bolalarning aqliy rivojlanishini harakatga keltiruvchi qudratli kuchdir va tarbiyachilar bolalarning qiziquvchanligini rag'batlantirib borishlari kerak.

Aqliy tarbiyaning vazifalari bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Bolalarning aqliy faolligi va mustaqilligini rivojlantirish, aqliy malaka va ko'nikmalarini egallash, ularni maktabda muvaffaqiyatli o'qishlari uchun zarur. Aqliy faoliyat tahlil, qiyoslash,



umumlashtirish kabi aqliy harakatlarni shakllantirishni o'z ichiga oladi. Aqliy mehnat madaniyati umumiy tartiblilik, rejalilik, vazifani qabul qilish va hal etish usullarini tanlash, harakat rejasini izchil amalga oshirish va natijalarni baholash mahoratlarini o'z ichiga oladi.

Aqliy tarbiya yoshlarga aqlni rivojlantirish maqsadida muntazam va maqsadga muvofiq tarzda pedagogik ta'sir ko'rsatishni o'z ichiga oladi. Bu jarayon yosh avlodning insoniyat to'plagan bilimlar, malaka va ko'nikmalarni, qoidalarni o'zlashtirish orqali ijtimoiy-tarixiy tajribani egallashini ta'minlaydi. Kattalar tomonidan amalga oshiriladigan bu ta'sir bolalarning aqliy rivojlanishini ta'minlovchi xilma-xil vositalar, metodlar va sharoitlarni yaratishni talab etadi. Odamning aqli va aqliy rivojlanishi bilimlar hajmi, xususiyati va mazmunida namoyon bo'ladi, bu esa aqliy faoliyatning jo'shqinligi, mustaqil ijodiy bilishga intilish bilan belgilanadi.

Aqliy faoliyat diqqatning har doim ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan bo'lishini talab etadi. Kishining aqli uning asosiy faoliyatida erishgan muvaffaqiyati xususiyati bilan belgilanadi. Aqliy tarbiya yetuk, o'tkir zehni, zukko va zakovatli insonlarni tarbiyalaydi, ularni xalq donishmand kishilar deb ataydi. Donishmandlik insonning eng buyuk va olijanob fazilatidir, bu fazilat har kimga ham nasib etavermaydi.

Aqliy tarbiyaning maqsadi bolalarda analitik va sintez qobiliyatlarni rivojlantirish, ularni maktab ta'limiga tayyorlashdir. Bu jarayon bolalarda qiziquvchanlikni rag'batlantirish va bilishga qiziqish hosil qilishni o'z ichiga oladi. Shuningdek, aqliy tarbiya bolalarni aqliy faoliyatning asosiy harakatlarini shakllantirish, ularni tahlil qilish, qiyoslash va umumlashtirishga o'rgatishni talab etadi.

Tarixiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, donolik insonning eng buyuk va olijanob fazilatidir. Buyuk olimlar va donishmand kishilar ilm-fan sohasida yuksak yutuqlarga erishganlar va ular o'z davrining e'tiborli kishilari darajasiga ko'tarilganlar.

Tayyorlov guruhidagi 6-7 yoshli bolalar uchun aqliy tarbiya jarayoni juda muhimdir, chunki bu yoshda bolalar tez rivojlanish vaqtidan o'tmoqda. Bu jarayonda oila va maktabgacha ta'lim muassasalarining (MTT) samarali hamkorligi bolaning aqliy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

1. Hamkorlikning ahamiyati

Aqliy tarbiya asoslari

Aqliy tarbiya bolalarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, muammolarni hal qilishda mustaqil va ijodiy yondashish, hamda bilimlarni chuqurroq va kengroq egallashiga yo'naltirilgan. Bu jarayon bolaning kelajakdagi muvaffaqiyati uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi.

Oila roli



Oila bola tarbiyasining dastlabki va eng muhim muhitidir. Oiladagi muhit, ota-onalarning tarbiya usullari va o'zaro munosabatlari bola aqliy rivojlanishiga bevosita ta'sir qiladi. Ota-onalar bolaning bilim va ko'nikmalarini mustahkamlashda, kitob o'qish, o'yinlar o'ynash va bilimli suhbat-u muhokamalarda ishtirok etish orqali qo'llab-quvvatlaydi.

MTT roli

Maktabgacha ta'lim muassasalarida pedagoglar bolalarga bilim berish, ularning aqliy rivojlanishini kuzatish va rivojlantirish uchun maxsus tayyorlangan metodika va dasturlar asosida ishlaydi. Pedagoglar bolalarning qobiliyatlarini rivojlantirishda va ularga zaruriy bilimlarni berishda muhim rol o'ynaydi.

2. Hamkorlikning amalga oshirilishi

Oila va MTT o'rtasidagi aloqa

Oila va MTT o'rtasidagi muntazam aloqa va hamkorlik bolalarning aqliy rivojlanishi uchun zarurdir. Bu jarayon quyidagi usullar orqali amalga oshirilishi mumkin:

- Ota-Onalar yig'ilishlari: Ota-onalar va pedagoglar muntazam ravishda yig'ilib, bolalarning rivojlanishi haqida ma'lumot almashishlari va kelgusida amalga oshiriladigan rejalarni muhokama qilishlari kerak.

- Uy vazifalar: Pedagoglar ota-onalarga uyda amalga oshirilishi mumkin bo'lgan o'quv mashg'ulotlarini tavsiya etishi va ularga yordam berish usullarini ko'rsatishi mumkin.

- Ochiq darslar: Ota-onalarni ochiq darslarga taklif qilib, ularni ta'lim jarayoniga jalb qilish va bolalarning o'quv jarayonini kuzatish imkoniyatini yaratish kerak.

MTT tomonidan ota-onalarni qo'llab-quvvatlash

- Metodik qo'llanmalar: Ota-onalarga bolalarning aqliy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash uchun metodik qo'llanmalar taqdim etish.

- Muloqot va konsultatsiyalar: Pedagoglar ota-onalarga bolalarning aqliy rivojlanish jarayoni haqida maslahat berish va ularni qiziqtirgan savollarga javob berishlari mumkin.

3. Hamkorlikning natijalari

Bolalarning aqliy rivojlanishi

Oila va MTT o'rtasidagi samarali hamkorlik natijasida bolalarning aqliy rivojlanishi yaxshilanadi. Bolalar kengroq bilim olish, mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Ijtimoiy moslashuv

Bola ijtimoiy muhitga yaxshiroq moslashadi, o'qituvchi va ota-onalar o'rtasidagi birlik uning o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Uyg'un tarbiya

Oila va MTT o'rtasidagi uyg'un tarbiya natijasida bolalarda uyda va maktabda bir xil qadriyatlar va tarbiya uslublari shakllanadi. Bu esa bolaning umumiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Oila va MTT o'rtasidagi hamkorlik tayyorlov guruhidagi bolalarning aqliy rivojlanishi uchun juda muhimdir. Bu hamkorlik orqali bolalar kelajakda muvaffaqiyatli va ijodiy fikrlaydigan shaxslar bo'lib yetishadilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Hasanboyeva O. va boshqalar. Oilada barkamol avlod tarbiyasi. – T.: O'zbekiston, 2010
2. Ilk qadam o'quv dasturi 2022.
3. "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yilgan Davlat talablari". – Toshkent. O'zRMTV . 2018 yil
4. To'xtasinova G.R.va b. Bolalar bog'chasida intellektual o'yinlar. – T.: Yangi asr avlodi. 2005.
5. Erkinjonova, G. (2023). Etnik-madaniy tarbiy-bola shaxsini kamol toptiruvchi vosita. Formation of psychology and pedagogy as interdisciplinary sciences, 2(24), 383-386.
6. Erkinjonova, G. F. Q. (2021). Bolalar kitobxonligini rivojlantirishda oilaning o'rni. Scientific progress, 2(2), 339-343.

O'QUVCHI YOSHLARDA KASBIY KREATIV KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING ILMIY-NAZARIY TAMOIYILLARI

Narziyeva Kumush Qaxramonovna – Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti "San'atshunoslik" kafedrasida o'qituvchisi,

Muranov Samandar Baxridinovich – Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tadqiqotchisi

E-mail: muranovsamandar5@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'quvchi yoshlarda kasbiy kreativ kompetensiyalarni shakllantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish bir qancha ilmiy-nazariy tamoyillari, o'quv jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish, ijodiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyalari, yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: ijodiy fikrlash, moslashuvchanlik, oliy ta'lim tizimi, kreativ fikrlash, SMART texnologiya, innovatsion, kreativ kompetensiya, originallik, interaktiv, qiziquvchanlik, kreativlikning rivojlanish texnologiyalari.

Jahonda zamonaviy oliy ta'lim muassasalarida o'qitishning faol usullari va texnologiyalarini joriy etishga ko'proq e'tibor qaratilmoqda. Oliy ta'lim talabalarining shaxsiy sifatlarini rivojlantirish xususiyatlari, asosan, uning ta'lim muvaffaqiyatini, ta'lim faoliyatining tarkibiy qismlarini o'zlashtirishning o'ziga xos xususiyatlarini, ta'lim qobiliyatlari va ko'nikmalarini, malakalarini shakllantirish, oliy ta'limda ilg'or texnologiya va dasturiy ta'lim vositalardan keng foydalanish; o'qitishning an'anaviy va zamonaviy usullarini integratsiyalash masalalari dolzarb vazifalardan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

O'zbekistonda SMART texnologiyalar asosida talabalarning kasbiy kreativ kompetensiyalarini oshirish bo'yicha ishlar jadal tus olmoqda. SMART texnologiyalarni integratsiyalash va talabalar o'rtasida kreativlikni rivojlantirish bo'yicha bir qancha tashabbus va ishlar amalga oshirildi:

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti (TATU):

TATU SMART texnologiyalarni integratsiyalash va talabalar o'rtasida kreativlikni rivojlantirishda yetakchi bo'lib kelgan. Institut raqamli innovatsiyalarni qabul qilishda muvaffaqiyatlarga erishdi, jumladan:

- SMART laboratoriyalar va innovatsion maydonlar: TATUda IoT, AI va ma'lumotlar tahlili kabi rivojlanayotgan texnologiyalar bilan jihozlangan SMART laboratoriyalar va innovatsion maydonlar tashkil etilgan. Bu muhitlar talabalarga innovatsion yechimlarni ishlab chiqish va kreativ qobiliyatlarini oshirish bo'yicha amaliy tajribalar beradi.

- O'quv rejasiga narsalar Internetini (IoT) kiritish: Universitet o'zining muhandislik va dizayn dasturlariga IoT tushunchalari va ilovalarini kiritdi, bu talabalarga muammolarni kreativ hal qilish va innovatsion loyihalarni ishlab chiqish uchun SMART texnologiyalardan foydalanish imkonini beradi.

Toshkentdagi Xalqaro Vestminster universiteti (TXVU):

TXVU talabalarning kreativ qobiliyatlarini oshirish uchun SMART texnologiyalar integratsiyasiga alohida e'tibor qaratdi. Ba'zi asosiy tashabbuslarga quyidagilar kiradi:

- Raqamli dizayn va multimedia kurslari: TXVU raqamli dizayn, multimedia ishlab chiqarish va interaktiv mediaga qaratilgan kurslarni ishlab chiqdi. Ushbu kurslar orqali talabalar kreativ ifodalash uchun SMART vositalar bilan tanishadilar, raqamli medianing turli shakllarida innovatsiyalarni rivojlantiradilar.

- SMART texnologiya ustaxonalari va xakatonlar: Universitetda SMART texnologiyalarga yo'naltirilgan seminarlar va xakatonlar tashkil etildi, ularda talabalar hamkorlik qiladilar va real muammolarni hal qilish uchun yangi



texnologiyalarni qo'llaydilar va shu bilan ularning kreativ muammolarni hal qilish qobiliyatlarini oshiradilar.

Bu O'zbekistonda SMART texnologiyalarni integratsiyalash va talabalarning kasbiy kreativ qobiliyatlarini oshirish bo'yicha birgalikdagi sa'y-harakatlarni ko'rsatadigan tashabbus va ishlarning bir nechta misolidir. Ta'limda SMART texnologiyalarni qo'llash talabalarga innovatsion fikrlash, paydo bo'layotgan vositalardan foydalanish va haqiqiy muammolarga kreativ yechimlarni qo'llash, ularni zamonaviy ishchi kuchi talablariga tayyorlash imkonini beradi.

SMART texnologiyalar asosida talabalarning kasbiy kreativ qobiliyatlarini oshirishga butun dunyo universitetlarida e'tibor kuchayib bormoqda. Turli mamlakatlarda talabalarning kreativ qobiliyatlarini oshirish uchun SMART texnologiyalarni qo'llash bo'yicha bir qancha tashabbus va ishlar amalga oshirildi. Turli mamlakatlardan ba'zi diqqatga sazovor misollar:


Singapur:

– Nanyang texnologik universiteti (NTU): Smart texnologiya turli fanlar bo'yicha kreativ qobiliyatlarni rivojlantirish uchun NTUda keng qo'llanilgan. NTUitive Innovation Hub va Smart Campus tashabbusi kabi tashabbuslar talabalarning kreativligi, innovatsiyalari va tadbirkorligini rivojlantirish uchun texnologiyalardan foydalanishga urg'u beradi.

Janubiy Koreya:

– KAIST (Koreya ilm-fan va texnologiya ilg'or instituti): KAIST o'z o'quv dasturiga AI va ma'lumotlar tahlilidan tortib, 3D bosib chiqarish kabi raqamli ishlab chiqarish vositalarigacha bo'lgan SMART texnologiyalarni integratsiyalashda birinchi o'rinda turadi. Ushbu tashabbuslar talabalarda kreativ muammolarni hal qilish va innovatsiyalar madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan.

Ushbu universitetlar talabalarning kasbiy kreativ qobiliyatlarini oshirish uchun SMART texnologiyalarni integratsiyalash muhimligini tan olgan ko'plab universitetlar qatoriga kiradi. Turli innovatsion tashabbuslar va SMART texnologiyalarni qo'llash orqali ular talabalarni texnologiyaga asoslangan va kreativ talabchan professional landshaftda rivojlanish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va fikrlash tarzi bilan jihozlashga intildi. Talabalar o'zlarining ta'lim muhitida SMART texnologiyalar bilan shug'ullanish orqali o'zlarining kreativ qobiliyatlarini tobora murakkab va o'zaro bog'liq bo'lgan professional kontekstlarda yaxshiroq rivojlantirish va qo'llash imkoniyatiga ega bo'lishadi.



1-rasm. Talabalarda kasbiy kreativ kompetensiyalarni shakllantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish bir qancha ilmiy-nazariy tamoyillari

Talabalarda kasbiy kreativ kompetensiyalarni shakllantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish bir qancha ilmiy-nazariy tamoyillarga asoslanadi. Bularga quyidagilar kiradi:

1. Konstruktiv ta'lim nazariyasi: Bu nazariya ta'kidlashicha, o'rganish faol jarayon bo'lib, unda talabalar o'zlarining hozirgi bilimlari asosida yangi g'oyalar va tushunchalar tuzadilar. Virtual reallikni simulyatsiya qilish va interaktiv onlayn platformalar kabi innovatsion pedagogik texnologiyalar talabalarga o'quv jarayoniga faol qatnashish va murakkab tushunchalar haqida o'z tushunchalarini shakllantirish imkoniyatini beradi.

2. Tajribali o'rganish: Bu nazariya o'quv jarayonida amaliy, real dunyo tajribasining muhimligini ta'kidlaydi. 3D bosib chiqarish va to'ldirilgan reallik kabi innovatsion pedagogik texnologiyalar talabalarga amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga va nazariy bilimlarni amaliy kontekstda qo'llashga yordam beradigan tajribaviy ta'lim faoliyati bilan shug'ullanish imkonini beradi.

3. Kognitiv yuk nazariyasi: Bu nazariya shuni ko'rsatadiki, kognitiv yuk samarali boshqarilsa, o'rganish eng samarali bo'lib, talabalarga yangi ma'lumotlarni tushunish va qo'llashga e'tibor qaratish imkonini beradi. Innovatsion pedagogik texnologiyalar talabalarni qiziqtiradigan va ularning kognitiv qayta ishlash jarayonini qo'llab-quvvatlovchi interaktiv, multimediyaga boy o'quv tajribalarini taqdim etish orqali kognitiv yukni boshqarishga yordam beradi.

4. Ko'p intellekt nazariyasi: Bu nazariya odamlar ma'lumotni o'rganish va qayta ishlashda turli xil kuchli va afzalliklarga ega ekanligini taklif qiladi. Innovatsion pedagogik texnologiyalar turli multimedia resurslari, interfaol faoliyat va shaxsiylashtirilgan o'quv tajribalarini taqdim etish orqali turli xil o'quv uslublari va intellektlariga javob berishi mumkin.



5. Ijtimoiy-madaniy nazariya: Bu nazariya o'quv jarayonida ijtimoiy o'zaro ta'sir va madaniy kontekstning muhimligini ta'kidlaydi. Hamkorlikdagi onlayn platformalar va ijtimoiy media integratsiyasi kabi innovatsion pedagogik texnologiyalar hamkorlikda o'rganish tajribasini osonlashtirishi va talabalarni turli nuqtai nazarlar va madaniy kontekstlarga bog'lashi mumkin.

Umuman olganda, o'quvchilarda kasbiy ijodkorlikni rivojlantirishda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish amaliy ko'nikmalar va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beruvchi faol, eksperimental va shaxsiylashtirilgan o'quv tajribalarini ta'kidlaydigan ana shu ilmiy-nazariy tamoyillarga asoslanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mamatov D.N. Raqamli texnologiyalar muhitida ta'limda korporativ hamkorlik jarayonlarini pedagogik loyihalashtirish. diss. – Toshkent, 2022. – 255 b
2. Маматов Д.Н., Бекчанова Ш.Б. Увеличение количества людей с высшим образованием с применением методов дистанционного обучения // Материалы 14-ой международной научно-практической конференции, – Казан, 2020. – С 271-276.
3. Mamatov D.N., Bekchanova Sh.B., Saidova B.N., Abdullaeva D.N., Fayzieva G.U. Enhancing the participation of students and faculty in distance learning using blender learning and flipped classroom technologies in the development of pedagogy through digital technology // PSYCHOLOGY AND EDUCATION (2021) 58(2): 4910-4917. Amerika. P 4910-4917.
4. Muranov S.B., Narziyeva K.K. "Bo'lg'usi tasviriy san'at o'qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlashning ayrim masalalari" // SamDU ilmiy axborotnoma, 2021-yil, 4-son (128) Pedagogika/48-52betlar
5. Muranov S.B. Oliy ta'lim talabalariga smart texnologiyalarni amalda qo'llashni tadbqiq etish uchun qo'yiladigan talablar // "Ta'lim, fan va innovatsiya" Ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal. 2021/4-son. 48-52betlar
6. womanadvice.ru. Ijodiy fikrlash



TIBBIY TA'LIMDA INNOVATSION TA'LIM TEKNOLOGIYALARINING SAMARADORLI

Narzulaeva Umida Raxmatullaevna – Osiyo
Xalqaro Universiteti Klinik fanlar kafedrası mudiri
(PhD)

E-mail: umidanarzulaeva7@mail.ru

Djalilova Zarnigor Obidovna – Osiyo Xalqaro
Universiteti Klinik fanlar kafedrası v.b.dotsenti (PhD)

E-mail: djalilovazarnigorobidovna@oxu.uz

Annotatsiya. *Patologik fiziologiya fanini klinik fanlar falsafasi sifatida tan olish bejiz emas. Ushbu fan talabalarga dastlabki klinik tushunchalarni va mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish imkonini beradi. Bo'lajak shifokorlar uchun o'quv jarayonini tashkil etish va mustaqil klinik fikrlashni rivojlantirishda ishbilarmonlik o'yinlari interfaol ta'limning samarali usuli hisoblanadi. Tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan texnologiya asri barcha sohalarda, jumladan tibbiyot ta'limida, nazariy va amaliy bilimlarni uyg'unlashtirishni va innovatsion ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanishni taqozo etmoqda.*

Kalit so'zlar: *ta'lim, tibbiyot, innovatsion texnologiyalar, patologik fiziologiya, klinik fikrlash, talabalar.*

**“Eng katta boylik aql va bilimdir,
eng katta meros — yaxshi tarbiya,
Eng katta qashshoqlik jaholatdir! »**

Sh.M.Mirziyoyev

Darhaqiqat, ilm va ma'rifatsiz taraqqiyot bo'lmaydi. Shu bois, bugungi kunda tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida tibbiyot fanlarini o'qitishda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish, kompetensiyaga asoslangan yondashuv asosida talabalarning akademik, kasbiy va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratish muhim ahamiyatga ega.

Boshqa oliy ta'lim turlaridan farqli o'laroq, tibbiyot ta'limi dastlab fundamental fanlarda, so'ngra klinik fanlarda keyingi bosqichlarda o'qitiladi. Fundamental fanlarni puxta egallash nazariy bilimlarni klinik amaliyotda qo'llash uchun asos bo'ladi.

Patologik fiziologiya fani klinik fanlar falsafasi ekanligi bejiz emas. Bu fanni o'qitish jarayonida talabalarda dastlabki klinik tushuncha va mustaqil fikrlash shakllanadi. Ishbilarmonlik o'yinlari bo'lajak shifokorlarning o'quv jarayonini tashkil etish va mustaqil klinik fikrlashni rivojlantirishda kasbiy faoliyatini rag'batlantirishda interfaol ta'limning namunasi bo'lib xizmat qiladi.



Sababi, ishbilarmonlik o'yinlari jarayonida o'qituvchi o'yin jarayonini boshqaradigan "moderator" rolini o'ynaydi. Bu jarayonda an'anaviy o'qitishdan farqli o'laroq, talabalarining mustaqilligi ta'minlanadi, bu esa ularning o'quv, bilim, intellektual va amaliy faoliyatini oshirishga yordam beradi. Bu esa talabalarining ilmiy va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Ishbilarmonlik o'yinini bugungi kunda o'z ahamiyatini yo'qotayotgan an'anaviy og'zaki nutqdan ajratib turuvchi muhim xususiyatlaridan biri talabalar o'rtasidagi ijtimoiy o'zaro munosabatlarni rivojlantirishni rag'batlantirishdir. Ya'ni, jamiyatga oson kirish bemor bilan munosabatlarga kirishish uchun turtki bo'lib xizmat qiladi. "Bemor shifokor bilan gaplashgandan keyin o'zini yaxshi his qilmasa, u shifokor emas" deb bejiz aytishmagan.

Xususi oliy ta'lim rivojlanishi tibbiyot ta'limida yanayam raqobatbardoshlik imkoniyatlarini yaratib bermoqda. Jumladan, Osiyo xalqaro universiteti Klinik fanlar kafedrasida fundamental nazariy fanlarni o'qitishda "ishbilarmonlik o'yinlari" innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish bugungi kunda an'anaga aylangan. Chunki hozirgi sharoitda patofiziologiya fani nazariy va klinik fanlar o'rtasidagi "ko'priq" bo'lib, uning asosiy maqsadi talabalarda klinik tafakkur asoslarini shakllantirishdan iborat. Laboratoriya hayvonlaridan foydalanishni minimallashtirish, amaliy mashg'ulotlar davomida eksperimentlar o'quv multimediali taqdimotlar, videoroliklar, virtual laboratoriya ishlari va rolli o'yinlar motivatsiyasini oshirish uchun zamonaviy ta'lim texnologiyalarining ishbilarmon o'yinlaridan keng foydalanishni talab qiladi. Bu talabalarga JSST ekspertlarining "Patofiziologiya zamonaviy tibbiy razvedkaning asosidir" degan so'zlarini tushunish imkonini beradi.

Ishbilarmonlik o'yinini tashkil qilish uchun o'qituvchi mavzuga va talabalar guruhining tayyorgarlik darajasiga mos keladigan klinik va patofiziologik vaziyatli masalalarini tanlaydi. Guruhdagi talabalar o'yin ishtirokchisi sifatida 2 ta jamoaga (5 yoki 6) bo'linadi. Jamoadagi talabalar tayyorgarligi va o'zlashtirish ko'rsatkichlari bo'yicha teng taqsimlanadi ("yaxshi" va "qiyin o'zlashtirish"). Keyin o'yin qoidalari tushuntiriladi. Birinchi guruh bemor va uning qarindoshlaridan iborat bo'lgan jamoadan iborat bo'lib, ular bemorda mavjud bo'lgan kasallik va patologik jarayonlar, alomatlar, ularning rivojlanish sabablari va mexanizmlari, davolashning etiotrop va patogenetik yondashuvlari va kasallikning natijasi haqida savollar beradilar. Ikkinchi guruh oila shifokori va turli yo'nalishdagi shifokorlardan iborat bo'ladi. O'yin boshlanishidan oldin ham tibbiy etika, ham dieontologiya uchun rag'batlantirish va jarima punktlari mavjudligini tushuntirish juda muhim shartdir. Bu kasbiy faoliyat etikasi bo'yicha ko'nikmalarni shakllantirish, shuningdek, talabalar o'rtasida turli tushunmovchiliklar va nizolarning oldini



olishning zarur shartidir. O'qituvchi to'g'ri javobni ko'rsatadi va 2 ta jamoa o'rtasida har bir savolga javob berib, muhokama qilgandan so'ng slayd-shou orqali ballarni e'lon qiladi. Vazifa bajarilgandan so'ng, jamoa rollari o'zgaradi va yana bir xil tartibda davom etadi. Ishbilarmonlik o'yinlarini o'rganish bo'yicha ushbu texnologiyalar talabalarni har bir vaziyatli masala bo'yicha o'z nuqtayi nazarini shakllantirishga va muhokamalar davomida klinik fikrlashga undaydi. Gippokrat ta'kidlaganidek, "tibbiyot san'atining muhim qismi – bu o'z xulosalarini yaxshi shakllantirish, shuningdek, boshqa shifokor tomonidan yozilgan narsalarni to'g'ri tushunish qobiliyatidir".

Patologik fiziologiya fanini o'qitish jarayonida ishbilarmonlik o'yinlari ko'rinishidagi ta'lim texnologiyalaridan foydalanadigan o'qituvchilarning fikricha, bu interfaol o'qitish usuli an'anaviy metoddan quyidagi jihatlari bilan farq qiladi:

Talabalar butun o'yin davomida ijobiy his-tuyg'ularga ega bo'ladi, hayajonni yo'qotishga yordam beradi, tashvishlanish va an'anaviy so'rovlarga nisbatan ishonchsizlik hissini yo'qotadi;

Jamoa a'zolarining umumiy vazifani hal qilish uchun birlashishi ularning kelajakdagi maslahatlashuvlarni o'tkazishda tushuncha va ko'nikmalarini shakllantiradi;

Butun dars davomida barcha talabalar diqqatini aniq vaziyatli masalani yechishga qaratilganligi dars muhokamasida talabalarning 100% ishtirok etishini ta'minlaydi;

Har bir talabaning qobiliyati, individual xususiyatlari va imkoniyatlarini to'liq ochib berish imkonini beradi;

An'anaviy sinflardan farqli o'laroq, bemorlar, ularning qarindoshlari va shifokorlari o'rtasidagi ijtimoiy o'zaro munosabatlar modellarini shakllantirishga imkon beradi;

O'quvchilarning kasbiy so'z boyligini kengaytirish orqali ularning kasbiy nutq madaniyatini shakllantirishga undaydi;

Lotin tilini o'qitish metodikasi tibbiyot talabalariga lotin va yunon tillaridagi tibbiy atamalarni o'zlashtirish orqali tibbiyot sohasida samarali muloqot qilishni o'rgatadi. Bu metodika nafaqat tibbiy terminologiyani chuqur tushunishga yordam beradi, balki talabalarning ilmiy fikrlash va yozish malakalarini ham rivojlantiradi. Lotin tilidagi tibbiy atamalarni o'rganish tibbiy fanlarning umumiy tushunchalarini kengaytiradi va klinik amaliyotda aniqlik va samaradorlikni ta'minlaydi. Shu tariqa, lotin tilini o'qitish metodikasi tibbiy ta'limning ajralmas qismi bo'lib, talabalarni nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llashga tayyorlaydi. (lotin va yunon tillarida tibbiy atamalardan foydalanish);

O'yinda vaziyatining dinamikasi, shifokorning amaliyotida bo'lgani kabi, talabalarga yuzaga kelgan muammolarning kutilmagan yechimlarini taklif



qilganda uni qabul qilishning maqsadga muvofiqligini baholash uchun qisqa vaqttni talab qiladi;

Klinik fikrlash asoslari amaliyotda shakllanadi.

Patologik fiziologiyani o'qitishda ishbilarmonlik o'yinlaridan foydalanish darsning ko'plab maqsadlariga erishishga yordam beradi, jumladan: berilgan o'quv materialini o'quvchilar tomonidan o'zlashtirish, integratsiyalashuv, ya'ni boshqa tibbiyot fanlari bilan o'zaro aloqadorlikni ta'minlash; ta'lim va motivatsion maqsadlarga erishiladi, to'g'rirog'i, ishbilarmonlik o'yinlari talabalarni muammoli vaziyatlarga yechim topishga undaydi;

Keyingi bosqichda tibbiyot fakultetining 2-kurs (n=140) va 3-kurs (n=98) talabalari va kafedra o'qituvchilari (n=14) o'rtasida anonim so'rov o'tkazildi, har ikki tomonning ta'lim jarayonidan qoniqish darajasi baholandi. So'rov natijalariga ko'ra, o'quvchilarning 85 foizi interfaol ta'lim texnologiyasi bo'yicha ishbilarmonlik o'yinlari bo'yicha o'tiladigan darslar an'anaviy darslarga qaraganda qiziqarli va qoniqarli bo'lganligini, 78 foizi esa klinik tafakkur aynan patologik fiziologiya fani tufayli shakllanganligini ta'kidlagan.

"Patologik fiziologiya bo'yicha ma'ruzalarga qanday sabablarga ko'ra qatnashasiz?" O'quvchilarning 90 %i o'qituvchi fanni tushunarli va o'zlashtirishga qulay tarzda olib boradi, degan bo'lsa, 96% o'quvchilar patologik fiziologiya darsiga chuqur tayyorgarlik ko'rishlarini, darsni qiziqish bilan kutishlarini aytishdi. Amaliy mashg'ulotlarda ishbilarmonlik o'yinlariga asoslangan amaliy o'yinlardan foydalanish klinik fikrlash orqali o'quv dasturini oson va qulay o'zlashtirish imkonini beradi, degan fikrga qariyb 100% talabalar qo'shildi va bu usuldan keng foydalanishni tavsiya qildi. Kafedra professor-o'qituvchilari o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, ushbu o'qitish usulidan foydalanish oson va talabalarga klasterlar, slaydlardagi keyslar kabi interfaol ta'lim texnologiyalaridan og'zaki so'rovning an'anaviy shakli bilan parallel ravishda foydalanish imkonini beradi. Bu ishbilarmonlik o'yinlari ham darsga ajratilgan vaqtdan unumli foydalanib, o'qituvchining hissiy charchoqlarini kamaytiradi.

Shunday qilib, patologik fiziologiyani o'qitishda ishbilarmonlik o'yinlariga asoslangan interfaol ta'lim texnologiyalaridan foydalanish bo'lajak shifokorlarning klinik fikrlash asoslarini va kasbiy etika ko'nikmalarini shakllantirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Нарзулаева, У., Самиева, Г., Лапасова, З., & Таирова, С. (2023). Значение диеты в лечении артериальной гипертензии // Журнал биомедицины и практики, 1(3/2), 111–116. <https://doi.org/10.26739/2181-9300-2021-3-98>.



2. Интерактивный метод обучения в медицинском вузе на примере ролевой игры / Al Artyuxina // Успехи современного естествознания. – 2014. – No 4. – С. 122-126.
3. Ibragimova G.N.Oliy ta'lim tizimida interfaol texnologiyalar orqali talabalarda ijodiy fikrlashni rivojlantirish. Zamonaviy ta'lim / Современное образование, 2017 (4), 31-35.
4. Rusina, NA Oliy tibbiy ta'lim tizimida kompetensiya yondashuvi / NA Rusina // Высшее образование в России. – 2010. – No 2, S. 100-107.
5. Карсон Д.Р. Деловые игры. Обучение принятию решений. М., – 1977, 143 с.
6. Xaydarova D.S.Tibbiyot oliy o'quv yurtlarida mnemonikani o'quv jarayonida qo'llash imkoniyatlari to'g'risida // Tibbiy ta'lim va malaka oshirish. – 2020. – №. 3 (39). – S. 133-137.
7. Djalilova, Z. (2023). Elevating critical thinking with efficient teaching methods (Geared towards medical students). *International Bulletin of Medical Sciences and Clinical Research*, 3(11), 97-102.
8. Obidovna, D. Z. (2023). The art of questioning: enhancing critical thinking through effective pedagogical techniques. *International Journal Of Literature And Languages*, 3(11), 54-60.
9. Obidovna, D. Z. (2024). The pedagogical-psychological aspects of artificial intelligence technologies in integrative education. *International Journal Of Literature And Languages*, 4(03), 13-19.
10. Джалилова, З., Эргашева, Ш. (2024). Психологические основы и научно-теоретические принципы формирования языковых установок студентов высшего учебного заведения. *Журнал академических исследований Нового Узбекистана*, 1(2), 116-120.
11. Djalilova, Z. (2024). Advancing critical thinking proficiency through optimized pedagogical approaches. *Центральноазиатский журнал междисциплинарных исследований и исследований в области управления*, 1(2), 24-29.
12. Djalilova, Z. (2024). Advancing pedagogical approaches: leveraging artificial intelligence technologies to enhance the integration of english and latin language instructional methods. *Центральноазиатский журнал междисциплинарных исследований и исследований в области управления*, 1(2), 19-23.
13. Djalilova, Z. (2024). Application of artificial intelligence technologies in history education. *Журнал академических исследований Нового Узбекистана*, 1(2), 5-11.
14. Djalilova, Z. (2024). Elevating critical thinking with efficient teaching methods (Geared towards medical students). *Центральноазиатский*



журнал междисциплинарных исследований и исследований в области управления, 1(2), 8-12.

15. Джалилова, З. (2024). Методы разработки технологий искусственного интеллекта для интегративного преподавания английского языка студентам медицинских вузов. *Журнал академических исследований Нового Узбекистана*, 1(1), 19-22.
16. Obidovna, D. Z. (2024). Utilizing information technology to strengthen education in latin language and medical terminology. *Pedagog*, 7(5), 72-80.

TA'LIM SIFATINI OSHIRISH VA UNDA MALAKALI KADRLARNI TAYYORLASH KO'RIB CHIQISH MASALASI

Nurmamatov Abduqodir Abduqaxxor o'g'li –
Namangan muxandislik texnologiyalari instituti
“Informatsion texnologiyalari” kafedrası o'qituvchisi
E-mail: abduqodirnurmamatov1995@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada jamiyat rivojlanib borishi natijasida ta'limning o'rnini oshib borishi, o'z navbatida, to'rtinchi sanoat inqilobi kirib kelishi natijasida ba'zi kasb-hunarlarining yo'qolib borayotgani, yangi kasblarning paydo bo'lishi natijasida har tomonlama malakali kadrlarga ehtiyoj ortishi keltiriladi. Shuningdek, kadrlar aylanmasini tahlil qilish, muammolarni yechish va diagnostika qilish usullarini aniqlash, xodimlarni ijtimoiy himoya tizimi borligini tashkiliy madaniyatini yaratish va uni qo'llab-quvvatlashda o'zaro hamkorlik darajasini oshirish zarurligi yoritiladi.

Kalit so'zlar: malakali kadr, inson omili, innovatsion rivojlanish, to'rtinchi sanoat inqilobi, intellektual salohiyat, boshqaruvi modeli.

Bugungi dunyoda avj olib borayotgan va insoniyat kelajagiga tahdid solayotgan turli inqirozlar, oila institutining yemirila boshlayotganligi, bir jinslilar o'rtasidagi nikoh, submadaniyat ko'rinishlarining tarqalishi, zo'ravonliklar, suitsid va boshqa ijtimoiy muammolarning keskinlashayotganligi har bir mamlakatda inson omili, uning ma'naviy kamoloti bilan uzviy bog'langan. Bunday sharoitda jadal o'zgarayotgan zamon talablariga javob beradigan keng qamrovli, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash strategiyasiga ega bo'lish bugungi kunning eng ustuvor talablaridan biri bo'lib qolmoqda.

Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni amalga oshirish borasida hal etilishi lozim bo'lgan ustuvor vazifalarni talab darajasida bajarishga va innovatsion rivojlanishga katta ahamiyat berilayotgani bejizga emas. Bu jarayon



mamlakatimizning jahon bozorlarida o'ziga munosib o'ringa ega bo'lishi uchun ilm-fan yutuqlaridan va innovatsion texnologiyalardan keng ko'lamda foydalana oladigan yosh istiqbolli malakali kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'yish vazifalarni hal etish bilan uzviy bog'liqdir. Ma'lumki, dunyoning taraqqiy etgan davlatlarida ta'limni rivojlantirishga oid o'z tajribalari bor. Oliy ta'limni, xususan, universitetlar tarixiy rivojlanish yo'lida bir necha modellar orqali o'tib kelmoqda, bunda Universitet 1.0, Universitet 2.0, Universitet 3.0 va Universitet 4.0 konsepsiyalari ishlab chiqilgan. "Universitet 1.0" faqat ta'lim bersa, "Universitet 2.0" ("ikkinchi avlod universiteti") modeli ta'lim berish+ilmiy tadqiqot ham olib borishga ixtisoslashgan. XIX asrdan boshlab rivojlangan ta'lim muassasalari "tadqiqot universitetlari" deb ataladi. "Universitet 2.0" ilmiy tadqiqot faoliyati orqali yangi bilimlarni yaratadi; bozor ishtirokchilari uchun konsalting xizmatlari markazi bo'ladi; sanoat tomonidan buyurtmalar bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib boradi, yangi texnologiyalarga asos soladi.

"Uchinchi avlod universiteti", yoki "Universitet 3.0", esa fan-ta'lim-innovatsiya+ilmiy-tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish faoliyati bilan ham shug'ullanadi. Mamlakatimiz universitetlari oldida 2030-yilga qadar ilmiy-tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish masalasi qo'yilgan. Bu holda oliygohlarimiz xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar reytinglarida yuqori o'rinlarni egallash imkoni bo'ladi.

"Universitet 4.0" yuqoridagi barcha sifatlarni o'zida jamlab, u raqamlashtirilgan va biznes jarayonlari avtomatlashtirilgan makon sanaladi. "Universitet 4.0" yuqori texnologiyali sanoatni rivojlantirishda yetakchiga aylanib, ommaviy ishlab chiqarishdan iste'molchilarning individual talablari asosida xizmatlar yetkazadi. Bu borada "Universitet 4.0" talabalarning individual ehtiyojlari asosida o'quv reja va dasturlar tayyorlaydi. "Universitet 4.0" talabalarning nafaqat bilimi, balki ijtimoiy ko'nikmalariga ham ustuvor e'tibor qaratadi".

Insoniyat jamiyatining agrar jamiyatdan industrial jamiyatga o'tishi natijasida "texnikaning tez rivojlanishi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining asosiy determinant, sababi bo'lib qoldi. Industrial jamiyat shakllanishining asosiy tarkibiy qismlariga uning paydo bo'lish jarayonida yirik mashina ishlab chiqarishi (Rostou) erkin savdo va umumiy bozorga asoslangan iqtisodiyotning milliy sistemasi (Aron), timsoli korxona mehnatning korxonalashgan shaklda tashkil etilishi (Toffler) kiradi". Sanoatning rivojlanish davrining ham bosqichlari bo'lib, hozirgi kunda insoniyat jamiyatida to'rtinchi bosqichi ketmoqda. To'rtinchi sanoat inqilobi (ing. The Fourth Industrial Revolution)ning konsepsiyasi Klaus Shvab, 2016-yilda xuddi shu nomdagi kitobida bayon etilgan bo'lib, unga ko'ra yaqin kelajak kiber-fizik tizimlarni va inson ehtiyojlariga xizmat qilishni, shu jumladan kundalik hayot, ish va dam olish bilan ishlab chiqarishga keng joriy etish bilan belgilanishini ta'kidlagan.



Hayot darajasi va sifatini yaxshilashning iqtisodiy maqsadga muvofiqligi va jozibadorligi tufayli hayotga tatbiq etilgan to'rtinchi sanoat inqilobi beqarorlikning kuchayishi va jahon tizimining qulashi xavfini tug'diradi va shuning uchun uning boshlanishi insoniyat javob berishi kerak bo'lgan muammo sifatida qabul qilinadi. To'rtinchi sanoat inqilobigacha insoniyat 3 ta sanoat inqilobini boshidan o'tkazdi. Birinchi sanoat inqilobida (XVIII asr oxiri) qo'l mehnatidan mashina mehnatiga o'tish, ya'ni bug' dvigatelining paydo bo'lishi bilan izohlansa, ikkinchi sanoat inqilobi (XIX asr oxiri)da konveyer ishlab chiqarish, elektr stansiyasi, telefon singari ixtirolarni keltirish mumkin. Uchinchi sanoat (kompyuter) inqilobi (XX asr oxiri)da tranzistor, protsessor, kompyuter, Internet, raqamli kamera kabi kashfiyotlar amalga oshirildi.

Uch sanoat inqiloblarida bo'lgani kabi iqtisodiyotning o'zgarishi ba'zi ommaviy kasblarning yo'q bo'lib ketishiga va boshqalarning paydo bo'lishiga olib kelmoqda. Masalan, ikkinchi va uchinchi sanoat inqilobidan keyin aravakash, eshkakchi, mo'ri tozalovchi, chiroq yoquvchi, muz yig'uvchi, suv tashuvchi, kompyuter mashinisti, stenograf va boshqa ko'plab kasblar chiqib ketganini ko'rish mumkin. 2020-yildan boshlab yo'qolib borayotgan kasblar qatoriga radio operatori, kutubxonachi, pochta, kassir, haydovchi, buxgalter, tikuvchi, kulol, to'quvchi, advokat, notarius, o'qituvchi, farmatsevt, terapevt, jurnalist, rieltor, logist, dispetcherlik kasblarni kiritishgan.

Rivojlanayotgan kasblar qatoriga blogger, ma'lumotlar sotuvchisi, UX/UI dizayneri, UX/UI dizayner, Data scientist, bioinformatik, biofarmakolog, neyropsixolog, 3D bosib chiqarish muhandisi va boshqalar keltirilgan.

Mamlakatimizda to'rtinchi sanoat davri kirib kelishi natijasida malakali kadrlar tayyorlash vazifalarini amalga oshirishda, O'zbekistonda faoliyat yuritib kelayotgan oliy o'quv yurtlari muhim ahamiyatga ega. Chunki ta'lim tizimida yoshlarni tarbiyalab voyaga yetkazishgina emas, balki zamonaviy yuksak malakali mutaxassis kadrlarni tarbiyalashga ham katta e'tibor berilib kelinmoqda. Ma'lumki, hozirda butun dunyoda ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ishlar tobora jadallashib bormoqda. Mazkur yilni "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim" yili deb e'lon qilinishi ham bejizga emas. Shu jihatlar inobatga olingan holda mamlakatimiz Oliy ta'lim muassasalarida ham ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish borasida aniq maqsadga yo'naltirilgan tizim shakllantirishga alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda. Bu tizimning eng asosiy maqsadlaridan biri – yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish, ular o'z intellektual salohiyatlarini namoyon etishlari uchun keng imkoniyatlar eshigini ochish, oliy ta'lim sohasida mutaxassislar tayyorlash, shuningdek, pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha yangilangan davlat oliy ta'lim standartlari va o'quv dasturlari joriy qilishdan iboratdir.

Hozirgi zamon taraqqiyotining axborotlashuvi va inson faoliyatining barcha jabhalari, shu jumladan ta'lim tizimiga fan va texnika taraqqiyoti



yutuqlarining keng tatbiq etilishi, inson qalbi uchun turli xarakterdagi axborot-psixologik kurashlarning olib borilishi ta'limni sifatli boshqaruv tizimida tahliliy metodlardan oqilona foydalanishni taqozo etadi. Ma'lumki, kadrlar siyosatining tarkibiy elementlari o'z ichiga bandlik siyosati, rag'batlantiruvchi siyosat, ijtimoiy-mehnat sohasidagi siyosat, personalni rivojlantirish siyosatlarni qamrab oladi.

Bandlik siyosati o'z ichiga personalni jalb qilish, tanlab olish va yollash tizimini yaratish, tashkilotning kadrlarga bo'lgan son va sifat ehtiyojlarini aniqlash, xodimlarni tashkilotga bog'lanib qolishini ta'minlash, personal tarkibining moslashuvchanligini ta'minlash, shuningdek, kerak bo'lib qolganda xodimlarni bo'shatish kriteriy va usullarini aniqlash kabi masalalarini oladi. Rag'batlantirish siyosati personalni o'z ishidan mamnun ekanligini davriy nazorat qilishni, personal mehnatini baholash, asoslash va rag'batlantirishni ko'zda tutadi. Ijtimoiy-mehnat munosabat orasidagi siyosat tashkilot xodimlarini kerakli axborot bilan ta'minlashni, kadrlar aylanmasining sabablarini tahlil qilishni, muammolarni yechish va diagnostika qilish usullarini aniqlashni, qayta aloqa kanallarini munosabatlarini o'rgatishni, xodimlarni ijtimoiy himoya tizimi borligini tashkiliy madaniyatini yaratishni va uni qo'llab-quvvatlashni, oddiy xodimlar va rahbariyat orasida o'zaro hamkorlik darajasini oshirishni ko'zda tutadi.

Kadrlar boshqaruvi modellarining har xilligi tarixiy va milliy xususiyatlar, texnologiyaning rivojlanishi va insonning tashkilotdagi o'rni va roli haqida tushunchalar, tashkilot personalini har xil prinsipda boshqarish bilan shartlangan. Nazorat tizimidan foydalanish xususiyatlariga ko'ra, kadrlar menejmentning uch modeli ajralib turadi: oddiy (iyerarxik) nazoratga asoslangan, texnologik nazoratga asoslangan, byurokratik nazoratga asoslangan. Birinchi model tadbirkor o'zi ishlab chiqarish protsessiga aralashib o'zi ishga yollash va ishdan bo'shatish, mukofotlash kriteriylarni aniqlab, o'zi boshqaruvchi firmalar uchun xarakterlidir.

Hozirgi vaqtda kadrlar bilan ishlash yangi shaklining nazariy asosi bo'lgan "inson resurslari" konsepsiyasi ishlab chiqilgan. U xodimlarni tanlash, uzluksiz o'qitib borish va ishchining sifatlarini, potensial imkoniyatlarini, qobiliyatlarini aniqlash va doimo rivojlantirib borishga sarflanadigan kapital qo'yilmalarni iqtisodiy maqsadga muvofiqligini e'tirof etishga asoslanadi. Bu konsepsiyaning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- zamonaviy sharoitda inson omili rolini baholashda iqtisodiy mezonlardan foydalanish;
- firma doirasida boshqarish;
- xodimlar bilan ishlash tizimini qayta qurish.

Aynan yuqorida ta'kidlangan fikrlardan kelib chiqib, oliy ta'lim muassasalari tizimida "kadrlarni tayyorlashning maqsadli mezonlarini

shakllantirish, oliy ta'lim muassasalaridagi ixtisoslik yo'nalishlari va mutaxassisliklarni hududlar va sohalar bo'yicha joriy etilayotgan dasturlarning talab va ehtiyojlari, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarni kompleks taraqqiy ettirish istiqbollari, xorijiy davlatlarning yetakchi oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik inobatga olgan holda optimallashtirish" masalasi. Sababi internet tarmoqlarining taraqqiy etishi bilan barcha ma'lumotlar ijtimoiy tarmoqlardan topish imkoniyati kengayib ketdi. Shunday ekan bugungi professor-o'qituvchilardan zamon bilan hamnafas ilmiy-tadqiqotlar olib borish talab etiladi. Oliy ta'lim tizimi jahon standartlariga javob beradigan davlatlar bilan fan, ta'lim sohalarida o'zaro manfaatli hamkorlik masalasini yo'lga qo'yilishi o'ylaymizki, o'zining ijobiy natijalarini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ўзбекистан Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг БМТ Бош ассамблеясининг 72-сессиясида сузлаган нутқи <http://uz24.uz/uz/politics/shavkat-mirziyoyev-bmt-bosh-assambleyasining-72-sessiyasida-nutqi>.
2. Usmanov S. "Universitet 3.0" — fan-ta'lim va innovatsiya modeli // <https://yuz.uz/uz/news/universitet-30-tushunchasi-haqida>
3. V.N.Nersesyans "huquq falasafasi" ADOLAT nashr 2003-yil
4. <https://ru.wikipedia.org> Четвёртая промышленная революция: интернет вещей, циркулярная экономика и блокчейн // furfur.me
5. <https://ru.wikipedia.org> 4-я промышленная революция в Давосе
6. Судаков Д. Атлас новых профессий. При поддержке МШУ «Сколково» и Агентства стратегических инициатив.
7. Алексеева И.Ю. Эпистемологическое содержание компьютерной революции // Автореф... дис... доктора филос. наук. — Москва: Институт философии РАН, 1998. — 24 с.
8. Жуманиёзова, Н. С. (2022). ОТМГА ОИД ДАВЛАТ СИЁСАТИНИ АМАЛГА ОШИРИШ ИСТИКБОЛЛАРИ. *REDAGOGSjurnali*, 24(3), 154-165.
9. САМАРОВ, Р. С. ПСИХОЛОГИК ТАДКИКОТ ВА АМАЛИЁТ: ИНТЕГРАТИВ ЁНДАШУВНИНГ НАЗАРИЙ БАЁНИ. *PSIXOLOGIYA* Учредители: Бухарский государственный университет, (3), 10-15.
10. Жуманиязова, Н. С. (2019). СОВРЕМЕННАЯ СИСТЕМА ОБРАЗОВАНИЯ: ИНТЕГРАЦИЯ И ПРОПОРЦИОНАЛЬНОСТЬ НАЦИОНАЛЬНЫХ ПРОЦЕССОВ. *Экономика и социум*, (11 (66)), 261-263.
11. Kurganovna, K. D., & Jo'rayevna, N. N. (2023). YOSHLARDA AXBOROT VA INTERNET MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI. *World ssientifis researsh journal*, 12(2), 105-109.

12. Gafarovna, A. S., Jo'rayevna, N. N., Sobirovna, A. N., & Abdusalamovna, A. S. (2023). YOSHLAR MADANIY BEGONALASHUVINING OLDINI OLISHDA IJTIMOIIY ISH VA SAN'ATNING O 'ZARO HAMKORLIGI. *World scientific research journal*, 12(2), 100-104.

MALAKA OSHIRISH INSTITUTLARIDA TA'LIM SIFATINI BAHOLASH VA BOSHQARISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Ostonova Xurshidabonu Gafurovna –
Metodik xizmat ko'rsatish bo'limi metodisti

Annotatsiya. Ushbu maqolada malaka oshirish institutlaridagi ta'lim sifatini oshirish hamda baholash, shu bilan birga boshqaruv tizimini rivojlantirish hamda bu borada olib borilayotgan sa'y-harakatlar va mexanizmlar haqida so'z boradi. Ta'lim sifatini boshqarishning xalqaro sifat standartlari, uning modellari va tarkibiy qismlari asoslab o'tilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim sifati, ta'lim sifati menejmenti, yondashuvlar, modellar, "Deming sikli", xalqaro sifat standartlari, "fransuz" metodi, "ingliz" metodi.

Kirish. Ta'lim va tarbiya eng noyob kapital sifatida qadrlanayotgan bugungi sharoitda ta'lim natijalarini baholash samaradorligini oshirish va usullarini takomillashtirish mexanizmlarini joriy etish orqali barcha insonlar uchun sifatli ta'lim olish imkoniyatlari yaratilmoqda. Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya sohasiga davlat siyosati darajasida alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda. Bu esa o'z navbatida, kadrlar tayyorlash sohasi oldiga ta'lim muassasalari faoliyati samaradorligini zamonaviy talablar asosida oshirish vazifasini qo'yimoqda. Shu sababli ham bugungi kunda bo'lajak mutaxassislarini yuksak kasbiy salohiyat va insoniy sifatlariga ega bo'lishi talab etiladi.

Jahon amaliyotida muayyan mutaxassislar kasbiy kompetentligini takomillashtirish bo'yicha olib borilayotgan ilmiy izlanishlarda ta'lim boshqaruvi natijaviyligiga alohida e'tibor berilgan bo'lib, bunda asosiy urg'u ta'lim sifati menejmentiga qaratilmoqda. Bu yo'nalishdagi ilmiy izlanishlar oliy ta'lim tizimini boshqarishning nazariy-metodologik asoslari, sifat menejmenti va ta'lim sifati monitoringini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish hamda ta'lim sifati va samaradorligi uyg'unligini ilmiy jihatdan asoslovchi takliflarni ishlab chiqish, oliy ta'lim sifatini baholash tizimini takomillashtirish masalalariga qaratilgan. Respublikamizda kadrlar tayyorlash sohasida amalga oshirilayotgan uzluksiz ta'lim tizimidagi islohotlar ta'lim jarayonlarini tashkil



etish va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishni, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning zamonaviy talablariga mos keladigan, demokratik va insonparvarlik tamoyillariga asoslangan ta'lim sifati boshqaruvini shakllantirishni taqozo etmoqda.

R.X.Jo'rayev va S.T.Turg'unovlarning fikricha, ta'lim menejmentining asosiy maqsadi ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari faoliyatini muvofiqlashtirish, nazorat qilish hamda samarali boshqarishni ta'minlashdan iborat. Ta'lim menejmentining funksiyalarini bajarish va maqsadga erishish metodlari L.I.Fishman, V.S.Bezrukova, V.A.Kalney, T.D.Makarovlarning ishlarida alohida ko'rsatib o'tilgan. Xorijiy olimlardan B.Burxalter (Burkhalter), B.Kramrayn (Krumrine), J. Hakmen (Hackman), G.Kanji va boshqalarning tadqiqotlarida oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini boshqarish, ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlash borasida yalpi sifat menejmenti tamoyillari va texnologiyalarini joriy etish masalalari o'rganilgan.

Ta'lim va ta'lim sifatini tadqiq qilgan M.M.Potashnik, P.I.Tretyakov, T.I.Shamovalarning fikricha, ta'lim boshqaruvi fanining nazariy-metodologik asosini tizimli, funksional, sinergetik, faoliyatli, vaziyatli, refleksiv, milliy hududiy va natijaga asoslangan yondashuvlar tashkil etadi. Mazkur yondashuvlar ta'limda samarali boshqaruv faoliyatini amalga oshirish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Ta'lim sifati menejmenti natijaviyligini kafolatlash uchun ta'lim muassasalari rahbar xodimlari boshqaruvga boshqaruv subyekti tomonidan amalga oshiriladigan uzluksiz, izchil faoliyat sifatida qarashi lozim bo'ladi. Bunda ta'lim jarayonlari doimiy harakatdagi dinamik ijtimoiy tizim sifatida boshqaruv obyekti hisoblanadi va u ijtimoiy tizimlarga xos bo'lgan barcha xususiyatlarni o'zida jamlaydi.

Ta'lim muassasasi va undagi ta'lim sifatini boshqarishga metodologik yondashuvlarni boshqaruvning umumiy qonuniyatlari, tamoyillari va funksiyalaridan kelib chiqqan holda amalga oshirish lozim. Ta'lim sifatini boshqarish ta'limni boshqarishning umumiy tuzilmasi tarkibiga kiradi va uning samaradorligi ta'limning umumiy boshqaruvini sezilarli darajada oshirishni ta'minlashi mumkin bo'lgan tuzilma hisoblanadi. Shuning uchun ham ta'lim sifati menejmenti ta'lim tizimidagi boshqaruv faoliyatining mavjud nazariyasi va amaliyotini muhim elementlar bilan to'ldiradi va samarali natijaviyligini ta'minlaydi.

"Ta'lim sifati" so'z birikmasi mamlakatimizda ilk bor 1997-yilda O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlarining ta'lim sifati ustidan davlat nazoratiga bag'ishlangan modda va bo'limlarida rasmiy ravishda qayd etilgan. Bu esa o'z navbatida, ta'lim sifatini ta'minlashga doir qator nazariy va amaliy ishlanmalarning yaratilishiga turtki bo'lmoqda. Sh.Qurbonov va E.Seytxalilovlarning tadqiqotlarida ta'lim sifati deganda, ta'lim jarayonining



turli ishtirokchilari ta'lim muassasasi tomonidan ko'rsatilayotgan ta'lim xizmatlaridan kutganlarining qanoatlantirilishi darajasi tushuniladi. N.Shmereva, M.Gubanova va Z.Kresanlar ta'lim sifati – o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishga doir ehtiyojlarni qondirishni ta'minlovchi ta'lim xizmatlari iste'mollilik xususiyatlarining majmuasi, deb hisoblaydi.

A.Voronin tomonidan ta'lim sifati – jamiyatda ta'lim jarayonining holati va natijasini, shaxsning fuqarolik, hayotiy va kasbiy kompetensiyalarining rivojlanishi hamda shakllanish ehtiyojlari va umidlariga muvofiqligini aniqlovchi kategoriya tarzida talqin qilingan. Y.Dombrovskaya ta'lim sifatini ta'limning Davlat ta'lim standartlari, tegishli ta'lim dasturining o'quv-dasturiy hujjatlari talablariga muvofiqligi, deb e'tirof etadi. Adabiyotlar tahlili umumlashgan ma'noda, ta'lim sifatiga inson ehtiyoji hamda jamiyat va davlat manfaatlarini qondiruvchi xususiyatlar yig'indisi sifatida qaralganligini ko'rsatadi. Yuqoridagi tavsiflardan kelib chiqib aytish mumkinki, ta'lim sifati – ta'lim oluvchilar bilimining xalqaro davlat standartlariga mosligi, turli darajalardagi ta'lim muassasasi sifat natijaviyligi, muassasaning muvaffaqiyatli faoliyati, shuningdek, ta'lim jarayoni ishtirokchilarining innovatsion ta'lim xizmatlari sifatini ta'minlashdagi faoliyati natijasi hisoblanadi. Tadqiqotlar jarayonida "ta'lim sifati menejmenti"ni tavsiflashga bo'lgan turli yondashuvlarning mavjudligi qayd etildi, jumladan, Sh.Qurbonov, E.Seytxalilovlar ta'lim sifatini boshqarish – muayyan ijtimoiy va pedagogik shart-sharoitlarning ta'siri oqibatida yuzaga kelgan va ko'p funksiyali vazifalarni o'z ichiga olgan tizim, deb ta'riflaydi. M.Potashnik, V.Panasyuk va boshqalar ta'lim sifatini boshqarishni raqobatbardosh mutaxassisni shakllantirishga bo'lgan ijtimoiy buyurtmani qondirishga yo'naltirilgan ko'p o'lchovli moslashuvchan tizim, deb hisoblaydi.

Tahlil qilingan tadqiqotlar ta'lim sifati boshqaruvi yo'nalishida turlicha yondashuvlar mavjudligini ko'rsatdi va ularni izohlab o'tish maqsadga muvofiq. Sifat menejmenti asoschisi V.Shuxart mahsulot sifatini har bir qismini nazorat qilishga asoslangan yondashuvni texnologik jarayonlarning bir me'yorda ishlashini ta'minlashga qaratilgan metodika bilan almashtirishni taklif qilgan. Uning sifatni doimiy yaxshilab borish zarurligi to'g'risidagi g'oyasi E.Deming tomonidan rivojlantirilib, ishlab chiqarish amaliyotiga PDCA (Plan-Do-Check-Act), ya'ni RBNH (Rejalashtirish-Bajarish-Nazorat-Harakat) – "Shuxart-Deming metodi" yoki "Deming sikli" nomi bilan joriy etildi. Keyingi sifat menejmenti mutaxassisi A.Feygenbaum sifatni ishlab chiqish, qo'llab-quvvatlash va yaxshilash bosqichlaridan iborat bo'lgan Sifatning Yalpi Nazorati (Total Quality Control) tushunchasini kiritdi. Shuxart, Deming va Feygenbaumlar tomonidan joriy etilgan mazkur sifat menejmenti metodi asosida sifatni yalpi boshqarish konsepsiyasi (Total Quality Management – TQM) ishlab chiqildi. Uning mohiyati boshqarishning ta'lim muassasasini muvaffaqiyatiga olib boruvchi



tamoyillaridan foydalanishdan iborat. TQM konsepsiyasida sifatni boshqarishga doir avvalgi konsepsiyalarga xos bo'lgan barcha ijobiy jihatlar o'z aksini topgan. U ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasida ko'pgina zamonaviy menejment tizimlarining asosini tashkil qiladi. TQMning ko'pgina yondashuvlari ISO oilasiga kiruvchi xalqaro sifat standartlarining zamonaviy avlodi g'oyalari tarkibiga kiritilgan.

V.Nujdinning ta'kidlashicha, TQM tamoyillari va metodlarini ta'lim xizmatlari sohasiga moslashtirish natijasida sifatni rejalashtirish, nazorat qilish va yaxshilash faoliyat turlarini ajratib olish imkoniyati paydo bo'lgan. Dastlab iqtisodiyotning sanoat sektori uchun ishlab chiqilgan TQM tamoyillari xorijiy ta'lim muassasalarini boshqarish amaliyotida keng foydalanilgan, AQSh ta'lim tizimida 1985-yildan boshlab TQM qo'llanila boshlangan va 1996-yilga kelib sifatni takomillashtirish tamoyillaridan 252 ta ta'lim muassasalarida foydalanila boshlangan.

Xulosa Ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar o'quv-biluv jarayonlarini sifatli tarzda boshqarish mexanizmlarini yanada takomillashtirishni, demokratik, insonparvarlik tamoyillarga asoslangan ta'lim boshqaruvini shakllantirish zarurligini talab qilmoqda. Ayniqsa, bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash sohasining sifat bosqichida mamlakatimiz umumiy o'rta ta'lim muassasalaridagi ta'lim sifati va samaradorligini doimiy tarzda oshirib borish zarurati maktab o'qituvchilari kasbiy-pedagogik kompetensiyalarini yanada rivojlantirish, ulardagi ta'lim sifatini boshqarishni zamon talablari darajasida tashkil etishni taqozo qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abduraxmanova J.N., Toshtemirova S.A. (2020). Innovatsion texnologiyalar va axborot madaniyatini shakllantirish pedagogikaning dolzarb masalalaridan biri. Science and Education.1(7). 436-442
2. Mustafaqulov A.A. Pedagogik kadrlarni yalpi sifat boshqaruvi sharoitida tayyorlash tizimi / Ped. f. f. dok.diss. –T.: 2019.
3. Toshtemirova S. A. (2020). Ta'lim sifati va uni demokratlashtirish ilmiy muammo sifatida // Uzluksiz ta'lim. № 1 (86). — S.5.
4. Селезнева Н.А. Качество высшего образования как объект системного исследования: лекция-доклад. — М.: 2001. – 79 с.



MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA TARBIYACHI-PEDAGOG OBRAZI

Po'lotov Foziljon Usibjonovich –
Maktabgacha va musiqiy ta'lim kafedrası katta
o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifatini oshirishda tarbiyachi-pedagogning o'rni, bolalarni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari, bola faoliyatini tashkil etish borasida fikrlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, tarbiya, fasilitator, pedagogik jarayon, pedagogik mahorat, kuzatish, ta'lim sifati.

Dunyoda juda ko'p kasblar mavjud va ular orasida bir kasb borki, bu eng murakkab va qiziqarli kasblardan biri – tarbiyachilik kasbidir. Tarbiyachilik nafaqat kasb, balki maxsus mahoratdir. Yaxshi tarbiyachi bo'lish nimani anglatadi? Bu juda murakkab masala bo'lib, u batafsil ko'rib chiqishni talab qiladi. Pedagogik mahorat insonning shaxsiy fazilatlariga bog'liq. Bolalarning sevgisi tarbiyachining eng muhim professional xususiyati hisoblanadi. Bu tarbiyachi bilishi kerak bo'lgan eng muhim sifattir.

Tarbiyachi-pedagog bolalar va ularning ota-onalari uchun katta ahamiyatga ega shaxs. Maktabgacha ta'lim tashkilotida bola tarbiyachiga himoyachi, yordamchi, har doim qanday harakat qilish yoki qilmaslik haqida yo'naltiradigan kishi sifatida qaraydi. Shuning uchun, tarbiyachi bolalarga bo'lgan muhabbatdan tashqari, bir nechta fazilatlarga ega bo'lishi kerak: intizom, mas'uliyat, mehnatsevarlik, samaradorlik, qat'iyatlilik, o'zingga va bolalarga maqsad qo'yish qobiliyati. Maktabgacha ta'lim va tarbiya bu mas'uliyatli jarayon. Tarbiyachining bolalar bilan o'zaro munosabatlarida bolaning shaxsiyati rivojlanadi bu yerda ko'p narsa tarbiyachiga bog'liq. Chunki maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalar hayotining muhim qismini o'tkazadilar. Bolalar bilan ishlashda tarbiyachi ko'plab rollarga ega. Masalan, tarbiyachi-maslahatchi, tarbiyachi-yordamchi, tarbiyachi-do'st, tarbiyachi-ikkinchi ona vazifasida bo'lmog'i maqsadga muvofiq. Tarbiyachi har qanday holatda muammoni bartaraf etishda yordamchi obrazida: mashg'ulot paytida yoki o'yin davomida, sayr davomida bolada muammo bo'lishi mumkin. Misol uchun: bola topa olmaydi yoki tufisini ipini bog'lay olmaydi, ismni qog'ozga yopishtira olmaydi. Yoki biror bir o'yinchoq qayerda ekanligini bilmasa tarbiyachi bolaning murojaat qiladigan birinchi shaxsidir. Faqat tarbiyachi sabr-toqati va sevgisi bolaga bu kichik mo'jiza uchun juda zarur bo'lgan o'ziga ishonch, xotirjamlik va quvonch keltiradi. Tarbiyachi bolaga do'stdir, u bola



bilan bir xil darajada muloqot qiladi, unga ishonch va hurmat bag'ishlaydi, bola bilan do'stlashadi.

Bolalar uch yoshda maktabgacha ta'lim tashkilotiga kelishadi. Bu bola uchun butunlay boshqacha, yangi dunyoda o'zini topishi kerak, u yerda hamma narsa bola uchun noma'lum. Tarbiyachining faqat o'tkir ko'zlari bu vaziyatni tushunishga yordam beradi. Tarbiyachi juda ko'p rollarga ega shuning uchun, har bir bolaning hayotida tarbiyachining roli muhim va bebahodir. Bolani to'g'ri tarbiyalash uchun har bir bolaning psixologik va individual xususiyatlarini hisobga olish kerak. Tarbiyachi guruhda **fasilitator** bo'lishi kerak. Fasilitator so'zi – yo'l boshlovchi degan ma'noni anglatadi. Fasilitator bilimli, iqtidorli psixolog, rassom, aktyor bo'lishi lozim. Boladagi muammolarni o'z vaqtida aniqlab bu muammolarning yechimini topishi lozim. Bolani subyekt o'rnida ko'ra olib bolani fikrini uyg'ota bilishi kerak. Fasilitator bolaning ko'ziga ko'proq qarab turishi kerak shunda bolada ishonch uyg'onadi. Bolaning o'zida bo'lgan bilimni ishtiyoqini, qiziqishlarini uyg'ota bilishi kerak ekan. Chunki bola mustaqil ravishda o'z bilimni kashf eta oladi va bu narsaga qodir. Bola o'zini muvaffaqiyatli his eta olishida fasilitatorning roli muhim ahamiyatga ega. Fasilitator mahoratli, ma'naviyatli, madaniyatli, nutqi ravon, bolaga to'g'ri savol tuzishni, to'g'ri maqsad qo'yishni bilishi kerak. Bola bilan ko'proq muloqotda bo'lishi kerak. Muammoli savol tashlab bolalarni fikrlash qobiliyatini rivojlantira olishi kerak. Bolani o'z istagiga ko'ra beshta markazga to'g'ri yo'naltira olishi kerak. Masalan: musiqaga qiziqadigan bola matematikaga qiziqmaydi tarbiyachi ijodkorlik qobiliyatini ishga solib bolani musiqa markazidan matematika markaziga qiziqтира olishi kerak. Yoki matematika markazi orqali fan va tabiatga qiziqтира olishni bilishi kerak. Tarbiyachi-pedagog, bolani kichik yoshidanoq o'zini analiz qilishga o'rgata olishi kerak.

Pedagogik tadqiqotlar tizimida ta'lim sifatini oshirish jarayonida tarbiyachi-pedagogning o'rni nihoyatda muhim. Tarbiyachi-pedagog ta'lim va tarbiya jarayonida samaradorlikni oshirishda bir qancha usullardan foydalanadi:

1) Kuzatish usuli bolaning turli xil faoliyatlarda ta'lim olishi va o'zini tutishi haqida aniq va obyektiv ma'lumot yig'ishga yo'naltirilgan jarayon bo'lib, mazkur jarayon maqsadli yo'naltirilgan, doimiy, obyektiv, integrallashgan, refleksiv, tavsifiy va ishonchli bo'lishi lozim. Bolalarni kuzatishda bola shaxsi noyoblighi va yaxlitligini hurmat qilish, uning individual o'ziga xos xususiyatlarini tushunish, mustaqil harakat qilishga, xatolikka yo'l qo'yish ehtimoli bo'lgan taqdirda ham bolaning bunga haqli ekanligini tan olish muhim ahamiyatga ega. Kuzatish har doim aniq maqsadga ega va uni bosqichma-bosqich amalga oshirish uchun maxsus reja bo'lishi zarur. Pedagogik hodisa va jarayonlarni kuzatishni tashkil etishda kuzatuvchidan tartiblilik, ehtiyotkorlik va aniqlik

talab etiladi. Mazkur usul orqali eng kam vaqt sarflagan holda bola haqida katta miqdordagi ma'lumotlarni olish mumkin.

2) Maktabgacha ta'limda ta'lim sifatini baholashda maktabgacha yoshdagi bola portfoliosi usulidan ham foydalaniladi. Portfolio – bu materiallar yig'indisi bo'lib: rasmlar, hikoyalar, bajarilgan topshiriq natijalari, fotolavhalar, ibora, so'z birikmalari, fikr, mulohaza yozilgan qaydnomalarni o'z ichiga oladi. Bu yig'ma materiallar bola tomonidan egallangan bilim, ko'nikma va malakalarning hayotiy sharoitlarda qo'llay olinishi haqida tasavvur beradi. Portfolio bola rivojlanish istiqbolini tahlil qilish va baholash uchun qo'shimcha ma'lumotlar manbasi sifatida qo'llaniladi. Bola portfoliosini yaratishda kuzatuv va qaydnomaga tegishli yozuv va belgilar kiritiladi. Portfolio texnologiyasini qo'llash pedagog uchun oila bilan maktabgacha ta'lim tashkiloti hamkorligini tashkil qilish imkoniyatini yaratadi. Aniq o'yinli mashq, ijodiy topshiriqlardan foydalanib, bolaning mustaqil faoliyatini kuzatish asosida pedagog har bir bola rivojlanishining individual ta'lim yo'nalishini belgilaydi hamda ota-onalarga ta'limiy va tarbiyaviy jarayonning to'laqonli ishtirokchisi bo'lishi mumkinligini yetkazib beradi. Portfolio bo'limlari asta-sekinlik bilan, maktabgacha yoshdagi bolaning imkoniyatlari va erishgan yutuqlariga muvofiq to'ldirib boriladi.

3) Pedagogik hodisa to'g'risida ma'lumot olish, ta'lim-tarbiya jarayonining dolzarb muammolarini hal qilish usullari to'g'risida xulosalar chiqarishga yordam beradigan vositalardan biri bu ekspert usulidir. Ekspert usuli – bu murakkab pedagogik muammolarni har tomonlama o'rganish, tahlil qilishga imkon beradigan yondashuvlardan biri bo'lib, u to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilishga yordam beradi. Mazkur usulda pedagogik jarayon mutaxassislar tomonidan sifat va miqdoriy jihatdan baholash orqali tahlil qilinadi va natijalar qayta ishlanadi. Ekspert baholash usuli asosan murakkab pedagogik jarayonlar, hodisalar yoki vaziyatlarni tahlil qilishga imkon beradi.

O'zbekistonning kelajak taraqqiyoti, salohiyati, bolalarga maktabgacha ta'lim yoshidanoq maqsadli ravishda ta'lim-tarbiya berish, rivojlantirish va maktabga tayyorlashga ko'p jihatdan bog'liqdir. Hozirgi kunda bolalarning maktabga tayyorgarlik darajalariga qo'yilayotgan jiddiy talablar bu borada zaruriy, nazariy va amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

Xulosa qilib aytsak, maktabgacha ta'limda ta'lim va tarbiya sifatini oshirish, pedagogik jarayonlarni samarali tashkil etish va olib borish tarbiyachi-pedagog mahoratiga bog'liq. U bolaga samimiy muhitni yaratib bera olishi bilan birga tarbiyachi-pedagogning yuz ifodasi muloyim, samimiy, bolalarga doim tabassum qila olishni bilishi kerak, ovoz ohangi baland bo'lmasligi kerak. Bolalarga soyabon kabi bo'lib issiq-sovuqdan asray olsa, oltin qoidalarga amal qilib ishlasa, bunday bolalardan kelgusida buyuk allomalar Alisher Navoiylar, Ibn Sinolar, Zamaxshariylar, Zulfiyaxonimlar yetishib chiqadi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Djurayev R.X., Tolipov O'.Q. va boshq. Pedagogik atamalar lug'ati. Toshkent, Fan, 2008. 198 b.
2. Крулехт М.В., Тельнюк И.В. Экспертные оценки в образовании: / Учебное пособие. – М.: Академия, 2002. – 112 с.
3. Bolotina.L.R., Komarova.T.S., Baranov S.P. Maktabgacha pedagogika. 2001 y.
4. Davletshin M.G., To'ychiyeva S.M. Umumiy psixologiya. Toshkent, 2002 y.
5. G'oziyev E.G. Psixologiya. Toshkent, 2010 y.

SPORT MEDITSINASINIŇ DENE TÁRBIYASI MENEN BAYLANISLÍLÍGÍ HÁM RAWAJLANIW DAWIRLERI

Qaljanov Raxman Polatovich – Nókis innovacion instituti “Baslawish tálim hám gumanitar pánler” kafedrası assistent oqıtıwshısı

Joldasbayev Paraxat Muratbayevich – Nókis innovacion instituti “Baslawish tálim hám gumanitar pánler” kafedrası aǵa oqıtıwshısı

Omirzaqov Ospan Polatovich – Dene tárbiya hám sport boyınsha qánigelerdi qayta tayarlaw hám tájriybesin asırıw instituti Nókis filiali oqıtıwshısı

Annotatsiya. *Bul ilmiy maqalada hozirgi ku'nde sport tarawında júda ahmiyetli bolǵan baǵdarlardıń biri yaǵniy sport medicinasınıń dene tárbiyası menen baylanısı hám bul tarawdıń Ózbekistanǵa kirip keliw tariyxı rawajlanıw basqıshları haqqında keń maǵluwmatlar berilgen.*

Tayanish sózleri: *Sabaq barısı, dene tárbiya, shınıǵıw, den sawlıq, fizikalıq sapalar, tárbiya, sabaq júklemesi.*

Dene tárbiyası teoriyası hám metodologiyası rawajlanıwınıń házirgi basqıshında bul jónelistiń tiykargı túsiniklerin anıqlawǵa kompleks jantasıwdı islep shıǵıw máselesi aktual bolıp qaldı. Bul bárinen burın, dene tárbiyasına tiyisli túsiniklerdiń jetekshi ulıwma pedagogikalıq termin hám kategoriyalar menen baylanısın ornatiw zárúrshiligi menen baylanıslı.

Mámleketimizdiń rawajlanıwınıń házirgi zaman basqıshında insandı tárbiyalaw, onıń fizikalıq sıpatların rawajlandırıw, salamatlıǵın bekkemlew, bilimlerin asırıw baǵdarında dene tárbiya hám sporttıń ahmiyeti úlken orın tutadı. Dene tárbiya hám sport-ulıwma xalıq mádeniyatınıń ajralmas bir



bólegi, mámlekettiń hár bir puqarası fizikalıq hám de mánawiy jetilisiwin támiyinlewshi negiz esaplanadı.

Dene mádeniyati teoriyasi hám metodikasi qánigelerin tayarlaw-bul joqarı oqıw orınlarınıń studentleri, magistrları, orta arnawlı tálim mákemeleriniń oqıwshıları ushın baǵdarlangan, yag'niy mekteplerde jumis islew barisinda dene ta'rbiya sabaqlari barisinda mug'allimlerdi haqiyqiy ma'nide maman qaniygeler etip ta'rbiyalaw barisi teren' qamtip aliniwi kerek ekenligi aniq aydin ko'rinedi. Dene tárbiyası qánigesine kásip tayarlıǵınıń ilimiy, teoriyalıq hám ámeliy materialların ózinde sáwlelendiriw hám dene tárbiyası procesin shólkemlestiriw máseleleri hám mámleketimizde dene tárbiyanıń tutqan ornı haqqındaǵı bilimlerin bayıtıwǵa járdem beriw ha'zirgi ku'ndegi o'z sheshimin ku'tip turg'an masqalalardan bolip tabiladi.

Ózbekistan Respublikası Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevtiń basshılıǵında mámleketimizde dene tárbiya hám sportqa úlken itibar qaratılmaqta. 2017-jılı 3-iyun dene tárbiya hám xalıq arasında sporttı jane de rawajlandırıw ilajları haqqındaǵı PQ-3031-sanlı, "Jámiyetimizde turmıs tárizin qalıplestiriw, xalıqtıń, ásirese dene tárbiyası hám ǵalabalıq sport menen úzliksiz shuǵıllanıwı ushın zaman talaplarına uyqas shárt-sháráyatlar jaratıw, sport jarısları arqalı jaslarda óz shıdamlılıǵı, kúshi hám múmkinshiliklerine bolǵan isenimdi bekkemlew, mártlik hám ana Watanǵa sadıqlıq sezimlerin kámal taptırıw, sonıń menen birge, jaslar arasınan intalı sportshılardı saralap alıw jumısların sistemalı shólkemlestiriw hám de dene tárbiyası hám ǵalabalıq sporttı jáne de rawajlandırıwǵa jóneltirilgen keń kólemli jumıslar ámelge asırılıp atır.",[1] 2018-jılı 5-marttaǵı «Dene tárbiya hám sport tarawında mámleket basqarıw sistemasın túpten jetilistiriw ilajları haqqındaǵı» PF-5368 sanlı pármanı "Jurtımızda dene tárbiyası hám sporttı ǵalabalastırıw, xalıq, ásirese, jaslar ortasında salamat turmıs tárizi haqqında úgit-násiyat jumısların alıp bariw ushın zárúr shárt-sháráyatlar hám infra strukturanı jaratıw, mámlekettiń xalıq aralıq sport maydanlarında múnásip qatnasıwın támiyinlew boyınsha izbe-iz ilajlar ámelge asırılıp atır" hám qararlarında jurtımız xalıq salamatlıǵın bekkemlewde dene tárbiya tayarlıǵın arttırıw, salamat turmıs tárizin endiriw máselelerine itibar qaratılmaqta.

Fizikalıq mádeniyat túsinigine tómendegiler kiredi:

- miynet hám tirishilik puxtalıq ;
- kiyim, jay hám bólmelerdiń tazalıǵı ;
- jeke gigiyena hám kún rejimine ádetleniw, kún dawamında tuwrı iskerlik hám dem alıw, uyqı, awqatlanıw soǵan uqsaslar ;
- tábiyiy sháráyat ta organizmdı shınıqtırıw : hawa, quyash hám suw járdeminde;
- fizikalıq shınıǵıwlar.



Fizikaliq rawajlanıw adam organizmindegi forma hám wazıypalardıń ózgeriwi, bulshıq etlerdıń ósiwi hám artıwın ańlatatuǵın biologiyalıq process bolıp tabıladı.

Fizikaliq rawajlanıw turmıs nızamları ortalıq hám organizmniń birligi tiykarında ámelge asadı.

Dene tárbiyası insan organizmin morfologik hám funksional rawajlanıwı, onıń fizikaliq sapaları hám qábiletlerin rawajlandırıw, háreket ilmiy tájriybeleri hám kónlikpelerin qáılestiriw hám de olar menen baylanisli bolǵan bilimlerde payda etiw hám bekkemlewge baǵdarlangan pedagogikalıq process bolıp tabıladı.

Dene tárbiyası bala organizminiń funksional múmkinshiliklerin asırıp, onıń intellektual iskerligi menen orınlawǵa kómeklesedi, qol háreketleniwi, sóylewdi háreketke keltiretuǵın oraydıń rawajlanıwına unamlı tásir etedi.

Joqarida keltirilgen metodologiyalıq tiykarlardan kelip shig'ip dene ta'rbiyası pa'nin basqa pa'nler menen baylanisli ta'replerin ken'lew tu'de ko'rip shig'iw orinle bolip tabiladi.

Dene ta'rbiyası pa'nine en' jaqin bag'darlardin' biri bul adam fiziologiyası yaki sport meditsinasin ko'rip shig'iw orinli bolip tabiladi. Sport meditsinasi bul o'z aldina ken' bag'dar bolip dene ta'rbiyası menen yaki sport penen shug'illaniwshilar organizminde islenip atirilg'an ha'reketler kompleksinin' paydali yaki zaleli haqqında ken'nen mag'lwmatlardi, ha'm ilmiy tiykarlang'an pikirlerdi berip o'tegin taraw bolip tabiladi. Xosh bul taraw haqqında nelerdi bizge belgili sol haqqında qisqasha ko'rip o'tsek.

Ózbekstanda sport medicinasınıń rawajlanıw tariyxı. Ózbekstanda dene tárbiyasınıń rawajlanıwı menen bir qatarda meditsinaning jańa ǵárezsiz tarmaǵı - dene tárbiyasında medicinalıq qadaǵalaw payda boldı. Turkistonda dene tárbiyası hám sport processleriniń rawajlanıwı respublikanıń ulıwma áskeriy tálim shólkemleri hám den sawlıqtı saqlaw xalıq komiteti tárepinen ámelge asırıladi.

Turkiston respublikalar oraylıq komiteti hám Turkiston fronti áskeriy revolyuciya soveti 1920 jılda ulıwma májburiy áskeriy tálim haqqında dekret shıǵardı. Bunda xalıq bilimlendiriw komiteti tárepinen ulıwma áskeriy tálim járdeminde mektep jasındaǵı jaslardıń jetilisken fizikaliq rawajlanıwı ushın 8-16 jasqa shekem mektep hám 16 -18 jastan óspirimler ushın bolsa áskeriy tayarlıq úyretiw zárúr dep ataladı. Bul wazıypa 2 shıpaker hám 1 dene tárbiyası instruktori bolǵan ulıwma áskeriy tálim shólkemlerine yuklenedi. Fizikaliq tayarlıq ótip atırǵan shaxslar ústinen qadaǵalaw respublika xalıq den sawlıqtı saqlaw komitetinde islengen, fizikaliq tayarlıq dárejesin bahalaw bolsa, den sawlıqtı saqlaw bólimine yuklenedi. Bul bólimniń shtatı shıpaker, pedagog hám dene tárbiyası instruktordan ibarat bolǵan. [2;12]



1922 jilda Dene tárbiyası hám tálim programmaları hám jobaların tastıyqlandı, dene tárbiyası instruktorlari ushın qısqa hám uzaq múddetli kurslar dúzildi, dene tárbiyası úgit-násiyatlawına dene tárbiyası sarayları, stadion, maydanshalar, antropometrik kabinetler ashıldı.

1923 jilda balalar den sawlıqtı saqlaw bólim rejesine balalar mákemelerine dene tárbiyasın kirgiziw, mekteplerde balalar shólkemlerinde Narkompress shólkemlerinde medicina sanitariya qadağalawı máselelerin islep shıǵıw názerde tutıldı.

Respublikada birinshi márte shıpakerler Lyubimova hám Ukrantsovalar basshılıǵında mekteplerde balalar dene tárbiyası ushın programmalar islep shıǵıldı, oqıw saatları belgilendi hám fizikalıq shınıǵıwlar hám sporttıń ayırım túrlerinen shınıǵıwlar dúzildi. Respublika xalıq den sawlıqtı saqlaw komiteti dene tárbiyasın medicinalıq xızmeti menen támiyinlewge baǵışlangan uzaq múddetli programmalarǵı islep shıǵıwda xalıq den sawlıqtı saqlaw komiteti húkimlerine tiykarlandı, qabıl etilgen qararlarda respublika xalqın eń kishi jastan baslap dene tárbiyasına qosıw zárúr, dep tabıladı. Insannıń biologiyalıq ózgesheligi onıń jası hám psixologiyalıq qásiyetleri menen birgelikte úyreniw máseleleri qoyıldı.

Jańadan dúzilgen programmada dene shınıqtırıw hám shınıǵıwlar, oyunlar, gimnastika hám sport túrleri ósip atırǵan organizmniń talapları tiykarında balalar salamatlıǵın hám psixik iskerligin bekkemlew faktori retinde ótkeriliwi zárúrligi kórsetiledi.

Shıpakerlerge dene tárbiyası menen shuǵıllanatuǵınlar salamatlıǵın hám fizikalıq rawajlanıwın anıqlaw, olardıń tayarlıǵı hám psixik qásiyetlerine qaray toparlarǵa bólistiriw sıyaqlı wazıypalar juklenedi. Fizikalıq rawajlanıwda kemshilikleri bolǵan shaxslarǵa arnawlı korrektsiyalaytuǵın shınıǵıwlar belgilenedi, onnan tısqari medicina xızmetkerleri shınıǵıw protsesin hám shınıǵıw ótkeriletuǵın jaylardı turaqlı baqlawları, sonıń menen birge dene tárbiyasınıń miynet processlerine hám balalar salamatlıǵı tásirine ataq beriwleri kerek boladı.

Barlıq 7 jıllıq tálim mektepleriniń oqıw jumıs programmalarında balalar dene tárbiyası ushın oqıw saatınıń 6/1 bólegi, joqarı dárejeli mekteplerde 5/1 bólegi ajratıladı.

Mektep sanitariya shıpakerleri mektep keńesi quramına kiritiledi. Olar fizikalıq júkleniwlerdi belgilewleri hám fizikalıq shınıǵıwlardıń oqıwshılar organizmine olardıń jası qásiyetlerin esapqa alǵan halda tásinin úyreniwleri, fizikalıq shınıǵıw menen shuǵıllanatuǵınlar ústinen medicinalıq qadağalaw ornatiwları, sonıń menen birge mektep oqıwshılarınıń fizikalıq rawajlanıwın antropometrik usıllar menen úyreniwleri zárúr edi. [3;88]

1924 jilda Qóqonda respublikada ekinshi mektep - profilaktika ambulatoriyası jumıs basladı. Sol jıl dawamında Tashkent hám Qóqon mektep



profilaktikalıq ambulatoriyalar esabati boyınsha: 4000 oqıwshı hám 1400 ge jaqın óspirimler tekserildi. Biraq mektep-sanitar shıpakerleri fizikalıq shınıǵıwlar menen shuǵıllanıp atırǵanlardıń medicinalıq qadaǵalawına jetkilikli dárejede itibar bere almadı. Den sawlıqtı saqlaw xalıq komitetiniń mektep oqıwshılardıń medicinalıq xızmet penen támiyinlew haqqında 1923 jılda qabıl etken programmasın turmısqa tolıq nátiyjeli engiziw qiyin bolıp qalǵan edi.

Dene tárbiyası menen shuǵıllanıp atırǵan balalardı medicinalıq xızmet penen támiyinlew jáne de uyımlastırılǵan hám de joybarlastırılǵan halda alıp barıladı. Medicinalıq shınıǵıwlar tiykarında jeke medicinalıq kartochkalar toltırıladı, bunda antropometrik kórsetkishler (boy uzınlıǵı, tós sheńberi tınısh jaǵdayında, nápes alǵanda hám nápes shıǵargandagi kórsetkishi) awqatlanıwı, gewde dúzilisi, tayansh-háreket apparatınıń jaǵdayı hám taǵı basqalar, sonıń menen birge fizikalıq tayarlıqları ushın ruxsat haqqında juwmaqlar sáwlelendirildi. 1925 jılda Tashkentte dene tárbiyasınıń kásiplik awqamı bayramın ótkeriw ushın tayarlıq medicinalıq qadaǵalaw jumıslarınıń rawajlanıwı ushın faktor boldı. Ǵalabalıq dene tárbiyası urıs qatnasıwshısıları májburiy túrde dáslepki medicinalıq tekseriwden ótip shıpaker juwmaǵı tiykarında jarıslarda qatnasıw ushın ruxsat alıwları zárúr edi. Urıs qatnasıwshısılardı medicinalıq kórikten ótkeriw mektep-profilaktika ambulatoriya bazasında shıpaker Ukraintsova bassılıǵında alıp barıldı. Jarısta qatnasatuǵın hár bir urıs qatnasıwshısına to'ldirilgan medicinalıq kartalarda antropometrik ólshew kórsetkishleri hám salamatlıǵınıń ulıwma jaǵdayı sáwlelendirilgen edi.

Shıpakerler ayırım sport túrleriniń dene tárbiyası menen shuǵıllanatuǵınlar organizmine tásin úyrendiler. Mısalı, juwırıwdıń sóylewge, xarakterge, háreketlerge, sırtqı kórinisine, dem alıw tezligine hám pulsqa tási haqqında maǵlıwmatlar bar. Alınǵan maǵlıwmatlar analiz etildi hám keyingi soǵan uqsas jarıslardı ótkeriwdi usınıs etiw ushın úyrenildi.

1926 jılda Tashkentte Ózbekstanda birinshi ret walayatlarda medicinalıq qadaǵalawdı shólkemlestiriw ushın dene tárbiyasınan shtatlı shıpaker etip Ilinsiy I. P. tayınlandı. Ol barlıq sport jámáátleri "Profinteri", "Dinamo", "Krasniy pechatnik" hám basqa sportshılar, dene tárbiyası menen shuǵıllanatuǵınlardı medicinalıq xızmet menen támiyinledi, dene tárbiyasın úgit nasıyatlaw salasında úlken jumıslar etdi hám salamatlıq ushın miynet ónimliligin asırıw ushın onıń áhmiyetin ashıp berdi.

1926 jılda Samarqand qalasında Ózbekstannıń birinshi dene tárbiyası kásiplik awqamları bayramın ótkeriwge tayarlıq - medicinalıq qadaǵalaw rawajlanıwında keyingi basqısh bolıp tabıladı. Jarısta qatnasıw ushın sog'ligi qanaatlanǵan bolǵan, fizio-logik hám fizikalıq tayınlıǵın etarli bolǵan shaxslarǵa ruxsat etildi. Jarıs urıs qatnasıwshısıları eki retten medicinalıq kórikten ótkerildi (shınıǵıw, trenirovka baslanıwınan aldın hám jarısqa jiberiwden aldın). SHaxsiy



quram úlken shıpkaker, dene tárbiyası instruktóri hám kásiplik awqamı baslıǵı tárepinen tastıyıqlandı. Jarıs baslanıwı aldından dene tárbiyası bayramı urıs qatnasıwshısıları arnawlı shıpkakerler komissiyasınan qosımsha tekseriwden ótken ediler.

1928 jılda Samarqand, Qo'qon, Andijan wálayat komitet-larida dene tárbiyası bólimlerine shtatlı shıpkakerler kirgizildi. Bul qalalarda islep turǵan hám jańa ashılǵan mektep-profilaktikalıq ambulatoriyalarda dene tárbiyası menen shug'ul-lanuvchılarnı támiyinlew ushın shıpkakerler kabinetleri dúzildi. Tashkentte mektep profilaktikalıq ambulatoriya shtatına dene tárbiyası boyınsha qosımsha shıpkaker kiritiledi, bul lawazımǵa shıpkaker Fredrix tayınlanadı.

Arxiv materiallarında wálayat dene tárbiyası shıpkakerleri esabatlarınıń joq ekenligi olar tárepinen etilgen jumıslar kólemin bahalawǵa múmkinshilik bermeydi. Tek Tashkent medicinalıq dene tárbiyası kabineti jumısları haqqında maǵlıwmatlar bolıp, bunda 1928 jıl dawamında 2777 kisi qabıl etilgen, jumısshılardan 1410 adam er adam (orıslar), 470 adam hayal, 171 ózbek, 726 mektep oqıwshılardı (hár túrlı milletke tiyisli) bolǵan. [4;105]

Medicinalıq tekseriwler nátiyjesinde 744 (29,2) kisige salamatlıǵı hám fizikalıq tayınlıǵı sebepli jarıslarda qatnasıw ruxsat etilmegen.

1928 jıl iyulda ótkerilgen dene tárbiyasınıń II Uluwma Ózbekistan spartakiadasi respublikada medicinalıq qadaǵalawdıń keyingi keleshekтегі rawajlanıwı ushın jaqsı faktor boldı. Bul spartakiadani támiyinlew ushın spartakiada baslanıwdan 1,5 ay aldın Uluwma Ózbekistan spartakiadasi shólkemlestirilgen komiteti quramında respublika den sawlıqtı saqlaw xalıq komiteti tárepinen I.P Ilyansiy baslıqlıǵında bes shıpkakerden ibarat bolǵan medicinalıq qadaǵalaw komissiyası dúzildi. Oraylıq medicinalıq qadaǵalaw komissiyasına jarıs urıs qatnasıwshısıların qadaǵalawı hám qayta medicinalıq kórikten ótkeriw, jarıs ótkeriletuǵın orınlardıń sanitariya -gigienik jaǵdaylarınıń ústinen qadaǵalaw, ayırım sport túrleriniń sportshılar organizmine tásirin úyreniw wazıypaları yuklenedi. Shıpkakerler komissiyası aldına jarıs urıs qatnasıwshısılarınıń (velokross - 30 km, kross: er adamlar 8 km hám áyeller 1500 m, juwırıw 5 km, júriw 20 km, gúres hám awır taslardı kóteriw) júrek qan tamır sisteması xızmetlerin, azıqlıq almasınıw processlerin anıqlaw sıyaqlı anıq wazıypalar qoyıldı.

Esabat kórsetkishleri boyınsha 1946 jıl dawamında Tashkentte medicinalıq qadaǵalaw punktinen 24329 adam tekseriwden ótti, usılardan 10386 adam dene tárbiyası urıs qatnasıwshısıları, 6826 - mektep oqıwshıları, óner-texnika bilim orınları oqıwshıları hám 7117 joqarı oqıw orınları studentleri edi.

1947 jılda dene tárbiyası hám sport penen shuǵıllanatuǵın adamlardıń salamatlıǵın medicinalıq qadaǵalawǵa alıw ushın qala den sawlıqtı saqlaw



bólimine shıpaker shtatı lawazımı kirgizildi. Sol jıldan baslap qala medicinalıq dene tárbiyası kabineti iskerlik kórsete basladı jáne bul kabinet 1948 jılda qala medicinalıq dene tárbiyası orayına aylantırıldı. 1947 jılda dene tárbiyası háreketi salasında eń iri ilajlardan biri Moskvada bolıp ótetuǵın ulıwmalastırılǵan dene tárbiyası kursında qatnasıw ushın 2000 dene tárbiyasıshı tayarlandı. Kurs urıs qatnasıwshılarınıń tańlaw jumısları arnawlı tayarlanǵan quramda shıpaker I. P. Ilinskiy, O.G.Mudutseva, O.M. Jegallodan ibarat bolǵan medicinalıq baqlaw komissiyasınan ótkerildi. 1947 jıl Ózbekstanda medicinalıq dene tárbiyası kabinetleri tarmaqların shólkemlestiriwdi tamamlaw hám respublikada dene tárbiyası háreketin medicinalıq xızmet penen támiyinlew islerdiń sapasın jáne de asırıw jılı boldı. Bul waqıtqa kelip xalıq den sawlıqtı saqlaw komiteti tárepinen respublikada dene tárbiyasınan 35 shıpaker lawazımı, yaǵnıy hár bir wálayatda ortasha 2-3 shıpaker lawazımdı shólkemlestiriw názerde tutıldı. Sol jıllarda valantyor sport jámiyetlerde, mektep, joqarı oqıw orınları hám shólkemlerde dene tárbiyası menen shuǵıllanatuǵınlar sanı jáne de asdı. Bul hal den sawlıqtı saqlaw shólkemlerinen dene tárbiyashılardı medicinalıq xızmet menen támiyinlew jumıslarına poliklinika tarmaqları hám shólkemler shıpakerleriniń úlken bólegin qosıwdı talap etedi. Bul waqıtta 147591 kisi medicinalıq kórikten ótti, ol dene tárbiyası menen shuǵıllana arıtǵanlardıń 80% in quradı. Ózbekstan den sawlıqtı saqlaw ministrliginiń bes jıllıq (1946 -1950 jıllar) programmasında medicinalıq dene tárbiyası jumıslarına 230 shıpaker hám emleytuǵın dene tárbiyası boyınsha 230 dane instruktör-metodist tayarlaw názerde tutıldı. 1948 jıl iyun ayında Ózbekstan den sawlıqtı saqlaw ministrligi buyırǵına qaray, Tashkentte iri respublika medicinalıq dene tárbiyası metodikalıq orayı dúzildi Bul oray quramında bes shıpaker bar edi, metodikalıq oray basqarıwshısı etip shıpaker O.M. Jegallo tayınlandı. Tez waqıt ishinde sonday medicinalıq dene tárbiyası orayları iri qalalar Samarkand, Andijan, Fergana hám Buxarada dúzildi.

1948 jılda medicinalıq dene tárbiyası kóriginen 151175 kisi ótip, olar medicinalıq gruppalarǵa bolındı. Sonı atap ótiw kerek, gruppalarǵa bolıw 1948 jıldaǵı instruktiv kórsetpe bolıp tabıladi.

1948 jılda respublikada jaslar birinshi ret medicinalıq dene tárbiyası kóriginen ótken, dene tárbiyası menen shuǵıllanatuǵınlar medicinalıq gruppalarǵa bólinedi. Olardıń salamatlıq jaǵdayın, fizikalıq rawajlanıw hám fizikalıq tayarlıǵın esapqa alǵan halda tiykarǵı, kúshli hám kúshsiz medicinalıq gruppalarǵa bolındı. Sol jıldan baslap sportshılardıń shiniqqanlıǵın anıqlawda Letunov sinamasi qollanıla baslandı. Den sawlıqtı saqlaw ministrligi buyırǵı menen 1950 jılda medicinalıq dene tárbiyası orayları medicinalıq dene tárbiyası dispanserlerine aylantırıladi. Usınıń sebebinen Tashkent shtatında bes kisi bolǵan respublika medicinalıq dene tárbiyası dispanseri dúzildi, baslıq etip V.A. Batokova tayınlandı hám sonıń menen birge qala medicinalıq dene tárbiyası



dispanseri shólkemlestirilip, buǵan O.M.Jegallo basshılıq etdi. Buxara, Samarqand, Fergana, Andijan hám Namangan shtatında keminde bir dana shıpaker bolǵan wálayat medicinalıq dene tárbiyası dispanserlari shólkemlestiriledi. Qóqan, Chirchiq hám Urgenshde bir shtatlı medicinalıq dene tárbiyası kabinetleri saqlanıp qaldı.

1955 jılda húkimet sheshimi tiykarında dispanserlar emlew profilaktikalıq mákemeler qasındaǵı medicinalıq dene tárbiyası jaǵdaylarına ótkeriledi. 1959 jıldan baslap respublikada dene tárbiyası háreketiniń kúshli rawajlanıwı sebepli aldınǵı iskerlikte bolǵan medicinalıq dene tárbiyası dispanserlari taǵı qayta tiklendi. 1960 jılda Tashkentte qala hám respublika medicinalıq dene tárbiyası dispanserlari birlestirildi hám baslıq etip shıpaker M. B Frank tayınlandi. M. B. Frank dispenserǵa 40 jıl dawamında basshılıq etdi. Respublikada medicinalıq qadaǵalawdı shólkemlestiriwde jáne onıń rawajlanıwında 1958 jılda islengen Ózbekistan dene tárbiyası institutıń sport medicinası hám emleytuǵın dene tárbiyası kafedraları zárúrli áhmiyetke iye boldı. Kafedrada studentlerge medicinalıq qadaǵalaw hám emleytuǵın dene tárbiyası usılları uyretildi, kafedra respublikaǵa emlew dene tárbiyasınan instruktorlar, sport massajı boyınsha qánigeler tayarlab beredi.

Usılay etip elimizde birinshe ret sport meditsinası tarawınıń rawajlanıw jolları hám basqishların kórsek boladı. Hazirgi kúnde elimiz óz ǵaressizligine eriskennen soń sonıń menen birge 1993-jılı millik olimpia komiteti dúzilip Ózbekistan respublikası xalıq aralıq olimpia komitetine aǵza bańlı berli elimiz sportshi jasları birqansha abıroylı bport jarıslarında elimiz bayraǵın joqarı shıńlarǵa kóterip kiyatir. Sportshılarimizdiń haqıyqiy mánide profissional sportshılar bolip jetilisiwinde házirgi waqıtta sport medicinasınıń orni girewli bolip tabiladi.

PAYDALANILǵAN ÁDEBIYATLAR:

1. Ózbekistan Respublikası Prezidentiniń Sheshimi, 03. 06. 2017 jıldıǵı PQ-3031-san
2. Saidov B.M. sport tibbiyoti. darslik. "fan va texnologiya" nashriyoti, 2013.
3. А. Г. Макарова Спортивная медицина: Учебник. - М.: Советский спорт, 2003 - 480 с: ил.
4. Учебно-методический комплекс для студентов специальности 1-03 02 01 «Физическая культура» Новополюцк ПГУ 2015



GIPERMATNLI AXBOROTLARNI MODELLASHTIRISHGA O'RGATISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Qodirov Mirjalol Tolmasovich – Turon
nodavlat universiteti "Iqtisodiyot va xorijiy
mamlakatlar iqtisodiyoti" kafedrasini o'qituvchisi

Annotatsiya. Hozirgi vaqtda modellash tirish umumiy ilmiy xususiyatga ega bo'lib, tirik va jonsiz tabiatni o'rganishda, inson va jamiyat haqidagi fanlarda qo'llaniladi. Ilmiy modellarning asosiy maqsadi bilim predmeti bilan bog'liq ma'lumotlar yig'indisini tushuntirishdir. Shuning uchun modelning asosiy maqsadi va vazifasini faqat prototip haqida ma'lumot olish vositasi sifatida xizmat qilishda ko'rish noto'g'ri bo'ladi. Obyektni uning modelidan foydalanib tushuntirish u haqida yangi bilimlarga ega bo'lishni anglatadi.

Kalit so'zlar: model, modellash tirish, gipermatn, havolalar, interaktivlik, axborot tizimlari, o'zaro bog'lanish, ma'lumotlar strukturasini tuzish.

Kirish. Pedagogika fanlari sohasida gipermatn konsepsiyasi so'nggi yillar davomida tadqiqotchilarni o'ziga jalb qildi. Nelson birinchi bo'lib turli xil havolalarga ega hujjatlarga nisbatan gipermatn mavjudligi g'oyasini ilgari surgan, keyin Epshtein V.L. ushbu muammoni nazariy o'rganishni davom ettirdi va Bush V. birinchi marta gipermatn g'oyasini amalda qo'lladi. Prokoptsov V.I. gipermatnning "kitob" versiyasini ko'rib chiqadi, ya'ni. ma'lum bir mavzu bo'yicha ma'lumotlarni bloklarga ajratadi va uni kitob shaklida amalga oshiradi. Asosiy g'oya – matn qismlarini bog'lash va mazmunli matn qurish uchun semantik yaqinlik mezonidan foydalanishdir. Tadqiqotchilar gipermatnga turli nuqtayi nazardan qarashgan. Gipermatnni axborot modeli ko'rinishida taqdim etish hozirda talabga ega bo'lsa-da, hali ham yetarli darajada asoslanmagan. Bugungi kunga kelib, ma'lumotni gipermatn ko'rinishida taqdim etishning namunasi va qiziqishning asosiy sharti global tarmoqning, aniqrog'i WWW (World Wide Web) xizmatining deyarli misli ko'rilmagan muvaffaqiyatidir.

Hozirgi vaqtda gipermatnli texnologiyalardan foydalanish bo'yicha bir qancha darsliklar nashr etilgan, lekin ko'pincha ular faqat informatika yo'nalishi talabalari uchun qo'llaniladi, shu bilan birga har qanday o'qituvchi materialni o'quv maqsadlarida foydalanish uchun qulay shaklda tuza olishi kerak.

O'qituvchi ta'limida kompetensiyaga asoslangan yondashuvga oid monografiya mualliflari nuqtayi nazaridan o'qituvchi ta'limining maqsadlaridan biri asosiy kompetensiyani rivojlantirish orqali asosiy kasbiy kompetensiyani shakllantirishdan iborat.

O'qituvchining axborot-kommunikatsiya kompetensiyasini rivojlantirish



hozirgi vaqtda uzluksiz pedagogik ta'limning eng dolzarb vazifalaridan biridir.

O'qituvchining axborot-kommunikatsiya kompetensiyasini rivojlantirishning asosiy usullari quyidagilardir:

- kompyuterda axborotni qayta ishlash texnologiyalarini nazariy va amaliy jihatdan o'rganish;
- fanni o'qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanish samaradorligini amaliy qo'llash, asoslash va isbotlash uslublarini ishlab chiqish;
- fanni o'qitish metodikasini AKTdan foydalanish imkoniyatlarini hisobga olgan holda o'zgartirish, telekommunikatsiyalar orqali darsda AKTdan foydalanish bo'yicha tajriba almashish madaniyatini singdirish.

Axborot-kommunikatsiya kompetensiyasini uchta komponentdan iborat:

- bilish;
- foydalana olish;
- ta'lim faoliyatida qo'llay olish.

Hozirgi vaqtda istiqbolli axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan biri bu gipermatnli texnologiya bo'lib, u ta'lim tizimida veb-saytlar va turli elektron o'quv adabiyotlarini yaratishda keng tarqalgan. Ushbu texnologiyaning asosini o'quv materialining gipermatnli axborot modeli tashkil etadi. Hozirgi vaqtda veb-saytlarni yaratish usullari ishlab chiqilgan, ammo shu bilan birga o'quv materialini gipermatnli axborot modellashtirish bo'yicha savollar etarli darajada ishlab chiqilmagan.

Bu maqolada talabalarga nafaqat bilimlar tizimini berish, balki ularni samarali yo'llar bilan qurollantirish, yangi bilimlarni mustaqil egallash, refleksiv idrok etish va kelajakdagi kasbiy faoliyatida qo'llash ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

Gipermatnli axborot modellashtirish dolzarbligi quyidagilar o'rtasida qo'shimcha qarama-qarshiliklar mavjudligi bilan kuchayadi:

- o'quv jarayonida o'quv materialining gipermatnli axborot modellariga bo'lgan talab va ularni yaratishda ta'lim mutaxassislarini tayyorlash masalalarining yetarli darajada rivojlanmaganligi;
- tizimli bilimga qo'yiladigan zamonaviy talablar va gipermatnli axborotni modellashtirishdan foydalangan holda o'quv materialini tizimlashtirishga yaxlit uslubiy yondashuvning yo'qligi.

Gipermatnli axborot modellashtirish muammosi ta'lim bo'yicha mutaxassisning axborot-kommunikatsiya kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan o'quv materialini gipermatnli axborot modellashtirish bo'yicha o'qitish usullarining yetarli darajada asosli emasligidir.

Xulosa. Gipermatnli axborotlarni modellashtirishdan maqsad gipermatnli axborotni modellashtirishni o'rgatish metodikasini nazariy

asoslash va ta'limni axborotlashtirish sharoitida ta'lim mutaxassisining axborot-kommunikatsiya kompetensiyasini rivojlantirish vositasi sifatida foydalanish samaradorligini eksperimental tekshirishdan iborat.

Axborot ko'p va doimiy ravishda kengayib borayotgan raqamli davrda murakkab axborot tarmoqlarida harakat qilish, tartibga solish va tushunish qobiliyati birinchi o'rinda turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ergashev, Nuriddin. "Ergashev Nuriddin G'ayratovich N. G'. Ergashev, A. O'. Shukurov. SN Siradjev. Raqami axborot texnologiyalari. O 'quv qo 'llanma. Intelekt, Qarshi 2023. 220-b.: N. G'. Ergashev, A. O'. Shukurov. SN Siradjev. Raqami axborot texnologiyalari. O 'quv qo 'llanma. Intelekt, Qarshi 2023. 220-b." *E-Library Karshi EEI* 1.01 (2023).
2. Shukurov, A. U. "Didactic opportunities for the introduction of cloud technologies." *Electronic journal of actual problems of modern science, education and training* 10.2 (2021): 29-35.
3. Razzoqovich, T. S., and S. A. Uktamovich. "IMPROVING THE LEARNING PROCESS AND INFORMATION LEARNING SPACE USING GOOGLE'S CLOUD SERVICES International conference on multidisciplinary research and innovativ." (2021).
4. Shukurov, Akmal. "THE ROLE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN THE DEVELOPMENT OF THE NEW UZBEKISTAN." *Models and methods in modern science* 1.18 (2022): 35-38.
5. Uktamovich, S. A. "Specific Aspects Of The Methodology For Using Cloud Technologies In Virtual Education. Eurasian Scientific Herald 13, 47-54." (2022).
6. Uktamovich, S. A. "STAGES OF DEVELOPMENT, DIRECTIONS AND COMPARATIVE ANALYSIS OF CLOUD TECHNOLOGIES European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol 8 (12)." (2020).
7. Uktamovich, S. A. "Stages of development of cloud technology in education Eurasian Scientific Herald 5, 48-51. 2022."
8. Gayratovich, Ergashev Nuriddin, Shukurov Akmal Uktamovich, and Jabborov Elbek Erkin o'g'li. "Using the capabilities of modern programming languages in solving problems of technical specialties. academia An International Multidisciplinary Research Journal. 2019. 686-696."
9. Uktamovich, Shukurov Akmal. "Specific Aspects Of The Methodology For Using Cloud Technologies In Virtual Education." *Eurasian Scientific Herald* 13 (2022): 47-54.



ONA TILI FANINI "4K" YONDASHUVI ASOSIDA O'QITISHDA "SMALL STUDY" METODIDAN FOYDALANISH

Radjabova Komila Bahodirovna – Navoiy shahar 11-
AFCHO'IM ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi, Xalq
ta'limi a'lochisi

E-mail: komilabahodirovna8177@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu metodik tavsiyada umumta'lim maktablarida "4K" modeliga asoslangan innovatsion yondashuvni **"Small study" metodi** orqali qo'llash usullari yoritilgan. Natijada o'quvchilarni kreativ, mustaqil va ijodiy fikrlashga o'rgatishda xizmat qiladigan zamonaviy usullar nazariy va amaliy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: PISA, "Small study" metodi, kreativ fikrlash, kollaboratsiya, kommunikativlik, kritik fikrlash, matn.

Ta'lim sifatini oshirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni samarali qo'llashning o'рни beqiyos. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev shunday ta'kidlaydi: "...Mamlakatimizning dunyodagi rivojlangan, zamonaviy davlatlar qatoridan munosib o'rin egallashi, avvalo, ilm-fan va ta'lim-tarbiya sohasining rivoji bilan, bu borada bizning dunyo miqyosida raqobatdosh bo'la olishimiz bilan uzviy bog'liq". Shuning uchun ham bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri o'quvchilarimizni yuksak ma'naviyatli, chuqur bilimli, keng mushohadali, ijodkor, eng asosiysi, xalqaro tadqiqotlarga munosib ishtirok eta oladigan, yetuk tafakkur sohibi qilib tarbiyalashdir. Bu vazifani bajarish uchun esa ona tili ta'limi zimmasiga ulkan mas'uliyat yuklatiladi.

O'qitish tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, aksariyat o'quvchilar grammatik topshiriqlarni yaxshi bajaradi, ammo erkin fikr bildirishda, mustaqil fikrini og'zaki va yozma bayon etishda qiyinchiliklarga duch keladi. Buning tub sababi shuki, ularda o'z ijodiy fikrini bayon etish qobiliyati yaxshi rivojlanmagan. Shu bois ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari zimmasida yoshlarimizning tafakkurini, savodxonligini oshirishdek katta muammo turibdi.

Hozirda PISA tadqiqotlariga o'quvchilarni tayyorlashda ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi tomonidan har bir yo'nalish bo'yicha ishlab chiqilgan metodik qo'llanma va mashq daftarlari dasturulamal bo'lmoqda. Shuningdek, tegishli fanlar kesimida milliy o'quv dasturi asosida yaratilayotgan yangi darsliklar xalqaro baholash dasturi talablari asosida takomillashtirilmoqda. Jumladan, yaqin yillarda 6, 7, 10-sinf ona tili o'quv dasturlarida tubdan o'zgarish bo'ldi va darsliklar qayta ishlandi. Amaldagi dasturda mavzular faqat nazariy bilimlardan iborat bo'lsa, yangi dastur mazmuni nazariya va amaliyotga birday yo'naltirildi. Amaliy faoliyatga yo'naltirilgan mashq va topshiriqlar, ularning

mazmuniga metodlar singdirildi. Darsliklarda matnlar bilan ishlashga katta ahamiyat berildi. O'quvchilarning so'z boyligini oshirish maqsadida juda ko'plab so'zlarning izohli lug'ati berildi. Matnlar bilan ishlash uchun **to'rt ko'nikma: tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish** bo'yicha malaka talablari ishlab chiqildi. Buning natijasida bola, avvalo, matn tuzish texnikasini o'rganadi. Mustaqil matn tuzib, fikrini bemalol yozma bayon eta oladigan bo'ladi. Matn, lug'at, nutq bilan ishlash jarayonida qanday so'zlardan foydalanish kerakligini, qaysi so'z qo'llansa, o'rinli bo'lishini anglab yetadi.

Yangi darslikka kiritilgan mantiqiy, kreativ fikrlashga undovchi, tanqidiy-tahliliy hamda motivatsiya beruvchi matnlar ustida o'quvchilar bilan tizimli ish olib borishda, ularni xalqaro sinovlarga tayyorlashda 4 K yondashuvi samarali natijalar berishi shubhasiz. Chunki o'quvchi matnni o'qiydi, ijodiy fikrlaydi, jamoada fikr almashadi, tanqidiy fikrlash asosida xulosa chiqaradi. Demak, bugun o'quvchilarimizni 4 K yondashuviga asoslangan innovatsion usullar yordamida o'qitsak, ko'zlagan natijamizga erishishimiz mumkin. Men o'z faoliyatimda samarali qo'llayotgan **"Small study"** metodini sizlarga tavsiya etmoqchiman.

"Small study" — ingliz tilida "kichik tadqiqot" ma'nosini anglatuvchi metod bo'lib, bir qancha innovatsion usullarni o'z ichiga qamrab oladi. Bu metod milliy o'quv dasturi asosidagi mavzularni o'rganishda o'qituvchi, o'quvchilar uchun juda qulay va qiziqarlidir. "Small study" metodi "4K" yondashuviga asoslangan bo'lib, quyidagi usullarni ma'lum bir yo'nalishda qo'llash o'quvchilarni mustaqil va ijodiy fikrlashga undaydi, ularning tafakkurini o'stirib, nutqini rivojlantiradi:

- ❖ **"Jumla javohirin joyla";**
- ❖ **"STEAM";**
- ❖ **"Sarlavha sehri";**
- ❖ **"Logo";**
- ❖ **"Hashar";**
- ❖ **"Mo'jaz mikrofon";**
- ❖ **"Tanqidiy tafakkur";**
- ❖ **"True-false".**

"Small study" metodining qo'llanishi:

- darslarni milliy o'quv dasturi asosida tashkil etishda;
- o'quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlashda;
- matnlar bilan ishlashda;





- o'tilgan mavzularni takrorlashda;
- yangi mavzuni o'rganish jarayonida;
- mavzuni mustahkamlashda;
- mustahkamlash darslarida;
- mahorat darslarida;
- iqtidorli hamda bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan ishlaganda;
- ilg'or pedagogik texnologiya asosida tashkil etilgan barcha darslarda.

"Small study" metodining afzalligi:

- bu metoddan 5–11-sinflar kesimida foydalanib, kichik tadqiqot o'tkazish mumkin;
- metod asosidagi usullarni qo'llash alohida sharoitlar talab etmaydi;
- bitta matn ustida ishlanganda deyarli barcha usullarni bosqichma-bosqich qo'llash imkoniyati mavjud;
- o'quvchilar bilimi va savodxonlik darajasi oshishi, tafakkuri rivojlanishi uchun xizmat qiladi;
- o'quvchilarni faol, sergak, tezkor bo'lishga, mustaqil fikrlashga undaydi;
- tarkibidagi o'yin-topshiriqlar orqali bir vaqtning o'zida bir qancha yoki barcha o'quvchini baholash mumkin;
- fan, kasb va mavzulararo integratsiya amalga oshadi.

"Small study" metodining natijaviyligi:

- mazkur metod asosidagi usullardan samarali foydalanish ona tili fanidan 5–11-sinflar kesimida o'quvchilar bilimining UO'TDTS talablariga mos kelishiga yordam beradi;
- o'quvchilarning ona tili faniga qiziqishlari oshadi;
- interfaol usuldagi noan'anaviy darsni tashkil etishga ko'maklashadi;
- o'quvchilarning mustaqil va kreativ (ijodiy) fikrlashi talab darajasida bo'lishiga erishiladi;
- ravon jumlar tuza olish, og'zaki va yozma nutq madaniyatiga amal qilish kabi intellektual fazilatlar o'sadi;
- o'quvchilarni barcha sohalarda marrani baland olib kurashishga undaydi.

"Small study" metodini baholash:

- yangi baholash tizimiga asosan baholanadi (sinf ishi – 6 ball, uyga vazifa – 4 ball);
- har bir usul uchun alohida rag'batlantiriladi;
- guruh bo'lib ishlaganda jamoaviy tarzda rag'batlantirish bo'ladi;
- ijodiy yondashgan holda qo'shimcha rag'bat kartochkalarini ham qo'llash mumkin.

2023–2024-o'quv yilidan boshlab respublikamizdagi 500 ta maktab qatorida bizning maktabimizda ham **yangi baholash tizimi tajriba-sinovdan**



o'tkazilmoqda. Unga ko'ra, o'quvchilar **summativ hamda formativ** (6+4) tarzda baholanmoqda. **“Small study” metodi tarkibidagi usullar baholanganda ham shu tartibga rioya etiladi.**

“Jumla javohirin joyla”, “STEAM” usullari kollaboratsiya, ya'ni o'quvchilarning jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirishga ko'maklashadi. Bu usullar o'quvchilarga hamkorlik qilish, samarali fikr almashish va o'zaro qo'llab-quvvatlash ko'nikmalarini o'rganishga ko'maklashadi.

“Jumla javohirin joyla!” usuli. Bu usulda o'quvchilar aynan matnni yoki ma'lum bir jumalarni **o'qib tushunish** orqali gapda tushirib qoldirilgan so'zlarni, ya'ni javohirlarni o'z o'rniga joylashtirishlari kerak bo'ladi. Qulayligi shundaki, mazkur usulni barcha sinflarda, hamma mavzularni o'rganishda samarali qo'llash mumkin.

Jumladan, 10-sinf ona tili darsligi “Bosh harflar imlosi” mavzusidagi [3] 9.4-mashqni (37-bet) bajarishda men tavsiya etayotgan usul juda mos keladi. Ilm toliblari berilgan jumalardagi nuqtalar o'rniga qavs ichidagi so'zlardan mosini, ya'ni javohirlarni qo'yib chiqishadi. Bosh harflarning ishlatilish sababini izohlashadi.

✓ Bulutlar orasidan ko'rindi.	Bulutlar orasidan quyosh ko'rindi.
✓ Yer ... atrofida aylanadi.	Yer Quyosh atrofida aylanadi.
❖ Bizning ...da uy-joy biroz qimmat.	Bizning respublikada uy-joy biroz qimmat
❖ Men O'zbekiston ... si fuqarosiman.	Men O'zbekiston Respublikasi fuqarosiman.

“STEAM” usuli. Bilamizki, STEAM ta'limi yo'nalishi amaliy yondashuvni qo'llash, shuningdek, barcha beshta sohaning yagona ta'lim tizimiga integratsiyalashuviga asoslangan. STEAM fanlar: tabiiy fanlar (science), texnologiya (technology), muhandislik (engineering), san'at (arts) va matematika (math).

Bu usulni qo'llashda sinf o'quvchilari ikki guruh bo'linadi. Har ikki guruh a'zolari galma-gal o'rganilayotgan mavzuga oid STEAM yo'nalishidagi fanlarga tegishli atamalardan aytib, bu so'zlarni gaplar tuzish orqali izohlab beradilar. Qaysi guruh mavzu doirasida ko'proq atama topib, izohlab bersa, shu jamoa g'olib bo'ladi. Bu topshiriqda **gapirish** ko'nikmasi rivojlantiriladi hamda **fanlararo, kasblararo integratsiya** amalga oshiriladi.

Masalan, 5-sinfda “X va H harflari” mavzusi o'rganilayotganda jamoalar quyidagicha ishlashlari mumkin.

Tabiat Texnologiya Muhandislik San'at matematika

daraxt mix loyiha xor maxraj

hujayra hunar xarita xirgoyi xossa

Hujayra – o'simlik va hayvon organizmining yashash asosi bo'lgan tirik sistema.

“Logo” va “Sarlavha sehri” usullari kreativ fikrlash, ya'ni maqsadga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo'llashga o'rgatadi. Natijada o'quvchilar innovatsion yechimlar topib, ijodiy muammolarni hal qilish ko'nikmalariga ega bo'lishadi.

“Logo” usuli. “Logo”, ya'ni “logotip” yunoncha so'z bo'lib, “so'z” va “belgi” degan ma'noni bildiradi. Logotipdan turli o'rinlarda: bannerlarda, ijtimoiy tarmoqlar, gazeta va jurnallarda foydalaniladi. Istalgan narsa, shaxs, joy va jarayonni tanitishda asosiy vosita – logotip. Bu usulda o'quvchilarga turli xil rangsiz logotiplar tasviri tarqatiladi. O'quvchilar avval logotiplarni bo'yashlari, so'ng o'tilayotgan grammatik mavzu asosida logotip tasviridan foydalanib matn yaratishlari kerak. Masalan, 6-sinf ona tili darsligida “Undalma, unda tinish belgilarining qo'llanishi” mavzusi berilgan. O'quvchilar tarqatilgan logolarni ixtiyoriy ranglarga bo'yaydilar va shu logo asosida ijodiy matn yaratib, unga sarlavha tanlaydilar. Matnda undalma va undagi tinish belgilarini to'g'ri qo'llash talab qilinadi.

Kitob – beminnat ustoz

Kitob, sen o'quvchi qalbini yorituvchi nur, uning tafakkurini boyituvchi xazina, kamolot cho'qqisi va ma'naviy komillik sari yetaklovchi ustozsan. Biz sendek buyuk ustozdan olgan bilimlarimizni umrimizning oxirigacha ham sarflay olmaymiz. Shubhasiz, kitob o'qish ma'naviy olamimizni boyitadi, so'zlashuv madaniyatimiz oshishiga xizmat qiladi.

“Sarlavha sehri” usuli. Matndagi yaxlit mavzu, mazmun, asosiy g'oya muallifning maqsadiga muvofiq uning nomi – **sarlavhasida** aks etadi. Darslikdagi ba'zi matnlar atayin sarlavhasiz berilib, unga mos sarlavha topish o'quvchiga qoldiriladi. Bu vaziyat bolani har qanday holatda ham gapirishga, hatto xato bo'lsayam o'z mustaqil fikrini aytishga undaydi.



“Sarlavha sehri” usulida o'quvchilar berilgan matnga mustaqil ravishda sarlavha topadilar va galma-gal chiqib, uni yozuv taxtasiga yoki flipchart doskaga yozadilar. Nega aynan shunday sarlavha qo'yg'nanlarini qisqacha izohlaydilar. Matn mavzusiga mos, chiroyli sarlavha topa olgan o'quvchilar alohida e'tirof etiladi. Rag'bat sifatida ularga nominatsiyalar berish mumkin. Afzalligi

shundaki, topshiriqni yakka holda ham, kichik guruhlarda ham bajartirsa bo'ladi.

Masalan, 6-sinf darsligi “Qisqacha tarjimayi holim” bo'limi “Mustahkamlash” mavzusida (24-bet), O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov

hayotiga oid matn berilgan. Matn bilan yaxshi tanishgach, bolalar unga kreativ sarlavha topishga harakat qiladilar.

Matn mazmuniga mos sarlavhalar



Ijodiy yondashib, eng kreativ sarlavha tuzgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

“Hashar”, “Mo'jaz mikrofon” usullari – kommunikativlik, ya'ni o'quvchilar o'z fikrlarini aniq, ravshan ifodalashga, suhbatdoshni tinglashga va tushunishga, til vositalaridan unumli foydalanishga yordam beradigan usullar.

“Hashar” usuli. Ma'lumki, matnning mazmuniy yaxlitligini ta'minlashda ayrim so'zlar yoki gaplar asosiy o'rinni egallaydi. Matnning mohiyatini belgilashda ular tayanch birliklar hisoblanadi. Matn mazmunini qayta hikoya qilishda shu birliklar asos bo'ladi. “Hashar” usuli o'quvchilarda **gapirish** ko'nikmasini shakllantirish uchun juda qulay. Tinglangan matn yuzasidan o'quvchilar birgalikda yoki alohida guruhlarda hashar yo'li bilan matnni qayta hikoya qiladilar. Bunda har bir bolaning fikri oldingi fikrning uzviy davomi bo'lishi, gaplar mazmunan bir-biriga bog'langan bo'lishi lozim.

Yuqoridagi 6-sinf darsligi “Qisqacha tarjimai holim” bo'limi “Mustahkamlash” mavzusida O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov hayotiga oid matn berilgan (24-bet). O'quvchilar ikki guruhga bo'linib, matnni o'qishadi. Uni qayta hikoya qilish topshirig'i beriladi. Bolalar “Hashar” usuli asosida matnni hamkorlikda qayta gapirib berishadi. I shaxs tilidan yozilgan matn III shaxs tilidan hikoya qilib beriladi.

1-o'quvchi: Abdulla Oripov 4-5 yoshlaridan bu dunyo voqealarini eslab qolgan.

2-o'quvchi: Adibning oilasida to'rt o'g'il, to'rt qiz bor edi.

3-o'quvchi: Akalari Buxoro, Toshkent oliy o'quv yurtlarida o'qishardi.

4-o'quvchi: Bolaligida shoirning xotirasi juda kuchli edi.

5-o'quvchi: U so'zlarni qofiyalashga ishqiboz edi.

6-o'quvchi: Shu bois ona, maktab, brigadir kabi so'zlarni o'zicha she'rga solardi.

“Hashar” usulida agar guruhlarda ishlansa, eng chiroyli, mantiqiy izchillik asosida matn tuzgan jamoa g'olib deb topiladi va rag'batlantiriladi.

“Mo'jaz mikrofon” usuli. Milliy o'quv dasturi asosidagi darsliklarda o'quvchilar nutqini rivojlantirishga mo'ljallangan bo'limlar kiritilgan bo'lib, ularda nutqni o'stirish, tilning sofligi, jamoa oldida ta'sirchan nutq so'zlashni shakllantirishga qaratilgan topshiriqlar berilgan. Bu jarayonni bolalar sinf jamoasi bilan boshlagani ma'qul. Bunda bizga **“Mo'jaz mikrofon”** usuli qo'l keladi. O'qituvchi bu usulni darsning tashkiliy yoki mustahkamlash qismida ishlatrsa, kutilgan natijani beradi.



Agar mazkur usul darsning tashkiliy qismida qo'llansa, o'quvchiga oldindan topshiriq beriladi, ya'ni u o'zini qiziqtirgan istalgan mavzuda (sport, teatr, tabiat, axborot texnologiyalari) 2 daqiqalik nutq tayyorlashi kerak bo'ladi.

“Mo'jaz mikrofon”da so'zlash uchun nutq talablari:

- ✓ mo'jaz mikrofon sohibi 2 daqiqa davomida tengdoshlari diqqatini o'ziga jalb qilishi;
- ✓ mavzuga qiziqish uyg'otishi;
- ✓ qo'yilgan grammatik talablar (nutq sofligi, aniqligi, to'g'riligi, leksik birliklar xilma-xilligi) asosida nutq so'zlashi.

Mavzularni o'rganish jarayonida qo'llanilganda darslikda berilgan matn asosida 2 daqiqalik nutq tayyorlab, tengdoshlari bilan yuzma-yuz holatda gapirishi talab etiladi.

Masalan, 6-sinf darsligidagi “Til – muloqot vositasi” mavzusi (5-bet) o'rganilganda, notiq o'quvchi mo'jaz mikrofondan quyidagicha nutq so'zlashi mumkin:

Ona tilim! Bir dam sen haqingda o'y surar ekanman, quloqlarim ostida munis onajonlarimiz aytgan mayin alla sado beradi. Ularda sening mo'jizakor qudrating namoyon. Seni ona-Vatanimizga qiyoslagayman. Chunki avloddan avlodga o'tib, meros bo'lib kelayotgan ona tili bor ekan, Vatan bor. Darhaqiqat, agar ana shu ona tilimiz bo'lmaganda biz Bobur g'azallaridagi Vatan sog'inchini tuymagan, Cho'lpon, Usmon Nosir, Muhammad Yusufning o'tli she'riyatini qalbimizga jo qilmagan bo'lardik. Ma'rifatparvar adibimiz Abdulla Avloniy shunday yozadi: “Har bir millatning dunyoda borlig'ini ko'rsatadurg'on o'ynayi hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdur”.

“Tanqidiy tafakkur”, “True-false” – kritik (tanqidiy) fikrlash, ya'ni axborotni tanqidiy baholash, fikr-mulohazalarni shakllantirishni o'z ichiga oladigan usullardir. O'quvchilar muammolarga tahliliy nuqtayi nazardan

yondashishni o'rganadi va mantiqiy fikrlash asosida shaxsiy qarashlarini shakllantiradi.

“Tanqidiy tafakkur” usuli. Tanqidiy tafakkur – fikrlashning alohida turi bo'lib, dalillarni tahlil qilish orqali xulosalar hosil qiladi. Tanqidiy fikrlash – o'z-o'zini boshqaradigan, o'zini o'zi tarbiyalab, nazorat qiladigan va to'g'rilaydigan fikrlash shakli. “Tanqidiy tafakkur” usuli o'quvchilarga matnni tinglab tushunishga hamda tanqidiy fikrlashga yordam beradi. O'quvchilar ma'lum bir audiomatnni tinglash jarayonida mavzuga oid fikrlarga qarama-qarshi fikr-mulohazalarini yozishadi. Bugungi zamonaviy darsliklarda matnlarning audiovarianti ham mavjud. Istaangiz, qo'shimcha materiallarning ham skaner variantini tayyorlab foydalanishingiz mumkin. Sinf o'quvchilari ikki jamoaga bo'linadi

Jumladan, **7-sinf ona tili darsligidagi (20-bet)** matnning audiovarianti yaratiladi hamda o'quvchilarga qo'yib eshittiriladi. Bolalar shu matn asosida tanqidiy fikrlab, guruhda ishlaydilar, savollarga javob beradilar, mustaqil fikrini erkin bayon etishni o'rganadilar.

Matn

Inson qahramonsiz, oldinga undab turuvchi mayoqsiz yashashi mushkul. Buni kitoblardan ham, tarixdan ham, oddiy odamlarning kundalik hayotidan ham bilib olsa bo'ladi. Masalan, o'sha qahramon bo'lmasa, oilada ham, mahallada ham, xalqda ham suyanadigan tayanch nuqta yo'qolganday bo'ladi.

Fikrlash uchun savollar:

1-guruhga savol: Nega insonning qahramonsiz yashashi qiyin?

2-guruhga savol: Nima sababdan insonning qahramoni bo'lmasa, u oila-yu mahallada tayanch nuqtasini yo'qotadi?

Har ikki guruhning tanqidiy fikrlari eshutiladi, qo'shimcha izohlashlar aytiladi. Faol qatnashgan bolalar dars davomida baholab boriladi.

“True-false” usuli. “True”, “false” so'zlari ingliz tilidan olingan bo'lib, **“true – to'g'ri”, “false – noto'g'ri”** degan ma'noni anglatadi. Bu usulda o'quvchilar ikki guruhga bo'linadi. Guruhlarga munozarali matn havola etiladi va shu matn yuzasidan bahsli savol beriladi. Birinchi guruh savolning to'g'ri (ijobiy), ikkinchi guruh esa noto'g'ri (salbiy) tomonlarini guruh ishtirokchilari bilan birgalikda muhokama qilishadi. Har bir guruhdan bir nafardan vakil chiqib, savolga nisbatan guruhning qarashlarini bir daqiqa davomida izohlashadi. Qaysi guruh fikrlarni to'la va aniq dalillar bilan izohlasa, shu guruh g'alaba qozonadi.

“True-false” usuli orqali o'quvchilarda mavzu bo'yicha tanqidiy fikrlash qobiliyati hamda guruh vakillarining fikrlarini izohlash jarayonida og'zaki nutq ko'nikmasi shakllantiriladi. Masalan, **6-sinf ona tili darsligidagi “Raqamli dunyo” matnida (118-bet)** raqamlashtirishning ijobiy va salbiy tomonlari dalillar

bilan asoslangan. Bu usulda o'quvchilar ikki guruhga bo'linishadi, matndagi fikrlarning ijobiy va salbiy taraflarini tanqidiy fikrlash asosida bayon etadilar. Har bir guruhdan bir nafar iste'dod sohibi chiqib, topgan ma'lumotlarini o'qib beradi.

"True"	"False"
Ijobiy tomoni	Salbiy tomoni
Internet kaftimizga qo'ndi Turli xizmatlarning raqamli ko'rinishi bor Axborotlar kompyuter tiliga o'giriladi	Telefondan bosh ko'tarmaslik Oqibatning so'nib borishi Tabiatdan uzilish

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, mazkur uslubiy tavsiyadan o'rin olgan **"Small study" metodi** tarkibidagi har bir usul bilim oluvchining nafaqat grammatik jihatdan fanni yaxshi o'zlashtirishiga, balki berilgan mavzu yuzasidan mustaqil, tanqidiy fikrlashiga yordam beradi.

Bugun biz, ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari zimmasida farzandlarimizni xalqaro tadqiqotlarga munosib tayyorlashdek mas'uliyatli vazifa turgan ekan, shu vazifani amalga oshirishda bor mahoratimiz va kuch-g'ayratimizni safarbar etmog'imiz lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'quvchilar savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlar dasturi. Qo'llanma. Toshkent — 2019
2. Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning o'qish savodxonligini baholash. Qo'llanma. Toshkent – 2019
3. B.Mengliyev, Sh.Abdurahim va b.q. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 10-sinfi uchun darslik. Toshkent – 2022
4. I.Azimova, K.Mavlonova va b.q.- Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. Toshkent – 2022
5. I.Azimova, K.Mavlonova va b.q.- Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. Toshkent – 2022
6. N.Mahmudov, A.Sobirov va b.q. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. Toshkent – 2020.



MUMKINLIK MODALLIGINING PREDIKATIV IFODASI ENG UMUMIY KO'RINISHDA (POTENTIALITY, POSSIBILITY)

Rahimova Mehribon Allayarovna – Urganch
davlat universiteti tayanch doktorant

E-mail: uzteacher1221@gmail.com

Bekjanova Zamira Ismailovna – Urganch
davlat universiteti katta o'qituvchi

E-mail: bekjanova1968@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada mumkinlik modalligining eng umumiy ko'rinishi tahlil qilingan va modallikning turli ma'nolarni ifodalovchi leksik birliklari sinonimik jihatdan o'rganib chiqilgan.

Kalit so'zlar: predikativlik, sintagmatik tahlil, semantik maydon, yadro konstituentlar, kontekst tahlil.

Mumkinlik modalligining predikativ ifodalash vositalarini tadqiq qilishga qo'yilgan vazifa tanlangan leksikaning ikki tomonlama tahlili yo'li bilan, chunonchi qarab chiqilayotgan tushuncha bilan munosabatdosh bo'lgan predikativ leksikaning paradigmatic va sintagmatik xususiyatlarini tadqiq qilish bilan hal qilinadi, uning semantikasi tufayli mulohaza subyektning va predikatning birlashishi natijasida gapda mumkinlikning modalligini aks ettiradi. Semantik maydon tarkibida hammasi bo'lib to'qqizta mikromaydonlar (so'zlarning leksik-semantik guruhlari) ajratib ko'rsatiladi. Maydon fonida, uning ma'nosi **potentiality (power which is potential)** xizmat qiladigan, bir-biri bilan sinonimik jihatdan korrelyatsiyalanuvchi leksik birliklar mikromaydonning spetsifikatorlari bilan birlashadilar:

taxminiylik /*thinkable, imaginable, acceptable, obtainable...* /;

qobiliyatlilik /*able, capable, competent, powerful, practical...* /;

tasodifiylik /*chance, opportunity, luck, fortune, fate...* /;

ehtimollik /*probable, likely, liable, expected, plausible...* /;

aniqlik-ishonch /*certain, sure, confident, doubtless...* /;

noaniqlik-shubha /*uncertain, contingent, doubtful...* /;

iltimos-ijozat /*permit, allow, let, admit, agree...* /.

Maydonning umumiy fonida so'zlarning boshqa ikkita guruhi ham ajralib turadi:

1) **potential, possible, feasible, practicable, workable (maydon markazi).**

2) **can, may, will** (maydon yadrosi). So'zlarning bu ikki guruhi butun maydonning ma'nosi bilan birlashtirilgan. Shunday qilib, maydonning

birlashtiruvchi mohiyati va so'zlarning bu guruhining invariant belgisi bir-biriga mos keladilar. Markazning konstituyentlari tadqiq qilinayotgan tushunchani eng umumiy shaklda (umumiy ko'rinishda) ifoda qiladilar. Maydon markazi konstituyentlarining bu semantik o'ziga xosligi ularning semantik strukturalarida hal qiluvchi /asosiy/ semantik elementlar sifatida **can, may, will** /asosan yoki **can**, yoki **may**/ – modal fe'llarning mavjudligi bilan bog'liq, ular mumkinlikning eng ko'p hajmli semantik mazmuni bilan xarakterlanadilar. Yadro konstituyentlarining (modal fe'llarning) katta hajmdagi ma'noviy mazmuni semantik o'ziga xoslikni, butun maydonning mazmunini belgilaydi. **Possibility, ability, chance, probability, certainty-sureness, uncertainty-doubt, permission** – modal fe'llarning hal qiluvchi semantik tashkil qiluvchilaridir, ularning ma'nolari mikromaydonlarning semantik maydoniga kiruvchilarning tarkibini belgilaydi. Shunday qilib, maydonning markazida biz yadroni, atrofida tadqiq qilinayotgan semantik "makroolamdagi" barcha hodisalar rivojlanadigan o'ziga xos sterjenni uchratamiz.

Mumkinlik modalligi eng umumiy ko'rinishda tadqiq qilinayotgan semantik maydonlar markazining konstituyentlarini o'z ichiga olgan predikativ iboralar: **potential, possible, feasible, workable, practicable** bilan ifodalanadi [1]. Ushbu predikativ so'zlar mumkinlik modalligini keng ma'noda aks ettiradilar. So'zlarning bitta guruhiga birlashtirilayotganiga qarab chiqilayotgan predikativ leksika bir xil konfiguratsiyaga egadir:

A thunderstorm (the snow) is possible (but not feasible)

A cure is feasible.

The suggestion is practicable (workable).

Ko'rib chiqilayotgan so'zlar qo'llanilishining kontekst tahlili ko'rsatadiki, predikativ vazifada, asosan, *possible* – so'zi, semantikasi mumkinlik tushunchasi bilan eng umumiy ko'rinishda bog'liq, *possible* o'zining keng ko'lamdagi mumkinlik semantik mazmuni bilan "very general and wide ranging in application" sifatida xarakterlanadi. Gapdagi asosiy vazifasi – aniqlash bo'lgan *potential*, o'zining *potent* (powerful) ma'nosini yo'qotib, hozirgi ingliz tilida *possible as opposed to actual* ma'nosida qo'llaniladi. Masalan quyidagi gapdagi kabi:

He is a potential statesman.

Potensiallikni bildiruvchi *potential* so'zining qo'llanilishi, asosan, ilmiy-texnik matnlar bilan bog'liq. Hamma yerda qo'llaniladigan *possible* so'zidan farqli ravishda *feasible* ning qo'llanilishi stilistik jihatdan adabiy tilning rasmiy doiralari bilan cheklangan [2]. Faularning lug'atida shu munosabat bilan ta'kidlanadiki, agar *possible* – "working word" bo'lsa, u holda *feasible*, o'zining asosiy ma'nosida va qo'llanilishida *workable, practicable* so'zlariga yaqin bo'lib (*that can be done, accomplished, or carried out in reality*), – "stylish word"



hisoblanadi. Predikativ vazifada kamdan-kam qo'llanilganda -able li birliklar o'zlarining hosila ma'nolarida mumkinlik, taxminiylik tushunchalarini ifodalaydilar [3].

Badiiy adabiyotda kamdan-kam uchraydigan *practicable*, *workable* biz qayd qilgan hollarda, asosan, odamlarning amaliy faoliyatida qarab chiqishga kiritilgan takliflarni, rejalarni, ishlanmalarni, metodlarni (*practicable*) yoki bo'lishi mumkin amalga oshishini bildirish, yoki obyektiv voqelikda ilgari kiritilgan takliflarning, ishlanmalarning (*workable*) qo'llanilishi natijasida bo'lishi mumkin bo'lgan samaradorlikni bildirish uchun qo'llaniladilar:

The manufacture of the proposed device is practicable.

When adopted, it (the plan) will be workable.

Tadqiqotimiz doirasida -able suffiksi bilan fe'l o'zagidan yasalgan so'zlarning predikativ vazifada qo'llanilishining tahlili ko'rsatdiki, bu so'zlar kesim tarkibida mumkinlik modalligini ifodalashlari mumkin. Bu so'zlarning asosiy grammatik vazifasi esa – gapda aniqlovchidir. Matnlarning tahlili ko'rsatdiki, -able li birliklar predikativ vazifada ko'pincha ish-harakatning mumkin emasligini bildirib, inkor shaklda qo'llaniladilar /bu ushbu tadqiqotning doirasidan tashqariga chiqadi/. Predikativ vazifada ayniqsa ko'proq quyidagi so'zlarni uchratish mumkin:

unthinkable

unspeakable

unanswerable

unforgivable

unreadable

unbelievable

unpredictable

disagreeable

unbearable

unendurable

incomparable

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, o'rganilayotgan semantik maydonning konstituentlarini o'zi ichiga oluvchi, yadrosini **can, may, will** modal fe'llari (o'zidan keyingi infinitiv bilan birikmada) tashkil qiluvchi predikativ iboralarini mumkinlik modalligini ifodalashning til vositalari sifatida qarab chiqar ekanmiz, o'z ichiga **possible, feasible, workable, practicable** va **-able** li boshqa so'zlarni oluvchi predikativ iboralar ushbu tizimning atrofida to'planadilar, uning periferiyasida joylashadilar. Mumkinlik modalligini aks ettiruvchi periferiyaviy ifodalash vositalariga o'rganilayotgan SM tarkibida ajratilgan boshqa mikromaydonlarning: **Ability, Chance, Probability, Certainty-Sureness, Uncertainty-Doubt, Permission** konstituentlarini o'z ichiga oluvchi predikativ iboralar ham kiradi. Yuqorida so'zlarning formal-semantik guruhiga kiritilgan, ish-harakatning har bir alohida holda konkret mumkinlik-taxminiylikni bildiradigan -able eksponentli so'zlar predikativ vazifada kamdan-kam qo'llaniladi. Predikativ vazifada (kamdan-kam) qo'llanilganda -able li birliklar o'zlarining hosila ma'nolarida mumkinlik, taxminiylik tushunchalarini ifodalaydilar.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Faye J. C. Possibility and Probability in Siin Seereer Language // International Journal of Linguistics. 2022. № 1 (14). Page. 1-150.
2. Frances C., Martin C. D., Duñabeitia J. A. The effects of contextual diversity on incidental vocabulary learning in the native and a foreign language // Scientific Reports. 2020. № 1 (10). Page. 1-12.
3. Hinkel E. The effects of essay topics on modal verb uses in L1 and L2 academic writing // Journal of Pragmatics. 2009. № 4 (41). Page. 667-683.

IMPROVING TEACHING METHODS IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Rasulova Tursunoy Pazildjanovna –

Andijan Machine-Building Institute PhD
researcher, Senior Lecturer

E-mail: tursunoy1203@gmail.com

Abstract. *This article explores strategies for enhancing teaching methods within higher educational institutions. Drawing upon research in pedagogy and instructional design, the paper examines various approaches to improving student learning outcomes and engagement in the classroom. Key topics include the use of effective feedback, principles for good practice in undergraduate education, the implementation of active learning techniques, and research-based resources for college instructors. By synthesizing existing literature and best practices, the article aims to provide insights and recommendations for educators seeking to enhance their teaching effectiveness and promote student success in higher education.*

Keywords. *Teaching methods, higher education, effective feedback, active learning, student engagement, pedagogy, instructional design, student-centered approach, educational strategies, academic success.*

Introduction In the fast-paced realm of higher education, the continuous improvement of teaching methods stands as a fundamental objective for educators and institutions alike. As the landscape of education evolves, driven by advancements in technology, changes in student demographics, and shifting pedagogical paradigms, the need to enhance teaching effectiveness becomes increasingly imperative. Quality teaching is not only essential for fostering student learning and engagement but also for promoting academic success and preparing students for the challenges of the 21st century.

This article endeavors to explore and elucidate strategies for improving teaching methods within higher educational institutions. It aims to provide a comprehensive examination of various approaches, techniques, and best practices that educators can employ to optimize student learning outcomes and enhance the overall educational experience. By delving into research literature, synthesizing existing knowledge, and drawing upon practical insights from experienced educators, this paper seeks to offer valuable guidance for instructors seeking to refine their instructional practices.

Throughout the article, key themes such as the importance of effective feedback, the implementation of active learning strategies, and the integration of technology in teaching will be explored. By addressing these critical areas, educators can gain valuable insights into how to create dynamic, engaging learning environments that empower students to succeed academically and thrive in an ever-evolving educational landscape.

In the dynamic landscape of higher education, the quest for effective teaching methods remains paramount. As educational paradigms evolve and student demographics shift, educators are continuously challenged to enhance their instructional approaches to meet the diverse needs of learners. The importance of quality teaching cannot be overstated, as it serves as the cornerstone of student engagement, retention, and academic success.

This article delves into the realm of improving teaching methods within higher educational institutions. It seeks to provide a comprehensive overview of strategies and best practices aimed at optimizing the teaching-learning process. By examining current research in pedagogy and drawing upon insights from experienced educators, this paper aims to offer practical guidance for instructors seeking to elevate their teaching effectiveness.

Literature review. The quest for effective teaching methods in higher educational institutions has been a subject of extensive research and scholarly inquiry. This section provides an overview of key findings and insights from the literature on improving teaching methods, drawing upon a diverse range of sources in the field of education.

Importance of Effective Feedback: Numerous studies have emphasized the critical role of feedback in promoting student learning and academic achievement [7]. Feedback, when delivered in a timely and constructive manner, provides students with valuable information about their performance, highlights areas for improvement, and encourages reflective thinking [8]. Research suggests that feedback should be specific, actionable, and aligned with learning objectives to maximize its impact on student learning [9].

Principles for Good Practice in Undergraduate Education: Chickering and Gamson's (1987) seminal work identified seven principles for good practice in undergraduate education, which continue to serve as foundational



principles for effective teaching methods. These principles include encouraging student-faculty contact, fostering cooperation among students, and providing prompt feedback. Research has shown that adherence to these principles correlates positively with student engagement, satisfaction, and academic success [10].

Promotion of Active Learning: Active learning techniques have gained prominence in higher education due to their ability to engage students in the learning process and promote deeper understanding [11]. Strategies such as problem-based learning, collaborative group work, and flipped classrooms have been shown to enhance student engagement, critical thinking skills, and knowledge retention [12]. By encouraging students to actively participate in their own learning, educators can create dynamic learning environments that foster curiosity, creativity, and intellectual growth.

Integration of Technology in Teaching: The integration of technology in teaching has transformed educational practices and opened up new possibilities for enhancing teaching effectiveness. Educational technologies such as learning management systems, online discussion forums, and multimedia resources offer opportunities for personalized learning, collaboration, and innovation [13]. Research indicates that judicious use of technology can enhance student engagement, facilitate access to resources, and promote interactive learning experiences [14].

In summary, the literature review underscores the multifaceted nature of improving teaching methods in higher educational institutions. By drawing upon evidence-based practices and insights from research literature, educators can cultivate dynamic, student-centered learning environments that foster academic success and prepare students for lifelong learning in the 21st century.

Discussion and results Throughout the article, key themes such as the role of feedback, principles for fostering active learning environments, and the integration of research-based instructional resources will be explored. By illuminating these critical areas, educators can gain valuable insights into how to enhance student learning outcomes and promote a culture of continuous improvement within their classrooms and institutions.

Effective teaching methods play a pivotal role in shaping the educational experiences and outcomes of students in higher educational institutions. Through the implementation of various strategies, educators can significantly affect student engagement, motivation, and academic achievement. This section discusses key findings and insights from research literature on improving teaching methods, as well as practical implications for instructors.

Utilization of Effective Feedback. Research has consistently shown the importance of providing timely and constructive feedback to students.

Feedback serves as a critical tool for enhancing student learning by offering guidance, reinforcement, and opportunities for improvement. Educators should strive to develop feedback mechanisms that are specific, actionable, and aligned with learning objectives to maximize its impact on student performance.

Principles for Good Practice in Undergraduate Education. Chickering and Gamson's (1987) seminal work identified seven principles for good practice in undergraduate education, including encouraging student-faculty contact, fostering cooperation among students, and providing prompt feedback. These principles continue to resonate in contemporary pedagogical approaches and serve as a guiding framework for effective teaching practices.

Figure 1. Active learning techniques.[5]

Implementation of Active Learning Techniques: Active learning techniques, such as collaborative group work, problem-based learning, and flipped classrooms, have gained prominence in higher

education due to their effectiveness in promoting student engagement and deep learning. By encouraging active participation and interaction, educators can create dynamic learning environments that stimulate critical thinking and knowledge application (Figure 1).

Integration of Research-Based Resources: Educators have access to a plethora of research-based resources and instructional tools designed to enhance teaching effectiveness. These resources encompass evidence-based teaching strategies, assessment techniques, and technological innovations that can support instructors in optimizing their instructional practices and addressing diverse learning needs.

Overall, the discussion highlights the importance of adopting a student-centered approach to teaching and learning, wherein educators actively engage students in the learning process, provide meaningful feedback, and leverage innovative pedagogical approaches. By embracing these principles and continuously refining their teaching methods, educators can empower students to achieve their full academic potential and succeed in today's complex educational landscape.





LIST OF REFERENCES

1. Chen, L., Smith, J., & Brown, A. (2018). Interdisciplinary Approach in the Curriculum Design of Mathematical Modeling of Information Technologies. *Journal of Educational Technology*, 45(3), 321-335.
2. Garcia, M., et al. (2021). Enhancing Learning Through Practical Application and Experiential Learning in Mathematical Modeling Training Courses. *International Journal of Applied Engineering Education*, 37(4), 1339-1350.
3. Horta, R., et al. (2019). Curriculum Design and Relevance in Training Courses for Mathematical Modeling of Information Technologies. *Journal of Information Technology Education*, 18, 163-177.
4. The modeling diagram <https://arnold-neumaier.at/model.html>
5. University of Minnesota <https://cei.umn.edu/teaching-resources/active-learning>
6. Kosimov, S. (2024). ASSESSING THE EFFECTIVENESS OF SMALL BUSINESSES IN THE COUNTRY'S DIGITAL ECONOMY. *Research and implementation*, 2(2), 85-90.
7. Hattie, J., & Timperley, H. (2007). The power of feedback. *Review of Educational Research*, 77(1), 81-112.
8. Black, P., & Wiliam, D. (1998). Assessment and classroom learning. *Assessment in Education: Principles, Policy & Practice*, 5(1), 7-74.
9. Bates, A. W., & Poole, G. (2003). *Effective teaching with technology in higher education: Foundations for success*. John Wiley & Sons.
10. Freeman, S., Eddy, S. L., McDonough, M., Smith, M. K., Okoroafor, N., Jordt, H., & Wenderoth, M. P. (2014). Active learning increases student performance in science, engineering, and mathematics.

IJTIMOY FANLARNI O'QITISHDA ZAMONAVIY USULLARDAN FOYDALANISH

Ruzikulov Rustam Ravshanovich –

O'zbekiston Respublikasi Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi bo'lim boshlig'i

E-mail: ruzikulov921@gmail.com

Annotatsiya. *Ijtimoiy fanlarni o'qitishda zamonaviy instrumentlardan foydalanish zamonaviy ta'lim tizimining ajralmas qismi bo'lib, o'quvchilarning ta'lim jarayoniga bo'lgan qiziqishini oshiradi va ularning bilim darajasini chuqurlashtiradi. Ushbu maqolada ijtimoiy fanlarni o'qitishda qo'llaniladigan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, virtual*


laboratoriyalar, onlayn ta'lim platformalari va sotsial media vositalari tahlil qilinadi. Mazkur yondashuvlar yordamida o'quvchilarning mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirish, ta'lim jarayonini interaktiv va samarali qilish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Maqola natijalariga ko'ra, zamonaviy instrumentlardan foydalanish ijtimoiy fanlar ta'limini yangi bosqichga olib chiqishda muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlanadi.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy fanlar, zamonaviy instrumentlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, virtual laboratoriyalar, onlayn ta'lim platformalari, sotsial media, ta'lim sifati, o'quvchilarning qiziqishi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ijtimoiy fanlar tarkibiga tarix, davlat va huquq asoslari, tarbiya fanlari kiradi. Har o'quv yilida mo'ljallangan ta'lim dasturiga ko'ra, ijtimoiy fanlar haftalik o'quv soatlari quyidagi ko'rinishda taqsimlangan:

tarix – 17 soat, davlat va huquq asoslari – 4 soat, tarbiya – 11 soat.

Umumiy olganda maktab o'quvchisi maktab davrida jami 1216 soat vaqtini ijtimoiy fanlarga sarflashi kerak. Qolgan fanlarni tahlil qilib ko'raylik.



Yuqoridagi jadvaldan ko'rish mumkinki, umumiy o'rta ta'lim muassasalarida, asosan, filologiya yo'nalishiga katta e'tibor qaratilgan. Filologiya fanlari bo'yicha ko'rsatilgan ko'rsatkichlar eng yuqori (4294), bu esa boshqa yo'nalishlarga nisbatan katta farqni ko'rsatadi. Aniq fanlar (2546) va amaliy fanlar (1938) filologiya fanlaridan keyingi o'rinni egallaydi. Ijtimoiy fanlar esa eng kam ko'rsatkichga ega (1216). Bu holat, o'qituvchilarni bu fan yo'nalishlarida ko'proq ishlashiga, katta va ko'p ma'lumotlarni belgilangan va qisqa muddatda tushuntirishga majbur qiladi.

Bugungi kunda ko'plab rivojlangan mamlakatlarda sun'iy intellekt yordamida ta'lim jarayonlarini yanada samarali tashkil etish bo'yicha tavsiyalar

ishlab chiqilgan. Bu texnologiyalar o'qituvchilarning vaqt va kuchini tejashga yordam beradi, shu bilan birga, o'quvchilarga ma'lumotlarni tez va samarali o'zlashtirish imkoniyatini yaratadi. Shu sababli, ijtimoiy fanlar yo'nalishida ham innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish, sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish orqali bu yo'nalishni yanada rivojlantirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Sun'iy intellekt texnologiyalari, masalan, o'qitish platformalari, virtual yordamchilar va avtomatik baholash tizimlari, ta'lim sifatini oshirishga yordam beradi. Bu texnologiyalar o'qituvchilarning yukini yengillashtiradi va ularga o'quvchilarga individual yondashuvni amalga oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga, sun'iy intellekt yordamida o'quvchilarning qobiliyatlarini aniqlash va ularga mos ta'lim dasturlarini tuzish ham mumkin.

Shu bilan birga, ijtimoiy fanlar sohasida sun'iy intellektning qo'llanilishi tadqiqot va tahlil jarayonlarini tezlashtiradi. Masalan, katta hajmdagi ma'lumotlarni tezda tahlil qilish, ijtimoiy tarmoqlarda yuzaga kelayotgan tendensiyalarni kuzatish va ijtimoiy muammolarni aniqlashda sun'iy intellektning hissasi katta. Natijada, o'qituvchilar va tadqiqotchilar tezkor va aniq ma'lumotlarga ega bo'lib, o'quv jarayonini va ilmiy izlanishlarni samarali amalga oshirish imkoniga ega bo'ladilar. Shu sababli umumiy o'rta ta'lim muassasalarida sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish, nafaqat o'quv jarayonini yengillashtiradi, balki ta'lim sifatini ham oshiradi.

Sun'iy intellekt texnologiyalari ijtimoiy fanlar sohasida katta o'zgarishlarni amalga oshirishi mumkin. Masalan, tarix fanida virtual reallik (VR) yordamida o'quvchilar tarixiy voqealarni jonli tajriba orqali o'rganishlari mumkin. Davlat va huquq asoslari fanida sun'iy intellekt yordamida interaktiv huquqiy muammolarni yechish va o'quvchilarning huquqiy bilimlarini oshirish imkoniyati mavjud. Tarbiya fanlarida esa sun'iy intellekt vositalari orqali o'quvchilarning axloqiy va tarbiyaviy rivojlanishini kuzatish va mos tavsiyalar berish mumkin.

Shuningdek, sun'iy intellekt texnologiyalari o'quvchilarning individual qobiliyatlarini aniqlashda va ularga mos ta'lim dasturlarini tuzishda yordam beradi. Bu esa o'quvchilarning qiziqish va qobiliyatlariga mos ravishda ta'lim olishlariga imkoniyat yaratadi. Natijada, ijtimoiy fanlar sohasida sun'iy intellektni qo'llash nafaqat o'quvchilarning ta'lim olish jarayonini yengillashtiradi, balki ularning fuqarolik ongini, huquqiy bilimlarini va ijtimoiy mas'uliyatini oshirishga ham katta hissa qo'shadi. Shu sababli, umumiy o'rta ta'lim maktablarida sun'iy intellekt texnologiyalarini keng joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Bundan tashqari, Videoscribe dasturi mavjud bo'lib, u o'qituvchilarga animatsion mavzular orqali darslikda berilgan materiallarni tushuntirish imkoniyatini beradi. Bu dastur, ayniqsa, boshlang'ich sinflarda juda kerakli



bo'lib, o'quvchilarning diqqatini jalb qilish va o'qitilayotgan mavzularni tushunishni yengillashtiradi. Videoscribe dasturi yordamida o'qituvchilar mavzularni vizual tarzda, qiziqarli va interaktiv shaklda taqdim etishlari mumkin. Bu usul bolalarning ko'rish va eshitish orqali o'rganish qobiliyatlarini oshiradi, shuningdek, ularning motivatsiyasini va ta'lim olishga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi. Animatsiyalar orqali murakkab tushunchalar oddiy va aniq tarzda tushuntiriladi, bu esa boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun juda muhimdir.

Yuqoridagilarni amalga oshirish uchun o'qituvchilarga pedagogik ijodkorlik, pedagogik texnika, ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorligi, muloqot olib borish taktikasi, nutq madaniyati, tafakkuri, uning ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va amalga oshirish, bu jarayonda xulq-atvorini va hissiyotini jilovlay olish xususiyatlarini o'rgata olish va o'z kasbini rivojlantirib boruvchi pedagogik mahorat kerak bo'ladi. Pedagogik mahorat o'qituvchilarning pedagogik faoliyati zahirida takomillashib boradi.

Pedagogik faoliyat yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash uchun jamiyat oldida, davlat oldida javob beradigan, ta'lim-tarbiya berishda maxsus tayyorlangan o'qituvchilar mehnat faoliyatidir.

Zamonaviy instrumentlardan foydalanish ijtimoiy fanlarni o'qitishda yangi imkoniyatlar ochadi, ta'lim jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi. O'quvchilarning mavzuni chuqurroq o'rganishlari, mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bu esa kelajakda raqobatbardosh va bilimli avlodni shakllantirishga xizmat qiladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ijtimoiy fanlar sohasida sun'iy intellekt va animatsion texnologiyalarni qo'llash nafaqat ta'lim sifatini oshiradi, balki o'quvchilarning kreativ va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini ham rivojlantiradi. Shuning uchun, bu texnologiyalarning keng joriy etilishi o'quv jarayonini samarali tashkil etishda va o'quvchilarning bilim darajasini oshirishda katta ahamiyatga ega. Innovatsion texnologiyalarning ta'lim jarayoniga tatbiq etilishi, o'qituvchilarning vaqt va kuchini tejash bilan birga, o'quvchilarning ta'lim olishga bo'lgan qiziqishini ham oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (O'RQ-637-son, 2020- yil 23-sentabr)
2. A.Xoliqov. Pedagogik mahorat. Toshkent: Iqtisod-Moliya. (2011)
3. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2024-yil 26-martdagi 94-son buyrug'i.
4. Videoscribe Software. (2023). Sparkol Ltd. Accessed from: <https://www.videoscribe.co>.

5. VR in Education. (2022). EdTech Magazine. Accessed from:
<https://www.edtechmagazine.com>
6. Anderson, J. & Rainie, L. (2018). Artificial Intelligence and the Future of Humans. Pew Research Center.

OQÍVSHÍLARDA KREATIVLIK QÁBILETLERIN QÁLIPESTIRIW

Sadullaeva Shirin Mambetullaevna –

Taxtakópir rayoni 3-sanli ayrim pánler
tereñlestirilip oqıtılatuđın klasi bar ulıwma orta
bilim beriw mektebi ámeliyatshı psixologı

Annotatsiya. Maqalada oqıwshılarda kreativlik sıpatları. Oqıwshılarda kreativlik sıpatları rawajlandırıwdıń nátiyjeli jolları hám shártleri haqqında mađlıwmat berilgen. Oqıwshılarda kreativ imkaniyatlardıń áhmiyetli dárejeleri haqqında mađlıwmat berilgen.

Tayanish sózler: kreativlik, psixologiya, P. Torrens, idea, qábilet, shaxs, qızıǵıwshılıq, oqıwshı.

Insaniyat tárepinen úlken qızıǵıwshılıq oyatatuđın máselelerden biri – er jetpegen jas áwladtı bákámal etip qalıplestiriw bolıp tabıladı. Sebebi hár qanday mámleketti jáhán jámiyetshiliginde qanday orın iyelewi, qanday mámleket, jámiyet qurıwı, eń dáslep, ósip kiyatırǵan jaslardıń qanday insanlar bolıp er jetiwlerine baylanıslı. Lekin tezlik penen ózgerip atırǵan jámiyet shaxstan bazar qatnasıqları hám demokratiyalıq ózgerisler payda bolıp atırǵan jaǵdayǵa muwapıq túrde adaptaciya qılıwdı, bul ózgerisler avtorı bolıwın, yaǵnıy innovaciyalıq ideyalardı islep shıǵıw, isbilermenlikti rawajlandırıw, sociallıq-ekonomikalıq tarawdı jetilistiriwdi talap etpekte. Jámiyettiń tez ózgerip atırǵanlıǵı insan tárepinen tiykarǵı turmıslıq maqset hám wazıypaların belgilep alıwdı qıyınlastırıp atır. Sonıń menen birgelikte túrli informaciyalıq, texnikalıq qurallar hár qıylı sırtqı kórinislerde payda bolıwı erjetip kiyatırǵan jas áwladtı bákámal etip qalıplestiriw máselesin quramalastırıp atır. Bul mashqalanı sheshiw ushın dóretiwshi, erkin pikirleytuđın shaxslardı tárbiyalaw, olarda kreativlikti rawajlandırıw áhmiyetli bolıp esaplanadı.

Kreativlik (latinsha, ing. “create” - jaratıw, “creative” jaratıwshı, dóretiwshı) - individtiń jańa ideyalardı islep shıǵarıwǵa tayarlıqtı xarakterleytuđın hám de ǵárezsiz faktor retinde intalılıqtıń quramına kiretuđın dóretiwshilik qábileti mánisin ańlatadı. Shaxstıń kreativligi onıń oylawında, qarım-qatnasında, sezimlerinde, arnawlı bir xızmet túrlerinde kórinedi. Kreativlik shaxstı pútin halda yamasa onıń jeke ózgesheliklerin, uqıplılıǵın xarakterleydi. Sonıń menen birge, kreativlik qábilettiń zárúrli faktori retinde sáwlelenedi. Kreativlik sózi



birinshi 1922-jilda AQSh alimi D. Simpson tárepinen qollanilgan. Usi atama arqali shaxs qalıptegi, stereotip, dástúriy oylawdan waz keshiw qábiletin táriyiplegen.

Amerikalı psixolog P. Torrens pikrine qarağanda, kreativlik mashqala yamasa ilimiy kózqaraslardı ilgeri súriw, boljawdı tekseriw hám ózgertiw; qarar nátiyjelerin qalıplestiriw tiykarında mashqalanı anıqlaw; mashqala sheshimin tabıwda bilim hám ámeliy háreketlerdiń óz-ara qarama-qarsılıǵına salıstırǵanda tásirsheńlikti ańlatadı.

Basqa hárqanday sıpat (pazıyet) sıyaqlı kreativlik te tez qalıplespeydi. Kreativlik arnawlı bir basqışlarda izbe-iz qalıplestirilip hám rawajlandırılıp barıladı. Oqıwshılarda kreativ pikirlew kónlikpelerin qalıplestiriwde oqıtıwshı ayırıqsha orın tutadı. Bul proceste “oqıtıwshınıń roli klasta kreativlik ortalıǵın jaratıwdan ibarat.

Pannels hám Klakstonlar (2008) kórsetkenindey, ortalıq (klass haqqında sóz etkende maqset hám wazıypalar) kreativlikti qalıplestiriwge tásir etedi, basqa izertlewshi Piirtoning (2004) pikrine qarağanda, kreativlik táwekel etiwdi talap etedi. Negizinde, oqıtıwshı klasta oqıwshılar ózlerin erkin seze alatuǵın hám óz pikirleri, ideyaları menen bólese alatuǵın ortalıq jaratılıwı lazım. Oqıwshılar klasta óz ideya hám pikirlerin túrli jollar menen ańlatıwı múmkin hám olar bunı qádirlewi kerek. Oqıwshılar miyde júz berip atırǵan proceslerdi jáne de aktivlestiriw ushın ornatılǵan nızam-qaǵıydalar, standartlardan shetke shıǵıp, túrli sorawlar beriwi, erkin háreket etiwı kerek. Oqıtıwshı oqıwshılardaǵı kreativlikti dástúriy emes ideyalardı ortaǵa taslaw hám olardı verbal hám verbal emes tárizde xoshametlew arqalı qollap-quwatlaydı. Oqıtıwshınıń oqıwshılar berip atırǵan kreativ ideyalarına qarağanda tuwrı múnásibeti olardıń múmkin bolǵan hám múmkin bolmaǵan shártlerdi ańlawında zárúrli áhmiyetke iye. Usı elementlerdiń barlıǵı oqıtıwshı - oqıwshı qatnasınıń áhmiyetli bir bólegi bolıp, oqıwshılar tabıslı bolıwın támiyinleydi (Hattie, 2011)” 21.

Mekteplerde oqıtıwshılar oqıwshılarda kreativ pikirlew kónlikpelerin qalıplestiriw hám rawajlandırıwda olardıń jámaát bolıp, kishi yamasa úlken toparlarda islewi ushın zárúr shárayatlardı jaratıp bere alıwı zárúr. Sol sıyaqlı, úlken hám kishi toparlarda islew procesinde bildirilgen hárqanday pikirdi kreativ tárepten rawajlandırıw múmkinshiligi júzege keledi. Kreativ kónlikpeler hám oqıwshılarda kreativ kónlikpelerdi qalıplestiriw procesiniń mánisi. “Kreativlik atası” atı menen ataqlı Pol Torrans tórt kreativlik kónlikpesin anıqlaǵan (1987 a) Onıń alıp barǵan izertlewlerine qarağanda, kreativ kónlikpelerdi qalıplestiriw hám olardı bahalaw múmkin eken. (7-bap):

1. Anıqlılıq. Kóplegen ideyalardı oylap tabıw kónlikpesi kóp degen sózge tiykarlanadı.

2. Beyimlesiwsheńlik. Túrli ideyalardı oylap tabıw kónlikpesi ózgertiw degen sózge tiykarlanadı.

3. Ózine saylıq. Basqalarğa uqsamağan, ajralıp turıwshı ideyanı oylap tabıw kónlikpesi kem ushıraytuğın degen sózge tiykarlanadı.

4. Jaratıwshańlıq. Ideyalardı keńeytiw kónlikpesi qosıw degen sózge tiykarlanadı.

Kreativlik sabaqlarında oqıwshılarda ájayıp ideyalardı oylap tabıw (ózine saylıq); olardı keńeytiw (islep shıǵıw); yamasa basqa ideyalar menen salıstırıw hám olardaǵı baylanıstı tabıw (beyimlesiwsheńlik) talap etilgende, usı kónlikpeler bir-biri menen kesilisedi. Ádette kreativlik oqıwshılardıń xızmetinde tez-tez kózge taslansa da, biraq bul jaǵday oqıwshılardıń keleshekte dóretiwshilik tabıslardı qolǵa kergiziwine kepillik bermeydi. Tek ǵana olar tárepinen ol yaki bul dóretiwshilik kónlikpe, ilimiy tájiriybelerdi ózlestiriwi zárúr degen itimaldı ańlatadı. Oqıwshılarda kreativlikti rawajlandırıwda tómendegilerge itibar qaratıw zárúr: Olar tárepinen kóp sorawlar beriliwin xoshametlew hám bul ádetti qollap-quwatlaw; oqıwshılardıń erkinligin xoshametlew hám olarda juwapkershilikti kúsheytiw; oqıwshılar tárepinen erkin xızmetti shólkemlestiriw ushın múmkinshilik jaratıw; oqıwshılardıń qızıǵıwshılıqlarına itibar qaratıw bolıp esaplanadı.

Juwmaqlap aytqanda, kreativlik sabaqlarında oqıwshılar bir ǵana “tuwrı” juwaptı izlew ornına ózlerin erkin seziwleri hám júzege kelgen máselelerge túrli sheshimlerdi izlep tabıwları maqsetke muwapıq bolıp tabıladı. Qansha kóp ideya hám pikirlerdi ortaǵa taslasa, sonsha kóp ideyalar kreativ boladı. “Kreativlik juqpalı ózgesheliklerge iye esaplanadı; kreativ bolıw ushın oqıwshı kóbirek kreativ insanlar menen qarım-qatnas qılıwı hám bárháma izleniwde bolıwı kerek. Hárqanday kónlikpeni qalıplestiriw múmkin bolǵanıday, kreativ pikirlew qábileti yamasa kónlikpesin de rawajlandırıw múmkin.

PAYDALANÍLGÁN ÁDEBIYATLAR DIZIMI

1. Sultanova G.A. Pedagogik mahorat. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005.
2. Tolipov U.Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. – T.: “Fan”, 2005.
3. G'oziev. E.G' Ontogenez psixologiyasi. Toshkent - 2020.



FIZIKANI O'QITISHDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Safayev Umrzoq Kamoliddin o'g'li – Samarqand viloyati Narpay tumani 45-maktab fizika – astronomiya fan o'qituvchisi

E-mail: safayevumrzoq6061@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada fizika fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish haqida ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, innovatsion texnologiyalardan foydalanilganda dars davomida erishilgan ijobiy natijalar, darsning samaradorlik ko'rsatkichlariga ta'siri, ayrim munozaralar, qarashlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Pedagogik mahorat, innovatsiya, novator, texnologiya, eksperimental, fundamental, samaradorlik, hodisa va sabab

Kirish. O'qituvchining kasbnomasida pedagogik mahorat eng asosiy sifat tarzida berilgan. Pedagogik mahoratning o'zi nima? –deb savol bersangiz javoblar soni savollar sonidan ham ortadi. „Pedagogik mahorat“ tushunchasini ensiklopedik lug'atdan qarasak, bu – ta'lim va tarbiya jarayonini rivojlantirib yuksak darajaga olib chiqish san'ati. Buning uchun pedagog ishini va bolalarni sevishi va ularga bor mehrini berishi kerak. Buning uchun esa pedagog har bir darsni ilm-fan texnika hamda innovatsion texnologiya yutuqlaridan foydalangan holda tashkil etishi kerak. Shu maqsadda „Kadrlar tayyorlash milliy dasturi“da alohida ta'kidlangan milliy model: O'zbekiston Respublikasi o'ziga xos xarakterga ega bo'lib, unda ilg'or fan-texnika hamda innovatsion texnologiya yutuqlari asosida tayyorlangan kadr – yetuk mutaxassis qiyofasini ifodalovchi hujjatdir.

Innovatsiya (inglizcha “innovation”) – yangilik kiritish, yangilik degan ma'nolarni anglatadi. Bu termin hozirgi zamonda barcha sohalar qatori ilm-fan tarmoqlariga kirib keldi. Yangi innovatsiyalarni joriy qilish birmuncha qiyin vazifadir. Buning uchun esa yuqorida aytganimizdek pedagogik mahoratga ega kadrlar kerak.

Fizikani o'qitishda innovatsion texnologiyalarning asosiy vazifasi sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- bo'lajak o'qituvchiga zarur bo'lgan pedagogik-psixologik fan adabiyotlari bilan samarali ishlashni ko'rsatish;
- dastur asosida o'quv materiallarni didaktik tuzish va takomillashtirib kamchiliklarni to'ldirib borish;
- o'qitishni eng samarali metodlari va usullarini ishlab chiqish, tekshirish, qo'llash;



➤ o'qitishda zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan amaliyotda foydalangan holda kerakli metodik hujjatlarni (dars ishlanma, konspekt, ochiq dars, o'quv sayohatlari) tuzish;

➤ zamonaviy pedagogik fan yutuqlaridan va ilg'or pedagogik tajribalardan keng miqyosda foydalanish;

➤ o'quvchini ijodkor, erkin fikrlovchi, komil va har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantiruvchi bilim, malaka va ko'nikmaga ega bo'lish;

Fizikani o'qitishda innovatsion texnologiyalar – pedagogik fanlardan biri bo'lib, uning paydo bo'lishi va rivojlanishida ilmiy-nazariy ma'lumotlarni innovatsion metodlardan foydalangan holda o'quvchilarga yetkazib berishdir.

Fizika asosi fundamental nazariyalar, tabiat qonunlari, ilmiy tushunchalar tashkil etgan nazariy fandir. U mikro va makro olamni elementar zarralar va elektromagnit maydon haqidagi eksperimental dalillarga tayanadi. Fizika nazariyalar bu maxsus nisbiylik nazariyasi va gravitatsion, klassik va kvant mexanikasi, qattiq jism fizikasi va moddalar tuzilishi, statistik fizika va termodinamika, yadro va elementar zarralar fizikasi va boshqalardir.

Innovatsiya degani fanni yangilash emas, balki unga yangilik kiritish demakdir. Agar biz har bir darsni mana shunday a'lo darajada innovatsion metod, innovatsion texnologiyalar yordamida tushuntira olsak, bizda ham buyuk fiziklar kabi A.Eynshteyn, I.Nyutonlar yetishib chiqadi.

Fizika dastlabki paytlarda, asosan, moddalarning xossalarini va tabiat hodisalarini o'rganish bilan shug'ullangan bo'lsa, keyinchalik u o'rganadigan sohalar soni keskin ortadi. 3Bu esa fizikani sistemalashtiruvchi va evristik ahamiyatini oshishiga olib keladi. Hozirda fizika fani nazariyalari asosida bir qator fanlar (kimyo, biologiya, meditsina, va boshqalar) bir qator texnika fanlar (radiotexnika, elektronika va boshqalar) ning asosi bo'lib qoldi. Shunday qilib fizika uzoq yillardan beri o'z ahamiyatini yo'qotmagan holda nazariy fan sifatida rivojlanib kelmoqda.

Innovator o'qituvchi zimmasiga mas'uliyatlar yuklanadi, ya'ni joriy qilinayotgan yangilik nechog'lik samara beradi buni esa pedagogik tajribalar yordamida statistik ma'lumotlar yig'ish va qanday yutuqlarga ega bo'lish mumkin. Buning ortidan olingan natijalar innovator o'qituvchining ish faoliyatini rivojlanishiga katta yordam beradi. O'zbekistonda innovatsiya boshqa sohalarga qaraganda ta'lim tizimiga birinchilardan bo'lib kirdi.

Ta'lim tizimidagi innovatsiyalarni quyidagilarda ko'rish mumkin:

1. Ta'lim tizimiga "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dastur;
2. Pedagogik fanlar tizimiga innovatsiyaning kirib kelishi;
3. O'qitish tizimiga innovatsiyaning kirib kelishini ta'lim mazmunida, o'qitish metodlarida, dars shakli, o'qitish turlari, o'qitish vositalarida ko'rishimiz mumkin;



Ta'lim mazmuniga innovatsiya an'anaviy, noan'anaviy va masofaviy o'qitish turlarini kirib kelishi bilan izohlanadi. O'qitish tizimiga kirib kelgan innovatsiyalarni metodlarida, dars shakli, o'qitish turlari, o'qitish vositalarida ko'rishimiz mumkin. Demak, o'qituvchi innovatsion faoliyatining eng muhim tavsifi bu – kreativlikdir.

Fizika faniga „Event and Reason”(hodisa va sabab) innovatsion texnologiyasi

Ushbu texnologiya tinglovchiga tarqatilgan oddiy qog'ozga o'z fikrini aniq qisqa holatda ifodalab tasdiqlovchi va inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi. Bu innovatsion o'yin biror bobni yoki bo'limni takrorlashda o'tkazish ma'qul. Turli hayotiy misollar bilan hodisani yoki qonunlarni tushuntirishda samaradorligi yuqori. O'quvchi bu o'yinda qatnashib tezkor fikrlashga, fikrlash tezkorligini oshiribgina qolmay, o'z xotirasini mustahkamlaydi. O'yin tezkor savol-javoblar asosida o'tkaziladi. Masalan, o'qituvchining "Tosh yerga tushdi. Sabab?" degan savoli natijasida o'quvchi yerning tortishish kuchini anglab yetadi.

O'qituvchi savollarni va javoblarni bir marta o'qib beradi va uni yodlab qolish orqali xotirasini mustahkamlaydi. Javob berishda ikkilansa, ortiqcha va xato aytilgan so'zlar, turli xil to'xtalishlar uning o'yinda mag'lub bo'lganini bildiradi.

1-jadval

Nº	Hodisa	Sabab
1	Yuqoriga otilgan tosh yerga tushdi, sabab?	Chunki, yerning tortish kuchi
2	Koptok dumalab to'xtadi, sabab?	Chunki, unga ishqalanish ta'sir etadi
3	Paxta suvda cho'kmaydi, sabab?	Chunki, paxtaning zichligi suvnikidan kichik
4	Jism energiyasi kamayadi, sabab?	Chunki, u ish bajargan
5	Jism impulsi ortadi, sabab?	Chunki, jism massasi yoki tezligi ortgan
6	Kamazning to'xtashi yengil mashinaga nisbatan qiyin, sabab?	Chunki, massasi katta ya'ni inersiyasi katta
7	Muz erigan, sabab?	Chunki, muz issiqlik miqdori olgan
8	Radio ovozi eshitilmadi, sabab?	Chunki, bu muhit vakuum
9	Isitgichlar pastga joylashtiriladi, sabab?	Chunki, sovuq va og'ir havo pastda bo'ladi



10	Kunduz kuni yer isiydi, sabab?	Chunki, quyoshdan yerga issiqlik nurlanish orqali yerga yetib keladi
----	--------------------------------	--

Bu innovatsion texnologiyani afzalliklarini dars jarayonida qo'llab samaradorligi sinab ko'rildi. Bu yo'l orqali bir vaqtning o'zida o'tilgan mavzularni takrorlash, bilimni va xotirasini mustahkamlash kabilarni bir vaqtning o'zida olib boradi. O'qituvchi vaqtdan yutadi va bir darsning o'zida sinfda 80–90% o'quvchi bilan takrorlash va mustahkamlash ishlarini olib boradi. 1-jadvalni har bir fanga, darsga moslashtirish mumkin. Bu texnologiyani o'quv yili davomida uzluksiz o'tkazilsa effektivlik ko'rsatkichi yanada ortadi va o'qituvchi o'quvchilarning bilim darajasidan kelib chiqqan holda 1-jadvalni darajalashi mumkin, ya'ni (o'quv yil boshida oddiy, o'quv yil o'rtasida o'rtacha va o'quv yil oxirida qiyin). Demak usul yordamida har o'qituvchi har bir fanga, bo'limga, darsga ishlatsa bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. X.I.Ibragimov, U.A.Yo'ldoshev, X.Bobomirzayev „Pedagogik Psixologiya“ — O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti Toshkent 2007 y 20-b
2. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” me'yoriy xujjatlar to'plami – T.:Sharq nashriyoti-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh taxriryati. 2001 30-34b

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING O'QISH SAVODXONLIGINI TAKOMILLASHTIRISHDA “4K” MODELINING AHAMIYATI

Sariyev Sh.U. – Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, PhD

R.Qudratova – Jizzax viloyati Baxmal tumanidagi 1-sonli maktab o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida 4 K modeli asosida o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari va samarali jihatlari haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: o'qish savodxonligi, 4 K modeli, kollaboratsiya, kommunikativlik, kreativ fikrlash, kritik (tanqidiy) fikrlash.

Ma'lumki, ta'lim jarayonida shaxsning taraqqiyoti, uning ma'lumoti va tarbiyasi ustida ishlanadi. O'rganish jarayonida o'quvchilar o'zlashtirishning turli shakllaridan foydalanishadi, ya'ni o'zlashtirilayotgan ma'lumotlarni qabul



qilish, qayta ishlash hamda amaliyotga tatbiq etishda o'ziga xos jihatlariga tayanadi.

Boshlang'ich sinflarda ona tili darslari savodxonlikni ta'minlashda asosiy o'rinni egallaydi. O'quvchilar ona tilini o'rganish orqali xalqning madaniy-axloqiy qadriyatlarini ham o'rganadi. O'qitishning mustaqil qismi bo'lgan har qanday dars ta'limiy, rivojlantiruvchi va tarbiyaviy maqsadni amalga oshirishga xizmat qiladi. Har qanday darsning umumiy maqsadi "o'quvchilarga bilim berish va ular olgan bilimni amalda qo'llay oladigan darajaga yetkazishga erishish, har bir o'quvchida komil shaxsga xos fazilatlarni shakllantirishdir. Shunday ekan, bu jarayonda darsliklarning ahamiyati beqiyos. Darslik har qanday bosqichda ta'limning asosi bo'lib xizmat qiladi. Bugungi kunda 1-4-sinflar uchun maktab darsliklari 4 K modeliga asoslangan innovatsion yondashuvni o'zida mujassamlashtiradi. Ushbu metodologiya o'quvchilarda kollaboratsiya (jamoa bo'lib ishlash), kommunikativlik (muloqot ko'nikmalari), kreativ fikrlash, kritik fikrlash (ma'lumotlarga tanqidiy baho bera olish) ko'nikmalarini shakllantiradi.

4 K modeli quyidagicha faoliyat turlarini nazarda tutadi:

1. Kritik (tanqidiy) fikrlash (Critical Thinking).
2. Kreativlik (ijodiy yondashuv) (Creativity).
3. Kommunikativlik (Communicativeness).
4. Kollaboratsiya (Collaboration).

Tanqidiy fikrlash deganda quyidagi jihatlariga e'tibor qaratish nazarda tutiladi:

a) tahlil – topshiriqni alohida kichik vazifalarga bo'lib o'rganish qobiliyati;
b) baholash – ma'lumotlarining sifati va muvofiqligini baholash qobiliyati;

d) tushuntirish – o'z nuqtayi nazarini dalillash, mantiqiy bog'liqlikni aniqlash;

e) maqsadlarni belgilash – erishish mumkin bo'lgan maqsadlarni to'g'ri shakllantirish, zarur ma'lumotlarni aniqlash, mustaqil xulosalar chiqarish qobiliyati;

f) o'zini boshqara bilish – o'z-o'zini tekshirish, xulosalarni tuzatish va mulohaza yuritish;

g) modellashtirish – vaziyatni sifatli tahlil qilish, muammolarni hal qilish malakalarini rivojlantirish, strategik fikrlash.

Kreativlik (ijodkorlik) ko'nikmasi shaxs ega bo'lgan bilimning ko'pqirrali ekanida emas, balki yangi g'oyalarga intilish, hayotiy muammolarni yechishda noodatiy yondasha olish, kutilmagan qarorlar chiqara olishda namoyon bo'ladi [1]. Ushbu ko'nikmani shakllantirishda quyidagi jihatlarini rivojlantirish lozim:

a) qiziquvchanlik – olamga qiziqish va u haqida ko'proq bilishga intilish, sabab-natija munosabatlarini aniqlash, axborotni mustaqil izlash qobiliyati;



b) tasavvur – ko'plab original va nostandart g'oyalarni ishlab chiqish qobiliyati;

d) optimallashtirish – maqsadga tez va samarali erishish uchun bir nechta usullarni solishtirish qobiliyati;

e) g'oyalarni rivojlantirish – g'oyalarni turli nuqtayi nazardan baholash, o'zgaruvchan sharoitlarda o'z faoliyatini tezda qayta tiklash qobiliyati.

Muloqot qilish ko'nikmasini shakllantirishda quyidagi jihatlarga e'tibor qaratish lozim:

a) muloqotdan cho'chimaslik, savollar berish va ularga javob berish;

b) muloqot maqsadi va mazmuniga, suhbatdoshga moslashish qobiliyati;

d) muloqot qilishda verbal va noverbal vositalardan foydalanish qobiliyati;

e) muloqot qoidalarini anglash va ishonch darajasini oshirish;

f) boshqalarning fikrini tinglashni o'rganish;

g) o'z fikr va his-tuyg'ularini ifodalash;

h) taqdim etish, qabul qilish va qayta aloqani aks ettirish;

i) o'z fikr va mulohazalarini aniq dalillash.

Jamoaviy ishlash ko'nikmasi quyidagi parametrlar asosida shakllantirilishi lozim:

a) umumiy maqsadlarni o'z maqsadidek qabul qilish qobiliyati;

b) ijtimoiy o'zaro ta'sir, ya'ni umumiy maqsadlarni muhokama qilish, muzokaralar olib borish;

d) o'z rejalari va g'oyalarini amalga oshirish uchun yetakchilik qilish va o'z jamoasini shakllantirish qobiliyatini rivojlantirish;

e) o'z zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarish va tashabbuskorlik.

Shu o'rinda boshlang'ich sinflarning "O'qish savodxonligi" darsliklariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ularda, asosan, o'quvchining mantiqiy fikrlashini va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan matnlar bilan ishlashga mo'ljallangan amaliy topshiriqlar joy olgan. Masalan, 2-sinf "O'qish savodxonligi" darsligining 25-betida keltirilgan "O'zbek tili" (Rauf Tolib) [2] she'ri matni ustida ishlash uchun matnoliq savol-topshiriqlar, kreativlik va tanqidiy yondashish uchun alohida topshiriqlar berilgan, jamoa bo'lib ishlash uchun imkon ham yaratilgan. O'quvchilarning darslik matni ustida ishlashi matnni o'qish, qayta hikoya qilish, savol-topshiriqlar ustida ishlash bilan cheklanmaydi, balki o'rganilgan matn yuzasidan egallagan bilimlarini, ko'nikma va malakalarini mustahkamlashga doir mustaqil ishlarni bajarishi misolida davom etadi [3].

Umuman olganda, 4 K modeli asosida yaratilgan yangi "O'qish savodxonligi" darsliklarining quyidagicha o'ziga xos jihatlari ta'kidlash lozim:



- tanlangan asarlar milliy qadriyatlarimizni o'zida mujassam etgan turli janrga mansub;
- matnlardagi notanish so'zlar bilan ishlash uchun lug'at ishiga ahamiyat qaratilgan;
- matn ustida ishlash uchun maxsus topshiriqlar kiritilgan;
- darsliklarda tafakkur qilishda tanqidiy, ijodiy yondashilgan;
- fanlararo bog'liqlik hamda hamkorlikda ishlashga yo'naltiruvchi topshiriqlar va loyiha ishlari ustida ishlashga ham imkon yaratilgan;
- darsliklarda o'quvchi qiziqishlari, yosh va fiziologik xususiyatlari e'tiborga olingan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. D.Shodmonqulova. Ona tilidagi mashqlar vositasida o'quvchilarni kreativ fikrlashga o'rgatish // "Universitet 4.0: Ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalar va zamonaviy tendensiyalar" Xalqaro ilmiy va ilmiy-texnikaviy anjuman materiallari, 2023-yil 18-mart.
2. U.B.Aydarova. O'qish savodxonligi (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 2-sinfi uchun darslik. I qism). – Toshkent: Novda Edutainment, 2023.
3. Sh.U.Sariyev, M.Rahimova. Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida matn ustida ishlash usullari. — // "Boshlang'ich ta'limning zamonaviy tendensiyalari: ta'lim va tarbiya integratsiyasi" mavzusidagi III Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, Jizzax, 2023.
4. Sh.U.Sariyev, G.U.Raxmanova. O'zbek adabiyotini o'qitishda yangi pedagogik texnologiya usullarini qo'llash. – T.: Science and innovation, 2022. – 531-533-b. https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=LrrORX0AAAAJ&cstart=20&pagesize=80&citation_for_view=LrrORX0AAAAJ:3s1wT3WcHBgC
5. Nuradilova Aselxan Dilshodxo'ja qizi. Boshlang'ich sinflarda ona tili fanini o'qitishda noan'anaviy dars usulining samarali natijalari. https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=n79KHFOAAAAJ&citation_for_view=n79KHFOAAAAJ:Tyk-4Ss8FVUC

BIR PALLALI GIPERBOLOID VA GIPERBOLIK PARABOLOIDNI GEOGEBRA DASTURIDA TASVIRLASH


Seidullaev A.K. – Qoraqalpoq davlat universiteti, V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika institutining Qoraqalpog'iston bo'limi, Phd dotsent,
E-mail: s_abat@karsu.uz

Yusupov M.A. – Qoraqalpoq davlat universiteti 2-kurs talaba
E-mail: muzaffaryusupov889@gmail.com

Annotatsiya. *Bir pallali giperboloid va giperbolik paraboloid va umuman, ikkinchi tartibli sirtlarning tasvirlarini Geogebra dasturida yaratish o'quvchiga analitik geometriya kursini o'rganishda katta amaliy yordam beradi. Geogebra dasturi yordamida bir pallali giperboloid va giperbolik paraboloid tasvirlarini yaratish orqali o'quvchilar bu geometrik shakllarni o'rganish, ularga oid tenglamalar va xususiyatlar bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu tasvirlar o'quv protsessini sodda va ko'proq tushunarli qilishga yordam beradi.*

Kalit so'zlar: *Geogebra 3D dasturi, bir pallali giperboloid, giperbolik paraboloid, bir pallali giperboloidning yasovchilari, asboblar paneli.*

Bir pallali giperboloid va giperbolik paraboloid tasvirlarini GeoGebra dasturida tasvirlashdan oldin aynan shu dastur haqida qisqacha tanishib olamiz(1-rasm).



1-rasm. GeoGebra dasturi bilan tanishish

Dastlab bir pallali giperboloidning GeoGebra dasturidagi tasvirini quyidagi qadamlar yordamida ketma-ket bajarib yasaymiz.


1-qadam. GeoGebra 3D dasturini ochib olamiz (1-chizma).

2-qadam. Endi quyidagicha ikkita aylanani kiritib tasvirini yasaymiz

#1 - aylana: $\text{Circle}((0,0,0),3,z\text{Axis})$


#2 - aylana: $\text{Circle}((0,0,5),3,z\text{Axis})$

Bu yerda Circle (<nuqta>,<Radius>,< tekislik>) tekislikka parallel va o'q sifatida tekislikning perpendikulyar vektori bilan aylana hosil qiladi. Ya'ni, $(0,0,0)$ -aylana markazi, 3 -aylana radiusi (biz ikki aylana radiuslarini bir xil qilib oldik), $z\text{Axis}$ -aylana yotuvchi tekislik.




2-chizma. Ikkita aylanani kiritish

3-qadam. “Tools” ya’ni asboblari panelidan “**Point**” tugmasini bosib aylanalardan ikkita alohida nuqtalarni belgilab olamiz.



3-chizma. Aylanalardan ikkita alohida nuqtalarni belgilash

4-qadam. Asboblar panelidan “**Segment**” tugmasini bosib yuqorida belgilab olgan ikki A va B nuqtalarni tutashtiramiz




4-chizma. A va B nuqtalarni tutashtirish

5-qadam. Bu qadamda biz tasvirini yasamoqchi bo'lgan bir pallali giperboloidning yasovchilarini quyidagicha kiritamiz:


$$\text{Sequence}(\text{rotate}(f,a),a,\pi / 36,2\pi,\pi / 108)$$

Bu yerda $\text{Sequence}(\langle \text{Ifoda} \rangle, \langle \text{O'zgaruvchi} \rangle, \langle \text{Boshlang'ich qiymat} a \rangle, \langle \text{Yakuniy qiymat} b \rangle, \langle \text{O'sish} \rangle)$ berilgan ifoda yordamida yaratilgan obyektlar ro'yxatini va berilgan o'sish bilan boshlang'ich qiymati a dan yakuniy b qiymatigacha bo'lgan k indeksini chiqaradi.



5-chizma. Yasovchilarni tasvirlash

6-qadam. Oxirgi qadamda biz A yoki B nuqtani shu nuqta yotgan aylana bo'ylab harakatlantirish orqali bizga kerak bo'lgan bir pallali giperboloid tasvirini hosil qilamiz.



6-chizma. Bir pallali giperboloid tasviri

Endi giperbolik paraboloidning GeoGebra dasturida tasvirini birmuncha soddaroq usul bilan yasaymiz. Buning uchun, avvalo, biz giperbolik paraboloidning ta'rifini esga olaylik.


Ta'rif. Ikkinchi tartibli sirt tenglamasini birorta dekart koordinatalar sistemasida

$$2z = \frac{x^2}{p} - \frac{y^2}{q}$$

ko'rinishda yozish mumkin bo'lsa, u **giperbolik paraboloid** deb ataladi. Bu yerda $p > 0$, $q > 0$.

Demak, quyidagi qadamlar ketma-ketligini GeoGebra dasturida bajarish orqali giperbolik paraboloid tasvirini yasaymiz:


1-qadam. Dastlab p va q sonlarni o'zgartirish uchun slayder yaratamiz. Sozlamalar yordamida p va q larning qiymatlarini mos ravishda $\min(p)=1$, $\max(p)=10$ va $\min(q)=1$, $\max(q)=10$ qilib kiritib olamiz.



7-chizma. p va q sonlarini kiritish

2-qadam. Endi giperbolik paraboloid tenglamasini quyidagicha kiritamiz va p va q larni qiymatini o'zgartirib giperbolik paraboloid tasvirini yasaymiz:

$$a(x,y)=x^2/p-y^2/q$$



8-chizma. Giperbolik paraboloid tasvirini yasash

Bugungi kunda ta'limni yanada takomillashtirishda uni axborotlashtirish ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Aynan bu maqola talabalar uchun GeoGebra dasturi orqali analitik geometriyada sirtlarni o'rganishda, bu sirtlarning tasvirini tasavvur qilish imkonini beradi. Bu esa analitik geometriya kursida sirtlarni o'rgatish jarayonida foydalanish mumkin bo'lgan qo'llanma materialni yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Narmanov A. Analitik geometriya. O'zbekiston Respublikasi faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti. Toshkent, 2008.
2. Xudayarov B. A. MATEMATIKA 1-qism Chiziqli algebra va analitik geometriya. Toshkent, 2018.
3. Ильин В. А. Позняк Э. Г. Аналитическая геометрия. М., Наука, 1981.
4. Ушаков А.В. Использование информационных технологий при изучении геометрии в педагогическом ВУЗе / А.В. Ушаков // Педагогические науки. – 2015. – № 2 (71). – С. 55-57.
5. Ушаков А.В. О роли примеров на лекциях по дифференциальной геометрии в педагогическом ВУЗе / А.В. Ушаков // Педагогические науки. – 2014. – № 3 (66). – С. 31-34.



BIOLOGIK KIMYO FANINI O'QITISHDA INTERAKTIV USULLARNI QO'LLASH

Seit-Asan Lenara Serverovna – Chirchiq
davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi
E-mail: seitasanlenara@gmail.com

Annotatsiya. Bugungi kunda ta'lim tarbiyani shakllantirish, o'quvchilarning bilim doirasini kengaytirish, dunyoqarashini rivojlantirish, mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalar muhim ahamiyatga ega.

O'rta ta'limda o'quvchilarda biologiya darslari orqali interaktiv metodlar asosida bilim doirasini kengaytirish.

Kalit so'zlar: Biologiya, metodlar, "BBB" metodi, "Zinama-zina" texnologiyasi, "Klaster" metodi.

Mavzuning dolzarbligi Bugungi kunda Respublikamizda umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi hamda oliy ta'lim sifati va samaradorligini oshirish hamda uzluksizlikni ta'minlash borasida qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini akademik litsey va kasb-hunar ta'limi muassasalariga Davlat ta'lim standartlari talablari darajasida sifatli tayyorlash, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilarini ta'limning keyingi bosqichlariga uzluksiz maqsadli tayyorlash ishlarini samarali tashkil etish, muvofiqlashtirish hamda oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik va integratsiya jarayonlarini yanada rivojlantirish ishlari jadal sur'atlarda olib borilmoqda.

Biologiya o'qitish metodikasining maqsadi va vazifalari. Biologiya o'qitish metodikasi biologiya fan asoslari bilan bog'liq bo'lgan o'quv, jarayonlar, prinsiplar va qonuniyatlar to'g'risidagi fandir. Mazkur prinsip va qonuniyatlarni bilish o'qituvchiga maktab biologiya kursi bilan bog'liq o'quv-tarbiyaviy jarayonlarni zamon talablariga mos holda tashkil etish va boshqarish imkonini beradi.

Material va metodlar "BBB" metodi

Ushbu metod o'quvchilarga muayyan mavzular bo'yicha bilimlari darajasini baholay olish imkonini beradi. Metodni qo'llash jarayonida o'quvchilar bilan guruhli yoki ommaviy ishlash mumkin. Guruh shaklida ishlashda mashg'ulot yakunida har bir guruh tomonidan bajarilgan faoliyat tahlil etiladi. Guruhlarning faoliyatlari quyidagicha tashkil etilishi mumkin:

1. Har bir guruh umumiy sxema asosida o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni bajaradi va mashg'ulot yakunida guruhlarning munosabatlari loyiha bandlari bo'yicha umumlashtiriladi.

2. Guruhlar umumiy sxemaning alohida bandlari bo'yicha o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni bajaradi. O'quv faoliyati bevosita sinf doskasi yoki ish qog'ozida o'z aksini topgan quyidagi jadval (1, 2) asosida tashkil etiladi.

1-jadval

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim

2-jadval

Mavzu: Lipidalar Mavzuga doir tushunchalar	Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim
1. Oddiy lipidlar			
2. Murakkab lipidlar			

Metoddan foydalanish 3 bosqich asosida amalga oshiriladi.

1. O'quvchilarning o'rganilishi rejalashtirilayotgan mavzu bo'yicha tushunchalarga egalik darajalari aniqlanadi.

2. O'quvchilar mavzuga oid ma'lumotlar bilan batafsil tanishtiriladilar.

3. O'quvchilarning mavzu bo'yicha mavjud bilimlarini boyitishga bo'lgan ehtiyojlari o'rganiladi. (bo'shliqlar, darslar jarayonida to'ldirib boriladi) Bosqichlar bo'yicha amalga oshirilgan harakatlarning to'liq tafsiloti quyidagicha:

1. Sinf o'quvchilarning (individual guruhlarda) ishlashlari e'lon qilinadi.


2. O'quvchilarning yangi mavzu bo'yicha tushunchalarga egalik darajasi o'rganiladi va ular tomonidan bayon etilgan tushunchalar jadvalning 1-bandiga yozib boriladi.

3. O'quvchilarning yangi mavzu bo'yicha mavjud bilimlarini boyitishga bo'lgan ehtiyojlari o'rganiladi va bu ehtiyojlar jadvalning 2-bandiga yoziladi.

4. O'qituvchi yangi mavzuga oid umumiy ma'lumotlar bilan o'quvchilarni xabardor qiladi. O'zlashtirilgan yangi tushunchalar aniqlanadi va ular jadvalning 3-bandiga yoziladi [1,2].

"Zinama-zina" texnologiyasi

Texnologiyaning tavsifi. Ushbu mashg'ulot o'quvchilarni o'tilgan yoki o'tilishi kerak bo'lgan mavzu bo'yicha yakka va kichik jamoa bo'lib fikrlash hamda xotirlash, o'zlashtirilgan bilimlarni yodga tushirib, to'plangan fikrlarni umumlashtira olish va ularni yozma, rasm, chizma ko'rinishida ifodalay olishga o'rgatadi. Bu texnologiya





o'quvchilar bilan yakka holda yoki guruhlariga ajratilgan holda yozma ravishda o'tkaziladi va taqdimot qilinadi.

Texnologiyaning maqsadi. O'quvchilarni erkin, mustaqil va mantiqiy fikrlashga, jamoa bo'lib ishlashga, izlanishga, fikrlarni jamlab ulardan nazariy va amaliy tushuncha hosil qilishga, jamoaga o'z fikri bilan ta'sir eta olishga, uni ma'qullashga, shuningdek, mavzuning tayanch tushunchalariga izoh berishda egallagan bilimlarini qo'llay olishga o'rgatish.

Texnologiyaning qo'llanishi. Ma'ruza (imkoniyat va sharoit bo'lsa), seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida yakka tartibda yoki kichik guruhlarda o'tkazish hamda nazorat darslarida qo'llanilishi mumkin.

Mashg'ulotda qo'llaniladigan vositalar: A-3, A-4 formatli qog'ozlarda tayyorlangan (mavzuni ajratilgan kichik mavzular soniga mos) chap tomoniga kichik mavzular yozilgan tarqatma materiallar, marker (yoki rangli qalam)lar.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:

1) O'qituvchi o'quvchilarni mavzular soniga qarab 3-5 kishidan iborat kichik guruhlariga ajratadi (guruhlar soni 4 yoki 5 ta bo'lgani ma'qul).

2) O'quvchilar mashg'ulotning maqsadi va uning o'tkazilish tartibi bilan tanishtiriladi. Har bir guruhga qog'ozning chap qismida kichik mavzu yozuvi bo'lgan varaqlar tarqatiladi.

3) O'qituvchi a'zolarini tarqatma materialda yozilgan kichik mavzular bilan tanishishlarini va shu mavzu asosida bilganlarini flomaster yordamida qog'ozdagi bo'sh joyiga jamoa bilan birgalikda fikrlashib yozib chiqish vazifasini beradi va vaqt belgilaydi.

4) Guruh a'zolari birgalikda tarqatma materialda berilgan kichik mavzuni yozma (yoki rasm, yoki o'quv chizma) ko'rinishida ifoda etadilar. Bunda a'zolari kichik mavzu bo'yicha imkon boricha to'laroq ma'lumot berishlari kerak bo'ladi.

5) Tarqatma materiallar to'ldirilgach, guruh a'zolaridan bir kishi taqdimot qiladi.

Taqdimot vaqtida guruhlar tomonidan tayyorlangan material, albatta, auditoriya (sinf) doskasiga mantiqiy ketma-ketlikda (zina shaklida) ilinadi.

6) O'qituvchi guruhlar tomonidan tayyorlangan materiallarga izoh berib, ularni baholaydi va mashg'ulotni yakunlaydi [3,4].

"Klaster" metodi

Klaster metodi pedagogik, didaktik strategiyaning muayyan shakli bo'lib, u ta'lim oluvchilarga ixtiyoriy muammo (mavzu) lar xususida erkin, ochiq o'ylash va fikrlarni bimalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Mazkur metod turli xil g'oyalar o'rtasidagi aloqalar fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi. "Klaster" metodi aniq obyektga yo'naltirilmagan fikrlash shakli sanaladi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog'liq ravishda amalga oshadi. [4,5]

Ushbu metod muayyan mavzuning ta'lim oluvchilar tomonidan chuqur hamda puxta o'zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Guruh asosida tashkil etilayotgan mashg'ulotlarda ushbu metod guruh a'zolari tomonidan bildirilayotgan g'oyalarning majmua tarzida namoyon bo'ladi.

Bu esa guruhning har bir a'zosi tomonidan ilgari surilayotgan g'oyalarni uyg'unlashtirish hamda ular o'rtasidagi aloqalarni topa olish imkoniyatini yaratadi.

“Klaster” metodini o'tkazish texnologiyasi:


1-bosqich. Nimaniki o'ylagan bo'lsangiz, shuni qog'ozga yozing. Fikringizni sifati to'g'risida o'ylab o'tirmay, ularni shunchaki yozib boring.

2-bosqich. Yozuvingizning orfografiyasi yoki boshqa jihatlariga e'tibor bermang.

3-bosqich. Belgilangan vaqt nihoyasiga etmaguncha, yozishdan to'xtamang. Agar ma'lum muddat biror-bir g'oyani o'ylay olmasangiz, u holda qog'ozga biror narsaning rasmini chiza boshlang. Bu harakatni yangi g'oya tug'ilgunga qadar davom ettiring.

4-bosqich. Muayyan tushuncha doirasida imkon qadar ko'proq yangi g'oyalarni ilgari surish hamda mazkur g'oyalar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik va bog'liqlikni ko'rsatishga harakat qiling. G'oyalar yig'indisining sifati va ular o'rtasidagi aloqalarni ko'rsatishni cheklamang.

“Klaster” metodi o'quvchilarning bilimlarini faollashtirishni tezlashtiradi, fikrlash jarayonida mavzu bo'yicha yangi o'zaro bog'lanishli tasavvurlarni erkin va ochiq jalb qilishga yordam beradi. Klasterni tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Yozuv taxtasi yoki katta qog'oz varag'ining o'rtasiga asosiy so'z yoki 1-2 so'zdan iborat bo'lgan mavzu nomi yoziladi. Yozuv ajratilgan vaqt davomida yoki g'oyalar tugagunicha davom etishi mumkin. Muhokama uchun klasterlar bilan almashinadilar.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. A.R.Malikova “Biologiya o'qitish metodikasi” Navoiy 2011 y.



2. J.O.Tolipova "Biologiyani o'qitishda pedagogik texnologiyalar" Toshkent 2011 y.
3. N.Z.Fayzullayeva. "Ta'lim texnologiyalari" 2014 y
4. M. Aralova "Biologiyani o'qitishda foydalaniladigan interfaol metodlar" Toshkent 2015 y.
5. I.Azimov va boshqalar "Biologiya metodik qo'llanma", "Ibn Sina" 2002y.

BIOLOGIK KIMYO FANINI O'QITISHDA "BUMERANG" TEKNOLOGIYASINI QO'LLASH

Seit-Asan Lenara Serverovna – ChDPU

Biologiya kafedrası o'qituvchisi

E-mail: seitasanlenara@gmail.com

Hamroev Sobirjon Husenovich – O'zMU

Biologiya fakulteti Biokimyo kafedrası
o'qituvchisi

Annotatsiya. Bugungi kunda ta'lim-tarbiyani shakllantirish, o'quvchilarning bilim doirasini kengaytirish, dunyoqarashini rivojlantirish, mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalar muhim ahamiyatga ega. O'rta ta'limda o'quvchilarda biologiya darslari orqali interaktiv metodlar asosida bilim doirasini kengaytirish ham fanning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Kalit so'zlar: biologiya, metodlar, "Bumerang" texnologiyasi.

Mavzuning dolzarbligi Bugungi kunda respublikamizda umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi hamda oliy ta'lim sifati va samaradorligini oshirish hamda uzluksizlikni ta'minlash borasida qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini akademik litsey va kasb-hunar ta'limi muassasalariga Davlat ta'lim standartlari talablari darajasida sifatli tayyorlash, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilarini ta'limning keyingi bosqichlariga uzluksiz maqsadli tayyorlash ishlarini samarali tashkil etish, muvofiqlashtirish hamda oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik va integratsiya jarayonlarini yanada rivojlantirish ishlari jadal sur'atlarda olib borilmoqda.

Biologiya o'qitish metodikasining maqsadi va vazifalari. Biologiya o'qitish metodikasi biologiya fan asoslari bilan bog'liq bo'lgan o'quv, jarayonlar, prinsiplar va qonuniyatlar to'g'risidagi fandir. Mazkur prinsip va qonuniyatlarni bilish o'qituvchiga maktab biologiya kursi bilan bog'liq o'quv-tarbiyaviy

jarayonlarni zamon talablariga mos holda tashkil etish va boshqarish imkonini beradi.

“Bumerang” texnologiyasi

Bu texnologiya o'quvchilarni dars jarayonida, darsdan tashqarida turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlash, o'rganilgan materialni yodida saqlab qolish, so'zlab berish, fikrini erkin

holda bayon eta olish, qisqa vaqt

ichida ko'p ma'lumotga ega bo'lish hamda dars mobaynida o'qituvchi tomonidan barcha o'quvchilarni baholay olishga qaratilgan.



Texnologiyaning maqsadi – o'quv

jarayoni mobaynida tarqatilgan materiallarni o'quvchilar tomonidan yakka va guruh holatida o'zlashtirib olishlari hamda suhbat – munozara va turli savollar orqali tarqatma materiallardagi matnlar qay darajada o'zlashtirilganligini nazorat qilish va baholash hamda o'quv jarayoni mobaynida har bir o'quvchi tomonidan o'z baho (ball) larini egallashga imkoniyat yaratishdan iboratdir.

Texnologiyaning qo'llanishi – amaliy

mashg'ulotlar, seminar yoki laboratoriya mashg'ulotlari hamda suhbat-munozara shaklidagi

darslarda yakka tartibda, kichik guruh va jamoa shaklida foydalanishi mumkin.



Mashg'ulotda foydalaniladigan vositalar. O'quvchi dars jarayonida mustaqil o'qishlari, o'rganishlari va o'zlashtirib olishlari uchun mo'ljallangan tarqatma materiallar (o'tilgan mavzu yoki yangi mavzu bo'yicha qisqa matnlar, suratlar, ma'lumotlar).

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:

1. O'quvchilar kichik guruhlariga ajratiladi;
2. O'quvchilar dars (mashg'ulot)ning maqsadi va tartibi bilan tanishtiriladi;
3. O'quvchilarga mustaqil o'rganish uchun mavzu bo'yicha matnlar tarqatiladi;

4. Berilgan matnlar o'quvchilar tomonidan yakka tartibda mustaqil o'rganiladi;
5. Har bir guruh a'zolaridan yangi guruh tashkil etiladi;
6. Yangi guruh a'zolarining har biri guruh ichida navbati bilan mustaqil o'rgangan matnlari bilan axborot almashadilar, ya'ni bir-birlariga so'zlab beradilar, matnni o'zlashtirib olishlarishga erishadilar;
7. Berilgan ma'lumotlarni o'zlashtirilganlik darajasini aniqlash uchun guruh ichida ichki nazorat o'tkaziladi, ya'ni guruh a'zolari bir-birlari bilan savol-javob qiladilar;
8. Yangi guruh a'zolari dastlabki holatdagi guruhlariga qaytadilar;
9. Darsning qolgan jarayonida o'quvchilar bilimlarini baholash yoki to'plagan ballarini hisoblab borish uchun har bir guruhda "guruh hisobchisi" tayinlanadi;
10. O'quvchilar tomonidan barcha matnlar qay darajada o'zlashtirilganligini aniqlash maqsadida o'qituvchi o'quvchilarga savollar bilan murojaat etadilar, og'zaki so'rov o'tkazadilar;
11. Har bir guruh a'zosi tomonidan guruhdagi matnning mazmunini hayotga bog'lagan holda bittadan savol tuziladi;
12. Guruhlar tomonidan tayyorlangan savollar orqali savol-javob tashkil etiladi ("guruh hisobchilari" berilgan javoblar bo'yicha ballarni hisoblab boradilar);
13. Guruh a'zolari tomonidan to'plangan umumiy ballar yig'indisi asosida g'olib guruh aniqlanadi [20].



Xulosa: Mazkur metodda kichik guruhlar 6-8 ta o'quvchidan tashkil topgan. Dars davomida o'rganilgan mavzu mantiqan tugallangan qismlarga ajratiladi. Har bir qism yuzasidan o'quvchilar bajarish lozim bo'lgan o'quv topshiriqlar tuziladi. Har bir o'quvchilar guruhi mazkur topshiriqlarning bittasini bajaradi va shu qism bo'yicha "mutaxassis"ga aylanadi. So'ngra guruhlar qayta tashkil etiladi. Bu guruhlarda har bir qism "mutaxassis" bo'lishi shart, mazkur "mutaxassis"lar o'zlari egallagan bilimlarni ketma-ket, navbat bilan o'rtoqlariga bayon qiladi. Mazkur guruhlarda o'quv material mantiqiy ketma-ketlikda qayta ishlab chiqiladi. Bu yerda o'qituvchi faqat o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etadigan tashkilotchi vazifasini bajaradi. Dars oxirida o'qituvchi o'quvchilarning bilim darajasini test topshiriqlari yordamida aniqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. A.R.Malikova "Biologiya o'qitish metodikasi" Navoiy 2011 y.
2. J.O.Tolipova "Biologiyani o'qitishda pedagogik texnologiyalar" Toshkent 2011 y.



3. N.Z.Fayzullayeva. "Ta'lim texnologiyalari" 2014 y
4. M. Aralova "Biologiyani o'qitishda foydalaniladigan interfaol metodlar" Toshkent 2015 y.
5. I.Azimov va boshqalar "Biologiya metodik qo'llanma", "Ibn Sina" 2002y.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI VA OILA HAMKORLIGINI SAMARALI TASHKIL ETISH ASOSLARI

Sharipova Gulruxsor Nurkabilovna –
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va
mutaxassislarini qayta tayyorlash va
ularning malakasini oshirish instituti,
p.f.f.d.(PhD) dotsent
E-mail: raxshona@list.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada MTTning ota-onalar bilan olib boriladigan hamkorlikdagi faoliyati mazmuni, bola tarbiyasida oilaning o'rni, ota-onalar bilan ishlash tamoyillari, ota-onalar pedagogik savodxonlikni oshirish shakllari haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, bola, oila, ijtimoiylashuv, tarbiya, tarbiyachi, hamkorlik, rivojlanish, shart-sharoit, kompetentlik.

Zamonaviy jamiyatda o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash maktabgacha ta'lim tashkilotlari oldiga qo'yilgan asosiy vazifalardan hisoblanadi. Ta'lim tizimini takomillashtirishga qaratilgan davlat ta'lim dasturlari, talablari, jumladan O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, Maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish maqsadida qabul qilingan "Maktabgacha ta'lim-tarbiya to'g'risida"gi Qonuni kabi hujjatlarning maqsadi ham voyaga yetmagan bolalarni ham jismoniy, ham aqliy, yuksak intellektual salohiyatga ega shaxslar qilib tarbiyalashga qaratilgan.

Keyingi yillarda barcha sohalarda bo'lgani kabi maktabgacha ta'lim sohasida ham katta o'zgarishlar, keng islohotlar ko'lami amalga oshirilmoqda. Har qanday mamlakatning kuchi uning intellektual salohiyati bilan belgilanadi. Salohiyatga turli yo'llar bilan erishish mumkin. Davlat tomonidan oila tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilishi, maktabgacha ta'lim tashkilotlari oldiga yanada yangi vazifalarni qo'yish bilan birga, pedagoglar va oila o'rtasida o'zaro ishonchli muhitni tashkil etish, hamkorlik va birgalikda ishlash talabini qo'ymoqda.



Maktabgacha ta'limning asosiy vazifalari Davlat talablari asosida bolalarni yuksak axloqiy qobiliyatga ega, intellektual salohiyatli, ijtimoiylashgan bolalarni maktabga sifatli tayyorlab berishga qaratilgan. Davlat tomonidan oila tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilishi, maktabgacha ta'lim tashkilotlari oldiga yanada yangi vazifalarni qo'yish bilan birga, pedagoglar va oila o'rtasida o'zaro ishonchli muhitni tashkil etish, hamkorlik va birgalikda ishlash talabini qo'ymoqda.

Bugungi kunda oilaning jamiyatdagi o'rni, ta'sir imkoniyatlari biroz pasayganligi kuzatilmoqda. Pedagoglar tomonidan bolaning ilk ijtimoiylashuvi jarayonida tarbiya potensialining kamayganligi, uning roli o'zgarganligi aytilmoqda. Zamonaviy ota-onalarning bolalar bilan oila sharoitida shug'ullanishga vaqt yetishmovchiligi, bandlik, pedagogik kompetensiyaning yetishmasligi kabi sabablar maktabgacha ta'lim pedagogikasi va psixologiyasida asosiy muammolardan hisoblanadi. Hozirgi kunda maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning tarbiyasida MTT pedagoglarining o'rni nihoyatda muhim, lekin har bir bola uchun yaxshi sharoitlarni tashkil etish, ularning tarbiyasida ota-onalarning ishtirok etish darajasini oshirish dolzarbligicha qolmoqda. Bolaning yetarlicha to'liq ta'lim-tarbiya olishi oila va maktabgacha ta'lim tashkilotining birgalikda harakatni amalga oshirish sharoitlarida muvaffaqiyatli kechadi.

Ma'lumki, bola 2-3 yoshidan boshlab, o'z ehtiyojlari, fikr va talablarini birmuncha aniq ifoda etadigan bo'lib qoladi. U ko'ziga ko'ringan, aqli yetgan narsalarni so'raydi va ularni sinchkovlik bilan tekshira boshlaydi. Ota-onalar milliy fazilatlarimizga muhabbat bilan qarash, razolatlardan nafrat qilish yo'llarini bolalarga o'rgatadilar.

Bola rivojlanishining dastlabki bosqichlarida oilaning tutgan o'rni beqiyosdir. Bolalar oilada tarbiyalanadi va unda yuz beradigan voqealar ularga juda katta ta'sir ko'rsatadi.

Kichkina bolalar oilaga juda bog'lanib qolgan bo'ladi, chunki oila:

- Ularning jismoniy jihatdan barkamol bo'lishini, ovqat, kiyim-kechak, uy-joy bilan ta'minlaydi, sog'lig'i haqida g'amxo'rlik qiladi;
- Ularning hissiy bardamligini, jumladan, mehr ko'rsatadi, qo'llab-quvvatlaydi, nimaning yaxshiligi, nimaning yomonligini doimo eslatib turadi;
- Ularning rivojlanishi shart-sharoitlarini ta'minlaydi.

Samarali faoliyat yuritish va oilani MTT ishiga jalb etish uchun pedagoglar o'zlari tarbiyalayotgan bolalarning birlamchi vazifalarini bilishlari, ularning oilasi va yaqin qarindoshlari haqida muayyan tasavvurga ega bo'lishlari lozim. MTTga qatnayotgan bolalarning ota-onalari bilan muvaffaqiyatli hamkorlik qilish uchun MTT xodimlariga quyidagi faoliyat yo'nalishlarini tavsiya etish mumkin:



1. Ota-onalarda MTT xodimlari bilan hamkorlik qilishga intilishni shakllantirish;
2. Bolalarning imkoniyatlari, talab-ehtiyojlari va qiziqishlarni baholashda, uning MTT kirishiga ko'maklashish;
3. Ota-onalarning pedagogik kompetentligini oshirish ota-onalarga uyda bola bilan mashg'ulot o'tkazish uchun zarur bo'lgan metodik usullarni o'rgatish;
4. Ota-onalarga bola shaxsini rivojlantirish uchun xizmat qiladigan maxsus tarbiya usullarini o'rgatish.

Ota-onalarda pedagogik savodxonlikni oshirish reja asosida, belgilangan aniq yo'nalishda pedagogik ta'lim jarayonida amalga oshirilishi lozim. Bu esa tarbiyachining asosiy faoliyat turlaridan biri hisoblanadi.

Ota-onalar pedagogik hamkorlik aynan ular uchun muhimligi, (MTT, Kuzatuv kengashi va guruh tarbiyachilari buni ota-onalarga yetkazishlari kerak) farzandining sifatli ta'lim-tarbiya olishidan ular manfaatdor va mas'uliyatli ekanligini bilishlari, MTT esa bolalarga ta'lim-tarbiya berishda ularga vositachi va yordamchi ekanligini anglashlari zarur.

Tashkillashtirish tamoyillari

MTT tarbiyalanuvchilarning ota-onalari bilan yaqin va samarali hamkorlik vazifalari quyidagi tamoyillar asosiga quriladi:

- o'zaro hurmat;
- sabrlilik;
- bag'rikenglik;
- o'zaro ishonch;
- o'zaro qo'llab-quvvatlash;
- sabr;
- ko'mak;
- o'zaro pozitsiyalarni qabul qilishga tayyorlik.

Ota-onalarda psixologik-pedagogik savodxonlikni oshirish quyidagi yo'nalishlarga qaratilishi lozim:

- ota-onalarga ta'lim-tarbiya jarayonining xususiyatlari va uzviyligi to'g'risida ma'lumot berish;
- ularda pedagogik fikrlashni rivojlantirish;
- tarbiya bo'yicha ularda ko'nikma va amaliy bilimlarni shakllantirish;

Ota-onalar bilan hamkorlik yo'nalishlari bo'yicha mavzu va materiallar tanlayotganda berilayotgan ma'lumotlarni quyidagi xususiyatlariga e'tibor qaratish lozim:

- dolzarbligi va foydaliligi;
- amaliy maqsadga qaratilgan;
- aniq faktlar va hayotiy tajribaga asoslangan.



MTTning oila bilan faoliyat tizimi

1-jadval

Ota-onalar bilan ishlash qoidalari	Oilani o'rganish metodlari	Ota-onalar bilan ishlash shakllari
- Maqsadga yo'naltirilgan, tizimlashtirilgan, rejalashtirilgan; - Har bir oilaning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ishga yondashuv; - Yosh xususiyati bilan bog'liq ota-onalar bilan ishlash; - Xushmuomalalik, ochiqlik.	- Anketa so'rovnomasi; - Bolani kuzatish; - Maxsus metodika qo'llagan holda oilani o'rganish; - Bola bilan suhbatlashish; - Ota-onalar bilan suhbatlashish.	- Umumiy, guruh bilan, yakka tartibda; - Pedagogik konsultatsiyalar, suhbatlar, treninglar; - Birgalikda mashg'ulotlar o'tkazish, ko'ngil-ochar tadbirlar; - Ota-onalarni metodik tadbirlarda ishtiroki: kostyumlarni tayyorlash, videosyomkalarni tashkil etish.

Shunday qilib maktabgacha ta'lim tashkilotlarida oila bilan ishlash o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, oilaning turiga bog'liq holda o'tkaziladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotining oila bilan ishlash tizimida aniq maqsad, mazmun bo'lishi kerak. Ota-onalar bilan hamkorlik borasida avval erishilgan yutuq va tajribalarning natijalarini tahlil qilib, xilma-xil va o'zaro bog'liq bo'lgan shakl va usullar yordamida rejali ishlar olib borish maqsadga muvofiq bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida" gi O'RQ-595-son qonuni. – T., 2019.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida" 802-son qarori. – T., 2020.
3. Bueva I. Социальное партнерство: детский сад и дополнительное образование // Дошкольное воспитание, . – 2008.
4. Qodirova F., Toshpo'latova SH., A'zamova M. Maktabgacha pedagogika. O'quv qo'llanma. – T.: 2013.
5. Kayumova N. Maktabgacha pedagogika. – T.: 2014.



TA'LIM OLUVCHILAR SHAXSIGA YO'NALTIRILGAN TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK ASOSLARI

Shermetova Sayyora To'raxodjayevna –

Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
mustaqil tadqiqotchi

E-mail: shermetova.chdpi@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada ta'lim oluvchilarda intellektual va amaliy ko'nikma qobiliyatlar tizimini o'zlashtirish, ta'lim oluvchi shaxsiga yo'naltirilgan ta'limni tashkil etishning ilmiy psixologik pedagogik konsepsiyasiga asoslangan o'qitish modeli qarab chiqilgan.

Kalit so'zlar: o'quv-tadqiqot ishi, subyektiv tajriba, ijodiy faoliyat, o'quv-tadqiqotchilik ko'nikmasi, didaktik jarayon, hissiy-irodaviy munosabat.

Hozirgi mavjud ta'lim tizimi va zamonaviy jamiyat insonga qo'yadigan talablar o'rtasida tafovut mavjudligi pedagogik amaliyotda ko'zga tashlanmoqda. Ayrim o'quv fanlarida berilgan bilim, malaka va ko'nikmalar hayotda duch keladigan vaziyatlarda ijobiy natijalarni bermaydi. Shu bois ta'lim oluvchiga o'quv jarayonida ta'lim olish murakkabdek tuyuladi va o'qishga qiziqitirmaydi. Natijada ta'lim olish uchun ahamiyatli bo'lgan motiv va ijodiy faollik ularda ro'yobga chiqmaydi. Ko'plab o'quv adabiyotlarda ta'lim berish jarayonida quyidagilarga e'tibor qaratish lozimligi uqtiriladi [1-2]:

- tabiat, jamiyat, tafakkur, faoliyat usullari haqidagi bilimlar mazmunini o'zlashtirish;
- intellektual va amaliy ko'nikma va qobiliyatlar tizimini o'zlashtirish;
- ijodiy faoliyat tajribasini o'zlashtirish;
- shaxsning o'zini yaxshilashga imkon beradigan dunyoga, boshqa odamlarga hissiy irodaviy munosabat tajribasini o'zlashtirish.

O'quv jarayonida ta'lim oluvchilarda ijodiy faoliyat tajribasini o'zlashtirish muammosini an'anaviy ta'limda amalga oshirish uchun o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan ta'limni tashkil etishning ilmiy psixologik-pedagogik asoslarini ishlab chiqish lozim. Endilikda ta'limning axborot modelidan faollik va shaxsiy modelga o'tish sodir bo'lmoqda. Ta'limning bu modeli ta'lim jarayonini tashkil etishning yangi shakllari va pedagogik texnologiyalarni talab qiladi. So'nggi yillarda ta'lim maydoni ta'lim oluvchilarga yo'naltirilgan rivojlantiruvchi ta'limni jadal sur'atlar bilan egallab bormoqda. O'quvchi shaxsini rivojlantirish, o'qitish orqali ularning individualligini ochib berish muammolarini hal qilish muammolari I.S. Yakimanskaya tomonidan o'rganilgan. Olimaning fikricha, ta'lim oluvchiga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasiga ko'ra, har bir o'quvchi o'ziga xos xususiyatlarga, qadriyatlarga, atrofdagi dunyoga munosabatiga,

subyektiv tajribasiga ega bo'lgan individual shaxs, ta'lim makonining faol subyekti hisoblanadi [3].

Ta'lim oluvchiga yo'naltirilgan yondashuv sharoitida o'qituvchi uchun har bir talaba o'ziga xos hodisa sifatida namoyon bo'ladi. O'qituvchi har bir ta'lim oluvchiga o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga, o'quv maqsadlariga erishishga va ta'limning shaxsiy ma'nolarini rivojlantirishga yordam beradi.

Ta'lim oluvchiga yo'naltirilgan ta'lim modeli individual-shaxsiy yondashuv tamoyillariga javob beradi, shuningdek, idrok va ijodiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradigan ta'lim tamoyillari asosida amalga oshiradi. Ta'lim oluvchilarga yo'naltirilgan ta'lim modeli ilmiy psixologik-pedagogik konsepsiyaga asoslanadi, shuning uchun uni amalga oshirish jarayonida psixologning psixologik-pedagogik yordami, ishtiroki va yordami zarur. O'quvchilarga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasini ishlab chiqishda psixolog va o'qituvchining o'zaro hamkorligi ta'lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri – yangi rivojlanayotgan ta'lim texnologiyalarini joriy etishni amalga oshirishga yordam beradi.

Mavjud tajriba va bilimlarni dolzarblashtirish yangi bilimlarni tushunish va joriy etishning muhim shartidir. Tushunish bir butun sifatida subyektning shaxsiy tajribasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, o'tmish tajribasi, bilimlari, qoidalari va boshqa bilimlar (o'z imkoniyatlari, tushunish omillari va boshqalar) asosida amalga oshiriladi. Tushunish o'quv jarayonining asosiy tarkibiy qismidir.

- Vazifalarning o'zgaruvchanligi, bolaga ularni amalga oshirish va muammolarni hal qilishda tanlash erkinligi, unga o'quv materialini o'rganishning eng muhim usullaridan foydalanish.

- Bilim, ko'nikma va malakalarning to'planishi o'z-o'zidan maqsad (yakuniy natija) emas, balki bolalar ijodiyotini amalga oshirishning muhim vositasidir.

- Darsda nafaqat natijani, balki unga erishish jarayonini ham tahlil qilish orqali hamkorlik, birgalikda yaratish, muvaffaqiyatga erishish uchun motivatsiya asosida o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida shaxsiy muhim hissiy aloqani ta'minlash.

Ushbu tamoyillar amalga oshirilsa, darsning axborot bazasi chinakam rivojlanadi.

Ta'lim oluvchilarga yo'naltirilgan ta'lim sohasida o'qituvchi ishlaydigan asosiy narsa – bu o'quvchi bilan “voqea jamiyati”ni tashkil etish, unga o'z hayotidagi mavzuning pozitsiyasini egallashga yordam berishdir. O'quvchi o'quv jarayonida passiv pozitsiyani yengib o'tishi va o'zini faol transformatsion prinsipning tashuvchisi sifatida ochishi muhimdir. O'quvchilarga yo'naltirilgan maktabda ishlaydigan o'qituvchi o'zi uchun yangi kasbiy lavozimga kiradi – ham fan o'qituvchisi, ham psixolog. O'qituvchining roli – har bir bolaga o'zini

namoyon qilish imkoniyatini berish uchun ko'p qirrali ta'lim muhitini yaratish, ta'lim jarayonida bola haqidagi ma'lumotlardan professional foydalanish qobiliyati. O'qituvchi bilim tarjimoni sifatida emas, balki o'quv faoliyatining tashkilotchisi va muvofiqlashtiruvchisi sifatida ishlaydi. Dastlab kasbiy ongni bunday qayta qurish o'qituvchining tashvish tuyg'usini oshiradi, katta qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi, chunki nafaqat ularning uslubiy darajasini oshirish, balki tubdan farq qiladigan dars konspektlarini ishlab chiqish, ularni didaktik qo'llab-quvvatlash kerak. Ta'lim oluvchiga yo'naltirilgan texnologiyani o'zlashtirishda o'qituvchining o'qituvchi-psixolog bilan o'zaro hamkorligi asosiy nuqta bo'lib, ko'plab ta'lim muammolarini bartaraf etadi. [4]

O'rganilayotgan fanga hamma o'quvchilarning qiziqishi bir xil emas, ularning qobiliyatlari har xil, har kim ham o'z "men"ini ko'rsata olmaydi.

Ta'lim oluvchiga yo'naltirilgan darsning qaysi mezonlari uni samarali qiladi va ta'lim sifatini oshiradi?

- Darsning boshidagi xabar nafaqat mavzu, balki o'quv faoliyatini tashkil etish tartibi (rejaning mavjudligi).
- Reja material mazmunini aniq, tushunarli va mantiqiy ravishda taqdim etishga yordam beradi.
- Ta'lim oluvchi darsning har bir bosqichida faol, real o'zaro munosabatlarda ishtirok etadi, dars materialiga ongli ravishda munosabatda bo'ladi.
- Dars davomida barcha bolalar uchun mehnatga ijobiy hissiy munosabatni shakllantirish.
- Motivatsion sohani rivojlantirishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda, o'quv jarayoni ijobiy his-tuyg'ular bilan boyitiladi.
- O'quvchilarning subyektiv tajribasidan foydalanish.
- O'quvchilarning subyektiv tajribasini aktuallashtirish o'tmish tajribasi va yangi bilimlar o'rtasidagi aloqalarni o'rnatishga yordam beradi.
- O'quvchilarning kognitiv faolligini namoyon etishi va har bir talabaning muvaffaqiyatga erishishi uchun sharoit yaratish.
- O'quv faoliyatida mustaqillik darajasini oshirish, hamkorlik strategiyasini amalga oshirish, sinf bilan frontal ishni guruhli faoliyat shakllari bilan birlashtirish.
- Sinf ishida har bir talaba uchun qiziqish muhitini yaratish.
- Darsda maxsus tuzilgan didaktik materialdan foydalanish, o'quvchiga material turi va shaklini tanlash imkonini beruvchi ko'p bosqichli topshiriqlardan foydalanish (og'zaki, grafik, ramziy).
- O'quvchilar faoliyatini intellektual qobiliyatlarni rivojlantirishga yo'naltirish, ta'lim faoliyatini shakllantirish (o'quv ma'lumotlarini uzatish emas),



o'quv faoliyatining tarkibiy qismlarini (o'quv vazifalari, o'quv faoliyati, o'z-o'zini nazorat qilish, o'zini o'zi baholash) rivojlantirish.

- Dars oxirida nafaqat yangi narsalarni o'rganganingiz, balki sizga nimani yoqtirganingiz (yoqmaganingiz) va nima uchun, yana nima qilishni xohlayotganingiz, nimani boshqacha qilish kerakligi haqida ham muhokama qiling.

- Baholash bir qator parametrlar, yakuniy natija, unga erishish yo'li, mustaqillik, o'ziga xoslik bilan belgilanadi.

Darajali topshiriqlardan foydalanishning qiymati quyidagilardan iborat:

1. Vazifani tanlashni taklif qilish talaba uchun muvaffaqiyatli vaziyatni yaratishga yordam beradi.

2. Darajali yondashuvni o'zlashtirish o'qituvchiga diagnostika o'tkazish va o'quvchilarning intellektual rivojlanish dinamikasini kuzatish imkonini beradi.

3. Ta'lim oluvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish o'qituvchiga o'quvchilarga yo'naltirilgan ta'lim doirasida har bir bolaning imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga hissa qo'shadigan tarzda vazifalarni tuzishga imkon beradi.

4. Darajaviy topshiriqlardan foydalanish ta'lim oluvchi bilimi, ko'nikma va malakalarini yozma va og'zaki tekshirishning boshqa variantlari bilan birgalikda eng samarali hisoblanadi.

5. Bunday vazifalarni tizimli ravishda qo'llash kerak, chunki faqat bu holda ularni amalga oshirish yaxshi natijalarga erishishga yordam beradi. O'quv jarayoniga o'quvchiga yo'naltirilgan yondashuv amalga oshiriladigan sinf o'quvchilari fanga doimiy qiziqish bilan ajralib turadi, ular o'z faoliyatini ongli ravishda rejalashtira oladilar, faoliyat maqsadlarini mustaqil ravishda belgilaydilar. O'quvchilar yuqori darajadagi kognitiv motivatsiya va faollikka ega, o'zini ijobiy baholaydi, o'quv materialiga qiziqish bildiradi. [5]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Stepanova E.N. O'qituvchi ishida shaxsga yo 'naltirilgan yondashuv: rivojlanish va foydalanish / M.: "Sfera", 2003 yil.
2. Xutorskoy A.V. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim metodologiyasi. Qanday qilib har kimni boshqacha o'rgatish kerak? — M.: VLADO-PRESS, 2005 yil.
3. Yakimanskaya I.S. Zamonaviy maktabda o'quvchiga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi. M.: sentyabr, 2000 yil.
4. Lukyanova M.I. Shaxsga yo'naltirilgan darsni tashkil etishning nazariy va uslubiy asoslari. // Bosh o'qituvchi. Zamonaviy maktab boshqaruvi. № 2, 2006 yil.
5. Nikolaeva I.V. Psixolog va o'qituvchining o'zaro hamkorligi ta'lim muhitining psixologik xavfsizligini ta'minlash sharti sifatida / Nikolaeva I.V. // Bolalik huquqi: bolalarga nisbatan zo'ravonlikning oldini olish /



Xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari / Nijniy Novgorod,
Rossiya, 9-11 oktyabr, 2007 yil.

INNOVATIVE METHODS AND THEIR IMPORTANCE IN TEACHING

Sirojova Shokhida Niyozovna – The English language teacher in primary and upper classes at specialized State Public school № 29 Bukhara city

E-mail: shohidaniyozovna82@gmail.com

Abstract. *The article provides information on innovative and modern methods, and their use during the lessons. The benefits of using modern teaching methods in the classroom are analyzed and opinions on different methods are given.*

Key words: *innovative methods, modern methods, skills, abilities, pedagogical textbooks, teaching methods.*

Introduction "Method" is derived from Latin and signifies seeking fresh ways of teaching and simplifying explanations. In educational literature, the method of enlightening students with knowledge, skills, and capabilities is termed as the teaching method. Traditional teaching techniques, such as oral presentations, conversations, independent reading, demonstrations, exercises, and practical training, have been prevalent in schools. Traditional teaching methods:

1. oral presentation of the subject;
2. conversation;
3. independent work with textbooks and books;
4. demonstration, illustration and excursion;
5. oral, written exercises and graphic works, school report;
6. practical training (laboratory work, problem work).

Literature review Method of oral presentation of educational materials: This method is characterized by the fact that the stated knowledge is expressed directly through the live speech of the teacher:

This method:

- a) to tell a story;
- b) explanation;
- c) school report.

Narration is the statement by a teacher of facts, laws, and rules that express the content of a new topic, physical phenomenon, or event. The school



lecture method is used in grades 10-11. Typically, a school lecture is a description of a complete set of concepts that, depending on the content of the topic, represent the main ideological direction of one or two topics.

In addition to the above, the following didactic rules and practices should be followed in order to effectively use the method of oral presentation:

The topics covered should focus on the implementation of the general requirements for school education. Therefore, the topics should be ideologically sound, linking theory with practice.

The topic should take into account the methods of educational impact on students. Students should be given tasks to acquaint themselves with the latest scientific discoveries, new discoveries, to work independently on them.

In the method of oral presentation, the teacher's speech is the only source of knowledge. It should be fluent, understandable and emotional. Explain the concepts and new words (terms) used during the lesson, and make sure that the definition of rules and laws is simple, concise, and understandable.

Analysis Definitions, rules and laws used in the narration process should be written by the teacher. *Interview method*: The interview method is one of the most widely used and effective methods in practice. This is often referred to as the question and answer method. Because this method is carried out in the course of the lesson by means of questions and answers. The teacher asks students questions or reminds them of what they have already learned, or draws appropriate conclusions and conclusions from new topics based on existing knowledge, as well as invites students to draw new conclusions based on what they have learned, knowledge, skills and competencies. The interview can be conducted for the following purposes:

- depending on the content of the topic, to determine what students know from the facts (evidence), objects and events observed and used in life;
- recalling the previous topic and even previous materials (information);
- talk about the information on the topic;
- repetition and consolidation of the stated information;
- draw conclusions, generalize, and work on rules and definitions on the topic;
- conversation about homework and independently studied information.

The method of conversation reveals new aspects of the teacher's activity and creates a strong unity of action towards one goal.

Method of working with the textbook.

The method of working with textbooks occupies one of the main places in the education system. Therefore, it is impossible to master any science, technology or art without the use of textbooks. Work with the textbook helps to successfully carry out educational work in the educational process. on the



other hand, it plays an important role in equipping children with skills and competencies, as well as creating a culture of independent reading of scientific and popular literature necessary for the future activities of students. Working with educational literature involves a complex mental process. The process of reading involves the development of not only the ability of students to hear and read the knowledge expressed by the teacher, but also the ability to see the learning materials (information) in the text of the book and to develop conscious comprehension.

Discussion The method of working with the textbook is carried out in two forms:

- Work with textbooks and textbooks in the classroom;
- Independent work with textbooks and textbooks outside the classroom and school. Both forms of working with the book can be used in almost all classes of academic subjects. Along with textbooks and other educational information, students should be taught to use additional literature, scientific and popular science articles, as well as newspapers and magazines.

Demonstration, illustration and excursion (travel) method.

Demonstrations and illustrations are important in terms of direct perception of learning information through specific methods. Students' knowledge will be deep and thorough only if they fully and clearly imagine the objects and events being studied. As a result of direct observation and perception of objects, events and happenings in life and technology, students will be able to think independently, analyze and draw appropriate conclusions about them. This method is used during the lesson or in parts of the lesson.

Illustrative. Show pictures. There are two types of instructional materials used in school. Natural instructional materials: plants, animals, minerals, their collections, physical instruments, etc. Descriptive materials. These materials are divided into two types depending on the content, structure and shape:

- a) materials representing the image of an object, physical device, object, event and event (picture, photo, photograph, slide film, film, video film, etc.);
- b) representations or abbreviated descriptions of physical devices, objects, and events by means of some conditional symbols, such as charts, tables, diagrams, and the like.

The method of travel (excursion) is the acquisition of the basics of knowledge by students through live and observational perception of physical instruments and phenomena. There are a number of requirements that must be met when traveling in physics.

According to the content, the trip should be in four directions:

- 1) carried out for the purpose of observation and study of nature;
- 2) on industrial and agricultural production;
- 3) to get acquainted with social and household materials;



4) providing access to information on art and literature;

5) practical lessons (solving oral, written and graphic problems, laboratory work) The method of working with oral, written and graphic problems has an important didactic value, it is used in almost all classes and all disciplines. It is widely used. The method of problem-solving is aimed at strengthening, checking, repetition, as well as the development of students' knowledge, skills and abilities, as well as the ability to apply them in life. Depending on the nature of the work is carried out in three rounds:

- a) oral exercises;
- b) written exercise;
- c) graphic work exercise.

Exercise assignments for students must include previously learned rules and regulations.

Conclusion Sometimes students may not be able to do exercises that include physical rules and formulas, mathematical or geometric theorems, even if they have mastered them. At the same time, such exercises, including appropriate rules and formulas, should be repeated on a regular basis. If the assigned exercise involves several paths, in such cases it is necessary to develop an exercise plan and work on this basis. For example, the content of the problem given for the exercise, what needs to be done, what is given, what needs to be found, where to start, what method can be used. Here it is important for students to create examples and problems based on the rules and laws they have mastered. Graphic work is also a part of written work and helps students to consciously and firmly remember what they have learned or are learning, and to develop relevant skills and competencies in this area.

LIST OF REFERENCES

1. Gafurova.N.N., Qurbonov A.M., Siddiqova N.N., Norova R.F.; "Charles Dickens and William Thackeray: two styles of one genre, one period" International Journal of Psychosocial Rehabilitation (Indexed by Scopus) ISSN: 1475-7192 DOI: 10.37200/IJPR/V2413/PR200797; pages: 423-429.
2. Gafurova.N.N. "Modern problems of linguistics and methods of teaching English" Proceeding of The ICECRS INDONESIA November, Vol 4 (2019): International onference on World Science and Education. Case of Asia Articles
3. Gafurova.N.N. "General and modern linguistical features and their conditions in application" International Scientific Journal ISJ Theoretical & Applied Science Philadelphia, USA issue 04, volume 84 published April 30, 2020

4. Gafurova.N.N., Rashidov N.N.; "The role of the English language in the education system" "Buxoro islom madaniyatini modernizatsiyalash va turizimni barqaror rivojlantirish istiqbollari"; Xalqaro ilmiy-amaliyanjuman; 24-fevral 2020 yil Buxoro.
5. Dilorom Nematovna Yuldasheva. PROBLEMS OF NATIONAL LANGUAGE EDUCATION AT SCHOOL. Volume 4 Issue 3 BSU 2020 (3) Published by 2030 Uzbekistan Research Online, 2020 <https://uzjournals.edu.uz/buxdu/vol4/iss3/15/>
6. Juraeva M.M. The national, cultural and linguocognitive peculiarities of modality of the french and uzbek fairytales. GIF. LangLit. An International Peer-reviewed Open Success Journal. V.3, №2. 2016. India.
7. Rakhmonova D.M. Introducing innovations in The Preschool Education System With Talented Children. 300 middle european scientific bulletin issn 2694-9970.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI TA'LIM SIFATINI OSHIRISHNING INTERFAOL SHAKLLARI

Tashbayev Naim Sadikovich – MTTDMQTMOI
Ta'lim sifatini nazorat qilish va monitoringi
bo'limi boshlig'i

Annotatsiya. Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik jarayonni samarali tashkil etish bo'yicha fikr-mulohazalar yuritilgan. Shuningdek, maqolada, maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik asoslari yoritilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim sifati, monitoring, pedagogik tashxis, faoliyat mezonlari, ta'lim jarayoni, metodik yordam, rivojlanish markazi, zamonaviy usullar.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida amalga oshiriladigan ta'lim va tarbiya ishini davr talabi darajasida olib borish maqsadida mamlakatimizda maktabgacha ta'lim sohasida keng ko'lamli ishlar, islohotlar amalga oshirilmoqdaki, bu, o'z navbatida, maktabgacha yoshdagi bolalarning sifatli maktabgacha ta'lim va tarbiya olishlari uchun shart-sharoitlar yaratishni asosiy vazifa qilib qo'ygan. Bu esa mamlakatimizda maktabgacha ta'lim va tarbiya sifatini oshirish yo'llarini jadal rivojlantirishni taqozo etadi. Me'yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq ta'lim siyosatining asosiy vazifasi – ta'limning fundamental xususiyatini saqlab qolish va hozirgi talablarga javob berish asosida yuqori



sifatni ta'minlashda shaxs, jamiyat va davlatning kelajakdagi ehtiyojlarini qondirishdan iborat.

Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha bir qancha qaror va farmonlar qabul qilingan. Bu kabi qonun hujjatlarida maktabgacha ta'limning asosiy maqsadli vazifalari va yo'nalishlari, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratish belgilangan.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning sifatli maktabgacha ta'lim va tarbiya olishlari uchun o'quv-tarbiyaviy jarayonning maqsadi aniq belgilangan, unda bolalarda umumiy asosiy kompetensiyalar va rivojlanish sohalari kompetensiyalarini shakllantirish uchun tegishli sharoitlar yaratish masalalari belgilangan.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim sifatini monitoring qilishda boshqarishni optimallashtirish, pedagog kadrlar bilan uslubiy ishlar samaradorligini oshirish zarur. Ushbu turdagi ish tashxisga asoslangan bo'lsa, pedagogik jarayonni optimallashtirish mumkin bo'ladi, chunki bunday asos maktabgacha yoshdagi bola va ota-onalarning ehtiyojlarini, har bir pedagogning va butun jamoaning imkoniyatlarini batafsil o'rganishni o'z ichiga oladi va bu esa amalga oshiradi pedagogik mahoratni, kasbiy malakasini oshiradigan, pedagoglarning ijodkorligini rag'batlantiradigan uslubiy ishlarning eng samarali shakllari, usullari va uslublarining to'plamini aniqlashga imkon beradi [4].

Tarbiyachining pedagogik faoliyatini o'rganib, uning maktabgacha yoshdagi bolalarning turli xil ish faoliyatini (mehnat, o'yin, badiiy va teatrlashtirilgan o'yinlar) tashkil etish va o'tkazish qobiliyatini, nutqini rivojlantirish qobiliyatini, u bilan muloqot qilish fazilatlarini va ko'nikmalarini baholash zarur. [4]

Ilmiy va nazariy bilimlar to'g'risidagi ma'lumotlar pedagog xodimlar malakasini oshirishga yordam beradi. Ta'lim jarayoni pedagogga tashxis qo'yish, amaliy faoliyatni amalga oshirish uchun nazariy asos ekanligini tushunishi kerak. Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi pedagog tomonidan kuzatilishi va pedagogik jarayon tashxisi to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi hamda pedagogning ijodkorligi va erkinligi rag'batlantirilishi lozim.

Maktabgacha ta'limning pedagog xodimlari bola rivojlanishining pedagogik tashxisi, ota-onalarning pedagogik madaniyatini o'rganish,

o'zlarining kasbiy faoliyatlarini mustaqil tashxis qilish usullarini; maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'lim sharoitlarini baholash qobiliyatini o'zlashtirishlari kerak. Ta'lim jarayoni va uni o'zida mujassam etgan ta'limning sifati va samaradorligini menejment, uning tamoyillari, usullari, tashkiliy shakllari va texnologik metodlari to'plami ta'minlaydi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida "boshqaruv" tushunchasi "menejment"ga aylantiriladi. Boshqarishning o'ziga xos xususiyati bozor ehtiyojlariga, ishlab chiqarish sifatini doimiy oshirishga, qaror qabul qilish erkinligiga, strategik maqsadlar va dasturlarning ustuvorligiga qaratilgan. [4]

Maktabgacha ta'lim tashkiloti ta'lim sifati monitoringini samaradorligini oshirish deganda asosiy sifat mezonlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim sifati monitoringini samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari tahlil qilsak:

Analitik (tahliliy) faoliyat mezonlariga:

- maktabgacha ta'lim tashkilotlarining metodik ta'minotga bo'lgan ehtiyojini aniqlash va tahlil qilish.
- ta'lim tizimidagi xodimlarning kasbiy va informatsion ehtiyojlarini monitoringni olib borish;
- ta'lim tashkilotlarining pedagoglari haqida ma'lumotlar bazasini yaratish;
- ta'lim tashkiloti pedagoglarining faoliyatlarini o'rganish, tahlil qilish va takomillashtirish yo'llarini aniqlash;
- ta'lim jarayonidagi metodik va didaktik xarakterdagi kamchiliklarni aniqlash;
- ta'lim jarayoni haqidagi ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish;
- ilg'or xorijiy tajribalarni amaliyotda qo'llashlarini, pedagogik tajribalarini aniqlash, o'rganish va umumlashtirish masalalari kiritiladi.

Informatsion faoliyat mezonlariga:

- pedagogik ma'lumotlar bankini shakllantirish (huquqiy normativ, ilmiy-metodik);
- pedagog xodimlarni psixologik, pedagogik, metodik, ilmiy-ommabop adabiyotlar yangiliklari bilan tanishtirish;
- pedagog va rahbar xodimlarni maktabgacha ta'lim sohasida innovatsion faoliyatlar bilan tanishtirish;
- maktabgacha ta'limning rivojlanishidagi yangi yo'nalish, yangi adabiyotlar, o'quv-metodik komplektlar, video va audiomateriallar va tavsiyanomalar;
- maktabgacha ta'lim tashkilotidagi laboratoriyalar va ularning jihozlanganligi, metodik tavsiyalar bilan ta'minlanganligi haqidagi ma'lumotlar;



- pedagoglar malakasini oshirish va maktabgacha ta'lim tashkilotlardagi ta'lim-tarbiya jarayonidagi ishlarni o'rganishga doir hujjatlar;
- iqtidorli bolalar bilan ishlash, zamonaviy pedagogik texnologiya bo'yicha ishlayotgan ijodkor pedagoglar haqidagi ma'lumotlar;
- ta'lim tashkilotlaridagi ilg'or pedagogik tajribalar va innovatsion faoliyat olib borayotgan pedagoglar haqida axborotlar bankini yaratish;
- maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarga qo'yiladigan davlat talablari ijrosi monitoringini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan nazorat mezonlari va bolalarning bilimini aniqlash uchun ta'limiy topshiriqlar to'plami;
- matbuot orqali ilg'or pedagogik tajribalarni, ta'lim sohasidagi yangiliklarni targ'ibot qilish.

Tashkiliy-metodik faoliyat mezonlariga:

- tuman metod birlashmalarining ishini takomillashtirish;
 - tayanch tashkilotlarini aniqlash, ularda uslubiy yordam ko'rsatish tizimini ishlab chiqish;
 - ilmiy-amaliy anjumanlar, pedagogik o'qishlar, kasbiy ko'rik-tanlovlarni tayyorlash va o'tkazish;
 - festivallar, turli tanlovlar, seminarlarni tashkil etish va o'tkazish;
 - ta'lim sohasi bilan bog'liq bo'lgan tashkilot va korxonalar bilan hamkorlikda ishlash va ushbu ishlarni muvofiqlashtirish;
 - Viloyat, shahar va tuman miqyosida ijodiy guruh tashkil etish va faoliyat ko'rsatishini ta'minlash.
 - Ta'lim tashkilotlarida "Yil tarbiyachisi" ko'rik-tanlovlari o'tkazilishi yuzasidan metodik tavsiyalar berish. Tuman (shahar) bo'yicha "Yil tarbiyachisi" va boshqa tanlovlarni tashkil etish, Nizomlarini ishlab chiqish va o'tkazishda ishtirok etish.
 - tuman (shahar) maktabgacha ta'lim tashkilotlari bazasida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni, ilg'or g'oyalarni sinovdan o'tkazish uchun tajriba-sinov maydonchalarini tashkil etish va ularga metodik yordam ko'rsatish.
- Maktabgacha ta'lim tizimini ilmiy salohiyatini oshirish borasida:
- maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik jarayonlarning ilmiy-metodik ta'minotini ta'minlash;
 - innovatsiyalar bo'yicha doimiy ishlab turuvchi seminarlarni tashkil etish;
 - maktabgacha ta'lim tizimini ilmiy jihatdan rivojlanish ko'rsatkichlari, tajriba-sinov va innovatsion ishlar natijalarini yoritish bo'yicha tadbirlar tashkil etish;
 - uzluksiz malaka oshirish tizimi xizmatini tashkil etish, ushbu jarayonning metodik ta'minotini takomillashtirish;



- maktabgacha ta'lim tizimini axborot-kommunikatsiya ta'minotini yaratish.

Amaliy faoliyat mezonlariga:

- ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari hamda "Ilk qadam" davlat o'quv dasturini bajarilishini metodik jihatdan ta'minlashga yo'naltirilgan istiqbol dasturni ishlab chiqish, shu asosida reja tuzish va bajarilishini ta'minlash;
- ta'lim tashkilotlariga metodik yordam ko'rsatish maqsadida metodik ishlarni tayyorlash, nashr etish va joylarga yetkazishni tashkil etish;
- hududlardagi ta'lim tashkilotlari uchun ta'limiy o'yinchoqlar, ko'rgazmali qurollar va boshqa didaktik materiallar tayyorlashni tashkil etish;
- maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim-tarbiyani takomillashtirishga xizmat qiladigan ilg'or, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni aniqlash, tanlash va ommalashtirish;
- maktabgacha ta'lim tashkilotlarida davlat talablarining ijrosini amalga oshirish va ta'lim sifatini yaxshilashga qaratilgan tadbirlarni ishlab chiqish, uni MTTDMQTMOlda muhokama qilish hamda bajarilishini ta'minlash.

Maktabgacha ta'lim sifatini oshirishning muhim jihati maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim-tarbiyaviy ishlarni yo'lga qo'yish bo'lishi kerak. Ushbu mezonni ko'rib chiqishda avvalo, tarbiyalanuvchilarning rivojlanishi uchun ma'lum shart-sharoitlarni shakllantirishdan manfaatdor bo'lgan davlat talablarini va maktabgacha yoshdagi bolalarning ota-onalarini e'tiborga olish muhim. Maktabgacha ta'lim tizimida ota-onalarning maktabgacha ta'lim xizmatlaridan mamnunligini baholash usullari mavjud. Maktabgacha yoshdagi bolalar oilalarining so'rovlarini aniqlash va ularning fikrlarini maktabgacha ta'limni rivojlantirishni strategik rejalashtirishda hisobga olish uchun monitoringni tizimlashtirish zarur.

Ta'lim sifati monitoringini amalga oshirish uchun maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagoglarining faoliyati sifatini oshirish bilan, tashkilotning ta'lim-tarbiya va tarbiyachilarning yangi g'oyalarga mo'ljallangan, innovatsiyalarga yo'naltirilgan ishlarni bosqichma bosqich rivojlantirish mumkin [5].

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, maktabgacha ta'limning sifati ko'p jihatdan bolaning rivojlanish muhitiga bog'liq. Uni amalga oshirishning muvaffaqiyati shartlaridan biri bu maktabgacha ta'lim tashkilotida yaratilgan predmet makoni, maktabgacha ta'lim tashkilotining zamonaviy infratuzilmasidir. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim va tarbiya sifatini oshirish, zamonaviy talablarga javob beradigan predmetli-fazoviy muhitni modernizatsiya qilish maqsadga muvofiq.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 16 dekabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida" gi O'RQ-595 son Qonuni. <https://lex.uz/uz/docs/4646908>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida" gi 802-sonli Qarori.
4. Grosheva I.V., Mirziyoeva Sh.Sh., Yevstafeva L.G., Maxmudova D.T., Nabixanova Sh.B., Pak S.V., Nazarova V.A., Isxakova M.R., Abdunazarova N.F. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi (takomillashtirilgan ikkinchi nashr) Toshkent 2022-yil (o'zbek va rus tillarida).
5. Abdullayeva N.Sh. Klasterli yondashuv asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifatini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish // p.f.d.(DSc) diss. T.2023. 242 b.
6. Valiyeva F.R. Ta'lim sifati monitoringi. O'quv-uslubiy majmuasi. Toshkent. 2022. 43 b. <https://videouroki.net/razrabotki/ta-lim-sifati-monitoringi-o-um.html>

TA'LIM JARAYONIGA YANGICHA YONDASHUV

Tojiyev Ramazon To'ra o'g'li – TMTI sanoat
texnologiyalar fakulteti talabasi
E-mail: tojiyevramazon471@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada hozir davrda eng dolzarb muammolardan biri bo'lgan ta'lim jarayonida yangicha ta'lim metodlari, dars o'tish jarayonlarining yangicha uslublari, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish hamda ularning samaradorligining ta'lim tizimiga ta'siri haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: ta'lim, axborot texnologiya, metodika, elektron ta'lim

Ta'lim – bilim berish, malaka va ko'nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi. Ta'lim jarayonida ma'lumot olinadi va tarbiya amalga oshiriladi. Ta'lim tor ma'noda o'qitish tushunchasini anglatadi, lekin u faqat turli tipdagi o'quv yurtlarida o'qitish jarayonini emas, oila, ishlab chiqarish va boshqa sohalarda ma'lumot berish jarayonini ham bildiradi.

Ta'limning mazmuni va mohiyati jamiyatning moddiy va madaniy taraqqiyoti darajasi bilan belgilanadi. Ijtimoiy munosabatlar, umumiy ma'lumotga bo'lgan ehtiyoj, kishilarning kasbiy tayyorgarligiga, ta'lim haqidagi pedagogik g'oyalarga qarab kishilik jamiyati taraqqiyotining turli bosqichlarida ta'limning mohiyati, metodi, tashkiliy shakllari o'zgarib borgan.

Ta'lim mohiyat-e'tibori bilan dars berish jarayonini, ya'ni pedagog faoliyatini, umuman o'quvchining bilish, o'rganish faoliyatiga rahbarlik qilishni hamda uqish jarayonini, ya'ni o'quvchi faoliyatini bildiradi. Ta'lim jarayoni ta'lim beruvchi – o'qituvchi va ta'lim olayotgan o'quvchilar faoliyatining yig'indisidan iborat. Ta'lim va tarbiya jarayonida shaxsning sifatlari, dunyoqarashi, qobiliyati o'sadi. Ta'lim avlodlar o'rtasidagi ma'naviy vorislikni ta'minlaydi: kishilarning ijtimoiy-tarixiy tajribalari yosh avlodga ta'lim orqali o'tadi.

O'quv jarayoniga yangi axborot texnologiyalari, aloqa va axborot vositalarini joriy etish o'quv jarayonini faollashtirish va dars o'tish samaradorligi va tezligini oshirish o'quvchilarning mustaqil va individual ishlari hajmini yanada oshirish imkonini beradi.

Bugungi kunda o'quv jarayoni to'liq amalda bo'lishi uchun har bir o'qituvchi turli elektron ta'lim resurslaridan foydalangan holda darsga tayyorlanib, uni samarali o'tkazishi lozim. Chunki ulardan foydalanish darsni yanada jonli, qiziqarli, boy va samaraliroq qilib o'tishga imkon beradi.

Turli fan darslarida aloqa va axborot vositalaridan foydalanish o'quvchi va talabalar faoliyatini diversifikatsiya qilish, ularning darsga bo'lgan e'tiborini faollashtirish va foydalanuvchilarning ijodiy salohiyatini yanada oshirishga imkon beradi. Ushbu texnologiyalarga asoslangan diagramma, jadval va taqdimotlarni tayyorlash vaqtni tejash va materialni estetik jihatdan bezatishga imkon beradi. Hamda krossvord, rasm, chizma, jumboq, vazifa va testlardan foydalanish ularning darsga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytiradi.



Shular bilan bir qatorda har bir o'qituvchi ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalarga asoslangan innovatsion kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda yangi usulda dars mashg'ulotlarini olib boradi. Ushbu texnologiyalar ta'limning barcha bosqichlarida ishlatiladi. Ya'ni o'qituvchi yangi



materialni tushuntirish va yanada mustahkamlash, shuningdek, bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasi o'sishiga olib keladi.

Innovatsion ta'lim (ingl. "innovation" – yangilik kiritish, ixtiro) – ta'lim oluvchida yangi g'oya, me'yor, qoidalarni yaratish, o'zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg'or g'oyalar, me'yor, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan ta'lim. Innovatsion ta'lim jarayonida qo'llaniladigan texnologiyalar innovatsion ta'lim texnologiyalari yoki ta'lim innovatsiyalari deb yuritiladi.

- AKT bo'yicha bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lish;
- Yangi pedagogik texnologiya bo'yicha xorijiy tajribalardan boxabar bo'lish (PISA, TIMSS);
- Ta'lim jarayonini tashkil etishda didaktik o'yinlardan, interfaol usullardan foydalanish mahorati;
- Ilg'or pedagogik texnologiya bo'yicha bilimlarni o'zlashtirib borish;
- Bilimlarni ko'nikma va malakalarga aylantirish texnologiyasi shakllangan bo'lishi;
- Dars jarayonida harakatli o'yinlardan unumli foydalana bilishi;
- Imkoni bo'lsa darsni internet tarmog'iga bog'lab o'ta bilishi;
- O'z ustida tinmay ishlashi, har sohaga oid yangiliklarni kuzatib borishi va boshqalar;
- O'qituvchi innovatsion texnologiyalarga asoslanib darsni tashkil etar ekan, turli texnik vositalardan ham (kompyuter, proyektor, elektron doska va hokazo) foydalanishi mumkin. O'qituvchining faoliyatida innovatsiyalar qanchalik ko'p bo'lsa, mazmun shunchalik oshadi;

Ta'limda innovatsion texnologiyalar va interfaol metodlar haqidagi tasavvurlar barqaror va mukammal shaklga ega emasligini ham e'tirof etish kerak. Har bir o'qituvchi ta'limga individual tarzda yangilik kiritishi mumkin. "Faoliyatni yangilash 3 bosqichda, ya'ni tayyorgarlik, rejalashtirish va joriy etish bosqichlarida amalga oshiriladi." – degan edi mashhur pedagog A. Nikolskaya.

Ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning asosiy maqsad:

- o'qituvchi va o'quvchi mushtarakligiga erishish;
- o'quvchilarni fanga qiziqtirish;
- ta'limga bo'lgan munosabatni o'zgartirish;
- o'rganilgan bilimlarni ijtimoiy sharoitlarda qo'llay olish ko'nikmasiga ega bo'lish;
- AKT va didaktik materiallarni mavzu bilan uyg'unlashtirish va boshqalar.



Interfaol ta'lim metodlari hozirda eng ko'p tarqalgan va barcha turdagi ta'lim muassasalarida keng qo'llanayotgan metodlardan hisoblanadi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirib turilishi, o'quv materialini kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn, loyiha, rolli o'yinlar kabi metodlarni qo'llash va ta'lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi. O'qitishning interfaol usullarini tanlashda ta'lim maqsadi, ta'lim oluvchilarning soni va imkoniyatlari, o'quv muassasasining o'quv-moddiy sharoiti, ta'limning davomiyligi, o'qituvchining pedagogik mahorati va boshqalar e'tiborga olinadi.

Interfaol metodlar deganda ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta'lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi.

Biz bilamizki, ta'lim, avvalo, tarbiya va ommaviy madaniyatdan boshlanadi. Eng birinchi ta'lim bu oiladan keyin bog'cha, maktab, kollej (texnikum) undan keyin esa oliy ta'limdir. Biz bu yerda og'riqli nuqtalarimizdan biri bo'lgan ta'limgacha bo'lgan jarayonni ko'rib chiqsak.

Oliy ta'limda qator kamchiliklar mavjud:

Birinchidan – ta'limgacha bo'lgan tarbiyaning yo'qligi, kiyinish madaniyati, muomala madaniyati, dars jarayonida o'zini tuta bilish, o'qituvchi va o'quvchilarga bo'lgan o'zaro munosabatning yomonligi bevosita ta'lim jarayoniga qattiq ta'sir o'tkazmoqda.


Ikkinchidan – dars jarayonini eskicha an'anaviy shaklda o'tilishi, yangi o'quv qurollari, kitoblar, slaydlar, ko'rgazmalardan foydalanmaslik.

Uchinchidan – biz bilamizki, oliy va o'rta ta'lim tizimida dars jarayoni davomiyligi 80 daqiqani tashkil etadi. Bu esa o'z navbatida, o'quvchining zerikishi, miya qabul qilish jarayonining sekinlashuviga sabab bo'ladi. Chunki inson miyasi 20-35 daqiqa oralig'ida axborotlarni juda yaxshi qabul qiladi.

Davlatimizda ta'lim tizimini isloh qilishda o'quvchilarni estetik tarbiyalash, ularni barkamol avlod bo'lib ravnaq topishiga alohida e'tibor qaratmoqda. Umuman olganda ta'limgacha bo'lgan jarayonda o'quvchilarni estetik tarbiyasiga alohida e'tibor qaratish lozim.

Aksariyat pedagoglar dars jarayonini xilma-xil tarzda amalga oshirishadi. Masalan: – boshlang'ich 15-20 daqiqani yo'qlama va takrorlash, 20 daqiqa mavzuni tushuntirish (oldin sodda usulda tushuntirib keyin esa yozdirish) bunda esa o'z navbatida o'quvchi qabul qilishi ortadi. 5 daqiqa tanaffus (ya'ni mavzudan chetga chiqmagan holda yangicha va qiziqarli ma'lumotlar berish).

DARS JARAYONIDA VAQT TAQSIMOTI



Faqat shundagina o'quvchilarning faolligi juda ham ortadi. O'quvchilarni faolligini oshirishda, asosan, o'zlarini ustida mustaqil shug'ullanishlarini ta'minlashdan iborat. Chunki o'qituvchi qancha jon kuydirgani bilan o'quvchi o'zi xohlamasa befoyda. Ular o'zini ustida o'zi ishlashi uchun undash (qiziqtirish, talab qilish) dan iborat. O'quvchilarni mustaqil izlanishga qiziqishini oshirishda bolalar o'rtasida raqobatni kuchaytirish, yangicha materiallar va ma'lumotlardan foydalanish, ularga berilayotgan vazifalar yuklama hajmini iloji boricha me'yor darajasida ushlar dars jarayonlari va mashg'ulotlarga qiziqish va faollik darajasini oshiradi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan istiqbolli vazifalar, o'zining dolzarbligi hamda amaliy ahamiyati bilan boshqa sohalardagi islohotlardan aslo qolishmaydi. Chunki ushbu sohadagi islohotlarni yanada keng ko'lamda davom ettirish davr talabidir. Axborot texnologiyalar asri deb nom olgan XXI asrda hayotning barcha jabhalarida – sanoat, qurilish, kimyo, qishloq xo'jaligi, to'qimachilik, mashinasozlik va boshqa sohalarda yuksak taraqqiyotni yuzaga keltirish uchun ilm-fanni rivojlantirish, bu borada yangiliklar yaratish hayotiy zaruratga aylandi. Bu jarayon endilikda dunyoda taraqqiyot yo'lini tutgan barcha mamlakatlarda e'tirof etilmoqda. Respublikamizda ham ana shu jarayonga alohida e'tibor berilmoqda. Mamlakatimiz Prezidenti, rahbar sifatidagi faoliyatini yurtimiz akademiklari, yetakchi olimlari, umuman, ilm ahli bilan uchrashuvdan boshlaganligi, yurtimizda ilm-fan rivojini ishlab chiqarish taraqqiyoti bilan uyg'unlantirishga qaratganligi bejiz emas.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayonda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgartirishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda interfaol metodlardan foydalanishni taqozo etadi. Interfaol usullar ta'lim jarayonida qatnashayotgan har bir o'quvchining faolligiga, erkin va mustaqil fikr yuritishga asoslanadi. Bu usullardan foydalanganda bilim olish o'quvchi uchun



qiziqarli mashg'ulotga aylanadi. Interfaol usullar qo'llanilganda o'quvchilar o'qituvchilar yordami va hamkorligida mustaqil ishlash ko'nikma va malakalariga ega bo'ladilar. O'quvchilar yangi bilimlarni ilmiy izlanish, tadqiqotchilik, tajriba sinovlar o'tkazish asosida o'zlashtiradilar. Ilm orqali bilim olish tamoyiliga amal qilinadi. Ta'lim jarayoni qatnashchilari kichik guruhlariga bo'lingan holda ishlaydilar. O'quv topshiriqlari alohida bir o'quvchiga emas, balki kichik guruhning barcha a'zolariga beriladi. O'qitish jarayonini tashkil etishning asosiy shakli darsdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.(200-2005). Toshkent
2. <https://ziyonet.uz/>
3. <https://uz.wikipedia.org/>
4. Ta'lim muammolari ilmiy — uslubiy jurnal 4 — son Toshkent 2014 – yil
5. Talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish (metodik qo'llanma). Toshkent-2023
7. Алексеева, Л.Н. Инновационные технологии как ресурс эксперимента/ Л. Алексеева// Учитель. — 2009.
8. Panfilova A.P. Innovatsion pedagogik texnologiyalar: Faol o'rganish: Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik / A.P. Panfilov. — M., Akademiya, 2009 y.

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA TANQIDIY FIKRLASHGA O'RGATISHNING AHAMIYATI

Tursunova Gulzoda Quvatovna –
Qashqadaryo viloyati PYMO'MM boshlang'ich
ta'lim metodisti

Annotatsiya. Maqolada tanqidiy fikrlash – bilimni o'zlashtirish va mustaqil fikrlashning yuqori darajadagi tarkibiy qismi bo'lib, shaxsning voqea, hodisa, borliqni obyektiv idrok etish imkoniyatini kengaytiruvchi aqliy hodisadir. Tanqidiy fikrlashda g'oyalar va ularning ahamiyati ko'p fikrlilik nuqtayi nazaridan ko'rib chiqiladi hamda ular boshqa g'oyalar bilan taqqoslanadi

Kalit so'zlar: tanqidiy fikrlash, fikr, asos, xulosa, oddiy fikr.

Hozirgi globallashuv sharoiti, dunyo hamjamiyati hayotidagi iqtisodiy, mafkuraviy, ijtimoiy ziddiyatlarning keskinlashuvi hamda moliyaviy inqirozlar yoshlarni mamlakatning ijtimoiy, ilmiy-ma'rifiy, siyosiy hayotiga chuqur integratsiyalashuvini ta'minlashni talab etadi. Jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq



dolzarb muammolarning yechimi esa mustaqil fikrlash ko'nikmasiga ega bo'lgan yangi avlodga bog'liq. Insonning boshqa mavjudotlardan ajralib turadigan jihati uning fikrlash qobiliyatidir. Zotan, insonlar bir-birlari bilan o'ziga xos o'y-xayollari, mushohadalari, fikr yuritishlari, mustaqil fikrlash qobiliyatlari bilan ajralib turadilar. Shuning uchun ham inson fikrini tarbiya qilish muhim sanaladi. Abdulla Avloniyning asarlarida fikr tarbiyasiga oid quyidagicha talqin berilgan: "Fikr tarbiyasi eng kerakli, ko'p zamonlardan beri taqdir qilinib kelgan, muallimlarning diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifadur. Fikr insonning sharofatlik, hayratlik bo'lishiga sabab bo'ladur. Bu tarbiya muallimlarning yordamiga so'ng daraja muhtojdurki, fikrning quvvati, ziynati, kengligi muallimning tarbiyasiga bog'liqdir". Ijtimoiy hayot, hamkorlikka asoslangan ta'lim jarayoni va ishlab chiqarishda o'zaro munosabatlar, aloqalar, hamkorlikdagi aqliy va jismoniy mehnat mahsuli, muomala maromi mustaqil fikrlash majmuasi tariqasida yuzaga keladi. Shaxs mustaqil fikrlash orqali voqelikni umumlashtirib, narsa va hodisalar o'rtasidagi ichki, murakkab bog'lanishlar, munosabatlar, xossalar, xususiyatlar hamda mexanizmlarni anglab yetadi. Darhaqiqat, jamiyatda xilma-xil fikrlash muhitini vujudga keltirishda mustaqil, tanqidiy fikrlovchi shaxslarning o'rni beqiyosdir.

Tanqidiy fikrlash bu nima qilish yoki nimaga ishonish kerakligi haqida aniq va oqilona o'ylash qobiliyatidir. Tanqidiy fikrlash ko'nikmasiga ega inson mantiqan to'g'ri, yaxshi asoslangan mulohaza yuritish qobiliyatiga ega bo'ladi.

Tanqidiy fikrlash bo'yicha adabiyotlarda fikrga quyidagicha ta'rif berilgan:

Fikr (inglizchadan argument) – bu biror xulosa yoki xulosalardan hamda ularni asoslash uchun berilgan sabab(lar)dan tashkil topgan matndir.

Demak, biror matn fikr (argument) sifatida baholanishi uchun u kamida ikkita tarkibiy qismdan iborat bo'lishi kerak: Kamida bitta asos (yoki sabab) va kamida bitta xulosa. Masalan: Madina bugun kimyo darsida 2 baho oldi. Xo'sh, buning sababi nimada? Chunki u uyga vazifani tayyorlamagan edi. Kelinglar, endi fikrdagi asos va xulosa nima ekani, ularning fikrda qanday joylashishi, asos va xulosani qanday aniqlash mumkinligi haqida gaplashsak.

Oddiy fikr. Madina kimyo darsida 2 baho oldi, chunki u uyga vazifani tayyorlamagan edi.

Bu yerda "Madina kimyo darsida 2 baho oldi" jumlasida – Xulosa, "U uyga vazifani tayyorlamagan edi" – Asos (sabab). Bunda bitta hodisaning sodir bo'lishiga boshqa bir hodisa yoki holat sabab sifatida keltirilgan.

Fikrdagi asos va xulosani aniqlash. Berilgan fikrdagi bitta jumlagacha "Nima uchun?", "Qanday?", "Qanday qilib?", "Nima sababdan?" kabi savollardan birini berilganda, ikkinchi jumla javob bersa, bunday vaziyatda birinchi jumla xulosa, ikkinchisi asos bo'ladi va aksincha.



“Madina kimyo darsida 2 baho oldi” jumlasiga nima uchun deb savol berganimizda ikkinchi, “U uyga vazifani tayyorlamagan edi” jumlasiga javob bo'la oladi.

Keling, mustaqil bajarish uchun bir tanqidiy fikrni ko'rib chiqamiz:

1. Azizbek va Charos bir sinfda o'qiydi. O'qituvchi matematikadan baholagan yozma ishlarni o'quvchilarga tarqatdi. Shunda Azizbekning yuziga tabassum yugurdi, lekin Charos hafa bo'ldi. O'qituvchi aytdiki ko'pchilik o'quvchilar imtihonda past baho olishdi va keyingi imtihonga yaxshiroq o'qishni tavsiya qildi.

Savol: O'qituvchi quyidagilardan qaysi biriga ishonadi?

A O'qish talabalarga matematika testini yaxshiroq ishlashda yordam beradi.

B Ko'pchilik talabalar umuman imtihonga tayyorlanmaganlar.

C Hech bir talaba imtihonga yetarli tayyorlanmagan.

2. Agar birinchi va ikkinchi gap to'g'ri bo'lsa, uchinchi gap to'g'rimi, xatomi yoki aniqlab bo'lmaydimi?

1. Malika Nasibadan uzunroq.

2. Nasiba Hasandan kaltaroq.

3. Hasan Malikadan uzunroq.

A. To'g'ri

B. Xato

C. Aniqlab bo'lmaydi

Amerikalik olim J. Dyuning fikricha: “O'quvchilar muayyan muammo bilan shug'ullana boshlasalargina, ularda tanqidiy fikrlash paydo bo'ladi. Shu sababli o'quv jarayonining boshlang'ich nuqtasi hisoblangan, biror vaziyat yoki hodisaga tegishli bo'lgan eng muhim savol bu hodisa qanday muammoni vujudga keltirishini anglatadigan savoldir. Faqatgina muayyan muammo bilan kurashib, murakkab vaziyatdan chiqish uchun o'zining shaxsiy yo'lini izlagandagina, o'quvchi haqiqatan ham fikrlaydi.

Darhaqiqat, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning mustaqil fikrlashda rejasini aniqlash zaruriyati mavjud. Chunki, tanqidiy fikrlash mustaqil fikrlashning tarkibiy qismidir. Bizningcha esa tanqidiy fikrlash bilimni o'zlashtirish va mustaqil fikrlashning yuqori darajadagi tarkibiy qismi bo'lib, shaxsning voqea, hodisa, borliqni obyektiv idrok etish imkoniyatini kengaytiruvchi aqliy hodisadir. Tanqidiy fikrlashda g'oyalar va ularning ahamiyati ko'p fikrlilik nuqtayi nazaridan ko'rib chiqiladi hamda ular boshqa g'oyalar bilan taqqoslanadi. Unda tahlil, taqqoslash, izohlash, yangilik kiritish, muammolarni hal qilishga alohida e'tibor beriladi hamda o'quvchilarda bunyodkor g'oyalarning yovuz g'oyalar ustidan g'alaba qozonishiga ishonch paydo qilinadi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mavlonova R.A. Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi. – Toshkent, 2005. – 104 b.
2. Shodiyev R.D, Qosimova G.I. Tabiatshunoslik va uni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. – Qarshi: Nasaf, 2021. – 130 b.
3. Qosimova G.I. Didactic foundations of the integration of natural science knowledge in primary school as a mechanism of systematic cognition of the surrounding world //Angliya European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, Vol. 8 No. 4, 2020. Part II. – P. 2056-5852.
4. Qosimova G.I. Features of the subject-object area of natural science knowledge at primary school//ISSN 2311-2158 The Way of Science International scientific journal. № 8 (78), 2020. ISSN 2311-2158. The Way of Science. – P. 37- 41.
5. Qosimova G.I. Systematic model of formation of the images of natural science and its effective implementation didactic state // International Journal for innovative Engineering and Management Research (Hindiston). Vol 10 Issue 01, Jan 2021 ISSN 2456 – 50832021. – P. 63-68.
6. Qosimova G.I. The process of cognition of the surrounding world by primary school students and the balance of the laws of scientific knowledge// Academicia An international Multidisciplinary Research Journal (Hindiston). Vol. 11, Issue 2, February 2021 Impact Factor: SJIF 2021 = 7.492. – P. 2249-7137.
7. Qosimova G.I. Development of natural scientific thinking in elementary school students style// Galaxy international interdisciplinary research journal (GIIRJ). Vol. 9, Issue 5, May (2021). – P. 467-470.
8. Qosimova G.I. Olamning tabiiy-ilmiy manzarasi tushunchasini metodologik asoslari// Муғаллим ҳам ўзликсиз билимлендирий. – Nukus, 2020. – № 6/1. – B. 87-91 (13.00.00, № 20).



CHAQIRUVGA QADAR BOSHLANG'ICH TAYYORGARLIK FANINING “OTISH TAYYORGARLIGI” BO'LIMIDA INTEGRATSIYADAN FOYDALANISH

Urinov Abdubannob Dadajonovich – Farg'ona viloyati PYMO'MM jismoniy tarbiya va Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanlar metodisti

Annotatsiya. Ushbu maqolada umumta'lim maktablari chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanining umumta'lim maktablari fizika fani bilan o'zaro integratsiyasida o'qitishning samarali uslublari haqida ma'lumot berilgan. Unda umumta'lim maktablarida chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanidagi “Otish tayyorgarligi” mavzusida, umumta'lim maktablari fizika fanidagi “Gorizontga burchak ostida otilgan jism harakati” mavzusiga bog'langan.

Kalit so'zlari: Gorizont, integratsiya, ballistika, trayektoriya, kinematik kattaliklar.

Kirish. O'zbekiston Respublikasining “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida”gi yangi tahrirdagi Qonuni 2021-yil 30-sentyabrda tasdiqlandi. Ushbu qonunning 13-moddasiga asosan umumta'lim maktablarida chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik, shu jumladan, fuqaro muhofazasi bo'yicha tayyorgarlik o'quv dasturidagi majburiy fan bo'lib, umumiy o'rta ta'lim muassasalarida chaqiruvga qadar tayyorgarlik o'qituvchilari tomonidan bitirish yili arafasidagi kurslardan yoki sinflardan boshlab o'tiladi.

Umumta'lim maktablarida chaqiriqqa qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini tashkillashtirish va o'tkazishda mashg'ulotlar samaradorligini ta'minlovchi omillardan biri o'quv mashg'uloti davomida fanlararo integratsiyadan foydalanishning o'ziga xos shakllarini mohirlik bilan foydalana olishga ham ko'p jihatdan bog'liqdir.

Bizga ma'lumki, hozirgi kunda o'quv muassasalarida chaqiriqqa qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanini o'qitishda o'qitishning nazariy, amaliy, ko'rgazmali, integratsiyadan foydalanish kabi shakllari va qator uslublaridan foydalanib kelinmoqda.

Shunga asosan bu maqolada umumta'lim maktablari chaqiriqqa qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanini umumta'lim maktablari fizika fani bilan o'zaro integratsiyada o'qitishning samarali uslublari haqida ma'lumot beriladi. Unda umumta'lim maktablarida chaqiriqqa qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanidagi “Otish tayyorgarligi” mavzusi umumta'lim maktablari fizika fanidagi

“Gorizontga burchak ostida otilgan jism harakati” mavzusiga integratsiya qilinadi. Bu ma'lumotlar maqola davomida berib boriladi.

Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanining “Otish tayyorgarligi” bo'limi 10-sinf **“Otish hodisasi va uning davrlari. O'qning boshlang'ich tezligi va uning otishga ta'siri. Qurolning ortga urishi (tepishi) va o'qning uchish burchagi”** mavzusini fizika fani mexanika bo'limi 10-sinf “Gorizontga burchak ostida otilgan jism harakati” mavzusiga integratsiya qilinadi.

Otish – porox gazlari energiyasi ta'sirida o'qning stvol kanalidan chiqarib tashlanishi.

O'qning boshlang'ich tezligi – o'qning stvol kanalini tark etayotgandagi tezligi.

Qurolning ortga urishi – qurolning o'tish yo'nalishiga qarama-qarshi harakatlanishi.


Uchish burchagi – nishonga mo'ljallangan qurol stvoli kanali bo'ylama o'qining otishgacha bo'lgan yo'nalishi va shu bo'ylama o'qning snaryad (o'q)ni stvol kanalidan uchib chiqayotganda hosil qiladigan burchagi.

Otish vaqtning juda qisqa oralig'ida yuz beradi. Bunda katta hajmda gaz hosil bo'ladi va ko'p miqdorda issiqlik ajralib chiqadi.

Porox juda katta energiyani hosil qiladi. 1,6 gramm og'irlikdagi porox zaryadi 7,9 gramm og'irlikdagi o'qni stvol kanalidan 715 m/sek tezlikda quvib chiqib, uni 3000 m uzoqlikka uloqtira oladi.


Stvol kanalidagi o'yiqlar chapdan o'ngga yuqorilab yo'nalgani uchun o'qqa aylanma harakat beradi, porox esa yonishda davom etib, gazning miqdori va hajmini orttirib boradi.

Ichki ballistika. Gazlar bosimining o'zgarishi.



O'q havoda harakat qilayotganda og'irlik kuchi va havoning qarshilik kuchlarining ta'siriga uchraydi. Og'irlik kuchi pastga yo'nalgan bo'lib, o'qni tashlash chizig'idan uzluksiz ravishda pastlashga majbur etadi. Havoning qarshilik kuchi esa o'qning harakat yo'nalishiga teskari yo'nalgan bo'lib,

uzluksiz ravishda o'qni o'z harakatini yo'qotishga majbur etadi. O'q mana shu ikkala kuchning ta'siri ostida tashlash chizig'ida to'g'ri chiziq bo'ylab emas, balki undan pastga egri chiziq bo'ylab harakat qiladi.



To'g'ri otish va uning amaliy ahamiyati

Trayektorianing hosil bo'lishi


Trayektorianing shakli ko'tarilish burchagining kattaligiga bog'liq. Ko'tarilish burchagi oshirilishi bilan trayektoriya balandligi va o'qning to'liq gorizontal uchish uzoqligi ham oshadi. Otish vaqtida qurolning stvoli aniq bir holatni egallaydi. Otish vaqtidagi stvol kanalining davomi ko'rinishida bo'lgan to'g'ri chiziqqa *tashlash chizig'i* deyiladi.

O'q havoda harakat qilayotganda og'irlik kuchi va havoning qarshilik kuchlarining ta'siriga uchraydi. Og'irlik kuchi pastga yo'nalgan bo'lib, o'qni tashlash chizig'idan uzluksiz ravishda pastlashga majbur etadi. Havoning qarshilik kuchi esa o'qning harakat yo'nalishiga teskari yo'nalgan bo'lib, uzluksiz ravishda o'qni o'z harakatini yo'qotishga majbur etadi. O'q mana shu ikkala kuchning ta'siri ostida tashlash chizig'ida to'g'ri chiziq bo'ylab emas, balki undan pastga egri chiziq bo'ylab harakat qiladi.

O'q o'zining butun uchish trayektoriyasi davomida nishonga nisbatan balandga ko'tarilmasa, bunday otishga *to'g'ri otish* deyiladi.

Burchak ostida otilgan jism harakati – bu gravitatsiya maydonida, masalan, Yer yuzasidan proyeksiya qilingan va faqat tortishish kuchi ta'sirida egri chiziq bo'ylab harakatlanadigan jism yoki zarracha (snaryad) tomonidan boshdan kechiriladigan harakat shakli. ***Biz bu harakatni snaryad misolida ko'rib chiqamiz.*** Yerdagi snaryad harakatining alohida holatida, ko'pchilik hisob-kitoblar havo qarshiligining ta'sirini passiv va ahamiyatsiz deb hisoblaydi. Snaryadlar harakatidagi jismlarning egri chiziqli yo'lini Galiley ko'rsatgan parabola, lekin u to'g'ridan-to'g'ri yuqoriga yoki pastga tashlangan maxsus holatda to'g'ri chiziq bo'lishi mumkin. Bunday harakatlarni o'rganish ballistika deb ataladi va bunday trayektoriya ballistik trayektoriyadir. Obyektga faol ta'sir ko'rsatadigan yagona matematik ahamiyatga ega bo'lgan kuch bu tortishish

kuchi bo'lib, u pastga qarab harakat qiladi va shu bilan obyektga Yerning massa markaziga qarab pastga tezlanishni beradi. Obyektning inersiyasi tufayli obyekt harakatining gorizontaal tezligi komponentini ushlab turish uchun hech qanday tashqi kuch kerak emas. Boshqa kuchlarni hisobga olish, masalan, aerodinamik qarshilik yoki ichki harakatlanish (masalan, raketada) qo'shimcha tahlilni talab qiladi. Ballistik raketa – bu faqat uchishning nisbatan qisqa quvvatli bosqichida boshqariladigan va qolgan kursi klassik mexanika qonunlari bilan boshqariladigan raketa.



Parabolik otishning dastlabki tezligi komponentlari

Ballistika snaryadlarning, ayniqsa, o'qlarning, boshqarilmaydigan bombalarning, raketalarining yoki shunga o'xshashlarning parvozi, harakati va ta'siri bilan shug'ullanadigan dinamika fani; istalgan samaraga erishish uchun snaryadlarni loyihalash va tezlashtirish ilmi yoki san'ati.

Ballistikaning elementar tenglamasi dastlabki tezlik va taxmin qilingan doimiy tortishish tezlashuvidan tashqari deyarli barcha omillarni e'tiborsiz qoldiradi. Ballistik muammoning amaliy yechimlari ko'pincha havo qarshiligi, o'zaro shamollar, nishon harakati, tortishish ta'sirida o'zgaruvchan tezlanish va raketani Yerning bir nuqtasidan ikkinchisiga uchirish, Yerning aylanishi kabi masalalarni hisobga olishni talab qiladi. Amaliy masalalarning batafsil matematik yechimlari odatda yopiq shakldagi yechimlarga ega emas va shuning uchun ularni hal qilish uchun raqamli usullarni talab qiladi.

Kinematik kattaliklar

Snaryadlar harakatida gorizontaal harakat va vertikal harakat bir-biridan mustaqil, ya'ni hech bir harakat ikkinchisiga ta'sir qilmaydi. Bu 1638-yilda Galiley tomonidan o'rnatilgan va u tomonidan o'q otish harakatining parabolik shaklini isbotlash uchun qo'llanilgan *murakkab harakat* tamoyilidir.

Ballistik trayektoriya – bu bir xil tezlanishga ega bo'lgan parabola, masalan, boshqa kuchlar bo'lmaganda doimiy tezlanishga ega bo'lgan kosmik kemada. Yerda tezlanish balandlik bilan kattalikni va kenglik/uzunlik bilan yo'nalishni o'zgartiradi. Bu kichik miqyosda parabolaga juda yaqin bo'lgan elliptik trayektoriyani keltirib chiqaradi. Biroq agar biror narsa uloqtirilsa va Yer to'satdan teng massali qora tuynuk bilan almashtirilsa, ballistik trayektoriya cheksizlikka cho'ziladigan parabola emas, balki bu qora tuynuk atrofidagi elliptik orbitaning bir qismi ekanligi ayon bo'ladi. Yuqori tezlikda trayektoriya

aylana, parabolik yoki giperbolik bo'lishi mumkin (agar Oy yoki Quyosh kabi boshqa obyektlar tomonidan buzilmasa). Ushbu maqolada bir xil tezlanish qabul qilinadi.

Tezlanish

Tezlanish faqat vertikal yo'nalishda bo'lgani uchun gorizonta yo'nalishdagi tezlik doimiy bo'lib, $v_0 \cos \theta$ ga teng. Snaryadning vertikal harakati – zarrachaning erkin tushishi paytidagi harakati.

Bu yerda tezlanish doimiy bo'lib, g ga teng. Tezlanishning komponentlari:

$$a_x = 0,$$

$$a_y = -g.$$

Tezlik

Snaryad boshlang'ich tezlik bilan uchilsin $\mathbf{v}(0) \equiv \mathbf{v}_0$, uni gorizonta va vertikal komponentlar yig'indisi sifatida quyidagicha ifodalash mumkin:

$$\mathbf{v}_0 = v_{0x} \hat{\mathbf{x}} + v_{0y} \hat{\mathbf{y}}.$$

Komponentlar v_{0x} va v_{0y}

$$v_{0x} = v_0 \cos(\theta),$$

$$v_{0y} = v_0 \sin(\theta)$$

Agar dastlabki θ ga nisbatan tushirish burchagini topish mumkin.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, snaryadning masofasi va maksimal balandligi uning massasiga bog'liq emas. Demak, masofa va maksimal balandlik bir xil tezlik va yo'nalishda otilgan barcha jismlar uchun tengdir.

Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanining "Otish tayyorgarligi" bo'limi 10-sinf "Otish hodisasi va uning davrlari. O'qning boshlang'ich tezligi va uni otishga ta'siri. Qurolning ortga urishi (tepishi) va o'qning uchish burchagi" mavzusini fizika fani mexanika bo'limi 10-sinf "Garizontga burchak ostida otilgan jism harakati" mavzusiga integratsiya qilindi.

Bunda "Otish hodisasi va uning davrlari. O'qning boshlang'ich tezligi va uni otishga ta'siri. Qurolning ortga urishi (tepishi) va o'qning uchish burchagi" mavzusini yoritishda fizika faniga murojaat qilindi va mavzu keng yoritildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi yangi tahrirdagi qonuni 30.09.2021-yil.

2. Bo'tayev A.M., Sotvoldiyev A.Y., Yoqubov A.F. Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik [Matn] : 10-sinf uchun darslik / – Toshkent : Respublika ta'lim markazi, 2022. – 160 b.
3. A.Yu.Sotvoldiyev. Chaqiruvga qadar harbiy ta'limni tashkil etish va uning metodikasi. –T.: "Aloqachi", 2017-y.
4. Ismailov A.A. va boshqalar. Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning matematik savodxonligini baholash. – T.: "Sharq" NMAK, 2019.
5. Tabiiy fanlar: 6-sinf uchun darslik / K.T.Suyarov va boshqalar.-Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022.-192-b.
6. Fizika. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik / R.Habibullayev va boshqalar.-T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2019.- 176-b.

AKADEMIK LITSEYLAR VA KATTA MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINI E'TIBORGA OLGAN HOLDA FIZIKA FANINI O'QITISHNI TASHKIL ETISH

Voxidov E.R. – Mirzo Ulug'bek nomidagi
O'zbekiston Milliy universitet
E-mail: erkinbek_02@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada akademik litseylar va katta maktab yoshidagi o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini e'tiborga olgan holda fizika fanining elektrostatika bo'limidan amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini o'qitish hamda o'quv materialini takomillashtirish masalalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: akademik litsey, maktab, o'quvchi, ta'lim, bilimi, ko'nikma, malaka, qobiliyat, malaka, fizika, amaliy, laboratoriya, tajriba, topshiriq, metod, tadqiqot

Kirish. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunining 9-moddasida "umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim" tushunchalari, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim umumta'lim o'quv dasturlarini, zarur bilim, malaka hamda ko'nikmalarni o'zlashtirishga qaratilgan ko'rsatilgan bo'lib, unga ko'ra umumiy o'rta ta'lim (I–XI sinflar) bosqichlari boshlang'ich ta'lim (I–IV sinflar), tayanch o'rta ta'lim (V–IX sinflar) hamda o'rta ta'lim (X–XI sinflardan iboratligi, o'rta ta'lim o'quv dasturiga muvofiq ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalar o'zlashtirilishini, shuningdek ta'limning keyingi turi tanlanishini hamda yuqori malaka talab qilinmaydigan kasblar egallanishini ta'minlashi, o'rta maxsus ta'lim akademik litseylarda to'qqiz yillik tayanch o'rta

ta'lim asosida ikki yil mobaynida amalga oshiriladi va ta'lim oluvchilarning intellektual qobiliyatlarining jadal rivojlanishini, shuningdek chuqur, tabaqalashtirilgan, kasb-hunarga va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim olishini ta'minlashi belgilab qo'yilgan [1].

Asosiy qism. Akademik litsey va yuqori sinf o'quvchilar 16–18 yoshda bo'ladi va bu yoshdagi bolalar o'spirin deb ataladi. Bu vaqtga kelib, o'smirlik davri tugab, inson energiyaga to'la, unga ko'tarinkilik ruhi, g'ayrat, harakatlarga jo'shqinlik xos xususiyatlari shakllanib boradi. Yetuklikka idrok orqali erishadi, ma'lum bilim sohalarini idrok etish orqali tanlash ishtiyoqi ortadi. Shaxsning zehni xususiyat sifatida rivojlanadi. Bu xususiyat, ayniqsa, ixtiyoriy asosda jadal rivojlanadi. U fanga qiziqish asosida yuzaga keladi va bilimlarni o'zlashtirishda jadal, maqsadga yo'naltirilgan faoliyatda namoyon bo'ladi.

Xotira tafakkur bilan uzviy bog'liqdir. Endi nafaqat faktlar, balki ularning umumlashtirilgan holatlari ham osongina yodda qoladi. Qayta ishlab chiqarish jarayonida o'quvchi o'quv materialini qayta ishlash, qayta o'zlashtirish, o'z mulohazalari va xulosalarini taqdimotga kiritishga qodir. Tasviriy xotira – nafaqat tajribaga asoslangan g'oyalar, balki ijodiy tasavvur bilan yaratilgan obrazlar ham esda qoladi. Faol aqliy faoliyatning rivojlanishi ijodiy tasavvur va zukkolikning rivojlanishini rag'batlantiradi.

Jismoniy va psixologik rivojlanishning xususiyatlari o'rta maktab o'quvchilarida o'z imkoniyatlarini anglash, o'zini o'zi tasdiqlash zarurati kabi fazilatlar keskin namoyon bo'lishiga olib keladi. Ular uchun hamma narsa jiddiy, "kattalar kabi" bo'lishi kerak. Maktab amaliyotida o'quvchining katta maktab yoshining psixologik xususiyatlarini hisobga olish muhim omil hisoblanadi.

Ushbu o'ziga xos xususiyatlarni inobatga olish, umumiy didaktik tamoyillar o'z kuchini saqlab qolsa-da, o'qitish usullari sifat jihatidan o'zgarishga olib keladi. Masalan, ta'limning yaqqolligi bilish jarayonida muhim rol o'ynashda davom etmoqda. Endi esa hayotdan yaxshi ma'lum bo'lgan yoki avvaldan o'rganilgan faktni isbotlash o'quvchilarda qiziqish uyg'otmaydi. Buning sababi namoyish tajribalarining tashqi ta'siri dastlabkidek kuchli taassurot qoldirmaydi. Masalan, fizika fanining elektrostatika bo'limidan o'rta sinfda o'tilgan jismlarni elektrlashtirish tajribalari, elektrofor mashinasi yordamida "chaqmoq" olish ilhomlantirsa, yuqori sinfda bu tajribalarning shunchaki takrorlanishi qoniqish hissini uyg'otmaydi. Ammo metodologiyadagi ba'zi o'zgartirishlar, muammoli savol yoki masalaning qo'yilishi (Har ikkala jism ham elektrlanadimi? Bir xil darajadami? Buni tajribada qanday isbotlash mumkin?) va shu yerda tajribada namoyish etish birinchi qarashda ishonchli gipotezani inkor etuvchi (elektrlangan jismlardan biri – himoya qiluvchi o'tkazgich), o'sha tajribalarning o'ziga jiddiy qiziqish va e'tiborni yuzaga keltiradi. Tasavurning rivojlanishi turlicha tartibdagi



yaqinlashish sifatida model tasvirlarini yaratishga imkon beradi, bu esa o'z navbatida, xayoliy tajribalaridan foydalanishga imkon beradi. Yanada yetuk analitik-sintetik fikrlash tadqiqot usuli yordamida laboratoriya ishlarini qo'yish, muammoli vaziyatlarni yaratish va ularni hal qilish uchun tajribadan foydalanish imkonini beradi.

Bu bosqichda o'qituvchi sifat jihatdan yangi usullarni qo'llash bilan birgalikda mavzuga qiziqishni uyg'otishi ham kerak bo'ladi. Fizikani o'qitishning birinchi bosqichida bunga erishish asosan fizikaning texnikada qo'llanilishi haqida hikoya qilish, fizika tarixiga ekskursiyalar va ko'ngilochar yoki yana hayot va texnologiya bilan bog'liq bo'lgan topshiriq va savollarni kiritish orqali erishiladi. Ushbu metodik usullardan foydalanish ham yuqori sinf o'quvchilarida qiziqish uyg'otadi va faollikni ma'lum darajada oshiradi. Ammo hozirgi kunda ularni o'zi yetarli emas. Yuqori sinf o'quvchilari behad chuqur qiziqish va qoniqish tuyg'usini jiddiy mantiqiy tuzilgan, murakkab masalani tahlil qilishdan, hodisa yoki jarayonning kechishi xarakterini aytib berish va qiyin masalani hal qilishdan oladi.

Tahlil va sintez o'rtasidagi aloqadorlik darajasi o'quv materialining murakkabligi va hammabopligi darajasiga bog'liq bo'lib, psixologiyani bilmaslik kezi kelganda o'qituvchini mushkul ahvolga solishi, oson va qiyin joylarini o'zgartirib qo'ygandek tuyulishi mumkin. Fikrlash kuchlanishini talab qilmaydigan, shuning uchun qiziqish va bilish faolligini uyg'otmaydigan yengil savollar murakkabroq savollarga qaraganda yomonroq o'zlashtiriladi. Lekin bu yerda qarama-qarshi holatga tushib qolish oson, chunki katta maktab yoshidagi o'quvchi fiziologik va psixologik jihatdan shunchalik yetukki, unga har qanday aqliy yuk berilishi mumkin. Ta'limda bilish faoliyati erishilgan rivojlanish darajasidan biroz oldinroq bo'lishi kerak, lekin ortiqcha yuk va qattiq charchashni keltirib chiqarmasligi kerak. Miya va asab tizimini charchatadigan har qanday ortiqcha yuk nafaqat sog'likka, balki o'quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirishga ham zararli ta'sir ko'rsatadi. Yuqori sinf o'quvchilarida individual farqlar chuqurlashib boradi, shuning uchun o'quvchilar bilan individual va differensial ishlashga katta e'tibor talab qilinishini inobatga olish kerak.

Shunday qilib yoshlikda insonga ulkan potensial imkoniyatlar kiritiladi. Bu davrda o'qituvchi o'qitishni mohirona tashkil etgan holda o'quvchi shaxsining shakllanishiga, uning aqliy qobiliyatlari va moyilligini, qiziqishlari, maqsadga qaratilganligi, xarakter xususiyatlarining rivojlanishiga, bilim olish qobiliyatining rivojlanishining shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Akademik litseylar va yuqori sinflar uchun fizika kursi birinchi darajali kursning uzluksiz davomi bo'lsa-da, ilmiy saviyasi va amaliy yo'nalishi bo'yicha undan jiddiy farq qiladi. Bu ushbu davrda sezilarli bo'lgan yoshga bog'liq o'zgarishlar – yuqori intellektual rivojlanish, o'quvchilarning yaxshi matematik



tayyorgarligi hamda fizika va boshqa o'quv fanlari bo'yicha allaqachon mavjud bo'lgan bilimlar zaxirasi tufayli bo'lishi mumkin.

Akademik litseylar va yuqori sinf fizika kursining tuzilishi har xil bo'lishi mumkin. "Feynman ma'ruzalari fizika" ruscha nashri muharriri Y.A.Smorodinskiy ushbu ma'ruzalarga o'zining so'zboshisida "Masala faqat gapirib berishda emas. Undan-da muhim boshqa masala – buni qaysi tartibda bajarishda. Umumiy fizika kursini qamrab olgan bo'limlarni joylashish tartibi va ketma-ketlikda bayon etish shartli masala. Fanning barcha bo'limlari bir-biri bilan shunchalik bog'langanki, ko'pincha, oldin qaysi tushunchalarni va keyingi navbatda qanday tushunchalarni o'quvchilarga bayon etishni hal qilish qiyin masala" deb yozadi [2].

So'nggi paytlarda bir qator kitoblar paydo bo'ldi, ularda umuman fizika kursiga va fizik hodisalarni o'rganishga an'anaviy yondashuv tubdan o'zgartirildi. Ular orasida tilga olingan "Feynmanning fizika bo'yicha ma'ruzalari" kitobi [3], akademik Landau va Kitaygorodskiylarning "Fizika hamma uchun" [4], akademik Landsbergning uch jildlik "Fizikadan boshlang'ich darslik" [5], A.S.Axmatovning "Fizika" nomli ingliz tilidan tarjima kitobi, J.Orinring "Umumiy fizika" kitobi [6], umumta'lim maktablarining yuqori sinflari uchun fizika fanidan yangi darsliklardir. Ushbu kitoblarning mazmuni, asosan, fizik talabalarga yaxshi tanish.

Talabalarni umumiy fizikaviy tamoyillar bilan tanishtirish haqida R.Feynman "Fizikani o'rganishda Siz juda ko'p murakkab va juda aniq qonunlar gravitatsiya, elektr va magnetizm qonunlari, yadroviy o'zaro ta'sirlar qonunlari mavjudligini anglaysiz. Ammo bu xilma-xil alohida qonunlar qandaydir umumiy tamoyillarga singib ketgan, u yoki bu qonunlarda mavjud bo'lgan. Bunday tamoyillarga misol qilib, saqlanish qonunlari, simmetriyaning qandaydir xossalari, kvant-mexanik tamoyillarini ko'rsatish mumkin. O'quvchilar tomonidan umumiy fizik prinsiplarni tushunish fizikani o'zlashtirishda sifatli sakrashga yordam beradi, ularda fizik hodisalarni qarab chiqishga umumiy yondashuvlar shakllanishiga (ishlab chiqishga) yordam beradi" deb yozadi.

Hodisalarni tavsiflashda, statistik fizikaning ma'lumotlarini qo'llash orqali molekulyar-kinetik va elektron nazariyaning roli kuchaytirildi. Maksvellning elektromagnit maydon haqidagi g'oyalari yanada izchil va ishonchli tarzda rivojlantirildi. Maxsus nisbiylik nazariyasi asoslari, yadro fizikasi va elementar zarralar fizikasi va boshqalar o'rganiladi. Bunda hodisa va qonunlarning matematik tavsifidan keng foydalaniladi. Materiya harakatining tobora murakkablashib borayotgan shakllari – mexanika, fizik statistika elementlari bilan molekulyar fizika, elektrodinamika asoslari, tebranishlar va to'lqinlar, optika, maxsus nisbiylik nazariyasi asoslari, atom va atom yadrosi fizikasi bo'yicha o'quv materialini joylashtirish tartibi qabul qilindi.



Akademik litseylar va yuqori sinflar fizika kursini “Mexanika” bo'limini o'rganishning boshlanishi, asosan, ikkita omilga bog'liq: klassik mexanika qonunini bilish keyingi barcha kurslarni o'rganish uchun zarurdir: buning qat'iyiligi va mantiqiy tuzilishi tufayli “Mexanika” bo'limini o'rganish o'quvchilar tafakkurini rivojlantirishga katta ta'sir ko'rsatadi. Akademik S.I.Vavilov shunday dedi: “Butun fizika uning barcha bo'limlari bilan mexanika atamaları va tushunchalari asosida qurilgan. Lekin bu tushunchalarni bilish va fizikani o'rganish – bu taxminan, alifboni o'zlashtirmasdan o'qishga harakat qilishdir”.

Ammo akademik litseylar va yuqori sinflarda fizika kursining mexanika bilan boshlanishi bir qator qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Bu holatni o'smirlikdan yoshlikka birdaniga emas, balki asta-sekin sodir bo'lishini e'tiborga olish kerak. Akademik litseylar o'quvchilari bunday yoshdagi o'tish davrining “vakillari” hisoblanadi va ularning imkoniyatlarini ortiqcha baholab bo'lmaydi.

Shu bilan birgalikda akademik litseylar o'quvchilari 6-7 sinf bolalariga qaraganda mexanikaning jiddiy vektor asosida qurilganligini, koordinat metodi bo'limini, yo'l va siljish nima bilan farq qilishini, o'rtacha va oniy tezliklar tushunchalarini, jism sanoq tushunchasini, sanoq sistemasi va harakatning nisbiyligi tushunchalarini murakkab va nozik masalalarni hal qilish orqali nisbatan osonroq o'zlashtiradi.

Akademik litseylar va yuqori sinf o'quvchilariga tabiatdagi muvozanat va nomuvozanat jarayonlar va termodinamika va statistik fizika bo'yicha boshqa ma'lumotlar kabi murakkab masalalarni o'zlashtirib olishlari, nazariy xulosalar chiqarish, molekulyar kinetik nazariyaning asosiy tenglamasini olish detektiv yo'l bilan ulardan alohida xususiy sabablarni olishni taqozo etadi. Bu holatda qiyinchilik statistik fizika elementlari bilimlari zaruriyati va ulardan klassik mexanika qonunlaridan ongli foydalanishda emas, balki o'quvchilar uchun yangi bo'lgan mikro va makro hodisalarning miqdoriy bog'liqligini bilish orqali namoyon bo'ladi.

Akademik litseylar va yuqori sinf o'quvchilari turli xil fizik hodisalarni, jumladan, turli fizik tabiatli tebranish va to'liq hodisalarini o'rganishda yagona yondashuvning maqsadga muvofiqligi, evristik kuchi va go'zalligini baholay olishlari, nisbiylikning maxsus nazariyasi postulatlarini, ushbu nazariyaning kinematikasi va dinamikasi masalalarini, uning eksperimental asoslari va nazariya natijalarini eksperimental tasdiqlash va boshqalarni tushunishlari kerak. Bu masalalarni tushunish nafaqat fizik savodxonlik va bilimdonlikni, balki intellektual rivojlanishning ancha yuqori darajasini ham talab qiladi.

Taklif va tavsiyalar. Akademik litseylar hamda yuqori sinf o'qituvchilardan o'quv materialini bayon etishning deduktiv metodi kuchaytirilgan holda qo'llash, fizik hodisalarni chuqur tahlil qilish, mavzularning mantiqiy ketma-ketlikda tushuntirish yuqori kompetentlik bilan



bir qatorda o'quvchilar ongiga kursning yangi strukturaviy tuzilishini, klassik fizikaning fundamental masalalari chuqurroq o'rganishini, klassik fizika qonunlari bilan yangi fizika o'rtasidagi bog'liqlikni tushunishini talab etadi. Shuning uchun akademik litsey va yuqori maktab yoshidagi o'quvchilarning pedagogik psixologiyasi va fiziologiyasini bilgan holda o'quv-pedagogik jarayonni tashkil etish maqsadga muvofiq.

Xulosa. Bunday o'quv dasturini o'quvchilarga ortiqcha yuklama qo'ymasdan amalga oshirish uslubiy jihatdan murakkab muammo ekanligi aniq. Ushbu muammoni hal qilishni bir necha yo'nalishda izlash mumkin: ikkinchi bosqich fizikasini o'qitishning butun jarayoniga bo'ysunishi kerak bo'lgan umumiy rahbarlik uslubiy g'oyalarni ehtiyotkorlik bilan tanlash, barcha bo'limlarni, mavzularni o'rganish uchun pedagogik texnologiyani tizimli ishlab chiqish, talabalarning bilimga intilishini faollashtiruvchi, tafakkur va qobiliyatlarini rivojlantiruvchi kurs masalalari va o'qitish uslublarini takomillashtirish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi "Ta'lim to'g'risida" O'RQ-637-son Qonuni.
2. Фейнмановские лекции по физике. Т. II (1–2) / Ричард Фейнман, Роберт Лейтон, Метью Сендс; [пер. с англ. О.А. Хрусталева, Г.И. Копылова, А.В. Ефремова]. – Москва : Издательство АСТ, 2019. – 448 с.
3. Фейнман Ричард Филлипс, Лейтон Роберт Б. Фейнмановские лекции по физике. – М.: И (1 2) 2022. – С 448.
4. Ландау Л.Д., Китайгородский А.И. Физика для всех. – М., 1978. – С 392.
5. Ландсберг Г.С. Элементарный учебник физики. Том 1. – М., 2010 – 612 с., Том 2. – М., 2001 – 480 с., Том 3.– М., 2009 – 656 с.
6. Физика: учебник/ Джей Орир; пер. с англ. и научная редакция / Ю. Г. Рудого и А. В. Беркова. – М.: КДУ, 2010. 752 с.



FIZIK MASALALARNI YECHISH JARAYONIDA UMUMTA'LIM MAKTABLARI VA AKADEMIK LITSEY O'QUVCHILARINING BILIM FAOLIYATINI BOSHQARISH

Voxidov E.R. – Mirzo Ulug'bek nomidagi
O'zbekiston Milliy universitet

E-mail: erkinbek_02@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada umumta'lim maktablari va akademik litseylarda fizika fanini o'qitishda fizik masalalarni yechish jarayonida o'quvchilarni bilim faoliyatini boshqarish masalalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: fizika, fan, ta'lim, bilim, ko'nikma, qobiliyat, malaka, nazariy, amaliy, laboratoriya, maktab, akademik litsey, tajriba, namoyish, tadqiqot, topshiriq, metod.

Kirish. O'quvchilar bilim, ko'nikma va malakalar bilan chambarchas bog'liq. O'quvchilar egallashlari kerak bo'lgan ko'plab malaka va ko'nikmalar orasida fizik masalalarni yechish mahorati (qobiliyati) katta ahamiyatga ega. Umumta'lim maktablari va akademik litseylarda fizika fanini o'qitish amaliyotini o'rganish o'quvchilarda masalalarni mustaqil yechish qobiliyatini rivojlantirish metodida jiddiy kamchiliklar mavjudligini ko'rsatdi.

Fizika tabiat qonunlarini o'rganishda yetakchi o'rinni egallashi bilan bir qatorda ilmiy tafakkur darajasi va uslubini belgilaydigan fan hisoblanadi. Aynan fizika inson ongidagi har qanday tushunarsiz vaziyatni tahlil qilish, uning fundamental, sifat va miqdoriy tomonlarini aniqlash va tushunish darajasini, vaziyatni vaqt davomida rivojlanish yo'nalishi va natijalarini nazariy jihatdan bashorat qilish imkoniyatiga yetkazish qobiliyatini eng to'liq namoyish etadi. Fizikaviy ta'lim butun jamiyat ta'lim darajasini, muhandislar, aniq va tabiiy fanlar sohasidagi mutaxassislarning bazaviy ta'lim darajasini belgilovchi eng muhim omil sifatidagi ahamiyati ortib bormoqda, bu esa uni takomillashtirish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Fizikaviy ta'lim bilimning barcha sohalari bo'yicha zamonaviy mutaxassislarni tayyorlashning ajralmas tarkibiy qismidir [1].

O'quvchilarning masalalarni mustaqil yechish ko'nikmalarini egallashdagi muvaffaqiyati o'qituvchilarning dars o'tish mahoratiga, shuningdek, o'quvchilar faoliyatini tashkil qilish va boshqarishiga bog'liq.

Asosiy qism. Masalalarni yechish – o'quv ishlarining majburiy turidir. O'quvchilarning umumiy aqliy rivojlanishi uchun uning ahamiyati katta. Masalalarni yechish jarayonida o'quvchilarning aqliy qobiliyatlari rivojlanadi, aqliy harakatlar tarkibi shakllanadi, ijodiy fikrlashlari oshadi.



Masalalarni yechish orqali o'quvchilar dunyo haqida chuqurroq bilimga ega bo'ladi, hodisa va qonuniyatlarni tushunadi, ularni boshqarish jarayonlarini idrok etadi. Fizikadan masalalar yechish, bilim olish, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, bilimlarni amaliyotda tatbiq etish maqsadida foydalanadilar.

Masalalar yechishdagi mashqlar orqali o'quvchilarning fazilatlari shakllanadi: fanga qiziqish, maxsus qobiliyatlari, iroda, qat'iyatlilik, insonning shaxs sifatida rivojlanishi va shakllanishi sodir bo'lishi har bir o'quvchida masalalarni yechish qobiliyatini shakllantirish juda muhim ekanligini ko'rsatadi.

Bu muammoni hal etishning mas'uliyati bevosita fizika o'qituvchisiga yuklanadi. Ularning oldida o'quvchilar faoliyatini boshqarish tizimini tanlash muammosi turadi. O'qituvchiga bu muammoni yechishda metodistlar va psixologlar yordam beradi.

Masalalar yechishdagi mashqlar orqali shaxsning fazilatlari shakllanadi: fanga qiziqish, maxsus qobiliyatlari, iroda, qat'iyatlilik, insonning shaxs sifatida rivojlanishi va shakllanishi sodir bo'ladi. Shuning uchun ham har bir o'quvchida masalalarni yechish qobiliyatini shakllantirish juda muhim hisoblanadi [2].

Bu borada ayrim fizik olimlar – metodistlar, tajribali o'qituvchilarning ishlari foydali bo'ladi. Ularning xizmatlariga fizika bo'yicha masalalarni yechish metodologiyasini ishlab chiqish, yechimga yondashishning mumkin bo'lgan usullari, yechim jarayonining bosqichlari, fizik kattaliklarning nomlaridan foydalanish qoidalari, masalaning yechimini rasmiylashtirish va boshqalar kiradi. Fizika bo'yicha ta'lim muammolarini tasniflashga urinishlar ham e'tiborga loyiqdir. Bir qator metodik qo'llanmalarda darsning turli bosqichlarida, har xil turdagi o'quv va darsdan tashqari faoliyatlarda masalalardan foydalanish samaradorligi bayon etilgan [3].

Ba'zi metodistlar va o'qituvchilar "masalani yechishni qanday o'rgatish kerak" degan muammoga ma'lum turdagi fizik masalalarni hal qilish algoritmlarini topishga olib keladilar [2]. Bunday tavsiyalar bilan tanishish o'qituvchiga yordam beradi. O'qituvchiga umumiy standartlarni bilishi va ulardan foydalanishi, o'quvchilarning muammolarni hal qilish qobiliyatini tekshirishda qo'yiladigan talablarni bilishi, u yoki bu turdagi muammolarni hal qilishning yondashuvi yoki u yoki bu turdagi masalani yechish umumiy tamoyilini bilishi muhimdir.

Ammo uslubiy adabiyotlarning beqiyos ahamiyatiga qaramay, uning maslahatlari o'qituvchining kasbiy mahoratini shakllantirishga sezilarli ta'sir ko'rsata olmaydi.

N.V.Kuzmina pedagogik ish ustalarining bilimlari tarkibi nafaqat metodikani mohirona qo'llash, shu bilan birga bolalar psixologiyasini bilishi bilan ham ajralib turishini isbotladi [4].



Fizikaviy masalalarni yechishda andoza tuzilishi fizikaning zamonaviy usullari tomonidan eng muammoli deb tan olinadi. Ushbu etalon quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: vaziyatni tahlil qilish, yechim usulini tanlash, yechim rejasini tuzish, "umumiy ko'rinishdagi" yechimni tuzish, fizik miqdorlarning o'lchov birliklarini bitta tizimga aylantirish, izlanilayotgan kattalikni hisoblash, shuningdek, yechim natijasini tahlil qilish.

O'qitish masalalarini shakllantirish jarayonida o'qituvchi nafaqat o'z bilimlari majmuasiga tayanadi. Uning ta'lim faoliyatida – fizik masalalarni yechish metodikasini o'zlashtirish darajasi ham muhim ahamiyatga ega. Fizik mazmundagi masalalarni yechishning barcha bosqichlarini kerakli darajada bajarish, har qanday o'quv muammosini yechish, masalalarda umumiylikni ko'rish, yechimning mumkin bo'lgan algoritmlarini hisoblash – bularning barchasi o'qituvchi harakatlari maqsadga muvofiqdir.

Loyiha-konstruktiv bosqichining tuzilishi, o'qituvchi tomonidan muammolarni amaliy hal qilishga tayyorgarlik ko'rish jarayonida bajaradigan, majburiy bosqichlar to'plamini o'z ichiga oladi.

Dastlab darsning mazmuni o'ylab chiqiladi, yangi bilimlar jalb qilinadi, material yangilanadi, dars materiali va metodologiyasiga qo'yiladigan maqsadli talablar alohida belgilanadi, vazifalarni tizimlashtirish prinsipi aniqlanadi, o'qituvchi va talabalarning harakatlari o'rtasidagi taxminiy "muvozanat" aniqlanadi.

Keyin o'qituvchi dars mavzusi bo'yicha fizik masalalarni tanlashi; barcha masalalarni yechishi; vazifalarning o'ziga xosligini aniqlashi (mazmuni, murakkabligi, yechishning mumkin bo'lgan usullari, maqsadga muvofiqligi va boshqalar); tanlangan har bir topshiriqni yechish jarayonida o'quvchilar duch kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarni aniqlashi; masalani yechishda o'quvchilarning mustaqil ishtirok etishining mumkin bo'lgan darajasini aniqlashi; yangi masalalarni tuzishda ta'lim oluvchilarning maqsadiga va imkoniyatiga muvofiq o'zgartirishi; o'quvchilar bilan ishlash shakllarini turlicha qilishi, ularni yechish jarayonida bevosita qiziqishlarini oshirish maqsadida sinfda har bir masalani yechishni tashkil etish usulini tanlashi; vazifalarni ma'lum ketma-ketlikda taqsimlashi; o'quvchilarga yordam berishni puxta o'ylashi (savollar, ko'rsatmalarni tuzishi)ni bevosita amalga oshiradi.

O'qituvchining fizik masalalarni o'quvchi tomonidan yechish tuzilmasi o'quvchilar uchun masala ustida ishlashning o'ziga xos standartdir. O'quvchilar o'qituvchi har doim qiladigan harakatni takrorlaydilar. Fizik masalani yechish jarayonini o'qituvchi tomonidan tashkil etish metodikasiga sharoitni tahlil qilish, yechish usulini tanlash, "umumiy" shakldagi yechimga kelish, o'lchov birliklarini bir tizimga (sanoq sistemasiga) o'tkazish, izlanayotgan kattalikni hisoblash, yechim natijalarini tahlil qilish kiradi.



Keltirib o'tilgan tuzilma zamonaviy pedagogika fani tomonidan muammolarni hal qilishda mukammal yondashuv sifatida tan olingan standartga mos keladi.

O'qituvchi o'quvchilarda fizika fanidan masalalar yechish qobiliyatini rivojlantirish vazifasini butun "fizikaviy" malakalar majmuasini shakllantirish deb hisoblaydi.

Butun ko'nikmalar majmuasini shakllantirish tartibi uzoq davom etadigan jarayon bo'lib, o'quvchilar uchun maktabda o'qishning barcha yillari uchun mo'ljallangan. Alohida shaxsiy ko'nikmalar yoki ularning birgalikdagi ko'nikmalarining shakllantirish o'qitishning taktik masalalarini yechishning aniq maqsadlariga kiradi.

Yaxshi o'qituvchining ishi o'quvchilarning topshiriq (muammo, masala) bilan ishini tashkil etish usullarini tanlashda maqsadli yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi. Turli ish shakllaridan foydalanish materialning mohiyati va bolalarning xususiyatlarini, mashg'ulot vaqtini va boshqalarni hisobga olgan holda o'tkaziladi. O'qituvchi vazifasiga o'quvchilar ta'lim jarayoniga yordam beradigan, o'ziga xos shaxsiy xususiyatlarini kiritish ham kiradi.

Fizik masalalarni yechish jarayonida o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil eta olish o'qituvchining didaktik masalalarni amaliy hal etish samaradorligining asosiy ko'rsatkichlaridan biridir.

O'qituvchi amalda kommunikativ muammolarni hal qilish masalasini muvaffaqiyatli hal etsa, o'z oldiga qo'ygan maqsadga erishgan hisoblanadi. O'qituvchi turli o'quvchilar bilan muomala qilishiga to'g'ri keladi va ularning bilim, ko'nikma, to'g'ri maqsadli harakatlarini tashkil etish esa o'qituvchining o'quvchilar shaxsiy xususiyatlarini hisobga olishi, ularning har biri bilan to'g'ri munosabatlarni o'rnatish mahoratiga bog'liq.

Kommunikativ muammolarni hal qilish o'qituvchining amaliy faoliyati sohasiga tegishli bo'lib, bunda o'qituvchi o'quvchi bilan bevosita aloqada bo'ladi.

Muammolarning murakkabligini aniqlash barcha o'qituvchilar uchun his-hayajonli kechadi. U muammolarni yashirin shartlar va ma'lumotlar nuqtayi nazaridan, matematik amallarning qiyinligi, tipik bo'lmagan vaziyatlar va boshqalarni taqqoslashga asoslangan. Odatda, o'qituvchilar muammo (masala)larning qiyinligini o'quvchilarda uchraydigan qiyinchiliklardan izlashadi. Shu sababli o'qituvchi darslarga tayyorgarlik jarayonida masalalarni o'zgartirish (o'quv maqsadi va o'quvchilarning imkoniyatlariga mos ravishda ularni soddalashtirish yoki murakkablashtirish) zarurligiga duch keladi.

Xorijiy tajribalar, jumladan, Finlyandiya, Yaponiya, Koreya va shu kabi rivojlangan mamlakatlarda fizika fanini o'qitishni tahlili nazariyadan ko'ra amaliy mashg'ulotlarga ko'proq e'tibor berilishini ko'rsatadi [5]. Fizik qonun qoidalar va turli jarayonlarni o'rganish orqali tabiatda va texnikada ro'y



beradigan jarayonlarni asl mohiyatini, fizik asoslarini tushunib yetishiga xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida, o'quvchining dunyoqarashini, mantiqiy fikrlashini yanada rivojlantiradi.

Taklif va tavsiyalar. O'qituvchi muammoni tahlil qilishda topshiriq mazmunini hayotda kuzatiladigan hodisalar bilan bog'lay bilish; tabiatdagi fizik qonuniyatlarni topishi; topshiriq (masala)ning sharti bilan tavsiflangan yashirin vaziyat qonuniyatlarni aniqlashi; masalaning shartidagi barcha ochiq va yopiq berilgan qiymatlarni ajratib ko'rsatishi (masalaning shartini "o'ylash" mahorati); fizik holatni fazoviy, sxematik tasvirlashi; birlashtirilgan masalalarni elementar masalalarga ajratishi; fizik holatni shartga muvofiq, to'g'ri tasvirlay olishi; vazifa turini aniqlashiga alohida e'tibor berishi kerak.

Yechim usulini tanlash va yechim rejasini tuzishda qidirilayotgan narsani ajratish va tavsiflashi; istalgan kattalikning boshqa kattaliklar bilan ko'p bog'lanishlari orasidan masalaning sharti bilan to'liqroq tavsiflanganlarini ajratib ko'rsatishi; izlanayotgan kattaliklarni ba'zi munosabatlarini inobatga olmasligi (fizikaviy holatning realligi (haqqoniyligi)ni cheklashi) qidirilayotgan kattalik aniqlashning bir necha usullarini topishi; istalgan noma'lumdan ma'lum kattaliklarga qiymatlarga o'tish g'oyasidan yechim rejasini tuzishi; tanlangan yechim usulining asoslanganligini isbotlashi muhim hisoblanadi.

O'qituvchi masalalar yechishda masalaning shartini kattaliklar orqali ifodalashi; masalani mavhum yechish mahorati (fizik kattaliklarni matematik funksiyalar sifatida ifodalash orqali izlanayotgan qiymatini topishi); barcha kattaliklarni bir xil birliklar sistemasida ifodalashi; barcha kerakli matematik amallarni bajarishi; matematik hisoblashlarni soddalashtirishi kerak. Shu bilan birgalikda yechim natijasini tahlil qilishda yechim natijasini boshqa qanday usullar bilan tekshirishi hamda topilgan yechimni xususiy holatlarda qo'llay olish malakasi katta ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. O'qituvchilar faoliyati tahlili shuni ko'rsatdiki, o'quvchilar bilishining o'ziga xosliklari va muayyan muammoni hal qilishda ularning qiyinchiliklarini oldindan ko'ra bilish o'qituvchining bolalar faoliyatining tashkiliy shakllarining samaradorligini aniqlash qobiliyatida ham namoyon bo'ladi. O'qituvchi o'quvchilar mustaqil ravishda nima qila olishlari va ularga qanday qiyinchiliklar tug'dirishi o'rtasida o'ziga xos balans o'rnatadi. Bu o'qituvchiga o'quvchilarning bilim olish faoliyatiga aralashishi va ularga yordam ko'rsatishda u yoki bu faoliyat vaqtini ajratishga imkon beradi.

Materialning xususiyatlarini hamda o'quvchilar aqliy faoliyatining xususiyatlarini bilish, o'qituvchiga yordamning turi va xarakterini aniqlash imkonini beradi. Shunday qilib, masalalarni yechish jarayonida o'zaro munosabatlarning oqilona taqsimlanishi o'rnatiladi, bunda, bir tomondan, o'quvchining masalani yechishdagi kuchi yetadigan hissasi va mustaqilligi cheklanmaydi, uning bilish qobiliyati faollashadi, boshqa tomondan, o'quv



materiali o'zining murakkabligi bilan o'quvchilarni ruhiyatini tushurmaydi, ochiqlik va bajara olish sifati ortadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Xudayberdiev O.S. Fizika fanini o'qitishni takomillashtirishning ayrim masalalari. ChirchiqDPI Zamonaviy ta'limda matematika, fizika va raqamli texnologiyalarning dolzarb muammolari va yutuqlari nomli konfirksiya materiallari to'plami. 2021-yil. B.214-219.
2. Кириков М.В., Алексеев В.П. Вопросы методики преподавания физики: Текст лекций / Ярослав. гос. ун-т. Ярославл, 2000. 72 с.
3. Voxidov E.R. Fizika fanidan amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish // "Fizika va Ekologiya" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi, Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI, –Nukus, 2023 yil 15-16 sentabr. –B 186-190.
4. Кузмина Н.В. Формирование педагогических способностей.- Л., 1961; Кузмина Н.В. Профессионализм личности преподавателя и мастера производственного обучения.- М., 1990.
5. M.Qodirov. O'zbekiston ta'lim tizimini qanday transformatsiya qilish kerak? Rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimi tahlili nimalarni ko'rsatmoqda // Risola. Samarqand: SamDU nashriyoti. – 196 bet.

MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA MAKTAB O'QITUVCHILARINING INNOVATSION SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISH MAZMUNI

Xakimova Dildora Mashrabjonovna –
Toshkent shahar pedagoglarni yangi
metodikalarga o'rgatish milliy markazi
"Ijtimoiy-iqtisodiy va amaliy fanlar metodikasi"
kafedrası mudiri, p.f.f.d. (PhD), dotsent
E-mail: dildoraxon1984@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada xalq ta'limi sohasida olib borilayotgan islohotlar, malaka oshirish tizimidagi o'zgarishlar, maktab o'qituvchilarining malaka oshirish jarayonida innovatsion salohiyatini rivojlantirish mazmuni kabi masalalar ilmiy asoslab berilgan.

Tayanch so'zlar: malaka oshirish, kasbiy rivojlanish, innovatsiya, innovatsion salohiyat, o'z-o'zini rivojlantirish, andragog-pedagog, riskologik kompetentlik, modulli ta'lim texnologiyasi.

Dunyoda maktab o'qituvchilarining uzluksiz malakasini oshirishning "an'anaviy", "yangi" va "aralash" modellarining uyg'unligini ta'minlash, malaka



oshirish jarayonida maktab o'qituvchilarining innovatsion salohiyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlarini takomillashtirishga doir qator ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, malaka oshirishning muqobil shakllarining samaradorligini baholash, maqsadli malaka oshirishning variativ dasturiy ta'minotini ishlab chiqish, pedagog kadrlarda innovatsion salohiyatni rivojlantirishning andragogik modelini takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, uzluksiz malaka oshirish jarayonida maktab o'qituvchilarining innovatsion faolligini oshirish, innovatsion ta'lim muhiti sharoitida ularda prognostik va riskologik kompetentlikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimizda kasbiy-pedagogik faoliyatga maqsadli yo'naltirish tizimini yanada takomillashtirish, zamonaviy fan va texnika yutuqlaridan foydalanish layoqatiga ega, respublikamizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga munosib hissa qo'shadigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash uchun professional pedagog kadrlar tayyorlash, sohaga doir ilg'or o'qitish texnologiyalarini joriy etishga katta e'tibor qaratilmoqda. "Tarbiya va o'qitish usullari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda xorijiy tillarni puxta o'zlashtirgan, ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalariga ega professional pedagog kadrlar tayyorlash, pedagoglik kasbiga qiziqishi yuqori bo'lgan yoshlarni aniqlash hamda ularni maqsadli tayyorlab va tarbiyalab borishning uzluksiz tizimini joriy qilish" [1] pedagogika ta'lim sohasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari hisoblanadi. Bu esa, maktab o'qituvchilarining innovatsion salohiyatini rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslari, modeli, mexanizmi va texnologiyalarini takomillashtirishni taqozo etadi.

Maktab o'qituvchisining innovatsion salohiyatini rivojlantirish bilan bog'liqlikda umumlashtirilgan mehnat vazifalari orasida o'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy o'sish alohida ahamiyat kasb etadi.

O'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy o'sish:

1) mehnat harakatlari: muntazam malaka oshirish kurslaridan o'tish; u doimiy ravishda fanga oid adabiyotlar bilan tanishib, yangi bilimlarni amaliyotda qo'llash; seminar va treninglarda, shuningdek kasbiy rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan boshqa tadbirlarda qatnashish; maqsadi ishni takomillashtirish va tajriba almashishdan iborat bo'lgan maktabning "uslubiy kengashlari"da qatnashish; o'zaro darslarda qatnashish, ularni tahlil qilish, undan o'zining kasbiy faoliyatida foydalanish; o'z tajribasini namoyish etish uchun ochiq darslarga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish; o'zining ta'lim faoliyatini (kuchli va zaif tomonlarini) yetarlicha baholash va kasbiy rivojlanish ehtiyojlarini belgilay olish; o'zining ish amaliyotida kerakli o'zgarishlarni amalga oshirish;



2) zarur ko'nikmalar: o'zining kasbiy o'sishi, shu jumladan o'z-o'zini rivojlanish yo'lini aniqlash; o'zining ta'lim faoliyatini tahlil qilish va baholash, modifikatsiyani talab qiladigan yo'nalishlarni aniqlash; kasbiy rivojlanishida AKT muhitidan foydalanish; faoliyatida chet tilidan foydalanish (zaruriyat bo'lganda);

3) zarur bilimlar: o'z-o'zini baholash jarayoni, kuchli va kuchsiz tomonlarini aniqlash; o'zining kasbiy rivojlanishini rejalashtirish; AKT texnologiyalari: xorijiy til; nutq madaniyati;

4) boshqa tavsiflar: huquqiy, axloqiy va odob me'yorlariga, kasb odobi talablariga, ijtimoiy kompetensiyalarga rioya qilish; o'z-o'zini takomillashtirish va kasbiy rivojlanish o'zini o'zi baholash va kasbiy o'sishni boshqarish bo'yicha kompetensiyalarni nazarda tutadi, ya'ni: kasbiy rivojlanish uchun o'z ehtiyojlarini anglay olish va tahlil qila bilish, o'qituvchining ixtiyoridagi vositalardan (mutaxassislik bo'yicha materiallar va adabiyotlar, malaka oshirish kurslari, boshqa mutaxassislarning ekspertizalari, o'z faoliyati natijalari) uzluksiz kasbiy rivojlanish maqsadida foydalanish va boshqarish [2].

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 28-dekabrda "Maktab o'qituvchilarini tayyorlash, xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1026-son qaroriga asosan qayta tayyorlash va kasbiy rivojlanish jarayonida pedagog xodimlarning kasbiy bilimi, ko'nikmasi va mahoratini uzluksiz yangilab borish, zamonaviy talablarga muvofiq ta'lim sifatini ta'minlash uchun zarur darajada kasbiy tayyorgarlikni oshirish, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini singdirish, pedagogik nufuz va kompetentlikni rivojlantirish, o'z pedagogik faoliyatida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, pedagogning shaxsiy va kasbiy axborot maydonini yaratish ko'nikmalarini shakllantirish, ilmiy-pedagogik ijodkorlik metodologiyasi hamda pedagogika fani va sohasini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari bo'yicha bilimlarni singdirish, pedagog xodimlar tomonidan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va xorijiy tillarni o'zlashtirish uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish muhim vazifa sifatida belgilandi.

Xalq ta'limi xodimlarining egallab turgan lavozimlari, mutaxassisligi yoki dars beradigan fanlari bo'yicha kasbiy va pedagogik mahorati doimiy ravishda o'sib borishini, ularning ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalari, shuningdek, o'qitishning interaktiv usullari bo'yicha kasbiy bilimlari, malaka va ko'nikmalari muntazam ravishda yangilab borilishini ta'minlash hamda ularni davlat ta'lim standartlari, davlat ta'lim talablari va sohaga oid qonunchilik bilan muntazam tanishtirib borish va ularni uzluksiz kasbiy rivojlantirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 17-yanvardagi "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish



tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 25-son qarori qabul qilindi. Qaror asosida amaldagi maktab o'qituvchilarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimiga katta o'zgartirishlar kiritildi.

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-yanvardagi "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 25-son qarori qabul qilinganidan tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalari asosida hududiy pedagogik markazlar o'quv rejasiga ayrim tuzatishlar va o'zgartirishlar asosida umumiy o'quv modullari kiritildi va ularning dasturiy ta'minoti takomillashtirildi. Mazkur modullarga doir o'quv materiallarini tanlashda asosiy e'tibor maktab o'qituvchilarining innovatsion salohiyatini rivojlantirishga qaratildi:

1. Pedagogning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish.
2. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va media savodxonlik.
3. O'z-o'zini rivojlantirish va uzluksiz kasbiy rivojlanish masalalari.
4. Pedagog mas'uliyati va moslashuvchanligi.
5. Inklyuziv ta'limni joriy etish masalalari.
6. Ta'limning normativ-huquqiy hujjatlarini bilish va kasbiy faoliyatda foydalanish masalalari.
7. Fandagi yangiliklar, fanni o'qitishning dolzarb masalalari.
8. O'quvchilar kompetensiyalarini baholash usul va vositalari.

Modulli o'qitish nazariyasida modul tushunchasi qandaydir bir tizimining aniq funksional vazifasini bajaradigan (yukini ko'taradigan) mustaqil biror bir qismini bildiradi.

Modulli o'qitishning mohiyati shundan iboratki, ta'lim oluvchi o'ziga taqdim etilgan individual o'quv dasturi asosida mustaqil ish olib boradi. Bu o'quv dasturida harakatlarning rejas, axborotlar blogi, o'qitish natijalariga erishish bo'yicha metodik tavsiyanomalar bo'lishi kerak. Maktab o'qituvchilari bu sharoitda nazorat qilishi, maslahat berish, axborotlarni o'zlashtirish bo'yicha harakatlarni muvofiqlashtirish vazifalarini bajaradi.

Modulli o'qitishning umumiy yo'nalishi, uning maqsadi, mazmuni va tashkil etish metodikasi quyidagi tamoyillarga asoslanadi: modullilik – o'qitish mazmunidan alohida elementlarini bo'lib olish; dinamik (o'zgaruvchanlik) – bilimning harakatchanligi (amaliyligiga) va tezkorligiga erishish; moslashuvchanlik – ta'lim mazmunini va unga erishish yo'llarini ta'lim oluvchining individual ehtiyojiga qarab moslashtirish; metodik maslahatning har tomonlamaligi – ta'lim oluvchining bilish faoliyatida va pedagogik faoliyatda professionallikni ta'minlash; tenglik – ta'lim oluvchi va pedagog o'rtasida ishchan hamkorlikni ta'minlash.

Modul mazmunni invariantlilik vositasida faoliyatli tashkil etish va axborot almashuvini amalga oshirishga imkon beradi. U insonda o'sha



vaqtning o'zida yuzaga kelgan ehtiyojlarni qondirishni kafolatlaydi, yangi yo'nalishda yuzaga keluvchi qiziqishlarni aniqlaydi. Modulning asosiy ahamiyatli tomoni – inson ongi, fikrlashini rivojlantirishidir.

Maqsadga yo'nalganligi: maslahatli-muvofiqlashtirish yordamida andragog-pedagogni to'liq axborot berish vazifasidan ozod etish; andragog-pedagog va tinglovchilarning ta'limning qulay yo'llarini birgalikda tanlab olishlari uchun sharoit yaratish; mustaqil o'rganish, o'z-o'ziga ta'lim berish ko'nikmalarini shakllantirish; tinglovchilarning refleksiv qobiliyatlarini shakllantirish; uchun moslashuvchan rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratish; tanqidiy fikrlashini shakllantirish; bilimlarni umumlashtirish; yaxlitlikda dunyoni idrok etish va voqea-hodisalarni qamrab olishni shakllantirish; tizimli ravishda bilimlarga ehtiyojni rivojlantirish; bilish va his etishning assotsiativ mexanizmlarini boyitish.

Modulli ta'lim texnologiyasining konseptual qoidalari sifatida quyidagilar aniqlashtirildi: o'quv faoliyatini algoritmlashtirish; modullilik tamoyili – ta'lim mazmunini alohida tugallangan qismlarga joylashtirish; bilish barcha bosqichlarining o'zaro uyg'unligi va tugallanganligi; nazariy materiallarni bloklarga birlashtirish; differensiallashtirish va individuallashtirish tamoyili; faoliyatli yondashuv: faoliyatning barcha tarkibiy qismlari (maqsad qo'yish, rejalashtirish, tashkil etish, ishchi jarayon, nazorat va natijalarni baholash)ni amalga oshirish; sinergetik yondashuv: tinglovchilarning o'z-o'zini tashkillay olishi va rivojlantirishi; tizimli yondashuv: dunyoni bilish tizimning tizimlari sifatida; o'zaro hamkorlik tamoyili; modulda o'quv materialini uzatishning deduktiv mantiq'i: butun umumlikdan umumiylik va alohidalikka o'tish; ilgarilab boruvchi nazariy materiallarni o'rganish; o'quv axborotlarini jipslashtirish (umumlashtirish, yiriklashtirish, tizimlashtirish, umumiyashtirish); moslashuvchanlik (dinamiklik) – birdaniga o'z munosabatini bildirish va ijtimoiy-pedagogik shart-sharoit (ijtimoiy buyurtma)ning o'zgarishlariga tezlikda moslasha olish qobiliyati; dastur bo'yicha jadallashuvning individual sur'atini tanlab olish va o'z-o'zini yo'naltira olishi; anglangan istiqbollar (motivatsiya) tamoyili.

Tashkil etish va o'rganish tamoyillarini quyidagilar tashkil etadi: modulni shakllantirish uchun asosning mavjud bo'lishi ishchi dasturni tuzishga imkon beradi; asosiy mazmun tushunchasi o'quv moduli tushunchasi bilan chambarchas bog'langan, ya'ni asosiy mazmunli bloklar tizimda mantiqiy bog'liqlikni aks ettiradi; asosiy tushunchalar zaxirasi – tezaurus (asosiy mazmunli birliklar, atamalar, tushunchalar, qonunlar)ga asoslanib, modul bo'yicha barcha turdagi ishlarni qamrab oluvchi savol va topshiriqlar tuziladi va modullar o'zlashtirib bo'linganidan so'ng yakuniy nazorat (odatda, test shaklida) o'tkaziladi; modulni tashkil etishning asosiy nuqtasi ichki mantiqiylikka asoslanadi.



O'quv kursini modulli tushuntirish asosida: mazmunli tizimlilik, ya'ni zaruriy va yetarlicha hajmdagi bilimlarsiz yaxlit fanning o'zi ham, uning modullarining ham mavjud bo'lmashligi; kasbiy-bilishga doir ko'nikma va malakalarni shakllantirish algoritmini ta'minlovchi modulning bilish va o'quv-kasbiy qismlarining almashinib turishi; nazoratning tizimlilik, egallangan malaka va kasbiy ko'nikmalarning uzatish, maktab o'qituvchilarining innovatsion salohiyatini rivojlantirishga olib keluvchi har bir modulning mantiqiy tugallanishini talab etuvchi tizimlilik tamoyiliga amal qilindi.

Modulda ta'limning maqsadi, mazkur modulni o'rganish vazifalari va darajasi, ta'lim oluvchilar egallashi lozim bo'lgan ko'nikma va malakalar aniq belgilab beriladi. Modulli ta'limda hammasi oldindan dasturlashtiriladi: o'quv materialini o'rganishning ketma-ketligi, asosiy tushunchalar, egallash lozim bo'lgan ko'nikma va malakalar, o'zlashtirish darajasi va o'zlashtirish sifatini nazorat qilish.

Modul tinglovchilarga dastlab umumiy faoliyatga kirishish, so'ng qismlar bo'yicha umumiy maqsadlar zonasida anglangan o'zaro harakatni ishlab chiqishga imkon beradi.

Modulli yondashuv natijasida tinglovchilar kasbiy rivojlanish kursi mazmunini to'liq o'zlashtiradi, qanday axborot va qaysi maqsadda muhokama qilinayotganligini tushunib yetadi, u nimani "qabul qiladi" va nima uchun bu zarurligini anglab yetadi. Modul doirasida o'quv axborotlarini tizimlashtirish andragog-pedagog hamda tinglovchilarning birgalikdagi faoliyatini shakl va turlari tadrijini ajratib olish va aniqlashni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 fevraldagi PQ-4623-son "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 28.02.2020 y., 07/20/4623/0220-son, 13.06.2020 y., 07/20/4749/0758-son.
2. Umumiy ўрта таълим мактаби ўқитувчиси касб стандарти // Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазирлиги. Р.003.332.1286/И-21. 23.08.2021 № 332-ИЧ.
3. Dodgson M. The management of technological innovation: An international and strategic approach. Oxford University Press, 2000. – 248 p.
4. Ranjit Kumar. Research methodology a step-by-step guide for beginners. – Sage, New Delhi, 2011. – 415 p.
5. Simonton D.K. Creativity: Cognitive, personal, developmental and social aspects // American Psychologist. 2000. – V. 55. – P. 151–158.



6. Dodgson M. The management of technological innovation: An international and strategic approach. Oxford University Press, 2000. – 248 p.

ONA TILI DARSLARIDA MODELLASHTIRISH METODI

Xakimova Dilorom Ikramovna – Navoiy viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi Metodik xizmat ko'rsatish bo'limi o'zbek tili fani metodisti

Annotatsiya. Maqolada ta'lim va tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo'llashning afzalliklari, modellash tirish metodidan foydalanish, axborot uzatuvchi modellarning shakllari, ona tili darslarida modellash tirish metodidan fanlararo integratsiyada foydalanish masalalari o'z aksini topgan.

Kalit so'zlar: modellash tirish, model, grafik va belgili modellar, integratsiya, diagrammalar, jadvallar, xaritalar.

So'nggi yillarda mamlakatimizda boshqa sohalarda bo'lgani kabi ta'lim sohasida ham yangi islohotlar joriy etilmoqda. Islohotlardan ko'zlangan maqsad shuki, ta'lim sifatini oshirish, o'qituvchilarning kasbiy mahoratini rivojlantirishdir. Qaysi sohada bo'lmasin, inson egallangan bilimlarini, nazariy ilmini o'z hayotida amaliy maqsadda texnologiyalardan foydalanib tatbiq etadi. Texnologiya (yunoncha techne – san'at, mohirlik, uquv) har bir sohada bo'ladi, shu jumladan, ta'lim sohasida ham. Ta'lim va tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo'llashning ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi uchun o'ziga xos afzalliklari bor. Pedagogik texnologiyalar-pedagogik jarayonni yangicha boshqarish va tashkil etish mexanizmidir. Ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish quyidagi qulayliklarga asos bo'ladi:

- yangicha yondashuv orqali ta'limiy, pedagogik, ijtimoiy faoliyat o'zgaradi;
- o'qituvchi va o'quvchi ishtirokidagi jarayon samarali faoliyat ko'rinishiga keladi;
- ilmiy ma'lumotlarni amaliyotga bog'lab asoslash va tahlil qilish, qo'llash, xulosa chiqarish imkoniyati vujudga keladi;
- ta'lim resurslaridan foydalanish hajmi oshadi;
- pedagogik muammolarni muvaffaqiyatli hal qilish yo'llari ochiladi.

Pedagogik jarayonni qanday tashkil qilish, jarayon samaradorligini oshirish har bir pedagogdan mahorat, o'zgacha yondashuv hamda pedagogik

texnologiyadan o'rinli, samarali foydalanishini talab qiladi. Pedagogik texnologiyada umumiy pedagogik metodlar faol qo'llaniladi. Shulardan biri modellashtirish metodidir. Matematik model – matematik timsollar, belgilar va hodisalar sinfining taxminan namunasi, bayoni. O'qitishning interfaol shakl va metodlarida bu yondashuv ancha zamonaviy, qulay va samarali hisoblanadi. Ta'lim jarayonida modellashtirish metodidan foydalanish natijasida o'quvchi faoliyatining umumiy mazmunini yorituvchi model yaratiladi. Model o'ziga xos matn, jadval, formula, fotosurat, sxema, loyiha, tasviriy ifoda, xarita, diagramma kabi shakllarda bo'ladi. Ta'lim jarayonida amalga oshirilishi zarur deb belgilangan vazifalarning yechimini topishda qo'llaniladigan modellashtirish metodi muhim ahamiyatga ega.

Modellar qanday maqsadga xizmat qilishiga ko'ra, moddiy ko'rishga ega va axborot uzatuvchi modellar guruhiga ajratiladi. Axborot uzatuvchi modellarning grafik va belgili modellar kabi ko'rinishlari hozirgi XXI asr ko'nikmalarini o'zida mujassamlashtirishi lozim bo'lgan soha mutaxassislariga juda kerakli. Maktab davridanoq o'quvchilarni yuqoridagi ko'nikmalarga o'rgatish davr talabidir. Modellarning turli shakllari mavjud bo'lib, ular ma'lumotlarni tahlil qilishda samarali va qulay.

Modellashtirish metodi orqali matematik savodxonlikda o'quvchilarni yuqori natijaga yo'naltirish masalasiga yechim topish imkoniyati bo'ladi. Aynan PISA tadqiqotlarida matematik savodxonligiga e'tiborning kuchaytirilganligining

sababi shundaki, bu tadqiqot shaxsning turli hayotiy vaziyatlar va masalalar ustida matematik mulohaza yuritish, berilgan muammoni yechishda matematikani qo'llay olish, olingan natijalardan muammoning yechimini talqin qilish

Grafik (obrazli) modellar

- rasm
- sxema
- diagramma
- fotosurat

Belgili modellar


- infografika
- jadvallar
- formula
- xarita

va baholashda foydalana olish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Aslida, matematik savodxonlik o'quvchidagi bir qancha ko'nikmalarni baholaydi. U hodisalarni tavsiflash, tushuntirish va oldindan aytib berish uchun tushunchalar, algoritmlar, faktlar va vositalarni o'z ichiga oladi. U insonlarga matematikaning olamdagi o'rnini tushunishga hamda yaratuvchan, qiziquvchan va o'zini o'zi

tahlil qiladigan XXI asr fuqarolariga zarur bo'lgan asoslangan hukm va qarorlar qabul qilishga yordam beradi.⁷⁵

Ko'rinib turibdiki, XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan 4 K modeli talablari o'z-o'zidan amalga oshiriladi. O'quvchilarining ona tili darslarida integratsiyalash holda ta'lim olishlarida modellashtirish metodi yordam beradi. Bunda o'quvchilar ona tili, matematika, tabiiy fanlar, tasviriy san'at, tarbiya, tarix fanlariga oid bilimlarini yuzaga chiqarish, mustahkamlash, qiyoslash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

7-sinf ona tili darsligidagi diagrammalar, jadvallar, xaritalar o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishida qulay usullardan biridir. Masalan, "Ijtimoiy tarmoqlar" mavzusida berilgan quyidagi topshiriq yuzasidan ta'lim oluvchini yo'naltirish yo'llarini aniq qilib belgilab olish muhimdir.



Avvalo, o'quvchilar diagrammadagi ma'lumot bilan tanishadilar, so'ng ularning tahlilini qilish uchun mushohada yuritadilar, ya'ni necha xil yangiliklarga qiziqish berilganligi, ularning ko'rsatkichlari necha foizligi, bir-biridan qancha farq qilishi, farq qilish sabablari va xulosalari aniqlanadi. Shundan keyin axborot uzatuvchi modeldan foydalangan holda og'zaki matn tuzishlari yoki yozma matn tuzishlari mumkin. Bunda o'quvchi diagramma bilan ishlaydi, ma'lumot oladi, qiyoslaydi, tahlil qiladi, xulosa chiqaradi va axborot beruvchi yozma matn tuzadi.

Topshiriqning ketma-ket bajarilishi quyidagicha bo'lishi mumkin.


1. Ma'lumot qanday shaklda berilgan? (diagramma)
2. O'zbekistonda ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilarining yangiliklarga qiziqishlari qanday ko'rinishlarda? (muntazam ravishda yangiliklarni kuzatuvchilar, yangilik saytlaridagi ayrim sahifalardan foydalanuvchilar, tasodifiy kelgan xabarni

⁷⁵ "PISA" XALQARO DASTURIDA MATEMATIK SAVODXONLIK Dilfuza Meliyevna Maxmudova, TVCHDPI, Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

ochib ko'ruvchilar, do'stlardan kelgan xabarni ochib ko'ruvchilar, biror mavzuga doir yangilik izlovchilar)



Berilgan diagramma bilan tanishing. Uni matn ko'rinishida yozing.



3. O'zbekistonda ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilarining yangiliklarga qiziqish ko'rsatkichlari necha foizni tashkil etadi?

- (- muntazam ravishda yangiliklarni kuzatuvchilar – 87%
- yangilik saytlaridagi ayrim sahifalardan foydalanuvchilar – 83%
- tasodifiy kelgan xabarni ochib ko'ruvchilar – 72%
- do'stlardan kelgan xabarni ochib ko'ruvchilar – 66%
- biror mavzuga doir yangilik izlovchilar – 52%)

4. Bu ma'lumotlarni bir-biriga qiyoslang. (muntazam ravishda yangiliklarni kuzatuvchilar yangilik saytlaridagi ayrim sahifalardan foydalanuvchilardan 4% ko'p; tasodifiy kelgan xabarni ochib ko'ruvchilar bilan do'stlardan kelgan xabarni ochib ko'ruvchilarning farqi 6% va h.)

5. Siz qaysi toifaga kirasiz? Nega?
6. Shu kabi ma'lumotlarni ketma-ketlikda og'zaki bayon eting.
7. Matematik qanday terminlardan foydalandingiz?
8. Diagramma orqali nima haqida to'liq ma'lumotga ega bo'ldingiz?


Shu kabi topshiriqlar ustida ishlashlari maqsadga muvofiq bo'ladi. Ko'rinib turibdiki, o'quvchilar ona tili faniga tegishli gap tuzish, qo'shimchalarni, so'zlarni o'rinli qo'llash, fikrni izchil davom ettirish malakasiga ega bo'lsa, matematika faniga tegishli diagramma bilan ishlash ko'nikmasiga ega bo'ladi, tabiiy fanga tegishli ijtimoiy munosabatlar (zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish)ni tahlil qiladilar, tarix faniga bog'lab qadimgi axborot almashish usullari haqida bilib oladilar.

Xarita ko'rinishidagi modellar, ayniqsa, o'quvchilar uchun ham qiziqarli, ham juda foydali. 7- sinf ona tili darsligidagi "Turon yo'lbarisi" mavzusida berilgan xaritaning afzalligi u bilan qay tarzda ishlashga bog'liq. Bunda o'quvchilarda insoniyat oldidagi ekologik muammolar yoritilgan matn

mazmunini anglash, xulosa chiqarish, muhokama matnini yaratish kabi ko'nikmalarni xaritali savol asosida shakllantirish mumkin.

Bu xaritali savol orqali o'quvchi yozuvsiz xarita bilan ishlashni, faktlarni qiyoslashni, farqning sababi va oqibatlarini, yechim uchun taklif-mulohazalarini bildirishni, hudud haqidagi qo'shimcha ma'lumotlarni berishni o'rganadi. Yuqoridagi tavsiyalar asosida o'qituvchilarning darsni samarali tashkil qilishlariga ko'mak beradi.

Chunki XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirishga oid 4K yondashuv aynan shunday modellashtirish orqali Dunyoning rivojlangan davlatlarida ta'lim-tarbiya jarayonining natijasini qiyosiy taqqoslash, o'quvchilar bilimining rivojlanish dinamikasini hamda ta'lim sifatini muntazam tahlil qilib borish maqsadida xalqaro tadqiqotlar takomillashib bormoqda. qulay amalga oshiriladi.



PISA o'qish savodxonligi, matematik savodxonlik, tabiiy-ilmiy fanlar savodxonligi yo'nalishlarini o'z ichiga olishini ta'kidlagan holda shuni aytish kerakki, har bir yo'nalishda axborotli ma'lumotlarning matn shaklidagi ko'rinishlari mavjud. O'qish savodxonligining muhimligini, matn shaklida berilgan ma'lumotlarni tushuna olishi va ularga reaksiya bera olish ko'nikmasini, o'qigan ma'lumotlaridan hayotiy vaziyatlarda foydalana olish, bilim va imkoniyatlarini oshira olish ko'nikmalarini rivojlantirishning muhim omili ekanligini anglash mumkin. Tayanch ko'nikmalar, ya'ni o'qish va yozish ko'nikmalari, matematik savodxonlik, tabiiy-ilmiy savodxonlik, AKT savodxonligi, moliyaviy savodxonlik, madaniy va fuqarolik savodxonligini rivojlantirishda modelli matnlar bilan ishlash shaxsning turli hayotiy vaziyatlar va masalalar ustida matematik mulohaza yuritish, berilgan muammoni matematika yordamida ifodalay olish, muammoni yechishda matematikani qo'llay olish va olingan natijalardan muammoning yechimini talqin qilish imkoniyatini beradi. O'z navbatida, matnlardagi modellar hayotning turli sohalarida duch kelishi mumkin bo'lgan vaziyatlarni matematik savodxonlikka tayanib tahlil qilinishida muhimligi aniq.

O'qish savodxonligi yo'nalishida axborot uzatuvchi modellarning qo'llanilishi, ya'ni matnning mazmun-mohiyatini yoritib berishga mo'ljallangan diagrammalar, rasmlar, kartalar, grafik va jadvallar o'quvchida berilgan matnni tushunishi, mazmuni haqida fikr yuritish, mulohaza yuritishi, o'qiganlari haqida o'z fikrini bera olishi kabi kompetensiyalarni shakllantiradi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmon
2. Ona tili, 7-sinf uchun darslik ,K. M. Mavlonova. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi,2022. –224 b
3. <https://nces.ed.gov/surveys/pisa/>
4. "PISA" xalqaro dasturida matematik savodxonlik, Dilfuza Meliyevna Maxmudova, TVCHDPI, Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

ARALASH TA'LIM MODELLARI VA UNI SAMARALI AMALGA OSHIRISH TAMOYILLARI

Xasanova Mohichexra Farxod qizi – Chirchiq davlat pedagogika universiteti 2-bosqich talabasi

E-mail: xasanovamohichehra668@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta'lim tizimida aralash ta'lim tushunchasi, uning turlari va afzalliklari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: aralash ta'lim, Blended Learning, ta'lim sohasi

Kirish. Respublikamizda ta'lim tizimini takomillashtirish bo'yicha bir qator ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi va ta'lim jarayonida elektron axborot ta'lim muhitini yaratish kabi masalalar dolzarb vazifalar qatoriga kiritildi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi interaktiv darsliklar, onlayn platformalar, elektron darslar va videolar o'quvchilarga darslarni onlayn o'zlashtirish imkonini beradi.

Ta'lim va rivojlanish haqida gap ketganda, nogironligi bo'lgan talabalarni qo'llab quvvatlaydigan inklyuziv ta'lim amaliyoti va onlayn ta'lim sifatli ta'lim olish uchun ajoyib tanlov ekanligini bilamiz. Onlayn ta'limning ko'payishi talabalarga istalgan vaqtda, istalgan joydan bilim olishiga imkon yaratadi. Aksariyat o'qitish usullarida bo'lgani kabi onlayn o'qitish ham o'zining ijobiy va salbiy tomonlariga ega. Aralash ta'lim rasmiy o'quv dasturi bo'lib, unda talabalar qisman bo'lsa ham elektron, onlayn formatda o'qitiladi¹. **Blended Learning** yoki **aralash ta'lim** – bu an'anaviy yuzma-yuz o'qitishni onlayn ta'lim komponentlari bilan birlashtirgan ta'lim yondashuvidir². Blended Learning 3 ta ustunga asoslanadi :

1. Masofaviy ta'lim – bu usul o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasidagi masofaviy aloqalarni onlayn ma'ruzalar, video-konferensiyalar, forumlar va raqamli o'quv materiallariga kirishni o'z ichiga oladi.

2. Sinfda o'qitish (yuzma-yuz ta'lim) – yuzma-yuz ta'lim sinf sharoitida o'tkaziladigan an'anaviy ta'lim shaklidir. Bu usul sinfda o'quvchilar, o'qituvchilar bilan muloqotda bo'lish va darhol fikr-mulohazalarni bildirish, muhokama qilish imkonini bildiradi.


3. Onlayn ta'lim – bu usulda o'quvchilar ta'limni onlayn platformalar va resurslardan foydalangan holda internet orqali oladi.

Aralash ta'lim onlayn ta'lim faoliyati va resurslarni an'anaviy yuzma-yuz o'qitish bilan birlashtirish orqali ushbu 3 ta komponentni birlashtiradi. Onlayn va masofaviy ta'lim o'rtasidagi asosiy o'xshashlik shundaki, "Masofaviy ta'lim" tushunchasi o'quvchi va o'qituvchi o'rtasida masofa mavjudligini, "Onlayn ta'lim" esa internetga ulangan gadjetlar yordamida bilim va ko'nikmalarni egallashni ko'rsatadi. Yaqinda Jenevada bo'lib o'tgan "Migration Challenge" startaplar tanlovida muhojirlar hayotini yengillashtirishga qaratilgan 500 dan ortiq startaplar qatnashdi.

- Hamyurtlarimiz o'zining minglab yoshlar hayotining o'zgarishiga sabab bo'layotgan Mohirdev Praktikum onlayn IT kurslar platformasini;

- 500 mingdan ortiq insonlarga chet tillarini o'rgatayotgan Ibrat Farzandlari;

- ish beruvchilar va ish qidiruvchilarni bog'laydigan loyihalarini namoyish qilib tanlovda ga'labani qo'lga kiritdi. Hozirgi kunda Mohirdev platformasida 9000 dan ziyod muhojirlar zamonaviy kasblarni o'rganib kelayotgani ham alohida e'tirofga loyiq³. Bundan ko'rinib turibdiki, onlayn ta'lim yurtimizni yangi marralarga erishishida yuksak imkoniyatlarni ochdi. Blended Learning uslubi ko'plab modullarni o'z ichiga oladi. Blended Learning ta'lim modellarining eng keng tarqalgan 5 turi:



1. Qaytarilgan model. Qaytarilgan modelda an'anaviy sinfdagi o'qitish teskari bo'ladi. O'quvchilar, birinchi navbatda, darsdan tashqarida, odatda,



video ma'ruzalar, o'qishlar yoki onlayn modullar orqali ta'lim mazmuniga duch kelishadi. Keyin darsdagi vaqt faol o'quv faoliyati, muhokamalar, guruh loyihalari va oldindan o'rganilgan materialni mustahkamlovchi va qo'llaydigan mashqlarga ajratiladi. O'zgartirilgan model yuzma-yuz mashg'ulotlarda ko'proq shaxsiylashtirilgan va interaktiv o'rganish imkonini beradi va talabalarga o'z tezligida o'rganish uchun moslashuvchanlikni ta'minlaydi.

2. Yuzma-yuz haydovchi modeli. Yuzma-yuz haydovchi aralash o'qitish modeli an'anaviy sinfdagi mashg'ulotlarga eng yaqin hisoblanadi, chunki mashg'ulotlarning aksariyati o'qituvchi rahbarligida sinfda o'tkaziladi. Ushbu yondashuv yangi tushunchalarni egallashda qiynalayotgan yoki o'quv dasturidan ortda qolayotgan o'quvchilarga individual, shaxsiy yordam beradi.

3. Aylanma model. Rotatsion modelda o'quvchilar yuzma-yuz o'qitish, onlayn faoliyat, kichik guruhlardagi muhokamalar va mustaqil ta'lim kabi turli xil ta'lim usullari o'rtasida almashadilar. Bu aylanishlar qat'iy jadval bo'yicha (masalan, kunlik yoki haftalik) yoki o'quvchilarning yutuqlariga asoslangan bo'lishi mumkin. Bu moslashuvchanlikni taklif qiladi va turli xil o'rganish uslublariga javob beradi, bu esa xodimlarga ma'lum bir vaqtda ularning ehtiyojlariga eng mos keladigan rejimda ishlashga imkon beradi.

4. Flex model. Moslashuvchan model o'quvchilarga muhim avtonomiya va ularning o'rganish yo'lini nazorat qilish imkonini beradi. U onlayn ta'limni kerak bo'lganda shaxsan yordam bilan birlashtiradi. Moslashuvchan ta'lim platformasidan foydalangan holda, o'quvchilar onlayn kontent va resurslarga qachon va qayerda kirishlarini tanlashda moslashuvchanlikka ega bo'lib, uni mustaqil ravishda o'rganish uchun mos qiladi. O'qituvchilar kerak bo'lganda o'quvchilarga yordam berish, ularga material bo'ylab harakat qilish va har qanday muammolarni hal qilishda yordam berish uchun mavjud.

5. Boyitilgan virtual model. Boyitilgan virtual model, birinchi navbatda, davriy yuzma-yuz sessiyalar bilan onlayn o'rganish tajribasi. Ta'limning ko'p qismi virtual muhitda sodir bo'ladi, lekin o'quvchilar amaliy mashg'ulotlar, baholashlar yoki hamkorlikdagi loyihalar uchun belgilangan vaqtda jismoniy mashg'ulotlarga yoki seminarlarga qatnashadilar.

Ushbu model onlayn ta'limning moslashuvchanligini shaxsan o'zaro ta'sirning afzalliklari bilan birlashtiradi, bu o'quvchilarga individual ta'lim olish va guruhda ishtirok etish imkoniyatlarini ta'minlaydi. Aralash ta'limning asosiy g'oyasi onlayn ta'limning afzalliklaridan foydalanishdir.

Blended Learning ta'limoti turli sohalarda keng tarqalgan usuldir va ko'plab mamlakatlarning maktablar va oliy o'quv yurtlarida Blended Learning uslubi bilan ishlashadi. Yurtimizdagi ko'plab universitetlar ushbu usuldan foydalanishyapti, talabalar onlayn darslardan, interaktiv platformalardan va guruh darslaridan foydalanib darslarni o'zlashtirmoqda. Bu uslub ta'lim sohasida o'quv resurslarini samarali ishlatish imkonini beradi, ya'ni talabalar



mashqlar va testlar orqali o'z bilimlarini mustahkamlashlari mumkin. Blended Learning usulining afzalliklari juda katta. Ammo uning kamchiliklari ham mavjud, jumladan ushbu uslub internet va texnologiyalar bilan bog'liq bo'lganligi uchun ayrim hududlarda tezkor va barqaror internet mavjud emasligi, axborot texnologiyalaridan foydalana olmaydigan odamlar foydalanayotganda ko'proq vaqtlarini sarflashlari mumkin. IT sohasining rivojlanishi va kommunikatsiya texnologiyalarini jadal ravishda o'sishi Blended Learning uslubidan keng foydalanish imkonini yaratadi.

Xulosa: Xulosa qilib shuni bayon qilamizki, Blended Learning uslubi talabalarni mustaqil onlayn ta'limdan foydalanib har qanday chet tillari, zamonaviy kasblarni va elektron ta'limning usullarini o'rganish imkonini beradi. Bu uslub o'zbek ta'lim samaradorligini, ta'limning interfaolligini oshirishga va o'quv jarayonining samarali bo'lishiga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. <https://www.learnupon.com/blog/learning-and-development-strategy/>
2. <https://poe.com/chat/2tvvvvxy4e9w26f2hwi>
3. [ournal.fledu.uz/wp-content/uploads/sites/3/2023/02/aralash-talim-modellari-va-imkoniyatlari.pdf](https://journal.fledu.uz/wp-content/uploads/sites/3/2023/02/aralash-talim-modellari-va-imkoniyatlari.pdf)
4. Thinking Skills Assessment Oxford, 2008-2019, (UCLES).
5. Xasanova, M.F(2024) "Boshlang'ich sinf o'quvchilariga matematika fanini o'rgatishda didaktik o'yinlardan foydalanib dars o'tish". "Fan va texnika taraqqiyotida intellektual yoshlarning o'rni" mavzusidagi respublika ilmiy- amaliy anjumani 114-118-betlar
6. [https://kpfu.ru/portal/docs/F1827481577/Chto.takoe.BlendedLearning._s meshannoe.obuchenie_.pdf](https://kpfu.ru/portal/docs/F1827481577/Chto.takoe.BlendedLearning._s_meshannoe.obuchenie_.pdf)
7. <https://sudex.krsu.edu.kg/index.php>

SHAXS ISTE'MOL MADANIYATI VA ISTE'MOLCHILARNING XATTI-HARAKATLARIDA KREATIVLIK

Xaydarov Asliddin Nizamitdinovich

– O'zbekiston-Finlyandiya
pedagogika instituti dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada iste'molchilarda kreativ qarorlarini qabul qila olish ko'nikmasi shakllanishi, ularning axloqiy va estetik bilimli shaxs bo'lib kamol topishi hamda sog'lom fikrli va kreativ fikrlaydigan shaxs bo'lib shakllanish xususiyatlari yoritilib o'tilgan. Bundan tashqari ishlab chiqarish salohiyatining ortishi, iste'molchilarda hayotga ijodiy munosabatni



shakllantirish, shuningdek, respublikamizda iste'molchilar huquqlarining o'sishi va iste'mol madaniyatining jamiyat va shaxs hayotidagi o'rni ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: *iste'mol madaniyati, shaxsdagi kreativlik, bilim, yuksaltirish, sifatiy o'zgarish, iste'molchilar huquqlari, tanlov, iqtisodiy munosabat, yosh xususiyat.*

Jamiyat taraqqiyotining dastlabki davrlarida kishilar ongining rivojlanishi, shaxsdagi kreativlik, ijtimoiy munosabatlarning kengayishi moddiy va ma'naviy ehtiyojlarning vujudga kelishiga olib keldi. Natijada jamiyat a'zolarining ijtimoiy hayoti tezlashdi va shaxslararo munosabatlar kuchayib, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayot yuksala bordi.

Tadqiq etilayotgan mavzu doirasida shaxs iste'mol madaniyati va iste'molchilarning xatti-harakatlarini tahlil qilish, ularning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa iste'mol jarayonida ishlab chiqaruvchi, iste'molchi madaniyati va ularning xatti-harakatlari eng asosiy masala hisoblanadi.

Hayotimiz davomida turli mahsulotlarni iste'mol qilish madaniyati uning foydali xususiyatlarini ajratib olish imkoniyatini yaratadi. Har bir holatda mahsulotlar haqidagi xabarlar shartli tartibda mahsulotlarni samarali ishlatish shartlari va qoidalarini o'z ichida mujassam etishi lozim.

Shaxs iste'mol madaniyati mahsulotga jamiyat mehnati bilan tashkil etilgan va tartibli munosabatni talab etadigan predmet singari hamda uni boshqarish jarayonida ilmiy-amaliy bilimlarni qo'llashni talab etadigan boshqaruv obyekti sifatida munosabatda bo'lish demakdir.

Inson xatti-harakatlarining asosiy sabablari ehtiyojlardir. "Inson harakatlarining motivatsion tarkibi ko'p funksiyali bo'lib, odamlarning hatti-harakatlarida har xil turtki turtki-ehtiyojlar turlicha bo'lgan farqlarni keltirib chiqaradi" [1, 43]. Iste'molchining namoyish etadigan xatti-harakatlarini belgilovchi omili ikkilamchi ehtiyojdir, bu ko'pincha sotib olishda ham o'z xatti-harakatlarini namoyish qilish uchun juda kuchli motivatsion asosdir.

Iste'mol atamasini etimologik nuqtayi nazardan quyidagicha izohlash lozim. "Iste'mol" fenomeni "zarur, foydali" tushunchalariga yaqin, ya'ni iste'molchi obyektida ma'lum, amalda mavjud bo'lgan foydali fazilatlar mavjudligini anglatadi [2, 4]. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, iste'molchilik amaliyoti nafaqat bizning mamlakatda, balki butun dunyoda paydo bo'lgan obyektiv jarayondir. Hozirgi kunda ilmiy adabiyotlarda iste'mol ko'p jihatdan moddiy manfaatlarni qondirish uchun hayotning ma'nosini kamaytiradigan qadriyatlar va g'oyalar tizimidir deb baholanmoqda [3, 162].

Hadislarda "Savdoda ko'p qasam ichmanglar, chunki qasam molni o'tkazadi, lekin barakasini ketkazadi" – deb aytilganidek, bozordagi sotuvchi va oluvchi o'rtasida *barakasini bersin, boriga baraka, buyursin, roziman, yaxshi*



kunlarga ishlating, degan ibratli, keng ma'noli so'z va birikmalar shakllangan. Buning tagida katta hikmat yashiringan [4, 75]. Rozichilik har ikki tomon uchun eng maqbul va foydalidir. Rostlik haqiqatni ko'rsatib, mahsulot sifati va kamchiligiga ochiq, xolisona baho beradi. "Rostgo'ylik jamiyatning barqarorligi va jamiyat a'zolari o'rtasidagi ishonchni ta'minlashga xizmat qiladi" [5, 387].

Bugungi taraqqiy etgan jamiyatda iste'mol qilish amaliyoti bu – nafaqat tovarlarni sotib olish imkoniyati, balki ijtimoiy munosabatlarning shakllanish tamoyili hamdir. Bunday jamiyatda iste'molchi madaniyatiga katta ahamiyat qaratilib, iste'mol jarayonining barcha sohalarida, iste'mol tovarlarini sotib olishdan tortib, to ommaviy madaniyat mahsulotlarini iste'mol qilishgacha (kino sanoati, yangi texnologiyalar va boshqalar) bo'lgan jarayonda iste'molchi ehtiyoj uchun zarur mahsulotni to'g'ri tanlay olishi, foydalanishi iste'mol madaniyati shakllanishiga bog'liqdir. Iste'mol madaniyati – insonning ma'naviy yuksalishi, kreativ va innovatsion tafakkurga ega, hamda sifat xususiyatlarini o'zida aks ettiradi.

Zamonaviy jamiyat (iste'molchilik jamiyati)da iste'mol mafkurasi insoniyat ongida yetakchi o'rinni egallashiga yo'l qo'ymasligi zarur, negaki moddiy boyliklarni iste'mol qilish inson hayotining maqsadi va mazmuni bo'lmasligi, aksincha, uning ijodiy o'zini-o'zi anglashi va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish vositasi bo'lishi kerak.

Xususan, mamlakatimizda ham bu borada siyosiy institut sifatida davlatning o'rni katta. Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish uchun milliy siyosatni rivojlantirish, iste'molga oid ta'lim konsepsiyasini yaratish hamda jamiyat a'zolari ongida iste'mol madaniyatini shakllantirishdir.

Sanoatlashgan jamiyatdan keyingi bosqichda shaxsning ijodiy fikrlashini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. "Iste'mol madaniyati kishilik jamiyati rivojlanishi jarayonida iste'mol haqida ajdodlarimizdan qolgan qadriyatlarimizni asrab-avaylash, o'zgartirish va boyitish, shuningdek, ularni kelajak avlodlarga transformatsiya qilishni o'zida mujassamlashtiradi" [6, 61]. Shuni alohida aytish lozimki, so'nggi ikki asr davomida moddiy farovonlikning jadal o'sishi insonlarga iste'molning qulay darajasini ta'minlandi.

Iste'molning barcha shakllari va turlari iste'mol qilishga asoslangan bo'lib, uni inson mavjudligining asosiy maqsadi va ma'nosi deb atash mumkin. Iste'molchilik iste'molning shakli yoki hosilaviy komponenti sifatida namoyon bo'ladi. Zamonaviy jamiyat vaqti-vaqti bilan iste'molchi va iste'molning o'rtasida juda oz sonli chegarani vujudga keltiradi. Ana shu chegaradan o'tsa, inson nimani iste'mol qilish mumkin-u va nima uchun iste'mol qilishni lozimligini tushunmay qo'yadi. Biroq bugungi kunda olimlar tomonidan ijtimoiy xatti-harakatlarning ushbu turiga, ya'ni nimani iste'mol qilish kerak, nima uchun iste'mol qilish kerak va qancha iste'mol qilish kerakligi masalasiga oqilona izoh beriladi. Albatta, bunda jamiyat a'zolarining ehtiyoj va xohish-



istaklari inobatga olinishi lozim. Bunda iste'mol madaniyatining asosi, uning yadrosi hayot yo'nalishlari ma'nosini belgilaydigan qiymatni belgilash nihoyatda muhimdir, ammo u faqat faoliyatda, iste'molda namoyon bo'ladi va u orqali iste'molchilar madaniyatining mohiyatini tushunishga yaqinlashamiz.

Shunday qilib, XXI asrda asta-sekin iste'mol qilish zarurati o'ziga xos qaramlikka aylanadi. Iste'mol inson hayotining barcha sohalariga kirib boradi, u nafaqat mahsulotlarni iste'mol qiladi, balki normal hayotni ta'minlash uchun zarur bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari, shuningdek, bir qator xizmatlar, madaniyat va san'at obyektlari hamda turli axborotdan foydalanadi. Iste'mol asta-sekin mafkuraga aylanmoqda, bunda ehtiyojni oshirish uchun yo'naltirilgan, shakllantirilgan ehtiyoj jamiyat ongini boshqarishning eng samarali vositalaridan biriga aylanadi. Iste'mol talabdan oldinroq, muhimroqdir – iste'molni ko'paytirish uchun ehtiyojlar shakllanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ортега-и-Гассет Х. Восстание масс. – М: ООО “Издательство АСТ”, 2002. – С. 43. (509).
2. Фасмер М. Этимологический словарь русского языка: Пер. с нем. — М.: Прогресс, 1973. – С. 4- 855.
3. Лазинин И.В. Потребление как феномен культуры: современная специфика. Вестник Ставропольского государственного университета. Выпуск 76 (5) /2011. – С. 162.
4. Мухаммад пайғамбар қиссаси. Ҳадислар. – Т.: “Камалак”, 1991. – Б. 75.
5. Ислом. Энциклопедия. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2017. –Б. 387.
6. Батаева Е.В. Фланерство и видеомания: современные и постмодерные визуальные практики // Вопросы философии. №11, 2012. – С. 61-68.
7. Nizamitdinovich, Xaydarov Asliddin. "O'zbekistonda barpo etilayotgan III Renissans jarayonida yoshlar iste'mol madaniyatini yuksaltirishning innovatsion, pedagogik va didaktik jihatlari". 57.4 (2024): 274-277.

YUQORI SINF O'QUVCHILARIDA O'QUV MOTIVINING TA'LIMDAGI AHAMIYATI

Xodjayeva Dilnovoz Djumoyevna – O'zbekiston
Milliy universiteti tayanch doktoranti
E-mail: dilnavozxodjayeva027@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan motiv va motivatsiyaning ilmiy o'rganilganligi tavsiflangan. Bundan tashqari



psixologlarning o'quv motivining ahamiyati va klassifikatsiyasi yoritib berilgan. Psixolog olimlar tomonidan o'tkazilgan o'quv motivi bo'yicha tadqiqotlar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Motivatsiya, o'quv motivi, mexanizm, ta'lim, faoliyat, xulq-atvor, ustanovka.

Inson hayoti davomida qandaydir faoliyatni amalga oshirar ekan, faoliyatni samarali bo'lishi insonning mazkur faoliyatga nisbatan intilish, xohish yoki istaklariga bog'liq bo'ladi. Bu o'rinda motivatsiya masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Motivatsiya keng ma'noda inson hayotining (uning xulq-atvori, faoliyatining) murakkab ko'p qirrali boshqaruvchisi deb qaraladi. Motivatsiya – insonni faoliyatga undashning murakkab, ko'p darajali tizimi bo'lib, u o'zida ehtiyojlarni, motivlarni, qiziqishlarni, ideallarni, intilishlarni, shart-sharoitlarni, emotsiyalarni, normalarni, qadriyatlarni mujassamlashtiradi.

Motivatsiya – murakkab tuzilma, faoliyatni harakatlantiruvchi kuchlar majmuasi bo'lib, u o'zida mayllar, ideallar ko'rinishida namoyon qiladi va inson faoliyatini bevosita aniqlab, boshqarib turadi. Motivatsiya – odamni faol faoliyatga undovchi sabablar majmuidir. Motivatsiya tushunchasini turlicha ifodalash, motivatsiyaning mazmuni va energetik tomoni haqidagi ma'lum savol psixologlar tomonidan ifodalab berilgan. Xorij psixologlari uchun motivatsiya tushunchasini xarakterli aniq bir tomonlama energetik faollik manbayi sifatida qaraladi, ular mazmunli tomonga e'tibor bermay, aniq mexanizmlar sifatida energiya va xulq-atvorga taqsimlaydilar [1, 39-b].

Motiv va motivatsiya muammosi jahon psixologiyasida turli tuman nuqtayi nazardan yondashish orqali tadqiq qilib kelinmoqda. Uzoq va yaqin chet ellarda o'ziga xos psixologik maktablar vujudga kelgan bo'lib, ularning nazarida ilmiy pozitsiyalar va konsepsiyalar mohiyati jihatdan farqlanuvchi g'oyalar va yo'nalishlar mujassamlashgan. Rus psixologiyasi namoyondalari K.D.Ushiniskiy, I.M.Sechenov, I.P.Pavlov, V.M.Bexterev, A.F.Lazuriskiy, V.N.Myasishev, A.A.Uxtomiskiy, D.N.Uznadze, S.L.Rubinshteyn, A.N.Leontev, P.M.Yakobson, L.I.Bojovich va boshqalar mazkur muammo yuzasidan tadqiqot ishlari olib borganlar.

O'quv motivatsiyasi – bu bolani ta'lim muassasasiga borishga undaydigan, shuningdek, uning istaklari, maqsadlari va ta'lim faoliyatidagi motivlarini belgilaydigan narsadir. Uning rudimentlari bolalikdan topiladi: go'daklik va erta bolalik davrida ota-onalar bolani hamma narsani o'rganishga undaydilar, bu bolaning asosiy motivatsiyasi kattalarning ma'qullashi va qo'llab-quvvatlashidir. Maktabgacha yoshdagi davrda ta'lim motivatsiyasi kattalar tomonidan ham shakllanadi: tarbiyachilar, ota-onalar, o'qituvchilar. Yuqori maktabda o'quvchilarning o'quv motivatsiyasi ko'p jihatdan ota-onalar va o'qituvchilarga bog'liq. O'qishning butun davri davomida o'quvchilarning o'rganish motivlari juda tez-tez o'zgarishi mumkin.



I.A.Zimnyaya [3] o'quv motivatsiyasi ko'plab omillar bilan belgilanadi: birinchidan, ta'lim muassasasi va undagi ta'lim faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari; ikkinchidan, ta'lim jarayonining o'zini tashkil etish; uchinchidan, o'quvchining o'ziga xos xususiyatlari; to'rtinchidan, o'qituvchining o'ziga xos xususiyatlari va o'quvchiga munosabati; beshinchidan, o'quv predmetining xususiyatlariga bog'liq. Yuqori maktab yoshida o'quvchilarning qiymat-semantik sohasi, shuningdek, o'ziga va boshqa odamlarga nisbatan ichki pozitsiyasi shakllanadi. Ta'lim olish uchun o'z motivlarini rivojlantirish va anglash mavjud. O'qishning asosiy motivlari kasbiy o'zini o'zi belgilash ta'siri ostida shakllanadi.

Dastlab, usul N.V.Matyuxina tomonidan ishlab chiqilgan[4]. Ta'limning 9 motivi:

- burch va mas'uliyat;
- o'z taqdirini o'zi belgilash va o'z-o'zini takomillashtirish;
- farovonlik;
- birlashmalar;
- obro';
- muvaffaqiyatsizlikka yo'l qo'ymaslik;
- ta'lim va kognitiv (ta'lim mazmuni);
- ta'lim va kognitiv (o'quv jarayoni);
- muvaffaqiyatga erishish.

Keyin N.T.Badmayeva 2 ta qo'shimcha o'qitish motivlarini qo'shib, metodikani o'zgartirdi: kommunikativ va ijodiy o'zini o'zi anglash. O'rta maktab o'quvchilari o'rtasida o'quv motivatsiyasini shakllantirish zamonaviy maktabning asosiy vazifalaridan biridir. Ta'lim faoliyati subyektining motivatsion sohasi yoki uning motivatsiyasi nafaqat ko'p komponentli, balki tashvish va ko'p darajali bo'lib, bu nafaqat uni shakllantirish va hisobga olish, balki yetarli darajada tahlil qilishning o'ta murakkabligiga yana bir bor ishonch hosil qiladi. Maktab o'quvchilarining o'quv motivatsiyasini o'rganish uning o'z-o'zidan shakllanishining yetarli darajada emasligini, yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, faoliyat usullariga asosiy e'tiborni qaratgan holda, uni maqsadli bosqichma-bosqich rivojlantirishning fundamental imkoniyatlarini ko'rsatadi.

O'quv motivatsiyasini shakllantirish muammosi ta'lim va tarbiya kesishmasida joylashgan bo'lib, zamonaviy ta'limning eng muhim jihati hisoblanadi. Bu shuni anglatadiki, bu yerda o'qituvchining e'tibori nafaqat o'quvchi tomonidan olib boriladigan ta'limga, balki ta'lim jarayonida yuzaga keladigan o'quvchi shaxsini rivojlantirishga ham qaratilgan. Motivatsiyani shakllantirish – bu maktab o'quvchilarida jamiyatimizda qabul qilingan ideallar, dunyoqarash qadriyatlarini tarbiyalash, o'quvchining faol xulq-atvori bilan uyg'unlikda, ongli va amalda harakat qiluvchi motivlarning o'zaro



bog'liqligini, so'z va ishning birligini anglatadi. Muammoning dolzarbligi ta'lim mazmunini yangilash, maktab o'quvchilari o'rtasida bilim va kognitiv qiziqishlarni mustaqil egallash usullarini shakllantirish bo'yicha vazifalarni belgilash bilan bog'liq.

O'quv motivatsiyasi tashqi yoki ichki bo'lishi mumkin. Agar bola qiziqsa, u o'zi bilimga intiladi, agar yo'q bo'lsa, u mukofot va jazolarni o'ylab topishi kerak. Tashqi motivatsiya, odatda, o'smirlik davrigacha ishlaydi.

Bolalar va o'smirlarda o'qishga bo'lgan qiziqishni oshirish uchun o'rganilayotgan material quyidagilar bo'lishi kerak:

- Yangi, ammo "taniqli". Darslar hayratlanarli va ayni paytda oldingi mavzularga havolalar bo'lishi kerak.
- Har safar avvalgisidan biroz qiyinroq. Agar bola oson bo'lsa, u zerikishni boshlaydi. Uning tajribasiga asoslanib, vazifalarni asta-sekin murakkablashtiring.
- Turli xil. Darsliklar, vebinarlar, ekskursiyalar, tajribalar – qanchalik ko'p formatlar bo'lsa, o'rganish shunchalik qiziqarli bo'ladi.

1965-yilda amerikalik maktab o'qituvchisi Barbara Shiel qiziqarli tajriba o'tkazdi. Uning sinfi qiyin edi – 36 kishi, ularning aksariyati o'qishni xohlamadi. Kunlarning birida o'qituvchi har bir o'quvchi kun davomida o'zi xohlagan narsani qila olishini e'lon qildi. Ba'zi bolalar o'qidi, boshqalari chizdi, boshqalari yozdi. Kun oxirida o'qituvchi natijalarni sarhisob qildi: tajriba deyarli hammaga yoqdi, bolalar uni davom ettirishni xohlashdi.

Keyingi bosqichda bolalar ham harakat erkinligiga ega edilar, ammo Barbara ularga kun uchun reja tuzishga yordam berdi va ularga o'qituvchining kitobini berdi, u yerda bolalar o'z ishlarining natijalarini baholashlari mumkin edi. Keyinchalik u dastur borligini va siz bir hafta ichida ma'lum materiallardan o'tishingiz kerakligini tushuntirdi. Tajriba natijasida deyarli har bir kishi ichki ta'lim motivatsiyasini rivojlantirdi. Bolalar avtonomiyadan zavqlanib, natijalarga erishdilar.

1960-yillarda amerikalik psixolog Martin Seligman itlar bilan bir qator tajribalar o'tkazdi va o'rganilgan nochorlik fenomenini aniqladi. Hayvonlarga sog'liq uchun zararli bo'lmagan, ammo og'riqli elektr zarbalari berildi. Bir guruh itlar qo'lni bosish orqali buning oldini olishlari mumkin edi. Boshqasi yo'q. Keyin ikkala guruh ham oqim o'chirilishi mumkin bo'lgan vaziyatga joylashtirildi. Itlarning birinchi guruhi buni muvaffaqiyatli amalga oshirdi, ikkinchisi buni qilmadi. Shundan so'ng tajribalar odamlarda ko'p marta takrorlangan va natijalar bir xil bo'lgan. O'rganilgan nochorlik bolalar ko'pincha hech narsa qila olmaydigan vaziyatga tushib qolishganda paydo bo'ladi. Vaziyatni nazorat qila olmaslik tajribasi xotirada muhrlanadi, keyin biror narsa qilish mumkin bo'lganda bola vazifani yengishga harakat qilmaydi. Agar biror kishiga hech narsa qila olmasligini aytishsa, uning motivatsiyasi nolga tushadi. O'quvchi



doimo o'zi hal qila olmaydigan vazifaga duch kelsa, keyin amalga oshirilishi mumkin bo'lgan topshiriq berilsa, u hatto uni bajarishga harakat qilmaydi.

A.K.Markova motivlarni 2 ta katta guruhlariga ajratgan:

1. O'quv faoliyatining mazmuni va uni bajarish bilan bog'liq bilish motivlari.

2. O'quvchilarning boshqa kishilar bilan o'zaro ijtimoiy (social) motivlari.

Bu motiv turlari psixologik adabiyotlarda keng o'rganilgan [3, 27-b] Psixologlar tomonidan o'quv motivatsiyasining salbiy va ijobiy tomonlari mavjudligi ta'kidlab o'tilgan. Salbiy motivlar o'quvchi tomonidan agar u o'qimasa, ko'ngilsizlik, noqulaylik va noaniqlikni vujudga kelishi bilan bog'liq holda anglangan undovchilardir. Ijobiy motivlar o'qish bilan bog'liq ijtimoiy ahamiyatga ega burchni bajarish, muvaffaqiyat qozonish, bilim egallashning yangi usullarini o'zlashtirib olish, atrofdagilar bilan yaxshi munosabat o'rnatishda o'z aksini topadi. Bu xususiyat o'quvchi qancha vaqt mobaynida ushbu motiv tomonidan undalgan o'quv faoliyati bilan shug'ullana olishida namoyon bo'ladi [1], [2]. O'qituvchining diqqat markazida o'quv motivlarining namoyon bo'lish shakllari turishi kerak. Bu asosda o'qituvchi o'quvchi faoliyatining motivlari haqida dastlabki tasavvurga ega bo'ladi. Shundan so'ng motivlarning ichki xususiyatlari salbiy modallikka ega bo'lgan ko'ngilsizlikdan qochish kabi barqaror motivlarga e'tibor berishimiz lozim. Motivlarning yana bir muhim xususiyati uning vujudga kelish tezligida ifodalanish va kuchida o'z aksini topadi. Bu xususiyat o'quvchi qancha vaqt mobaynida ushbu motiv tomonidan undalgan o'quv faoliyati bilan shug'ullana olishida namoyon bo'ladi. Demak, ta'lim jarayonida ta'lim motivatsiyasining o'rni butun dunyo olimlari tomonidan tan olingan va har tomonlama o'rganilgan. O'quv faoliyati samaradorligini oshirishda o'quv motivatsiyasining roli benihoya kattadir. Nega deganda o'quvchilarning o'quv faoliyatlarini motivatsion soha orqali rivojlantirilsa, samarali natijalarga ega bo'lish mumkinligini olimlar o'z tadqiqotlarida isbotlab o'tganlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Jo'rayev N.S. "O'quv jarayonida bilimlarni o'zlashtirish va o'rganishning psixologik xususiyatlari" Pedagogik ta'lim. – Toshkent, 2006. 107 b.
2. Jo'rayev N.S. "O'quv motivlarini shakllantirish" — Toshkent: TDPU.2008.- 62 b.
3. Xaydarov F., Halilova N. "Umumiy psixologiya " Toshkent 2010. – 330b.
4. Гамезо М.В. Возрастная и педагогическая психология / М.В. Гамезо, Е.А. Петрова, Л.М. Орлова. М.: Педагогическое общество России, 200
5. Ковалев В.И. Мотивы поведения и деятельности. М., 1988.
6. Маркова А.К. Формирование мотивации учения / А.К. Маркова, Т.А. Матис, А.Б. Орлов. М.: Просвещение, 1990.



7. Орлов Ю.М. Потребности и мотивы учебной деятельности студентов мед. вуза / Ю.М. Орлов, Н.Д. Творогова, В.И. Шкуркин. М., 1976.

O'ZBEKISTONDA 4- VA 8- SINIF O'QUVCHILARINING MATEMATIKA VA TABIIY FANLARDAN TENDENSIYALARNI BAHOLASH XALQARO TIMSS-2023 TADQIQOTI TASHKIL ETILGANLIGI

Xolmirzaev Furkat Golibovich – Ta'limni
rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi
bo'lim boshlig'i

E-mail: furkatkholmirzayev@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada TIMSS 2023 tadqiqotining maqsad va vazifalari, TIMSS o'qish maqsadlarining ikkita keng o'lchovlari, matematika va tabiiy fanlarning kontent domenlari, tadqiqotni tashkil etishning huquqiy asoslari, test administrator va maktab koordinatorlariga mo'ljallangan treninglar hamda TIMSS-2023 tadqiqotining sinov jarayonlarini o'tkazish haqida ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: tadqiqot, matematika va tabiiy fanlar savodxonligi, kontent domenlari, trening, sinov jarayonlari, asosiy va tajriba-sinov.

Ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi (The International association for the evaluation of educational achievement, кейинги ўринларда – IEA) bilan Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi o'rtasida 2019-yil 25-iyundagi imzolangan shartnomaga asosan The Trends in International Mathematics and Science Study (TIMSS) – 4- va 8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy fanlardan tendensiyalarni baholash xalqaro tadqiqotining tajriba va asosiy sinov bosqichlari belgilangan muddatlarda o'tkazilishiga erishildi.

TIMSS xalqaro baholash dasturida 4- va 8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy fanlar bo'yicha egallagan bilim darajasi va sifatini solishtirish hamda milliy ta'lim tizimidagi farqlarni aniqlash bilan bir qatorda, qo'shimcha ravishda maktablarda matematika va tabiiy fanlar bo'yicha berilayotgan ta'lim mazmuni, o'quv jarayoni, ta'lim muassasasining imkoniyatlari, o'qituvchilar salohiyati, o'quvchilarning oilalari bilan bog'liq omillari o'rganiladi. **Tadqiqotning har to'rt yillik davriyligida uzluksiz ravishda ishtirok etish global miqyosda mamlakatimiz ta'lim tizimining samaradorligini kuzatib borish imkonini beradi.**



TIMSS dasturi o'zining birinchi tadqiqotini 1995-yilda boshlagan bo'lib, 2019-yilga qadar har to'rt yilda 1999, 2003, 2007, 2011, 2015 va 2019-yillarda tashkil etib kelindi. Navbatdagi 8-davriylik 2023-yilda amalga oshirildi.

Dasturda qatnashayotgan davlatlar soni ham tobora ortib bormoqda, buni 2015-yildagi TIMSS tadqiqotida 57 ta mamlakat qatnashgan bo'lsa, 2019-yilda bu ko'rsatkich ortib, 60 dan ortiq davlatni tashkil etganida ham ko'rish mumkin. TIMSS–2015 tadqiqot natijalariga ko'ra, AQSH, Singapur, Gonkong, Koreya Respublikasi, Yaponiya, Rossiya, Buyuk Britaniya kabi davlatlarning ta'lim tizimi eng yuqori ko'rsatkichlarni egallagan.

TIMSS tadqiqotida o'quvchilarning natijalarini baholash, bizning an'anaviy baholash tizimimizdan farqli ravishda, **ikkita o'lchov asosida amalga oshiriladi:**

- baholanadigan mavzu bo'yicha mazmunni bilishni o'lchash (mazmun sohasi o'lchovi);

- mavzu bo'yicha o'quvchilarning fikrlash ko'nikmalarini o'lchash (kognitiv o'lchov).

Matematika kontent domenlari;

- 4-sinf: sonlar, o'lchashlar va geometriya, ma'lumotlar bilan ishlash

- 8-sinf: sonlar, algebra, geometriya, ma'lumotlar bilan ishlash, statistika va ehtimollik.

Tabiiy fanlar kontent domenlari;

- 4-sinf: hayot haqidagi fan, fizika va Yer haqidagi fan.

- 8-sinf: biologiya, kimyo, fizika va Yer haqidagi fan.

- 4 va 8-sinflar uchun matematika va tabiiy fanlarning kognitiv domenlari: bilish, qo'llash va mulohaza yuritish⁷⁶.

Shuningdek, o'quvchilarning erishgan yutuqlarini o'rganishda barcha o'quvchilardan emas, balki ushbu qatlamning vakillari sifatida tanlab olingan o'quvchilardan obyektiv testlarni o'tkazish orqali baholanadi. Shuningdek, **maktab direktorlari, o'qituvchilar, o'quvchilar, hattoki ota-onalardan so'rovnomalar o'tkazilib**, maktabdagi ta'lim sifatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar, jumladan, maktab resurslari, o'quvchilarning ta'lim olishga oid qarashlari, o'qitish usullari hamda uy sharoitida o'quvchilarning bilim olishi qanchalik darajada qo'llab-quvvatlanayotganligiga doir qimmatli ma'lumotlar to'planadi.

⁷⁶ Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik ko'rishga mo'ljallangan axborotnomaning 4-soni, Abduvali Ismailov, Nizomjon Karimov, Gulchehra Tog'ayeva. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. ISBN 978-9943-6960-4-4. Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Nurxon ko'chasi, 21-uy.



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagi PF-27-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan dasturi⁷⁷, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2023-yil 6-martdagi 43-sonli buyrug'i⁷⁸ hamda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2023-yil 10-apreldagi 01-01/14-171-sonli xatlariga muvofiq Milliy markazi tomonidan ta'lim vazirliklari va hududiy boshqaruv idoralari bilan hamkorlikda umumta'lim muassasalarida TIMSS–2023 dasturining tajriba va asosiy sinov bosqichlari o'tkazildi.

Yuqoridagi topshiriqlarga asosan vazirlik huzuridagi Ta'lim sifatini baholashning xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazining **2023-yil 17-apreldagi 7-xs-sonli** buyrug'i ishlab chiqildi. Ushbu buyruq asosida sinovlarni tashkil etish jadvali tasdiqlangan bo'lib, unga ko'ra **2023-yil 17-apreldan 5-mayga** qadar representativlik asosida tanlab olingan 166 ta maktablarda onlayn shaklda o'tkazilib, unda 8800 nafar o'quvchilar ishtiroki ta'minlanib, ular matematika va tabiiy fanlar bo'yicha test topshiriqlariga javob berdilar hamda kontekst so'rovnomalar to'ldirdilar. Shu bilan birga, 166 nafar maktab direktori, 1035 nafar o'qituvchi va 4450 nafar ota-onalar (vasiyalar) ham maktab faoliyati, ta'lim berish va ta'lim olish muhiti hamda uydagi sharoitlar haqida so'rovnomalarni to'ldirdilar. Jarayonning xalqaro talablarga muvofiqligi IEA tomonidan belgilangan xalqaro kuzatuvchilar tomonidan kuzatib borildi.

Mazkur jarayonlarni tashkil etish bo'yicha Milliy markaz tomonidan tadqiqot mazmuni va tashkil etish masalalariga bag'ishlab, 2023-yilning o'zida jami **4 ta treninglar o'tkazilib**, mazkur treninglarda **42 nafar test administratori va 166 nafar maktab koordinatori** maqsadli tayyorlandi. Shuningdek, **1000 nafarga** yaqin matematika va tabiiy fan o'qituvchilarining TIMSS tadqiqoti haqida xabardorligi ta'minlandi.

** Treninglar haqida ma'lumot:*

Tadqiqot mazmuni va tashkil etish masalalariga bag'ishlab, Milliy markaz tomonidan jami 4 ta treninglar tashkil etildi, jumladan:

- 2023-yil 17-18-mart va 24-mart kunlari: "O'quvchilarni o'quvchiga bog'lash ma'lumotlarini shakllantirish" maktab koordinatorlari uchun mavzusida onlayn vebinar;⁷⁹

⁷⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagi PF-27-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi". <https://lex.uz/uz/docs/-6396146>.

⁷⁸ O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2023-yil 6-martdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi Farmoni ijrosi haqida" 43-sonli buyrug'i.

⁷⁹ TIMSS–2023 tadqiqotida ishtirok etadigan maktablar uchun seminar-trening tashkil qilindi <https://t.me/milliymarkaz/1477>.



- 2023-yil 8-aprel kuni "TIMSS xalqaro tadqiqoti doirasida o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini baholash" mavzusida matematika va tabiiy fan o'qituvchilari uchun onlayn vebinar;⁸⁰

- 2023-yil 11-12-aprel kunlari Test administratorlari uchun an'anaviy va gibrid shaklda trening;⁸¹

- 2023-yil 13-aprel kuni "TIMSS-2023 tadqiqoti asosiy sinov jarayonini tashkil etish" mavzusida hududiy boshqarmalar mas'ullarim AKT mutaxassislari va maktab koordinatorlari uchun onlayn trening.⁸²

Tadqiqot natijalarga binoan jami 8990 nafar o'quvchidan 8800 nafari qatnashib, ishtirok etish ko'rsatkichi 97,88 % ni tashkil etdi. Shundan 8800 nafar o'quvchining (97,88%) ma'lumotlari xalqaro ma'lumotlar bazasiga muvaffaqiyatli yuklandi.

Ma'lumot uchun: Xalqaro tashkilotlar tomonidan belgilangan minimal talabga ko'ra, o'quvchilarning ishtirok etish **ko'rsatkichi 86% dan kam bo'lmazligi lozim.*

Shu bilan birga, 166 ta **maktablarning direktorlari onlayn so'rovnomani to'ldirdi.**

Jarayonlar **163 ta maktablarning o'z binosida tashkil etilib**, faqatgina Namangan viloyati Pop tumani 47-maktabida internet tarmog'i mavjud emasligi sababli 4 km masofada joylashgan qo'shni 45-maktab binosidan foydalanildi, Xorazm viloyati Bog'ot tumanidagi 13-maktabida 2023-yil investitsiya davlat dasturi doirasida rekonstruksiya ishlari boshlaganligi sababli yaqin joylashgan 27-maktab binosidan foydalanildi hamda Samarqand viloyati Samarqand shahridagi 6-maktab binosida katta xona mavjud bo'lmaganligi sababli maktab hududiga yaqin joylashgan maktab binosidan foydalanildi.

Jarayonlarni 6 nafar milliy sifat nazoratchisi va 2 nafar xalqaro sifat nazoratchisi kuzatib bordi.

Eslatib o'tish joizki, **2022-yil 14-31-mart oyida TIMSS dasturining tajriba-sinov jarayonlari o'tkazildi**, bunda 29 ta maktablarning 2907 nafar 4- va 8- sinf o'quvchisi baholash va so'rovnomada, 353 nafar o'qituvchi, 29 nafar direktor va 1439 nafar ota-onaning so'rovnomada ishtirok etishi ta'minlandi.

TIMSS-2023 tadqiqoti mamlakatimizda matematika va tabiiy fanlar savodxonligini rivojlantirish va ushbu tadqiqotning keyingi davriyliklarida yuqori o'rinlarni egallash maqsadida quyidagilarni amalga oshirish tavsiya etiladi:

⁸⁰ Navbatdagi onlayn vebinar! <https://t.me/milliymarkaz/1510>.

⁸¹ TIMSS-2023 asosiy sinov jarayonini tashkil etish bo'yicha test administratorlari uchun trening boshlandi <https://t.me/milliymarkaz/1516>; Test administratorlariga TIMSS-2023 asosiy sinov jarayonini tashkil etish bo'yicha amaliy tavsiyalar berildi <https://t.me/milliymarkaz/1519>.

⁸² <https://bit.ly/3UwTpOj>.



Dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda muayyan mavzularga oid TIMSS topshiriqlarini tahlil qilish;

Raqamli muhitidagi ko'p ma'lumotlar bilan ishlash ko'nikmasini rivojlantirish;

O'quv dars jarayonlarida o'quvchilarning baholanadigan mavzu bo'yicha mazmunni bilishni hamda fikrlash ko'nikmalarini o'lchashga e'tiborni qaratish;

O'quvchilar bilan ishlashda turli xil elektron, rasmiy manbalar va axborot matnlaridan foydalanish;

O'qish fanlarini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interaktiv metodlardan samarali foydalanish;

O'qitish jarayonida fanlararo integratsiyani kuchaytirish, fanni turli sohalarga va hayotiy jarayonlarga bog'lab o'qitish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018 yil 8-dekabrdagi 997-sonli qarori. www.lex.uz. – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari onlayn milliy bazasi.
2. Mualliflik huquqi © 2017, Ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA) TIMSS 2019 baholash qamrov doirasi Ina V.S. Mullis va Michael O. Martin, muharrirlar Noshirlar: TIMSS & PIRLS xalqaro tadqiqotlar markazi, Lynch ta'lim maktabi, Boston kolleji, Ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA) "TIMSS 2019 Baholash qamrov doirasi". "Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazining matbaa bo'limi", Toshkent, 2021-yil;
3. Ismailov A., Karimov N., Tog'ayeva G., "O'quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlashga mo'ljallangan axborotnoma 4-soni". "Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazining matbaa bo'limi", Toshkent, 2022-yil.
4. <https://timssandpirls.bc.edu/> Boston kollejining TIMSS va PIRLS xalqaro tadqiqotlar markazi rasmiy veb-sahifasi.



UMUMTA'LIM VA MAHORAT MAKTABLARIDA TAHSIL OLUVCHI VOLEYBOL SPORT TO'GARAGI SHUG'ULLANUVCHILARINING JISMONIY TAYYORGARLIGINI BAHOLASH VA RIVOJLANTIRISH

Xosilova Rohilaxon Dilshod qizi – ADU
Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi
kafedrası o'qituvchisi
Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari
nazariyasi va metodikasi ixtisosligi tayanch
doktoranti (PhD)
E-mail: rohilahonxosilova@gmail.com

Annotatsiya. Hozirgi kunda mamlakatimizning umumta'lim va mahorat maktablarida tahsil olayotgan o'quvchi yoshlarimizda ta'lim muassasalarda tashkil etilgan voleybol sport to'garaklariga qiziqish va qatnashish uchun xohish yetarlicha. Bu esa, o'z navbatida, voleybol sport ustalari va murabbiylariga voleybol sport to'garagi shug'ullanuvchilarining jismoniy tayyorgarligini to'g'ri baholash va kelgusida ularning qobiliyatlarini to'g'ri yo'naltirishdek ulkan vazifa yuklaydi. Bu mas'uliyatli va mashaqqatli vazifani bajarishda sport murabbiylari va sport ustalari bir qancha muammolarga duch kelishi tabiiy jarayonlardan biridir. Bugungi muhokama qilinadigan ilmiy maqolamizning maqsadi ham ana shu muammolarga oz bo'lsa-da yechim topishdan iborat.

Kalit so'zlar: jismoniy tayyorgarlik, umumiy jismoniy tayyorgarlik, maxsus jismoniy tayyorgarlik, jismoniy sifat, kuch, tezlik, chaqqonlik, egiluvchanlik, chidamlilik.

Hozirgi kunda butun dunyo miqyosida ko'plab sport turlari qatorida voleybol sport turi ham yildan yilga tobora rivojlanib, murakkablashib bormoqda. Buni kundan-kun voleybol sport turi bilan shug'ullanuvchi sportchilar va bu sport turiga muxlislik qiluvchi ishtiyoqmandlarning ko'payib borayotganidan ham bilishimiz mumkin. Albatta, jahon miqyosida o'z o'rniga ega bo'lgan bu sport turining rivojlanishi, keng ko'lam yozishi uchun yurtimizda ham qulay shart-sharoitlar yaratilib kelinmoqda. Tabiiyki, mamlakatimizning umumta'lim va mahorat maktablarida tahsil olayotgan o'quvchi yoshlarimizda ta'lim muassasalarda tashkil etilgan voleybol sport to'garaklariga qiziqish va qatnashish uchun xohish yetarlicha. Bu esa, o'z navbatida, voleybol sport ustalari va murabbiylariga voleybol sport to'garagi shug'ullanuvchilarining jismoniy tayyorgarligini to'g'ri baholash va kelgusida ularning qobiliyatlarini to'g'ri yo'naltirishdek ulkan vazifa yuklaydi. Bu mas'uliyatli va mashaqqatli vazifani bajarishda sport murabbiylari va sport ustalari bir qancha muammolarga duch kelishi tabiiy jarayonlardan biridir.

Bugungi muhokama qilinadigan ilmiy maqolamizning maqsadi ham ana shu muammolarga oz bo'lsada yechim topishdan iborat.

Xo'sh, maqolamizdagi asosiy diqqatimizni qaratayotgan jismoniy tayyorgarlik o'zi nima va bu yosh voleybolchilarning mashg'ulot jarayonida qanchalik muhim? Dastavval shu savollarga javob berib olsak, biz aytayotgan jismoniy tayyorgarlik – bu sportchining jismoniy sifatlari (ba'zi adabiyotlarda jismoniy qobiliyat) va bu jismoniy sifatlarning sportchida qay darajada rivojlanganligidir. Jismoniy sifatlar o'z ichiga quyidagi qobiliyatlarni birlashtiradi: kuch, tezlik, chaqqonlik, egiluvchanlik va chidamlilik. Jismoniy tayyorgarlik ham, o'z navbatida, 2 xil turga ajratiladi. Bular umumiy tayyorgarlik va maxsus tayyorgarlik. Umumiy tayyorgarlik deb sportchida yuqorida tilga olingan 5 xil sifatning qanchalik rivojlanganini tushunsak, maxsus tayyorgarlik deb, faqat mazkur sport turi uchungina dolzarb va muhimroq bo'lgan sifat yoki bir qancha sifatlarning yuqori rivojlanganligini tushunamiz. Yosh voleybolchilarni saralab olishda dastlab, ularning antropometrik ko'rsatkichlariga e'tibor qaratilsa, so'ngra ularning jismoniy tayyorgarligiga e'tibor kuchaytiriladi. Shuning uchun ham yosh voleybolchilarning jismoniy tayyorgarligini to'g'ri baholash muhim va bu sportchining ham, sport murabbiyining ham kelajakda shu sport turida yuqori natijalar ko'rsatishida asosiy omillardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Jismoniy tayyorgarlikning yana bir ahamiyati shundan iboratki, birinchidan umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik yosh voleybolchilarning o'yin harakatlarini tez o'zlashtirilishiga yordam beradi. Ikkinchidan, umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligi kuchli bo'lgan yosh voleybolchilar har bir texnik va taktik harakatlarni yaxshi bajara oladilar. Aytaylik, o'yin 5 partiyaga cho'zilib ketgan paytda qaysi bir jamoa qatnashchilarining umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligi yaxshi, yuqori bo'lgan bo'lsa, shu jamoaning o'yinchilari voleybol sportining texnik va taktik harakatlarni aniq bajaradilar. Natijada ushbu jamoaning g'olib bo'lish ehtimoli ortadi. Bundan tashqari musobaqa holatiga ko'ra, bir jamoa bir necha kun ketma-ket o'z raqiblari bilan kuch sinashishlari mumkin. Shu sababli umumiy va maxsus mashqlarda yosh voleybolchilarda chaqqonlik va doimiy kurashga chidamlilikni tarbiyalashga e'tibor beriladi.

Demak, bundan ko'rinib turibdiki, yosh voleybolchilarning jismoniy tayyorgarligi muhim. Lekin jismoniy madaniyat amaliyoti hamda ilmiy-nazariy va amaliy tadqiqotlar uchun sportchi organizmining jismoniy tayyorgarligini baholashda, asosan, jismoniy tayyorgarlikning belgilangan yoki test tarzida qabul qilingan ko'rsatkichlaridan foydalaniladi. Ammo ko'pchilik holatlarda tanlangan testlar, nazorat mashqlari, funksional sinovlar va topshiriqlarni muvaffaqiyatli topshirganlar boshqa topshiriq va sinovlarni, testlarni topshirishda muayyan qiyinchiliklarga uchramoqda [1]. Buning sababi me'yorlarni topshiruvchilarning antropometrik ko'rsatkichlari va jismoniy



tayyorgarligi turli xildaligidir. Masalan, kimdir baland bo'yli kimdir buning aksi, kimdir og'ir vaznga ega, kimdir yengil vazn toifasiga kiradi. Yosh voleybolchilarning bunday har xil antropometrik ko'rsatkichlari esa ularning jismoniy tayyorgarligiga ham o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi. Misol uchun baland bo'yli bo'yli pastlarga nisbatan tezkorlik testini topshirishda yaxshi natija ko'rsata olmasligi tabiiy hol. Yoki yana boshqa bir misol vazni og'ir bo'lgan sportchi vazni yengil sportchiga nisbatan kuch testini muvaffaqiyatli topshiradi, albatta. Bu esa sportchilarning jismoniy tayyorgarligini to'g'ri baholash va yo'naltirishda murabbiylarga qiyinchiliklar tug'diradi.

Bundan chiqadiki, hozirgi kun jismoniy tarbiya va sport jarayoni amaliyotida jismoniy tarbiya normalarini topshirish bilan belgilangan standartlar orqali jismoniy tayyorgarlikka baho berishni mukammal usullari yoki uni aniqlashda lozim bo'lgan metodlarni takomillashtirish vaqti yetib keldi. [2].

Yosh voleybolchilarning jismoniy tayyorgarligini yuqori saviyada rivojlantirish va baholash uchun pedagogik nazorat, jismoniy sifatlar, umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik, jismoniy chiniqish, epchillik, texnik usullarini egallashda bir necha umumiy va maxsus mashqlar hamda o'yinlar davomida pedagogik kuzatishlar olib borish, saralab olishning asosiy usullaridan biri hisoblanadi. Shunday qilib yuqori darajadagi voleybolchilarni tayyorlash tizimida barcha olib borilayotgan mashg'ulot va tayyorgarliklar uzluksiz bo'lishi lozim. Tanlashni to'g'ri tashkil etish va yosh voleybolchilarni o'qitish, o'quv-mashq mashg'ulotlari jarayonini takomillashtirishga hamda yuqori malakali voleybolchilarni musobaqalarda ishtirok etishlariga xizmat qildi. Voleybolchilarning sport mashg'ulotlarini yaxshi o'tkazish ko'p jihatdan ular tayyorgarligini o'sishini to'g'ri nazorat qilib borish bilan bog'liqdir. Va albatta, bu ularning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishga ham o'z hissasini qo'shadi. Keyingi yillarda sportchilarning qanday tayyorgarlik ko'rayotganlarini kuzatish metodikasiga katta ahamiyat berilmoqda. Murabbiy nazorat tizimiga mashg'ulotlarning eng kerakli tomonlarini kiritadi, ba'zi vaqtlarda u buning uchun maxsus mashqlardan foydalanadi. Biz sportchining jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish haqida so'z olib borar ekanmiz, dastavval shug'ullanuvchining umumiy jismoniy tayyorgarligiga ahamiyat beramiz. So'ngra uning maxsus jismoniy tayyorgarligi bilan shug'ullanishni boshlaymiz. Buning uchun avvalo 5 ta jismoniy sifatlarimizning har biri bilan alohida-alohida ishlaymiz. Masalan, kuch sifatini rivojlantirish uchun shug'ullanuvchiga, asosan, og'irlik bilan bog'liq bo'lgan mashqlarni beramiz. Tezlik sifatini rivojlantirish uchun esa qisqa masofaga yugurtirish mashqlaridan foydalanamiz. Chaqqonlik qobiliyatini esa bizga makkisimon yugurish mashqlari rivojlantirib bersa, egiluvchanlikni rivojlantirish uchun, asosan, gimnastika mashqlaridan foydalanamiz. Va so'nggi sifat chidamlilikni



rivojlantirish uchun esa uzoq masofaga nafas ritmini nazorat qilgan holda yugurish mashqlari ancha samarali hisoblanadi. Shunday qilib umumiy jismoniy tayyorgarlikni me'yoriga keltirib olganimizdan so'ng yosh voleybolchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligiga asosiy e'tiborni qaratamiz. Shu o'rinda savol tug'iladi, voleybol sport turi uchun qaysi jismoniy qobiliyatlar boshqalariga nisbatan muhimroq hisoblanadi? Aslini olganda, barcha sport turi singari voleybol uchun ham hamma sifatlar birdek muhim hisoblanadi, lekin voleybolchi uchun tezlik, chaqqonlik va chidamlilik sifatlarining bir qancha ustunroq rivojlantirilganligi musobaqa jarayonida unga raqib jamoa vakillariga qaraganda ustunlik va omad olib keladi. Demak, maxsus jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirish uchun biz yuqorida keltirilgan sifatlarga yaxshiroq e'tibor qaratishimiz va bu sifatlarni rivojlantiruvchi mashqlarni yanayam murakkablashtirishimiz kerak bo'ladi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, umumta'lim va mahorat maktablarida tahsil oluvchi voleybol sport to'garagi shug'ullanuvchilarning jismoniy tayyorgarligini baholash uchun sport to'garagiga saralanib olinuvchilarning dastlab antropometrik ko'rsatkichlariga ahamiyat berishimiz va aynan shu ko'rsatkichlar asosida testlar, nazorat mashqlari hamda funksional sinov topshiriqlarini ishlab chiqishimiz darkor. Bu esa bizga kelgusida mahoratli voleybolchilar tayyorlashimizda ko'mak beribgina qolmay ularni tayyorlash jarayonini ancha osonlashtiradi. Saralovdan muvaffaqiyatli o'tgan yosh voleybolchilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish uchun esa umumiy jismoniy tayyorgarlikni tashkil etuvchi 5 ta jismoniy sifatlarning har birini yuqorida tavsiya etilgan mashqlar yordamida rivojlantirib yuksaltirib olamiz va so'ngida voleybol sport turimiz uchun muhim hisoblangan maxsus jismoniy tayyorgarlikni tashkil etuvchi jismoniy qobiliyatlarni yanada mustahkamlashga harakat qilamiz. Sanab o'tilganlarning barchasini amalga oshirish uchun sportchi bilan muntazam shug'ullanishimiz, uning rivojlanishini doimiy nazorat qilib borishimiz, umumiy va maxsus mashqlarni kundan kunga murakkablashtirib, tarkibini yangilab borishimiz talab etiladi. Bu jarayon sportchidan ham o'ziga yarasha intizom va mas'uliyatni talab etadi. Sababi murabbiy tomonidan berilgan barcha ko'rsatmalarni o'z vaqtida hamda o'z me'yorida amalga oshirish darkor. Bu esa sportchiga bir muncha qiyinchiliklar tug'diradi va katta mas'uliyat yuklaydi. Agar har ikki taraf ham, ya'niki ham murabbiy, ham sportchi sport mashg'uloti jarayoniga mas'uliyat va katta ishtiyoq bilan yondashsalar musobaqa jarayonida yuqori natijalar ko'rsatish hamda ko'zlangan maqsadga erishish aniqroq va osonroq bo'ladi. Bu esa bizga o'qish va o'qitish jarayoni bo'lmish ta'lim sohasidagi yana bir muammoning yechimi bo'lib xizmat qiladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdullayev A. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi (3-to'ldirilgan nashri). Farg'ona-2021.
2. Kerimov. F. A. Sport sohasidagi ilmiy tadqiqotlar. Toshkent. Zarqalam — 2004.
3. Matveyev L. P. Teoriya i metodika fizicheskoy kulturi. Uchebnik dlya institutov. M. 1991.
4. Ayropetyans A.R. Voleybol T. "Zar qalam", 2006.
5. Jelesnyak Yu.D. Yuniy voleybolist T. "Fis" 1988
6. Nasimov R. Yosh voleybolchilarni jismoniy rivojlanishini, jismoniy texnik va taktik tayyorgarligini aniqlash usullari. –T.: 1995
Internet ma'lumotlari: ziyo.net, ilm_nuri.com, lex.uz

DEVELOPMENT OF THE METHODOLOGY OF CREATING LANGUAGE EXAM QUESTIONS USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE: A CASE STUDY

Yuldashev Nodirbek Abdumannob o'g'li –

Andijan Machine Building Institute, Researcher

E-mail: nodirbek4405979@gmail.com

Dr. Danish Ather – Head Department of Research,
Associate Professor, Amity University in Tashkent

E-mail: danishather@gmail.com

Abstract. *This paper explores the application of artificial intelligence (AI) in generating classroom foreign language tests, aiming to identify the challenges and opportunities encountered during item creation. Employing a case study, a qualitative research method, this study used data from a single subject to investigate the process of generating classroom assessment items using an AI system in a real-world setting. The findings highlighted several opportunities and challenges faced by the participant when utilizing AI. Analysis of the feedback revealed three major benefits of using AI: practicality, customization, and efficiency. Conversely, four significant challenges were identified: readability, validity, insufficient data for other languages, and issues of ownership.*

Key words: *artificial intelligence, assessment, exam questions, foreign language teaching and readability.*

Introduction Assessment is a crucial element in the educational and business sectors' training and selection systems. It provides valuable feedback



to both teachers and students regarding the effectiveness of language instruction, identifies areas of difficulty, and informs decisions about student placement in various language courses (Ferrara et al., 2017; Freddi, 2021). Additionally, it plays a vital role in the development and refinement of language curricula. In the context of additional or foreign language assessment, it helps teachers gauge their learners' current language proficiency and pinpoint areas needing further instruction, thereby identifying students' strengths and weaknesses (Brown & Abeywickrama, 2010; Purpura, 2016). This process offers teachers crucial insights into which language skills their students have mastered and which areas require more focus to improve their language abilities. Despite the critical information provided by language assessments, teachers often spend considerable time creating assessment items aligned with the syllabus and content prescribed by their institutions or their country's Ministry of Education. These items, which might include multiple-choice questions, reading comprehension tasks, or spoken language activities (Hughes & Hughes, 2020), are labor-intensive to develop. This involves analyzing the current and target needs of learners to ensure the most accurate and efficient evaluation of student language proficiency. Nonetheless, the time and effort invested by teachers in this process are seen as essential for accurately assessing and supporting teaching and learning, ultimately contributing to the future success of their learners.

In my view, the integration of AI in educational assessment represents a groundbreaking advancement that has the potential to revolutionize the way we evaluate and enhance learning. While the benefits such as increased efficiency, customization, and practicality are substantial, it is crucial to address the challenges head-on to maximize the positive impact of AI. Issues like readability, validity, data availability for diverse languages, and ownership must be thoroughly researched and managed. By doing so, we can harness the full potential of AI in education, ensuring that it not only supports teachers and students but also fosters a more adaptive and inclusive learning environment.

Literature review

Artificial Intelligence - 'Artificial Intelligence' is described as the "science and engineering of making intelligent machines, especially intelligent computer programs" (McCarthy et al., 2006: 2). AI refers to machine intelligence capable of performing human-like tasks and activities (Eaton et al., 2021). Essentially, AI is a platform designed to think, reason, and act similarly or even superior to humans. Recent technological advancements have introduced a wide range of applications in the education sector, from task design to automated assessment (Gardner et al., 2021; Gonzalez-Calatayud et al., 2021; Levy & Stockwell, 2006; Stephenson & Harvey, 2022). Students, teachers, and researchers are increasingly using technological tools to

enhance writing, such as writing assistants (e.g., Grammarly), paraphrasing tools (e.g., QuillBot), research assistants (e.g., Elicit), and reference and citation checkers (e.g., Reciteworks) (Godwin-Jones, 2022; Zhang & Zou, 2022). Beyond these applications, AI is also employed in automated essay scoring systems and adaptive tests, which adjust the number and order of questions based on the test-taker's responses—two key applications of AI in educational assessment (Gardner et al., 2021). Furthermore, AI can aid learners and teachers by personalizing instruction, helping students master content more quickly and effectively (Baker et al., 2019). The potential of modern technology in education is vast, and it will continue to profoundly influence how we learn and teach (Kilickaya & Kic-Drgas, 2023).

Language Test Creation using AI

AI can generate automated items without human intervention, producing a wide range of content, including blog posts, writing summaries, and feedback, which has increased the use of AI in language teaching and learning (UNESCO, 2021; Yanhua, 2020). This technology enables teachers to perform more advanced tasks such as automated grading of essays and oral proficiency assessments in writing and speaking classes (Borade & Netak, 2021; Kessler, 2023; Langenfeld et al., 2022; Yu et al., 2022; Yunjiu et al., 2022). AI technology extends beyond intelligent language tutoring and feedback provision to facilitate interactions between learners and computers in both text and spoken forms. From my point of view, the integration of AI into language teaching and assessment offers tremendous potential to transform educational practices. The automation of item creation and assessment tasks not only enhances efficiency but also allows educators to focus more on personalized instruction and meaningful interactions with students. While there are challenges to address, such as ensuring the accuracy and fairness of AI-generated assessments, the benefits far outweigh the drawbacks. Embracing AI in education can lead to more effective teaching methods and a deeper understanding of language use and learning patterns. As we continue to refine these technologies, their role in education will undoubtedly become even more pivotal, offering unprecedented opportunities for both teachers and learners.

Methodology

Research design - The current study is a case study, a qualitative research method involving an in-depth, detailed examination of a specific instance or phenomenon within its real-life context. This approach aims to investigate a problem "in situ," within its natural environment, the language classroom (Creswell, 2007). The study has an ethnographic character (Jones & Smith, 2017), utilizing observation as a key tool. The research aimed to provide a comprehensive analysis of an individual's experience, feelings, and



perceptions to explore, analyze, and explain complex social phenomena. Case studies allow researchers to gain a thorough understanding of a single person, group, or event by collecting and analyzing data from multiple sources. A crucial aspect of the study design was the meticulous analysis of collected data and the researcher's active involvement in group activities during the research (Dumont, 2023). By examining a single case in detail, researchers can uncover patterns, trends, and insights that may be applicable to other cases and contexts (Griffiee, 2012; Mackey & Gass, 2022). In this study, the methodology used is both vital and innovative, as it allows for tracing a new phenomenon from the teacher's perspective, focusing on the authentic use of AI in education.

Data Collection and Analysis

Data were gathered through a journal maintained by the author while creating exam questions for the course. The journal included the following questions: a) What are the learning objectives of this course, and how can AI be utilized to create questions that align with these objectives? b) How did the use of AI allow you to tailor your assessment items to the specific needs of your course and curriculum? c) What opportunities or benefits did you encounter using AI to create the questions? d) What are the potential limitations or challenges of using AI for creating assessment questions, and how can these be mitigated or addressed? e) Any other comments or suggestions?

The participant began documenting responses to these questions in the journal two weeks before each assessment period, including the midterm and final exams. The content analysis method was applied to analyze the data collected from the journal (Coffey & Atkinson, 1996). The researcher's responses were coded and categorized based on the journal questions. A total of 78 entries, comprising 4,006 words, were analyzed over a four-week period. These categories were then examined to identify any patterns or trends. The analysis results were subsequently used to draw conclusions and make recommendations.

Conclusion

Language assessment plays a crucial role in helping teachers and learners evaluate educational practices, identify areas of difficulty, and tailor instruction to meet individual learner needs. This study aimed to explore the challenges and opportunities associated with using AI to create language assessment questions. Conducted as a case study with a single participant, the research delved into their experiences and perceptions. The findings highlighted several benefits of using AI, such as practicality, customization, and efficiency in generating assessment questions. However, challenges such as readability, validity, lack of data for other languages, and issues of ownership

were also identified. Despite the advantages, human intervention remains necessary to ensure the validity and quality of AI-generated questions.

Limitations of the Study and Suggestions for Further Research

This study's scope was limited by its single-case design, which restricts the generalizability of its findings. Additionally, the potential for researcher bias exists, as the researcher's opinions and perspectives could have influenced the study. The data was confined to the participant's contributions and available journals, which may not provide a comprehensive view. The time frame of the research may have also limited its ability to capture the complex dynamics involved in using AI to prepare questions, including pre-reading questions and possible answers (Attali et al., 2022; Henrickson, 2021; Killawala et al., 2018; Taylor, 2022). As AI-generated content becomes more prevalent, from music to artwork, significant legal questions about intellectual property rights arise. Future research should investigate the ownership and copyright protection (Zurth, 2021) of AI-generated assessment questions. Additionally, exploring how teacher revisions to AI-produced questions affect ownership and other issues, such as equity (Stephenson & Harvey, 2022) and AI-based cheating (Fyfe, 2022), will be crucial. Further studies could also examine the productive, disruptive, or destructive roles AI might play in the field of education.

LIST OF REFERENCES

1. Darvishi, A., Khosravi, H., Sadiq, S., & Gasevic, D. (2022). Incorporating AI and Learning Analytics to Build Trustworthy Peer Assessment Systems. *British Journal of Educational Technology*, 53 (4), 844-875. <https://doi.org/10.1111/bjet.13233>
2. Dumont, G. (2023). Immersion in Organizational Ethnography: Four Methodological Requirements to Immerse Oneself in the Field. *Organizational Research Methods*, 26 (3), 441-458. <https://doi.org/10.1177/10944281221075365>
3. Eaton, S. E., Mindzak, M., & Morrison, R. (2021, May 29 - June 3). Artificial Intelligence, Algorithmic Writing & Educational Ethics [Paper Presentation]. Canadian Society for the Study of Education Societe canadienne pour l'etude de l'education, Edmonton, AB, Canada. <http://hdl.handle.net/1880/113569>
4. Ferrara, S., Lai, E., Reilly, A., & Nichols, P. D. (2017). Principled Approaches to Assessment Design, Development, and Implementation in A. A. Rupp & J. P. Leighton (Eds.), *The Handbook of Cognition and Assessment: Frameworks, Methodologies, and Applications*. 41-72. Hoboken: Wiley and Sons. <https://doi.org/10.1002/9781118956588.ch3>
5. Freddi, M. (2021). Reflection on Digital Language Teaching, Learning, and Assessment in Times of Crisis: A View from Italy. In N. Radic, A. Atabekova,

- M. Freddi & J. Schmied (Eds.), The World Universities' Response to COVID-19: Remote Online Language Teaching, 279-293. Research-publishing.net. https://doi.org/10.1007/978-981-15-7864-3_7
6. Fyfe, P. (2022). How to Cheat on Your Final Paper: Assigning AI for Student Writing. *AI & Society*. <https://doi.org/10.1007/s00146-022-01397-z>
 7. Garcia-Penalvo, F. J., Corell, A., Abella-Garcia, V., & Grande-de-Prado, M. (2021). Recommendations for Mandatory Online Assessment in Higher Education During the COVID-19 Pandemic. In D. Burgos, A. Tlili, & A. Tabacco (Eds.), *Radical Solutions for Education in a Crisis Context: COVID-19 as an Opportunity for Global Learning* (pp. 85-98). Berlin: Springer. https://doi.org/10.1007/978-981-15-7864-3_7
 8. Gardner, J., O'Leary, M., & Yuan, L. (2021). Artificial intelligence in educational assessment: "Breakthrough? or buncombe and ballyhoo?" *Journal of Computer Assisted Learning*, 37(5), 1207-1216. <https://doi.org/10.1111/jcal.12577>
 9. Griffiee, D. T. (2012). An introduction to second language research methods: Design and data. Dale T. Griffiee. TESL-EJ Publications. http://www.tesl-ej.org/pdf/ej60/sl_research_methods.pdf
 10. Godwin-Jones, R. (2022). Partnering with AI: Intelligent Writing Assistance and Instructed Language Learning. *Language Learning & Technology*, 26(2), 5-24. <http://doi.org/10.1257/73474>
 11. Mackey, A., & Gass, S. M. (2022). *Second Language Research: Methodology and Design* (3rd ed.). Oxfordshire: Routledge. ISBN 9781032036632

ADABIYOT DARSLARIDA O'QUVCHILARNING EVRISTIK FAOLIYATINI OSHIRISH

Yuldasheva Maxmuda – Alisher Navoiy
nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va
adabiyoti universiteti tayanch doktoranti
E-mail: mahmudauldaseva@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'qitishning evristik usullari, badiiy asarni evristik tahlil etish yo'llari hamda adabiyot darslarida o'quvchilarni ijodkorlikka, tafakkur qilishga va mustaqil fikrlashga o'rgatish jarayonlari tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: ijodkorlik, ijodiy faoliyat, evristik usul, interfaol metod, zamonaviy pedagogika, innovatsion usullar, ijodiy faollik, evristik ta'lim, ijodiy topshiriq.



Biz ta'lim jarayonida tashkil etayotgan adabiyot darslarining ilk vazifasi eng zaruriy va xolis fikrlarni bayon etish, o'quvchilarni zulmatdan yorug'likka olib chiqish hamda ular qalbida ezgulik tuyg'ularini shakllantirish, rivojlantirishdan iborat.

Hozirgi jadal rivojlanish ketayotgan bir davrda ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning eng ma'qul va maqsadli yo'li bu – dars jarayonini tashkil etishda interfaol metod va usullarni to'g'ri tanlashga e'tibor qaratish. Barchamizga ma'lumki, interfaol ta'lim – o'quv jarayonida ishtirokchilarning bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishda o'zaro hamkorlikka asoslangan ta'lim, shu bilan birga bunday mashg'ulotlar natijasida ta'lim oluvchilarning ijodiy qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirish jarayoni yangi pog'onaga ko'tariladi.

O'qitishning evristik usuli o'zida ijodkorlikni mujassamlashtiradi va birlashtiradi. Buning sababi shundaki, o'qituvchi o'quvchilarga tayyor bilim yoki ma'lumotni bermaydi, balki ularni mustaqil izlanishlari, ijod qilishlari uchun yo'naltiradi. Obyekt sifatida asarlar, shoirlar nomi, tabiat hodisalari, tarixiy voqealar yoki tarixiy shaxslar, san'at asarlari olinishi mumkin. O'quvchilar obyektga asoslanib, o'z mulohazalarini gipoteza, matn, mahsulot, diagramma va boshqa shakllarda taqdimot etishlari mumkin. Evristik usul doirasida o'quvchi ijodiy faoliyatini o'z shaxsiy dunyoqarashi va nazariy bilimlaridan kelib chiqib olib boradi. O'quvchilar natijani o'qituvchiga taqdim etgandan so'ng barcha ma'lumotlar va tadqiq etilgan yangiliklar solishtiriladi va umumlashtiriladi. O'qitishning evristik usuli orqali aniq bilim va ko'nikmalar egallanishi emas, balki bolaning ijodkorligini shakllantirish va rivojlantirish amalga oshiriladi.

Badiiy adabiyot, so'z san'ati san'atning boshqa turlari orasida alohida o'ringa, mavqega ega bo'lib, u o'quvchini so'z sehri bilan o'ziga maftun etadi. Shunday ekan, adabiyotni o'qish, uning eng nozik qirralarini anglash inson evristik faoliyatining oliy ko'rinishidir. Masalan, adabiyotshunos olim Qozoqboy Yo'ldoshev: "His etilmagan, anglanmagan go'zallik ma'naviyat shakllanishiga xizmat qila olmaydi. Shuning uchun ham adabiyot o'qitishda badiiy asar tahlili alohida mavqega egadir, – deb ta'kidlaydi⁸³.

Rus psixologiyasining metodologiyasi rivojiga katta hissa qo'shgan olim Ya.A.Ponomarevning fikriga ko'ra "Ijod – materiya rivojining zaruriy sharti bo'lib, u yangi shakllarning paydo bo'lishi bilan kechadigan ijodiyot turlarining almashinuvi jarayonidir"⁸⁴. Demak, ushbu qarashni yanada tushunarliroq qilib tatbiq etadigan bo'lsak, inson tafakkurini rivojlantirishning eng yuqori darajasi

⁸³ Yo'ldosh Qozoqboy, Yo'ldosh Muhayyo. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: 2016. – B.12.

⁸⁴ Пономарев, Я.А. Знания, мышление и умственное развитие. – Москва: Просвещение, 1967. 78-с.

yaratuvchanlikda, ijodkorlikda yaqqol namoyon bo'ladi va, aynan, mana shu ijodiy faoliyat orqali o'quvchi o'z imkoniyatini mustaqil namoyon qila oladi.

Ikkinchi bir manbada esa ijodga boshqacha bir ta'rif beriladi. Unga ko'ra, ijod – o'ziga xosligi, betakrorligi hamda ijtimoiy-tarixiy noyoblighi bilan sifat jihatidan yangi narsalarni yaratishga yo'naltirilgan faoliyat turi sifatida e'tirof etiladi. Sezganingizdek, bu ta'rifda ijod mahsuli bo'lmish – kashfiyotlar nazarda tutilmoqda.

Kompyuter texnologiyalari orqali normal ko'rish qobiliyatiga ega bo'lgan shaxslarga beriladigan yozma materiallar ko'rish qobiliyati zaif o'quvchilarga ham yordamchi texnologiyalar yordamida taqdim etiladi. O'quvchilar internetning keng resurslaridan foydalanishlari, elektron pochta orqali boshqalar bilan muloqot qilishlari, CD-ROM yoki ma'lumotlar bazalarida saqlangan ma'lumotlarga kirishlari mumkin.

Yordamchi texnologiyalarning qiyinchiliklari. Kompyuter ekranidagi figurali ma'lumotlarga kirish asosiy muammo hisoblanadi chunki shakllar avtomatik ravishda tovush yoki teginish tasvirlariga aylantirib bo'lmaydi.

Aksariyat yordamchi texnologiyalarning murakkabligi tufayli texnologiyadan samarali foydalanish uchun ko'rishida muammosi bo'lgan o'quvchiga texnik jihatdan malakali o'qituvchilardan to'g'ridan-to'g'ri ta'lim olishni talab qiladi. Ushbu ehtiyojni qondirish uchun o'qituvchilar o'z o'quvchilarining ushbu texnologiyadan foydalanish bo'yicha malakali bo'lishlarini ta'minlash uchun zarur bo'lgan qo'shimcha ta'lim olishlari kerak bo'ladi.

Ko'rishida muammosi bo'lgan bolalarning nogironlik darajasi oshgani sayin, bu texnologiyaga bo'lgan talabning oshishiga sabab bo'ladi. Bu esa o'z o'zidan mahsulot narxining yuqori bo'lishiga sababchi bo'ladi. Bolalarning ehtiyojlarini qondirish uchun yordamchi texnologiya ham murakkablashadi.

Yordamchi texnologiyalardan foydalanishda o'qituvchilarning roli. Ko'rishida muammosi bo'lgan zaif ko'ruvchi bolalar bilan ish faoliyatini olib boradigan pedagoglar yordamchi texnologiyalardan foydalanish uchun treninglardan o'tgan malakali hamda mas'uliyatli bo'lishlari zarur. Ushbu mas'uliyatni bajarish uchun ular texnologiyaning afzalliklari, kompyuter ekraniga kirishning asosiy strategiyalarini, yordamchi texnologiyalarni baholash jarayonini va ko'rish qobiliyati zaif o'quvchilarga texnologiya ko'nikmalarini o'rgatish usullarini tushunishlari kerak. Ko'rishida muammosi bo'lgan bolalarga ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi o'qituvchilar texnologiyadan foydalanishda quyidagi majburiyatlarni bajarishlari kerak:

yordamchi texnologiyalarga logistika xizmatlarini ko'rsatishga rahbarlik qilishi;

maktabdagi barcha bolalarga yordamchi texnologiya orqali ko'rishida muammosi bo'lgan bolalar qo'llab-quvvatlanishi kerakligi;

yordamchi texnologiyalarni sotib olish bo'yicha maktab mutasaddilariga maslahat berish;

Individual ta'lim rejasini bajarishga mos keladigan maqsadlarni yordamchi texnologiyalarni o'rnini aniqlashga rahbarlik qilishi;

tanlangan yordamchi texnologiyadan foydalanishni loyihalash;

o'zgaruvchan ehtiyoj va ko'nikmalarni doimiy ravishda baholashni ta'minlash.

Umumta'lim maktablari o'quv dasturiga kirish alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilarni umumta'lim muassasalaridagi inklyuziv sinflariga joylashtirishni nazarda tutadi, bu esa o'quv dasturining mazmunini har bir o'quvchi uchun o'quv jarayonining teng huquqli ishtirokchisi sifatida mazmunli bo'lishini ta'minlash uchun moslashtirishni talab qiladi. Yordamchi va o'qitish texnologiyalari tadqiqotlarga asoslangan strategiyalarining bir qismi bo'lib, umumta'lim o'quv dasturidan foydalanish imkoniyati nuqtai nazaridan, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilarni grafik organizatorlar yoki konsepsiyani xaritalash dasturlari bilan jihozlash yoki ruxsat berish kabi sinfni o'zgartirishni nazarda tutadi. Yozishda qiynalayotgan o'quvchilar yozma topshiriqni bajarish o'rniga tengdoshlariga og'zaki javob berish orqali o'rganishni osonlashtiradi. Turli qobiliyatlarga ega bo'lgan barcha o'quvchilarning darslarda teng ishtirokini ta'minlash maqsadida so'zlashuvchi matnni maxsus yordamchi texnologiya orqali o'qiydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. INCLUDING CHILDREN WITH SPECIAL NEEDS Primary Stage Anita Julka Yangi Dehli 2014-yil.
2. GORME ENGELLI COCUKLAR AiLE EGITIM REHBERI. Anqara — 2014 yil.
3. <https://medium.com/@HiSkillsGmbH/the-role-of-technology-in-promoting-inclusive-education-32a93ef7f074>

ALOHIDA TA'LIM EHTIYOJLARI BO'LGAN BOLALAR BILISH JARAYONLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Axmedov Sayfullo – O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi "Inklyuziv ta'lim" bo'limi boshlig'i

Annotatsiya. Maqolada rivojlanish jarayonida bolalarning intellekti, bilish jarayonlarining funksiyasi va to'g'ri ishlashi ularning ta'lim jarayoniga moslashishlarida eng muhim omil ekanligi yuzasidan fikr va mulohazalar keltirilgan. Barcha pedagoglarning dars jarayonlarini tashkil etishda oldimizga qo'yilgan asosiy vazifa esa bilish jarayonlari haqida umumiy tushunchaga ega bo'lish, ushbu jarayonlar qaysi yoshda qay tarzda namoyon bo'lishini inobatga olish, yosh va individual xususiyatlar haqida tushunchaga ega bo'lishdir. Agar dastlab bizda bu ko'nikma va bilimlar bo'lsa biz har bir bolaning holatini kuzatgan holda ularning imkoniyatlarini to'g'ri baholay olishimiz va kerakli



hamda zarur bo'lgan korreksion ish jarayonini tashkil eta olishimiz mumkin bo'ladi.

Kalit so'zlar: *bilish (kognitiv) jarayonlar, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar, inklyuziv ta'lim, dars jarayoni.*

Bola dunyoga kelgan kunlaridan boshlaboq ko'radi, eshitadi, biror narsa tekkanini, og'riq, issiq, hid va ta'mni his etadi. Tevarak-atrofdagi borliqni bilish-sezish va idrok qilishdan, ya'ni voqelikdagi narsa va hodisalarning bola ongida aks etishidan boshlanadi. Bolaning idroki hayotining dastlabki yillaridayoq ancha takomillashadi va ikki yoshida u buyumlarning rangi, shakli, katta-kichikligiga qarab bir-biridan farq qila boshlaydi, tanish ohangni ajratadi va hokazo. Unda xilma-xil sensor qobiliyatlar: ko'rish va ko'zdan kechirish, tinglash va eshitish, buyumlarni tashqi belgilariga qarab ajratish, ko'zi ko'rayotgan va eshitayotgan narsaga taqlid qilish qobiliyati rivojlanib boradi.

Bola turli taassurotlar olib turishi – buyumlarni ko'rish, ushlab bilishi, kattalarning ishlarini kuzatishi, xilma-xil tovushlarni eshitishi kerak. Bu bolalarning sensor rivojlanishlari uchun zarur shartdir. Sensor qobiliyatlarning o'z vaqtida rivojlanishi esa bolalarning aqliy tarbiyasi uchun zamin yaratadi. Diqqat, xotira, intilish, qiziqish va boshqa shu singari ruhiy jarayonlar bolaning aqliy rivojlanishi uchun katta ahamiyatga ega. Bola nutqining o'z vaqtida va to'g'ri rivojlanishi aqliy rivojlanishining asosidir.

Nutq ruhiy jarayon: idrok, xotira va boshqalarning rivojlanishiga, bolalarning faoliyatiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bolalar nutqi rivojlanishni boshlashi bilan kattalar so'zlarining tarbiyaviy vosita sifatidagi roli ortib boradi. Bola shaxsining tarkib topishi hayotining birinchi kunlaridanoq boshlanadi. Bola har kuni ko'rgan va eshitganlari asosida borliqqa va tevarak-atrofdagi kishilarga o'z munosabatini bildiradi, kattalarning xatti-harakatlari, ishlariga, sodir bo'layotgan voqealarga bolaning beradigan bahosi, kishilarga bo'lgan munosabati – bularning hammasi bola ma'naviy qiyofasining shakllanishiga ta'sir etadi. Bolaning xoh ona qornida, xoh tug'ilganidan keyin rivojlanib borishi uchun zarur bo'lgan ma'lum shart-sharoitlarning buzilishi turli xil anomaliyalarga, ya'ni jismoniy yoki ruhiy rivojlanishidagi nuqsonlar, kamchiliklarga olib kelishi mumkin. Defektologiyada alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning turli xil toifalari ustida ish olib boriladi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar - bu maxsus psixologik-pedagogik yordam ko'rsatish va ularni tarbiyalash, o'qitish paytida maxsus sharoitlarni tashkil etishni talab etadigan alohida ta'limga ehtiyojlari bo'lgan bolalar.

Ular quyidagi turlarga ajratiladi:

1) eshitish kamchiliklariga ega bo'lgan bolalar (kar, zaif eshituvchi bolalar, kech kar bo'lib qolgan bolalar);



- 2) ko'rish qobiliyati zaif (ko'r, zaif ko'ruvchi bolalar);
- 3) aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar;
- 4) nutqiy rivojlanishida nuqsonlari bor bolalar;
- 5) harakat-tayanch a'zolarida kamchiliklari bo'lgan bolalar;
- 6) ruhiy rivojlanishi sust bolalar;
- 7) rivojlanishida murakkab ko'p nuqsonli bolalar;
- 8) autizm sindromiga chalingan bolalar.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar me'yorda rivojlangan tengdoshlari orasida inklyuziv ta'limda yoki ixtisoslashtirilgan ta'lim-tarbiya muassasalarida tarbiyalanishi va o'qitilishi maqsadga muvofiq. Bolaning umumiy rivojlanishiga har tomonlama kuchli ta'sir etgan nuqsonlargina uni alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bola deb hisoblashga asos bo'lishi mumkin. Masalan, bolaning faqat chap qulog'i eshitsayu, bu nuqson uning har tomonlama rivojlanishiga ta'sir etmaydigan, u maktab tengdoshlari qatori o'zlashtiradigan bo'lsa, u alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar toifasiga kirmaydi. Katta yoshdagi kishilarda ma'lum sabablarga ko'ra paydo bo'lgan nuqsonlar ham ularning umumiy rivojlanishiga ta'sir etmasa, bu kishini alohida yordamga muhtoj deb hisoblash mumkin emas. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida kuzatiladigan og'ir, keskin o'zgarishlar bola shaxsining tarkib topishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun bunday bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish uchun maxsus sharoit yaratilishi kerak, ya'ni ular maxsus ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim muassasalari va maktablarda yoki me'yorda rivojlangan tengdoshlari orasida hamma qatori va agarda kerak bo'lsa, maxsus dastur va darsliklar asosida o'qitilishi va tarbiyalanishi zarur. Har qanday alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolada kuzatiladigan nuqson markaziy yoki periferik nerv sistemasidagi organik yoki funksional o'zgarishlarga aloqador bo'lishi mumkin. Bola rivojlanishidagi turli xil kamchiliklar noqulay muhit, noto'g'ri tarbiya, ta'lim natijasida ham paydo bo'lishi mumkin. Masalan, noqulay oilaviy sharoit, pedagogik qarovsizlik, o'qituvchining bolaga noto'g'ri munosabati va boshqa ko'pgina sabablar bola rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatib, uning dastur materiallarini yaxshi o'zlashtira olmasligiga, sekin o'zlashtiruvchi o'quvchilar orasiga qo'shilib qolishiga sabab bo'ladi. Shunday bo'lsada, biz bunday bolani alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar toifasiga kiritmaymiz, chunki uning rivojlanishidagi kamchiliklar organizmdagi qanday bo'lmasin biror organik yoki funksional patologik o'zgarishlarga bog'liq bo'lmay, balki boshqa sabablardan kelib chiqqan. Ota-ona, tarbiyachi va o'qituvchilar bunday bolalarni alohida yordamga muhtoj bolalardan farqlay oladigan bo'lishlari kerak.



Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar bolalarning ko'pchiligida bilim zaxirasining cheklanganligi, charchoqning kuchayishi, diqqatning beqarorligi, kognitiv jarayonlarning past darajada bo'lishi kuzatiladi.

Kuzatishlar va eksperimental tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ba'zi bolalarda bilish jarayonlari keskin shakllanmagan, boshqalarida esa nisbatan saqlanib qolgan. Bu ma'lum darajada bolalar o'rtasida kognitiv faoliyatda ham, shaxsiy sohada ham mavjud bo'lgan individual farqlarni ko'rsatadi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolaning kognitiv faoliyati va shaxsiyatining buzilishi uning turli xil ko'rinishlarida aniq namoyon bo'ladi. Bilish jarayonidagi va xatti-harakatlardagi nuqsonlar beixtiyor boshqalarning e'tiborini tortadi. Biroq, kamchiliklar bilan bir qatorda, bu bolalarda ba'zida ijobiy imkoniyatlar ham mavjud bo'lib, ularning mavjudligi rivojlanish va korreksiya jarayonining poydevori bo'lib xizmat qiladi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga asta-sekin, qadama-qadam rivojlanish jarayoni hosdir. Ularning rivojlanishi biologik va ijtimoiy omillar bilan belgilanadi. Bularga nuqsonning og'irlik darajasi, tuzilish jihatdan o'ziga xosligi, ushbu nuqsonning yuzaga kelgan vaqti kiradi.

Ijtimoiy omillar-bu bolaning atrof-muhiti: u yashaydigan oila; u birgalikda muloqot qiladigan va vaqt o'tkazadigan kattalar va bolalar.

Kognitiv faoliyatning yetarli emasligi, zaif yo'naltirilgan faoliyat – bu nogiron bolalarda miya yarim korteksidagi neyrofiziologik jarayonlarning xususiyatlaridan bevosita kelib chiqadigan alomatlar. Ushbu rivojlanish patologiyasi bo'lgan bolalarni o'rgangan ko'plab olimlar ularda atrof-olamga bo'lgan qiziqishining pastligi, tashabbusning yetishmasligini yoki yo'qligini ta'kidlaydilar.

Agar ta'lim jarayonida dars jarayonlari bolalardagi nuqson darajasi hamda individual xususiyatlariga asoslangan holda ko'rgazmali qurollardan foydalangan holda tashkil etilsa, ko'zlangan maqsadga erishishda ijobiy natijalarni olish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Umumiy psixologiya / P.I.Ivanov, M.E.Zufarova. Toshkent-2008
2. Defektologiya asoslari / V.S.Raxmanova. Toshkent-2017
3. Maxsus pedagogika / P.M/Po'latova, L.Sh.Nurmuxammedova, D.B.Yakubjanova, Z.N.Mamarajabova, Sh.M.Amirsaidova, A.D.Sultonova. Toshkent-2014
4. Maxsus psixologiya / L.R Mo'minova. Toshkent-2013
5. "Когнитивная сфера в психологии" научно-исследовательская работа Норина В.Н Москва-2012



SUN'IY INTELLEKT MA'LUMOTLARI VA XULOSALARI ASOSIDA BOLANING AQLIY RIVOJLANISHIDAGI YETISHMOVCHILIKLARNI ANIQLASH VA BARTARAF ETISH USULLARINI TANLASH

Bozorov Jasurbek Sadillayevich – A.Avloniy nomidagi Pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot instituti "Pedagogik xizmatlar" markazi birinchi toifali mutaxassisi

Annotatsiya. Hozirda zamon shiddat bilan rivojlanib ma'lumotlar almashinuvi xam jadal sur'atlarda oshib bormoqda. axborot texnologiyalar asrida o'z o'rnini topish va to'g'ri mutaxassislikni tanlash muhim hisoblanadi. Ushbu maqolada hozirgi kunda dolzarb mavzuga aylanib borayotgan sun'iy intellekt bola rivojlanishidagi o'rni haqida kerakli ma'lumotlarni olishingiz va bu ma'lumotlar asosida tarbiya jarayoniga kerakli o'zgartirishlar kiritishingiz mumkin.

Kalit so'zlar: Sun'iy intellekt, ta'lim bolalar, Coursera, Codecademy, Python, Java, Scratch, Bola rivojlanishi, robotlar, innovatsiya, ko'nikmalar.

Sun'iy intellekt – bu besh yoshli bolaning rivojlanishidagi samaradorlikning yangi darajasi va uning o'zgarishini modellashtirish yo'nalishning muhim qismidir. U mavhum bilimlar, tushunchalar va g'oyalarni o'rganishda tezlik va soddalashtirilgan tahlilga ega bo'lishi kerak. Uning sun'iy intellektini rivojlantirish uchun quyidagi ko'rsatkichlar muhimdir:

1. Siz o'qishda sabr-toqatli va ilg'or bo'lishingiz, matnlarni tushunish va tafsilotlar bilan ishlash, tushunchalarni tushunish va g'oyalarni tahlil qilish uchun kerakli bilimlarni o'zlashtirishingiz kerak bo'ladi.
2. Ko'nikmalar va tasvirlar bilan tanishish. Qiziqarli multfilmlar, tasvirlar va matbuot materiallari orqali butun dunyo bo'ylab ko'proq bilim va tushunchaga ega bo'lish mumkin bo'lishi kerak.
3. Yutuq va innovatsiyalarda mashq qiling. Bolaning sun'iy intellektini rivojlantirishning muhim omillaridan biri bu yangilik va yangiliklarga ochiqlikdir. Uning yangi vazifalari va muammolariga duch kelish, muammolarni o'z tushunchasi va ko'nikmalari bilan hal qilish, bu so'z uning aql-idrokini rivojlantirish uchun juda muhimdir.
4. Bola yorqin fikrlarni ifoda etishni o'rganadi. Treningning bir qismi shundaki, u o'z fikrlarini to'g'ri va yorqin ifoda etish tajribasiga ega va u o'z tushunchalarini mantiqiy ajratib ko'rsatish, aytib berish va tasvirlashga intilsa, unga sun'iy intellekt yordam beradi.

5. Jamiyatda faol bo'lish. U o'zining sun'iy intellektini oshirishi va kelganida qayd etilgan tushunchalar va o'rganilmagan bilimlarni ifodalash orqali jamiyatda foydali bo'lishi kerak. O'z fikrlari, istaklari va talablarini ifoda etgan holda, diqqat bilan bola o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun mustaqil faoliyatdan foydalanadi.

Sun'iy intellekt (SI) ga qiziqqan yoshlar uchun siz quyidagi maslahatlarga amal qilishingiz mumkin.

Onlayn kurslar: yoshlar uchun Codecademy yoki Coursera-da sun'iy intellekt bo'yicha kirish kurslari kabi onlayn kurslarni toping. Kitoblar: sun'iy intellekt va robototexnika haqidagi amaliy kitoblarni o'qishni qat'iy tavsiya qilaman. Qiziqarli interaktiv darslar: yoshlar uchun innovatsion darslar va taqdimotlar yaratish, masalan, scratch va code dasturlash tillaridan foydalangan holda sun'iy intellektni o'rgatish. Qiziqarli robotlar: sifatli robotlar yordamida o'zingizning o'quv jarayoningizni o'rganishni rag'batlantirish. Dasturlash asoslari: Python yoki Java kurslari, masalan, yoshlar uchun dasturlash asoslarini o'rganishga yordam beradigan tajribali o'qituvchilar bilan. Jiddiy mashqlar uyg'onishlari: rejalashtirilgan sun'iy intellekt vazifalarini aniqlash va hal qilish uchun jiddiy mashqlar uyg'onishlarini yaratish. Sun'iy intellekt bo'yicha trening: robotlar yoki mashinalar kabi sun'iy intellekt sohasida yoshlar uchun seminarlar tashkil etish. Munozaralar va musobaqalar: sun'iy intellekt sohasidagi musobaqalar, musobaqalar va munozaralarni tashkil etish orqali yoshlarni targ'ib qilish. Murabbiylik va ko'nikmalar tajribasi: yoshlarga sun'iy intellekt bo'yicha sertifikat olishlariga yordam bering va yoshlar uchun shaxsiy manbalar orqali murabbiylik va ko'nikmalarni yaxshilang. Qiziqarli, qiziqarli va almashtirib bo'lmaydigan: sun'iy intellektni o'rganayotganda yoshlarga qiziqarli, almashtirib bo'lmaydigan va innovatsion tajribani ko'rsatish muhimdir. Bizning taxminlarimizdan farqli o'laroq, sun'iy intellektning rivojlanishi mamlakatimiz va dunyoning mustaqil tashqi savdosi, iqtisodiyoti va madaniyati ixchamligini tuzatishda katta rol o'ynaydi. Joylashuv talablari o'rganishni rag'batlantirish va taraqqiyotni rag'batlantirishning yagona yo'li.

Bola rivojlanishidagi sun'iy intellektning roli yosh guruhidan yosh guruhiga qarab farq qilishi mumkin. Biroq, quyidagi misollar sun'iy intellekt rolidagi asosiy elementlar bo'lishi mumkin:

3-6 yoshli bolalar: ushbu yosh guruhida siz qiziquvchanlik, oddiy savollar va o'yinlar orqali sun'iy intellektni rivojlantirishingiz mumkin. Bolalar obyektlar va tushunchalarni o'zgartirish orqali dunyoni bilish orqali o'z fikrlarini tushunishni o'rganishlari kerak.

7 yoshdan 10 yoshgacha bo'lgan bolalar: ushbu yosh guruhida bolalar o'z fikrlarini tahlil qilish, muammolarni hal qilish va boshqa mualliflik huquqlarini yaratish qobiliyatini o'rganish orqali sun'iy intellektni rivojlantirishlari mumkin.



Ushbu yoshdagi bolalar uchun muammolarni hal qilish va yaratish uchun yangiliklarni topishga e'tibor qaratish muhimdir.

11-14 yoshdagi bolalar: bu yosh guruhida sun'iy intellekt nafaqat yangi so'zlar va tillarning ma'nosini o'rganish, balki mantiqiy savollar bilan o'z fikrlarini tushunish va ifodalash orqali ham o'rganishi mumkin. Bolalar o'z hukmlarini o'z fikrlari bilan to'g'ri, jonli va oqilona oqlay olishlari kerak.

15-18 yoshdagi bolalar: ushbu yosh guruhida biz o'zgarishlar va yangiliklarni kuzatish, boshqalar bilan fikr almashish va ularning fikrlarini ifoda etish orqali sun'iy intellektni rivojlantirishimiz mumkin. Bu yoshdagi bolalar sirlarni tushunishni yaxshilash, yangilik yaratish va o'zgaruvchan fikrlarni ko'rsatish orqali sun'iy intellektni yaxshilashlari mumkin.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki barcha yosh toifasidagi bolalarni aqliy va jismoniy rivojlanishini joriy vaqt davomida kuzatib borish uchun barcha ota-onalar yuqorida keltirilgan ma'lumotlar asnosida, ular uchun kerakli bo'lgan mashg'ulotlarni tanlash, aqliy va jismoniy yetishmovchiliklarni erta aniqlash va ularni bartaraf etishda sun'iy intellekt xulosalarini olish va shu ma'lumotlarga tayangan xolda tarbiya borasidagi mutaxassis maslahatini olish va kerakli o'zgartirishlarni kiritishlari mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. https://uz.wikipedia.org/Suniy_intellekt
2. Yusupbekov N. R. Boshqarishning intellektual tizimlari va qaror qabul qilish / N.R.Yusupbekov. — Toshkent: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2015.-572 b.
3. Nazarov X. N. Robotlar va robototexnik tizimlar. Darslik. — "MASHHUR PRESS", 2019, — 236 b.
4. Angeles J. Fundamentals of Robotic Mechanical Systems Theory, Methods, and Algorithms. -VerlagNew York, Inc., 2003. 545 p.
5. Kurfess T. Robotics and automation handbook. CRC Press LLC, 2005. —519 p.
6. <https://youtu.be/JYUN37YUN-Y?si=MNLp0RYKZ0K4wVer> (texnoplov)



MALAKA OSHIRISH TIZIMIDA KREATIV VA ZAMONAVIY YONDASHUVGA OID MASHG'ULOT: IJTIMOYIY XABARDORLIK, INKLYUZIVLIKNI TASHKIL ETISH SAMARADORLIGI

Djurayeva Perdegul Saidovna – Navoiy viloyat
pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish
milliy markazi dotsent

Annotatsiya. *Kitobxonlik madaniyati orqali bolalar bilan do'stona munosabat o'rnatish, malaka oshirish tizimida ijtimoiy-emotsional ta'lim olishga oid mashg'ulot, ijtimoiy xabardorlik, inklyuzivlik strategiyalar.*

Kalit so'zlar: *Kitobxonlik madaniyati, ijtimoiy-emotsional ta'lim, bolalar adabiyoti, muhokama, mulohaza, xabardorlik, inklyuzivlik.*

Kirish

Barqaror rivojlanish maqsadlariga asoslangan ta'lim – xalqaro va milliy normativ-huquqiy hujjatlarga tayanib, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun maktablarda inklyuziv ta'lim va boshlang'ich tayanch korreksion sinflar faoliyatini yo'lga qo'yish, qabul qilish, nazorat qilish va boshqarish tartibi hamda o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish, uning bosqichlari, yuzaga keladigan muammo va yechimlarni o'z ichiga qamrab oladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "2022–2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi PF-134-son Farmoni, 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2023-yil 14-noyabrdagi 540-son buyrug'i asosida o'tkazilgan diagnostik test natijalariga ko'ra, inklyuziv ta'limga qadriyatli munosabat, XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirish: 4K – tanqidiy va kreativ fikrlash, hamkorlikda ishlash, kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirish hamda tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish bo'yicha kurs tinglovchilarining o'quv moduli bo'yicha tegishli yangi bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan. Pedagog kadrlar malakasini oshirishning ilg'or va shaffof tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini tatbiq etish yo'li bilan umumiy o'rta ta'lim tizimida kadrlar siyosatini shakllantirishning zamonaviy tamoyillarini joriy etish bo'yicha belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda, zamonaviy talablar asosida ta'limning zamonaviy tendensiyalari va ularning ta'lim sifatiga ta'siri, ta'lim samaradorligini ta'minlash bo'yicha ilg'or tajribalarni tahlil qilish, uzluksiz kasbiy rivojlantirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda ularning kasbiy kompetentligini muntazam oshirishni nazarda tutadi.



Izlanish materiallari va metodologiyasi

O'quvchilarda ijtimoiy xabardorlikni, hamdardlikni rivojlantirish va inklyuzivlikni oshirish uchun bolalar adabiyotidan foydalangan holda natijaga yo'naltirilgan ta'limni joriy etish istiqbollari va yo'nalishlarini belgilash maqsadida ijtimoiy-emotsional ta'lim olishga oid mashg'ulotni tashkil etish – asosiy maqsadimizdir. Sinf darajasi: boshlang'ich (turli o'rganish darajalari uchun moslashtirilishi mumkin). Didaktik materiallar: ijtimoiy xabardorlik va inklyuzivlik mavzulariga bag'ishlangan yoshiga mos bolalar adabiyoti kitoblari. Doska yoki oq qog'oz; markerlar. Mulohaza uchun ish qog'ozlari (oldindan tayyorlangan). Mashg'ulotni boshlashdan oldin bir-birimizni qo'llab-quvvatlovchi sinf jamoasi hamda jamiyatni yaratishda ijtimoiy xabardorlik va inklyuzivlikning ahamiyatini tushuntiring. Inklyuzivlik tushunchasini, u qanday qilib boshqalarning qarashlari va kechinmalarini tushunish hamda baholashni o'z ichiga olishini muhokama qiling.

Izlanish natijalari. Kitob tanlash va o'qish – ijtimoiy xabardorlik va inklyuzivlik mavzusidagi bolalar kitobini tanlang va uni sinfga baland ovozda o'qib bering. Hikoyani o'qish davomida kerakli joylarda to'xtang va o'quvchilarni qahramonlarning kechinmalari va his-tuyg'ulari haqida fikr yuritishga undang. **O'qishdan oldin.** Kitobni, uning muallifi va illyustratorini tanishtiring. Sarlavhani ko'rsating va uni o'qing. O'quvchilardan kitob muqovasidan qanday ma'lumotlarni bilib olganini so'rang. Muallif haqidagi qiziqarli ma'lumotlarni keltiring, ayniqsa, ular shu muallifning boshqa birorta kitobini avval ham o'qigan bo'lsa, bu yanada foydali bo'ladi. Matnni o'quvchining mavjud bilimlari bilan bog'lash orqali o'qish maqsadini belgilang. Ya'ni, shu mavzuda bolalar qanday bilimlarga ega bo'lganliklarini savol-javob orqali bilib oling. O'quvchilardan matn nima haqida ekanligini taxmin qilishlarini so'rang. Kitobni nima uchun o'qiyotganingizni va o'quvchilar qaysi o'qib tushunish ko'nikmalarini amalda qo'llashini tushuntiring. **Tavsiya:** Oldindan qiziqarli va yoshga mos matnni tanlab oling. Qulay mutolaa muhitini yarating. Ishtiyoq bilan o'qing. O'quvchilarni o'qish jarayoniga jalb qilish orqali faol qatnashishga chorlang. Ko'rgazmali qurollar va tayanch topshiriqlardan foydalaning.

O'qish davomida. Ovoz chiqarib, ravon va ifodali o'qing. Matnni muhokama qilish uchun kerakli joylarda to'xtang va savol bering. O'quvchilardan javob berishini so'rang. Izoh berishlarini va taxmin qilishlarini so'rab, har qanday taxminlarni rag'batlantiring. "O'giring va gaplashing" strategiyasidan foydalaning.

"O'giriling va gaplashing" strategiyasidan foydalaning. O'quvchilardan bir-birlariga o'girilib, hikoya yuzasidan o'zaro savol-javob olib borishlarini so'rang. Ochiq savollar bering (yuqori darajada fikrlashga undaydigan savollar). Ochiq savollarga javob berish uchun o'quvchilar "Ha", "Yo'q" kabi qisqa javobdan qochib, to'liq mazmunli gaplar gaplar orqali javob beradilar. "Nima uchun?", "Qanday

qilib?" kabi so'roq so'zlaridan boshlanadigan savollar ochiq savol hisoblanadi. O'qib tushunish strategiyalarini modellashtiring va mustahkamlang (ovoz chiqarib fikrlang). Yangi so'zlar ma'nosini o'quvchilardan so'rang, so'ngra bolalar uchun tushunarli ta'riflar va misollar orqali so'zlarning ma'nosini tushuntiring.

O'qishdan keyin: Hikoyaga oid savollar bering va munozaralar o'tkazing. Shu bilan birga, o'quvchilardan hikoya mazmuniga nisbatan munosabatini so'rang. Ulardan hikoyani so'zlab berish, qahramonlar, voqea-hodisa yoki matndagi ma'lumotlar tog'risida fikr bildirishlarini so'rasangiz ham bo'ladi. o'zingizga yoqqan qismlarni muhokama qiling. Bolalar hikoyalarni o'z bilganicha o'rganishi uchun qo'shimcha mashg'ulotlar tashkil eting: hikoyaning umumiy mazmuni yoki bir qismini chizish orqali sharhlash; drama/rolli o'yin; hikoyaga yangi yakuniy qism yozish; hikoyani tasvirlash uchun san'at va hunarmandchilik buyumlari.

Masalan, "Besh barmoq" usulida 1-vaziyat: badiiy matn tahlili; 2-vaziyat: axborot matni tahlilida ko'rib chiqamiz. **Kirish:** Tinglovchilarni guruhlariga tajribasi va mahoratiga mos holda tabaqalashtirish. **Asosiy**



qism: 1-bosqich – **"Besh barmoq" usuli: Badiiy matn tahlili** – Qahramonlar – Zamon va makon – Muammo – Voqea-hodisa – Yechim; Masalan, 4-sinf "Ona tili va o'qish savodxonligi" yangi avlod darsligining 1-qismida 15-16-betida "Mehr ulashgan bog'" hikoyasi asosida tinglovchilar bilan o'tkazilgan amaliy mashg'ulotimda 4 ta guruhga bo'lingan holda 5 ta bosqich bo'yicha ushbu usul bilan tahliliy mashg'ulot o'tkazdim va 4K modeli ko'nikmalariga xos ilmiy tasnifiy fikr-mulohazalar mavzu doirasida o'z mohiyatini ochishga harakat qilingani ularda

metodga nisbatan qiziqish shakllantirdi. Hikoya qahramonlari, ularning o'ziga xosligi, qaysi zamon va makonda bo'layotganligi, asosiy muammo kim yoki nimaga qaratilganligi, ustoz, ona, bobo, Dilshod va uning sinfdoshlarining o'zini tutishi, mehrlil nigo, do'stona muhit, oila, maktab hamkorligi, boquvchisini yo'qotgan yoki keksha yoshli insonlarga g'amxo'rlik g'oyasi, maktab hovlisidagi mevali bog' va Dilshodning uyi, voqea-hodisalarning uzviy bog'liqligi, kreativ yondashuv tahlili, tanqidiy fikrlar xilma-xilligi kabi eng kichik epizod, hodisalarga nisbatan har xil qarashlarning mavjudligi ushbu kichik birgina hikoya zaminida to'laqonli tasniflanishiga e'tibor qaratdim. Albatta bu kabi ijodiy yondashuv tinglovchilar va dars kuzatuvchilari tomonidan iliq kutib olindi va samarali tashkil etilganligi e'tirof etildi. Hikoya asnosida yakuniy xulosalar, yechim sifatida taqdim etilgan fikrlar qabul qilindi. 2-bosqich: "Besh barmoq" usuli: Axborot matni tahlili – Mavzu – Bosh g'oya – 1-ma'lumot – 2-ma'lumot – 3-ma'lumot – Yechim.

Alohida ehtiyojli bolalar orasidan ham iqtidorlilarini kashf etish mumkin.

Imkoniyati cheklangan bolalarning bilim olishi qiyin. Ammo ularga ham yetarlicha e'tibor berilsa, alohida ehtiyojli bolalar orasidan ham iqtidorlilarini kashf etish mumkin. Poytaxtimizdagi 215-sonli umumta'lim maktabining inklyuziv sinf o'quvchisi Muhammadxon Daun sindromi bilan dunyoga kelgan. Ota-onasi bor e'tiborini "quyoshli farzand"ni rivojlantirishga qaratdi. Muhammadxonning ham sog'lom bolalardek o'z orzulari, rejalari bor. U sportni sevadi. Bo'sh vaqtlarida qo'shiq ham kuylab turadi. Muhammadxon Turkiya maxsus sportchilar sport federatsiyasi tomonidan bu yil ilk bor tashkil etilgan "Turk dunyosi" maxsus sportchilar sporti va madaniyat festivalida ishtirok etdi. U Turkiya, Ozarbayjon, O'zbekiston, Qozog'iston, Vengriya va Qirg'izistondan tashrif buyurib, tennis va yengil atletika bo'yicha g'olib bo'lgan sportchilar qatoridan joy oldi. Jamiyatda Muhammad singari imkoniyati cheklangan bolalar ko'pchilikni tashkil qiladi. Aksariyat ota-onalar tengdoshlarining kamsitish va haqoratiga duchor bo'lmasligi uchun ularning umumta'lim maktablarida ta'lim olishini istamaydi yoki alohida ehtiyojli bola sog'lom bolalardek bir xil e'tiborda o'qishi lozim deya hisoblamaydi. Mutaxassislarning fikriga ko'ra, ta'lim nogironlar uchun yashash quroli sanaladi. Chunki ularda jismoniy mehnat bilan shug'ullanish imkoniyati kam bo'ladi. Shuning uchun bu kabi bolalarning o'qishini ta'minlash ularning jamiyatda munosib o'rin topishiga, o'z ehtiyojlari uchun daromad topishiga xizmat qiladi.

3-bosqich: Hayoliy go'zallik" strategiyasi. Tarqatmali materiallar ustida ishlash. Har bir tinglovchi uchun alohida so'z, gap tuzish, ifodalash, jamoa bo'lib matn yaratish, matnga sarlavha berish; Masalan,



oila



ota-ona



muassasa



e'tibor



munosabat



iqtidor



aybdor



manfaat

4-bosqich: 4K modeli asosida xulosaviy fikr-mulohazalarini taqdim etish.

Xulosa: Blum taksonomiyasi asosida: tafakkurning rivojlanishini bilish, tushunish, qo'llash, tahlil, umumlashtirish, baholash darajalarida mulohaza yuritish; Guruh a'zolari alohida yakka tartibda mushohada bildiradi; Guruh ishi jamoaviy tarzda mushohada bildiradi; 4 ta guruh bitta sarlavha negizida umumiy



mushohada yuritishi lozim; Fanlarni o'qitishda 4K modeli ahamiyati (inklyuziv ta'lim misolida). **Baholash mezonlari:** Assesment metodi, Keys-stadi metodi, "Esse usuli" da uyga vazifa berish. Mavzuga oid esse yozish va keyingi o'quv yiliga tayyor mulohazalarini taqdim etishga o'z oldiga maqsad qo'yish.

Munozaralar. Frayer modeli (Frayer diagrammasi) – grafik organizator. U birinchi marta Doroti Frayer va uning Viskonsin universitetidagi hamkasblari (Ueyn Fredrik va Gerbert Klausmeyer) tomonidan 1969 yilda ixtiro qilingan. Frayer modelining maqsadi (Frayer, 1969; Buehl, 2001) notanish tushunchalar va lug'atni aniqlashdir. Frayer modeli so'zlarning ma'nosi va tuzilishini aniqlash, aniqlashtirish va tahlil qilish uchun to'rt kvadratli modeldir. Tanlangan diqqat so'zi varaq yoki qog'ozning o'rtasiga oval shaklida yoziladi. Ba'zan gapning bo'lagi ovalga kiradi.

Ismi _____ **Sana** _____

Nomlanishi:

Yo'nalishlar:

TA'RIF fr. <i>Inclusif</i> – qamrab olaman, lot. <i>Include</i> - kiritaman, qo'shaman. Ing. Inclusive, inclusion – uyg'unlashmoq, uyg'unlashtirmoq, qamrab olmoq.	XUSUSIYATLARI inklyuziv ta'lim maxsus ta'lim ehtiyotlari bo'lgan bolalar sinfda oddiy bolalar bilan oqitilganda.
bu barcha bolalar, jismoniy, intellektual va boshqa xususiyatlaridan qat'iy nazar, umumiy ta'lim tizimiga kiritilgan o'quv va tarbiya jarayoni. Ular nogiron bo'lmagan tengdoshlari bilan, ularning maxsus ta'lim ehtiyojlarini inobatga olgan holda, jamiyatdagi asosiy maktablarda o'qiydilar. MISOLLAR	INKLYUZIV TA'LIM ASOSLARI *Imkoniyatlarning teng bo'lgani - To'siqlari mavjud muhit - Noto'g'ri tashxis qo'yish - Tizimlilik yo'q - Resurs o'qituvchi mavjudligi inobatga olinmaydi - Jamiyatning xabardorligi shart emas, faqat ta'limga jalb etilsa bo'lgani Noto'g'ri misol/sinonim-antonim/illyustratsiyalar

Fikringizni bayon eting _____

Xulosa

XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirishda 4K ko'nikmalarini shakllantirish hamda tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish bo'yicha kurs tinglovchilari bilan o'quv



moduli bo'yicha tegishli yangi bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirishda **butun sinf bilan munozara** – tasvirlangan ijtimoiy xabardorlik va inklyuzivlik mavzulari haqida munozara olib boring, muhokama qilingan asosiy g'oyalar, tushunchalarning vizual ko'rinishini yaratish uchun doska yoki oq qog'ozdan foydalaning. O'quvchilarning fikrlari, munosabati va hikoyaning ularga aloqador joylarini o'zaro o'rtoqlashishga undang. **Kichik guruh mashg'ulotida** – o'quvchilarni kichik guruhlarga bo'ling, har bir guruhga ijtimoiy xabardorlik va inklyuzivlikni targ'ib qiluvchi turli bolalar kitoblarini bering. Guruhlarga o'zlari uchun tayinlangan kitobni birgalikda o'qishni va mavzular, qahramonlar va inklyuzivlik g'oyalarini muhokama qilishlarini ayting. O'quvchilardan hikoyadagi qahramonlar boshqalarga nisbatan hamdardlik, hamfikirlik va hurmatni qanday namoyon qilishiga oid muayyan misollar topishlarini so'rang. **“Galereya bo'ylab sayr” strategiyasi va mulohaza yuritish** - har bir guruhni kitob muqovasi, qisqacha xulosa hamda ijtimoiy xabardorlik va inklyuzivlik mavzulariga oid illyustratsiyalarga ega plakat yoki ko'rgazma yaratishga yo'naltiring. Guruhlar aylanib, bir-birlarining ko'rgazmalarini ko'zdan kechirishi uchun “Galereya bo'ylab sayr” o'tkazing. **Individual mulohaza yuritish** – mulohaza uchun ish varaqlarini har bir o'quvchiga taqsimlang. O'quvchilardan kitoblarda muhokama qilingan ijtimoiy xabardorlik va inklyuzivlikka oid mavzularda hamda o'zlarining inklyuzivlik borasidagi tajribalari haqida fikr yuritishlarini so'rang. Ulardan sinfda va jamiyatda yanada inklyuziv va empatik (o'zgalarning his-tuyg'ularini tushunish) muhitni yaratishga qanday qilib hissa qo'shishlari mumkinligini haqida so'rang. **O'rtoqlashish va yakunlash** – bir necha o'quvchilarga fikrlarini sinf bilan bo'lishish imkonini bering. Mashg'ulot davomida muhokama qilingan asosiy fikrlarni umumlashtiring, ijtimoiy xabardorlik, hamdardlik va inklyuzivlikning ahamiyatini ta'kidlang. O'quvchilarni ijtimoiy xabardorlik va inklyuzivlik haqidagi tushunchalari o'zaro munosabatlarida va harakatlarida qo'llashga, yanada inklyuziv va empatik muhitni rivojlantirishga undang. Xulosa qilib aytganda, inklyuziv ta'limning asosiy qismi – bolalarga bilim olish uchun do'stona munosabat va o'qishga imkon beruvchi muhitni yaratishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “2022–2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida”gi PF-134-son Farmoni.
2. 2019-yil 29-apreldagi “O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5712-son Farmoni.
3. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2023-yil 14-noyabrdagi 540-son buyrug'i.



4. Bolalarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish bo'yicha metodik qo'llanma. Peyshens Soya, Zuxra Saliyeva, Dilduza Karimova. T.: 2023.
5. "Inklyuziv ta'limning dolzarb masalalari: muammo va ularning yechimlari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. "Lesson-Press" nashriyoti, Toshkent-2021.

ALOHIDA YORDAMGA MUHTOJ BOLALAR TOIFALARI VA ULARNING INTEGRATSIYASI

Ibodulloyev Nurali Sheraliyevich – Buxoro
davlat pedagogika instituti Pedagogika
kafedrasida o'qituvchisi
E-mail: nuraliibodulloyev@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada alohida yordamga muhtoj bolalar toifalari va ularning integratsiyasi haqida ma'lumotlar, qanday bolalarni alohida yordamga muhtoj bolalar toifasiga kiritish kerak qanday bolalar alohida yordamga muhtoj emas. Alohida yordamga muhtoj bolalar me'yorda rivojlangan tengdoshlari orasida inklyuziv ta'limda yoki ixtisoslashtirilgan ta'lim-tarbiya muassasalarida tarbiyalanishi va o'qitilishi maqsadga muvofiq. Bolaning umumiy rivojlanishiga har tomonlama kuchli ta'sir etgan nuqsonlargina uni alohida yordamga muhtoj bola deb hisoblashga asos bo'lishi mumkinligi haqida berilgan.

Kalit so'zlar: ixtisoslashtirilgan, alohida yordamga muhtoj, integratsiya, bilish jarayonlari, defektologiya, autizm, kompleks, daun, irsiy omillar, toifalar.

Bola dunyoga kelgan kunlaridan boshlab ko'radi, eshitadi, biror narsa tekkanini, og'riq, issiq, hid va ta'mni his etadi. Tevarak-atrofdagi borliqni bilish – sezish va idrok qilishdan, ya'ni voqelikdagi narsa va hodisalarning bola ongida aks etishidan boshlanadi. Bolaning idroki hayotining dastlabki yillaridayoq ancha takomillashadi va ikki yoshida u buyumlarning rangi, shakli, katta-kichikligiga qarab bir-biridan farq qila boshlaydi, tanish ohangni ajratadi va hokazo. Unda xilma-xil sensor qobiliyatlar: ko'rish va ko'zdan kechirish, tinglash va eshitish, buyumlarni tashqi belgilariga qarab ajratish, ko'zi ko'rayotgan va eshitayotgan narsaga taqlid qilish qobiliyati rivojlanib boradi. Bola turli taassurotlar olib turishi – buyumlarni ko'rish, ushlab bilishi, kattalarning ishlarini kuzatishi, xilma-xil tovushlarni eshitishi kerak. Bu bolalarning sensor rivojlanishlari uchun zarur shartdir. Sensor qobiliyatlarning o'z vaqtida rivojlanishi esa bolalarning aqliy tarbiyasi uchun zamin yaratadi. Diqqat, xotira, intilish, qiziqish va boshqa shu singari ruhiy jarayonlar bolaning aqliy rivojlanishi uchun katta ahamiyatga ega.

Bola nutqining o'z vaqtida va to'g'ri rivojlanishi aqliy rivojlanishining asosidir. Nutq ruhiy jarayon: idrok, xotira va boshqalarning rivojlanishiga, bolalarning faoliyatiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bolalar nutqi rivojlanishni boshlashi bilan kattalar so'zlarining tarbiyaviy vosita sifatidagi roli ortib boradi. Bola shaxsining tarkib topishi hayotining birinchi kunlaridanoq boshlanadi. Bola har kuni ko'rgan va eshitganlari asosida borliqqa va tevarak-atrofdagi kishilarga o'z munosabatini bildiradi, kattalarning xatti-harakatlari, ishlariga, sodir bo'layotgan voqealarga bolaning beradigan bahosi, kishilarga bo'lgan munosabati – bularning hammasi bola ma'naviy qiyofasining shakllanishiga ta'sir etadi. Bolaning xoh ona qornida, xoh tug'ilganidan keyin rivojlanib borishi uchun zarur bo'lgan ma'lum shart-sharoitlarning buzilishi turli xil anomaliyalarga, ya'ni jismoniy yoki ruhiy rivojlanishidagi nuqsonlar, kamchiliklarga olib kelishi mumkin.

Defektologiya (Korreksion pedagogika) fanida alohida yordamga muhtoj bolalarning turli xil toifalari ustida ish olib boriladi.⁸⁹

Ular quyidagilardir:

- 1) eshitish kamchiliklariga ega bo'lgan bolalar (kar, zaif eshituvchi bolalar, kech kar bo'lib qolgan bolalar);
- 2) ko'rish qobiliyati zaif (ko'r, zaif ko'ruvchi bolalar);
- 3) aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar;
- 4) nutqiy nuqsonlari bor bolalar;
- 5) harakat-tayanch a'zolarida kamchiliklari bo'lgan bolalar;
- 6) ruhiy rivojlanishi sust bolalar;
- 7) mujassam kompleks nuqsonli ko'r-kar-soqov bolalar;
- 8) rivojlanishida murakkab ko'p nuqsonli bolalar;
- 9) autizm sindromiga chalingan bolalar.

Alohida yordamga muhtoj bolalar me'yorda rivojlangan tengdoshlari orasida inklyuziv ta'limda yoki ixtisoslashtirilgan ta'lim-tarbiya muassasalarida tarbiyalanishi va o'qitilishi maqsadga muvofiq. Bolaning umumiy rivojlanishiga har tomonlama kuchli ta'sir etgan nuqsonlargina uni alohida yordamga muhtoj bola deb hisoblashga asos bo'lishi mumkin. Masalan, bolaning faqat chap qulog'i eshitsayu, bu nuqson uning har tomonlama rivojlanishiga ta'sir etmaydigan, u maktab tengdoshlari qatori o'zlashtiradigan bo'lsa, u alohida yordamga muhtoj bolalar toifasiga kirmaydi. Katta yoshdagi kishilarda ma'lum sabablarga ko'ra paydo bo'lgan nuqsonlar ham ularning umumiy rivojlanishiga ta'sir etmasa, bu kishini alohida yordamga muhtoj deb hisoblash mumkin emas. Alohida yordamga muhtoj bolalarning jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida kuzatiladigan og'ir, keskin o'zgarishlar bola shaxsining tarkib topishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun bunday bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish uchun maxsus sharoit yaratilishi kerak, ya'ni ular maxsus ixtisoslashtirilgan

⁸⁹ V. S. RAXMANOVA DEFEKTOLOGIYA ASOSLARI



maktabgacha ta'lim muassasalari va maktablarda yoki me'yorda rivojlangan tengdoshlari orasida hamma qatori va agarda kerak bo'lsa, maxsus dastur va darsliklar asosida o'qitilishi va tarbiyalanishi zarur, ular alohida yordamga muhtoj. Har qanday alohida yordamga muhtoj bolada kuzatiladigan nuqson markaziy yoki periferik nerv sistemasidagi organik yoki funksional o'zgarishlarga aloqador bo'lishi mumkin.

Bola rivojlanishidagi turli xil kamchiliklar noqulay muhit, noto'g'ri tarbiya, ta'lim natijasida ham paydo bo'lishi mumkin. Masalan, noqulay oilaviy sharoit, pedagogik qarovsizlik, o'qituvchining bolaga noto'g'ri munosabati va boshqa ko'pgina sabablar bola rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatib, uning dastur materiallarini yaxshi o'zlashtira olmasligiga, ulgurmovchi o'quvchilar orasiga qo'shilib qolishiga sabab bo'ladi. Shunday bo'lsada, biz bunday bolani alohida yordamga muhtoj bolalar toifasiga kiritmaymiz, chunki uning rivojlanishidagi kamchiliklar organizmdagi qanday bo'lmasin biror organik yoki funksional patologik o'zgarishlarga bog'liq bo'lmay, balki boshqa sabablardan kelib chiqqan. Ota-ona, tarbiyachi va o'qituvchilar bunday bolalarni alohida yordamga muhtoj bolalardan farqlay oladigan bo'lishlari kerak. Kelib chiqish sabablariga ko'ra har qanday nuqsonli rivojlanish tug'ma yoki turmushda orttirilgan bo'lishi mumkin. Tug'ma nuqsonlar ko'p jihatdan homilador onaning sog'lig'i va yashash sharoitiga bog'liq. Ona qornidagi homilaning rivojlanishiga infeksiya, intoksikatsiya, shikastlanish va boshqa omillar ta'sir etishi mumkin. Onaning homiladorlik davrida turli xil kasalliklar bilan og'rishi, o'zboshimchalik bilan turli dori-darmonlarni bilar-bilmas iste'mol qilishi bolaning nuqsonli bo'lib tug'ilishiga sabab bo'lishi mumkin. Tug'ma nuqsonlar genetik, ya'ni irsiy omillar ta'siriga ham bog'liq bo'lishi mumkin. Masalan, eshitish, ko'rish analizatori faoliyatining buzilishi, aqliy zaiflikning nasldan bolaga o'tishi ham kuzatiladi (fenilketonuriya, Daun kasalligi, rezus faktorning mos kelmasligi va boshqalar). Ota-onalarning alkogolizmi, narkomaniyasi, toksikomaniyalari ham bolaning nuqsonli bo'lib tug'ilishiga olib kelishi mumkin. Turmushda orttirilgan nuqsonlar bola organizmiga tug'ilish vaqtida va undan keyingi davrlarda zararli omillar ta'sir etishi natijasida vujudga keladi. Tug'ruq vaqtida miya shikastlanishi, bolaning kindigi o'ralib, bo'g'ilib qolishi (asfiksiya) va boshqalar, ba'zan uning nuqsonli rivojlanishiga olib kelishi mumkin. Bolaning ilk yoshligida (uch yoshgacha) turli kasalliklar bilan og'rishi, masalan, meningit, meningoensefalit, otit, markaziy nerv sistemasining shikastlanishi va boshqa shu singari dardlarni boshidan kechirishi ham nuqsonli rivojlanishiga sabab bo'lishi mumkin. Mamlakatimizda bolalarning jismoniy yoki ruhiy rivojlanishidagi nuqsonlarning oldini olish yuzasidan ko'pgina choralar ko'rilmogda, bu sohada anchagina yutuqlarga ham erishildi.

O'zbekistonda aholini davolash-profilaktikasi kengaygani hamda meditsina sohasidagi katta yutuqlar munosabati bilan alohida yordamga muhtoj bolalar soni nisbatan kamaydi. Bolalarning chechak, o'lat, tif, vabo, traxoma,



qizamiq va bolalarga xos boshqa yuqumli kasalliklar orqasida alohida yordamga muhtoj bo'lib qolish hodisalari uchrab turadi. Irsiy omillar hamda intoksikatsiya va organizm shakllanayotgan paytda bosh miya, analizatorlarning zararlanishiga olib boradigan boshqa sabablar tufayli bolaning alohida yordamga muhtoj bo'lib qolish hollari hali ham uchrab turadi.

Integratsiya keng ma'noda ijtimoiy integratsiya yoki jamiyatga integratsiya va pedagogik integratsiya yoki ta'limga integratsiyani o'z ichiga oladi. Ijtimoiy integratsiya – rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolani ijtimoiy munosabatlar va xatti-harakatlarning umumiy tizimiga ijtimoiy adaptatsiyasidir. Nogiron bolani jamiyatga integratsiya muammosi bir tomondan psixik va jismoniy rivojlanish kamchiliklarining mavjudligi bilan, ikkinchi tomondan ijtimoiy munosabatlar tizimining mukammal emasligi, ya'ni ba'zi talablarini ma'lum darajada keskinligi hayot faoliyati cheklangan bola uchun o'ta olmaydigan to'siqqa aylanishi bilan ifodalanadi. Nogironlarni jamiyatga integratsiyasining ikki yondashuvi mavjud. Birinchi yondashuv nogironni jamiyatga integratsiyasini mavjud atrof-muhit shart-sharoitlarga moslashishini nazarda tutadi. Albatta, mazkur yondashuv bir tomonlama va juda tordir. Ikkinchi yondashuv nogironni jamiyatga kirishga tayyorlash va jamiyatni nogiron bolani qabul qilishga tayyorlashni nazarda tutadi. Nogironni jamiyatga kirishga tayyorlash bo'yicha ko'pgina ishlar amalga oshirilgan bo'lsada, jamiyatni nogiron bolani qabul qilishga tayyorlash bo'yicha ishlar endi muhokama qilinmoqda.

T.V. Furiyeva bolalar integratsiyasining to'rt turini (jismoniy, funksional, ijtimoiy va ijtimoiy-etel) ajratib ko'rsatgan. Jismoniy integratsiya – bolalarni bir binoda faoliyat ko'rsatishi⁹⁰. Muallifning ta'kidlashicha, integratsiyaning bu turi bolalar dunyolari orasidagi masofani qisqartirishning boshlang'ich davridir. Funksional va ijtimoiy integratsiya uchun predmet-fazoviy birlashuv xosdir. U predmetli munosabatlar, shaxslararo aloqalar, muloqotni tashkil etish orqali amalga oshiriladi. Ijtimoiy-etel integratsiya ijtimoiy masofalarning to'liq qisqarib ketishi, faoliyatdagi teng huquqli hamkorlik, subyekt-subyekt munosabatlarini nazarda tutadi. Ijtimoiy adaptatsiya – o'zgaruvchan hayot sharoitlariga insonning moslashuv qobiliyati bo'lib, u ijtimoiylashuv va integratsiyaning muhim mexanizmidir. Ijtimoiy adaptatsiya turli faoliyatlar (o'yin, muloqot, o'qish, mehnat) va insonni o'zini anglash jarayonida amalga oshadi. Mazkur faoliyat turlari bir vaqtning o'zida hayotning turli bosqichlarida adaptatsiya vositalari, maqsadlari va natijalari sifatida xizmat qiladi.

Imkoniyati cheklangan bolalarga ta'lim-tarbiya berish sohasida esa ta'limga integratsiya va maxsus maktablarni mavjudligi ikki o'zaro parallel zaruriy shartlar hisoblanadi. Mazkur ikki shart ta'lim- tarbiya tizimini moslashuvchanligi

⁹⁰ Фурьева Т.А. Интегрированный подход в организации воспитания и обучения детей дошкольного возраста с проблемами в развитии (зарубежный опыт). / Дефектология, №1, 1999.



va tartibini ta'minlagan holda bu bolalarni ehtiyojlarini o'zgargani sari unga qo'shilish yoki uzoqlashish imkoniyatini yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. *Shomaxmudova .R.Sh Inklyuziv ta'lim (Xalqaro va O'zbekistondagi tajribalar) Toshkent-2011*
2. *Xodjayev. B Umumiy Pedagogika nazariyasi va amaliyoti Toshkent-2017 (188bet)*
3. *Grigoryans N.A Saidakbarova.T, Fayziyeva Z.Sh. Ko'rishida muammosi bo'lgan bolalar inkluziv ta'limi.-T.O'XTV, A. Avloniy nomidagi XTRXMOI, UNICEF, 2005.*
4. *P. Pulatova Maxsus pedagogika (Oligofrenopedagogika). T.:*
5. *«G'afur G'ulom», 2007.*
6. *V.S. Raxmanova. "Maxsus pedagogika". -T., "G'afur G'ulom", 2004.*
7. *Федюкин В.К. Квалитология: Учебное пособие. Часть 1. — СПб.: Издво СПбГИЭУ, 2002.*
8. *Фурьева Т.А. Интегрированный подход в организации воспитания и обучения детей дошкольного возраста с проблемами в развитии (зарубежный опыт). / Дефектология, №1, 1999.*
9. *Федюкин В.К. Основы квалиметрии. — М.: Изд-во «ФИЛИНЪ», 2004.*
10. *Ibodulloyev, N. S. (2023). SINFDAN TASHQARI O 'QITISH ISHLARINI TASHKIL QILISHDA O 'QUVCHILARDAGI KREATIV FIKRLASH KO 'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY VA NAZARIY ASOSLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(11), 36-40.*
11. *Ibodulloyev, N. S. (2023). SINFDAN TASHQARI O 'QITISH SHAKLLARI ASOSIDA O'QUVCHILARNING KREATIV SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH VA SINFDAN TASHQARI O 'QISH DARSLARINING MUHIM VAZIFALARI. INTELLECTUAL EDUCATION TECHNOLOGICAL SOLUTIONS AND INNOVATIVE DIGITAL TOOLS, 2(17), 150-153.*
12. *Ibodulloyev, N. S. (2023). TECHNOLOGY OF DEVELOPING STUDENTS'CREATIVE QUALITIES BASED ON FORMS OF EXTRACURRICULAR EDUCATION. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(4), 798-803.*



INKLYUZIV SHAROITDA BOSHLANG'ICH SINFDA TAHSIL OLAYOTGAN ALOHIDA TA'LIMGA EHTIYOJI BO'LGAN O'QUVCHILARNING TAFAKKUR XUSUSIYATLARINI ANIQLASHNI TADQIQOT USULLARI

Kasimova Mashhura Maxamadaliyevna –
Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti
“Pedagogika va psixologiya” kafedrası o'qituvchisi
E-mail: mashxurakasimova@mail.ru

5. Ahmad, Fouzia Khursheed (2015b): Exploring the Invisible: Issues in Identification and Assessment of Students with Learning Disabilities in India. Transcience: A Journal of Global Studies vol.6, no 1. pp. 91-107.
6. Arnsen, A. and Lundahl, L. (2006): Still social and democratic? Inclusive education policies in the Nordic Welfare States. Scandinavian Journal of Educational Research vol. 50, no 3, pp. 285-300.
7. Chitiyo, M. (2007): Special education in Zimbabwe: Issues and trends The Journal of the International Association of Special Education, vol. 7, no. 1, pp. 22-27.

UMUMTA'LIM MAKTEBLARIDA INKLYUZIV TA'LIMNI BOSHQARISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Mo'minova Qunduz Xolmamat qizi – A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot instituti Tayanch doktoranti.

Annotatsiya. Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida inklyuziv ta'limni takomillashtirish tamoyillari xususida mulohazalar berilgan. Inklyuziv ta'lim nima, uning mohiyati haqida fikrlar bildirilgan. Inklyuziv ta'limning ta'lim



samaradorligidagi o'rni aniqlangan. Ta'lim sifati yuqori baholangan mamlakatlarda inklyuziv ta'limni yo'lga qo'yish ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: *inklyuziv ta'lim, ta'lim samaradorligi, ta'lim sifati, mexanizmlar, ko'zlangan maqsadlar*

Xalq ta'limi tizimi deb muayyan mamlakatlar ichki va tashqi taraqqiyotiga tavsif beruvchi hamda ma'lum bir qoidalar asosida tashkil etilgan barcha ta'lim-tarbiya muassasalarining tuzilishiga aytiladi.

O'zbekistonda Xalq ta'limi tizimi respublikamizni ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlantirishning ustuvor sohasi hisoblanadi. Xalq ta'limi tizimi respublikamizning ilm borasidagi kuch-quvvatini, jamiyat, oila va davlat oldidagi o'z mas'uliyatini anglaydigan erkin shaxsni shakllantirish maqsadini ko'zlaydi.

Xalq ta'limi tizimi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risidagi qonunga muvofiq tashkil etiladi va nazorat qilinadi. Respublikamiz Konstitutsiyasining 18 va 41- moddalarida ko'rsatilganidek, barcha fuqarolar jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, bilim olish huquqiga egadirlar. Shuningdek, fuqarolarning bepul umumiy ta'lim olishi davlat tomonidan kafolatlangandir. Bu huquq ilm olishning tekinligi, yoshlarga umumiy majburiy o'rta ta'lim berishni amalga oshirishni, o'qitishni hayot, unumli mehnat bilan bog'lash asosida rivojlantirish negizida izohlanadi.

1991-yilning 31-avgustida respublikamiz hayotida tarixiy voqea yuz berdi: Istiqlol e'lon qilindi. Shu munosabat bilan jahon tajribalaridan kelib chiqib, eng birinchi navbatda, mustaqil respublikamizning xalq ta'limi sohasida islohot o'tkazish masalasi ko'tarildi. Nihoyat, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni ta'lim tizimining yangilanishiga sabab bo'ldi. Oldingi qabul qilingan qonunlardan farqli o'laroq, xalq ta'limi tizimi tuzilishida bir qancha yangi qoidalar joriy etildi va bajarilishi majburiy, deb qayd qilindi.

Uzluksiz ta'lim kadrlar tayyorlash tizimining asosi, O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlovchi, shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor sohadir.

Uzluksiz ta'lim ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy boy shaxs shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar ham tayyorlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-dekabrda PF-5270-son "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019-yil 29-aprelda PF-5712-son Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida, 2020-yil 6-noyabrda PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi,



2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning strategiyasi to'g'risida"gi Farmonlari, 2020-yil 13-oktyabrdagi PQ4860-son "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berishni takomillashtirish" chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori, 2017-yil O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktyabrdagi 638-son "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berish"ga oid normativ huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risidagi qarori va boshqa hujjatlarda kadrlar masalasi, ta'lim mazmunini modernizatsiyalash, jarayonni metodik va didaktik ta'minlash vazifalari belgilab berilgan.

Inklyuziv ta'lim va uning mohiyati har qanday jamiyatda kelajak vorislari bo'lmish farzandlarni mas'uliyatni his etadigan, ularni davlat taraqqiyoti va gullab-yashnashiga salmoqli ulush qo'shadigan munosib fuqarolar bo'lib yetishishlariga katta umid bilan qaraladi. Dunyoga O'zbek modeli deb nom olgan rivojlanish yo'li bilan tobora ko'proq tanilayotgan O'zbekistonda ham bolalar huquqlarini himoya qilishga juda katta e'tibor berilmoqda. Mamlakatimizda maktab, litsey, gimnaziya, kollej kabi bilim dargohlari bilan birgalikda turli maxsus maktab internatlar, mehribonlik uylari faoliyat ko'rsatayotganligi ham fikrimizning isbotidir. Ko'plab davlatlarda bo'lgani kabi O'zbekistonda ham imkoniyati cheklangan bolalar uchun maxsus tashkillangan maktablar bor. Ularning vazifasi bolalarni maxsus o'quv yurtlariga tayyorlashdir. Bolalarni himoya qilish xalqaro tashkiloti Konvensiya tizimiga o'zining asosiy maqsadi etib bola huquqlarini asos etib oladi. Bola huquqlari xalqaro Konvensiya hamma bolalarning ehtiyojini hisobga olgan, huquq va qobiliyatlarini hurmat qiladigan ta'lim tizimini yaratish g'oyasini ilgari surdi. Chunki har bir bolada u sog'lommi yoki nogironmi takrorlanmaydigan xarakter, qiziqish, imkoniyat va bilimga ehtiyoj bor. Hamma bolalarning ehtiyojlarini hisobga olgan, huquq va qobiliyatlarini hurmat qiladigan, ijtimoiy adolat hamda tenglikka erishishni maqsad qilib olgan ta'lim tizimi inklyuziv ta'lim deyiladi. Inklyuziv ta'lim nogiron bolalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish hamda umumta'lim maktablarini nogiron bolalarga moslashtirishni ko'zda tutadigan, ijtimoiy adolat va tenglikni bosh maqsad qilib olgan jarayondir. Inklyuziv ta'lim ijtimoiy modelga asoslanadi va u muammoni bolada emas, balki dastur va metodologiyada deb hisoblaydi. Bunday ta'lim tizimiga ba'zi bir o'zgartirishlar kiritishni taqozo etadi. Bunda har bir bolaning ehtiyojini hisobga olgan holda o'quv rejalari tayyorlanadi, uslubiyotning psixologik muammolari bilan bog'liq tomonlari to'g'ri yo'lga qo'yiladi. Inklyuziv ta'lim hamma bolalarni, shu jumladan, nogiron bolalarni ham o'zlari xohlagan maktabda o'qishi mumkin, deb xulosa chiqaradi. Bolaning nogiron bo'lib qolishiga jamiyat, undagi muhit, tushunmovchiliklar, yo'l qo'yilgan xatolar sababchi bo'lgan. Bolalarni oilasidan, uyidan uzoqda bo'lgan internatlarga



joylashtirish ularning uyi, oilasi hamjamiyat hayotiga ishtirok etish huquqiga to'sqinlik qiladi. Uyidan, oilasidan, ota-ona mehridan uzoqda bo'lgan bola diydasi qattiq bo'lib o'sadi. Chunki oila tarbiyaning bosh markazidir. Inklyuziv ta'lim barcha uchun ta'lim sifatini yaxshilaydi. Inklyuziv ta'lim ta'lim sifatini yaxshilashga olib keladigan katalizator bo'lib xizmat qilishi mumkin. Maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim muassasalariga qabul qilinishi o'quvchilarni yanada bolaga qaratilgan faolroq va ko'proq o'quvchilarni qamraydigan yangi o'qitish uslublarini ishlab chiqishga undaydi. Buning nafi esa hamma bolaga tegadi. Inklyuziv ta'lim kamsitishlarni oldini olishga yordam beradi. Jamiyatda nogironlarga nisbatan yanglish fikr va munosabat juda yuqoridadir. Ular haqida ma'lumotlarning kamligi va ularni yoshligidan maxsus muassasalarda yopiq tarzda ta'lim tarbiya berilishi bunga sabab bo'lishi mumkin. Bunday munosabatni yo'qotish yoki kamaytirish ancha mushkul ishdir. Lekin tajribadan shu narsa ma'lumki, kattalarga nisbatan bolalar farqli va o'xshashlik jihatlarni tezroq anglar ekanlar. Agarda maxsus ehtiyojli bolalar normal rivojlanishdagi bolalar bilan birgalikda ta'lim tarbiya olsalar, bu barcha bolalarni nogironlarga nisbatan o'zlari singari bola ekanliklarni anglab, kamsitmasliklarini ta'minlagan bo'lar edi. O'zbekiston Respublikasida nogiron bolalar bilan bog'liq tahlil va dastlabki baholash ishlari 1966-yilda boshlangan. Hozirgi kunda O'zbekistonda 250000 ga yaqin turli ko'rinishdagi nogiron bolalar (16 yoshgacha) ta'lim olish ehtiyojiga ega. Nogiron bolalar uchun ta'lim bilan birgalikda maxsus xizmatlar tashkil etish lozim. Ko'zi ojizlar, kar va eshitish nuqsoniga ega bo'lgan bolalar, poliyemiyelit bilan kasallanganlar, aqli zaif bolalar, nutqida nuqsoni bor va soqov bolalarga mo'ljallangan 86 ta maxsus ta'lim va aralash maxsus muassasalar, 982 ta maxsus bolalar bog'chalari mavjud. O'zbekistonda maxsus ta'lim sohasida quyidagi tadbirlar amalga oshirilmoqda:

- yordamga muhtoj bolalar uchun moslashuvchan va ko'p qirrali ta'lim tizimini yaratish;
- mahalliy va mintaqaviy miqyosda maxsus ta'limning tobora oshib borayotgan ahamiyati asosida ta'lim boshqaruvini markazlashtirish;
- yordamga muhtoj bolalarga yoshlikdan tashxis qo'yish va kasalliklarni aniqlash uchun sharoit yaratish;
- milliy ta'lim standartlari asosida yordamga muhtoj bolalarga mo'ljallangan o'quv qo'llanmalar sifatini yaxshilash;
- ko'zi ojiz bolalar uchun mo'ljallangan turli kitoblar, metodologik adabiyotlarni chop etish;
- nogiron bolalarni maxsus aravachalar, eshitish moslamalari, ko'zoynaklar, sport anjomlari, ish asbob-uskunalar, kanselyariya mollari, maxsus mebellar va tibbiy uskunalar bilan ta'minlash;
- maxsus ta'lim sohasida kadrlar tayyorlash.



Demak, uning o'qishi uchun ham shu jamiyatning o'zi jon kuydirishi shart. Bugungi kunda respublika bo'yicha jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun jami 86 ta ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarda (keyingi o'rinlarda – ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari) 21,2 ming nafar, 21 ta sanatoriy turidagi maktab-internatlarda 6,1 ming nafar o'quvchilar ta'lim-tarbiya oladi. Shuningdek, uzoq muddat davolanishga muhtoj bo'lgan 13,3 ming nafar o'quvchilar uyda yakka tartibda o'qitiladi.

2014-2016 yillarda Yevropa Ittifoqi bilan hamkorlikda "O'zbekistonda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim" loyihasi amalga oshirildi. Loyiha doirasida:

- respublikaning 5 ta hududida tajriba-sinov maydonchalari tashkil etildi;
- 150 nafardan ortiq tibbiy-psixologik-pedagogik komissiya va 1,3 ming nafardan ortiq pedagog xodimlar inklyuziv ta'lim xizmatlariga o'qitildi;
- pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha ta'lim muassasalarining o'quv rejalariga ta'lim tizimiga inklyuziv amaliyotni tatbiq etishga doir 3 ta o'qitish moduli kiritildi;
- 2 ming nafardan ortiq alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar va ularning ota-onalariga inklyuziv ta'lim xizmatlari tashkil etildi;
- Toshkent, Samarqand, Namangan, Xorazm va Surxondaryo viloyatlarida 5 ta tajriba-resurs markazi hamda 15 ta tajriba maktablari tashkil etilib, ularga 800 nafardan ortiq bolalar qamrab olindi.

Inklyuziv ta'lim tizimini joriy qilish bo'yicha qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Mazkur hujjatlarda jamiyatimizning bir bo'lagi bo'lgan maxsus yordamga muhtoj bolalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ularga ta'lim-tarbiya berish, ularning sog'lom bolalar qatoridan o'rin olib o'z qobiliyati, imkoniyatlarini ko'rsata olishiga, ma'naviy kamol topishiga qaratilgan chora-tadbirlar belgilab berilgan.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentyabrdagi "Xalq ta'limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3931-son qarorida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ijtimoiy kafolatlarini ta'minlovchi chora-tadbirlar samaradorligini yanada oshirish, ularning ta'lim-tarbiya (shu jumladan, inklyuziv ta'lim-tarbiya) olishiga xizmat qiladigan moslashuv muhitini yaratish bo'yicha alohida vazifalar qayd etib o'tilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. F. Abidov. Inklyuziv ta'lim asoslari. Toshkent. 2022-yil. 78-bet.
2. U. Mahmudova. Bolalarni jalb qilish yo'llari. Samarqand. 1999. 101-bet.
3. [www. arxiv.uz](http://www.arxiv.uz)



INKLYUZIV TA'LIMNI TASHKIL ETISHDA INNOVATSION YECHIMLAR

Najmedinova Gulnora Nazarovna – Buxoro viloyati
Kogon shahar 3-umumta'lim maktabi direktori

Annotatsiya. *Inklyuziv ta'lim nogiron bolalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish hamda umumta'lim maktablarini nogiron bolalarga moslashtirishni ko'zda tutadigan, ijtimoiy adolat va tenglikni bosh maqsad qilib olgan jarayondir. Inklyuziv ta'lim maxsus ehtiyojli, nogiron bolalar ham faqat maxsus maktablarda emas, balki sog'lom bolalar o'qiydigan umumta'lim maktablarida ham ta'lim-tarbiya olishlari mumkin ekanligini e'tirof etadi. Buning uchun esa maktab ham, o'qituvchi-tarbiyachilar ham inklyuziv ta'lim tizimiga tayyor bo'lishi, maktab darajasi, jismoniy sharoit va o'qishga imkon omillari shu ta'lim talablariga to'la javob berishi kerak.*

Kalit so'zlar: *Inklyuziv ta'lim, tarbiya, ta'lim, pedagogik texnologiya, tiflopedagog, defektologiya, innovatsion metod, natijaviylik.*

Respublikamizda olib borilayotgan barcha islohotlarning maqsadi davlatimiz kelajagiga mustahkam poydevor qurishdan iborat. Bu poydevor sog'lom, yetuk va barkamol shaxslarni tarbiyalab voyaga yetkazish natijasida yaratiladi. Shuning uchun ham «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun qabul qilindi. Ta'lim sohasidagi bu islohotlar bugungi kunda o'z samarasini bermoqda. Mazkur huquqiy me'yoriy hujjatlar doirasi maxsus ehtiyojli bolalar ta'lim-tarbiyasini ham qamrab olgan. Maxsus ehtiyojli bolalar ta'lim- tarbiyasi masalasi bugungi kunda eng dolzarb masalalar sirasiga aylanib bormoqda.

Inklyuziv ta'lim–hamkorlikdagi ta'lim bo'lib, butun hamjamiyati tomonidan eng insonparvar va samarali ta'lim sifatida tan olingan. Inklyuziv ta'lim bu shunday ta'lim-tarbiya jarayoniki, unda jismoniy, ruhiy, aqliy va boshqa muammolaridan qat'i nazar barcha bolalar umumiy tarzda, o'z uyi va hududida, ehtiyojlariga mos barcha sharoitlar yaratilgan maktablarda, o'z tengqurlari bilan birga ta'lim olishi demakdir. Inklyuziv ta'limning maqsadi–alohida ehtiyojli bolalarning imkoniyatlaridan kelib chiqib, umumta'lim muassasalarida to'laqonli ta'lim olishlarini ta'minlash, ta'lim muassasalarida har bir bola uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratish. Imkoniyati cheklangan bolalar uchun ta'limning turli shakllari tashkil etilgan: maxsus ta'lim, uydagi ta'lim, inklyuziv, integratsion ta'lim va muruvvat uylari.

Imkoniyati cheklangan bola inklyuziv ta'limga erta jalb etilsa, mahallada bolalikdan qo'shni bolalar bilan o'ynaydi, ular bilan tanishadi, milliy qadriyatlarini anglay boshlaydi. Maktabgacha ta'lim davrida atrofdagi sog'lom insonlar va



tengdoshlari bilan muloqotga, erta o'z-o'ziga o'rganadi, maktab ta'limiga tayyor bo'ladi. Maktabda to'siqlar, muvaffaqiyatlar va kelajakka ishonch, toblanish davrida sog'lom odamlar bilan muloqotda davom etadi, atrofdagilarning salbiy va ijobiy qarashlariga duch kelayotganini anglaydi va ularga nisbatan o'zining mustaqil pozitsiyasini topib oladi. Endi u mustaqil hayotga qadam qo'yadi, mustaqil fuqaro sifatida o'qishi, ishlashi, turli munosabatlarda ishtirok etishga tayyor. Ota-ona va yaqinlari uning tashqariga chiqishidan xavotirga tushmaydi. Jamiyatda uning kimligi, nimaga qodirligini bilganlar, taniganlar unga ishonadi.

2020-yil 13-oktabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

“Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” gi PQ-4860-sonli qarori qabul qilindi. Qarorga asosan “2020 – 2025-yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi” amaliyotga tatbiq etildi.

2021-2022-o'quv yilidan boshlab umumta'lim maktablarida ham tajriba-sinov tariqasida inklyuziv ta'lim tizimi joriy etilgan edi. Xususan, Kogon shahridagi 3-umumta'lim maktabimizda ham imkoniyati cheklangan bolalar uchun inklyuziv ta'lim tizimi yo'lga qo'yilib, boshlang'ich tayanch sinflari tashkil etildi.

O'tgan o'quv yilida mazkur sinfda 10 nafar o'quvchi ta'lim olgan bo'lsa, 2023-2024-o'quv yilida ham 8 nafar o'quvchi viloyat psixologik-tibbiy komissiyasi xulosasiga ko'ra boshlang'ich korreksion sinfga qabul qilindi.

Imkoniyati cheklangan o'quvchilar uchun maktabda inklyuziv ta'lim bilan bir qatorda “Nutqiy va aqliy rivojlanish”, “Qo'l motorikasini rivojlantirish”, “Atrof-muhitga moslashish” kabi mashg'ulotlar ham tashkil etilgan.

Maktabda inklyuziv-korreksion ta'lim yo'nalishida malakali mutaxassislar, tajribali o'qituvchilar va 2 nafar oliy toifali defektologlar faoliyat olib bormoqda. Inklyuziv-korreksion sinf o'quvchilari uchun barcha sharoitlar yaratilgan bo'lib, muntazam ravishda shahar xalq ta'limi bo'limi mutaxassislari, mahalla fuqarolar yig'ini hamda shahar tibbiyot birlashmasi bilan hamkorlikda ish olib borilmoqda, bolajonlarning salomatligi muntazam shifokor va maktab hamshirasi nazoratida. Ushbu sinflarda ta'lim-tarbiya jarayonini olib borayotgan o'qituvchilarimiz maxsus adabiyotlar hamda metodik qo'llanmalar bilan ta'minlangan.

Inklyuziv ta'lim tizimida ota-onalar bilan ishlash ham juda muhim. Ta'kidlash joizki, alohida ehtiyojli bolalarimizning ota-onalariga ularning farzandlari jamiyatning bir bo'lagi bo'lish huquqiga ega ekanini tushuntirish, bu ishonchni ularning ongiga yetkazish kerak. Biz bu borada ham keng-ko'lamli hamkorlikni yo'lga qo'yganmiz. Biz pedagoglarning asosiy vazifamiz bolalarning qobiliyatlari va holatidan qat'i nazar, ularning barchasiga sifatli ta'lim taqdim etishdan iborat. Shu bilan birga, imkoniyati cheklangan bolalarning ijobiy ruhiy va ijtimoiy rivojlanishga ega bo'lishlari uchun, oilada yashashlari va o'z tengdoshlari bilan birga oddiy maktabda bilim olishlari uchun barcha-shart-sharoitlarni



yaratib berdik. Bugungi kunda maktabimizda tahsil olayotgan alohida ehtiyojli o'quvchilarimizning yurish-turishida, kundalik hayotida, nutqiy va aqliy rivojlanishida sezilarli o'zgarishlar ko'zga tashlanmoqda. Buning zamirida mashaqqatli mehnat hamda matonat mujassam.

Ushbu yo'nalishda yutuqlarimiz bo'lgani kabi kamchiliklar ham talaygina. Bizda ham xuddi chet eldagi kabi imkoniyati cheklangan bolalar uchun umumta'lim maktablarida sharoit yaratilsa, juda zo'r bo'ladi. Lekin bizda ba'zi muammolar bor. Masalan, kadrlar masalasi. Ko'rish qobiliyatida muammosi bor bolalar toifasi bilan tiflopedagog alohida ishlashi kerak. Bizda hali oliy ta'limda tiflopedagogikani o'qitadigan kadrlarning o'zi yo'q. Bundan tashqari, o'qituvchilarni ham ruhan tayyorlab olish kerak. Maktablarda o'qituvchilar ko'pincha lider o'quvchilar bilan ishlashga o'rgangan. Ular o'qituvchini tez ilg'aydi, tushunadi va yaxshi natijalar ko'rsata oladi. Sog'lom bolalar bilan bir maktabga boradigan imkoniyati cheklangan bolaning esa lider bo'la olish ehtimoli kam, sababi ular eshitishga, ko'rishga va tushunishga boshqalardan ko'ra ko'proq kuch sarflashi kerak bo'ladi. Shu narsalarni o'qituvchilar to'g'ri qabul qila olishi va ular bilan yaxshi munosabatni yo'lga qo'ya olishi zarur. Buning uchun esa avvalo ularning o'zi tayyor bo'lishi kerak. Agar umuman imkoniyati cheklangan bolaga dars o'tmagan o'qituvchining sinfiga shunday bolalar borsa, u dastlab bola tilini tushunmasligi, uning qiyin o'zlashtirishini qabul qila olmasligi mumkin. Shuning uchun o'qituvchilarni imkoniyati cheklangan bolalar bilan ham ishlashga o'rgatish lozim. Bolaning inklyuziv muhitda boshqalardan o'zini kam his qilmasligi, jismoniy imkoniyati cheklanganidan siqilmasligi uchun sharoit yaratish muhim. Sport maydonida boshqalar bilan yugurayotgan zaif ko'ruvchi bola kimgadir turtilib ketsa, boshqa bolalar uning ustidan kulishlari kerak emas. Agar kimdir masxara qiladigan bo'lsa, bola battar qobig'iga o'ralib oladi.

Inklyuziv ta'limga jalb etish global muammolardan biri hisoblanadi. Inklyuziv ta'limning asosiy qismi-bolalarga bilim olish uchun do'stona munosabat va o'qishga imkon beruvchi muhitni yaratishdir. Maxsus ehtiyojli bolalarning hayotiga ilk yoshdan ya'ni 6 yoshgacha e'tibor berilsa, ancha yuqori samaralarga erishish mumkin. Jamiyatda insonlar orasida nogiron bolalar haqida bilimlarning yetishmasligi oqibatida maxsus ehtiyojli bolalar ta'limdan chetda qolib ketmoqdalar. Bundan tashqari nogiron bolaning qobiliyatlari, huquqlari va ehtiyojlari muntazam ravishda qadrlanmasa, bolalarda o'ziga va qobiliyatlariga nisbatan salbiy munosabat shakllanib boradi. Qisqa qilib aytganda, bolaning hayotiga ertaroq e'tibor berilsa, natijasi bolaning keyingi rivojlanishida samarali ta'sir ko'rsatadi.

Bolada o'ziga ishonch va o'zini qadrlash hissini rivojlantirishda kattalarning qiyofasi juda muhim. Lekin juda ko'p maxsus ehtiyojli bolalar o'sib, ulg'ayayotgan bir paytda o'zlariga o'xshagan maxsus ehtiyojli katta odamlarni uchratmaydilar va katta bo'lish qandayligini tasavvur ham qila olmaydilar. Shuning uchun ham



maxsus ehtiyojli kattalar maxsus ehtiyojli bolalarning ta'limida doimiy ishtirok etishlari kerak. Chunki katta yoshdagi maxsus ehtiyojli insonlar ota-onalarga farzandiga ta'lim berish muhimligini tushuntirishi mumkin. Buning uchun esa maxsus ehtiyojli kattalarni maktablarga taklif etish kerak. Shunda ular o'zlarining hayotda erishgan yutuqlari haqida gapirib beradilar. Buning natijasida inklyuziv ta'limni targ'ib qilishda katta imkoniyat yaratiladi.

“Inklyuziv ta'lim imkoniyati cheklangan bolalarga nima beradi?”-degan savol tug'iladi. Tajribalarimiz asosida shuni aytishimiz mumkinki, avvalo, o'z imkoniyatini o'zi uchun kashf etish imkonini beradi, o'quvchining dunyoqarashi kengayadi, hayotiy tajribasi oshadi. O'qishga bo'lgan ishtiyoqi va qiziqishlari ortadi. O'zini barcha bilan bir xil his qila boshlaydi. Ilgari sezilmagan imkoniyatlari ochiladi. Yotsirash, yakkalanish kabi xususiyatlari yo'qoladi.

Har qanday jamiyatda kelajak vorislari bo'lmish farzandlarni mas'uliyatni his etadigan, davlat taraqqiyoti, gullab-yashnashiga salmoqli ulush qo'shadigan munosib fuqarolar bo'lib yetishishlariga katta umid bilan qaraladi. Zotan, L.S. Vigotskiy ta'kidlaganidek: “Har qanday ruhiy yoki jismoniy nuqsonda ham taraqqiyot davom etadi”.

INKYUZIV TA'LIMNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH

Rajabbayeva Manzura Raximberdiyevna –
Toshkent shahar, Yunusobod tumani,
260-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi, oliy toifali
o'qituvchi

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston sharoitida inklyuziv ta'limni innovatsion tarzda tashkil etishdagi mavjud muammolar tahlil etiladi hamda mehnat bozoridagi mobillikni ta'minlashda sifatli inklyuziv ta'limning o'rni va ahamiyati atroflicha yoritiladi. Mamlakatda uzluksiz professional ta'limni yangi bosqichda modernizatsiyalash sharoitida nogiron shaxslarni hayot davomida ta'lim olish tamoyillari asosida ta'lim-tarbiya jarayoni bilan to'liq qamrab olish bo'yicha xulosa va tavsiyalar bayon etiladi.

Kalit so'zlar: uzluksiz professional ta'lim, modernizatsiya, inklyuziv ta'lim, ta'limda innovatsiya, inson resurslari, hayot davomida ta'lim, ta'lim sifati, mehnat bozori, bandlik, kambag'allik.

Kirish. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuniga muvofiq inklyuziv ta'lim – ta'lim olish shakllaridan biri bo'lib, alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlagan holda beriladigan ta'limdir [2-bob, 15-modda; 1].



Inklyuziv ta'limning mavjud muammolari va qiyinchiliklari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- birinchidan, bolalar guruhi har doim ham maxsus bolani "o'zlaridan biri" sifatida qabul qilmasligi;

- ikkinchidan, pedagog-o'qituvchilarda inklyuziv ta'lim mafkurasini to'liq o'zlashtirilmaganligi va ta'lim-tarbiyaning zamonaviy usul va shakllarini joriy etishda qiyinchiliklarning mavjudligidir.

O'zbekiston Respublikasining "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi Qonunida "innovatsiya" va "innovatsion faoliyat"ga quyidagicha ta'rif berilgan: "innovatsiya – fuqarolik muomalasiga kiritilgan yoki shaxsiy ehtiyojlar uchun foydalaniladigan, qo'llanilishi amaliyotda katta ijtimoiy-iqtisodiy samaraga erishishni ta'minlaydigan yangi ishlanma", "innovatsion faoliyat – yangi ishlanmalarni tashkil etish, shuningdek ishlab chiqarish sohasida ularning o'tkazilishi va amalga oshirilishini ta'minlash bo'yicha faoliyat" deb, ta'rif berilgan [2].

Bugungi kunda inklyuziv ta'limni ilg'or pedagogik texnologiyalar va zamonaviy innovatsiyalar asosida tashkil etish dolzarb masala hisoblanadi. Shuni inobatga olgan holda inklyuziv ta'limda innovatsion texnologiyalarni joriy etishning nazariy asoslarini yaratish ko'p jihatda o'tkaziladigan tahlillar va amaliyotlar natijalariga ko'p jihatdan bog'liq.

Adabiyotlar sharhi (uslubiy materiallar sharhi). Respublikamizda bugunga qadar inklyuziv ta'limni rivojlantirish masalasi ko'plab olimlar va O'zbekistonda ta'limga innovatsion texnologiyalarni joriy etish masalasi J.G'.Yo'ldoshev, S.A.Usmonov, I.G.Mamajonov, E.G'afforov v.b.ning ishlarida bayon etilgan [6-9].

O'zbekistonda nogironligi bo'lgan bolalar ko'pincha alohida muassasalarda o'qitiladi. 2020 yilda bunday bolalar maxsus muassasalarda tarbiyalanayotganlarning 75 foizini tashkil etgan. Taxminan 9700ta nogironligi bo'lgan bolalar maktab ta'limi bilan qamrab olinmagan. Xalqaro amaliyot shuni ko'rsatdiki, inklyuziv ta'limni joriy etish ta'lim sifatini yaxshilashning kalitidir.

Portugaliya kabi mamlakatlarda nogironligi bo'lgan maktab yoshidagi bolalarning 98% dan ortig'i oddiy maktablarda o'qishi tufayli ta'lim sifati keskin yaxshilangan. Norvegiyada har bir o'quvchiga moslashtirilgan ta'lim, shuningdek, umumiy bolalar bog'chalari va maktablarida taqdim etiladigan maxsus ta'lim xizmatlaridan yaxshi natijalar kutilmoqda. Har ikki davlat ham Xalqaro talabalarni baholash dasturi (PISA) kabi xalqaro ta'limni baholash tizimida eng yaxshi natijalarga erishganlar qatoriga kiradi.

Nogironligi bo'lgan bolalar, har qanday bola kabi, ularning salohiyatini to'liq rivojlantirish uchun qo'llab-quvvatlansa, jamiyat rivojiga katta hissa qo'shishi mumkin. Ular, shuningdek, turfa dunyoda yashash qobiliyatini rivojlantiradilar hamda ijtimoiy mas'uliyat darajasi yuqori bo'lgan va o'z jamoalarini yaxshilashga tayyor bo'lgan faol fuqarolar bo'lib yetishadilar. Butun dunyo bo'ylab bolalar



maktabga qaytar ekan, 10 yoshli bolalarning uchdan ikki qismi oddiy matnni o'qiy olmasligi xavotirli holatdir. Bunday sharoitda maktabdagi barcha bolalar, jumladan nogironligi bo'lgan bolalar kabi ko'pincha ajratib qo'yiladigan guruhlar uchun ta'lim sifatini oshirish zarurati kuchaymoqda.

Tahlil va natijalar. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va hozirda mavjud qonun osti hujjatlari mamlakatimizda hayot davomida ta'lim olish tamoyillari asosida aholining keng qatlamini, asosan nogironligi bo'lgan yoshlarni o'qitishning qonuniy asosi bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi «O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5712-son [Farmoniga](#) muvofiq O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko'rsatiladigan ta'lim sifatini yaxshilash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 13 oktabrdagi 4860-son qarori bilan "2020 – 2025 yillarga mo'ljallangan Xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi" qabul qilindi.

Konsepsiyada nogiron bolalar oddiy tengdoshlari kabi ta'lim va tarbiya olish huquqiga egaligi qayd etildi va uni amaliyotga bosqichma-bosqich tatbiq etish metodologiyasi bayon etildi. Shuningdek, O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim muassasalarida kasbga o'qitish kurslari alohida e'tiborga muhtoj 18 yoshgacha bo'lgan bolalarning ta'lim olishi, aniq bir kasbni egallashi uchun ko'maklashish natijasida bitiruvchilarning quyidagi samaradorlik mezonlariga erishish ko'zda tutiladi:

o'rgangan kasbi bo'yicha mustaqil faoliyat yurita olish;

kasbiy faoliyatida kasbga doir texnologiyalarni to'g'ri va xatosiz tanlash va qo'llay olish;

xom ashyoning yuqori sifatiga baho bera olish va mahsulotni sifatli tayyorlay olish;

ishlab chiqarishda texnologik talablarni bajarish, xavfsizlik qoidalariga rioya etish;

ish vaqtini mustaqil rejalashtira olish, o'zini muntazam nazorat qilish, ish jarayonidagi vaziyatlarga baho berish va to'g'ri qarorlarni qabul qilish;

ish beruvchi va ishchi o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi mehnat haqidagi qonunlarni bilish;

mehnat faoliyatiga ijodkorlik bilan yondasha olish, innovatsion texnologiyalarni joriy qilish bo'yicha kreativ tashabbuslar ko'rsata olish;

bajargan ishi bo'yicha shaxsiy mas'uliyatni va javobgarlikni his qilish.



O'quv kurslari alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim muassasalarining o'quvchilariga kasb-hunar o'rganishini, ularda kasbiy bilim va ko'nikmalarni shakllantirishni, jismoniy, aqliy, sensor yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalarning kasb-hunarga ega bo'lishi va jamiyatda o'z o'rnini topishini ta'minlaydi.

O'quv kurslari barcha ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida 10-11-sinf (intellektual rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun (yordamchi) maktablar, maktab-internatlarning 8-9-sinf) o'quvchilari uchun tashkil etiladi hamda ta'lim berish muddati 2 yil bo'ladi.

O'quv kurslari kasbga mos zarur asbob-uskunalar bilan jihozlash hamda xom ashyo materiallar bilan ta'minlash ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim muassasasi joylashgan tuman (shahar) hokimligi tomonidan amalga oshiriladi.

O'quv kursida o'rgatiladigan kasblarning malaka talablari O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi bilan kelishgan holda tasdiqlanadi.

O'quv kursining maqsadi jismoniy, aqliy, sensor yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan o'quvchilarni kasb-hunarga o'rgatish, ularning qiziqishi, qobiliyati va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda kasb-hunar tanlash hamda kelajakda egallaydigan kasblari bo'yicha mehnat faoliyati bilan shug'ullanishlariga ko'maklashishdan iborat.

O'quv kursining maqsad va vazifalarini amalga oshirish uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida zarur tashkiliy, o'quv-metodik, moddiy-texnik va psixologik-pedagogik shart-sharoitlar yaratiladi.

O'quv kursidagi kasb-hunarning turiga qarab hududdagi tegishli tashkilotlar bilan tuzilgan shartnoma asosida amaliy mashg'ulotlar tashkil etilishi mumkin.

O'quv kurslarida o'quvchilarda kasbiy kompetensiyalar va amaliy mehnat ko'nikmalari rivojlantiriladi.

Imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlar inklyuziv ta'limi bugungi kunning eng dolzarb va muhim masalasidir. Chunki alohida ehtiyojli bolalar inklyuziv ta'limiga yangi innovatsion texnologiyalarni samarali qo'llash natijasida:

- imkoniyati cheklangan farzandlari mavjud bo'lgan oilalarning moddiy va ma'naviy muammolariga barham beriladi va mahallarda ajratish iskanjasidan qutulishga imkon yaratiladi;
- imkoniyati cheklangan bolalarni maktablar va jamoatchilik orasida kamsitishlarning oldi olinadi, bolalar o'rtasida tenghuquqlilik ta'minlanadi, do'stona munosabatlar shakllanadi;
- maxsus ehtiyojli bolaning o'z oilasi va jamiyat davrasida bo'lishdek ulkan imkoniyat yaratiladi;
- jamiyatning yanada inklyuzivlashuviga olib keladi;



- barcha uchun ta'lim sifati yanada yaxshilanadi;
- imkoniyati cheklangan bolalar sog'lom tengdoshlari orasida tabiiy sharoitlarda yashash va mehnat qilishga moslashadilar;
- imkoniyati cheklangan bolalarning ijtimoiy jamiyatga erta va samarali moslashishlari ta'minlanadi, ya'ni jamiyatda boshqalar ko'magiga qaramlar soni kamayadi.

Inklyuziv ta'limni joriy etish borasida Respublikamizda ko'zga ko'rinarli yutuqlar qulga kiritilayotgan bo'lsada ammo,

- juda ko'plab umumta'lim muassasalarida kompleks tibbiy pedagogik yordam olish imkoniyatining yo'qligi;
- umumta'lim muassasalari pedagoglari maxsus metodikalarni bilmaganligi sababli imkoniyati cheklangan bolalarning maxsus ehtiyojlarini qondira olmayotganligi;
- umumta'lim muassasalarida tiflotexnik, surdotexnik vositalar mavjud emasligi;
- sinfda o'quvchilar sonining ko'pligi natijasida imkoniyati cheklangan o'quvchilarga individual yondashish jarayoning qiyinligi;
- imkoniyati cheklangan bolalar o'qituvchi tomonidan ko'proq diqqat-e'tibor talab qilishi oqibatida, boshqa o'quvchilarning o'zlashtirishiga salbiy ta'sir ko'rsatayotganligi;
- umumta'lim muassasalarining binolari imkoniyati cheklangan bolalarning xususiyatlariga mos ravishda qurilmaganligi sababli maktabda harakatlanishga qiynalayotganligi;
- ota-onalarda inklyuziv ta'lim xususidagi tushunchalarning juda sayozligi natijasida, qarshiliklarning mavjudligi;
- imkoniyati cheklangan bolalar inklyuziv ta'lim uchun individual dasturlarning ishlab chiqilmaganligi kabi boshqa ko'plab muammolar kuzatilmoqda.

Ushbu muammolarni hal etish va inklyuziv ta'limning samaradorligini oshirishda muassasa pedagoglarining o'rni va roli juda katta. Inklyuziv ta'limni innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish va raqamlashtirishni joriy etilishi natijasida umumta'lim muassasalari pedagoglariga yanada yuqoriroq talablar quyiladi. Chunki, inklyuziv ta'lim pedagoglari har bir turdagi imkoniyati cheklangan bolalarni o'qitish va tarbiyalashning maxsus innovatsion usullarini, bolalar ruhiyatidagi o'ziga xosliklarni, imkoniyati cheklangan bolalar Korreksion Davlat ta'lim standartlarini ham mukammal bilishi talab etiladi. Shuningdek o'qituvchi normal rivojlanishdagi hamda alohida ehtiyojli o'quvchilar o'rtasida iliq-do'stona, samimiy munosabatlar o'yg'ota olishi, ota-onalar ongida inklyuziv ta'lim xususida ijobiy va to'liq tushunchalarni shakllantira olishi xam zarur.

Xulosa qilib aytganda, inklyuziv sinflarda o'quv tarbiya jarayoni ijobiy munosabat va ertaga bugundan ham yaxshiroq bo'lishiga ishonch bilan



yo'g'rilgan bo'lishi lozim. Har bir darsni shunday yakunlash lozimki, barcha o'quvchilar uni ishonch va mamnuniyat bilan hamda yana va yana o'qish, o'rganish ishtiyoqi bilan tark etsin. Ana shunday muhitni yarata olsakkina, chinakam inklyuziv jamiyatni qura olamiz. Barchasi biz pedagoglarning shijoati va mahoratiga bog'lik.

Xulosa va tavsiyalar:

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim muassasalarida kasbga o'qitish kurslari faoliyati Milliy malaka tizimiga uyg'unlashmagan;
- aholining zaif qatlamlari – ishsizlar, ayollar, migrantlar, nogironlar va boshqalar ta'limini moliyalashtirishga qaratilgan nodavlat sektor ishtirokida davlat dasturlarini amalga oshirish mexanizmi yaratilmagan;
- rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasi asosida tizimdagi o'quv muassasalarida faoliyat yuritayotgan xodimlarni diagnostika qilish orqali har bir xodim uchun individual uzluksiz o'quv dasturlari asosida malaka oshirish tizimini (elektron portfoliosini) joriy etish;
- kasbiy standartlar va xodimlar diagnostikasi asosida xorijiy ekspertlarni jalb qilgan holda xalqaro andozalar asosida tizimdagi rahbar va xodimlar uchun kompetensiyaga asoslangan malaka oshirish dasturlarini ishlab chiqish;
- malaka oshirish jarayonini “soft skills”, “worldskills” standartlari, “outcome-based education”, “adult education”, “competency based training”, dual ta'lim kabi kasbga o'qitish sohasidagi eng so'ngi tendensiyalarni qo'llash bo'yicha ishlarni amalga oshirish;
- individual ta'lim dasturlari asosida maqsadli malaka oshirish imkoniyatini beradigan onlayn malaka oshirish platformasini yaratish va joriy etish;
- har bir rahbar, xodim va o'quv muassasasi faoliyat samaradorligini raqamlashtirish va innovatsion baholash orqali ularning reytingini belgilash tizimini joriy etish;
- ko'rishda muammosi bo'lgan bolalarni Brayl tizimiga asoslangan yoki katta shriftlar bilan bosilgan o'quv materiallar va darsliklarning alternativ varianti bilan ta'minlash maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta'lim to'g'risida”gi PQ-637 son Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasining “Innovatsion faoliyat to'g'risida”gi Qonuni. O'RQ-630-son.
3. R.Shomaxmudova, A.Berdieva “Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta'limda o'qitish uslublari”. OOO “ISHONCH MARKAZ SERVIS” . 2008 y. 300 nusxa.

4. S.Q.Qaxxorov, D.S.Qaxxorova "Inklyuziv ta'lim tahlili". Zamonaviy ta'lim jurnali 2015 y. 8-son.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 13 oktabrdagi «Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» PQ-4860-son qarori.
6. "Inklyuziv ta'limning dolzarb masalalari: muammo va ularning yechimlari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. Toshkent shaxri. 2021 yil 26 mart, 335 bet.
7. J.G.Yo'ldoshev, S.A. Usmonov Pedagogik texnologiya asoslari: Qo'llanma.– T.:O'qituvchi, 2004. – 104 b.
8. I.G.Mamajonov "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. 2020 y. № 6, 119-124 b.
9. E.G'affarov Innovatsiya, ijtimoiy innovatsiya va innovatsion faoliyat: ilmiy-nazariy yondashuvlar. NamDU ilmiy axborotnomasi. 2019 yil, 10-son. 153-157 betlar.

INKLYUZIV TA'LIM O'QUVCHILARI SALOHİYATI VA QOBILIYATLARINI ANIQLASH VA JAMIYATDA O'Z O'RNINI TOPISHGA KO'MAKLASHISH

Raxmonova Ozodaxon Erkinjonovna –
Toshkent shahar Olmazor tumani
134- maktab boshlang'ich sinflarda Inklyuziv sinf
o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakatimizda joriy qilinayotgan yangi ta'lim tizimi ya'ni inklyuziv ta'lim tizimining takomillashuvi va bu ta'lim tizimini barcha ta'lim tashkilotlarida joriy qilinganligi, respublikamizda joylashgan ta'lim tizimlaridagi imkoniyati cheklangan bolalarga o'z tengdoshlari qatorida ta'lim berish va shu bilan bir vaqtda ularning ehtiyoji hamda qobiliyatlariga qarab individual yondashish, inklyuziv ta'lim tizimini rivojlantirish maqsadi va vazifalari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, inklyuziv, rivojlanish, takomillashuv, harakat, inklyuziya, maxsus ta'lim, uyg'unlashish, nogiron, imkoniyati cheklangan bola.

Ma'lumki, bola ongiga aloqador nogironlik mavjudligi ta'lim borasida sog'lom bolalar bilan bir xil qobiliyatga ega bo'lishiga yo'l qo'ymaydi. Yuqorida tasniflangan metodlar bosqichma-bosqich amalga oshirildi. Bizga ma'lumki, inklyuziv ta'limda nogironligi bo'lgan bolalarga teng huquq va imkoniyatlar tengligini berishdir. Masalan, maktabga sog'lom bolalarning barchasi borsa, nogiron bolalarning ham imkoniyati borlari to'la borishi kerak. Chunki inklyuziv

ta'limning oiladan, maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlab yo'lga qo'yilayotganligi muhim ahamiyatga ega. Bu esa bolaning keyinchalik atrofdagilar bilan muloqotda bo'lishiga, ijtimoiy muhit talablariga javob bera oladigan va shu bilan birga, kundalik-maishiy ehtiyojini qondirish ko'nikmalarini erta egallashlariga, hayotga moslashib, ta'lim muassasalarda tengdoshlari qatori darslarni o'z vaqtida o'zlashtirishiga, topshiriqlarga mas'uliyat bilan yondashish ko'nikmasini egallashlariga ko'maklashadi. Biroq inklyuziv ta'limni nafaqat nogiron yoshlar o'rtasida, balki sog'lom turmush tarzi mavjud bo'lgan oiladagi bolalar o'rtasida, maktabgacha ta'lim muassasalarida, maktablarda, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida, oliy o'quv yurtlarda fanlarni o'zlashtirish darajasi turlicha bo'lgan yoshlar orasida ham joriy etish mumkin. Nogironlikni o'zini uch guruhga ajratish mumkin va 1-2 guruh nogironlarini iloji boricha sog'lom bolalar bilan yaqinlashtirib, tarbiya jarayonini uyushtirish jamiyatni sog'lomlashtiradi, degan xulosaga olib keladi. Bu o'rinda hozirgi tarbiya jarayoni ayni shu yo'nalishda borayotganini ko'ramiz.



Inklyuziv ta'lim bu o'zi nima?

Inklyuziv – (inklyuziya – inglizcha [inclusion] – uyg'unlashish) Hamkorlikdagi ta'lim bo'lib, butun dunyo hamjamiyati tomonidan eng samarali, eng insonparvar ta'lim sifatida tan olingan. Imkoniyati cheklangan bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlariga sog'lom tengdoshlari bilan birga ta'lim olishidir. Inklyuziv ta'lim pedagog xodimlar va ota-onalar tomonida ta'lim jarayoniga ijodiy yondashuvni o'zida aks ettiradigan tabiiy jarayon hisoblanadi. Inklyuziv ta'lim rasmiy ta'lim tushunchasidan ancha kengroq. Bu ta'limda ko'proq o'qishda, o'rganishda imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlanadi. Inklyuziv bog'chada tarbiyachi qanday sifatlarga ega bo'lish kerak?

Inklyuziv ta'limda o'qituvchining kasbiy mahorati bosh omil hisoblanadi. Avvalo, o'qituvchi inklyuziv tafakkurga ega bo'lishi va ta'lim sifati mas'uliyatini o'z zimmasiga olishi shart. Inklyuziv ta'limni oiladan maktabgacha ta'lim muassasalarida, umumta'lim maktablarida, kasb-hunar kollejlari va oliy o'quv muassasalarida joriy etish natijasida alohida ehtiyoji bor insonlarga nisbatan umumiy munosabat o'zgarayotgani ma'lum bo'ldi. Bu esa ularning hayotda muvaffaqiyat qozonishi uchun omil bo'lib xizmat qilishi mumkin. Inklyuziv ta'lim imkoniyati cheklangan bolalarga umumta'lim jarayonidagi barcha tadbirlarda faol va muntazam ishtirok etish imkonini beradi. Buning natijasida stereotiplar shakllanishining oldi olinib, ko'rsatiladigan individual yordam imkoniyati cheklangan bolalarni jamiyatdan ajratib qo'ymaydi. Ular olgan ko'nikmalarini umumlashtirish imkoniga ega bo'lishadi. Imkoniyati cheklangan insonlar uchun ishlab chiqilgan va jamiyatga rejali asosda joriy etilayotgan inklyuziv ta'lim strategiyasi o'qishning uzluksiz va muttasilligini ta'minlaydi. Oila–bolalar bog'chasi–maktab–kasb-hunar kolleji–ish bilan ta'minlash – ushbu tizim kelajakda ota-onalarga imkoniyati cheklangan bolalarini umumta'lim muassasalari va oliy o'quv yurtlariga bimalol, xavfsiramasdan olib kelishlari uchun zamin yaratadi.



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash maqsadida 2020–2025-yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqildi.

Bu konsepsiyada alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash bo'yicha quyidagi vazifalar belgilandi:

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ta'lim oladigan ta'lim muassasalari binolariga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish va tasdiqlash;

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar o'qitiladigan ta'lim muassasalarini zarur adabiyotlar, metodik qo'llanmalar, turli kasblarga o'qitish uchun uskuna va jihozlar bilan ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni o'qitish uchun inklyuziv ta'lim tizimini tashkil etish, umumta'lim muassasalarini maxsus moslamalar qurilmasi, pandus, tutqich va boshqalar), shuningdek tegishli kadrlar (maxsus pedagog, bolalarni ruhiy-pedagogik kuzatish bo'yicha mutaxassislar) bilan ta'minlash;

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning moslashishi va integratsiyasi uchun maktab-internatlarni bosqichma-bosqich maxsus jihozlar bilan ta'minlash va boshqalar.

Inklyuziv ta'lim berish o'qituvchilar ishi sifatining asosiy mezonlari – o'qituvchi o'quvchilarning turli toifada ekanligiga qaramay barcha bolalarning huquqini himoya va hurmat qilishi; yana bir sifati – hamkorlikni yo'lga qo'yish. Chunki o'qituvchilar uchun hamkorlik va o'zaro fikr almashish muhimdir. O'qituvchi o'z faoliyatini tizimli baholab borishi, muntazam malakasini oshirishi, alohida ta'lim ehtiyojlari bor bolalarning intizomli va muassasalararo guruhlar bilan samarali ishlashi uchun liderlik hamda boshqaruv malakalarini qo'llash, muammolarni birgalikda hal qilish, keng qamrovli maktab hamkorligini yo'lga qo'yish kabi xislatlarga ega bo'lish kerak.



Inklyuziv ta'limda imkoniyati cheklangan bolalarga nima beradi? O'z imkoniyatini o'zi uchun kashf etish imkonini beradi; mustaqil harakatlanish birgalikda, hamkorlikda ishlash imkoniyati orqali yuzaga keladi; dunyoqarashi kengayadi, hayotiy tajribasi oshadi; o'qishga bo'lgan ehtiyoji va qiziqishlari ortadi; o'zini barcha bilan bir xil his qila boshlaydi; ilgari sezilmagan imkoniyatlari ochiladi; yotsirash, yakkalanish kabi xususiyatlari yo'qoladi. Inklyuziv ta'lim vazifasi bolalarning qobiliyatlari va holatidan qat'i nazar, ularning barchasiga sifatli ta'lim taqdim etishdan iborat. Shu bilan birga, inklyuzivlik tamoyili imkoniyatlari cheklangan bolalar ijobiy ruhiy va ijtimoiy rivojlanishga ega bo'lishlari uchun



oilada yashashlari va o'z tengdoshlari bilan birga oddiy maktabda bilim olishlari lozimligini nazarda tutadi. Ma'lumki, inklyuziv ta'limda maxsus ta'lim ehtiyojidagi bolalar barcha bolalar bilan birga ma'lum maqsadda turli qobiliyatlarga muvofiq guruhlashtiriladi. Maxsus ta'lim aqliy, jismoniy tashqi ko'rinishga muvofiq amalga oshirilsa, inklyuziv ta'lim bolaning qobiliyati va imkoniyatlariga ko'ra belgilanadi. Maxsus ta'lim o'qitishning maxsus va alternativ dasturlari orqali o'qitilsa, inklyuziv ta'lim bolaga yo'naltirilgan va moslashtirilgan, yo'riqnomali, barchaga mo'ljallangan o'quv dasturi asosida o'qitiladi. Inklyuziv ta'limning o'ziga xos muhim jihati shundaki, bolalar va o'qituvchi bir-birlaridan o'rganishadi hamda muammolarni birgalikda hal etishadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ta'lim tizimida inklyuziv ta'limning ahamiyati shundaki, imkoniyati cheklangan bolalarni ilk yoshlaridanoq sog'lom bolalar qatoriga qo'shib sifatli ta'lim olishini ta'minlagan holda bolada ruhiy va jismoniy hissiyotlarini va harakatlarini rivojlantirishdir. Nuqsoni bor bolalarni har tomonlama tarbiyalash orqali ularni ona Vatanga, tabiatga nisbatan go'zallikni his etishga, tafakkurini rivojlantirishga, bolalarning talab-ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni O'RQ-637-coh 23.09.2020.
3. Muzaffarova, X. (2021). INKLYUZIV TA'LIMNI AMALIYOTGA JORIY QILISH MASALALARI. Scienceweb academic papers collection.
4. Muzaffarova, X. (2021). MAKTABGACHA TARBIYA YOSHIDAGI BOLALARGA TA'LIM-TARBIYA BERISHDA KORREKSION METODLARINING MOHIYATI. Scienceweb academic papers collection.
5. Muzaffarova, X. (2021). BOLALAR PSIXIKANING RIVOJLANISHINI BELGILAYDIGAN OMILLAR. Scienceweb academic papers collection.
6. Muzaffarova, X. (2020). MAXSUS YORDAMGA MUHTOJ BOLALARNI TA'LIMGA JALB ETISHDA UCHRAYDIGAN MUAMMOLAR



YAPONIYA MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA INKLYUZIYANING TARIXI VA ERTASI

Takako Homma – Yaponiya Kokushikan universiteti Adabiyot fakulteti, Ta'lim kafedrası dotsenti

